

Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F.

CHEK MAMLAKATLAR SOLIQ TIZIMI

TOSHKENT - 2011

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODYOT UNIVERSITETI

F.Sh.ShAMSUTDINOV, Sh.F.ShAMSUTDINOVA

**ChET MAMLAKATLAR SOLIQ TIZIMI
(Darslik)**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy va ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent - 2011

Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet mamlakatlar soliq tizimi (darslik), T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2011. _____ bet

Darslik chet mamlakatlarning soliq tizimi hamda asosiy elementlarining amaliy va nazariy asoslarini kompleks tarzda yoritib beradi. Darslikda chet mamlakatlarning soliq tizimini asosi, xususiyatlari, davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Mazkur darslik iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalariga hamda xalqaro soliqqa tortish masalalari bilan shug'ullannuvchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

Darslik Toshkent moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2006 йил 12-qaydnomasi bilan tasdiqqa tavsiya etilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2006 yil 18 iyuldagi №166 son bilan tasdiqlangan va 2006 yil 21 iyuldagi №BD-5340800-4.06 son bilan ruyxatga olingan namunaviy dastur asosida tayyorlangan.

Ma'sul muharrir: T.X. Jumaev, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: N.M. Maxmudov, iqtisod fanlari doktori, professor

E.A. Akramov, Toshkent Moliya instituti huzuridagi Moliya-bank xodimlarini malakasini oshirish instituti "Moliya va kredit" kafedrasining mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor

Ekspertlar: B.K. Tuxliev, TDIU "Moliya va soliqlar" kafedراسи dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

O.A. Abduvahobov, TDIU Ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Шамсутдинов Ф.Ш., Шамсутдинова Ш.Ф., Налоговые системы зарубежных стран (Учебник), - Т.: Тошкентский государственный экономический университет, 2011, _____с.

Учебник дает комплексное представление о налоговых системах зарубежных стран, об основных элементах налоговых систем, а также их практической и теоретической основах.

В учебнике рассмотрено влияние особенностей налоговых систем на экономическое и социальное развитие государств зарубежных стран.

Учебник предназначен для студентов экономических вузов и специалистов, интересующихся вопросами международного налогообложения.

Учебник подготовлен на основе типовой программы рекомендованной к утверждению протоколом №12 2006 года межвузовским Координационным Советом при Ташкентском Финансовом институте и утвержденный министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистана от 18 июля 2006 №166 и зарегистрированный от 21 июля 2006 года №БД-5340800-4.06.

Ответственный

редактор: Жумаев Н.Х., Ректор Ташкентского Государственного экономического университета, доктор экономических наук, профессор

Рецензенты: Махмудов Н.М., доктор экономических наук, профессор

Акрамов Э.А., заведующий кафедрой «Финансы и кредит» Института повышения квалификации и переподготовки финансово-банковских работников при Ташкентском Финансовом институте, доктор экономических наук, профессор

Эксперты: Тухлиев Б.К., доцент кафедры «Финансы и налоги» Ташкентского Государственного экономического университета, кандидат экономических наук

Абдувахабов О.А., заведующий отделом Мониторинга и внутреннего контроля ТГЭУ, кандидат экономических наук, доцент

Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F., Tax systems of foreign countries (manual book), - T.: Tashkent State University of economics, 2011, _____ p.

This book provides complex presentation about tax systems of foreign countries, about basic elements of tax systems, including their practical and theoretical foundations. In this book there looked effects of regular tax systems on economical and social development of foreign countries.

This book is intended for students of economical institutes and specialists, who are interested in problems of international tax imposing on.

This book has been prepared on basis sample program.

Responsible

corrector: Jumaev N.H., rector of Tashkent state university of economics, professor, Doctor of economical science

Reviewers: Mahmudov N.M., professor, Doctor of economical science

Akramov E.A., Head of department "Finance and Credit" of institute of promotion and regularization for finance and banking skilled workers at the Tashkent Financial institute, professor, Dr. of economical science

Experts: Tukhliev B.K., lecturer of department "Finance and tax" of TSUE, candidate of economics

Abdovakhabov O.A., Head of depart. of monitoring and internal control of TSUE, candidate of economics, lecturer

KIRISH

I. Fanni o'rganishning dolzarbligi. Soliqlar jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida yuzaga kelib, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlanishining natijasi hisoblanadi.

Soliqlar davlatni kelib chiqishi bilan bog'liq. Davlat o'zining funktsiyalarini amalga oshirish uchun ma'lum harajatlarni amalga oshirishi va ularni qoplash uchun soliq va yig'implarni undirilishiga sabab bo'ladi.

Soliqlar iqtisodiyotni boshqarish qurollaridan biri bo'lganligi uchun mutaxassislar doimiy ravishda soliqni yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i to'g'risida fikr, mulohaza yuritib kelganlar.

Soliq yukini optimal darajasini aniqlash bo'yicha qator olimlar ilmiy nazariyalar yaratganlar. Lekin hozirgi kungacha uning mutlaqo to'g'ri darajasi, iqtisodiy kriteriysi aniqlanmagan. Chunki soliqlarni yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq va ular bilan birgalikda o'zgarib turadi. Shuning uchun yaratilgan nazariya va kontseptsiyalar soliqlarning barcha muammolarini to'la echish, iqtisodiyotni barcha savollariga aniq javob hamda tavsiya berishga qodir emasdir.

Lekin to'g'ri yo'l topish uchun boshqa mamlakatlar o'z tarixida, iqtisodiyot va siyosatida bosib o'tgan yo'lini o'rganish katta ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy qonunlar ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, uning amal qilishi barcha uchun barobardir.

Jahon mamlakatlari iqlimi, ularning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar turlarining mavjudligi, xalqlarining urf-odatlar va shu kabilar muayyan bir davlatning soliq tizimiga, amal qiladigan soliq turlariga, ularning undirilishidagi xususiyatlariga bevosita ta'sir etadi. Chet mamlakatlar soliq tizimlari xususiyatlarini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy tomonlariga e'tibor berish, kamchilik va afzalliklarni hisobga olgan tarzda, rivojlanib kelayotgan, hamda jahon mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy integratsiyasini teng huquqli a'zosiga aylangan mustaqil O'zbekiston Respublikasi moliya-byudjet tizimi, soliqqa tortish tizimini mukammallashtirish orqali mamlakatimizni yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qiladigan qonunlar, soliq tizimi muammolarini echishdagi muqobil variantlar, ularni tanlash va qaror qabul qilishda chet el mamlakatlarni amaliyotini o'rganib, tajriba to'plashimiz zarurdir.

Mavzularni yoritilishi tartibida, avvalambor, davlatlarni siyosiy-iqtisodiy hamkorlikdagi ahamiyati asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida mamlakatimiz 2006 yil yanvar oyida Evropa va Osiyo iqtisodiy hamkorligi a'zoliciga qabul qilinishi, davlatimizni jahon bozoridagi mohiyatini yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, taraqqiy etgan mamlakatlarda soliqqa tortish tizimini davlatlarni siyosiy tuzilishiga ko'ra xususiyatlari ham mavzularni guruhlanishida inobatga olindi. Masalan, AQSh, Kanada, Germaniya va Shveysariya federativ va konfederativ davlatlari vakillari sifatida yoritildi. Yaponiya, Hitoy Xalq respublikasi va Misr Arab respublikasi davlatlari esa dunyodagi mavjud soliq tizimi modellariga mansub emasligi, lekin jahon iqtisodiy va siyosiy maydonidagi katta ahamiyatga ega ekanligi, ushbu davlatlarni soliqqa tortish tizimi haqida mavzularni o'rganilishiga turtki bo'ldi.

Har bir mavzuni chuqurroq o'zlashtirish maqsadida asosiy tayanch iboalar, takrorlash uchun savollar, test savollari variantlar tarzida berilgan.

II. Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili. Ma'lumki, jahon tajribasida hozirgi davrda soliqlarni iqtisodiyotni boshqarishdagi roli, uning samaradorligi o'rganilib, muvofiq ravishda amaliy tavsiyalar berish, muqobil variantlarni taqqoslash asosida tanlash va qaror qabul qilishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Darslikda soliq tizimi sohasida jahon tajribasi, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar amaliyotini yoritishga harakat qilindi.

Mazkur adabiyotda ayrim davlatlarni soliq tizimini huquqiy asoslari, soliq turlari, ularning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli yalpi ichki mahsulotga nisbatan tutgan o'rni, soliq yuki, bevosita va bilvosita soliqlarning o'zaro nisbati, ayrim mamlakatlardagi soliq tarkiblarini qiyosiy solishtirish, soliq tizimini rivojlanishida har bir davlatda o'ziga xos xususiyatlarning mavjudligi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishi, ijtimoiy, siyosiy tizimi bilan chambarchas bog'liqligi kabi muammolarni o'rganishga harakat qilingan.

Mualliflar, mazkur darslik jahon mamlakatlarida soliqqa tortish taktika va strategiyasi bilan tanishtirish, ularning mamlakatimiz soliq tizimini yanada rivojlantirish maqsadida soliq tizimi mutaxassislari va talabalar uchun xizmat qilib, kelajakda mamlakatimiz ravnaqi yo'lida o'z hissalarini qo'shishlariga ishonch bildiradilar. Shuningdek, darslik bilan tanishganlar nashr etilgan soliq solishdagi materiallarni tanqidiy shaklda baholab, soliq

amaliyotini tahlil qilish natijasida “Soliq va soliqqa tortish” o’quv fanini o’zlashtirishiga, har bir muayyan davrda iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda yanada mukammalroq soliq kontseptsiyasini yaratish ustida ish olib borilishiga, kasbiy malaka va mahoratini oshirilishiga, tasavvurini kengayishiga hamda xalq xo’jaligimiz uchun mutaxassislarni etishtirilishiga sabab bo’ladi, degan fikr bildiradilar.

Davlatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar moliya-bank tizimini, shu jumladan, soliq tizimini doimiy ravishda takomillashtirish ustida ish olib boradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarida “Jahon iqtisodiy inqirozi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatdan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi” deb ko’satma bergan*.

So’nggi yillari bizning mamlakatimizda qator soliqqa tortish, soliq huquqi haqida ilmiy va amaliy ishlar yaratilmoqda. Soliq tizimi ilmiy fikrlash va ilmiy asoslash kategoriyasiga aylandi.

Bu kategoriya kompleks xarakterga ega bo’lib, iqtisodiy va huquqiy mazmunga ega. Chet mamlakatlarni soliq tizimini yoritilishida mualliflar soliqlarga iqtisodiy - huquqiy kategoriya sifatida tavsif berishgan.

“Chet mamlakatlar soliq tizimi”ni predmeti chet mamlakatlar soliqlarini huquqiy asoslari, tizimi, soliq turlari, ularni prognozlash, hisobga olish, undirish, engilliklar berish bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlardir.

Ushbu kitob Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarda chop etilgan maxsus va o’quv adabiyotlari, boshqa davlatlar soliq tizimini o’rganish va malaka oshirish bo’yicha amaliy va nazariy materiallar, internetdan olingan ma’lumotlar asosida yozilgan. Darslik taqdim etilayotgan shakl, hajm va mazmunda ilk bora o’zbek tilida yaratilgan.

Darslikda Oliy va o’rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Chet mamlakatlar soliq tizimi” fanidan namunaviy o’quv dasturida ko’rsatilgan barcha mavzu va asosiy savollar yoritilgan.

Darslik “Soliq va soliqqa tortish” mutaxassisligi bo’yicha ma’lumot olayotgan oliy o’quv yurtlari, kollej, litsey o’quvchilari, hamda iqtisod, moliya, huquqshunoslik bo’yicha shug’ullanuvchilar, magistr, aspirant, o’qituvchilar va keng ko’lamdagi katta tadbirkorlar uchun katta qiziqish uyg’otadi.

* Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari – T.: O’zbekiston, 2009 y. 27-28 -betlar

I BOB. EVROPA IQTISODIY HAMKORLIGI (EIH) MAMLAKATLARIDA ASOSIY SOLIQLAR VA SOLIQ TIZIMI

1.1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni soliq tizimi.

1.2. Iqtisodiy rivojlangan, etakchi davlatlarni soliq siyosati.

1.3. Jahon iqtisodiyotida milliy soliq tizimlarini bir-biriga moslashishini kelajagi.

1.1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni soliq tizimi

Soliqlarni qo'llanilib kelinishi qadimiy tarixga egadir. Soliq milliy daromadni bir qismi bo'lib, majburiy va qaytarib bermaslik printsipli asosida aholidan va yuridik shaxslardan davlat tomonidan o'z harajatlarini qoplash uchun olinadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, «Soliqda davlatni borlig'ini iqtisodiy ifodasi gavdalanadi».

Quldorlik va feodalizm davrida natural xo'jalik asosiy rolni o'ynagani uchun soliq natural – yig'im sifatida qo'llangan (ozuq-ovqat, armiya uchun ozuq-ovqat, em-xashak va hokazo).

Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan davlatlar daromadida pul soliqlarini roli oshib boradi. Bu har bir kishidan (jon boshidan) olinadigan soliq, yer solig'i va hunarmandchilik soliqlaridir. Bundan tashqari egri soliq hisoblangan aktsizlar ham qo'llanilgan.

Soliqning og'irligi, asosan, dehqonlar zimmasiga tushib, ijaraga olish (ulgurji, ko'tarasiga sotib olmoq) qo'llangandan keyin yana ham og'irlashgan. Ijaraga olish – savdogarlarga ma'lum davrga va ma'lum to'lov asosida aholidan yig'ish uchun davlat soliqlari va boshqa daromadlarni to'plash huquqini beradi. Bundan tashqari, ma'lum tovarlarni sotish huquqiga ham ega bo'ladi. Davlat bilan tuzilgan shartnoma bahosi bilan savdogar yig'ib olgan summasi o'rtasidagi farq uning foydasini tashkil qilgan.

Davlat va xususiy ijaraga olish tizimi quldorlik davridan kelib chiqib, feodalizmni emirilishi va kapitalistik ishlab chiqarish usuli vujudga kelish davrida juda keng tarqalgan va kapitalni boshlang'ich jamg'armasiga asos bo'lgan.

Ijaraga olish tizimi natural xo'jalikning ustunligi, davlat xazinasiga mablag' to'playdigan moliya apparatining "bo'shlik" qilish natijasida yuzaga kelgan.

Birinchi ijaraga olish, eramizdan avval, VI asrda Eronda kelib chiqqan. Gretsiya va Rimda esa eramizdan oldingi IV asrda tarqalgan.

O'rta asrda esa bu tizim Evropada qo'llanilgan. Ayniqsa, Frantsiyada XIII asrda keng rivojlangan. XVI-XVII asrda Italiya, Gollandiya va Ispaniyada bu tizim evolyutsiyasining yuqori darajasiga ko'tarildi.

Angliyada ijaraga oluvchilar davlat kreditori rolini bajarganlar. Rossiyada XV asrni oxiri - XVI asrni boshida ijaraga olish tizimi keng miqyosda qo'llanilgan. Eng taraqqiy etgan turlari – boj, tuz, vino to'lovlarini ijaraga olish bo'lgan.

Davlat xazinasiga tushadigan soliqni 40% dan ortig'i ichimlik solig'idan kelib tushgan. Rossiyada 1863 yili vino to'lovini ijaraga olish bekor qilinib, aktsiz solig'i bilan almashtirilgan. Ijaraga olish Hindistonda XIX asrgacha, Eronda esa XX asrgacha qo'llanilgan.

O'zgacha shaklda ijaraga olish XX asrda ham davom etgan. Masalan, Italiyada ayrim soliqlarni banklar, omonat kassalari tomonidan yig'ilgan. Amerikada ijaraga olish XX asrni boshlarida boqimandani to'plashda qo'llangan. Monopolistik kapitalizm davrida soliq juda keng taraqqiy etadi. Davlatning harbiy, boshqaruv harajatlari ko'payishi bilan soliq hajmi hamda uning turlari ko'payib boradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin har 10 yilda soliq 1,5 marta va undan ham ortiq ko'payib turgan. Keyingi davrlarda rivojlangan davlatlar markaziy byudjetlarini 90% daromadi va mahalliy byudjetlarini 80% daromadi soliqlardan kelib tushgan.

Davlat mulkiga asoslangan korxonalar kam foyda keltiruvchi va zarar ko'radigan bo'lganligi sababli, ularni to'lovlari byudjet daromadini 5-8% ini tashkil qilgan.

O'sish sur'ati bo'yicha soliq yalpi milliy mahsulot hajmini o'sishidan tez hamda uning salmog'i ham oshib borgan.

1984 yili soliqning yalpi milliy mahsulot hajmidagi salmog'i Frantsiyada 45,4%, Buyuk Britaniyada -38,6%, GFR -37,3%, Amerikada -29%, Yaponiyada 27,7% ni tashkil qilgan.

Hozirda rivojlangan davlatlarda soliqni majburiy ravishda hamma sinf vakillari to'laydilar. Lekin yirik kontsernlar dotatsiya va subsidiya ko'rinishida byudjetdan yordam olishlari mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarda keyingi davrda to'g'ri soliqlarni undirish kuchaytirilgan. Ularning ichida asosiy davlat solig'i bo'lib daromad solig'i xizmat qiladi. 1970 yildan boshlab egri soliqlarni olish ham kuchayib ketdi. Bunday vaziyat, ayniqsa, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq kiritilgandan keyin muhim ahamiyat kasb etdi.

Davlat solig'i bilan bir qatorda mahalliy soliqlar ham tez sur'atda o'sa boshladi. Umumiy soliq hajmida ularning salmog'i 80-yillarda AQSh da 30%, Germaniyada –48%, Yaponiyada –30% ni tashkil qilgan.

Soliqni og'irligi yana sotsial sug'urta fondiga badal olish bilan kuchaytiriladi. Germaniya, Frantsiya, Italiyada soliqni 30% dan ko'prog'i bu badallarga to'g'ri keladi.

Sotsial sug'urtaga ajratma mehnatkashlar daromadidan ayirib olinib, AQShda –48%, Frantsiyada –20%, Germaniyada –26% ni tashkil qiladi.

Tadbirkorlar ijtimoiy sug'urtaga ajratmani mahsulot tannarxiga qo'shadilar va uning og'irligi tovar sotib oluvchilar zimmasiga bahoni oshirish orqali yuklatiladi.

Shunday qilib, to'g'ri va egri soliqlar, sotsial sug'urta fondiga badal to'lash davlat xazinasiga pul to'plashning asosiy yo'llari bo'lib, ularning og'irligi asosan kam ta'minlangan aholi zimmasiga tushadi va moliya oligarxiyasini boyishi uchun xizmat qiladi.

Qo'llanayotgan iqtisodiy siyosatga binoan hozirgi davrda rivojlangan davlatlar soliqni iqtisodni boshqarish quroli sifatida ishlatadilar. Shu maqsadda soliq stavkasi, uni undirish usuli, soliq engilligi, skidkasi ishlatiladi. Bu tadbirlar ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiga, muvozanatiga, kapitalni jang'arishga, sotish bozoriga, ishlab chiqarish davrlariga ta'sir ko'rsatadi. Soliq ijtimoiy ishlab chiqarishning I va II bo'limlarini o'sish darajasiga ta'sir qilib, ularni tenglashishiga va I bo'limni II ga nisbatan tezroq rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

Davlat soliq va davlat harajatlari orqali aholining to'lov qobiliyatiga va uning hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Soliq orqali aholi daromadiga ta'sir qilib, kengaytirilgan ishlab chiqarishni davrini boshqaradi va maromiga keltiradi.

Soliq solishni ko'paytirib, aholi daromadini kamaytirib, yoki soliq solish asosida aholi daromadini ko'paytirib davlat kengaytirilgan ishlab chiqarishni bir me'yorda o'sishiga sharoit yaratadi.

Agar umumlashtirilgan holatda tahlil qilinsa, soliq orqali iqtisodni boshqarish chegaralangan xarakterga ega degan xulosaga kelish mumkin. Bu bilan talabni barchasini qamrab olmaydi. Soliq qarama-qarshi kuchlarga ega. Ba'zi vaqtda iqtisodni o'sishiga sharoit yaratish o'rniga unga halaqit ham berishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar (ayrim holatlardan tashqari) har-xil nomlar bilan quyidagi asosiy shakllarga ega: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, huquqiy shaxslardan olinadigan daromad

solig'i, qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq, aylanmaga solinadigan soliq, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma va iste'molga qo'llanadigan maxsus soliq turlari va boshqalar. Tovarlarini ishlab chiqarish va sotish orqali yuzaga keladigan daromadlar va harajatlar oqimini soliqqa tortishdan tashqari to'plangan boyliklarni soliqqa tortish ham yuzaga chiqadi. Ularning asosiy turlari: mol-mulk solig'i hamda meros va hadya solig'i.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tarkibi oxirgi yillari quyidagi belgilar bilan ta'riflanadi:

Birinchidan, ayrim mamlakatlarni iqtisodi daromad turlaridan olinadigan soliqlarga nisbiy bog'liq va o'zgarib turish xarakteriga ega.

Ikkinchidan, 1975 yilgacha iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (OESR) kiradigan mamlakatlarda iste'molga solinadigan soliqlar salmog'i nisbiy o'zgarmagan holda daromad solig'i salmog'i va ijtimoiy sug'urtaga ajratmani salmog'i o'sib bordi. XX asrni etmishinchi yillarini ikkinchi yarmidan iste'molga solinadigan soliqni salmog'i ko'tarilib bordi. Bu, ayniqsa, Daniya, Finlyandiya va Buyuk Britaniya davlatlarida namoyon bo'ldi.

Uchinchidan, iste'molga solinadigan soliq bilan aktsiz solig'ini salmog'i ko'pchilik mamlakatlarda bir xil. Lekin 70-80 yillar birinchini roli oshib bordi, oxirgisi esa pasaya boshladi.

Umumiy qabul qilingan egri va to'g'ri soliqlarni o'rtasidagi farq ham shartli xarakterga ega. Qabul qilinishicha, to'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromad oluvchilardan undiriladi. Ya'ni, ularni daromad oluvchi jismoniy va huquqiy shaxslar to'laydi. Egri soliqlar daromadlarni yoki mahsulotlar aylanmasini ayrim bosqichlarida olinadi va natijada to'lovchining zimmasiga borib tushadi.

Rivojlangan davlatlarni soliq tizimi har-xil iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlarda yuzaga kelgan. Shuning uchun etarli darajada maromiga etgan deb bo'lmaydi va shu sababli iqtisodchilar uni talab darajasiga ko'tarish uchun qator takliflar kiritishgan. Ular quyidagilardan iborat:

- Soliq og'irligi baravar taqsimlanishi zarur. g'ki har bir soliq to'lovchi davlatga o'zining "haqqoniy ulushini" berishi kerak.

- Soliqlar iloji boricha har-xil shaxslar tomonidan iqtisodiy qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. g'ki bu ta'sir juda ham sezilarsiz darajada bo'lishi kerak (soliqqa tortishni betaraflik printsipti)

- Ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda soliq siyosatidan foydalanish soliqlarni tenglik, haqqoniylik printsiplarini buzilishini eng kam darajaga keltirishi kerak.

- Soliq tarkibi va soliq siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va mamlakatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

- Soliq tizimi haqqoniyligi bilan ajralib turishi kerak, taxminiy tushunchalar bo'lmasligi va soliq to'lovchiga tushunarli bo'lishi zarur.

- Soliqni boshqarish va soliq qonunchiligini saqlash harajatlari eng kam miqdorga tushirilishi talab qilinadi.

Ushbu talablar soliq tizimini sifatini baholashda asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Lekin amaliyotda to'g'ri va egri soliqqa tortishni ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun soliqlarni nisbiy to'g'ri va egri soliqlarga bo'ladilar.

Keyingi yigirma yil davomida rivojlangan davlatlarda to'g'ri (daromad solig'i, kompaniya foydasiga solinadigan soliq, ishchilarni ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmasi) va egri (iste'mol solig'i, aktsizlar, tadbirkorlarni ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalari) soliqlarni bir-biriga munosabati quyidagicha bo'lgan:

To'g'ri soliqlarning salmog'i umumiy tushumlar hajmida Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg, Kanada, Yangi Zellandiya, Shveysariya, Avstriya, AQSh, Yaponiyada asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, egri soliqlar salmog'i Frantsiya, Avstraliya, Irlandiya, Gretsiya va Ispaniyada asosiy o'rinni egallagan.

Hozirda bir-biriga yaqinroq, tenglashgan to'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi nisbat Norvegiya, Italiya, Finlyandiya va Shvetsiyada amal qilmoqda.

To'g'ri soliqlarni roli Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Kanada, Yaponiya va AQShda oshgan bo'lsa, egri soliqlar Avstraliya, Italiya, ayniqsa, Shvetsiyada juda yuqori suratlardan bilan o'sishi kuzatildi.

- Umuman olganda iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotini (OESR) tarkibiga kiradigan davlatlarda to'g'ri soliqni salmog'i bir tekisda ko'tarilib borish tendentsiyasiga ega bo'lganligi qayd etildi.

Soliq tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar asosan, iqtisodiy rivojlanish va inflyatsiyani egri soliqqa nisbatan, ko'proq to'g'ri soliqdan keladigan daromadga tavsifi kuchliroqligiga bog'liqdir.

Ushbu ta'sirni baholaydigan mezon ayrim soliqlarni lastikligi yoki egiluvchanligidir. Soliqlarning elastikligi ayrim soliqlardan olinadigan

tushumlarni o'sishi, pasayishi ichki yalpi mahsulotni nominal ifodada o'sishi va pasayishiga bog'liq.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar yig'indisi, ularning shakli va tuzilish usullari soliq tizimi deb yuritiladi.

Rivojlangan mamlakatlarni soliq tizimi quyidagi xususiyatlar bilan ta'riflanadi:

1. Ayrim davlatlarni iqtisodini soliq turlariga bog'liqligi bir xil emasdir va ular o'zgarib turadi.

2. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiradigan mamlakatlarda 1975 yilgacha daromad solig'i, ijtimoiy sug'urtaga ajratmani salmog'i keskin o'sib bordi. Iste'molga solinadigan soliq salmog'ining tarkibi deyarli o'zgarmadi, lekin 70-yillarning ikkinchi yarmidan iste'molga solinadigan soliq salmog'i o'sa boshladi. Ayniqsa bu o'sishlar Daniya, Finlyandiya va Buyuk Britaniyada qayd etildi.

3. Iste'molga solinadigan soliq va aktsiz soliqlarini salmog'i ko'pchilik mamlakatlarda bir xil. Lekin o'tgan asrning 70-80 yillarida birinchisini salmog'i oshib, ikkinchisini esa kamayib bordi.

Umuman daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma hajmi ko'payib bordi. Aktsizlarni salmog'i hamma davlatlarda tushib ketdi, kompaniyalar foydasidan olinadigan soliq deyarli hamma davlatlarda kamayib ketdi.

Umumiy qabul qilingan soliqlarni to'g'ri va egriga bo'lish, bir tomondan daromadlarga soliq solishni anglatadi, ikkinchi tomondan harajatlarga soliq solishni anglatadi. Haqiqatda ularning o'rtasidagi farq nisbiy xarakterga ega va bu soliqlarni to'lovchilar zimmasiga yuklatishga bog'liq.

Kompaniyalarni foydasidan olinadigan soliq to'g'ri soliq hisoblanadi. Agar bu harajat bahoni ustiga qo'yilib sotilsa, egri soliqqa aylanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bahoga qo'shish imkoniyati bo'lmasa, u to'g'ri soliqqa aylanadi.

Faqat to'g'ri va egri soliqlar nisbiy hisoblanadi, lekin to'g'ri va egri soliqqa tortish tizimi bunday hisoblanmaydi. Bu tizim haqiqatda mavjud bo'lib soliqlar yig'indisi asosida to'liq harakat qiladi.

Oxirgi o'n yillikda to'g'ri soliqdan olinadigan daromadni o'rtacha elastikligi 1 dan ortiq, egri soliqniki esa 1 dan past. Bundan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarni soliq tizimi yuqori darajadagi egiluvchanlikka ega. Shuning uchun, ichki yalpi mahsulot o'sishi bilan, ularni "avtomatik" ravishda soliq daromadlari oshadi.

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlar soliq solishni yuqori darajasiga etdilar (davlat tomonidan milliy daromadni bir qismini olish).

Ayniqsa bu masalani ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, soliq solishni yanada kuchaytirish, ko'tarish, jamiyatni iqtisodiy tabiatida sifatli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Bu muammo, eng dolzarb va faol bo'lib, hamma soliq sohasidagi tadbirlar shu masalani echishga qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda har xil atamalar bilan yuritiladigan soliqlarni asosiy shakllari quyidagilar: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, oborot solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma, iste'mol bo'yicha maxsus soliqlar.

Chet el mamlakatlarini ma'lumotlari asosida soliq solish siyosatini asosiy yo'nalishlarini taxminan bilish mumkin.

Soliq oshishini asosiy yo'nalishlarini quyidagicha guruhlar bilan ifodalash mumkin:

- 1) Korporatsiya solig'i va kompaniyalarni foydasiga solinadigan boshqa soliqlar;
- 2) Tadbirkorlarni ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmasi;
- 3) Qo'shimcha qiymat hisobidan beriladigan egri soliqlar;
- 4) Aholidan olinadigan daromad solig'i;
- 5) Soliq tizimini milliy xususiyatini ifodalovchi soliqlar.

Korporatsion va kompaniyalarni foydalaridan olinadigan boshqa soliqlar markaz va mahalliy darajalarda soliq olinadigan sof foydadan ma'lum stavkada olinadi. Bu to'lov soliq olishni asosiy shakli hisoblanadi. Lekin foydadan olinadigan soliqni umumiy daromaddagi salmog'i katta emas. Oxirgi yillari AQShda 8-10%, Buyuk Britaniyada 7,5% va Germaniyada 5%ni tashkil qiladi. Kelajakda buni salmog'i yana tushib borayotgani sezilayapti. Umuman, bu soliqni fiskal ahamiyati katta emas.

Mustaqil daromadga ega bo'lgan shaxslardan daromad solig'i olish mazmunan foydadan olinadigan soliqqa o'xshaydi. Bu daromadlar dividend, foiz, renta va fuqarolarni (tijorat) faoliyatidan olinadigan daromatlardan tashkil topadi. Soliq jismoniy shaxslarni sof daromadidan olinadi. Shuning uchun ham o'xshash hisoblanadi. Umumiy daromadda uning salmog'i ham katta emas. Masalan, oxirgi yillarda AQShda 10-14%, Buyuk Britaniyada 6-7% va Germaniyada 5-7%ni tashkil qildi. Bu soliqdan olinadigan daromad dinamikasi barqaror emas va tushib borish tendentsiyasi sezilmoqda. AQShda 1986 yilgi soliq islohotida bu soliqda

progressiya kamaytirilgan. Ayniqsa, maksimal shkala va stavka darajasi pasaytirilgan. Bundan tashqari dividendlarni ikki marta soliqqa tortish bo'shashib borayapti.

Katta daromadlar bo'yicha progressiyani kamaytirib dividendlarni ikki marta soliq solishdan ozod qilishdan maqsad, aksioner kapitalni yangi investitsiyalarni moliyalashtirish, jamg'arma to'plashda soliq to'sqinligini kamaytirib, yashirincha iqtisodni chegaralashdan iborat.

Ijtimoiy sug'urta fondiga tadbirkorlarni ajratmasi ish haqi fondiga nisbatan qat'iy belgilangan yoki proporsional stavka bilan olinishi ko'zda tutilgan. Ajratma ishlab chiqarish harajatiga kiradi va ishchi kuchini kengaytirilgan asosda ishlab chiqarish uchun qaratilgan. Ajratma davlatga ham, tadbirkorga ham qulay to'lov shakli hisoblanadi. Davlatga bu katta daromad manbai, tadbirkorga esa uning og'irligi korporatsion soliq bo'yicha soliq olinadigan foydani pasayishi hisobiga kamaytiriladi. Bundan tashqari, bu harajat mahsulot bahosiga kiritilib iste'molchi zimmasiga o'tqaziladi. Masalan, bu soliq AQShda -15%, Buyuk Britaniyada -13% va Germaniyada -25% ortig'ini tashkil qilgan. Ushbu soliq shakli barqaror xarakterga ega bo'lib oxirgi yillarda o'sish tendentsiyasiga egadir.

Egri soliqlar. Iste'moldan olinadigan ushbu soliq tadbirkorlar ajratmasiga o'xshash xarakterga ega va soliq olishni asosiy shakllaridan hisoblanadi. -AQShda 8-9%, Buyuk Britaniyada 20% ortiq, Germaniyada 18%ni tashkil qilmoqda.

Ushbu to'lovni ahamiyati Buyuk Britaniyada yildan-yilga oshib bormoqda, AQSh va Germaniyada esa barqaror bo'lib qolmoqda. Bular da bu soliqlarni farqi shundan iboratki, AQShda bu soliqlar shtat va mahalliy organlarga qarashli, Buyuk Britaniya va Germaniyada esa u umumdavlat solig'i hisoblanadi. Iste'moldan olinadigan egri soliq AQShda asosan sotishdan olinadigan soliq bo'lib, Buyuk Britaniya va Germaniyada esa u qo'shilgan qiymat solig'i shakllarida qo'llaniladi. Bu soliqlar keng iste'mol tovarlariga qo'llanib, bir qancha yuqori stavkalarda olinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i, o'zining afzalliklari bilan keng miqyosda tarqalib bormoqda va kelajakda soliq yig'ishning asosiy metodlaridan biri bo'lib qoladi.

Yollanma ishchilarni (nominal ish haqidan) daromadidan olinadigan soliq o'z tarkibiga daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalarni qamrab oladi. Buyuk Britaniya va Germaniyada uni salmog'i sezilarli katta, ya'ni 17 dan 25% gacha, AQShda esa ancha past.

Daromadni soliqqa tortish tizimi deyarli hamma rivojlangan mamlakatlarda bir xil. Lekin ularning har birida qo'shimcha usullari mavjud bo'lib, o'z milliy xususiyatlariga egadir.

Soliq tizimining umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- hamma soliq to'lovchilar rezident va nerezidentlarga bo'linadi. Rezident deb hisoblash uchun asosiy belgi- jismoniy shaxs shu mamlakatda 6 oydan ortiq bo'lishi kerak. Soliq to'lovchilarni rezident va nerezidentga bo'lishdan maqsad rezidentlar daromad solig'ini ichki va tashqi manbalaridan to'laydilar. Ya'ni, soliq javobgarligini global daromadi bo'yicha taqdim etadilar. Nerezidentlar faqat shu mamlakatda olgan daromadlari yuzasidan chegaralangan soliq javobgarligini beradilar.

- daromad solig'i undirilishida boshlang'ich asos - soliq to'lovchini umumiy daromadi hisoblanadi. Bu daromadga har-xil manbalar kiradi: ish haqi, nafaqa, natural shaklida haq to'lash va hokazo.

Daromad solig'i olishda umumiy daromad bilan soliq solinadigan daromad bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Soliq stavkasi so'nggi daromadga nisbatan qo'llaniladi. So'nggi olingan daromad umumiy daromaddan soliq bo'yicha qonuniy berilgan imtiyozlar summasiga farq qiladi.

Ushbu imtiyozlar soliq olinmaydigan minimum, kasb bo'yicha harajatlar, oilalar uchun imtiyozlar, farzandlar uchun imtiyozlar, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalardan tashkil topadi.

Ko'pchilik davlatlarda universal imtiyoz bo'lib soliq olinmaydigan minimum hisoblanadi. Imtiyozlarning qolgan turlari ayrim davlatlardagina beriladi. Masalan, Frantsiya, Germaniya, Yaponiyada qo'llanadi. Italiyada umumiy daromad soliq olinadigan daromadga teng bo'ladi. Bu davlatda ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma berilgandan keyin umumiy daromad soliq olinadigan daromadga teng bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda umumiy daromaddan soliqdan imtiyoz berish soliq imtiyozlarini asosiy shakli hisoblanadi. Soliq summasini kamaytirish qo'llanilmaydigan hollarda soliqni hisobga olinishi yoki daromad solig'i bo'yicha to'lovchini soliq majburiyatini kamaytirish qo'llanadi.

Soliq imtiyozlaridan (skidka, zachyot) tashqari ayrim rivojlangan mamlakatlarda bolalarga davlatdan to'g'ridan-to'g'ri to'lov beriladi, bu esa daromadni soliqqa tortishni kamaytiradi. Oilani daromadi belgilangan chegaradan yuqori bo'lmagan hollarda to'lovni hajmi bolalarni soniga bog'liq, chegaradan yuqori bo'lsa to'lov chegaralanadi.

Yuqorida keltirilgan doimiy soliq imtiyozlari bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan davlatlarda vaqtinchalik imtiyozlar qo'llaniladi.

Bu imtiyozlar ma'lum guruh harajatlariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu harajatlarga quyidagilar kiradi: zayomlar bo'yicha foizlar, hayotni sug'urta qilish badali, ayrim professional harajatlar va hokazo.

Daromad solig'ining stavkasi, qoida bo'yicha, progressiv shaklda qo'llanilib, ular murakkab progressiv stavkalar tartibida tuziladi. Oxirgi yillari yuqori stavkalar keskin pasayib ketdi va stavkalar soni kamaydi. Proportsional stavkaga o'tish darajasini yuksalishi kuzatilmoqdadir. Angliyada asosan 2 ta stavka -25 va 40% li stavkalar qo'llaniladi. Italiyada esa yuqori stavka 56% ga va Yaponiyada 60% ga tushirilgan.

Ishlaydigan er va xotin daromad solig'ini ixtiyoriy, daromadlarini umumiy yig'indisidan to'laydilar, yoki ixtiyoran har biri alohida to'laydi. Ba'zi davlatlarda qo'shilgan umumiy daromaddan soliq kamroq to'lanadi. Qoida bo'yicha daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma ish haqi kabi manbalardan ishxonada to'lanadi. Boshqa turdagi daromadlardan soliq er-xotin birgalikda yoki alohida yozgan deklaratsiyalari asosida olinadi.

1.2. Iqtisodiy rivojlangan, etakchi davlatlarni soliq siyosati

Bu davlatlarda soliq siyosati, oxirgi yillari "takliflar iqtisodi" nazariyasiga asoslangan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar 1970-1980 yillari iqtisodiy krizisga uchradilar (inflyatsiya, iqtisodiy o'sish darajasi pasaydi, ishsizlar ko'paydi, hufiya iqtisod rivojlandi va hokazo).

Bu holatdan chiqib ketish uchun soliq stavkasi chegarasini keskin tushirish taklif qilindi.

Takliflar iqtisodida asosan «A.Laffer egrisi» etakchi nazariya hisoblanib, unda soliqlarni kamaytirish ko'zda tutilgan. «A.Laffer egrisi» bo'yicha byudjetga soliqni kelib tushishi, soliq stavkasi va ishlab chiqarish darajasi bir-biri bilan bog'liq. Soliq stavkasini ko'tarish Laffer fikricha, soliq tushumi ishlab chiqarishni pasayishi hisobiga ko'payadi.

Shu maktabni vakili M.Feldsteyn daromad solig'ini stavkasini 42% qilib belgiladi. Amerikadagi soliq islohotining muallifi senator Bredli va R.Gefardt 30-35% li darajani taklif qilishdi. M.Fridmen 25%gacha tushirdi.

«Laffer egrisi» bo'yicha soliqning mukammal stavkasi D.Keyns ko'rsatgan 20% va frantsuz prezidenti Jiskar D'Esten taklif qilgan 40%

o'rtasida bo'lishi belgilangan.

Ayrim davlatlarda 1980-1990 yillarda o'tkazilgan soliq islohotlari natijasida soliq stavkalari pasaytirildi: masalan, korparatsiya foydasidan olinadigan soliq 36% gacha va shaxsiy daromad solig'i 47% gacha tushirildi.

1.1-jadval

Evropa hamkorligi mamlakatlarining ba'zilaridagi soliqlar darajasi.*

	Korporatsiya foydasiga solinadigan soliqni yuqori stavkasi, %	Shaxsiy daromad solig'ini yuqori stavkasi, %
Buyuk Britaniya	33,0	40,0
Italiya	53,2	51,0
AQSh	39,0	39,6
Frantsiya	33,3	56,8
Germaniya	45,0	53,0
Yaponiya	37,5	50,0
Shveytsariya	9,8	11,5
Finlyandiya	28,0	61,0
Kanada	38,0	29,0

Takliflar iqtisodi, davlatni faol fiskal siyosatiga asoslangan Keyns kontseptsiyasi soliq xolisligi kontseptsiyasi bilan almashtirildi. Bu kontseptsiya asosida davlat iqtisodga to'g'ridan to'g'ri emas, bilvosita aralashishi yotadi. (Katta soliq soliqni barbod qiladi). Shu nuqtai nazardan, soliq uni to'lovchiga og'ir yuk bo'lmasdan, iqtisodni rivojlantirish uchun qiziqtiruvchi omil bo'lishi kerak, deb ta'kidlash mumkin.

Har bir davlatda yuqori soliq stavkasi sharoitida soliq to'lashdan bosh tortish iqtisod sub'ektlari o'rtasida naqd pul hisob-kitoblariga o'tish, foydani yashirish kabi muammolarni tug'diradi.

1970 yillarni oxiri va 1980 yilni boshlarida davlatlarni «Soliq bosqinchiligi» davrida hufiyona sektorni oboroti keskin oshganligi qayd etildi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda hufiyona iqtisod sohasida AQShda ichki yalpi mahsulotning 15% i yaratiladi. Bunga har to'rttadan bitta ishlovchi jalb qilingan. Raqamlar e'tiborni o'ziga tortib, takliflar

* Сутырин С.Ф. Налоги, налоговое планирование в мировой-экономике. М.1998 стр 21

iqtisodi yondoshuvchilari past soliq stavkalari hufiyona biznes bilan kurashishni samarali quroli deb hisoblaydilar.

Takliflar iqtisodi tarafdorlarini yana bir maqsadi har xil kompaniya va iqtisodiyotni ayrim tarmoqlariga soliq engilliklarini berishni bekor qilish, ularning fikricha, yoki yuqori darajadagi soliq ko'p miqdordagi soliq engilliklari berish, yoki past soliqlar soliq engilliklarini bekor qilishga olib keladi.

1980 yillarni o'rtalarida AQShda korporativ sektoriga berilgan engilliklar federal byudjetni 1 mlrd. dollar potentsial soliq summasini yo'qolishiga olib keldi. Bu ko'rsatkich 1995 yili 2,5 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Soliq islohotlari davrida bu engilliklar nisbatan kamaytirildi. Birinchilik, ustunlik investitsiyaga beriladigan soliq engilliklari uchun saqlanib qoldirildi. Chunki bu engilliklar kelajakda kompaniyalarni foydasini oshiradi va natijada davlatni soliq daromadini ko'paytiradi.

Soliq islohotlari o'tkazilishiga qaramay, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda soliq olish darajasi bir-biridan keskin farq qiladi.

Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq stavkasi 43% ga (Italiya va Shveytsariya), shaxsiy daromad solig'i bo'yicha esa (Finlyandiya va Kanada) 32%ga farq qiladi.

Tabiiyki, bunday disproportsiyalar A.Smit ko'rsatganidek, kapital va mehnat resurslari qulay soliq iqlimi yaratilgan mamlakatlarga o'tib ketadi. Bu o'z navbatida kapital oqib ketgan davlatni iqtisodiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatdan kapitalni «haydab chiqaruvchi soliq», daromad manbalarini, davlat va butun jamiyat daromadini muqarrar nobud (isrof) qiladi.

Hozirgi zamon misolida kapitalni «haydab chiqarishni» quyidagi misollarda ko'rish mumkin. Faqat 1994 yili Frantsiyadan 50 mlrd. dollar kapital oqib ketdi va asosan engil soliq solish tartibi o'rnatilgan davlatlarga borib joylashdi.

Rossiya federatsiyasi iqtisodini chet el investitsiyasiga bo'lgan talabi 140 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Tashqi davlatlarga o'tib ketgan Rossiyani «qochqin» kapitali 100-300 mlrd. dollar hisobida baholangan. Kapitalni «qochib ketishi» faqat Rossiyani soliq tizimi emas, balki soliq omillariga ham bog'liqdir.

Jahon iqtisodida soliq solish darajasi turli xillarda bo'ladi.

Soliq og'irligi bo'yicha jahon mamlakatlarini taxminan ikki guruhga

bo'lish mumkin.

1. Yuqori stavkalarda soliq undiruvchi mamlakatlar
2. Murosasozlik (liberal) tartibida soliq solish davlatlari

Yuqori darajada soliq soluvchilarga iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kiradi. Foydaga solinadigan soliq va shaxsiy daromad solig'ining stavkalari 30-60%ni, foiz, dividend, royaltiga taqsimlangan foydaga solinadigan soliq 15-35% ni tashkil etadi.

Bu davlatlarda kompaniyalarni tashkil qilish marosimi moliyaviy hisobot ustidan nazorat, soliq qonunlari buzilganda jarima va jinoiy javobgarliklarga tortish qattiq tartibda olib boriladi.

Ikkinchi guruh - past soliq qo'llash huquqiga ega mamlakatlar. Ba'zida «soliq gavani» (bandargohi), «soliq oazisi», «soliqdan himoyalangan pana joy» deb ham ataladi. Ular o'z navbatida 3 guruhga bo'linadi.

1. Jismoniy va yuridik shaxslardan to'g'ri soliqlar olinmaydigan yurisdiksiyalar. Bularni «toza» soliq bandargohlari yoki soliqsiz yurisdiksiyalar deb ham yuritiladi.

Bu mamlakatlarda kompaniyalar va jismoniy shaxslarni ayrim daromadi va mulklari uchun daromaddan olinadigan soliq, foydaga solinadigan soliq, meros va hadya qilingan mollardan, mulkdorchilikdan olinadigan soliqlar qo'llanmaydi.

Kompaniyalar va jismoniy shaxslardan biznes olib borish uchun qat'iy belgilangan har yilda olinadigan bojlar, bir martalik ro'yhatga olish yig'imlari kabi egri soliqlar olinadi. Egri soliq olish darajasi yuqori emas. Masalan, Karib regionida kompaniyalar uchun har yilgi to'lov faqatgina shartli 100-1600 dollarni tashkil qiladi. Bu o'z navbatida daromadidan soliq to'lovchilarga juda qulay sharoitni yaratib berilishini anglatadi. Katta daromad olib, shartli summani faqat ramziy sifatda to'lanadi. To'g'ri soliqlar olinmaydigan davlatlarga Andorra, Bagam, Bermud, Kayman orollari, Nauru, Vanuatu, Terks, Kaykos, Farer orollari kiradi.

2. Past darajali to'g'ri soliq olinadigan yurisdiksiyalar.

Foydaga solinadigan soliq, shaxsiy daromad solig'i stavkalari ayrim guruh soliq to'lovchilarga 30% gacha kamaytirilib qo'llaniladi, va ayrim hollarda soliq stavkasi 10% dan ortmaydi. Bu «soliq oazis»larida stavkalarni boshqa hududlarga nisbatan past stavkada o'rnatilishi daromad oluvchi soliq to'lovchilarni bu yerda soliq qonunchiligi bilan o'zaro «hisob-kitob»ini o'z manfaatini ko'zlab amalga oshirishiga olib keladi. Va yana bir bundan kelib chiqadigan xulosa shundaki, jalb qiluvchi ta'sirga

ega bunday sharoitlar shu regionlarning turmush darajasini o'sishiga olib keladi. Chunki, bu shartlardan foydalanish uchun ko'p soliq to'lovchilar bu yerda o'z faoliyatlarini qayd ettirib, hududlar byudjetiga oz-ozdan katta mablag'lar tushirib beradilar.

Bu guruhga Britaniya, Virginiya orollari, Kipr, Gibrallar, Vengriya, Isroil, Shveytsariya kiradi.

Bu guruhni yana, shu bilan bir qatorda, o'zining yuridik va jismoniy shaxslari chet eldan oladigan daromadlari bo'yicha soliqdan ozod qilinadigan davlatlar tashkil etadi: Kosta Rika, Gonkong, Liberiya, Malayziya, Panama va boshqalar kiradi.

3. Yuqori soliq stavkali yurisdiksiyalar.

Bu mamlakatlarda ayrim kompaniyalarga soliq ustunligi beriladi. Ayrim iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar chet el investitsiyasini keltirish, tashqi iqtisodiy aloqani rag'batlantirish uchun shu bilan shug'ullanadigan kompaniyalarga maxsus soliq olish tartibi o'rnatadilar. Foydadan olinadigan soliq stavkasini tushirish engilligi bilan bir qatorda, taqsimlanadigan foydadan olinadigan soliq stavkalari ham pasaytiriladi: Belgiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Niderlandiya davlatlari bunga misol bo'la oladi.

Yana shuni ko'rsatish kerakki, soliq gavanlaridagi davlatlar jismoniy va yuridik shaxslarni soddalashtirilgan soliq hisobotlarini qo'llaydi, ayrim davlatlarda soliq to'lamaslik, daromadlarni yashirish jinoiy javobgarlik hisoblanmaydi.

Jahon iqtisodiyotida yuqori darajada soliq oluvchi va soliq gavanlari o'rtasida kapital qo'yilma va ishchi kuchini qaytadan taqsim qilish uchun keskin va qattiq konkurentsia, kurash olib borilmoqda.

1.3. Jahon iqtisodiyotida milliy soliq tizimlarini bir-biriga moslashishni kelajagi

Hozirgi zamon tijorat faoliyatini dunyo miqyosi darajasiga ko'tarilishi milliy iqtisodiyotlarni yagona iqtisodiyot siyosatiga o'tishi soliq tizimini ham moslashishini talab qilayapti.

Bu milliy soliq siyosatini muvofiqlashtirish, soliq solish darajasini yaqinlashtirish, soliq bazasini aniqlashni bir usulda olib borish, soliq engilliklarini berish xususiyatlarini bir-biriga o'xshatish masalalaridan iborat.

Hozir butun dunyo miqyosida soliq tizimini moslashishi to'g'risida fikr yuritish ertadir.

Amaliyot nuqtai-nazaridan hududlar bo'yicha integratsiya qilish imkoniyati mavjud. Bu sohada Evropa ittifoqida (EI) katta yutuqlarga erishilgan.

Soliq tizimini bir-biriga moslashtirish masalasi Evropa ittifoqini tashkil qilishda yuzaga keldi. Ittifoqni tuzishda tovarlarni, xizmat, kapital, ishchi kuchini ozod harakat qilish uchun soliq to'sig'ini olib tashlash zaruriyati tug'ildi.

Soliq siyosati har bir davlat tomonidan mustaqil olib borilgani uchun yagona Evropa soliq tizimini tashkil qilishi mumkin bo'lmadi. Buni o'rniga har bir davlat qonunchiligida belgilangan tartiblarni bir-birga yaqinlashtirish, bir-biri bilan solishtirib bo'ladigan darajaga keltirish, Evropa davlatlarini birlashishi vazifasiga bo'yinsindirish masalalari echila boshlandi.

Evropa Ittifoqida soliqlarni moslashtirish quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

A) Xo'jalik sub'ektlari bir xil konkurentsia sharoitiga ega bo'lishlari uchun soliq chegaralarini qisqartirish;

B) Hududda asosiy integratsiya jarayonini harakatlantiruvchi Evropa Ittifoqi ichki bozorini birlashtirish va bir darajaga keltirish;

V) Soliq tizimini tarkibini, asosiy soliqlarni to'plash tartibini hamma davlatlarda bir-biriga yaqinlashtirish.

Evropa Ittifoqida soliqlarni moslashtirish birinchi navbatda qo'shilgan qiymat solig'i va aktsizlarni moslashtirish va kompaniyalarni soliqqa tortishni bir xil ko'rinishga keltirish asosiy yunalish qilib belgilandi.

Qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlarni moslashtirish soliq sohasida birinchi qadamlardan hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat soligi 1954 yili Frantsuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan oborot solig'i o'rniga taklif qilindi. Evropa Iqtisodiy Ittifoqi (EES) 1967 yili bosqichma-bosqich bu to'lovni kiritishni tavsiya qildi.

Finlyandiya Evropa Ittifoqiga kirishi uchun 1994 yili qo'shilgan qiymat solig'ini mamlakatda tadbiq qilinishini talab qilishgan.

Soliq stavkalarini yaqinlashtirish uchun 1993 yili uning eng kam stavkasi 15% belgilandi. Lekin ayrim mahsulotlar bo'yicha undan past yoki yuqori qilib belgilangan. Chetga Evropa Ittifoqi mamlakatlaridan eksport qilinsa va Evropa Ittifoqidagi davlatlar bir-biriga mahsulot eksport qilsa qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari Buyuk Britaniyada -17,5%, Daniyada -25%, Lyuksemburg- 15, FRG- 16, Frantsiya-20,6% ni tashkil

etadi. O'rtacha Evropa Ittifoqi bo'yicha 19,3%. Evropa Ittifoqi davlatlari o'zaro kliring hisob-kitob usulini qo'llaydilar. Kliring importёр davlatlarni ortiqcha daromadlarini qoplaydi.

Eksporterlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydilar. Har bir davlat uni hisobini olib boradi va har oyda Evropa Ittifoqi markaziy hisob raqami orqali qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tashqi iqtisodiy aloqa sohasida kompensatsiya beriladi.

Aktsiz soliqlari orqali turizm rivojlangan davrda qaysi davlatdan qo'proq tovar sotib olinsa va xizmatdan foydalanilsa o'sha davlatga ko'proq daromad keladi. Shuning uchun aktsiz solig'ini darajasini Evropa Ittifoqi davlatlarida bir xil qilishga harakat qilinadi. Soliq stavkalarini ko'tarmaslikka qaror qilingan hujjatlar qabul qilingan. Benzin, vino-aroq ichimliklari, tamaki mahsulotlari bo'yicha soliq stavkalarini o'zgartirilmasligi kelishilgan.

Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishini moslashtirish ham muhim o'rinni egallaydi.

Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda qo'yidagi moslashtirishlar kuzda tutilgan:

A) Soliq stavkalarini bir-biriga yaqinlashtirish;

B) Soliq bazalarini bir xil turga keltirish;

V) Ikki tomonlama iqtisodiy soliq solishni yo'qotish;

G) Evropa kompaniyasi deyilgan maxsus statusni qo'llash;

D) Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda davlatlarni bir-biriga yordam berishi.

A) Soliq stavkalarini bir-biriga yaqinlashtirish:

Evropa hamkorligi davlatlarida hozir kompaniyalarni soliqqa tortish stavkasi tabaqalashtirilgan bo'lib, soliqlarni moslashtirish uchun o'rtacha stavka 30-40%li bo'lishi tavsiya qilingan. Lekin ayrim davlatlarni soliq tizimini xususiyatlarini hisobga olib stavka yuqori va past ham bo'lishi mumkin.

Evropa hamkorligi davlatlarida soliq stavkalarini darajasini bir-biriga yaqinlashtirish uchun etarli shart-sharoitlar mavjuddir. Birinchidan, ularning nisbatan katta bo'lmagan regionda yonma-yon, jips joylashgani, geografik iqlimining o'xshashligi. Ikkinchidan esa, bu davlatlarning paydo bo'lish davri va ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning tarixi nisbatan bir xil darajada rivojlanishi, nihoyat, iqtisodiy rivojlanishi darajasini nisbatan teng sur'atlar bilan o'sishi. Stavkalarining bir-biriga yaqinlashtirilishi daromadlarni bir davlatda ko'pligi, ikkinchisida esa,

uning taqchilligiga olib kelishi mumkin. Ya'ni stavkaning bir davlatda yuqori, boshqasida past bo'lishi soliq to'lovchilarni past stavkali davlatlarda daromad olishiga va o'z hududidan chetga chiqishiga ya'ni xizmat bo'yicha migratsiyaga majbur qiladi. Bu esa o'z navbatida ishchi kuchi ko'payib ketgan davlatlarda qo'shimcha mablag'lar talab etadigan ijtimoiy infratuzilmalarni qurishga sabab bo'ladi. Shu maqsadda, hududlarda bir-biriga kapital, ishchi kuchi oqimlarini o'tib borishiga chek qo'yish uchun stavkalarni darajasini bir-biriga yaqinlashtirish zarurdir.

Shvetsiya Ittifoq a'zosi bo'lganidan keyin asosiy daromad solig'i stavkasini 52-57%dan 30% darajagacha tushirilgan.

B) Soliq bazalarini bir xil turga keltirish:

Hisobot va foyda (zarar) hisob raqamlari orqali foydani aniqlashda bir xil uslubni qo'llash, amortizatsiya, tijorat faoliyatidan olinadigan foyda va zararni aniqlash, foydani oldingi yoki keyingi yilga o'tqazish masalalari yuzasidan bir xil qonunchilik tizimini ishlab chiqish kerak. Soliq bazasini yaqinlashtirish va boshqalar milliy soliq siyosatini o'tkazishga halakit beradi va bu vaziyatdan shu davlatlar aholisida norozilik paydo buladi. Bu kelishmovchiliklarni bartaraf qilish uchun ayrim Evropa Ittifoqi davlatlari birtomonlama korporatsiyalarga soliq skidkasi yoki subsidiyalari berishi mumkin.

Yuqoridagi bandeda qayd etilganidek, soliq bazasini tuzilishini bir xil turga keltirish stavkalar kabi katta ahamiyat kasb etib, to'lanadigan soliq summaga ta'sir etuvchi soliq bazasini shakllanishini bu davlatlarda o'xshash ko'rinishga keltirish talab etiladi.

V) Ikki tomonlama soliq solishni chegaralash:

Har bir davlat ikki tomonlama soliq solishni yo'qotish uchun o'ziga xos tizimini ishlatadi. Soliq to'lovchini daromad yoki boshqa aynan bitta soliq manbasini o'zi bir vaqtni o'zida 2 ta yoki undan ortiq davlatlarda soliqqa tortilmasligi kerak.

Masalan, taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan foydaga har-xil stavkalarni qo'llash, taqsimlanadigan foydani to'liq va qisman soliqdan ozod qilish. Hozir «to'liq hisobga o'tkazish tizimi»ni qo'llashga ahd qilindi. Bunda hamma davlatlarda taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan foydaga yagona stavkalar qo'llash ko'zda tutiladi. Bunda dividendlarni soliqqa tortish 25% darajasida bo'ladi.

G) Evropa kompaniyasi deyilgan maxsus statusni qo'llash:

Bir necha davlatlarda tijorat operatsiyalarini olib boradigan kompaniyalarda maxsus soliq solish tartibi qo'llaniladi. Bosh va uning

bo'limlari bo'lgan kompaniyalarga engilliklar qo'shilish va bir-birini «yutib yuborish» yo'llari bilan beriladi (masalan, dividendlarni ikki tomonlama soliq solishdan ozod qilish.) Ularga maxsus soliq engilliklari ham beriladi.

D) Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda davlatlarni bir-biriga yordam berish:

Soliq to'lashdan bosh tortishga qarshi kurashish maqsadida ko'p tomonlama soliq shartnomasi tuziladi va hamma davlatlar ma'lumotlar almashish to'g'risida kelishadilar.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Evropa davlatlarida soliqlarni moslashtirish belgilangan maqsad darajasiga etgani yo'q. Ayrim davlatlar Evropa Ittifoqi markaziy organlari bilan to'liq kelisha olmagan.

Moslashtirish muammosi o'z echimini kutmoqda.

Asosiy tayanch iboralar:

1. Soliqlarni ijaraga olish tartibi
2. Rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan asosiy soliqlar
3. Soliq yuki, soliqlarni betaraflik, haqqoniylik va tenglilik printsiplari
4. To'g'ri va egri soliqlar
5. "Takliflar iqtisodi", A. Laffer egrisi, Keynsni soliq xolisligi kontseptsiyalari

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni tarkibini keltiring
2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar iqtisodni boshqarishda soliqdan qanday foydalanadilar?
3. Rivojlangan mamlakatlarni soliq tizimini asosiy uchta xususiyatlari
4. «Soliq bosqinchiligi» va hufiyona sektor aylanmasini keskin o'sishi (1970-80 yillar)
5. Jismoniy va xuquqiy shaxslardan to'g'ri soliqlar olinmaydigan yurisdiksiyalar, past darajada to'g'ri soliq olinadigan yurisdiksiyalar va yuqori soliq stavkali yurisdiksiyalarni tavsifini berin.
6. Milliy soliq tizimlarini bir-biriga moslashishni kelajagi qanday?

Test savollari:

1. To'g'ri soliq turiga mansub to'lovni aniqlang:

- a) Boj
- b) Jon boshiga solinadigan soliq
- c) Aktsiz
- d) Tuz to'lovi
- e) Vino to'lovi

2. Ilmiy asosda tadbiq qilingan soliqni ishlab chiqarishga asosiy ta'siri:

- a) Rivojlantiradi
- b) Pasaytiradi
- c) Bir me'yorda ushlab turadi
- d) a,b,c
- e) Hammasi noto'g'ri

3. Qaysi davrda iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiradigan mamlakatlarda iste'molga solinadigan soliqni salmog'i keskin ko'tarildi?

- a) 1950-1960 y.y.
- b) 1960-1970 y.y.
- c) 1970-1980 y.y.
- d) 1980-1990 y.y.
- e) 1990-2000 y.y.

4. Qaysi mamlakatda to'g'ri soliqning salmog'i eng yuqori?

- a) Germaniya
- b) Frantsiya
- c) AQSh
- d) Buyuk Britaniya
- e) Italiya

5. Korporatsiya va kompaniyalar foydasidan olinadigan soliq umumiy daromadni asosan qanday qismini tashkil qiladi?

- a) 20-30%
- b) 15-25%
- c) 30-35%
- d) 5-10%
- e) 35-40%

6. Qaysi daromad soliq olinadigan ob'ekt hisoblanadi?

- a) Mahsulotni sotishdan tushum

- b) Mahsulot va mulkni sotishdan olinadigan tushumlar
- c) Sotishdan tushumlar va boshqa kirimlar (foiz, dividendlar).
- d) Daromadni olish bilan bog'liq harajatlarni chiqarilgandan keyingi daromad

e) Hammasi to'g'ri

7. Daromad solig'ini olishda asosan qaysi stavkalar qo'llaniladi?

a) Progressiv

b) Regresiv

c) Oddiy progressiv

d) Murakkab progressiv

e) Hamma stavkalar to'g'ri

8. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliqni eng yuqori stavkasi asosan necha foizgacha boradi?

a) 10-20%

b) 20-25%

c) 30-35%

d) 40-50%

e) 50-55%

9. Shaxsiy daromad solig'ini yuqori stavkasi asosan qaysi darajada?

a) 10-20%

b) 20-30%

c) 30-40%

d) 40-50%

e) 50-60%

10. Jismoniy va huquqiy shaxslardan to'g'ri soliqlar olinmaydigan yurisdiksiyalar:

a) Misr Arab Respublikasi, Italiya, Isroil, Siriya, Iroq

b) Meksika, Peru, Kanada, Irlandiya

c) Andorra, Bagama, Kayman orollari, Nauru, Vanuatu Farrer orollari

d) Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Shvetsiya

e) Daniya, Norvegiya, Polsha, Ruminiya

11. Past stavkalarda to'g'ri soliq olinadigan yurisdiksiyalar:

a) Daniya, Norvegiya, Turkiya, Iroq

b) Britaniya, Virginiya orollari, Kipr, Gibraltar, Vengriya, Isroil, Shveytsariya

c) Misr Arab Respublikasi, Peru, Kanada, Shvetsiya

d) Italiya, Iroq, Gollandiya, Ispaniya, Peru

e) Meksika, Irlandiya, Braziliya, Argentina

12. Yuqori soliq stavkali yurisdiksiyalar:

- a) Belgiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Niderlandiya
- b) Italiya, Norvegiya, Turkiya, Portugaliya
- c) Peru, Argentina, Frantsiya, Ruminiya
- d) Shveytsariya, Iroq, Pokiston
- e) Hammasi noto'g'ri

13. Evropa Ittifoqiga qarashli mamlakatlarda birinchi navbatda qaysi soliqlar moslashtiriladi?

a) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq, huquqiy shaxslar foydasiga solinadigan soliq

b) Mol-mulk solig'i, meros va hadyaga solinadigan soliqlar

c) Qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar

d) Yer solig'i, kapitalga solinadigan soliq

e) Transprot vositalaridan olinadigan soliq, hunarmandchilik solig'i

14. Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda qanday moslashtirishlar kutilmoqda?

a) Soliq stavkalarini yaqinlashtirish

b) Soliq bazalarini bir xil turga keltirish

c) Ikki tomonlama iqtisodiy soliq solishni to'xtatish

d) Evropa kompaniyasi deyilgan maxsus statusni qo'llash

e) a,b,c,d

II BOB. FRANSIYA SOLIQ TIZIMI

- 2.1. Frantsiyani soliq tizimi asoslari**
- 2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i**
- 2.3. Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i.**
- 2.4. Korxonalarga solinadigan soliqlar.**
- 2.5. Mahalliy soliqlar.**
- 2.6. Soliq tizimini boshqarish va soliq nazorati.**

2.1. Frantsiya soliq tizimi asoslari

Frantsiya jahon tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. Frantsiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish Evropada eng yuqori darajada hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida yalpi ichki mahsulotda majburiy to'lovlarni (soliq to'lovlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar) salmog'i eng yuqoriligi bilan Frantsiya farq qiladi. XX asrning 80-yillarining birinchi yarmida bu salmoq ortib borgan va 1985 yili 45,6% ni tashkil qilgan (1976 yili 39,4% bo'lgan). Bu ko'rsatkich bo'yicha Evropa iqtisodiy hamkorlik (EES) mamlakatlarining o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori hisoblanadi. Lekin, milliy majlisda o'ng partiyalarni o'zni mustahkamlanishi munosabati bilan saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida eslatilgan ko'rsatkich pasaya boshladi. O'ng partiya vakillari davlatni iqtisodiyotga aralashishini chegaralash, davlat sektoridagi qator korxonalarni denatsionalizatsiya qilish, bir me'yorda soliqlarni kamaytirib borish kabi masalalarni o'rtaga tashladilar.

Frantsiyadagi majburiy ajratmalar tizimini yana bir xususiyati, ularning tarkibida ijtimoiy sug'urta foiziga ajratma salmog'i ancha yuqori. Majburiy ajratmalar tarkibida ijtimoiy sug'urta foiziga ajratma Frantsiyada 43,3% tashkil qiladi. Uning darajasi yirik rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan, Evropa iqtisodiy hamkorlik mamlakatlari ichida eng yuqori hisoblanadi. Frantsiya past to'g'ri soliq va yuqori egri soliq salmoqlari darajasi bilan ham farq qiladi. Shu bilan bir qatorda Frantsiyada ichki yalpi mahsulotda tovarlar va xizmatlardan tushadigan soliq salmog'i ham yuqori.

Yalpi ichki mahsulotda majburiy ajratmalarni salmog'ini oshishi soliq tushumiga nisbatan ijtimoiy yo'nalishdagi fondlarga tushumlarni tezroq (ilgarilab ketgan holda) tushishi bilan bog'liq.

Shu bilan bir qatorda mahalliy tashkilotlar hukumati (regionlar, departamentlar, kommunalar) byudjetiga soliq tushumlarini salmog'ini markaziy hukumat byudjetiga boradigan soliq tushumiga nisbatan tezroq oshib borishi amalga oshirildi.

2.1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda majburiy ajratmalar (to'lovlar) tarkibi, %*

T/p	Mamlakatlar	Daromad solig'i	Aktsioner kompaniya-larni foydasiga solinadigan soliq	Ijtimoiy yo'nalish fondlariga ajratmalar	Ish beruvchidan olinadigan ish haqiga solinadigan soliq	Mol-mulkga solinadigan soliq	Tovarlar va xizmatlarga solinadigan soliq	Boshqa soliqlar
1	Belgiya	32,0	6,9	33,8	-	2,4	24,9	-
2	Buyuk Britaniya	26,7	10,8	18,5	-	12,7	31,2	0,1
3	Germaniya	28,9	5,3	37,4	-	3,1	25,2	0,1
4	Italiya	35,7	-	33,3	0,5	2,5	28,0	-
5	Niderlandiya	20,5	7,3	42,5	-	3,5	25,9	0,3
6	AQSh	34,7	8,4	29,7	-	10,3	16,9	-
7	Frantsiya	12,2	5,2	43,3	1,8	4,8	29,4	3,3
8	O'rtacha Evropa iqtisodiy hamkorlik mamlakatlari bo'yicha	33,4	-	28,8	0,4	4,5	32,5	0,4
9	O'rtacha (OESR) mamlakatlari bo'yicha	38,3	-	24,2	1,0	5,4	30,1	1,0

Jadvaldan shuni ta'kidlash mumkinki, Frantsiyada EIH mamlakatlariga nisbatan (o'rtacha – 33,4%) daromad solig'ining stavkasi 12,2% ni tashkil etadi. Aktsioner kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq, mol-mulkka solinadigan soliqlarning stavkalar darajasi ham past daromadni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday engilliklar daromad oladiganlarga juda katta qulayliklar yaratadi.

Bunga turmushdan markazdan uzoq masofada ushlab siyosatini amalga oshirish, mahalliy organlarni daromad bazasini kuchaytirish, ularni

* И.Г.Русакова и др. «Налоги и налогообложение». Москва, ЮНИТА, 1998, стр.261

markaziy hukumatga qaramligini kamaytirish sabab bo'ldi. Ta'kidlash zarurki, Evropa hamjamiyati byudjetlarini umumiy hajmida soliq xarakteriga ega bo'lgan to'lovlarni o'sishi mehnatni ahamiyatini oshishi va integratsion jarayonni kuchayishi bilan bog'liq.

2.2-jadval

Frantsiya davlat byudjetini tarkibi*

Soliq turlari	Summasi, mln.frank	Salmog'i,%
1.Qo'shilgan qiymat solig'i	669962	41,9
2.Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i	293110	18,1
3.Korxonalariga solinadigan soliq	170140	10,6
4.Neft mahsulotlariga solinadigan boj to'lovi	118618	7,3
5.Boshqa soliqlar	245120	15,2
6.Soliqsiz tushumlar	120267	7,4
Ja'mi	1617217	100,0

Frantsiya davlat byudjetini daromadida soliqlar (ajratmalar bilan birgalikda) tushumi 93%ga yaqin o'rinni egallaydi. Qolgani soliqsiz daromadlarga to'g'ri keladi.

Egri soliqlar byudjetni umumiy daromadini 60%ga yaqinini beradi. Asosiy egri soliq Frantsiyada qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi. Bu soliq 1954 yili tadbik qilingan. Byudjetni solikli daromadlari ichida QQS 45%ni tashkil qiladi.

Egri soliqlar tarkibida QQS salmog'i 72,3% teng.

Keyingi egri soliq - ichki neft mahsulotlariga solinadigan soliq. Uning salmog'i 7,0-8,5% teng. Bu soliqqa 13,3% egri soliqlar to'g'ri keladi. Egri soliqlarni kelib tushish tarkibi uzoq vaqt o'zgarmasdan turdi. Bundan faqat ichki neft mahsulotlariga solinadigan soliq mustasno. Uning salmog'i keyingi yillar oshib borgan. Amaliyotda bu soliqni aktsizlarga emas, bojxona bojiga tenglashtiriladi.

Neft mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun kerakli xom-ashyo asosan mamlakatga import orqali keltiriladi. Eksport va reeksport qilinadigan neft mahsulotlari umuman soliqqa tortilmaydi. Frantsiya uchun o'tgan asrning 80- va 90- yillarida bojxona bojini roli sezilari ortib bordi.

* Д.Г.Черник, А.П.Починков, В.П.Морозов «Основы налоговой системы» М.Финансы»,1998, стр.100

Deyarli 40% ga yaqin byudjet daromadlari to'g'ri soliqlardan kelib tushadi. Bularning tarkibida asosiy o'rinni daromad solig'i (jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq) egallaydi. Jismoniy shaxslarni daromadiga solinadigan soliq umumiy byudjet daromadini 18-21% ini tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinni to'g'ri soliqlar tarkibida aktsioner kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq (korporatsiya solig'i) egallaydi.

Byudjetni soliq daromadlari tarkibida bu to'lov 8 dan 10 foizgachani tashkil qiladi.

Aktsioner kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliqni salmog'ini pasayib borishiga asosiy sabab engilliklar berish tizimini kengayishi hisoblanadi.

Frantsiya korxonalarini korporatsiya solig'i bo'yicha asosan ikki turdagi engilliklardan foydalanadi:

- a) asosiy kapitalga nisbatan tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash;
- b) soliq kreditlari berish.

Soliq krediti 1982 yili kiritilgan va 1983 yil 1 yanvardan boshlab qo'llaniladi. Ilmiy tekshirish ishlariga qilinadigan harajat kredit olish huquqini beradi. Ilmiy tekshirish ishlarini harajati o'tgan yilgidan oshib ketsa va 5 mln. frantsuz frankidan yuqori bo'lmasa, unga 50% hajmda kredit beriladi.

Kredit summasi olinadigan korporatsion soliqdan chiqarib tashlanadi. Ilmiy tekshirish harajatlariga imorat va uskunalarni amortizatsiyasi, xodimlarga beriladigan ish haqi va operatsion harajatlar kiradi (xodimlarga ish haqi sifatida 55% harajat beriladi).

2.3-jadval

Frantsiyada aholini ijtimoiy guruhlariga binoan soliqlarni undirilishi

Aholini ijtimoiy guruhlari	To'liq (jami) daromad	To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar	Ijtimoiy ajratmalar	Jami
Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari	100	4,4	8,4	10,0	22,8
Qishloq xo'jaligidagi yollanma ishchilar	100	2,2	13,2	30,8	46,2
Erkin kasb egalari	100	11,7	6,3	8,6	26,2
Oliy (mansabdor) kadrlar	100	12,6	9,6	19,6	41,8

Xizmatchilar	100	4,7	13,2	27,3	45,2
Ishchilar	100	3,2	13,2	32,8	49,2
Band bo'lmaganlar (pensionerlar qo'shilgan holda)	100	5,4	11,2	7,1	23,7

Shunday qilib ijtimoiy guruhlar bo'yicha soliqlar umumiy daromadlaridan eng kamida 22,8% va ko'pi bilan 49,2% to'lanadi. Oliy (mansabdorlar) kadrlar va erkin kasb egalari, jadvalga ko'ra, to'g'ri soliqlarni, ya'ni daromad, mol-mulk soliqlarini asosiy to'lovchisi hisoblanadi. (11,7 va 12,6%). Egri soliqni asosiy to'lovchilari bo'lib, qishloq xo'jaligidagi yollanma ishchilar, ishchi va xizmatchilar to'laydi. Ijtimoiy ajratmalarning katta qismini ham aynan shu to'lovchilar guruhi ta'minlab beradi.

Frantsiyada, boshqa Evropa davlatlari kabi 1970 yillarda soliqlar sezilarli oshgandan keyin, ular bir maromga tushib qoldi. Daromad solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini avtomobil kabi tovarlar guruhi bo'yicha kamayishi, ijtimoiy sug'urta tizimiga ajratmani oshirish bilan to'ldirildi. 1995-2003 yillarga kelib Frantsiya soliq tizimini takomillashtirish, oxirgi amalga oshirilayotgan ichki yalpi mahsulotda soliqni salmog'ini bir maromda ushlab turish va sekin-asta pasaytirish yo'li bilan olib borilmoqda.

2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'i (TVA-taxesur la vabeur ajoutes) aylanma solig'ini boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. Bu soliq markaziy va mahalliy byudjetlar daromadiga olinadi. Soliqni avval markaziy byudjetga olinadi va keyin uning bir qismi mahalliy byudjetlarga beriladi.

Tovarlarni ishlab chiqarish va aylanishini har bir bosqichida ularni bahosini oshiruvchi qiymatga qo'shimcha deb nom berilgan. Frantsiyada amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va savdo xususiyatiga ega bo'lgan har bir kelishuvga soliq qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan operatsiyani (jarayonni) amalga oshiruvchi shaxsni huquqiy holati va boshqa soliqlarga munosabati (boshqa soliqlarni to'laydimi yoki yo'qmi)ni hech qanday ahamiyati yo'q. Shaxslarni faoliyati doimiy yoki vaqtincha, tUSDami - bu ham inobatga olinmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (TVA)ga faqat tijoratchilar bajaradigan kelishuvlar (tovarlarni sotish, xizmat ko'rsatish, manzilida (joyida) ist'emol qilish, komission operatsiyalar, maklerlik, arendaga berish, uskunalarni o'rnatish va h.k.) tortilib qolinmay, tijoratchi bo'lmagan shaxslar amalga oshiradigan boshqa tijorat operatsiyalariga (masalan, xususiy shaxsga ijaraga mebel berish va h.k.) ham bu soliq qo'llanadi. Bunga qarama-qarshi tijorat xususiyatiga ega bo'lmagan kelishuvlar (masalan, erkin kasb egalari gonorar olish asosida ko'rsatadigan xizmatlari) qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

TVA to'g'risidagi qonunda maxsus belgilangan ishchan operatsiyalar ham soliqqa tortiladi. Masalan, kooperativlarni qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish operatsiyalari (ishlab chiqarishda qatnashuvchilarni oilasi shaxsiy ist'emol qiladigan tovarlar bundan mustasnodir).

Bunga sanoat va savdoda qo'llaniladigan qurollar va uslublar bilan qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari amalga oshiradigan qator operatsiyalar ham kiradi. Maxsus belgilanadigan TVA solinadigan operatsiyalarga savdoga aloqasi yo'q kasbga ega bo'lgan shaxslar bajaradigan operatsiyalar kiradi. (bajarilgan ishga beriladigan haq mahsulot tannarxini katta qismini tashkil qilgan holatdagina)*.

Qo'shilgan qiymat solig'i faqat Frantsiyada ishlab chiqarilgan va sotilgan tovarlarga qo'llaniladi. Bunga Korsika va Monako hududlari ham kiradi.

Frantsiyada amalga oshirilgan TVA colinadigan har-xil xizmatlar ham shu tartibda qabul qilinadi. Lekin, chet elga ketayotgan transport, yoki xorijiy mamlakatlar transporti va bu transportga tegishli anjomlar eksport sifatida «Xalqaro o'zaro aloqa» xujjati asosida bu soliqdan ozod qilinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ida soliq solinadigan baza baho, ya'ni sotib oluvchi tovarni sotuvchi, xizmat ko'rsatuvchiga pul yoki natura shaklida beradigan hamma to'lov hisoblanadi. Bu ro'yhatga sanoatchi yoki sotuvchi tomonidan qilingan hamma harajat va olinadigan foyda kiritiladi. Shu bilan bir qatorda TVA solig'i solinadigan harajatlar hamda soliqni o'zini summasi chiqarilib tashlanadi. Chegirma, ajratib chiqariladi va TVA solinmaydi.

TVAni soliq solinadigan bazasini ko'rsatilgan umumiy qoidasidan tashqari alohida qoidalari ham mavjud. Sotish davrida, sotish bilan

* Францияда сотиш деб, шартнома шarti бўйича берилган, ёки ҳақиқий шу мамлакатда сотилган товар тушунилади.

mutaxassislashgan korxonalar yoki shaxs buyumlarni sotganda ularning sotib olish va sotish bahosi o'rtasidagi farqqa soliq solinadi.

Sotuvchi-mutaxassislar san'at asarlarini asl nusxasini sotganda sotib olish va sotish o'rtasidagi farqqa 30% soliq solinadi.

Korxonani o'zini ehtiyoji uchun tayyorlangan va olib kelingan xom ashyo va tayyor yarim mahsulotlar va korxonalar ichida ko'rsatilgan xizmatlar qonunda belgilangan stavka bilan soliqqa tortiladi

Ko'chmas mulk bo'yicha bitimlar, savdo operatsiyalari yoki ko'chmas mulkni sotuvchi kompaniyalarda qatnashish natijasi «sanoat va savdo foydasi» bandi asosida jismoniy shaxslarni daromadini to'g'ri soliqqa tortish bilan bir qatorda TVA solig'iga ham tortiladi. Uskuna va boshqa ko'chmas mulklarni ishlab chiqarish va etkazib berish quyidagi holatlarda TVAgaga tortiladi:

a) korxonani o'zini ehtiyoji uchun tannarxi hisobida tayyorlangan uskunani etkazib berilsa, bunga yer qiymati va unga qilingan harajatlar ham kiradi;

b) korxonalar kapitalini ko'paytiruvchi har-xil o'zgarishlar to'g'risida gap yuritilganda.

Import tariqasida olinadigan tovarlardan TVAni mamlakat ichida qo'llaniladigan stavkalari yoki boj tarifi bo'yicha belgilangan stavkalar asosida soliq olinadi.

Neft mahsulotlari (tabiiy gazdan tashqari) umumiy baholash (soliq organi va sotuvchini kelishuvi) asosida soliqqa tortiladi.

Frantsiyada TVA umumiy xususiyatga ega. Soliq hamma sotib olish va tovarlarni hamma sotib olish, shu jumladan o'zining ehtiyoji uchun, kompaniyani mahsulotini ko'paytiruvchi hamma muomala operatsiyalari va transfertlar (oddiy berish), kompaniyalarni uskunalar yoki boshqa ko'chmas mulklar, soliq bilan qamrab olinadi.

Soliq har-xil stavkalarga ega:

a) pasaytirilgan stavkalar –2,1; 4,0; 5,5%;

b) standart- 18,6%;

v) oshirilgan – 22%.

Boshqa stavka belgilanmagan hamma operatsiyalarga normal stavka qo'llaniladi.

Qisqartirilgan stavka turistik klassli otellar, pansionat va yarim pansionatlar xizmatiga, korxonalar oshxonasida tayyorlangan ovqatlarga, suv bilan ta'minlash, kabi har-xil xizmatlarga qo'llaniladi. Shu stavka bilan

sotib olish, import, sotish, etkazib berish, komission sotish kabi operatsiyalar quyidagi mahsulotlar bo'yicha soliqqa tortiladi:

Suv, kundalik ist'emol qilish uchun non, non yopish uchun un, aholiga sotish uchun sut, shakar, mol va o'sumlik yog'lari, pishloq, meva, murabbo va boshqalar.

Pasaytirilgan stavka bo'yicha qator oziq-ovqat tovarlari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun tovarlar (yem, o'g'it va boshqalar), zaharli ximikatlar, kitoblardan ham soliq olinadi.

Oziq-ovqat tovarlaridan, ichimliklar va boshqa mahsulotlar chiqarib tashlanadi. Ular oraliq (o'rtadagi) stavkalar bilan soliqqa tortiladi.

Oraliq stavkalari sotib olish, import, sotish, olib kelish, komission sotish operatsiyalariga quyidagi tovarlar bo'yicha qo'llanadi: gaz, elektroenergiya, zichlashtirilgan havo, isitish uchun issiq suv, isitish va sovutish uchun ishlatiladigan har-xil turdagi energiya, tosh ko'mir, koks, ko'mir briketi va boshqa yoqilg'ilar, har-xil turdagi daraxtlar, neft mahsulotlari, spirt, sovun, kofe, ichimlik, choy, biskvit uni, shokolad, muzqaymoq va boshqalar. Shu stavka passajir transporti amalga oshiradigan xizmat, sotsial-madaniy xizmat, restoranlarda sotiladigan ovqat va boshqalarga qo'llaniladi.

Oshirilgan stavka sotib olish, import, sotish, ijaraga berish operatsiyalari bo'yicha quyidagi tovarlarga qo'llaniladi: qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, platina, mo'yna, kinoapparatlar, magnitafonlar, radiopriemniklar, ovoz yozib oluvchi apparatlar, yangi turistik avtomobillar, tamaki mahsulotlari, gugurt.

Korxonalar hisoblagan TVA soliqdan mahsulot bahosini hosil qiluvchi ayrim «og'irlashtiruvchi» elementlarni chiqarib tashlashi mumkin. Bu tizim, investitsiyani soliq solishdan ozod qilib ishlab chiqarishni o'sishini takomillashtirishga xizmat qiladi. Yana, tizim mahsulotni eksport qilishni TVAdan to'liq ozod qilish imkonini beradi. Chegirib tashlash bahoni hosil qiluvchi hamma elementlarga beriladi. Chegirib tashlash hajmi og'irlashtirish hajmi darajasida olinadi.

Xom-ashyo materiallarini qiymati, energetika mahsulotlari, hamma investitsiya (mashina va inshootlar), umumiy harajatlar (transport, reklama, kantselyariya harajatlari va boshqalar) chiqarib tashlanadi. Oddiy savdogarlar qaytadan sotish uchun olgan tovarlari qiymati, magazinlarni asosiy fondiga qilingan investitsiya, umumiy harajatlarni chiqarib tashlaydilar.

Engillik beruvchi chegirmalar tizimi neft mahsulotlariga qo'llanilmaydi (ishlab chiqarishda xom ashyo yoki ishlab chiqarishda tarkibiy qism tariqasida ishlatiladigan tabiiy gaz, og'ir moylar, engil fraktsiyalaridan tashqari) agar ular hozirgi holati yoki o'zgartirilgan holatda qaytadan sotilmasa uy sharoitida qo'llaniladigan karbyurator yoqilg'isi, moylash materiallari, neft moylari ham chiqarib tashlanadi.

Soliq, to'lovchi (sotuvchi)lar o'zining etkazib beruvchilaridan olgan fakturalari asosida chiqarib tashlashni amalga oshiradilar. Tashqi savdo bitimlarida chiqarib tashlash bojxona hujjatlari asosida amalga oshiriladi. TVA solinadigan tovarni bahosidan hozirgi ishlab chiqarish va muomala bosqichida, oldin TVA olingan tovarlarni, xizmatlarni qiymati chiqarib tashlanadi (lekin shuni ko'rsatish zarurki, shu korxonaga sotayotgan tovarni yoki xizmatni bahosiga yuqorida aytilgan qiymat kiradi). Fakturalarda esa alohida harajatlar, foyda va TVAni har-xil stavkalarida to'langan soliqlar ko'rsatiladi. Sotuvchi xazinaxonaga TVA summasini faqat tovar chet elga sotilgandagina to'laydi.

Kichik korxonalaridan, ayrim holatlardan tashqari, asosan qo'shilgan qiymat solig'ini haqiqiy aylanma bo'yicha emas, soliq organi bilan o'zaro kelishilgan, umumiy baholangan aylanma asosida olinadi, ya'ni fakturasiz soliq olinadi.

Agar belgilangan darajadan aylanma summasi kam bo'lsa soliq umuman olinmaydi. Frantsiyada, qo'shilgan qiymat solig'ini olishda qator alohida tartiblar qo'llaniladi. Bu asosan qishloq xo'jaligiga taaluqli.

Frantsiyani dengiz ortidagi departamentlarida TVA metropoliyaga nisbatan past stavkalarida olinadi.

Har qanday shaxs (huquqiy, jismoniy) korxonada o'zining faoliyatini boshlagandan keyin 15 kun ichida kasbiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan deklaratsiyani to'lg'azib, qo'yib, soliq organlariga topshirishi zarur.

TVA to'laydigan korxonalar har oyda sotiladigan tovarlar ro'yhati va aylanma hajmi ko'rsatilgan deklaratsiyani soliq organlariga topshiradilar. Agar to'lanadigan soliqni hajmi belgilangan ma'lum summadan kam bo'lsa, soliq to'lovchi o'zining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotni 3 oyda bir marta topshirishi mumkin. Aylanma to'g'risidagi deklaratsiya blankasini soliq to'lovchi soliq organidan oladi. Agar bir oylik faoliyatini natijasi salbiy bo'lsa, shu to'g'risidagi ma'lumotlarni topshiradi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bir oyda bir marta deklaratsiya topshirayotgan vaqtda to'laydi.

Tovarni sotuvchi soliqni tovarni sotgandan keyin olingan tushumdan to'laydi. Shunday qilib sotuvchi qo'shilgan qiymat solig'ini oluvchi hisobidan to'laydi. Sotuvchi faqat nomigagina, oluvchi esa haqiqiy to'lov to'lovchi hisoblanadi.

TVA to'lash muhlatini keyinga o'tkazish tartibi, TVAni tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni oxirgi bosqichlarida to'lashga imkoniyat yaratib beradi.

To'lash muhlatini keyinga o'tkazish tartibi ikki holatda qo'llaniladi: tovarlarni eksport uchun etkazib berilganda va rangli metallarni etkazib berilganida amalga oshiriladi. Lekin TVAni to'lash muhlatlari boshqa holatlarda ham keyinga surilishi mumkin.

TVA soliq to'lovchilariga, o'tgan yil davomida eksportga sotilgan summa hajmida, joriy davrda eksportga ajratilgan va egri soliqlardan ozod qilingan tovarlarni olishiga ruhsat beriladi. Bu holatda eksporter tovar etkazib beruvchiga soliq xizmatini tovar haqiqatda eksportga belgilanganligi to'g'risidagi guvohnomasini yuborishi kerak. Qo'shilgan qiymat solig'i egri soliqni oxirgi mahsulot (tovar)dagi va tovarlarni ishlab chiqarish va muomalasining har bir bosqichidagi hajmini aniqlab beradi. Bu soliqni to'lashdan bosh tortish mumkin emas, chunki tovarlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi ham to'langan soliq summasini sotiladigan bahoga qo'shadilar.

Haqiqatda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi tovarni ist'emol qiluvchi hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni ishlab chiqarish va aylanishi uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartiradi, chunki bu soliq solingan tovar qanchalik tez sotilsa, shuncha tez tadbirkor yoki savdogar o'zi to'lagan soliqni qaytarib oladi. Soliq tovarni ishlab chiqaruvchi va uni sotuvchini ishlab chiqarish va sotish harajatini kamaytirishiga qiziqtiradi, tashqi savdo aylanmasini engillashtiradi, chunki tezroq tovarni eksport qilganda egri soliqni chiqarib olish uchun harakat qilinadi.

2.3. Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i

Daromad soliqlari tarkibida muhim o'rinni jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i egallaydi.

Daromad solig'i Frantsiyada - bu yagona va progressiv soliq hisoblanadi. Bu soliq davlat daromadlarini asosiy elementi hisoblanmaydi. Bu soliq byudjetni soliq daromadlarini taxminan 1/5 qismini tashkil qiladi.

Bu davlatni tarixiy an'analari bilan bog'liq. Hukumat daromad solig'idan o'zining ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun foydalanadi.

Ijtimoiy ist'emol foizlari yaxshi rivojlanmagan sharoitda daromad solig'i oilani rag'batlantirish, kam mulk egalari yordam berish uchun ishlatiladi. Daromad solig'iga aholi daromadini omonatga, ko'chmas mulkka, aktsiyalarga joylashtirishi uchun qiziqtirish funktsiyasi yuklatilgan. Buning hammasi murakkab hisob-kitob tizimini talab qiladi. Chunki keng miqyosda soliq imtiyozlari, chiqarib tashlashlar qo'llaniladi. Masalan, 25 mln. to'lovchilardan haqiqiy 15,0 mln soliqni to'laydilar. Haqiqiy soliq to'lovchilar mamlakatni jismoniy shaxslari va aktsioner jamiyat bo'lmagan korxonalar va kooperativlar hisoblanadi. Soliq o'tgan moliya yilini natijasi bo'yicha yil boshida deklaratsiyada ko'rsatilgan daromaddan olinadi.

Xazina birligi sifatida ikki kishidan iborat er-xotin va ularning qaramog'idagi shaxslar olinadi. Yagona kishilik xazina birligi sifatida tabiiy bitta kishi olinadi.

Soliqni Frantsiyada yashovchilar mamlakatda va chet elda (shartnomalar hisobga olingan holda) olgan hamma daromadlaridan to'laydi. O'ziga xos xususiyati shundan iboratki, soliqni jismoniy shaxsni emas, oilani daromadidan olinadi. Agar to'lovchi bo'ydoq bo'lsa, soliq uchun oila bitta kishi hisoblanadi. Soliqni 18 yoshdan boshlab to'laydilar. Hisobot yili davomida olingan hamma pul tushumlari daromad hisoblanadi. Ya'ni, to'lovchi bir yilda bitta tuzib, topshiradigan deklaratsiyasida o'tgan yili olgan hamma daromadini yig'indisi ko'rsatiladi. Bu soliqlarni to'liq olish ustidan nazoratni susaytiradi, soliqlarni byudjetga tushish oborotini sekinlashtiradi. Bundan tashqari yil davomida daromadi pasaysa soliq to'lash bo'yicha muammolar kelib chiqadi. Ularga quyidagilar kiradi: ish haqi, mukofot va qo'shimcha haqlar, pensiya, umr bo'yi olinadigan renta, ko'chirib bo'ladigan mulkdan olinadigan daromad, yerga egalik qilishdan olinadigan daromad, qishloq xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyatidan olinadigan daromad, savdo-sotiq xususiyatiga ega bo'lmagan daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan olinadigan daromad. Mulkchilik huquqini o'tkazishda olinadigan bir martalik daromadlar ham kiradi.

Soliq solinadigan bazadan qonunchilikda maxsus belgilangan harajatlar chiqarib tashlanadi. Masalan, ovqatlanish uchun belgilangan

maxsus yordam. Ayrim chiqarib tashlashlar ba'zi ijtimoiy guruhlarga belgilangan: keksaygan kishilar, nogironlar va h.k.

Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i progressiv xususiyatga ega. Uning stavkasi 0 dan 56,8% gacha boradi. Daromadi 18140 frankdan oshmaydigan shaxslarni daromadlari (stavkasi 0%) ga soliq solinmaydi. Eng yuqori stavka 246770 frankdan yuqori bo'lgan daromadlarga qo'llaniladi.

1990-1993 yillarda daromad solig'i, soliq xususiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ajratma bilan to'ldirilgan. 1991 yili «Moliya haqida»gi qonun asosida umumiy ijtimoiy ajratma ko'chirib bo'ladigan va ko'chmas mulkdan olinadigan hamma daromadlardan 1,1% qilib belgilangan. Bundan tashqari jamg'armadan foiz sifatida olinadigan daromaddan ijtimoiy ajratma to'lanadi. Uning stavkasi 1,0%ni tashkil qiladi. Bulardan tashqari maxsus ijtimoiy ajratmalar ham mavjud. Frantsiyada ko'chmas mulk qiymatbaho qog'ozlar va boshqa ko'chirib bo'ladigan mulk bo'yicha operatsiyalardan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish bo'yicha maxsus qoidalar qo'llanadi. Masalan, ko'chmas mulkni, yuqori bahoda sotish natijasida olgan foyda, haqiqiy sotilgan yilning soliq solinadigan daromadiga kiritiladi. Lekin asosiy yashash uylarini sotish, birinchi marta yashash uylarini sotish va eng kamida 32 yildan buyon egasini mulki bo'lgan yashash uylarini sotishdan olingan daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi. Sotuvchi mulki sifatida uy-joy necha yil bo'lganiga qarab, yoki muxlatini hisobga olgan holda soliq stavkalari o'zgaradi. Agar muxlat ikki yildan kam bo'lsa eng yuqori stavka qo'llanadi. Keyin mulkdorchilik muxlatiga qarab stavka pasayib borib nolga tushadi.

Qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasidan, shunga aksioner huquqi uchun olingan sertifikatlarni qo'shgan xolda olingan foyda 16% stavka bilan soliqqa tortiladi. Soliq har yilgi daromad belgilangan hajmidan yuqori bo'lgan taqtirdagina olinadi. Bu hajmi tez-tez hukumat tomonidan qaytadan ko'rib turiladi. 1991-1995 yillarni boshida soliq 307,6 ming frank summasidan boshlab olinadigan bo'lgan. Qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasidan farq qilgan holda ko'chirib bo'ladigan mulk operatsiyasidan olingan foyda agar uning bitim summasi 20 ming frankdan yuqori bo'lsa soliqqa tortiladi. Soliqni uchta stavkasi mavjud: 4,5%, 7% - san'at buyumlari uchun va 7,5% - qiymatbaho metallar bo'yicha bitimlardan olinadi.

Soliq to'lovchini daromadi 7 kategoriyaga bo'linadi:

1. Yollanib ishlaydiganlarni ish haqisi;

2. Yer daromadlari (yer va imoratni arendaga berish);
3. Oborot kapitalidan olinadigan daromad (dividendlar va foizlar);
4. Qaytadan sotishdan olinadigan daromad (imoratni, qimmatbaho qog'ozlarni);
5. Aksioner jamiyat bo'lmagan korxonalarini ishlab chiqorish va savdo faoliyatidan olinadigan daromad;
6. Tijorat xususiyatiga ega bo'lmagan daromadlar (erkin kasb egalarini daromadlari);
7. Qishloq xo'jalik daromadlari.

Ko'rsatilgan 7 kategoriyani har biri bo'yicha o'zining hisob-kitob usuli bor. Sof daromadni aniqlashda hammasiga taaluqli daromadni keltiruvchi ishlab chiqarish harajatlarni chiqazib tashlanadi. Qari otionalarni boqish, qarash, hayriyaga ketadigan mablag'lar ham chiqarib tashlanadi. Soliqni hisoblash uchun oilani sof daromadi bo'laklarga ajratiladi. Keyin har bir qismiga taaluqli stavka bilan soliq summasi aniqlanadi. Umumiy soliq summasi alohida qismlar summasini qo'shish bilan aniqlanadi. Bu sxemada soliqlarni hisoblash soliq yukini engillashtiradi va ko'p bolali oilalarga engillik beradi. Umumiy soliq summasi hisoblangandan keyin, uni maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalarini harajati, qariyalarga yordam, kredit bo'yicha foiz to'lash, hayotni sug'urta qilish, aksiyalarni sotib olish harajatlari uchun 25 foizga qisqartiriladi.

I. Mehnatga haq to'lashni umumiy summasidan chiqarib tashlanadi:

1. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma;
2. Kasb bo'yicha o'qitish harajati;
3. Kasb harajati (ishga borish uchun yo'l harajati, ovqatlanish) va boshqalar.

Chegirib tashlash limiti ish haqini 10%gacha. Agar haqiqiy chek va hisob raqamlar bo'lsa undan ko'p ham chegirish mumkin.

Keyin soliq solinadigan ish haqi «majburiy halollik» uchun 20% skidkaga kamaytiriladi. Chunki yollanma ishchilar savdogarlar va mayda tadbirkorlar kabi daromadini bir qismini yashirish imkoniyatiga ega emaslar. Agar bir yillik maosh 500000 frankdan ortiq bo'lsa skidka qo'llanmaydi.

II. Yer daromadi. Umumiy daromaddan chegiriladi:

1. Imoratni ijaraga berganda 15% va yerni ijaraga berganda 10%;
2. Imoratdan foydalanish harajatlari;
3. Imorat va yerdan olinadigan soliqlar summasi.

III. Kapital aylanmasidan olinadigan daromadlar kamaytiriladi:

1. Agar bank aktsiyalar bo'yicha ish olib borsa, bank xizmati uchun to'lov harajati.

2. Aktsiyalarni mayda ushlab turuvchilarga ularni rag'barlantirish uchun - 16000 frank omonatga qo'yish bo'yicha berilgan foizdan olingan daromad 60000 frankgacha soliqqa tortilmaydi.

IV. Qaytadan sotishdan daromadlar.

Bu daromadlar imoratni qaytadan sotishdan (1) va aktsiyalarni qaytadan sotishdan (2) qismlarga bo'linadi. Kamaytiriladi:

- inflyatsiya uchun;

- chayqovchilikdan ximoya qilish uchun bir yilga 5% li skidka beriladi. Yigirma yildan keyin skidka 100% etadi.

Agar o'zi yashab turgan shaxsiy uy yoki kvartira sotiladigan bo'lsa, daromad soliqqa tortilmaydi. Ko'chmas mulkni sotishdan olinadigan daromad faqat 290000 frankdan yuqori bo'lsa hisobga olinadi.

Aktsiyalar bo'yicha daromadlar va yo'qotishlarni saldosi chiqariladi. Sof yo'qotish kelajak daromadi hisobiga o'tqazilishi mumkin. Faqat 5 yildan ortiq emas.

V. Aktsioner jamiyat hisoblanmagan korxonani sanoat faoliyatidan olingan daromad. Umumiy tushumdan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish harajati chiqazib tashlanadi. Keyin aylanmani hajmiga qarab hisob-kitob qilinadi:

a) agar bir yilga 500000 frankdan kam bo'lsa, kommersant ma'lumot beradi va soliq xizmati xodimlarini o'zi soliqni hisoblaydi. Bu xolatda buxgalteriya hisobini yuritish majburiy emas;

b) bir yilga aylanma 500000 frankdan ko'p bo'lsa tadbirkorlarni o'zi hisob-kitob qiladi. Agar yakka tijorat korxonalari Boshqaruv Markazining a'zosi bo'lsa, ularga 20% li skidka beriladi. Boshqaruv Markazi davlat tomonidan tasdiqlangan bo'ladi va firibgarlik (nayrangbozlik) yo'qligi to'g'risida kafolat hisoblanadi.

VI. Tijoratsiz daromadlar. Bu sohada soliqqa tortish tartibi ish haqini soliqqa tortish tartibiga o'xshagan bo'ladi. Harajatlar tekshiriladi. Agar gonorarlar 175000 frankdan kam bo'lsa soliqdan engilliklar beriladi. Boshqaruv markaziga a'zo bo'lsa 20% skidka beriladi.

VII. Qishloq xo'jalik daromadi. Ularni soliqqa tortishni uch xil usuli mavjud:

1. Agar daromad bitta to'lovchi uchun 500000 frankdan kam bo'lsa, kollektiv imtiyozlar beriladi. Bu holatda soliq xizmatining o'zi hudud bo'yicha bir gektardan olinadigan sof daromadni hisoblaydi.

2. Daromad 500000-750000 frankni tashkil qilsa, soliq solinadigan daromadni to'lovchini o'zi tushum va harajat o'rtasidagi farq sifatida aniqlaydi.

3. Agar daromad 750000 frankdan ko'p bo'lsa, bu to'lovchilarga aktsioner jamiyat bo'lmagan holatdagi tartib qo'llanadi. Har bir ettita kategoriyani daromadlari sof daromadni tashkil qiladi. Soliqni hisoblash uchun oilani sof daromadi ayrim qismlarga quyidagicha bo'linadi: bo'ydoq-1 qism, er-xotin- 2 qism, bitta bola 0,5 qo'shimcha, ikkita bola- 1 qism qo'shimcha, uchta bola- 2 qism qo'shimcha. Har bir qismga soliq alohida hisoblanadi va natijada ularni qo'shib umumiy soliq summasi aniqlanadi.

Frantsiyani daromad solig'i Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarni daromad solig'idan keskin farq qiladi. Bu farqni uning mazmunidan aniqlash mumkin. Soliq davlat byudjetiga maksimal daromad to'plash emas, birinchi navbatda ma'lum ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun qaratilgan. Shu nuqtai nazardan bu soliq etarli darajada samarali hisoblanadi. Agar uni davlat byudjetidagi ulushi boshqa davlatlarga nisbatan past bo'lsada, uning bilvosita mamlakatni farovonligini ko'tarishdagi roli katta. Bu soliq juda murakkab, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Soliq frantsuz jamoasi, siyosati va aholisi bilan chambarchas bog'lanib ketgan, shuning uchun uni unifikatsiya qilish har tomonlama o'ylab ish tutishni talab qiladi.

Frantsiyani byudjetiga mulkka solinadigan soliq yirik daromad keltiradi. Birinchi yanvarga bo'lgan mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar soliq solishga jalb qilinadi. Mol-mulkka imorat, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, ko'chirib bo'ladigan mol-mulk, aktsiya, obligatsiya va hokazolar kiradi. Molk-mulkni ayrim turlari to'liq yoki qisman bu soliqdan ozod qilinadi. Masalan, kasbiy faoliyatga taaluqli mol-mulk, ayrim qishloq xo'jalik mol-mulklari, badiiy buyumlar va kollektsiya buyumlari.

Mulkka solinadigan soliq progressiv xususiyatga ega. Uning stavkalari 1991-1995-yillarning boshiga quyidagi jadvalda beriladi.

2.4-jadval

Mulkka solinadigan soliq stavkalari*

Mol-mulkni qiymati, frankda	Soliq stavkasi,%
4260000 gacha	0
4260001dan 6920000 gacha	0,5
6920001dan 13740000 gacha	0,7
13740001dan 21320000 gacha	0,9
21320001dan 41280000 gacha	1,2
41280000dan ortig'i	1,5

Shuni ko'rsatib o'tish kerakki daromad solig'i bilan mulkka solinadigan soliqni umumiy summasi hamma daromadni 85% dan ortib ketmasligi kerak. Mulkka solinadigan soliq guruhiga ro'yhatga olish va gerb yig'implari va bojlar kiradi.

Ushbu guruhga ish haqiga solinadigan ijtimoiy soliq ham kiradi. Frantsiyada bu soliqni ish beruvchilar to'laydi. Soliq solinadigan ob'ekt sifatida pul va natura shaklidagi ish haqi (ish haqiga taaluqli majburiy yig'implar qo'shilgan holda) olinadi. Soliq progressiv xususiyatga ega. Ish haqi fondi 35900 frank bo'lsa 4,5% va 35901 frankdan 71700 frankgacha bo'lsa 8,5% va ko'rsatilgan summalardan yuqori bo'lsa 13,6% olinadi. Bundan tashqari ish beruvchilar kasbiy ma'lumot olishga solinadigan soliqni ham to'laydilar. Bu soliqni maqsadi mamlakatda kasbiy-texnik ma'lumot olishni moliyalashtirishdan iborat. Soliqni stavkasi yillik ish haqi to'lash fondini 0,5% hajmida belgilanib, unga 0,1% ustama ham qo'shiladi. Agar korxonada 10 yoki undan ko'p odam ishlasa, tadbirkor uning korxonasida ishlovchilarni uzoq muhlatli kasbiy tayyorgarlik ko'rishlarini amalga oshirishni moliyalashtiradi. Soliqni hajmi umumiy ish haqi summasini 1,2% tashkil qiladi. Vaqtincha ishchi kuchidan foydalanuvchi korxonalar 2% stavka bilan soliqni to'laydilar. Qo'shimcha 0,3 hajmdagi yig'im yoshlarni kasbiy tayyorlash uchun yo'naltiriladi. Korxonasida 10 va undan ko'p xodimlar ishlasa, tadbirkorlar bevosita va bilvosita uy-joy qurilishini moliyalashtirishda qatnashishlari kerak. Tadbirkorlar uy-joy qurilishiga to'g'ridan-to'g'ri pul ajratishlari mumkin, yoki o'zlarini xodimlariga zaem berishlari, yoki kerakli mablag'ni davlat

* Д.Г.Черник, А.М.Починок, В.П.Морозов «Основы налоговой системы». М. «Финансы», изд-во «ЮНИТИ» с.104

xazinasiga o'tqazishlari mumkin. Bu maqsadni amalga oshirish uchun qaysi shaklda qatnashishlaridan qat'iy nazar yillik ish haqi fondidan 0,65 % hajmda mablag' ajratadilar.

Mulk solig'i guruhiga qarashli boshqa davlat yig'imlariga korxonalar va kompaniyalarni avtotransport vositalariga solinadigan soliq kiradi.

Soliqni o'zini avtotransport vositalaridan foydalanganliklari uchun to'laydilar. Soliq stavkasi avtomobillarni soni va mashina motorlarini quvvatiga qarab belgilanadi. Shu guruh kredit muassasalari va sug'urta kompaniyalarini umumiy harajatlaridan, olinadigan boj to'lovlari ham kiradi.

Pul kapitallaridan olinadigan daromadni soliqqa tortish. Jismoniy shaxslarni bu daromadlariga quyidagilar kiradi: aktsiyalardan olinadigan daromad, kapitalni tayinlik daromad olish maqsadida joylashtirish (obligatsiyalarga, kredit majburiyatlariga, omonatlarga, kafillik (kafolat) bo'yicha daromadlar, joriy hisob raqamidagi mablag'lardan, har-xil turdagi bonlardan) va horijiy qimmatbaho qog'ozlardan.

Pul kapitalidan olinadigan jismoniy shaxslarni daromadini Frantsiyada soliqqa tortishni o'zini qator xususiyatlari bor. Bu xususiyatlari pul kapitalini turi yoki kapitalda qatnashish jismoniy shaxsga daromad keltiradi.

Jismoniy shaxslar (soliq to'lovchilar Frantsiyada dividenddan daromad oluvchilar, deklaratsiyada soliq solinadigan daromad hajmini belgilashda, uning hajmi ustiga 50% to'langan dividendlarni qo'shadi. Soliq organlari bu holatda jismoniy shaxs tomonidan olingan dividend kompaniyani sof daromadini 50% ini tashkil qiladi va shundan kelib chiqib kompaniya davlatga aksioner jamiyat foydasidan soliq beradi deb hisoblaydi. Soliq solinadigan dividendga o'zining soliq solinadigan daromadi sifatida soliq to'lovchi 100% emas, faqat 50% unga berilgan dividendni qo'shadi.

Kompaniyaga hisoblangan soliq summasidan 50% chiqazib, bu summa soliq to'lovchini haqiqiy olgan dividendga qo'shiladi. Natijada dividendlardan keladigan foyda hosil bo'ladi va bu ko'rsatkich jismoniy shaxslarni soliq solinadigan daromadi hisoblanadi. Ushbu soliq ajratmasi (chiqaziladigan hajm) soliq avuari deb yuritiladi. Bu tartib Frantsiyada faoliyat ko'rsatuvchi frantsuz va horijiy mamlakat kompaniyalari to'laydigan dividendlarga qo'llanadi. Frantsiyada yashovchi chet ellik jismoniy shaxslarni daromadini tashkil qiladigan dividendlar chegirma

(ajratma) tartibi faqat ikki davlat o'rtasida. Ikki tomonlama soliq solish to'g'risida konventsiya tuzilgan taqdirdagina qo'llaniladi.

Soliq chegirmasi Frantsiyada dividenddan hosil bo'ladigan jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda soliq engilligi hisoblanadi. Jismoniy shaxslarni "tant'em" (aktsioner jamiyatlarni boshqaruv xodimlarni qo'shimcha mukofotlash) tariqasida olgan daromadlarini, shu mablag'ni berish vaqtida soliqqa tortiladi. Lekin bu summa ish haqi tarkibiga qo'shilmasa kelgusida tant'em tariqasida jismoniy shaxs olgan daromadini jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish umumiy tartibida olib boriladi.

Moliyaviy operatsiyalarda qatnashish natijasida olingan har-xil foydalar jismoniy shaxs daromadi sifatida soliqqa kompaniyada faqat Frantsiyada bo'lib, foyda oluvchi shaxs Frantsiyadan tashqarida yashagan taqdirdagina tortiladi.

Bu holatda Frantsiya va jismoniy shaxs yashovchi davlatlar o'rtasida jismoniy shaxslarni daromadini soliqqa tortishda engilliklar berish to'g'risida konventsiya tuzilgan bo'lishi kerak.

Ko'chmas mulkdan olinadigan foydani soliqqa tortish. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortiladigan daromadlariga ko'chmas mulkdan olinadigan uch xil turdagi foydalar kiradi:

- 1) Qurilish jarayonida olinadigan foyda;
- 2) Ko'chmas mulkdan chayqovchilik xususiyatiga ega bo'lgan foyda olish;
- 3) Imorat qurish uchun yerni sotganda olinadigan ortiqcha foyda.

Jismoniy shaxs tomonidan qurilgan, qurilayotgan ob'ektni yoki qurishga huquqni sotish jarayonida olingan sof foyda kelishuv hujjatini ro'yxatga olish vaqtida oldindan 25% foydasi soliqqa tortiladi.

O'ziga tegishli ko'chmas mulkni (yer va o'rmondan tashqari) jismoniy shaxs sotishdan foyda olsa va bu mulkni eng kamida 5 yil ilgari o'ziga qurgan yoki olgan bo'lsa, jismoniy shaxs daromadga solinadigan soliqqa sanoat va savdo foydalari kabi tortiladi.

Jismoniy shaxs tomonidan qimmat turadigan yerni yoki uni ekspluatatsiya qilgandan keyin sotish, yoki shu yerda joylashgan ko'chmas mulkni sotish natijasida yuqori foyda olsa, uni jismoniy shaxs daromadi tariqasida soliqqa tortiladi.

Yuqori foyda sotish bahosi bilan, sotuvchini sotib olish bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

2.4. Korxonalar solinadigan soliqlar

Aktsioner kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq. Frantsiyada korxonalar asosan kompaniya (jamiyat) lar shaklida faoliyat yurg'izadilar.

Fuqarolik kodeksini 1832 bandida ko'rsatilishicha jamiyat foydani taqsimlash yoki kuch va mablag'ni tejash maqsadida mulkni birlashtirish to'g'risida ikki yoki bir necha shaxsni o'zaro kelishuvini talab qiladi.

Kompaniyalarga solinadigan soliq aktsioner jamiyatlarga javobgarligi cheklangan jamiyatlar, payga asoslangan shirkatlar, hamda horijiy kompaniyalarni bo'limlariga qo'llanadi.

Ko'rilayotgan soliq moliyaviy avtonomiyaga ega, faoliyati har-xil turdagi resurslarni ekspluatatsiya qilish, yoki foyda olish operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan markaziy davlat hokimiyatining muassasalari, organlari, departamentlar organi, kommunalar va boshqa huquqiy shaxslarga solinadi.

Kompaniyaga solinadigan soliq sof foydadan olinadi. Lekin soliqni stavkasi yerdan olinadigan daromadga, qishloq xo'jalik faoliyati, foyda olish maqsadini oldiga qo'ymagan qimmatbaho qog'ozlarni chiqaruvchi davlat muassasalari, assotsiatsiyalar va birlashmalarga pasaytiriladi.

Soliq asosiy muassasa va korxonalar faoliyat ko'rsatayotgan joyda hamma turdagi daromadlaridan olinadi.

Soliqni hisoblash korxonalar tomonidan yillik balans yopilgandan keyin, lekin daromad olingan yildan keyingi yilni 1 aprelegacha beriladigan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida olib boriladi.

Soliq solinadigan baza korxonani sof foydasi hisoblanadi. Uning hajmi yillik balans yopilishi vaqtidagi aktivlar qiymatidan, aktsionerlar shaxsiy mablag'i hisobiga amalga oshirgan yangi qo'yilmalarni chiqazib tashlash, yoki yil davomida aktsionerlarga avans tariqasida berilgan foydani qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Amaliyotda korxonani soliq solinadigan foydasi umumiy tushumdan, uni olish uchun qilingan harajatlarni chiqazib tashlash orqali aniqlanadi. Chiqazib tashlanadigan harajatlarga korxonani umumiy harajatlari kiradi.

Umumiy harajatlarga ish haqi, korxonalar joylangan imoratni ijaraga olish harajati, moliyalashtirish qiymati (kreditni qaytarib berish, foizlarni to'lash), soliqlarni to'lash va boshqa harajatlari kiradi.

Jismoniy shaxslarni daromadidan to'langan soliq va kompaniya to'lagan soliq harajatlari yalpi foydadan chiqarilmaydi. Chunki ular ekvivalentga ega emas va baho tarkibiga kirmaydi.

Undan jarima harajatlari va korxonalar rahbarlariga nisbatan qo'llanadigan har-xil moliyaviy sanksiyalar ham chiqazib tashlanmaydi.

Dastlabki hissadorlar tomonidan yangi qo'shimcha kapitalni joylashtirish, limit chegarasida kompaniyani soliq solishdan ozod qiladi.

Umumiy chiqazib tashlanadigan harajatlardan vakillik harajatlari ayirib tashlanadi. Korxonalar soliq solinadigan foydani aniqlashda umumiy chiqarishlardan tashqari amortizatsiya harajati ham chegirib tashlanadi.

Korxonaning soliq solinmaydigan rezerv mablag'ini summasi, uning harajatiga olib boriladigan kelajakdagi taxminiy yo'qotish hajmi bilan chegaralanadi.

1980 yillarda kompaniyalar solinadigan soliq stavkasini pasaytirish yo'nalishi belgilandi.

1986 yili soliq stavkasini 50% dan 45%ga tushirildi. Keyingi 1987-1988 yillari 42% ni tashkil qildi. 1989 yili, 42% stavka bilan kompaniyani dividend to'lashga ajratilgan daromadi soliqqa tortiladigan bo'ldi. Kompaniyani rivojlanishi uchun sarflanadigan daromadidan soliq 39% stavka bilan olinadigan bo'ldi.

Chet el korxonalarini daromadi Frantsiyada va Frantsiya korxonalarini daromadi chet elda ikki yoqlama soliqqa tortishga uchramasligi uchun Frantsiya ko'proq yonidagi Evropa davlatlari va dunyoni boshqa hududlaridagi ba'zi davlatlar bilan kelishuv bitimini tuzadi.

Bitimda soliqni faqat ikki davlatdan bittasida ya'ni daromad yuzaga kelgan mamlakatda, yoki daromadini egasi yashayotgan yurtda olinishi belgilanib qo'yiladi.

Ko'chmas mulkdan olinadigan daromad faqat bu mulk turgan mamlakatdagina soliqqa tortiladi.

Sanoat va savdo foydasi, sanoat va savdo korxonasi doimiy joylashgan mamlakatda soliqqa tortiladi.

Savdodan tashqari foydalar: bu foydalar olingan mamlakatda soliqqa tortiladi, lekin uni olishga qulay va ijobiy sharoit mavjud bo'lgan vaqtda amalga oshiriladi. Foydani soliqqa tortish, korxonalar egasi yashayotgan mamlakatni huquqiga kiradi.

Frantsiya qator davlatlar bilan havo transportida yuk tashuvchi korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha maxsus bitimi bor. Bundan tashqari Frantsiya soliq solishni tenglashtirish, ikki tomonlama soliq solishni yo'q qilish uchun qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni soliqqa tortish bitimiga ham ega.

Aktsioner kompaniyalarniyalarni foydasiga solinadigan soliq beshta muhlatda to'lanadi. Birinchisi 20 fevralgacha, keyin may, avgust va noyabr oylarida to'lanadi. Beshinchi marta soliqni moliyaviy yil tamom bo'lgandan keyin 3 oy davomida haqiqiy daromad to'g'risida beriladigan deklaratsiya asosida to'lanadi.

Soliqni hisoblashda, to'lashda amortizatsiya muhim rol o'ynaydi.

Amortizatsiyani qo'llash usuli korxonada faoliyatiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Etarli darajada amortizatsiya ajratmasini amalga oshirmaydigan korxonada o'zini daromadini sun'iy ko'paytirib ko'rsatadi.

Korxonada, amortizatsiyaga ko'p mablag' ajratsa, o'zining daromadini pasaytiradi va shunga yarasha, soliq to'lovlari ham kamayadi.

Ahamiyatli bo'lib, Frantsiyada soliq solinadigan bazadan amortizatsiya ajratmasini korxonada hisob raqamlarida ko'rsatilgan hajmda chiqazib tashlanishi hisoblanadi.

Amortizatsiya darajasi, har bir tarmoqda tarixiy yuzaga kelgan me'yorda asosida aniqlanadi. Amortizatsiya ajratmasi bo'yicha Frantsiyada soliq tartibi boshqa Evropa davlatlarinikiga nisbatan erkinroq belgilangan. Masalan, me'yordan past hisoblangan amortizatsiya ajratmasi 5 yilgacha qoldirilishi (keyinga surilishi) mumkin. Iqtisodiy, moliyaviy qiyinchiliklarga uchragan korxonada soliq solinadigan daromaddan amortizatsiya ajratmasini chiqazib tashlashi va uni kelajakda faoliyati yaxshilanganda qo'shishi mumkin. Yana soliq qonunchiligi, amortizatsiyani aniq sarflanishini belgilamaydi. Masalan, amortizatsiya qilingan turdagi mashinani emas, bu pulga boshqa xil mashinani sotib olishi mumkin.

Hozirgi vaqtda Frantsiyada amortizatsiyani hisoblashni ikki shaklida qo'llaniladi:

- bir tekisda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli;
- tezashtirilgan hisobdan chiqarish usuli.

To'g'ri chiziqli amortizatsiyani hisobdan chiqarish uzoq yillarda davomida, uning yagona shaklida hisoblangan. To'g'ri chiziqli tartibda uskuna qiymati uning xizmat qilish muhlatiga proporsional ravishda taqsimlanadi. Amortizatsiya koeffitsienti doimiy bo'lib, mulkni qiymatini, uning xizmat qilish muhlatiga bo'lish orqali belgilanadi. Masalan, uy-joyning qiymati 100 birlikka teng bo'lsa va imorat 50 yil turadigan bo'lsa, 50 yil davomida har yiliga 2%dan amortizatsiya hisoblanadi.

Ikkinchi usulda - uskunani xizmat qilish muhlati olinib unga tenglashtirilgan amortizatsiyani koeffitsienti qo'llaniladi.

Uskunani ekspluatatsiya qilish muhlati 4 yilgacha bo'lsa koeffitsient baravar birga; 5-6 yil bo'lsa koeffitsient 2 va 6 yildan ortiq bo'lsa koeffitsient 2,5 baravar qilib belgilanadi.

Kompaniyalarga soliq solishda, ularni rag'barlantirish funktsiyasini kuchaytirish maqsadida tezlashtirilgan amortizatsiyadan tashqari boshqa imtiyozlar ham beriladi. Eng avvalo imtiyozlar yangi tashkil qilingan kompaniyalar (jamiyatlar)ga beriladi. Imtiyozlar kompaniyani birinchi besh yillik faoliyati davrida beriladi. Birinchi ikki yil davomida kompaniya soliqdan to'liq ozod qilinadi. Kompaniya faoliyatini uchinchi yilida, uning 25% daromadi soliqqa tortiladi. Shu tartibda to'rtinchi yili –50% va beshinchi yili-75% daromad soliq solinadigan baza hisoblanadi. Oltinchi yili kompaniyani hamma daromadi to'liq soliqqa tortiladi.

Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida, unga sarflanadigan investitsiyani hajmini ko'paytirishga qiziqtirish uchun soliq krediti beriladi. Kredit ilmiy-tekshirish ishlariga har yili qilinadigan harajatni o'sgan qismini 50% hajmida beriladi. Bunda harajatni yuqori chegarasi belgilangan: asosan –5 mln. frank. Ayrim hollarda 10 mln. frank belgilanadi. Soliq krediti kasbiy tayyorgarlik uchun ham berilishi mumkin. Soliqdan kadrlarni kasbiy tayyorlash uchun qilingan sarfni o'sgan qismini 25% soliqdan ozod qilinadi. Bunda yuqori chegara 1 mln. frank hajmida belgilangan.

2.5. Mahalliy soliqlar

Frantsiyani soliq tizimida tushumlarning katta qismi mahalliy soliq'larga egallaydi.

Mahalliy huqumat organlari - kommunalar, kommunalar birlashmasi, departament va boshqalar - iqtisodiy hayotni ajratilmas sub'ektlari hisoblanadi. 1990-1995 yillar mahalliy ma'muriy organlarni umumiy harajatlari ichki yalpi mahsulotni 10% dan ortiqrog'ini tashkil qilgan. Solishtirish uchun keltiramiz: 1970 yillarda bu ko'rsatkich 7,3% tashkil qilgan.

Mahalliy byudjetlarni umumiy salmog'i, mamlakat byudjetini 60% gacha to'g'ri keladi. Shuni eslatib ketish kerakki, mahalliy byudjet bilan mahalliy soliqlarning hajmi ancha farq qilib, birinchisi doimo ko'p bo'lib kelgan va ular yildan –yilga oshib bormoqda.

Frantsiyada mahalliy to'g'ri soliqlarni hajmi bir yilga 290 mlrd. frankka boradi. Shundan kasb solig'i 126 mlrd., uy-joy solig'i 57 mlrd. frank va yer solig'i 72 mlrd frankni tashkil qiladi. Kelgusida mahalliy soliqlar ko'payib boradi. Bu davlatni umumiy siyosati bo'lmish –

«markazdan qochirish» va mahalliy hududlarni boshqarishda mahalliy davlat organlarini huquqlarini kengaytirishdan iborat. Frantsiyani ma'muriy-hududiy tarkibi 22 region (hudud) 95 departament va 36000 kommunadan tashkil topgan. Bu o'z navbatida turli xil byudjetlarni va mablag' kelib tushadigan manbalarni belgilaydi. To'g'ri mahalliy soliqlarga kiradi: bitta soliq korxonaga (kasbga solinadigan soliq) va uchta oilaga solinadigan soliq (uy-joyga, yerga, imoratga). Mahalliy byudjetda soliqlarni salmog'i-40%, davlat dotatsiyasi-30% va o'zining tushumlari va zayomlari 30%ni tashkil qiladi. Mahalliy byudjetda asosiy soliqlar tushumini kasb solig'i egallaydi. Yuqoridagi soliqlarni bazasi – imorat, inshoot, mashina, uskunalarni qiymati va ish haqi fondi hisoblanadi. hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

- imorat qiymati: 8% boshlang'ich qiymatidan, har yili qaytadan baholash amalga oshiriladi.

- uskuna va boshqa mol-mulkni qiymati: 16% boshlang'ich qiymatidan olinadi.

- ish haqi fondidan –18% to'lanadi.

Iqtisodiy kon'yukturaga qarab, davlat korxonani solig'ini bir qismini qoplaydi: qoplash ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- 1) Korxonaga beriladigan kompensatsiya hajmida mablag'ni to'liq kommunaga o'tkazadi.

- 2) Kompensatsiya to'g'ri korxonaga beriladi, korxonaga esa o'z navbatida soliqni to'liq to'laydi. Qo'shimcha ishchi o'rinlarini tashkil qilish maqsadida kommuna aniq korxonaga uchun soliqni kamaytirishi yoki umuman bekor qilishi mumkin. Kasbga solinadigan soliq korxonaga faoliyatini natijasi bilan to'liq bog'langan emas. Shuning uchun bu soliq asosiy fondlarga investitsiyani va ishda band ishchilarni o'sish sonini chegaralaydi. Shu sababli bu soliqni tanqid qilinadi. Oilaga solinadigan uchta soliqni mahalliy boshqaruv organiga qarashli hududda yashovchilar to'laydi. Har bir kommuna o'zining solig'i stavkasiga ovoz beradi. Imorat va qurilishlarni qiymatidan kelib chiqib, hamma shu mulk egalari to'laydi. Bu soliq kommuna byudjetiga (asosiy qismi) tabaqalashtirilgan stavka bilan to'lanadi. Departament byudjetiga kommuna to'lovidan 0,5 hajmda va hududlar byudjetiga kommuna stavkasini 3% to'lanadi. Uy-joyga solinadigan soliqni bazasi baholangan qiymat hisoblanadi. Baholash 1970 yillari amalga oshirilgan. Uy-joylarni 8 ta kategoriyalarga bo'ladilar.

Soliq bir kvadrat metr tarifi, aloxida sharoitlar mavjudligi uchun ustamadan va hududiy joylanishi uchun belgilangan koeffitsientlardan

iborat. Mamlakatda 25 ming kishi-to'lovchilar bu soliqni beradilar. Ulardan 20%ga yaqini davlat yordami sifatida ushbu soliqni to'lash uchun daromad solig'ini kamaytirilgan hajmda to'laydilar. Yer solig'ini hamma yer egalari to'laydilar. Hisob-kitob bazasi 1ga yerni baholangan qiymati yoki arenda to'lovini mumkin darajadagi qiymati hisoblanadi. Mahalliy soliqlar qayta taqsimlash funktsiyasini bajaradi. Lekin shunga qaramay, har bir hududiy birlikni byudjeti bir-biriga bog'liq emas, mustaqil harakat qiladi.

Mahalliy organlar huquqi ma'lum darajada chegaralangan. Ularning qaror qabul qilishdagi erkinliklari soliq solish bo'yicha qonuniy aktlar va respublika ham hududiy organlarni ko'rsatmalarida belgilangan. Hududlarni o'z-o'zini moliyalashtirish byudjet muvozanatiga bog'liq. Ya'ni, mahalliy byudjet defitsit yoki ortiqcha qoldiq bilan qabul qilinmaydi. Shuning uchun hududlarni byudjetini rejalashtirishda birinchi o'rinda harajatlarni aniqlash turadi.

Kommunalarda o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash departamentlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat byudjeti ayrim hududlarni iqtisodiy ahvolini tenglashtirish (baravarlash) uchun subsidiyalar ajratadi. Davlat yordami soliqlardan imtiyozlar berish yo'li bilan ham amalga oshiriladi.

Mahalliy soliqlar tarkibidan to'rtta asosiylarini ajratib olish mumkin:

- Qurilgan uchastkalarga solinadigan yer solig'i;
- Qurilmagan uchastkalarga solinadigan yer solig'i;
- Uy-joyga solinadigan soliq;
- Kasbga solinadigan soliq.

Bu soliqlarni stavkalari mahalliy hukumat organlari (general kengash, munitsipal kengash) tomonidan kelgusi yili byudjetini tuzishda belgilanadi. Shuni ko'rsatish zarurki, belgilanadigan stavkani hajmi qonunda belgilangan maksimum hajmdan oshmasligi kerak.

Qurilgan uchastkalarga solinadigan soliq. Soliqni qurilgan va tartibga solingan uchastkalardan olinadi. Soliq hamma ko'chmas mulkka taaluqli – imorat, inshoot, rezervuarlar, silos minoralari va h.k., hamda sanoat va tijorat maqsadlarida foydalanish uchun ajratilgan uchastkalarga solinadi. Soliq solinadigan baza uchastkani kadastrlik arenda qiymatini yarmiga teng bo'ladi. Bu soliqdan davlat mulki, shaharlardan tashqarida joylashgan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan imoratlar ozod qilinadi. Soliqdan yoshi 75 dan yuqori bo'lgan jismoniy shaxslar va ijtimoiy

fondlardan maxsus nafaqa oladigan yoki nogironlar nafaqasini oluvchi kishilar ozod qilinadi.

Qurilmagan yerga solinadigan soliq. Qurilmagan yerga solinadigan soliq dalalar, yaylov, o'rmon, botqoqlik, sho'r tuproq yerlar, ochiq konlar, imorat kurish mumkin bo'lgan uchastkalar va boshqalarga tegishli soliq hisoblanadi. Soliq solish bazasi kadastrlik daromad hisoblanadi. Bu daromad uchastkali kadastrlik arenda qiymatini 80% tashkil qiladi. Soliqdan davlat mulkiga kiradigan uchastkalar ozod qilingan. Sun'iy o'rmonlar va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga mo'ljallangan uchastkalar vaqtincha soliqdan ozod qilinadilar.

Uy-joyga solinadigan soliq. Soliqni uy-joy egalaridan ham, arenda oluvchilardan ham olinadi. Mahalliy soliqlarni stavkalari hududlar bo'yicha keskin farq qiladi. Uy-joy uchun soliqni Nitstsa (kurort zonasi)da yashovchilar 2100 frank to'lasalar, Parijda yashovchi 1300 frankdan kamroq to'laydi. Kam ta'minlangan shaxslar asosiy yashash joylaridan to'liq yoki qisman soliqdan ozod qilinishlari mumkin.

Kasb solig'i. Ish haqi berilmaydigan kasbiy faoliyat bilan doimiy ravishda shug'ullanadigan huquqiy va jismoniy shaxslar kasb solig'ini to'laydilar. Soliqni aniqlashda ikkita element olinib, uni mahalliy organ belgilaydigan stavkaga ko'paytiriladi.

Ikkita elementga quyidagilar kiradi:

- soliq to'lovchi o'zining kasb faoliyatini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan ko'chmas mulkni arenda qiymati;

- soliq to'lovchini o'zining xizmatchilariga beradigan ish haqisini ma'lum foizi (odatdagidek 18%), hamda o'zining olgan daromadi (odatdagidek 10%). Bu elementlar asosida hisoblagan soliq etkazilgan qo'shilgan qiymat solig'ini 3,5% dan oshmasligi kerak. Bu chegara qonun asosida o'rnatilgan.

Kasb solig'i janubiy Karpantradada hisob stavkasini 38%ni va Parij atrofida Neyi-Syur-Sen manzilida 9% ni tashkil qiladi.

Kelajakda mahalliy soliqlar darajasidagi farq qisqarib boradi, lekin to'liq yo'q bo'lib ketmaydi.

Yuqoridagi to'rtta asosiy soliqlardan tashqari, mahalliy organlar boshqa quyidagi mahalliy soliqlarni ham kiritishlari mumkin:

- manzillarni (maydonlarni) tozalashga solinadigan soliq;
- qurilmagan uchastkalarga solinadigan soliq ustiga uning bazasidan qo'shimcha olinadigan qishloq xo'jalik palatasini harajatini qoplash uchun boj;

- kasb solig'ini to'lovchilar beradigan savdo-sanoat palatasini harajatini qoplash uchun boj;
- korxonalar, hunarlar (remeslo) ro'yhatiga (reestr) olinishi majbur bo'lgan korxonalar, hunarlar palatasi harajatini qoplash uchun beriladigan boj;
- konlarni o'zlashtirish uchun mahalliy soliqlar;
- elektr yoritkichlarini o'rnatish uchun yig'imlar;
- foydalanilayotgan uskunalarga solinadigan boj;
- departamentlar byudjetiga o'tkaziladigan imoratni sotishga solinadigan soliq;
- hamma avtotransport vositalariga solinadigan avtotransport vositalari boji;
- qurilish hajmini belgilangan limitdan oshirib yuborganligi uchun soliq;
- maydon bandligi hissasini, ulushini chegarasidan oshirib yuborganligi uchun soliq;
- departament byudjetiga o'tkaziladigan, ko'kalamzorlashtirish uchun soliq.

Bulardan tashqari boshqa mahalliy soliq va yig'imlar ham qo'llanishi mumkin.

2.6. Soliq tizimini boshqarish va soliq nazorati

Frantsiya soliq tizimi qat'iy belgilangan tartib bilan egiluvchanlikni birgalikda olib borish xususiyati bilan ajralib turadi.

Soliq solish ishini Soliq Bosh Boshqarmasi yoki General Soliq Direktsiyasi olib boradi. Uning ro'yhatida 85 mingga yaqin xodimlar bo'lib, ularning tarkibida 65,5 foiz ayollar ishlaydi. Boshqarma 45,0 mln. jismoniy va huquqiy shaxslarga ochilgan hujjatlar to'plamlariga ega. Har yili frantsuzlar 53 mln.ga yaqin har-xil soliq deklaratsiyalari to'ldiradilar, shu jumladan daromad haqidagi deklaratsiya 30,0 mln.ni tashkil qiladi.

Mahalliy soliq markazlari 800ga yaqin, ularda soliq to'lovchilarga ochilgan hujjatlar saqlanadi va soliq yig'ish ustidan nazorat qilish uchun kerak bo'lgan qo'shimcha axborotlar kelib tushadi va to'planadi.

Soliq organlari ayrim soliq to'lovchilar to'lovdan bosh tortganlarini aniqlab 1995 yil ulardan davlat xazinasiga 55 mlrd. frank mablag' tushirdilar. Shundan 19 mlrd. frankni soliq xodimlari «o'tirgan joylaridan turmasdan» deklaratsiyani tekshirish orqali aniqladilar. Soliq organlarini nazorat funktsiyalarini samaradorligi tez ravishda o'sib bormoqda. Oxirgi

10 yillikda nazorat natijasida yig'ilgan mablag' hajmi ikki barobar ko'paydi.

Soliq yig'ish sohasida rivojlanish soliq inspektorlarini ishida sifatli o'zgarishlar natijasi bo'ldi. XX asrni 80- yillarida faqat «elita» brigadalarigina nazorat axborot vositalariga ega edilar. Hozirgi kunda har bir inspektor kuchli «qurollantirilgan». Birinchidan, inspektor bank axboroti «mashinasiga» ega. Bu orqali inspektorlarga bankda har bir ochilgan hisob raqami, bankda amalga oshirilgan yirik pul mablag'ini o'tkazilishi haqidagi ma'lumotlar keladi. Ulardan foydalanib soliq to'lovchi to'ldirgan deklaratsiyani chuqurroq tekshirishga imkoniyat tug'iladi.

Bundan tashqari inspektorlarga yer solig'i solish, uy-joyga soliq solish va kam uchraydigan otchoparlarda egarlanadigan otlar, yaxtalar, samolyotlar to'g'risida ma'lumotlar keladi. Ularga avtomobillarni, ko'chmas mulklarni sotib olish, xatto fuqarolarni ishga qabul qilinganligi to'g'risida ham ma'lumot kelishi mumkin. Soliq organlari, bojxona, jandarmeriya, hatto «Frans telekom», «Elektrositi de Frans» va «Gaz de Frans» organlari bilan ham faol ma'lumotlar almashadi.

Bu darajada ma'lumotlarni kelib tushishi soliq xodimini o'rnidan turmasdan soliq to'lovchi deklaratsiyada ko'rsatgan daromadini hajmi haqiqatligini tekshiradi. Soliq to'lovchi soliq organlaridan yashirinchi xolatda Parij, Marsel yoki boshqa shaharlarda bankda hisob raqami ochishlari ham mumkin bo'lmay qoladi.

Soliq inspektoriga deklaratsiyani ko'rishda soliq to'lovchini to'liqroq tekshirish uchun bor ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rishni o'zigina kifoya qiladi.

Ma'lumotlarni birinchi ishlab chiqish kompyuterlashtirilgan. Birorta deklaratsiya kompyuter ishlovisizz o'tmaydi. Kompyuter deklaratsiyani texnik xatolarini to'g'rilaydi. Har bir noto'g'ri ko'rsatilgan ma'lumot hujjatlarni chuqurroq tekshirishga majbur qiladi.

Deklaratsiyani har tomonlama chuqurroq tekshirish tanlov asosida olib boriladi. Soliq inspektorini bir mayda holat ham e'tiborini jalb qiladi. Masalan, bolalarga qarab turish harajatini oshishi. (Frantsuzlar bolalarga qarab turish uchun tez-tez enaga chaqirib turadilar).

«Shubhali hujjatlar» qaytadan kompyuterga kiritiladi va maxsus programma orqali tekshiriladi. Kompyuter ekranida soliq to'lovchini joriy daromadlari qo'shilgan holda moliyaviy holati oxirgi uch yildagi oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlar ko'rinadi. Agar bu etarli bo'lmasa yana bitta

programma ishga tushuriladi va bu orqali soliq to'lovchini oxirgi adresi aniqlanadi.

Uchinchi programma ko'chmas mulkni holati, xatto sotish, olish va hadya qilish aktlarini ko'rsatadi. Bu orqali bitim bahosini qanchalik haqiqatligini aniqlanadi. Agar bitim bahosi deklaratsiyada ko'rsatilgan daromaddan keskin farq qilsa, uni chuqurroq tekshirishga kirishiladi.

Mamlakatdagi 15 ta ma'lumotlarni to'plash markazidagi hujjatlarni ahamiyati shunchalik qimmatbahoki, ularni adresi ham davlat siri sifatida saqlanadi.

Axborotni aloxida o'zi nazorat ishlarini olib borish uchun etarli emas. Parij atrofidagi Panteneda joylashgan soliq tekshiruvini milliy direktsiyasi tarkibida maxsus brigada tashkil qilingan. Ularning asosiy ishi har kuni matbuot materiallarini o'qib borishdan iborat. Alohida e'tibor sotish-olish, ijaraga berish, aristokratlar hayotiga bag'ishlangan bo'limlarga qaratilgan. Masalan, gala-kontsertdan olingan daromadni yashirish juda qiyin, chunki matbuotda e'lon qilingan. Agar mijozlarni gazetadagi e'lonlar orqali topiladigan bo'lsa soliq inspektoridan qochib qutilib bo'lmaydi. Masalan, bunday e'lonlarni massaj kabineti egalari, estetik xirurgiyani amalga oshiruvchilar va boshqalar berishi mumkin.

Boshqa brigadalar umumiy soni 1300 kishidan iborat mirshablar, hokimiyat, bank, restoran xodimlari xatto avtomobil sotuvchilari bilan o'rnatilgan aloqalari orqali aniq joylardan ma'lumotlar to'playdilar. Ular asosan «muhim mijozlar» -Frantsiyada yirik boyliklarga ega bo'lgan shaxslar bilan shug'ullanadilar. Bu tartibda olingan ma'lumotlar o'ta mahfiy hisoblanadi. Ko'rsatilgan brigadalar ko'pchilik vaqtda yashirin (hufiyona) iqtisodni izidan chiqadilar.

Frantsiyada oxirgi yillari yirik moliyaviy janjallar (mojarolar)ni ochilishi soliq organlari xizmatini natijasi bo'lgan.

Soliq inspektorlari axborotni «norasmiy» manbalaridan ham keng hayrixohlik bilan foydalanadilar. Masalan, anonim xatlar, qo'shnilarni va ayrim ko'rganlarni ma'lumotlarini ham hisobga oladilar. Bu ma'lumotlarni to'rtidan uch qismi eshitilgan gaplarga asoslanganligi uchun keraksiz qog'ozlar tashlanadigan savatlarga ketadi. Lekin ularni qolgan qismi ham soliq xodimlarini katta hajmdagi ishga jalb qilib qo'yadi. Soliq ma'muriyati xabar beruvchilarni mukofotlaydi, faqat soliq to'lovchidan qo'shimcha to'lov o'ndirilib, jarimalar olingandan keyin. Shuni aytish kerakki, inspektorlar davlatga qo'shimcha topib bergan mablag'laridan

proporsional ravishda mukofot olmaydilar. Ular belgilangan oylik bilan chegaralanib qoladilar.

Oxirgi yillari tadbiiq qilingan yangiliklardan biri shundan iboratki, mirshabxona bilan soliq organi faqat ma'lumot ayirboshlashgina bo'lib qolmay, birgalikda ma'lum operatsiyalarni ham amalga oshiradigan bo'ldilar. Bir vaqtda mirshab xodimi guvohnomasi va soliq inspektori guvohnomasi bilan «qurollangan» ellikka yaqin soliq inspektorlari jinoyat mirshabxonasi kabinetlariga joylashadilar. Norasmiy ma'lumotlarga qaraganda, ko'p targ'ibot qilinmaydigan soliq organlarini Maxsus Xizmat tizimi bilan aloqasi o'rnatilgan va ular birgalikda yashirin biznes orqali topilgan pullarni legalizatsiyalash ustidan ish olib boradilar.

Bundan tashqari, qonun bo'yicha hamma joyda paydo bo'ladigan soliq inspektorlari adliyada ko'riladigan hujjatlar bilan tanishib chiqishlari mumkin. Ularni alohida moliyaviy xiyla-nayranglar (firibgarlik), suiiste'mol, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish, «qora kassa»larni harakati qiziqtiradi.

Pirovardida yuqoridagilar ham natija bermasa soliq organlari rasmiy inkor qiladigan xususiy detektivlar xizmatidan ham foydalanadilar. Mayda soliq to'lovchilar soliq inspektorlarining eng yaxshi ko'rgan nishoni hisoblanadi. Ularni tekshirish, qo'rqitish, qarzini undirish eng osoni hisoblanadi. Xazinaga 10-20 ming frank to'laydigan bir necha ming mayda soliq to'lovchilar boshqa bir necha 100 ming frank to'laydiganlardan afzal. Chunki oxirgilar yaxshi advokat yollab umuman qutilish imkoniyatiga egalar yoki to'lash muhlatini ancha keyinga surishlari mumkin.

Yuqori mavqeilik shaxslar bilan maxsus xizmat soliq holatini (vaziyatini) tekshiruvchi milliy direksiya shug'ullanadi. Uning ixtiyorida jamiyatda yuqori xizmatga ega bo'lgan siyosiy arboblarni bo'ladi.

Korxonalar bo'yicha o'zining aloxida tekshirish tartibi va tekshiruvchi soliq xodimlari belgilangan. Kichik, 15 mln.frankgacha oboroti bo'lgan firmalarni tez tekshirish mumkin. Masalan, uch oy ham etarli hisoblanadi. Yirik ko'p millatli kompaniyalarni tekshirish 250 ga yaqin xodim ishlaydigan xalqaro tekshirish milliy direksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday kompaniyalar 6-7 yilda bir marta chuqur tekshiriladi va inspeksiya qilish muhlati bir yilgacha borish mumkin.

Nazorat o'tkazish natijasi bo'yicha qonunbuzarlarga javobgarlik choralari qo'llanadi. Frantsiya soliq qonunchiligi o'zining murakkabliligi bilan ajralib turadi. Soliq kodeksi qo'shimchilar va tushuntirishlar bilan

birgalikda bir yarim ming betdan iborat bo'lib, 4000 dan ortiq moddalarga ega. Shuning uchun oddiy soliq to'lovchi uni o'qib, adashib ketishi hech gap emas. Lekin «aybsizlik ehtimoli» harakat qiladi. Bundan tashqari soliq organlari soliq to'lovchi daromad solig'ini 5%i va boyligiga solinadigan soliqni 10% igacha adashsa qonunbuzarlik deb hisoblanmaydi, lekin qarzni bir oyga 0,75% hajmda jarimani qo'shib to'lashlari kerak. Soliq to'lashdan bosh tortish frantsuz qonunchiligida qattiq jazolanadi.

Soliq deklaratsiyasini soliq organlariga kechikib topshirsalar, soliq summasidan 10% jarima olinadi. Bir oyga kechikish 40% jarima bilan tugashi mumkin. Agar deklaratsiyani ikkinchi marta eslatgandan keyin yuborsangiz jarima summasi ikki barobar oshishi mumkin.

Nazariy jihatdan sizga yana shunday jazo qo'llanishi mumkinki, sizni avtomobilni boshqarish huquqidan 3 yilgacha mahrum qilish huquqiga ega.

Soliq to'lashdan qasddan bosh tortish bir yildan besh yilgacha qamoqqa olish va 5 mingdan 250 minggacha jarima olish bilan jazolanadi. Bunga soliq summasini to'liq to'lamagan va kechiktirilgan muhlatga jarima to'lash kirmaydi.

Soliq to'lovchini xazina bilan to'liq hisoblash uchun majbur qilish qurollaridan biri bankdagi hisob raqamlari, ish haqini «hibsga olish» va mol-mulknini ro'yhatga olish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda qonunchilik soliq to'lovchiga soliq organlarini qarorlarini muhokama-munozara qilish va kerak bo'lsa adliiyaga murojaat qilish imkoniyatini ham bergan. Maxsus uslubiy qo'llanma tayyorlangan bo'lib, uning yordamida oddiy frantsuz soliqni huquqiy zinalaridan ko'tarilib borishi va o'zining ishini echilishini 10 yilgacha keyinga surib yuborishi mumkin.

Shunday qilib, Frantsiyani soliq nazorati tizimi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Masalan, bizda uchramaydigan alohida axborot yig'ish markazlari, maxsus brigadalar va h.k.. Yuqoridagilarni hisobga olib ularning ayrim uslublarini bizda qo'llash foydadan xolis emas deb hisoblaymiz.

Demak, Frantsiyada o'zining tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib, o'ziga xos, boshqa mamlakatlardan ko'p farq qiladigan soliq tizimi mavjudligiga shubha yo'qdir.

Asosiy tayanch iboralar:

- Soliq krediti
- Aholini ijtimoiy guruhlari bo'yicha soliq darajasi

- Jismoniy shaxslarni soliq to'laydigan daromadlarini kategoriyalari (turlari)

- Ko'chmas mulkdan olinadigan uch xil foyda
- Kasb solig'i
- Uy- joyga solinadigan soliq
- Avuar
- Tantem tariqasida olingan daromad

Takrorlash uchun savollar:

1. Yalpi ichki mahsulotda soliqlarni salmog'i bo'yicha Frantsiya Evropa iqtisodiy hamkorlik mamlakatlari orasida qanday o'rinni egallaydi?
2. Frantsiya qo'shilgan qiymat solig'ini birinchi vatani ekanligini tasdiqlang
3. Soliq tizimini boshqarish organlarini tavsifini bering
4. Soliq nazoratini o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Test savollari:

1. Egri soliqlar Frantsiya byudjeti daromadini taxminan qancha qismini (foiz hisobida) tashkil qiladi?
 - a) 30-35
 - b) 40-45
 - c) 45-50
 - d) 50-55
 - e) 55-60
2. Qaysi ijtimoiy guruhlar daromadidan eng yuqori darajada soliq to'laydilar (foiz hisobida)?
 - a) Erkin kasb egalari
 - b) Xizmatchilarc
 - c) Ishchilar, shu jumladan qishloq xo'jaligidagi yollanma ishchilar
 - d) Yuqori mansabdor kadrlar
 - e) Band bo'lmaganlar (nafaqaxo'rlar qo'shilgan holda)
3. Qo'shilgan qiymat solig'ini qaysi stavkalari pasaytirilgan stavkalar guruhiga kiradi?
 - a) 18,6%
 - b) 22,0%
 - c) 15;19%
 - d) 2,1;4,0;5,5%

e) 18,20%

4. Qaysi guruh daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq ob'ekti hisoblanadi?

a) Pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, olingan kreditlar

b) Zararni qoplash uchun olingan sug'urta to'lovlari, jarimalar, qarzga berilgan pullarni olish

c) Yollanib ishlaydiganlarni ish haqi, yer daromadlari (yer, imoratni ijaraga berish), kapital aylanmasidan olinadigan daromad (dividendlar va foizlar), imoratni, qimmatbaho qog'ozlarni qaytadan sotishdan olinadigan daromadlar, aksioner jamiyat bo'lmagan korxonalarini ishlab chiqarish va savdo faoliyatidan olinadigan daromad, tijorat xususiyatiga ega bo'lmagan daromadlar, (erkin kasb egalari daromadi), qishlok xo'jaligi daromadlari

d) a,b,c

e) Hammasi noto'g'ri

5. Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq ob'ekti qaysi davrdagi daromadlar hisoblanadi?

a) Har kvartalda olingan daromadlar

b) Joriy yili olingan daromadlar

c) O'tgan moliya yili natijasida olingan daromadlar

d) Yarim yilda olingan daromadlar

e) Hammasi to'g'ri

6. Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'ida mehnatga to'langan haqni umumiy summasidan nimalar chegiriladi?

a) Ijtimoiy sug'urtaga ajratma

b) Kasb bo'yicha o'qitish harajati

c) Kasb harajati (ishga borish, yo'l harajati, ovqatlanish)

d) «Majburiy halollik» uchun beriladigan chegirma (20%)

s) A,V,S,D

7. Jismoniy shaxslarga, solinadigan daromad solig'ida yerdan olingan umumiy daromatlardan qanday chegirmalar chiqariladi?

a) Imoratni ijaraga berganda - 15% va yerni arendaga berganda - 10%

b) Imoratdan foydalanish harajatlari

c) Imorat va yerlardan olingan soliqlar

d) a,b,c

e) Hammasi to'g'ri

8. Mulkka solinadigan soliqlar guruhiga qaysi to'lov va yig'imlar kiradi?

a) Ish haqiga solinadigan ijtimoiy soliq

b) Korxonalarni avtotransportiga solinadigan soliq
c) Kredit va sug'urta kompaniyalari harajatlaridan olinadigan boj to'lovi

d) Ro'yhatga olish va gerb yig'implari

e) a,b,c,d

9. Ko'chmas mulkdan olinadigan qanday foydalar yig'indisi soliqqa tortiladi?

a) Qurilish jarayonida olingan foyda

b) Ko'chmas mulkdan chayqovchilik xususiyatiga ega bo'lgan foyda olish

c) Imorat qurish uchun yerni sotganda olinadigan ortiqcha foyda

d) Qurilishga huquqini sotish jarayonida olingan foyda

e) a,b,c,d

10. Korxonalariga solinadigan soliqlarni to'lovchilar guruhi:

a) Aktsioner jamiyatlar, javobgarligi chegaralangan jamiyatlar, payga (ulush, hissa) asoslangan shirkatlar

b) Horijiy kompaniyalarni bo'limlari

c) Foyda olish operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan markaziy davlat hokimiyatining muassasalari, organlari, departamentlar organi, kommunalar

d) a,b,c

e) Hammasi to'g'ri

11. Korxonani foydasini aniqlashda umumiy tushumdan qanday harajatlar chiqarib tashlanadi?

a) Ish haqi, sharoitni ijaraga olish harajati

b) Kreditni qaytarib berish, foizlarni to'lash

c) Soliqlarni to'lash harajatlari

d) Amortizatsiya ajratmasi, vakillik harajatlari

e) a, b, d

12. Aktsioner kompaniyalar foydasiga solinadigan soliq qaysi muxlatlarda to'lanadi?

a) 20 fevral va 20 may;

b) 20 avgust va 20 noyabr;

c) Kelgusi yil 3 oy davomida;

d) 20 yanvar 20 mart;

e) a, b, c

13. Frantsiyani majburiy-hududiy tarkibiga qanday organlar kiradi?

a) Regionlar (hududlar)

b) Shtatlar, kantonlar

c) Departamentlar

d) Kommunalalar

e) a, b, c

14. Qaysi mahalliy soliqlar to'g'ri soliq hisoblanadi?

a) Kasbga solinadigan soliq

b) Uy-joy, yerga solinadigan soliq

c) Manzillarni (maydonlarni) tozalashga solinadigan soliq, departament byudjetiga o'tkaziladigan ko'kalamzorlashtirish uchun soliq

d) Imoratga solinadigan soliq

e) a, b, c.

15. Mahalliy byudjetlarda soliqlarning salmog'i qaysi darajada?

(%da):

a) 30

b) 60

c) 50

d) 40

e) 25

III BOB. BUYUK BRITANIYA SOLIQ TIZIMI

3.1. Soliq tizimining asoslari

3.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

3.3. Merosga solinadigan soliq

3.4. Kompaniyalarni soliqqa tortish.

3.4.1 Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq.

3.4.2 Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq.

3.4.3. Neftdan olinadigan daromadga solinadigan soliq.

3.5. Qo'shilgan qiymat solig'i.

3.6. Aktsizlar, bojlar.

3.7. Gerb yig'imi.

3.8. Mulk solig'i

3.1.Soliq tizimining asoslari

«... U (soliq) shaxslarga, kim ularni (soliqni) to'lasa, bu quldorlik emas, erkinlik belgisi deb hisoblanadi»

A.Smit

Buyuk Britaniyada boshqa mamlakatlarga nisbatan birinchi marta soliq tizimining shakllanish bosqichlari revolyutsion yo'llar orqali rivojlanib borgan daromald solig'ini Angliyada 1449 yili kiritishga harakat qilindi. Lekin orqali bu harakat keng grafligida qo'zg'olon ko'tarilishiga saab bo'ldi va Qirol bosh soliq yig'uvchini o'lim jazosiga tortib soliqni bekor qildi.

1472 yili Eduard IV 13 ming kamonchilarni Frantsiya bilan urush uchun yollash maqsadida parlamentdan 10% daromad solig'ini kiritishga ruhsat oldi.

Angliyaliklar to'lashdan bosh tortdi va Qirol Vaziri soliqni bekor qildi. 1641 yili kiritilgan jon boshiga solinadigan soliq ham bekor qilishga to'g'ri keldi.

Hamma davlatlar tomonidan o'zlashtirilgan hozirgi daromad solig'i Angliyada kelib chiqqan va u 1799 yili Napoleon bilan urush olib borish uchun kerakli pulni topish maqsadida kiritilgan.

Buyuk Britaniyani soliq tizimi XIX asrda yuzaga kelgan. Lekin, o'sha davrni soliqqa tortish xususiyatlari hozirgi kunda ham saqlanib qolingan.

1973 yilgi soliq islohoti Buyuk Britaniyani soliq tizimiga muhim o'zgartirishlar kiritdi va uni Evropa Ittifoqi a'zolarining soliq tizimiga

yaqinlashtirdi. Hozirgi kunda Buyuk Britaniyani soliq tizimiga hamma rivojlangan davlatlarga taaluqli muhim o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bu o'zgarishlar hukmron hukumatni siyosatini ifodalaydi. Oxirgi o'n yil davomida bir qator soliq tadbirlari o'tkazildi. Shu jumladan, bosqichma-bosqich soliq stavkalarini pasaytirish amalga oshirildi (Aholiga 33 dan 20% gacha va korporatsiyalar uchun 52 dan 33%gacha).

Aholini turli qatlamlariga engillik berish sharti o'zgartirilgan, ayrim soliqlar bekor qilinib yangi soliqlar kiritilgan.

Umuman, soliq qonunchiligining islohoti murakkab soliq tizimini muammolarini echish, uning asosiy tamoyillarini takomillashtirish, aholi va korporatsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri soliqqa tortish, soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan edi.

Mamalakatni soliq islohotida asosan ikkita yo'nalishni ajratish mumkin:

1. Shaxsiy daromadni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish (Belgilangan tadbirlar 1987 yili tamomlangan edi).

2. Korporatsiyalarda daromadni soliqqa tortishni o'zgartirish (1987-1988 yillar belgilangan majmua tadbirlarni tamomlashga mo'ljallangan edi).

Soliq tadbirlarini amalga oshirishda bo'lgan markaziy o'zgarishlar 1988-89 moliya yili mamlakatni byudjetida o'z ifodasini topdi. Ushbu byudjet soliq islohotini tubdan o'zgartirilgan dasturini ifodalab hukumatning yangi siyosatini amalga oshirishga qaratilgan edi.

Bu dasturda dunyoda eng oddiy soliq tizimini tashkil qilish belgilangan edi.

Buyuk Britaniya soliq islohotini asosiy mazmunini yorituvchi tadbirlar quyidagilar;

- Shaxsiy daromad solig'ini eng pastki stavkasini 27% dan 20%ga tushirish;

- Aholi daromadini ko'p bosqichli qismlarga bo'lishni va ularga progressiv stavkalarni qullashni kamaytirish; (Avval qo'llangan ko'p pog'ona o'rniga faqat soliqni uchta stavkasi qoldirilgan: 20, 24 va 40%).

- Er-xotinni daromadlarini alohida-alohida soliqqa tortish;

- Soliq tizimini soddalashtirish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bilan soliq tizimi eng adolatli bo'ldi deb bo'lmaydi. Ingliz iqtisodchi olimlarini fikri bo'yicha o'rtacha statistik britaniyalik soliq to'lovchi daromadiga soliq va ajratmalar oldingi to'langan salmog'i darajasida qolgan. Lekin o'rtacha stavka o'rtacha

daromaddan ishchilar uchun 14% dan 16%ga oshdi; shu bilan bir qatorda o'rtacha darajadan 5 marta yuqori oylikka ega bo'lgan shaxslardan olinadigan soliqning o'rtacha stavkasi 52% dan 35% gacha tushdi. Natijada sanoati rivojlangan davlatlar orasida yuqori ish haqi oluvchi britaniyaliklar eng kam soliqqa tortiluvchilar bo'lib qoldi. Past ish haqi oladigan shaxslar uni teskarisi- yuqori darajada soliqqa tortiladigan bo'ldilar. Natijada o'rtacha ish haqi oladigan va ikki bolali xodim o'zining ish haqisidan 34% ni soliq sifatida to'laydigan bo'ldi (sotsial sug'urtaga ajratmani qo'shgan holda).

Bu ko'rsatkich AQShda 26% va Yaponiyada 23 foizni tashkil qiladi.

Buyuk Britaniyada 1997-1998 moliya yili byujet daromadlarini yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 39% tashkil qildi. 2001-2002 yili esa 37% ga teng bo'ldi. Bu daromadlar tarkibida soliqlarni alohida olinsa ulushi kamroq bo'ladi.

Buyuk Britaniyaning hozirgi zamon soliq tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Markaziy soliqlar: aholidan olinadigan daromad soliqlari, korporatsiyadan olinadigan daromad solig'i (korporatsiya solig'i), neftdan olinadigan daromadga soliq, merosdan olinadigan soliq va egri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, boj va aktsizlar, gerb yig'imi). Yuqorida keltirilgan to'lovlar 90% dan ortiq soliq tushumlarini ta'minlab beradi.

2. Mahalliy soliqlar (mol-mulk) 10% gina tashkil qiladi.

Buyuk Britaniyada quyidagi soliq stavkalari qo'llaniladi: (1996-1997 moliya yili byudjeti bo'yicha).

Aholidan olinadigan daromad solig'i, (%):

13900 f.st.gacha bo'lgan daromaddan – 20

225500 f.st.dan ortiqcha daromaddan- 40

Korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i, 33 %

«Kichik biznes»dan olinadigan daromad solig'i yoki foydadan 300000 f.st.dan kam bo'lgan kompaniyalar - 24%

Merosdan olinadigan soliq, %:

200000 f.st.gacha -0

200000 f.st.dan yuqori -40

Qo'shilgan qiymat solig'i, % -17,5

Aktsizlaar har-xil

Gerb yig'imi, % -0,5-2,0

Davlat byudjetini to'g'ri daromadini 64% aholidan olinadigan daromad solig'iga va 19% kompaniyalar daromadidan olinadigan soliqqa to'g'ri keladi.

Buyuk Britaniya soliq qonunchiligini asoslari quyidagilar hisoblanadi: aholidan olinadigan va korporatsiyalardan olinadigan daromad soliqlari bo'yicha 1970 yili chiqarilgan qonuniy akt, qo'shilgan qiymat solig'i to'g'risida 1979 yili chiqarilgan akt va korporatsiyalardan olinadigan soliq bo'yicha 1996 yili chiqarilgan aktlar.

Britaniya Parlamenti soliqlarni mamlakatda yig'ish bo'yicha qonuniy hukmronlikka ega. Parlamentni yuridik huquqi Angliya, Uels, Shotlandiya hamda shimoliy Irlandiyaga qo'llaniladi va tarqatiladi.

Hukumat g'aznachilik (moliya vazirligi) yordamida mamlakatni soliq tizimini boshqaradi. Hukumatni bu faoliyati parlament tomonidan nazorat qilinadi.

Buyuk Britaniya g'aznachilik organi yagona davlat moliya instituti bo'lib, boshqa mamlakatlarda deyarli unga o'xshash tashkilot yo'q. G'aznachilik eng qadimiy saqlanib qolingan konstitutsion institut hisoblanadi. Hukumat tarkibida ham eng asosiy vazirlik deb qabul qilingan. Uning tarixiy yuzaga kelgan huquqi boshqa mamlakatlarni moliya vazirligi huquqidan kengroq.

G'aznachilik mamlakatni umumiy iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishga javob beradi.

Buyuk Britaniyada soliq qonunlari hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Soliq qonunchiligini amaliyotda qo'llashni boshqarish huquqi maxsus organga maxfiy kengash (Privy council), vazirlar, ichki daromadlar boshqarma (Board of inland revenue)lariga beriladi. Yuqorida ko'rsatilgan organlarni faoliyati chegarasini maxsus qabul qilingan parlament aktida ko'rsatilgan. Soliq organlarini huquqlarini tushuntirish va aniqlik kiritishda yo'riqnoma, o'zgacha «maxfiy kengash buyrug'i» (orders in council) beriladi. Ushbu buyruq misoli sifatida ikki tomonlama soliq solishdan saqlash to'g'risida kelishish hujjatini tuzish, harakatdagi soliq qoidalarini yo'riqnomasi (statutory instruments) va uning bir qismi- jismoniy shaxslardan daromad solig'ini olish tizimi. Soliq xizmatini tashkil qilish shaxnachilikka qarashli ikkita hukumat departamentiga berilgan: ichki daromadlar boshqarmasi, boj va aktsizlar boshqarmasi.

Rasmiyatchilik bo'yicha ichki daromadlar boshqarmasi mustaqil hukumat muassasi hisoblanadi. Uning funktsiyasiga huquqiy va jismoniy

shaxslardan soliq olishni nazorat qilish kiradi (daromad solig'i, kapitalga solinadigan soliq, gerb yig'imi).

Ma'muriy jihatdan bu nazorat bosh soliq inspektori (shief inspector of taxes) tomonidan amalga oshiriladi. Uning idorasi Londonda joylashgan. Bosh inspektorga 700 ta rayonlar idorasi bo'ysinadi, ularning yordamida to'g'ridan-to'g'ri aholidan soliqlar yig'iladi va ularda informatsiya va maslahat berish xizmatlari tashkil qilingan. Rayon idoralarida bir necha yuz soliq inspektorlari ishlaydi, ular korxonalarini hisob raqamlarini, shaxsiy hisob raqamlarini o'rganadilar, soliq solinadigan summani baholaydilar, qaytadan hisob-kitob qilish, to'lovlarni qaytarish bilan shug'ullanadilar, adliyada ichki daromadlar boshqarmasini manfaatini himoya qiladilar.

Ichki daromadlar boshqarmasini (I.D.B.) bosmaxonasida AQSh va Frantsiyalardan farq o'laroq qo'llanmalar chop qilinmaydi. Eng ko'p tarqalgan hujjat, I.D.B. tomonidan har xil masalalar bo'yicha chop etiladigan maxsus broshyura (risola) lar hisoblanadi.

Boj va aktsizlar boshqarmasi ixtiyorida hamma egri soliq solish tizimi bo'ladi. (Gerb yig'imidan tashqari).

3.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Aholiga daromad solig'i solish hozirgi zamon tizimi asosi 1973 yilgi islohotda tashkil qilingan.

Buyuk Britaniyada aholidan daromad solig'i olish birinchi marta Napoleon urushi vaqtida kiritilgan. Lekin soliq tizimi doimiy element sifatida 1842 yildan hisoblanadi.

Daromad solig'i eski qo'llangan davlat daromadi manbai bo'lmish soliq va tariflarga almashtirildi. Soliq stavkasi yagona va eng past belgilandi. 1 funt sterlingdan 7 pens (3%). Shu holatda bu stavka XIX asr davomida saqlanib qoldi Qrim urushi davrida soliq stavkasi ko'tarildi va yillik daromad 100 f.st. tashkil qilinganida 1 f.stdan 1 shilling 1 pens (7%) olinadigan bo'ldi. Bu davrda soliq to'lovchilarni umumiy soni 500000 ga yaqin edi. XX asrni boshlariga kelib ular 1,0 mln.dan oshdi.

1909 yildan boshlab daromad solig'ida progressiya tartibini o'rnatish kiritildi. Shu yili L.Loyd Dyorj xukumati byudjeti bo'yicha daromaddan yuqori soliq olish tartibini o'rnatdi. Agar daromad bir yilga 5000 f.st.(150000 f.st. joriy bahoda) ohsa soliq stavkasi 1 shilling 8 pensni tashkil qildi (8%).

Birinchi jahon urushida katta mablag'ga bo'lgan talab yuqori soliq stavkasini 50% gacha oshishiga olib keldi. Lekin, soliq to'lovchilar soni uncha ko'p emas edi.

1939 yili o'rtacha ish haqi bir yilga 180 f.st.ni tashkil qildi. 20 mln, ishchidan o'sha davrda 4 mln kishi, yoki beshdan bir qismi soliq to'lar edi. Ikkinchi jahon urushini soliq hisobiga moliyalashtirish uchun hukumat tomonidan qabul qilingan qaror sharoitni mutlaq o'zgartirdi. Bu davrda aholini pul daromadi keskin ko'payishi sharoitida soliq stavkasi oshirildi va soliq olinadigan pog'ona tushirildi. Bunday holat faqat daromad solig'ini miqdoriy o'zgarishiga emas, balki uning harakat qilishidagi funksiyasini ham sifatli o'zgarishiga sabab bo'ldi. Soliq to'lovchilar soni ko'paydi. Ular endilikda 12 mln. kishini tashkil qildi.

Bu davrda ish haqini olish jarayonida soliqni ushlab (har hafta) tartibi belgilandi. Ushbu tartib RAU-as-you-earn (PAGE) nomi bilan mashhur. Soliq olishni bu metodi hozirgi kunda ham qo'llanib kelinmoqda.

1960 yilga kelib, butun mehnatga qobiliyati bor aholi daromad solig'i to'laydigan bo'ldi. 1973 yilgi soliq islohotida aholidan olinadigan daromad solig'i birlashtirilgan, yagonalashtirilgan va ma'lum tartibga solingan tizimga aylandi.

Shaxsiy daromad solig'ini Buyuk Britaniyani daromad oladigan hamma aholisi to'laydigan bo'ldi. Lekin soliq solish tartibi soliq to'lovchini egallagan lavozimiga bog'liq bo'lib qoldi. Soliq qonunchiligiga binoan hamma soliq to'lovchilar rezidentlar va nerezidentlarga bo'linadi.

Buyuk Britaniya rezidenti uni daromadi manбайдan qat'iy nazar soliqqa to'liq tortiladi. Nerezidentlar faqat shu mamlakat hududidan olgan daromadlari yuzasidan to'laydilar. Lekin Buyuk Britaniya soliq qonunchiligida «rezident» tushunchasi aniq belgilangan emas. Jismoniy shaxslarni rezidentlik masalasini echish uchun soliq amaliyotida va Britaniya adliyasida, haqiqiy sharoitga asoslangan qator mezonlar hisobga olinadi.

Shaxs har bir soliq yili (6 apreldan kelgusi yili 5 aprelgacha) Buyuk Britaniya hududida 6 oy va undan ortiq yashasa, daromadini soliqqa tortishda uning rezidentlik bo'yicha masalasi ko'riladi. Agar, shaxs Buyuk Britaniyada 6 oydan kam yashasa, uning rezidentlik masalasi boshqa holatlarni hisobga olgan holda echiladi. Agar shaxs chet elga qatnab tursa va Buyuk Britaniyada uy, kvartira yoki boshqa «yashash» joyini ushlab tursa shu davrda necha kunligidan qat'iy nazar faqat bir marta kelib ketsa ham hohlagan soliq yilida rezident hisoblanadi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada xech qanday turar joyi bo'lmagan va bu davlatga 4 yil davomida surunkasiga kelib ketadigan va har yili o'rtacha 3 oydan kam bo'lmagan muxlatda bu hududda yashaydigan shaxs ham Buyuk Britaniyani rezidenti deb hisoblanadi.

Ingliz soliq qonunchiligi yana ikkita tushunchani ifodalaydi. Odatdagi (oddiy) rezident va domitsiliy. Ingliz tilida gapiruvchi xalqlarda bu ikki termini mazmuni bir xil. Lekin boshqa mamlakatlarda uning mazmuni har xil.

Odatdagi (oddiy) rezident termini Buyuk Britaniyada doimiy yashaydigan va butun umrini shu yerda o'tqazadigan, (lekin qisqa muxlatli xizmat va shaxsiy ishlar bo'yicha chet elga borishi hisobga olinmagan holda) shaxs hisoblanadi.

Yil davomida shaxs to'liq bu yerda bo'lmasada oddiy rezident hisoblanadi (lekin rezident hisoblanmaydi).

Chet elda doimiy yashash joyi bo'lgan shaxs Buyuk Britaniyaga kelganda, Buyuk Britaniyada doimiy yashash uchun qolish-qolmasligini bilmasa uch yil o'tgandan keyin oddiy rezident hisoblanadi.

Agar shaxs Buyuk Britaniyaga doimiy yashash uchun kelgan bo'lsa, birinchi kelgan kundan boshlab oddiy rezident hisoblanadi. Domitsiliy-doimiy yashaydigan mamlakatda joyi bo'lgan shaxs hisoblanadi. «Domitsiliy» tushunchasi fuqaro va rezidentdan farq qiladi. Shaxs bittadan ortiq mamlakatda rezident bo'lishi mumkin. Domitsiliy esa aniq davr ichida faqat bitta mamlakatda bo'la oladi.

Buyuk Britaniyada yollangan ishchi sifatida ishlovchi chet el fuqarosi (rezident yoki norezident), bu mamlakatda, domitsiliy deb qaralmaydigan bo'lsa-da, ayrim soliq engilliklarini oladi.

Buyuk Britaniyadan tashqarida yashovchi domitsiliy statusiga (huquqiy holat) ega shaxs va Buyuk Britaniyada chet el yollovchilari qo'lida ishlasa, shu davlatda yollovchilardan oladigan ish haqini 50% soliqqa tortiladi.

Agar shu shaxs o'ndan to'qqiz yil Buyuk Britaniya rezidenti hisoblangan bo'lsa, uning 75% ish haqisi soliqqa tortiladi.

Chet davlatlarda oladigan daromadlarini faqat Buyuk Britaniyaga o'tkazadigan hajmigina soliqqa jalb qilinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i umumiy jamlangan daromaddan emas, daromadni qismlari (ish haqi, dividend, renta va h.k.) - shedulalari bo'yicha soliqqa tortiladi. Soliq solish oltita shedula bo'yicha amalga oshiriladi:

-A shedulasi bo'yicha yerga, imoratga va h.k. bo'lgan mulkdorchilikdan olinadigan daromad;

-V shedula bo'yicha tijorat maqsadida o'rmon massivlaridan foydalanishdan olingan daromadlar (Agar ular D shedula bo'yicha soliqqa tortilmasa).

-S shedula orqali hukumat tomonidan Buyuk Britaniyada chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar va Buyuk Britaniyada foizi to'lanadigan xorijiy davlatlarni xukumati tomonidan chiqarilgan ba'zi bir qimmatbaho qog'ozlardan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladi.

-D shedula bo'yicha ishlab chiqarish –tijorat faoliyatidan olingan foyda (savdodan, sanoatdan, qishloq xo'jaligi, transportdan), shaxsni erkin kasb faoliyatidan olingan daromadi, qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromad (S shedula bo'yicha olinmagan bo'lsa), zayomlar bo'yicha olingan foizlar, chet elda olingan va Buyuk Britaniyaga o'tkazilgan daromadlar.

-E shedulasi orqali mehnat orqali topilgan daromadlar: ish haqi, xizmatchilarni oyliqi, pensiyalar soliqqa tortiladi;

-F shedula bo'yicha dividendlar va boshqa kompaniyalarni taqsimlanadigan daromadlari soliqqa jalb qilinadi.

To'lash zarur bo'lgan daromad solig'ini hajmini aniqlash uchun haqiqiy olingan yillik daromaddan engilliklar chiqarib tashlanadi. Hozirgi kunda Buyuk Britaniyada har bir kishi soliq olinmaydigan daromadga huquqi mavjud. Uni o'zgacha nomi shaxsiy skidka deyiladi. Shaxsiy skidka (chegirma) 1990-1991 soliq yili bir yilga 3900 f.st.ni tashkil qildi. Agar daromad 3900 f.st.dan ortiq bo'lsa, ortiqcha summadan 20% stavka bilan soliq olinadi. Eng yuqori stavka 40% bo'lib, daromad summasi 25500 f.st.dan ortiq bo'lganda qo'llanadi.

Qoida bo'yicha, ilgari Buyuk Britaniyani soliq qonunchiligi oilaviy juftlikni bitta soliq to'lovchi deb hisoblar edi. Ayol erkakni qaramog'ida hisoblanib, soliq organlariga bitta soliq deklaratsiyasi topshirilar edi. Xotinini har qanday daromadi erining daromadiga qo'shilar edi va eri qo'shimcha shaxsiy chegirma olish huquqiga ega bo'lar edi.

Hozirgi vaqtda er-xotinni daromadlari alohida-alohida soliqqa tortiladi.

Soliq bazasini aniqlashda qator mayda imtiyozlar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ko'rlarga, to'liq bo'lmagan oilaga va uy xizmatkoriga talabi bor va undan foydalanayotganlarga beriladigan imtiyozlar. Shaxsiy chegirma, oilaviy chegirmalardan tashqari garrovga qo'yilgan pul bo'yicha

foizlarga beriladigan imtiyoz va nafaqa badali bo'yicha beriladigan imtiyozlar katta ahamiyatga ega.

E shedulasi bo'yicha daromaddan xizmat nuqtai - nazaridan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tish, avtomobil xizmati bilan bog'liq va boshqa harajatlar chiqarib tashlanadi. Bajarayotgan ishi yuzasidan shaxsiy avtomobilidan foydalansa, daromadidan avtomobilga xizmat ko'rsatish joriy harajatlari va amortizatsiyasini chiqarib tashlaydi.

Ishidan uyigacha yo'l bilan bog'liq bo'lgan harajatlar chiqarib tashlanmaydi.

Buyuk Britaniyadagi norezidentlar, qoida bo'yicha daromad solig'idan shaxsiy imtiyoz olishlari mumkin emas.

Lekin, eri yoki xotini qo'yidagi holatlarda bo'lganlarida unga imtiyoz berilishi mumkin:

a) millatlar hamjihatligi mamlakatlari va Irlandiya respublikasida yashovchi Buyuk Britaniya fuqarosi bo'lsa;

b) Buyuk Britaniya davlat xizmati devonida yoki Angliya mustamlakalarida xizmatchi yoki ilgari xizmatchi bo'lgan bo'lsa;

v) Men va Normandiya orollarini rezidenti bo'lsa;

g) o'zining yoki oila a'zolarining sog'lig'i tufayli boshqa mamlakatlarni rezidenti bo'lsa, lekin ilgari Buyuk Britaniya rezidenti bo'lgan hollarda;

d) davlat xizmatchisini beva ayoli bo'lsa;

e) Buyuk Britaniya bilan soliq kelishuvi mavjud bo'lgan mamlakatni rezidenti bo'lsa.

Daromad solig'iga jismoniy shaxslarni quyidagi daromadlari tortilmaydi: Natura holatidagi nafaqa (agar uni pul shakliga aylantirib bo'lmasa) va faqat uni olgan shaxs foydalansa, milliy omonat sertifikatlari bo'yicha olingan foizlar, nogironlarga berilgan nafaqa, studentlarga berilgan stipendiya va nafaqa, ishsizlikda, kasallikda va onalikda beriladigan yordam (nafaqa) puli (ijtimoiy sug'urta tizimi bo'yicha beriladigan nafaqa va boshqalar).

Buyuk Britaniya soliq qonunchiligida qator boshqa mamlakatlar kabi shaxsiy daromad yollanma ishlashdan olgan ish haqiga va investitsiyadan olgan daromadlarga bo'linadi. Birinchi bo'lagi bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin investitsiyadan olinadigan daromad bazasiga eng avvalo fondlar, dividendlar, sof renta to'lovlari olinadi. Kapitalni o'sishi soliqqa tortilmaydi. Lekin kapitalda ulushli qatnashish natijasida olingan dividend

solig bazasi hisoblanadi. Yana ta'kidlash joizdir, ulushni sotishdan olingan har qanday daromadi ham soliqqa tortilmaydi. 1965 yilgacha ushbu daromadlar umuman soliqqa tortilmas edi.

Lekin 1965 yili kapitalni o'sishiga maxsus soliq kiritildi. 1982 yildan boshlab kapitalni o'sishidan tashkil topgan daromad inflyatsiya hisobiga chegirmani chiqarib tashlagandan keyin hisoblanadigan bo'ldi. Daromad bilan kapitalni o'sishi o'rtasidagi chegara o'chirildi. Masalan, doimiy asosda kapitalni o'sishidan daromad oladigan shaxs savdogar hisoblanadi va daromad solig'iga tortiladi. Doimiylik etarli, lekin savdo faoliyatini majburiy belgisi bo'lib qolmaydi.

Manbadan soliq olish tizimini ishlatish imkoniyati bo'lmasa, soliq to'lovchi o'zining kutilayotgan daromadini soliq inspektoriga deklaratsiya orqali xabar qiladi. Inspektor deklaratsiya va olingan ma'lumotlar asosida daromad solig'ini hisobini qiladi. Soliq yil davomida to'rt marta baravar hajmda to'lanadi. Yilning oxirida daromadni to'liq summasi aniqlangandan keyin, daromad solig'ini oxirgi hisob-kitobini qiladi. Yilning oxirida ortiqcha to'langan summa soliq to'lovchiga qaytariladi. Kam to'langan summa undiriladi.

Ish haqidan tashqari daromadga ega bo'lmagan fuqarolar besh yilda bir marta deklaratsiya to'lg'azadilar. Birinchi marta deklaratsiya yangi ishga kirgan vaqtida to'ldiriladi. Bu ish zudlik bilan soliq undirish uchun emas (chunki soliq oldingi daromadlardan olinadi), to'lovchini soliq huquqiy holatini belgilash uchun amalga oshiriladi (masalan, oilaviy ahvoli). Ushbu ma'lumot asosida soliq xizmati to'lovchiga va unga ish beruvchiga kodlangan xabarnoma yuboradi. Kodlangan soliq deklaratsiyasini 282 - N deyiladi. Ma'lumotda eng avvalo oilaviy ahvoli yoritilishi kerak. Oilali soliq to'lovchilarni deklaratsiyasi «V» belgisiga ega (er, xotin uchun) va «N» (yagona shaxs uchun). Soliq to'lovchilar tomonidan hech qanday harakatni keragi yo'q. Ish beruvchilar soliq jadvali bilan ta'minlangan, soliq tizimidan olingan kodlangan ma'lumotga asosan soliqni hisoblab ushlaydi.

Daromad solig'i kumulyativ baza asosida yillik daromad yig'indisidan hisoblanadi.

Masalan, majburiyatni hisoblaganda bir haftani past daromadi yuqori daromadli keyingi hafta bilan yoki teskarisi solishtirilib ko'riladi. Buyuk Britaniya soliq tizimini xususiyati shundan iboratki, soliq faqat kumulyativ asosda hisoblanib qolmay, shu tarzda yig'iladi ham.

Boshqa mamlakatlarda kumulyativ asos faqat soliqni hisoblashda, lekin uni yig'ishda ishlatilmaydi. Soliq har hafta shu haftani ish haqisidan olinadi. Agar yillik daromad bo'yicha qaytadan hisob-kitob kerak bo'lsa, bu yilni oxirida amalga oshiriladi.

Ingliz soliq tizimi shunday sharoit yaratadiki, yilning har bir davrida shu davrga to'g'ri keladigan yillik soliq summasi olinadi. Kumulyativsiz tizimda har hafta yillik soliq engilligini 1/52 qismi chiqaziladi. Agar haftalik daromad haftalik engillikdan kam bo'lsa, ortiqcha summa oldin to'langan soliqni bir qismiga olib boriladi.

Shunday qilib soliqni qaytarish amalga oshadi. Agar oldin olingan soliq juda kam bo'lsa, engillikni qolgan qismi kelajakda to'lanadigan soliqqa olib boriladi. Shuning uchun yil davomida qat'iy hisob-kitob olib borishga to'g'ri keladi.

Agar bu ish to'liq, vaqtida olib borilsa, yilning oxirida katta hajmda hisob-kitob qilishg'a to'g'ri kelmaydi. Lekin bu ustunlik bilan bir qatorda kamchilik ham mavjud.

Soliq to'lovchi har haftalik soliq to'lovini yozuvini yil davomida olib borishi kerak. Bu ancha qimmat ish. Yana qiyinchilik oilaviy ahvol o'zgarganda ham yuzaga kelishi mumkin. Oilada o'zgarish bo'lsa, soliq to'lovchi to'xtovsiz ichki daromadlar boshqarmasiga xabar qilib turishi kerak.

Buyuk Britaniya aholisi 58 mln.ni tashkil etadi. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini ulushi 2000 yilda 25,1% teng bo'lgan. Uning salmog'i 1975 y- 40%, 1990 y – 27,9% teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslar daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'i muntazam kamayib borgan. 2000 yilda 26 mln 200 ming kishi daromadlari haqidagi deklaratsiyalarni to'ldirganlar, yoki bu jami aholining 45,1% ni tashkil etadi. Ularning 67 foiziga to'lovlar qaytarilishiga to'g'ri keldi.

Amerika aholisi 265,3 mln kishidan oshiqroqdir, 2000 yilda 116 mln 837 ming kishi yoki aholining 44% yakka soliq deklaratsiyasini to'ldirdilar. Bu yerda ham 67% yoki 78,3 mln odamga ortiqcha to'langan soliq summalarini qaytarishga to'g'ri keldi.

Keltirilganlardan ayon bo'ldiki, umumdeklaratsiyalash tizimi orqali nafaqat soliqlar samarali yig'imlar, balki yil davomida ortiqcha to'langan soliq to'lovlari qaytariladi va bu narsa deklaratsiyalash tizimining soliq to'lovchilarga nisbatan anchagina adolatli tizim ekanligini anglatadi.

3.3. Merosga solinadigan soliq

Buyuk Britaniyada to'g'ri soliqlardan biri- merosga solinadigan soliq hisoblanadi. 1986 yilgacha bu soliqni kapitalni o'tqazish solig'i va undan ham ilgari – mol-mulk solig'i deb yuritilgan.

Soliqning nomi bir necha bor o'zgarishiga qaramay, mazmuni boshlang'ich holatida qolgan. Agar hadya qiluvchi, mol-mulkni bergandan keyin etti yil davomida hayot kechirsa, hadyalarning ko'pchilik turidan soliq olinmaydi. Mulk egasini o'zgarishidagi bu tartib soliq qonunchiligida soliq solishdan ozod qilish imkoniyati hisoblanadi.

Mol-mulkni berish vaqtida soliq olinmaydi. Lekin keyingi etti yil davomida beruvchi vafot qilsa, ushbu kelishuv soliqqa tortiladi.

Soliq stavkasi mol-mulk qiymati 200000 f.st.dan ortiq bo'lsa, ortiqchasidan 40% hajmda belgilangan.

Har qanday soliq tizimini boshqaruv apparati tanqid qilinadi. Britaniyani soliq tizimi xizmati juda qimmat bahoga ega. Amerikalik soliq to'lovchilar bir yilda bir marta murojaat qiladi. Ingliz soliq to'lovchisi to'rt marta murojaat qiladi. Buning sababi, Angliyada shedulyar soliq solish va soliqni o'tgan yilgi bazadan hisoblash yuqori malakali tekshirishni talab qiladi. Inglizlar faqat soliq deklaratsiyasini to'ldiradi va jo'natadi. Soliqni qanday hisoblashganligini bilmaydi. Faqat uni to'lash uchun inspeksiyaning chek oladi. Bu soliqni tushunmaslikka va to'lovchilarni ortiqcha hayojonlanishiga olib keladi.

Buyuk Britaniyani soliq yig'ish harajati umumiy soliq daromadlarini 2%ni tashkil qiladi. Bu Shvetsiya va Kanadadan 2 marta va AQShdan 4 marta ko'p. Bu bilan bir qatorda AQShda soliq organlarini ro'yhatida Buyuk Britaniyaga qaraganda 2 marta kam xodimlar ishlaydi va soliq to'lovchilar 4 marta ortiq. Yuqori harajatlarni sababidan biri kompyuter tizimi orqali ma'lumotlarni ishlab chiqish etarli darajada emas.

3.4. Kompaniyalarni soliqqa tortish

3.4.1. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq

Korporativ soliq yoki kompaniyalardan olinadigan daromad solig'i Buyuk Britaniyada 1965 yili joriy qilingan. Bu soliq ilgari qo'llangan kompaniyadan olinadigan soliqni almashtirdi. 1965 yilgacha ular jismoniy shaxslar bilan barovar soliqqa tortilar edi. Bundan tashqari ularga qo'shimcha 15%li foydaga solinadigan soliq qo'llangan. Buyuk Britaniyada 1965 dan 1973 yilgacha qo'llangan klassik korporatsion soliq tizimi o'rniga korporatsion soliqni amputatsion tizimi kirib keldi.

Korporatsion soliq rezident kompaniyalarni soliq yili davomida olgan hamma foydalari uchun qo'llaniladi.

Ingliz soliq qonunchiligi «Kompaniya» tushunchasiga korporativ organlarni (korporativ bo'lmagan shirkat assotsiatsiyalarini chiqarib tashlanadi) kiritadi. Oxirgilar jismoniy shaxslar kabi soliqqa tortiladi.

Korporativ organ o'z faoliyatini shu mamlakatda olib borsa, uning faoliyati shu mamlakatda nazorat qilinsa, ya'ni shu mamlakatda uning boshqaruv organi joylashgan bo'lsa, rezident kompaniya deb hisoblanadi.

Korporatsion soliq kompaniya daromadlaridan ruxsat etilgan ayirmalarni olib tashlangandan keyin ushlanadi.

Soliq stavkasi har yili mamlakat byudjeti tasdiqlanganda belgilanadi va o'tgan moliya yili daromadiga nisbatan qo'llanadi.

Hozirgi kunda 33 va 24 (kichik biznes uchun) foiz stavkalar qo'llanadi.

Korporatsion soliq solish, 12 oydan oshmaydigan hisobot davrida amalga oshiriladi. Hisobot davri ikkita moliya yiliga to'g'ri kelsa, bu tez-tez yuz berib turadi, kompaniya daromadi ikkiga bo'linadi va uning har bir bo'lagiga, taaluqli moliya yili belgilangan stavkalar qo'llanadi.

Asosan soliq hisobot davridan 9 oy o'tgandan keyin to'lanadi.

Amputatsion tizimga binoan kompaniyadan korporatsion soliq hamma olingan foydasi yuzasidan ushlanadi. Agar bu foyda aksionerlar o'rtasida taqsimlanadigan bo'lsa, kompaniya to'lagan soliqning ham bir qismi bo'linadi va aksioner to'laydigan daromad solig'ida hisobga olinadi.

Amputatsion tizim beshta asosiy belgilari bilan ifodalanadi:

-kompaniya korporatsion soliqni yagona stavka bilan hamma foydasi (taqsimlangan va taqsimlanmagan) yuzasidan to'laydi.

-Daromad solig'i dividendlar manbaida ushlanmaydi.

-Agar kompaniya dividend to'laydigan bo'lsa, u oldindan korporatsiya solig'i hisobiga avans to'lovini berishi kerak. Korporatsiya solig'i avansini soliq stavkasini aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan foyda summasiga qo'llash yo'li bilan aniqlanadi.

-Daromad solig'ini to'lashda Buyuk Britaniyani rezidenti, olingan dividenddan to'langan avansni chiqarib tashlash huquqiga ega.

Chiqarib tashlanadigan summani stavkasi qoida bo'yicha shaxsiy daromad solig'ini asosiy stavkasiga bog'langan.

Hisob-kitob qilish muhlati nihoyasiga etganda, kompaniya tomonidan to'langan korporatsion soliqni avansi, korporatsion soliqni to'lash majburiyatidan chiqarib tashlanadi.

Norezident korporatsiyalarni foydasi, korporatsiya Buyuk Britaniyada filial va bo'limlar orqali savdo qilgan taqdirdagina korporatsion soliqqa tortiladi.

«Buyuk Britaniyada savdo olib boradi» degan tushuncha qonunda aniq belgilangan emas, lekin ingliz adliyasi tomonidan bunday faoliyatni olib borish chegarasi belgilangan. Faqat bu holda tovarlarni sotish va olish «savdo qilayapti» degan tushunchani anglatmaydi.

Lekin ingliz ist'emoalchisiga tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatish bo'yicha kontrakt tuzilgan joy, norezident savdo qilgani to'g'risidagi muhim omil hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada bo'limlari orqali savdo qilayotgan norezident kompaniyalar korporatsion soliqqa quyidagi holatlarda tortiladi:

a) Bo'lim yoki bo'lim nomidan bevosita va bilvosita savdo qilish natijasida olingan daromad;

b) Bo'lim tomonidan mulkdan yoki mulkka bo'lgan huquqdan olingan daromad;

v) aktivlarni o'sishidan olingan kapitaldan bo'limlarni foydalanishi.

Norezident kompaniyalar Buyuk Britaniyada yuzaga keladigan hamma daromaddan daromad solig'i to'laydilar. Norezident kompaniyalar taqsimlanadigan foydadan korporativ solig'ini avansini to'lamaydi.

Ayrim holatlardan tashqari, norezident kompaniyalar rezidentlarga qo'llanadigan tartibda korporatsion soliqqa tortiladi. Lekin norezidentga beriladigan yillik foizlar va boshqa har yilgi to'lovlar (masalan, royalti) chiqarib tashlanmaydi (agar soliq kelishuvida ko'rilmagan bo'lsa). Buyuk Britaniya rezidentlariga beriladigan to'lovlar chiqarib tashlanadi. Faqat shu vaqtdagi, agar to'lovlar korporatsion soliqqa tortiladigan daromad hisobidan amalga oshirilgani qayd etilgan hollarda.

Soliq olinadigan daromad kompaniyani umumiy tushumidan qonun bo'yicha belgilangan soliq yili davrida amalga oshirilgan hamma harajatlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Ko'pchilik qonuniy hujjatlar chiqarib tashlanadigan harajatlarni ko'rsatmaydi, ko'proq chiqarilmaydigan harajatlarni ifodalaydi. Shunday qilib, qonun bo'yicha man qilinmagan hamma harajatlarni chiqarib tashlaydi. Harajatlarni chiqarib tashlash huquqiga ega bo'lish uchun, ular «joriy harajatlar» moddasi bo'yicha o'tishi kerak, to'liq va faqat tadbirkorlik faoliyatiga sarflanishi zarur.

Yalpi daromaddan (tushumdan) chiqarib tashlanadi;

1. Ish bilan bog'liq bo'lgan joriy harajatlar. Masalan, imoratni ijaraga olish (ularni sotib olish emas), ta'mirlash qiymati (lekin o'zgartirish, qo'shish, rekonstruksiya qilish qiymati emas), valyuta kursi o'zgarishi natijasida valyuta zayomlaridan yo'qotish. Agar bu zayomlar «joriy harajatlar» moddasidan o'tgan bo'lsa va h.k.

Xususiy xarakterga ega bo'lgan joriy harajatlar, uy-joyi ijaraga olish, ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lmagan har qanday harajatlar, imoratni modernizatsiya qilish harajati, foizlarni potentsial tarzda yo'qotish, sheriklarni qarz majburiyatlari, yillik har xil to'lovlari, Buyuk Britaniya norezidentlariga yuqori stavkali foizni berish to'lovlari, soliq jarimasi va kapital qo'yilma bilan bog'liq bo'lgan boshqa harajatlar chiqarib tashlashga ruxsat etilmaydi.

2. Ishlab chiqarish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan ishchilarni ishdan bo'shatishda kompensatsiya berish (faqat kompaniyani yo'q qilishdagi harajat emas), xodimlarni texnik va kasb bo'yicha qayta tayyorlash, mukofotlar va sovg'alar berish kabi to'lovlar.

3. Kompaniyani moliya masalalari bo'yicha yuridik maslahatlar, buxgalteriya hisobi bo'yicha xizmatga haq to'lash, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan transport harajatlari (Agar, shubhalik holat bo'lsa, qisman chegirma beriladi).

4. Litsenziya va shunga o'xshash to'lovlar va kelajakda olinadigan foyda bilan bog'lik to'lovlar (masalan, qishloq xo'jalik ekinlarini parvarish qilish harajati bo'yicha hosil bir necha yil keyin olinishi mumkin), siyosiy partiyalarga to'lovlar (ular milliylashtirishni o'tkazmaslikka kafolat bergan taqdirda). Siyosiy partiyalarga beriladigan boshqa har qanday to'lovlar chiqarilishi mumkin emas.

5. Kompaniya va boshqa hamkorlarni xodimlarini dam olishi uchun vakolatli harajatlar (agar ular ma'lum chegarada bo'lsa va ish faoliyati bilan to'g'ri bog'liq bo'lmasa), reklama xarakteriga ega bo'lgan qiymati 10 f.st hajmidagi sovg'a berish (ozuq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlaridan tashqari), kompaniyani mahsuloti namunasi shaklidagi sovg'alar. Sovg'a harajatlarini hajmi har bir oluvchiga berishga 10 f.st.dan oshmasligi kerak.

6. Xayriya yordami berish maqsadida xizmat ko'rsatish uchun taklif qilingan xizmatchilarni ish haqisi va 1987 yildan boshlab o'qituvchilik ishlari uchun haq to'lash.

7. Uskunalarni sotib olgan vaqtda qilingan ta'mirlash harajati chiqarilmaydi. Agar bu harajatlarni joriy harajatlarni tarkibiga kirsam, ular chiqarib tashlanadi.

8. To'liq va faqat ishlab chiqarish uchun qilingan va u bilan bog'liq bo'lgan ish haqi, harajati, suv, elektroenergiya, gaz bilan ta'minlash, yoritish, pochta harajatlari, isitish, telefon, kantselyariya tovarlari va boshqalar (Agar shubhalik bo'lsa, qisman chiqariladi).

9. Muxtojlariga yordam berish fondiga ajratma, hayr-ehson. Bu harajatlarni yuqori chegarasi oddiy aksiyalar bo'yicha beriladigan dividendlar summasini 3 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

10. Tijoratdan va notijorat faoliyatdan ko'rilgan zararlar.

11. Daromad manbaida foiz, royalti, patent to'lovlaridan kompaniyadan olinadigan daromad solig'i, shu to'lovlarni amalga oshirishda kompaniyadan olinadigan daromad solig'idan chiqarib tashlanadi.

12. Hisobot davrida, hisobdan chiqariladigan muddati o'tgan qarzlarni (faqat tijorat xususiyatligi).

Ilmiy tekshirish harajatlari to'liq kompaniyani yalpi daromadidan chiqarib tashlanadi.

3.4.2. Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq

Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq foyda keltiradigan kapital aktivlarni ayrim turlarini sotganda olinadi. Ular quyidagilardan iborat: xususiy avtomobillar, uy-joy, milliy omonat sertifikatlari, obligatsiyalar va boshqalar. Soliqning asosiy maqsadi-chayqovchilik bitimlarini hajmini va foydasini chegaralashdan iborat. Daromad mulkni bozor bahosi bilan uni sotib olish bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar jismoniy shaxs soliq to'lovchi bo'lsa, harakatdagi daromad solig'ini eng yuqori stavkasi asosida soliq to'lanadi. Soliqni to'lovchi kompaniya hisoblansa, korporatsiyani foydasiga solinadigan soliqni asosiy stavkasi asosida olinadi. Norezident kompaniyalar bu soliqni to'lamaydilar.

3.4.3. Neftdan olinadigan daromadga solinadigan soliq

Shimoliy dengizda neft qazib oladigan kompaniyalarga maxsus soliq tartibi o'rnatiladi. Bu kompaniyalar neftli korporatsiya solig'ini (petroleum reventax) 75%li stavka bilan to'laydilar. Lekin ular umumiy korporatsion soliqni to'lashdan ozod qilinmaydilar.

3.5. Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'i (VAT) katta ahamiyat kasb etadi. Buyuk Britaniyada bu soliq 1973 yil 1 apreldan kiritilgan. Shu yili mamlakat katta iqtisodiy ittifoqqa kirgan. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qabul qilingan hamma qonuniy hujjatlar 1983 yili qabul qilingan yagona qonuniy akt (hujjat)da to'plangan. Keyinchalik bu soliqni olish texnikasi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha hujjatlar qabul qilingan. Qonun Angliya, Shimoliy Irlandiya, Shotlandiya va Uels (Men orolini qo'shib) qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i Moliya Vazirligini boj to'lovlari va aktsiz boshqarmasi ixtiyoriga kiradi.

Tadbirkor, qoida bo'yicha, har kvartalda soliq deklaratsiyasini to'lg'azadi va soliqni boshqarmaga o'tqazadi yoki ortiqcha to'langan summani qaytarib oladi.

Deklaratsiya kvartal tugagandan so'ng bir oy muxlat ichida boshqarmaga jo'natiladi. Vazirlik bilan kelishilgan holda bu muxlat 7 kunga uzaytirilishi mumkin. Agar vazirlik mahsulot jo'natuvchiga doimiy ravishda to'lasa, kelishilgan holda soliq deklaratsiyasi har oyda to'ldiriladi.

Boshqarma tamaki, alkogolli ichimliklar, o'yin bizneslari va boshqalar bo'yicha yig'im va aktsizlarga ham javob beradi. Ichki daromadlar boshqarmasi (hamma to'g'ri soliqlarga javob beradi) va yuqorida ko'rsatilgan boshqarma o'rtasida ma'lumotnoma berish bo'yicha doimiy aloqa mavjud. Soliq solish o'z-o'zini soliqqa tortish qoidasiga asoslanganligi uchun boj va aktsizlar boshqarmasi doimiy ravishda bir yildan 9 yilgacha oraliq muddat bilan tekshiruv o'tkazadi. Lekin yirik tadbirkorlarni tekshirish har oyda o'tqazilishi mumkin. Butun hamma hujjatlar 6 yil davomida saqlanishi kerak. Hisob-kitobni yurgizishni maxsus shakli yo'q. Sotuvchilarga yagona talab shundan iboratki, ularning yozuvlari oddiy shaklda bo'lib, yozuvlarni tekshirish uchun qulay bo'lishi kerak. Ularni tasdiqlash uchun vaucherlarni (hisob raqamlarni) va schet-fakturalarni saqlab turish kerak.

Kompyuter texnikasini qo'llash hamma yoqda tarqalgani uchun Moliya Vazirligi bu sohada maxsus huquqlarini qo'llashga ruxsat oldi. Masalan, boj va aktsizlar boshqarmasi mijozlar foydalanadigan kompyuterlarga ma'lumotnomani tekshirish uchun ruxsat olganlar va tekshirish vaqtida firmani xodimlaridan foydalanishi mumkin. Bir yilga 22100 f.st. yoki kalendar kvartalga 7500 f.st. oborotga ega bo'lgan hamma tadbirkorlar (nol stavka bilan to'lovchilarni qo'shib) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar sifatida boshqarmada ro'yhatdan o'tadilar. Faoliyati

o'zgargani, joyi o'zgargani va boshqa o'zgarishlar to'g'risida tadbirkor bojxona va aktsizlar boshkarmasiga xabar qilishi kerak.

Bir necha umumiy nazorat ostidagi kompaniyalar qo'shilgan qiymat solig'i to'lash maqsadida guruh tarzida ro'yhatdan o'tishlari mumkin. Bu holatda yagona deklaratsiya tuziladi va guruh a'zolari o'rtasidagi bitimlarga soliq solishmaydi. Bojxona va aktsizlar boshqarmasi keng miqyosda hududiy bo'limlarga ega bo'lib, ularga ma'lumotnomalar to'plash, ro'yhatdan o'tkazish, deklaratsiyani qaytadan ishlash kabi vazifalar yuklatilgan. Ro'yhatdan o'tkazish faoliyat olib barayotgan joyda amalga oshiriladi.

Ro'yhatdan shaxs (jismoniy, huquqiy) o'tkaziladi, uning faoliyati emas. Agar bu shaxs bir necha faoliyat bilan shug'ullansa ham, ro'yhatdan bir marta o'tadi. Agar tadbirkor, ro'yhatdan o'tishga kerakli oboroti kam bo'lsa, o'zining soliq inspeksiyasiga 30 kunlik muxlat ichida ro'yhatdan o'tkazishni yo'q qilinishi to'g'risida murojaat qiladi.

Ro'yhatdan o'tgan vaqtdan boshlab tovarlar va xizmatlar hisobga olinishi kvartallar bo'yicha olib boriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olinishi, kompaniya yoki shaxsni moliya faoliyatini hisobga olinishi bilan bir vaqtda bo'lishi mumkin. Lekin, to'lovchi deklaratsiyani topshirish muxlatini o'ziga qulay vaqtga o'tqazib berish to'g'risida xat orqali murojaat qiladi.

Soliq deklaratsiyasi o'z-o'zini soliqqa tortish printsipi asosida to'lg'aziladi. Har bir kvartalni oxirida soliq xizmati deklaratsiya shaklini to'lovchilarga jo'natadi va bu deklaratsiyalar kvartal tugagandan so'ng 30 kun ichida qaytib kelishi kerak. Agar soliq majburiyati paydo bo'lsa bir vaqtni o'zida uni qoplash kerak.

Bojxona va aktsizlar boshqarmasi deklaratsiyani to'lg'azishni bir yilda bir marta amalga oshirilishiga ham ruxsat beradi.

Bunday holat, kam xodimlarga ega bo'lgan va shu sababli har kvartalda deklaratsiya to'lg'azish qiyin bo'lgan mayda biznes korxonalariga beriladi.

Bir oylik soliq deklaratsiyasi to'lg'azish tartibi ham qo'llaniladi. Buning qulayligi, ro'yhatdan o'tgan shaxs boshqarmaga to'langan soliqni qaytarish to'g'risida tez-tez murojaat qilib turganida ahamiyatli bo'ladi. Qoida bo'yicha bu holat doimiy eksport qilish va boshqa operatsiyalarda nol stavka bilan soliq olinganda qo'llaniladi. Agar to'lov bank pul o'tkazishi (telegraf yordamida o'tqazishlar) bilan amalga oshirilsa, vazirlik soliq to'lashda hamma texnik operatsiyalarni amalga oshirish uchun

qo'shimcha 7 kun beradi. Belgilangan vaqt o'tkaziladigan mablag' bo'yicha vazirlikni bankdagi hisob raqamini kreditlanishi uchun kerak. To'lovchi o'zini bergan topshirig'i to'liq bajarilgani to'g'risida to'liq ishonch hosil qilishi kerak. Boj to'lovi va aktsizlar boshqarmasi bilan soliq bo'yicha hisob-kitob qilayotganda to'lovchi tovarlarni sotib olganda to'langan soliq summasini chegirib qolib, faqat farqinagina to'lashi kerak. Agar ayrim kvartallarda ushlanib qolinadigan summa soliqdan ko'p bo'lsa, boshqarma farqni deklaratsiyani olganidan keyin 10 kun muxlat ichida qaytaradi.

Agar bu summa katta hajmda bo'lsa, vazirlik deklaratsiyani to'g'ri to'lg'azilganligini tekshiradi.

Bu vaqtda to'ldiriladigan summani to'xtatib qolish imkoniyatini beruvchi kredit cheki deb ataluvchi hujjatdan foydalaniladi.

Sotuv hajmidan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda mijozlardan, kassaga kelib tushgan mablag' emas, balki ko'rilayotgan davrdagi mahsulotni hajmi inobatga olinadi.

Bu holatda schet-faktura yoki batafsil nakladnoylar(molga, yukka qo'shib jo'natiladigan hujjat) asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu vaqtda shunday holat yuz berishi mumkinki, tadbirkor yuborgan tovariga to'lovni olmasdan boshqarmaga soliq to'lashga majbur bo'ladi. Mayda biznes uchun bunday holat juda og'irlik qilishi mumkin. Bunday vaziyatda hukumat soliqni mijozdan jo'natilgan mahsulotga pul kelib tushgandan keyin hisob-kitob qilish qoidasini qo'llaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha sotuvchilar va soliq organi o'rtasidagi kelishmovchilikni maxsus tashkil qilingan mustaqil bo'lgan tribunal ariza asosida echadi. Agar kelishmovchilikni echimi topilmasa, masala Oliy sudga oshiriladi.

Buyuk Britaniya qonunchiligi bilan katta iqtisodiy ittifoq o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelsa, Strasburgdagi Evropa sudi masalani ko'rib chiqadi.

Har-xil buzg'unchiliklarga yo'l qo'yilganda, shu jumladan jinoiy javobgarlik, firibgarlik, ro'yhatdan o'tishini kechiktirish, ruxsat etilmagan hujjatlarni ro'yhatdan o'tmasdan oldin qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha jo'natish, soliq majburiyatini to'lg'azish bo'yicha tartibni buzishlarga yo'l qo'yilganda jazolash choralari qo'llaniladi. Qonunchilikda yo'l ko'yilgan jinoiy ishlar bo'yicha soliqni ikki barobar to'lash yoki ishni holatiga qarab, 6 oy va undan yuqori muxlatlarga qamoqqa olish tartibi o'rnatilgan. Firibgarchilik soliq summasini to'liq to'lash tartibini qo'llash bilan

jazolanadi. Ro'yhatga turish kechiktirilsa, soliq summasidan 30% hajmida jarima solinadi. Ruhsat berilmagan soliqni olishda ayblanuvchilar ham yuqoridagi hajmda jarima to'laydilar. Boshqa buzg'unchiliklarga ham jarima solishni maxsus qoidasi ishlab chiqilgan.

Buyuk Britaniya qonunchiligida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar guruhi qat'iy belgilangan. Ular asosan tovar sotuvchi va xizmat ko'rsatuvchi shaxslar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatda soliqni 3 ta stavkasi qo'llaniladi: 0; 8 va 17,5%.

Nol stavkasi 17 ta guruh tovarlar va xizmatlar uchun qo'llaniladi. Guruhni tarkibi quyidagilardan iborat: oziq-ovqat, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, kitoblar va h.k., ko'r va cho'loqlarga qo'llanmalar, yoqilgi va isitish, uy-joy qurilishi, imoratlarni qo'riqlash, xalqaro xizmatlar, transport, ko'chirib yuriladigan pritsepli uylar, uylar, oltin, qimmatbaho qog'ozlar, dorilar, cho'loqlarga tabobat xizmati, eksport, ehsonlar, kiyim va oyoq kiyimlar.

Tijorat xarakteriga ega bo'lmagan korxonalar va tashkilotlarni yoqilg'i va elektroenergiya bilan ta'minlash xizmatiga 8% li soliq stavkasi qo'llaniladi.

Soliqdan ozod qilinadigan tovarlar va xizmatlar guruhi ham mavjud. Guruhni tarkibi: yer, sug'urta, pochta xizmati, o'yin biznesi va lotoreyalar, moliya, ta'limot, sog'liqni saqlash va o'zaro yordam ko'rsatish, dafn qilish xizmati, mutaxassislashgan jamiyatlar, sport musobaqlari, san'at mahsulotlari.

Tovar va xizmatlarni soliqdan ozod qilishni juda keng miqyosda qo'llanishi umumiy bozor a'zolari ichida bu davlatda ushbu soliqni salmog'ini ichki yalpi mahsulotda eng pastligi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bu soliq mamlakat byudjetini daromadida asosiy o'rinni egallaydi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, qo'shilgan qiymat solig'ini oddiy tushunish va harakat qilishi o'zini oqlamadi.

Lekin, mutaxassislarni fikri bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini samaradorligi ham to'liq o'zini namoyon etmadi. Bunga erishish uchun vaqt kerak va uni takomillashtirish ustida ish olib borish zarur.

3.6. Aktsizlar, bojlar

Bilvosita soliqlar tarkibida aktsiz solig'i ikkinchi o'rinni egallaydi. Aktsiz olinadigan tovarlarga spirtli ichimliklar, yoqilg'i, tamaki mahsulotlari, transport vositalari kiradi.

Spirtli ichimliklar va yoqilg'i birligi (litr)dan aktsiz qat'iy belgilangan

stavkada olinadi. Tamaki mahsulotlariga aktsiz bahoga ustama qo'yish shaklida foiz hisobida belgilanadi. Aktsiz yig'imlarini stavkasi 10 dan 30 foizgacha belgilanadi.

3.7. Gerb yig'imi

Gerb yig'imi Buyuk Britaniyaning eng eski soliqlaridan hisoblanadi. Bu yig'im 1694 yili kiritilgan. Yig'im bitim yoki shaxsga emas, hujjatga solinadigan soliq hisoblanadi. 1891 yilgi qonun va keyingi qo'shimchalar bo'yicha bu soliq shaxslar tomonidan fuqarolik-huquqiy bitimlarni tuzganda to'lanadi. Deyarli hamma tijorat va huquqiy hujjatlarga soliq to'langanligini tasdiqlovchi maxsus shtamplar qo'yilishi kerak.

Ayrim holatlarda gerb yig'imini stavkasi qat'iy summada (qoida bo'yicha 25 pensdan 2 f.st.gacha) va boshqa holatlarda advaler printsipi asosida olinadi, ya'ni bitimda qatnashuvchi mulkni qiymatidan foiz hisobida ushlanadi. Masalan, mulkdorchilik huquqini o'tkazish hujjatlarini to'lg'azishda quyidagi tartibda gerb yig'imi olinadi. Mulkga egalik qilish huquqini o'tqazuvchi hujjatda mulk 60000 f.st.gacha bo'lsa gerb yig'imidan ozod qilinadi. Agar mulk 60000 f. st.dan ortiqcha baholansa gerb yig'imini stavkasi mulk qiymatini 1% dan iborat bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bitimini ro'yhatga olinganda qimmatli qog'ozlarga to'lanadigan summani 0,5% hajmida gerb yig'imi olinadi.

3.8.Mulk solig'i

Buyuk Britaniyada 1990 yilgacha mahalliy byudjetlarni daromadiga tushadigan soliqlar maibai, ko'chmas mulkdan olinadigan soliq hisoblangan. Bu mulkka yer, uy-joy, magazinlar, muassasalar, zavod va fabrikalar kirgan. Qishloq xo'jalik yerlari va ulardagi qurilishlar (uy-joy imorati hisobdan tashqari), cherkovlardan bu soliq olinmaydi. Soliqni asosi bo'lib mulkni yillik sof qiymati hisoblanadi. Mulkni ijaraga berganda belgilanadigan bahoga yaqinlashtirish maqsadida vaqt-vaqti bilan mulk qaytadan baholanib turiladi.

Angliya va Uelsda soliq olinadigan mulkni qiymati ochiq bozorda ijaraga olish qiymatiga teng bo'lish tartibi o'rnatilgan. Bu vaqtda ijaraga oluvchini ta'mirlash, joriy harajatlar, texnik xizmat va sug'urta harajatlarini qoplashi hisobga olingan bo'ladi.

Buyuk Britaniyada uzoq yillar uy-joy imoratlarini ijaraga olish tizimini ochiq bozori bo'lmaganligi sababli, ularni renta qiymatini aniqlash qiyin bo'lgan. 1956,1963 va 1973 yillar mulklarni qiymatini qaytadan

baholash amalga oshirilgan va bu jarayonda ularni qiymati oshirilib borilgan.

Soliq olish maqsadida mol-mulkni baholash tartibi ichki daromadlar boshqarmasida tuzilgan. Maxsus baholovchi komissiya tomonidan amalga oshirilgan. Baholash bo'yicha norozlik mustaqil sud va yer tribunaliga shikoyat qilinadi.

Soliqni asosiy to'lovchilari ijaraga oluvchilar va kvartira olib, unda istiqomat qiluvchilar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda soliq ma'muriyati bo'sh turgan mulkni egalarini ham soliq to'lashga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Soliq stavkasi funt sterlingda hisoblangan mulk qiymatidan foiz hisobida belgilangan.

Masalan, 1 f. st.dan 120 pens stavka belgilangan bo'lsa, qiymati 500 f.st. bo'lgan mulkni egasi bir yilda mahalliy hukumat organlariga 60 f.st. soliq to'lashlari kerak. Soliq stavkasini ma'muriy hududda mo'ljallangan soliq tushumi summasini soliq olinadigan ko'chmas mulkni umumiy hajmiga taqsimlash yo'li bilan belgilangan. Soliq stavkasi Buyuk Britaniya xududlari bo'yicha anchagina farq qilgan. Bundan tashqari sanoat va uy-joy qurilishlari bo'yicha ham katta farq mavjud bo'lgan. Soliqlar yarim yilda kvartallar bo'yicha yoki baravar hajmda olingan.

Bitta hududda bir necha mahalliy hokimiyat idoralari ish olib borgan. Lekin soliqni undirish huquqi eng pastki pog'onadagi ma'muriy hokimiyat idorasiga berilgan.

Ya'ni, bu Buyuk Britaniyada «ko'rsatma berish» tizimi qo'llanilishini alohida ta'kidlab o'tish kerakligini bildiradi. Tijorat maqsadida foydalanadigan sanoat imorat va binolaridan 60% va yashash imoratlaridan 40% umumiy soliq summasi kelib tushadi.

Kam mulkka ega bo'lgan shaxslarni mahalliy soliqlarga tortishga qonun bo'yicha engilliklar beriladi (Masalan, soliq stavkasini 50%ga kamaytirish). Soliq engilliklaridan muhtojlarga yordam beruvchi tashkilotlar ham foydalanadilar. Sanoat zonalarida 10 yil davomida sanoat va tijorat mulkidan mahalliy soliqlar olinmagan.

M.Tetcher huqumati 1990 yil mart oyida mol-mulk solig'ini bekor qilib jon boshidan soliqni kiritdi.

Bu soliq mahalliy emas, umummillat xarakteriga ega edi. Soliq summasi shu hududda yashayotgan katta yoshli aholining soniga qarab, mahalliy hokimiyatlar o'rtasida taqsimlandi. Soliq hajmi mulkni qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Shu maqsadda yashash uyni

qiymati va soliq hajmi o'rtasidagi munosabatni o'ziga xos shkalasi tuzildi. Bu quyidagi tartibda hisoblandi, ya'ni har bir uy yoki kvartirada 2 ta odam yashaydi degan fikrga asoslangan holda, agar imoratda 2-tadan ortiq odam yashasa, bu hisobga olinmaydi. Agar bitta odam yashasa, soliqdan 25% li chegirma beriladi. Jon boshiga solinadigan soliqqa aholi «shiddatli» qarshilikka uchraganidan keyin bu soliqni bosqichma-bosqich bekor qilish to'g'risida qaror qilindi. Bu soliq keyinchalik ko'chmas mulkdan olinadigan soliqqa aylantirildi. Buyuk Britaniyada Leyboristlar partiyasini 1997 yil aprel oyidagi saylovdagi yutug'i soliq tizimini yana o'zgartishga olib keldi.

Asosiy tayanch iboralar:

- G'aznachilik yordamida byudjetni bajarish
- Rezident va norezidentlarni ta'rifi (“domitsilliy”)
- Oddiy rezident va domitsiliylarni farqi
- Shedulalar mazmuni va tarkibi
- Shaxsiy chegirma
- Yollanma ishdan va investitsiyadan olingan shaxsiy daromadlar
- Deklaratsiyani «V» va «N» belgilari
- Kumulyativ va kumulyativsiz tizimlar
- Amputatsion tizim asosida korporatsion soliq olish

Takrorlash uchun savollar:

1. Buyuk Britaniya soliq tizimidagi oxirgi o'zgarishlarni yoriting
2. Soliq tizimini boshqarish organlari
3. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkasini o'sib borish yo'nalishini ifodalang
4. Xaftalik soliqni hisoblash va yig'ish tartibini ahamiyati
5. Shedulyar soliq solish va soliqni o'tgan yilgi bazadan hisoblash Britaniya soliq yig'ish xarajatini qaysi darajada oshiradi?
6. Yillik, kvartal, oylik deklaratsiyalarni QQS bo'yicha qaysi sub'ektlar to'ldiradi?
7. Jon boshidan olinadigan soliqni kiritish va bekor qilish sabablari

Test savollari:

1. Aholi daromadidan olinadigan soliqda qaysi stavkalar foiz hisobida qo'laniladi;
 - a) 14,16,52
 - b) 16,35,40

c) 20,24,40

d) 14,24,34

e) 34,40,52

2. Angliyada olinadigan markaziy soliqlar:

a) Mulk solig'i, aktsizlar, gerb yig'imi

b) Aholidan olinadigan daromad solig'i, kapital o'sishiga solinadigan soliq

c) Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq, merosga solinadigan soliq, bojlar

d) Aktsizlar, mulk solig'i, neftdan olinadigan daromadga soliq

e) Aholidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiya foydasidan olinadigan soliq, merosdan olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i

3. Buyuk Britaniyada soliqni boshqarish organlari:

a) Ichki daromadlar boshqarmasi, boj va aktsizlar boshqarmasi

b) Davlat soliq boshqarmasi

c) Byudjet daromadlari boshqarmasi

d) To'g'ri va egri soliqlar departamenti

e) Hammasi noto'g'ri

4. Jismoniy shaxslar ish haqi olganda qaysi muxlatlarda soliq ushlanadi?

a) Bir yilda bir marta

b) Yarim yilda

c) Bir kvartalda

d) Bir oyda

e) Bir haftada

5. Yashash muxlati bo'yicha qaysi fuqaro norezident hisoblanadi?

a) 5 yil

b) 3 yil

c) 7 oy

d) 5 oy

e) 8 oy

6. Qaysi daromadlar «A» shedulasiga kiradi?

a) Tijorat faoliyatidan olingan foyda, zayomlar bo'yicha olingan foizlar

b) O'rmon massivlaridan foydalanishdan olingan daromadlar

c) Qimmatbaho qog'ozlardan olinadigan daromadlar

d) Yer, imorat va h.k. bo'lgan mulkdorchilikdan olinadigan daromad

e) Ish haqi, xizmatchilarni oyligi, nafaqalar

7. Qaysi daromadlar «G» shedulasiga kiradi?

- a) Ish haqi, xizmatchilarni oyligi, pensiya, stipendiyalar
- b) Erkin kasb faoliyatidan olinadigan daromadlar
- c) Dividendlar, taqsimlab bergan daromadlar
- d) Zayomlar va qimmatbaho qog'ozlar
- e) Yer, imorat va h.k. bo'lgan mulkdorchilikdan olinadigan daromad

8. Jismoniy shaxslarni qaysi daromadlari soliqqa tortilmaydi?

- a) Erkin kasb faoliyatidan olinadigan daromadlar
- b) Ish haqi, xizmatchilar oyligi, zayomlardan olingan daromadlar
- c) Nogironlarga berilgan nafaqa, ishsizlik, kasallik va onalikda beriladigan nafaqa, ijtimoiy sug'urta tizimida beriladigan nafaqalar
- d) Dividendlar, erkin kasbdan olingan daromadlar
- e) Yer, imorat va h.k. ga bo'lgan mulkchilikdan olinadigan daromadlar

9. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini bir yilda necha marta to'laydilar?

- a) 1 marta
- b) 3 marta
- c) 4 marta
- d) 2 marta
- e) 6 marta

10. Soliq deklaratsiyasiga «N» belgisi qaysi oilaviy holatda qo'yiladi?

- a) Er-xotin
- b) Er-xotin va 3 bola
- c) Yagona bir o'zi
- d) Er-xotin va 2 bola
- e) Umuman qo'yilmaydi

11. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq qaysi stavkalar (foiz hisobida) asosida olinadi?

- a) 17,34
- b) 15,30
- c) 20,25
- d) 33,24
- e) 30,34

12. Qo'shilgan qiymat solig'i moliya vazirligining qaysi boshqarmasi ixtiyoriga kiradi?

- a) Ichki daromadlar boshqarmasi
- b) Mahfiy kengash
- c) Zayomlarni milliy fondi

- d) Birlashtirilgan fondi
- e) Boj to'lovlari va aktsiz boshqarmasi

13. Buyuk Britaniyada QQSni stavkalari (foiz hisobida)?

- a) 0,10,20
- b) 0,8,17,5
- c) 5,20,25
- d) 10,15,20
- e) 20,25,23

14. Mulk solig'ini to'lovchilar?

- a) Huquqiy va jismoniy shaxslar
- b) Ko'chmas mulk egalari
- c) Arendaga oluvchilar, kvartira olib turuvchilar, mulk egalari
- d) Ko'chirib bo'ladigan mulk egalari
- e) Hammasi noto'g'ri

IV BOB. BELGIYANING SOLIQ TIZIMI

4.1. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

4.2. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq

4.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan davlat daromad solig'i

4.4. Qo'shilgan qiymat solig'i

4.5. Aktsizlar

4.6. Mulkdan olinadigan soliq

4.1. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg birgalikda bir iqtisodiy ittifoq – Benilyuksni tashkil qiladi. Benilyuks alohida davlatlarining soliq tizimi ko'p asrlik tarixga ega. Ittifoq to'g'risidagi shartnomaga 1958 yili qo'l qo'yilgan. Boshqaruv organlari turar joyi Bryussel shahri hisoblanadi.

Evropa iqtisodiy hamjamiyati – Rimda 1957 yilda 12ta G'arbiy Evropa davlatlari shartnoma imzolaganlar, keyinchalik boshqa davlatlar ham ushbu guruhga qo'shilganlar. Asosiy maqsad - boj ittifoqi tuzish, ishcha kuchi, xizmat va kapitalni umumiy bozorini tashkil qilish, uchinchi davlatlarga nisbatan yagona savdo siyosatini qo'llash hamda qishloq xo'jaligi, transport, ta'lim sohalarida umumiy siyosat yuritish va h.k. Hozirgi zamonda bu mamlakatlarni iqtisodiyoti yagona xo'jalik kompleksini tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda har bir davlatning soliq tizimi, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Boshqa mamlakatlar kabi Belgiyaning soliq solish mexanizmi kompleks xarakterga ega va doimiy o'zgarishlarga duch kelib turadi. Mamlakat qonunchiligi soliq to'lovchilarni ikki kategoriyaga bo'ladi: rezidentlar va nerezidentlar. Paydo bo'lish joyi va manbalardan qat'iy nazar, agar boshqaruvchilar doimiy ravishda Belgiyada bo'lsa va uning ustavi shu mamlakatda ro'yxatga olingan bo'lsa, yuridik shaxs rezident hisoblanadi. To'lovchilar – rezidentlar foydasiga solinadigan soliq, kapitalni o'sishi ham qo'shilgan holda soliqqa tortiladilar to'lovchi - nerezidentlar faqat Belgiyada olingan daromaddan soliqni beradilar.

Belgiyada ham to'g'ri va egri soliqlar mavjud. To'g'ri soliqlardan korporatsiya foydasiga solinadigan soliq va yakka tartibdagi daromad solig'ining stavkalari bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tarkibida Belgiya eng yuqori hajmdaligi bilan ajralib turadi.

4.2.Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq

Belgiya qonunchiligi bo'yicha belgilangan kompaniyalar va mamlakat hududida boshqaruv organi joylashgan huquqiy shaxslar soliq to'lovchilari hisoblanadi. Soliq solinadigan daromaddan kompaniya maxsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan hamma xarajatlarini chiqarib tashlaydi.

Soliq solinadigan sub'ektlar:

1) Tijorat kompaniyasi shaklidagi har qanday belgiyalik korporativ tashkilotlar:

- Ochiq va yopiq aktsioner jamiyatlar, javobgarligi chegaralangan o'rtoqliklar;

- Kooperativlar, umumiy va komondit o'rtoqliklar, xususiy kompaniyalar;

2) Tijorat firmalaridan farq qiladigan Belgiyalik korporativ tashkilotlar:

- Foyda keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy kompaniyalar va kommunal xizmati soxasidagi kompaniyalar;

- Foyda keltirmaydigan tashkilotlar, lekin shunga qaramasdan tadbirkorlik faoliyatidan foyda olgan tashkilotlar;

3) Belgiyadan tashqarida ro'yxatdan o'tgan, lekin shu davlatda shtab-kvartirasi joylashgan va foyda olish uchun tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan tashkilotlar. Amaliyotda bunday kompaniyalar kam uchraydi, qoida bo'yicha, chet el kompaniyalaridan norezidentlardan linadigan foydaga solinadigan soliq olinadi.

ayrim korporatsiyalardan soliq olinmaydi:

1) Huquqiy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan assotsiatsiyalar. Bunday tashkilotlarni foydasi har bir assotsiatsiya a'zosi alohida beradigan shaxsiy soliq deklaratsiyalarida ko'rsatilishi kerak.

2) Foyda olmaydigan va tadbirkorlik bilan shug'ullanmaydigan tashkilotlar.

Soliq xar xil turdagi va xar-xil manbadan olingan kompaniyaning umumiy foydasi hajmidan olinadi.

Har qanday turdagi soliq deklaratsiyasida hisoblash vaqtida aktsioner jamiyati soliq solinadigan foydasi kompaniya ixtiyorida qoldiradigan (kapitallashgan) foydaga va dividendlar, direktorlar kengashining a'zolarini mukofotlash, tannarxiga olib borilmaydigan xarajatlarga bo'linadi. O'rtoqlik soliq solinadigan daromadi, kompaniya ixtiyorida

qoldiriladigan foyda, investitsiyadan olinadigan daromaddan va tannarxiga olib boriladigan xarajatlardan tashkil topadi.

Rezervlar qiymatini o'sishidan olingan foyda moliya yili oxiridagi soliq solinadigan rezerv bilan o'tgan moliya yilining oxiridagi rezerv o'rtasidagi farq hisoblanadi. Soliq solinadigan rezervlar balans rezervidan (yillik hisobotda – balansda hamda foyda va zarar hisobotida ko'rsatilgan rezerv va qo'shilmagan zararlarni qoplash uchun rezerv hamda boshqa maxsus va alohida rezervlar) va yashiringan rezervdan (kompaniya aktiv schetlari bo'yicha buxgalteriya xujjatlarini yillik hisobotda ko'rsatilmagan soliq tekshiruvi o'tkazilganda topilgan rezervlar).

Yashiringan rezervlar quyidagilardan iborat:

1. Qimmatbaho qog'ozlar, aktsiyalar, veksellar soliq organlarini qoidasi bo'yicha uchetda kamaytirilgan qiymatda ko'rsatilgan;
2. Ortiqcha hisoblangan amortizatsiya.

Boshqacha qilib aytganda, hisoblangan amortizatsiya summasi bilan me'yoriy xujjatlarda ruxsat etilgan amortizatsiya o'rtasidagi farqi. Ushbu summalar soliqni aniqlashda kompaniya tomonidan to'lanadi. Belgiya kompaniyasi o'z qaramog'idagi kompaniyani yo'qotilayotganda daromad oladi. Soliq solish maqsadida ushbu daromad dividenddan olinadigan daromadga tenglashtiriladi. Kompaniyaga yo'qotilayotgan kompaniyadan olingan sof daromadning 95% (yoki 90%) chiqazib tashlashga soliq olishda ruxsat etiladi. Bundan tashqari olingan daromadni 33,33% soliq krediti sifatida beriladi. Lekin ortiqcha to'langan soliqlar qaytarilmaydi.

Belgiyada buxgalteriya hisobini asosiy tamoyillari qonun asosida boshqariladi. Soliqni boshqaruvchilar soliq va buxgalteriya qonunchiligi bir-biriga to'g'ri keladi deb tasdiqlaydilar. Lekin ularda ayrim qarama-qarshiliklar mavjudligiga e'tiborni qaratish kerak:

- Kompaniyalar bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, tavakkalchilikni pasaytirish uchun, rezerv tashkil qilib shu summaga soliq solinadigan foydani kamaytirish huquqiga egalar. Bu esa faqat soliq organlari yo'qotish haqiqiylikini tan olsalargina amal qiladi.
- Amortizatsiya hisoblashda soliq organlari kompaniyalar faqat asosiy vositalarni boshlang'ich qiymatini ishlatishlarini talab qiladi.
- Buxgalteriya qonunchiligi mulk qiymatini hisobga olishni bir necha uslublari bo'lishini tan oladi.

Tan olish yil davomida faqat bitta uslubdan foydalanilsa, amalga oshiriladi. Agar yillik balansda bir uslubdan boshqa uslubga o'tganligi

tasdiqlansa va natijada mulkning balans qiymati oshsa, ko'paygan qismi soliq ob'ekti hisoblanadi. Soliq to'lovlari bir yilga to'rt marta avans tariqasida amalga oshirilishi kerak (10 aprel 10 iyul, 10 oktyabr, 10 dekabr). Soliqni to'lamaganligi uchun jarima murakkab sxema bilan aniqlanadi, lekin taxminan to'lanmagan summani 20% gacha boradi. Ko'chmas mulkning qiymati, mashina va uskunalar va xakazo qiymatining o'sishi hisobiga kapitalni ko'paygani (oshganiga)dan olingan foyda soliqqa tortiladi. Agar kompaniyaning ixtiyorida ko'rsatilgan vositalar 5 yildan ortiq bo'lgan bo'lsa va ushbu mulk soliqdan ozod qilinmagan bo'lsa, 21,5% stavka bilan soliqqa tortiladi. Kompaniya o'zining aksiyalarini sotib olsa, sotib olish bahosi kompaniyaning shunga tegishli kapitali summasidan yuqori bo'lsa, ortiqcha summa 43% stavka bilan soliqqa tortiladi. Bu korporatsiyadan olinadigan soliqqa qo'shimcha soliq hisoblanadi. Kompaniya aksionerlaridan boshqa hech qanday soliq olinmaydi.

Daromad solig'i bo'yicha kompaniya yo'q qilingandan keyin qarzlari bekor qilinadi (shunday shart bilanki, kompaniya tijorat faoliyatini to'liq to'xtatsa). Bundan, o'ziga tegishli ko'chmas mulkni sotayotgan rielter firmalar mustasno. Aksionerlar tomonidan kompaniyaga berilgan mulklar qaytadan baholanadi. Qaytadan baholash soliqdan ozod qilinishi mumkin. Kompaniyalar yopilganda aksionerlarga berilgan to'lovlari, ularning to'lagan ajratmalaridan ko'p bo'lsa (kapitalda qatnashgan ulushlari) maxsus stavkalar bilan soliqqa tortiladi – 43 yoki 21,5% aksionerlarni o'zlari hech qanday qo'shimcha soliq to'lamaydilar. Qo'shilish, bir-birini tarkibiga kirib ketish, yiriklashtirish yoki boshqa shaklga o'tish natijasida kompaniyalar yo'q qilinsa yuqorida ko'rsatilgan soliq tadbirlari amalga oshiriladi. Lekin soliqdan quyidagi holatlarda ozod qilinishi mumkin; agar:

- Kompaniya qayta tashkil qilingandan keyin yuridik adresini yoki shtab-kvartirasini Belgiyada saqlab qolsa;
- Qo'shish, yiriklashtirish faqat huquqiy amalga oshirilib, ishlab chiqarish quvvati saqlanib qolinsa;
- Kompaniya kelajagi to'g'risida aksionerlar tomonidan hali qaror qabul qilinmagan bo'lsa;

kompaniyaning natijaviy soliq majburiyatini aniqlash uchun soliq krediti va avans tariqasida to'langan soliqlarni hisobga olish kerak:

- Ko'chmas mulkka avans solig'i. Ko'chmas mulk baholanadigan renta daromadi asosida soliqqa tortiladi. Agar daromad ko'chmas mulkni

kadastr qiymatini 12,5% ortiq bo'lmasa, bu summani korportsiyadan olinadigan soliqdan chiqazib tashlanadi.

- Korporatsiya soliq to'laganda Belgiyada olingan foiz, to'lovlar bo'yicha 25% stavka bilan olingan avans solig'i umumiy korporatsiya solig'idan chiqarib tashlanadi.

Kompaniyaga yil davomida tegishli bo'lmagan aktsiyalardan olgan dividendlar daromadidan chiqazib tashlanmaydi. Lekin ular bo'yicha soliq krediti beriladi.

Kompaniyaning umumiy majlisi qarori bilan dividendlar berishga ajratilgan summa korporatsiya solig'iga tortiladi. O'rtoqliklar uchun investitsiya qilingan kapitalga beriladigan foydani bir qismi dividend hisoblanadi.

- Paychilarga investitsiya qilingan kapitalga hisoblanadigan foizlardan berilgan foyda. Agar paychilarni umumiy majlisini bunday to'lovlar bo'yicha qarori bo'lmasa, soliq solish maqsadida bunday to'lovlarni investitsiya qilingan kapitalni 6% hajmda oladi.

- Paychi, ularning oilasi, bolalari qilgan investitsiyaga to'langan foizlar.

Direktorlar kengashining a'zolariga berilgan mukofotlar qoida bo'yicha soliq solinadigan foydaning bir qismi hisoblanadi. Lekin doimiy vazifasini bajaruvchi direktorga berilgan mukofotni hajmi boshqa direktorlar kengashining a'zosiga berilgan mukofotdan ko'p bo'lsa, ortiqcha summasi kompaniya xarajatiga olib boriladi. Bunda direktor faqat 2ta doimiy ishlaydigan kompaniyalarda mukofotni xarajatga o'tkazish huquqiga ega. Kompaniya qoida bo'yicha soliq solinadigan daromaddan daromadni hosil qilishda ishtirok etgan hamma xarajatlarni chiqazib tashlaydi.

Xarajatlar hisobini yilida qilingan bo'lishi va buxgalteriya hisobida yoritilgan bo'lishi kerak. Qonun talab qilgan chegarada xarajatlar tasdiqlanishi zarur.

Tannarxga quyidagilar qo'shiladi:

- Renta va ijaraga berilgan inshootni saqlash, ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan hamma xarajatlar.

- Zayomlar bo'yicha foiz to'lovlar (Belgiya milliy bankini oshkora stavkasidan yuqori bo'lmagan holda +3%)

agar milliy bankni stavkasi 6%dan kam bo'lmasa, tannarxiga yillik kredit hajmini 9% gacha to'lovni tannarxiga olib borish mumkin.

- Ishchilarning ish haqisi va ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar;
- Amortizatsiya (qoida bo'yicha teng bo'laklarda amalga oshiriladi).
- Mukofot, gonorar, komissiya to'lovlari, agar ularni oluvchilar ma'lum bo'lsa.

Agar ularni jami e'lon qilinmasa, bunday xarajatlar tannarxiga olib borilsa ham, 200% maxsus soliqqa tortiladi. Kompaniya daromadidan chiqarib tashlanadigan hamma xarajatlar tannarxiga qo'shilmasa ham, alohida guruhga to'plab, ruxsat etilmagan degan nom beriladi va soliq solinadigan daromadga qo'shiladi. Quyidagilar ruxsat etilmagan xarajatlarga kiradi.

- Xususiy shaxsga chet elda ro'yxatga olingan korxonalar yoki xolding kompaniyalari tomonidan beriladigan foiz to'lovlar, royalti, komission to'lovlar.

- Ovchilik, baliq ovlash, yaxtada tomosha qilish, shahardan tashqarida dam olish va x.k.

- To'g'ri soliqlar.

- Agar sotib olish bahosi sotish bahosidan yuqori tarzda olinganda, beriladigan farq to'lovlari;

Korxonalar Belgiyadan tashqarida, soliq solish imtiyozlari beriladigan zonada ishlashi natijasida olgan daromad va tejalgan summasi hisobiga korxonani soliq solinadigan foydasi ko'paytiriladi.

Agar asosiy vositalar qonun asosida qaytadan baholansalar qayta baholashdan olingan qo'shimcha daromad pasaytirilgan stavkada – 21,5% soliqqa tortiladi. Agar asosiy vositalarni soliqdan olingan tushum uch yil davomida qayta investitsiya qilinsa, kapitalni o'sishdan olingan daromadga soliq solinmaydi.

Soliq solishdan ozod qilish «majburiy daromadlarga» ham qo'llaniladi. Tabiiy ofat, milliy lashtirish va mulkni majburiy sotish natijasida olingan daromad majburiy daromad hisoblanadi. Agar bu daromadni hamma summasi uch yil ichida qayta investitsiya qilinsa soliqdan ozod qilinadi.

Boshqa kompaniya aksiyasini egallagan Belgiya kompaniyasi «sho'ba korxonasi» olingan dividendlarni 95% summasiga o'zining soliq solinadigan daromadini kamaytirish huquqiga ega. Agar kompaniya 50%dan ortiq aksioner kapitaliga egalik qilsa, 90% dividendlarini chiqarib tashlaydi. Soliqning standart stavkasi 39%. Shu bilan bir qatorda quyidagi stavkalar ham qo'llaniladi:

№	Kompaniya foydasining hajmi	Stavka (%)
1	1 mln. BeF	28
2	1 mln. BeFdan 3,6 mln. BeF gacha	36
3	3,6 mln. – 13,0 mln. BeF gacha	41
4	13,0 mln.dan yuqori BeF	39

Bundan tashqari, Belgiyada qo'shimcha ravishda kompaniyalardan inqiroz yig'imi olinadi. Uning stavkasi 3,0% etib belgilangan.

Belgiyada korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Agar foyda mamlakat tashqarisidan olib kelingan va foydani olgan mamlakatda soliqqa tortilgan bo'lsa korporatsiya foydasiga solinadigan soliq 25% kamaytiriladi. Huquqiy shaxslar Belgiyada doimiy vakolotxonaga ega bo'lmasalar, xorijiy hukumat vakili va boshqa kategoriya rezidentlar bo'lmasa 43% stavka bilan soliq solinadi. Soliq solish maqsadida to'langan komissiya to'lovlari mukofot, gonorarlar (agar ularni oluvchilar ma'lum bo'lsa) tannarxga qo'shiladi. Agar pul mablag'larini oluvchilarni ismi, sharifi yashirilsa, e'lon qilinmasa bu mablag'lar xarajatga qo'shiladi va 200% maxsus soliqqa tortiladi. Shunday qilib Belgiyada kompaniyalar daromadiga solinadigan soliq juda ko'p qirrali bo'lib, murakkab mexanizmi bilan ajralib turadi.

4.3.Jismoniy shaxslardan olinadigan davlat daromad solig'i

Soliq Belgiyada va chet elda olgan rezidentlar daromadidan va Belgiyada olingan norezedentlar daromadidan ushlanadi. Soliq mulkdan olingan tushumlar, qimmatbaho qog'ozlar va boshqa manbalar hamda xarajatlar summasi, ijtimoiy imtiyozlar chiqarib tashlangan ish haqidan olinadi. Soliq progressiv xarakterga ega bo'lib, daromad hajmiga qarab o'zgaradi. Eng past soliq stavkasi 25% yillik daromadi 253000 frankkacha bo'lsa va eng yuqori stavka 55% daromad 2420000 frankdan ortiqcha bo'lganda qo'llaniladi. Davlat daromad solig'idan tashqari ko'rsatilgan soliq bazasidan umummilliy soliqdan 6-10% hajmda munitsipal daromad solig'i va 3% li inqirozlik ajratma olinadi. Belgiya soliq tizimi oila daromadiga soliq solish tartibini qo'llaydi.soliq stavkasini qo'llashda er va xotin daromadi qo'shiladi. Qonunchilikda ikkita imtiyoz ko'zda tutilgan:

- Agar oilani ikkala a'zosi ham kasbiy faoliyatidan daromad olsa, kam daromad oladigan oila a'zosini daromadi alohida soliqqa tortiladi;
- Agar oila a'zosini bittasi kasbiy daromadga ega bo'lsa, faqat bu daromadning 30% soliqqa tortiladi (bu 297000 Be F chegarasida)

4.4.Qo'shilgan qiymat solig'i

QQS Belgiyada 1971 yili kiritilgan, davlatni soliq daromadlaridagi uning ulushi salmog'i 16%. QQS Belgiyaning yalpi ichki maxsulotida 7,5% tashkil qiladi.

Evropa iqtisodiy hamjamiyati QQSni hamjamiyat ichida fiskal chegarasini yo'qotish va stavkalarini yaqinlashtirish uchun choralar ko'rib kelmoqda. Shu bilan birga EIH umumiy byudjetiga har bir davlat qisman QQS tushumidan ajratadi. Belgiya ham egri soliqlarni yuqori darajadagi roli bilan ajralib turadi. QQS standart stavkasi 21% teng. Bundan tashqari uy-joy qurilishida pasaytirilgan stavka 12% belgilangan. Qishloq xo'jalik maxsulotlari, dori-darmon, kitob, gazeta, kommunal xizmat, passajir transporti harakati, mehmonxona biznesiga 7% belgilangan. Banklar, sug'urta kompaniyalari, yuridik xizmatlar firmalari, o'qituvchi, shifokorlar, xalqaro yuk tashishi va samolet, kemalarni etkazib berish bilan bog'liq sohalarda QQS qo'llanilmaydi.

4.5.Aktsizlar

Belgiyada aktsizlar neft maxsulotlari, elektroenergiya, tamaki mahsulotlari, kuchli spirtli ichimliklar, vino, pivo, alkogolsiz ichimliklar, kofe va tashqarida o'rnatiladigan reklama va o'yin bizneslariga qo'llaniladi.

4.1-jadval

Belgiyada qo'llanilayotgan ayrim aktsizlar stavkalari

№	Tovarlar	Stavka	Soliq solinadigan birlik
1	Benzin	9900 – 11900 BeF	1000l.(stavkasi tarkibidagi qo'rg'oshing bog'liq)
2	Elektroenergiya	55 BeF	kvt/soat
3	Sigaretlar	50% (bahosidan) + 102(1000 dona uchun)	bahosi va miqdori
4	Vino	1471 BeF	gallon (toza spirt)
5	Kofe	28 BeF	kg

Aktsizlar ko'p turdagi mahsulotlaridan olinganligi uchun undan sezilarli hajmda mablag' tushadi va byudjet daromadida muhim o'rinni egallaydi. Evropa iqtisodiy hamjamiyati chegarasida QQS bilan aktsizlarni ham davlatlar o'rtasida moslashtirish masalasi mavjud.

Turizmni rivojlanishi savdoga ta'sir ko'rsatadi va ayrim holatda davlatlar ma'lum byudjet daromadini yo'qotishlariga to'g'ri keladi. Agar mamlakat fuqarosi mamlakatdan tashqarida tovarlarni sotib olsa, soliq tushumi maxsulot baxosi tarkibidagi aktsiz tovarlarni sotgan mamlakatda qoladi. Bu orqali kelib chiqqan muammolarni bartaraf qilish uchun eix jamiyat tarkibidagi hamma davlatlarda aktsizni bir xil qilish, aktsiz osti tovarlarni bahosida sezilarli farq bo'lmasligi uchun chora-tadbirlar ko'rmoqda. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun yangi aktsizlarni kiritishdan vaqtincha, ayniqsa benzin, vino-arog ichimliklari va tamaki mahsulotlari aktsizlarini o'zgartirmaslik uchun harakat qilinmoqda.

4.6.Mulkdan olinadigan soliq

Belgiyada mulkdan olinadigan soliqlar guruhi mavjud. Guruhga ko'chmas mulk va transport vositalari kiradi. Birinchisi, mulkni bitta egasidan ikkinchisiga o'tgan vaqtda olinadi. Masalan, avtotransport vositasiga solinadigan mahalliy soliq. Oxirgisi, shunday mulkka egalik qiladigan hamma fuqarolaridan olinadi. Meros va xadyaga solinadigan soliq stavkasi to'g'ridan-to'g'ri merosxo'rlarga 3% dan 30% gacha va boshqa kategoriya merosxo'rlariga 20%dan 80% gacha belgilangan. Ro'yhatga olish solig'i yerni, imoratni sotish yoki ijaraga berishni rasmiylashtirishda olinadi. Standart stavka 12,5%, katta bo'lmagan yer uchastkalariga va imoratlarga imtiyozlar mo'ljallangan. Yig'im stavkasi sotishda 6%, ijarada 100 belgiya franki (BeF) yoki kelishuv qiymatidan 0,2%ni tashkil etadi.

Avtotransport vositalarini ro'yhatdan o'tkazish uchun soliq. Soliqqa hamma avtotransport vositalari: avtomobil, yaxta, samolet va h.k. kiradi. Qo'shilgan holda ularni davlat hisobiga o'tkazilganda tortiladi. Soliq stavkasi transport vositasining kategoriyasi va ishlab chiqarilgan vaqtiga bog'liq. Masalan, avtomobillar uchun soliq summasi 2,5dan 100000 frankgacha belgilanadi.

Mahalliy avtotransportga solinadigan soliq. Soliq hamma avtomobil egalaridan olinadi. Soliqdan tushgan pulni ijtimoiy magistral yo'llarni saqlab turish uchun sarflanadi. Soliqni hisoblash dvigatel quvvatiga (engil avtomobillar uchun) yoki yuk ko'tarishiga (yuk tashuvchi avtomobillar)

qarab amalga oshiriladi. Engil avtomobil bo'lsa Belgiya qonunchiligiga binoan 481000 frank + 26000 frank har bir keyingi ot kuchi uchun olinadi. Yuk tashiydigan avtomobillarga, ularning kategoriyasiga qarab har bir 100 kg. yuk ko'tarishiga 150 dan 346 frankgacha (minimal stavka 854 frank) olinadi.

Asosiy tayanch iboralar:

- Rieltor firmasi
- Benilyuks davlatlari
- Evropa iqtisodiy hamjamiyati

Takrorlash uchun savollar:

1. Belgiya soliq tizimiga to'liq tavsif bering
2. Korporatsiyalarni soliqqa tortish xususiyatlarini yoriting
3. Egri soliqlar tarkibi va mohiyati
4. Mahalliy soliqlarni ahamiyati va o'rni
5. Qanday soliq imtiyozlari mavjud?
6. Maxsus soliqni mohiyatini tushuntiring

Test savollari:

1. Qaysi guruh yashiringan rezervlarga kirmaydi?
 - A) Qimmatbaho qog'ozlar, aktsiyalar, soliq organlari qoidasi bo'yicha hisobda kamaytirilgan qiymatda ko'rsatilgan
 - B) Kutilmagan zararlarni qoplash uchun rezerv
 - C) Qarzni real qiymatiga to'g'ri kelmaydigan kreditor bo'yicha majburiyatni ortig'i bilan baholash
 - D) Ortiqcha hisoblangan amortizatsiya. Hisoblashgan amortizatsiya summasi bilan me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq
 - E) Veksellar hisobida kamaytirilgan qiymatda ko'rsatilgan
2. Foydaga solinadigan soliq sub'ektiga kirmaydigan tashkilotlarni aniqlang?
 - A) Tijorat kompaniyasi shaklidagi har qanday Belgiya korporativ tashkilotlari
 - B) Kommunal xizmati sohasidagi kompaniyalar
 - C) Huquqiy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmagan assotsatsiyalar
 - D) Foyda keltirmaydigan tashkilotlar, lekin shunga qaramay tadbirkorlik faoliyatidan foyda olgan tashkilotlar

E) Foyda keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy kompaniyalar

3. Korporatsiyalar foydasiga soliqni to'lash muhlatlarini ko'rsatib bering.

- A) Bir yilda bir marta;
- B) Har oyda bir marta;
- C) 15 kunda bir marta;
- D) Har chorakda bir marta;
- E) Yarim yilda bir marta;

4. Qaysi holatda kompaniya soliqdan ozod qilinmaydi?

A) Kompaniya qaytadan tashkil qilingandan keyin yuridik adresini va shtab-kvartirasini Belgiyada saqlab qolsa

B) Qo'shish faqat huquqiy amalga oshirilib, ishlab chiqarish quvvati saqlanib qolsa

C) Kompaniya kelajagi to'g'risida aksionerlar tomonidan qaror qabul qilinmagan bo'lsa

D) Kompaniya yangi texnologiyani joriy qilib ishlab chiqarish quvvatini oshirsa

E) Ishlab chiqarish quvvati saqlanib qolib, yiriklashtirish faqat huquqiy amalga oshirilsa

5. Foydani aniqlashda qaysi harajatlarni tannarxga kiritilmaydi?

A) Ijara to'lovlari

B) Zayomlar bo'yicha foiz to'lovlari

C) Ishchilarning ish haqi, ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar

D) Ovchilik, baliq ovlash, yaxtada tomosha qilish, shahardan tashqarida dam olish harajatlari va h.k.

E) Amortizatsiya

6. Jismoniy shaxslardan olinadigan davlat daromad solig'i eng yuqori stavkasini toping

A) 45%

B) 60%

C) 50%

D) 55%

E) 65%

7. QQS qabul qilingan standart stavkasini aniqlang:

A) 15%

B) 20%

C) 25%

D)21%

E) 19%

8. Qaysi mahsulotdan aktsiz solig'i olinmaydi?

A)Benzin;

B)Elektroenergiya;

C)Vino;

D)Shakar;

E) Sigareta;

9. Mulkdan olinadigan soliqqa qaysi turi kirmaydi?

A)Mulkni merosga berish;

B)Mulkka egalik qilish;

C)Mulkni ro'yhatdan o'tkazish;

D)Mulkni hadya etish;

E) Mulkni ijaraga berish;

10. qaysi daromad korporatsiya foydasiga solinadigan soliqdan ozod qilinadi?

A)Maxsulotni sotishdan olingan daromad;

B)Mahalliy lashtirishdan olingan va 3 yil ichida reinvestitsiya qilingan daromad;

C) Asosiy vositalarni sotishdan olingan daromad;

D)Xizmat ko'rsatishdan olingan daromad;

E) Ishni bajarishdan olingan daromad;

V BOB. ITALIYANING SOLIQ TIZIMI

- 5.1. Italiya davlatida soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi**
- 5.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i**
- 5.3. Huquqiy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.**
- 5.4. Mahalliy daromad solig'i.**
- 5.5. Meros va hadyadan olinadigan soliq.**
- 5.6. Qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq.**
- 5.7. Maxsus aktsizlar.**
- 5.8. Ish yuritish jarayonlaridan olinadigan soliqlar**

5.1. Italiya davlatida soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi

«Hech qanday jamiyat soliqsiz yashay olmaydi».

F.Netti*

Soliqlarni inson taraqqiyotini boshida paydo bo'lishi, birinchi ijtimoiy talablar bilan bog'liq soliqlarni olish shakli va uslublarini rivojlanishini uchta yirik bosqichga bo'lsa bo'ladi:

Birinchi bosqich - qadimgi dunyodan o'rta asrni boshlanish davrigacha.

Soliqlar davlatni kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan zaruriy iqtisodiy munosabatdir. Davlat tuzilishini rivojlanishi va shaklini o'zgarishi soliq tizimini o'zgarishiga olib keladi. Bu davrda Davlat soliq va yig'implarni belgilash uchun moliya apparatiga ega bo'lmaydi. Davlat faqat umumiy oladigan summasini hajmini belgilaydi. Soliqlarni yig'ishni shaharga yoki jamoaga topshiradi. Ko'proq ijaraga oluvchilar yordamidan foydalanadi.

Ikkinchi bosqich - XVI asr –XIX asrning boshi.

Bu davrda davlat muassasalari, shu jumladan moliya tizimi yuzaga keladi. Davlat boshqarish ishini bir qismini o'zining qo'liga oladi va soliq olinadigan kvotani (yuqori chegarani) belgilaydi, soliqlarni yig'ish jarayonini kuzatib boradi. Bu vaqtda ham ijaraga olish keng miqyosda qo'llanilib kelinadi.

Uchinchi bosqich - hozirgi davr. Davlat soliqlarni belgilash va yig'ib olish bo'yicha hamma funktsiyani o'zini qo'liga oladi. Hudud ma'muriyatlari va jamoa davlatga yordam sifatida qarashadi.

* F.Netti (1868-1953 y.y.)- italiyalik iqtisodchi

Davlatlarni boshlang'ich soliq to'plashlarida uning asosiy shakli qurbonlik qilish hisoblangan. Qurbonlik qilish faqat o'z hohishi shaklida emas, majburiy shaklda ham amalga oshirilgan. Bu yozilmagan qonun bo'lib, majburan to'langan, yig'ilgan. Soliqlar olingan daromadni 10%ni tashkil

qilishi kerak edi.

Bizning eramizdan avval 12 asrda kishi boshidan olinadigan soliq Hitoy, Vavilon va Fors davlatlarida bo'lgan.

Qadimiy Gretsiyada bizning eramizdan oldingi VII-IV asrlarda 1/10, 1/20 hajmda daromaddan soliq olish belgilangan. Aktsizlar ham bo'lgan. Bu to'lov darvozadan shaharga kirishda olingan.

Shu bilan bir qatorda qadimgi dunyoda, Afinada ozod fuqaro soliq to'lamasligi kerak edi. Shaxsiy soliq quldorchilik tamg'asini ifodalaydi, ba'zi to'la huquqli fuqarolar o'zlari uchun soliq olishni kamsitish deb hisoblaganlar. Mol-mulk solig'ini ham ular yoqtirmay qabul qilganlar. Asosan ular o'z hohishlari bilan sadaqa berish, engilgan davlatlardan va ittifoqdosh davlatlaridan boylik olish yo'li bilan davlat xazinasini to'ldirishgan.

Qadimiy Rimda ham boshlang'ich davrda soliqlar bo'lmagan. Davlat harajati kam bo'lgan, ko'p lavozimlarda tekinga ishlaganlar.

Qurilish harajatlarini umumdavlat yerlarini ijaraga berish orqali to'plagan mablag'lari bilan qoplaganlar. Urush davrida Rimliklar ham soliq to'lay boshlaganlar. Rim aholisi qasam ichib ariza yozganlar va bu arizalarda o'zlarining mulklarini, oila ahvollarini ko'rsatganlar. O'sha vaqtda hozirgi daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosi tashkil qilingan.

Bizning eramizdan oldingi IV- III asrlarda Rim davlatida shahar-koloniya yuzaga kelib, ularda kommunal (mahalliy) soliqlar qo'llangan. Urushda katta yutuqlarga ega bo'lsa soliqlar kamaytirilgan, yo'q qilingan. Harajatlar kontributsiya hisobiga qoplangan.

Bu davrda yagona soliq tizimi bo'lmagan, ayrim davlatlar, jamoalar xar xil tartibda soliqqa tortilgan. Moliya organi bo'lmaganligi uchun Rim davlati ijarachilardan foydalangan. Korruptsiya va suiiste'mol qilish ijara tizimida juda rivoj topadi.

Shuning uchun Yuliy Tsezar to'g'ri soliqlar bo'yicha ijarani yo'q qilib, egri soliqlar bo'yicha qoldirgan. Tsezar moliya, ayniqsa, soliq tizimini qaytadan tashkil qildi.

Rim imperiyasida mol-mulkni hisobga olish (Tsenz), yerni sifati, turlari bo'yicha ma'lumot to'plash va h.k. Rim imperiyasini hududlarida

yer solig'ini asosiy daromad manbailariga aylantirildi. Soliq stavkasi 1/10 yerdan olingan daromadga teng edi: mevali daraxtlar soniga qarab ham maxsus soliqlar kiritilgan.

Soliqqa tirik inventar ham tortilgan. Bu tushunchaga yirik shohli mollar bilan qullar ham kirgan.

Bizning eramizni VI asrida imperator Avgust meros solig'i kiritilgan (5%).

Egri soliqlardan oborot solig'i, ichki iste'mol aktsiz kiritilgan (1%). Qullarni sotish bo'yicha maxsus oborot solig'i kiritilgan (4%). Qullikdan ozod qilish oborot solig'i bozor qiymatidan 5% hajmda olingan. Tuz aktsiz kiritilgan.

Rim imperiyasida soliqlar faqat fiskal emas, xo'jalikni rivojlantirish funksiyasini ham bajargan.

Rim imperiyasidan keyin Vizantiyada ham soliq olish rivojlangan. VII asrda 21 soliq turi bo'lgan. Bu yer solig'i, kishi boshidan olinadigan soliq, ot sotib olish uchun soliq va h.k. Agar imorat qurilganda uni hajmi belgilangandan oshib ketsa, jarima olingan va uni otini «havoga solinadigan soliq» deb yuritishgan.

Vizantiyada flot qurilishi uchun soliq, armiyani saqlash harajatlari uchun soliqlar kiritildi. Soliqlarni ko'pligi Vizantiya davlatini moliyaviy rivojlanishi o'rniga, moliyaviy inqirozga olib kelgan.

Soliqni og'irligi, yuki, asosan, dexqonlar zimmasiga tushib, ijaraga olish (ulgurji, ko'tarasiga sotib olmoq) qo'llangandan keyin yana ham og'irlashgan.

Soliqlar tarixida alohida o'rinni soliq ijarasi egallaydi.

Ijaraga olish – savdogarlarga ma'lum davrga va ma'lum to'lov asosida aholidan yig'ish uchun davlat soliqlari va boshqa daromadlarni to'plash huquqini beradi. Bundan tashqari, ma'lum tovarlarni sotish huquqiga ham ega bo'ladi. Davlat bilan tuzilgan shartnoma bahosi bilan savdogar yig'ib olgan summasi o'rtasidagi farq uning foydasini tashkil qilgan.

Davlat va xususiy ijaraga olish tizilmasi quldorlik davrida kelib chiqib, feodalizmni emirilish va kapitalistik ishlab chiqarish usuli bunyod bo'lish davrida juda keng tarqalgan va kapitalni boshlang'ich jamg'armasiga asos bo'lgan.

Ijaraga olish tizilmasi natural xo'jalikning ustunligi, davlat xazinasiga mablag' to'playdigan moliya apparatining eaflligi natijasida yuzaga kelgan.

Birinchi ijaraga olish eramizdan avval, VI asrda Erondan kelib chiqqan. Gretsiya va Rimda esa eramizdan oldingi IV asrda tarqalgan. O'rta asrda esa bu tizilma Evropada qo'llanilgan. Ayniqsa, Frantsiyada XIII asrda keng kamol topgan. XVI-XVII asrda Italiya, Gollandiya va Ispaniyada bu tizilma yuqori darajaga chiqqan. Tuz solig'ini ijaraga olish juda rivoj topgan.

Angliyada ijaraga oluvchilar davlat kreditori rolini bajarganlar. Rossiyada XVI asrni boshida ijaraga olish tizilmasi qo'llanilgan. Eng taraqqiy etgan turlari- boj, tuz, vino to'lovlarini ijaraga olish bo'lgan.

Davlat xazinasiga tushadigan soliqlarni 40%dan ortig'i ichimlik solig'idan kelib tushgan. Rossiyada 1863 yili vino to'lovini ijaraga olish bekor qilinib, aktsiz bilan almashilgan. Ijaraga olish Hindistonda XIX asrgacha, Eronda esa XX asrgacha qo'llangan.

Ijaraga olishni boshqa turlari XX asrda ham davom etgan.

Masalan, Italiyada ayrim soliqlarni banklar, omonat kassalar yig'gan, Amerikada esa ijaraga olish XX asrni boshlarida boqimandani to'plashda qo'llangan. Italiya soliq tizimida tarix o'zining sezilarli tamg'asini qoldirgan.

Soliq tushumlari Italiya byudjeti daromadining asosiy manbai hisoblanadi (80% dan ko'proq). Soliq solish tarkibiga 1973-1974 yillardagi soliq islohoti katta o'zgartishlar kiritdi. Islohot soliqni ko'p pog'onaligini, qadimiy, eskirganligini, to'liq bo'lmaganligini yo'q qildi. Natijada Evropa hamjamiyati mamlakatlarini amaliyotiga yaqinlashtirdi. Italiyani hozirgi zamon soliq tizimi aniq tarkibi, umumlashtirilgan soliq solish qoidasi, to'g'ri soliqlarni egri soliqlarga nisbatan ustunligi bilan ifodalanadi. 1974 yilgi islohot ko'proq to'g'ri soliqlarni oddiylashtirishga qaratildi. Bu soliqlarni olish amaliyotiga 1988 yilgi islohot ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, huquqiy shaxslardan olinadigan daromad soliq va mahalliy soliqlarga (huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadi) katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim daromadlardan manbaida qat'iy belgilangan stavka bilan ushlab usuli yana bitta yangi to'g'ri soliqni kapitaldan keladigan daromaddan olinadigan soliqni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Omonat va obligatsiyalardan olinadigan daromad jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tarkibida bo'lishiga qaramay, texnik jihatdan manbaida soliqqa tortiladi va asosiy daromad solig'ini hisoblashda soliq solinadigan umumiy daromaddan chiqarib tashlanadi.

To'g'ri soliqlar tarkibiga XX asr saksoninchi yillarda o'zgargan meros va hadyadan olinadigan soliq ham kiradi.

Tovarlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqarish va muomala sohalarida oldinga siljishi, xizmat ko'rsatish, tovarlarni import qilish, mulkdorchilik shaklini o'zgartirish va boshqa bitimlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ham egri soliqlarga tortiladi. Ularning tarkibida eng muhimi qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi. Qolgan egri soliqlar o'ziga xos qo'llash sohasi bilan bog'liq va ularning nomi, qoida bo'yicha, o'zini mazmunini ifodalaydi:

- gerb solig'i davlat tomonidan: fuqarolik va tijorat hujjatlarini huquqiy rasmiylashtirish uchun olinadi;

- ro'yhatga olish solig'i, gerb solig'ini to'ldiradi va hujjatlarni rasmiylashtirilgandan keyin davlat registratsiya qilish kitobiga yozish talab qilinganda to'lanadi;

- ko'chmas mulk qiymatini o'sishiga solinadigan soliqni mahalliy organlar ehtiyojiga ko'chmas mulkni foydasi bilan sotilganda olinadi;

- boshqa ishlab chiqarish va tijorat aktsizlari (elektrenergiyasiga, alkogolli ichimliklar, shakar, tamaki) va yig'imlar (sug'urta kontraktlarini tuzishda, aktsiya va obligatsiyalarni sotib olishda davlat tomonidan kontsersion xizmat ko'rsatilganda, ya'ni ruhsatnoma, litsenziyalar berish va h.k.) olinadi;

- bojxona boji va yig'imi;

- loto va lotoreyalardan olinadigan soliq.

1974 yilda o'tkazilgan soliq islohoti natijasida 1975-1980 yillarda ayrim soliqlarni fiskal ahamiyati to'xtovsiz o'zgarib turdi. Moliyaviy ahamiyati bo'yicha ikkita soliq etakchilik vazifasini bajardi.

Bular jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq. Davlatni umumiy soliq tushumlari summasida ularni ulushi 50% dan oshib ketadi.

5.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Soliqni to'lovchi sub'ekti Italiyani rezidenti va norezidenti bo'lmish xususiy shaxslar va uning ob'ekti bo'lib ularni daromadi hisoblanadi. Qadimdan yashaydigan Italiyaliklardan tashqari mamlakatda 6 oydan ortiq yashaydigan chet ellik fuqarolar rezident hisoblanadi. Ularni faqat Italiyada emas, chet elda olgan daromadlari ham soliq ob'ekti hisoblanadi.

Norezidentlar soliqni faqat Italiyada olgan daromadlari yuzasidan to'laydilar. Xususiy shaxslarni kelib chiqish manbaiga qarab hamma

daromadlari besh kategoriyaga bo'linadi va har biri o'zini hisoblash xususiyatiga ega. Bu manbalar sifatida quyidagilar amal qiladi:

- a) yerga bo'lgan mulk, ko'chmas mulk va imoratlar;
- b) kapital;
- v) yollangan ish va erkin kasb;
- g) tadbirkorlik;
- d) boshqa manbalar.

“A” kategoriyasi - soliq solinadigan yerga mulkdorchilik, qishloq xo'jalik faoliyatini olib borish, hamda imorat va inshootlardan olingan daromad kadastr uslubi asosida hisoblanadi. Har bir ko'chmas mulkka ma'lum hajmdagi daromad to'g'ri keladi. Haqiqatda bu daromad olinganmi yoki yo'qmi hisobga olinmaydi.

Kadastrli baholash har 10 yilda bir marta qaytadan ko'rib chiqiladi va bu davr davomida harakatdagi me'yorga moliya vazirligi to'g'rilovchi koefficient kiritishga haqqi bor.

Ko'rsatilgan ko'chmas mulklardan daromadni belgilash qator xususiyatlarga ega.

Yerga egalik qilishdan olingan daromad, hisoblashda faqat qishloq xo'jalik faoliyatiga yaroqli yerlar olinadi.

Shahar qurilishlari bilan band bo'lgan yerlar, yoki davlat xizmat ma'muriyatiga qarashli yerlar va qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan maqsadga arenda tariqasida berilgan yerlar hisobga olinmaydi. Qishloq xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad oila a'zolari qishloq xo'jalik ishlarini olib borsalar yoki yerni arendaga bersalar yuzaga keladi. Bunda ham dalachilikdan, ham chorvachilikdan olingan daromad ko'rsatiladi. Agar yer arendaga berilsa, qishloq xo'jalik faoliyatidan olingan daromad yer egasini emas, arendatorni daromadiga qo'shiladi. Imoratdan olinadigan daromadni hisoblashda mulkdorlar yashashi uchun yoki boshqalarga foydalanish uchun berishga mo'ljallangan shahardagi uylar, dala hovlilar, ustaxonalar va boshqa imoratlar hisobga olinadi. Bu tartib qishloq xo'jalik imoratlariga (mol boqish uchun, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va boshqalarga mo'ljallangan imoratlar) hamda savdo korxonalarini har-xil yordamchi imoratlariga nisbatan qo'llanmaydi.

Imoratdan olinadigan daromad kadastr koeffitsientlari orqali aniqlanadi. Lekin ayrim vaqtlarda ushbu umumiy qoidadan chekiniladi. Agar imorat egasini ruhsatisiz belgilangan maqsadga ishlatilmasa, yoki arendaga berilmasa kadastr bahosi 70%ga qisqartiriladi. Yana buni aksi 300 ming kishidan ortiq aholisi zich joylashgan kommunada egasi

tomonidan ishlatilmasa, arendaga berilmasa, kadastr bahosi 300% gacha ko'paytiriladi.

Egasini (asosiy yashamaydigan joyi) ikkinchi uyi bo'yicha ta'rif oshib boradi (30 foizga).

“B” kategoriyasi - tarkibiga har-xil turdagi pul rentalari –zayomlar, bankdagi joriy va depozit schetlar, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha foizlar, lotoreya va annuitetlar bo'yicha yutuqlar va boshqalar kiradi. Bu kategoriya daromadlarni xususiyati shundan iboratki, soliqni manbaidan olinadi, shuning uchun ularni summasi jismoniy shaxsni soliq solinadigan daromadiga qo'shilmaydi.

Soliqni manbaida olinganda, uning stavkasi daromadini hajmiga qaramay, hamma to'lovchilarga bir xil bo'ladi. Qo'llanilayotgan tabaqalashtirish, rentani har-xil ko'rinishlariga bog'liq. Bankdagi schetlar bo'yicha olingan foizlar 25% stavka bilan soliqqa tortiladi. Emitent kim bo'lishidan qat'iy nazar, obligatsiyalar bo'yicha daromadlar 1984 yil 1 yanvardan boshlab yagona stavkada-12,5% soliqqa tortiladi. Bu qonun chiqarilganiga qadar davlat muassasalari chiqargan obligatsiyalar bo'yicha daromadlar 10% va xususiy kompaniyalar chiqargan obligatsiyalar bo'yicha daromad-20% li stavka bilan soliqqa tortilgan.

Obligatsiyalarga (12,5%) belgilangan tartib, eng kamida 18 oyga kredit muassasalari chiqaradigan bon va kredit sertifikatlariga ham qo'llanadi. Xorijiy zaemlar bo'yicha soliq stavkasi 30% gacha ko'tarilgan.

Davlatni qimmatbaho qog'ozlari 1986 yil 20 sentyabrgacha imtiyozli holatda edi. Ular soliqdan to'liq ozod qilingan edilar. Yangi, 556-raqamli qonun qabul qilishgandan keyin davlat qarzi bo'yicha chiqariladigan obligatsiyalar 6,25% stavka bilan soliqqa tortiladigan bo'ldi va 1987 yil 1 yanvardan boshlab stavka 12,5%ga ko'tarildi.

Natijada, davlatni qimmatbaho qog'ozlariga umumiy tartib qo'llanadigan bo'ldi va ularni o'ziga jalb qiluvchi kuchi faqat foizni stavkalariga bog'liq bo'lib qoldi.

Bunday qarorni qabul qilishga asosiy sabab - doimiy o'sib borayotgan davlat qarziga qilinayotgan harajatni aniqroq baholash maqsadi bilan bog'liq edi.

“V” kategoriyasi - haqiqatda hamma mehnat orqali olinadigan daromadlarni birlashtiradi. Bu daromadlar ikkiga bo'linadi: yollanma ishdan olingan daromad va erkin kasb bilan shug'ullanuvchi shaxslarni daromadi. Yollanib ishlaydigan shaxslarni daromadi asosiy hisoblanadi. Bu qismi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha

umumiy soliq solinadigan daromadni 80%ni tashkil qiladi. Yangi soliq qonunchiligida soliq solinadigan daromadlarni ro'yhati belgilandi va ularni chegarasi kengaytirildi. Endilikda bu kategoriya daromadlarga faqat har oylik ish haqigina kirib qolmasdan, unga boshqa mukofotlar va o'rnini to'ldirish mablag'lari qo'shiladi. Belgilangan vaqtdan ortiqcha ishlagani uchun to'lov, 13- ish haqi, korxonani foydasida qatnashish natijasida olgan daromadi, safarga borishdan olingan pul va har-xil ish haqiga ustama berishlar (oila a'zolariga), uzoq yillik xizmati uchun to'lov, kasallik varaqasi bo'yicha beriladigan mablag', ijtimoiy ta'minot bo'yicha ishsizlikga olingan mablag', pensiya va hokazolar kiradi.

Yollanib ishlovchi shaxslar daromadiga quyidagilar tenglashtiriladi:

- ishlab chiqarish kooperativlarini va xizmat ko'rsatish sohasi hamda qishloq xo'jalik kooperativlari a'zolari oladigan ish haqi;
- qo'shimcha bajarilgan ish uchun uchinchi shaxslardan olingan daromadlar;
- hududiy va kommuna davlat organi saylovlari kompaniyasida qatnashgani uchun olgan daromadlari.

Erkin kasb egalarini daromadini aniqlash ancha qiyin ish hisoblanadi. Buning asosiy sababi bu soha bo'yicha qonunshunoslik mukkamal darajaga etqazilmagan.

Qonunchilikdagi noaniqliklar bu kategoriya soliq to'lovchilari tomonidan daromadlari haqidagi deklaratsiyani to'ldirganlarida faol foydalanishlariga yordam beradi.

Shuning uchun moliyaviy tartibini asosiy buzuvchilari ham erkin kasbli shaxslar hisoblanadi.

Erkin kasb egalarini faoliyat yuritish sohalari qonunchilikda aniq belgilanmagan. Soliq kodeksiga binoan san'at va xunarmandchilik sohasidagi faoliyat quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Doimo bajariladigan bo'lishi kerak;
2. Yollanma mexnatdan soqit bo'lishi;
3. Ko'chmas mulk va tadbirkorlik bo'yicha olinadigan daromad bilan bog'liq bo'lmaslik.

Shu kabi faoliyatni bajarishdan olingan daromadlarga quyidagilar tenglashtiriladi:

- boshqaruvchilar, hisobotlarni tekshiruvchi revizorlarni maoshi, jurnalistlarni gonorari;
- fabrika markasidan foydalanganligi, kashf qilganligi, patent olganligi uchun beriladigan pullik taqdirlashlar va h.k.;

- birlashmadan chiqqanligi uchun kompensatsiya .

Ko'rsatilgan manbalardan olingan umumiy daromad summasidan quyidagilar chiqariladi: mavjud olinadigan uskunalar bo'yicha Moliya Vazirligi tasdiqlagan umumiy stavka buyicha amortizatsiya summasi (1mln. liragacha) va arenda to'lovlari.

“G” kategoriyasi - mayda va korporatsiyalashmagan xususiy tijorat korxonasi ega bo'lgan burjuaziya qatlamining daromadi kiradi.

Bu korxonalarni foydasi korporatsiya foydasi kabi hisoblanadi. Lekin soliq solish maqsadida egasini shaxsiy daromadi hisoblanadi (Korporatsiya va kompaniyalarni daromadini hisoblash tartibi quyida yoritiladi). Yillik daromadi 780 mln.liradan oshmaydigan oilaviy korxonalar va mayda korxonalar deb ataluvchi korxonalarni daromadini hisoblashda o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

Fuqarolik kodeksiga binoan oilaviy korxonani daromadi, oila a'zolarini bajargan ishlarini miqdoriga va sifatiga qarab taqsimlanishi kerak. Lekin soliq organlari bilan munosabatda korxonada qatnashuvchilar o'rtasida daromad baravar bo'laklarga taqsimlanishi kerak. Bu oila boshlig'iga soliq solinadigan daromad hajmini kamaytiradi va unga past progressiv stavka qo'yiladi. Qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlanadigan daromad korxonani umumiy daromadini 49% i oshmasligi kerak. Oilaviy korxonani soliq solinadigan daromadi umumiy qoida asosida aniqlanadi. Lekin bunda ayrim chekinishlar mavjud. Kichik korxonalar buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan tartibini qo'llaganliklari sababli, ularni hamma harajatlari ham hujjatlar bilan tasdiqlanmaydi. Bu harajatlarni aniqlash uchun quyidagi qoida qo'llanadi: daromad 12 mln.liraga teng bo'lsa hisobga olinmagan xarajatni hajmini 3% deb olinadi.

12 dan 150 mln. liragacha - 1% va 150 dan 180 mln. liragacha- 0,5% hajmda hisoblanadi.

“D” kategoriyasi - yer, ko'chmas mulk, san'at buyumlarini belgilangan davr davomida olib-sotarlik natijasida olingan foyda, chet eldagi mulkdan olingan daromad bir marta amalga oshiriladigan yoki kutilmagan xizmatlarni ko'rsatishdan olingan to'lovlar va boshqalar bu guruh daromadlariga kiradi.

Ko'rsatilgan daromadlarni yig'indisi ruhsat berilgan chegirmalar hisobiga o'zgartiriladi. Yangi soliq kodeksiga binoan soliq to'lovchi quyidagi chegirmalarga huquqi bor:

- 1) to'langan mahalliy daromad solig'i summasi;
- 2) ko'chmas mulkka olingan arenda va boshqa to'lovlar;

- 3) ilgari olingan ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar;
- 4) davolanish harajatlari (mutaxassislarni kelishi, protez qilish, jarrohlik operatsiyalari uchun qilingan xarajatlar to'liq chiqarib tashlanadi;
- 5) dafn qilish marosimi xarajatlari (1 mln. liradan ortiqcha bo'lmagan summada).
- 6) ma'lumot olish harajatlari (davlat o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun undiriladigan to'lovdan ortiqcha bo'lmagan hajmda);
- 7) alimentlar;
- 8) ijtimoiy sug'urta va ta'minot tizimiga beriladigan ajratmalar;
- 9) hayotni va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bo'yicha berilgan ajratmalar;
- 10) saylov kompaniyalarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar (bu huquq tadbirkorlarga berilgan);
- 11) san'at asarlari, ta'mirlash, saqlash, qo'riqlash harajatlari;
- 12) ocharchilikka qarshi kurash harajati fondiga ajratma (soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavkasi 2%);
- 13) teatr birlashmalari uchun yordam (soliq solinadigan daromadni 2% oshmasligi kerak);
- 14) arenda bitimi to'xtatilgandan keyin, arendaga beruvchini yo'qotgan mablag'i;
- 15) cherkovga yordam tariqasida berilgan mablag'.

1988 yilni 1yanvariga chiqazib tashlash ro'yhati oldingi 9 banddan iborat edi. 1990 yili soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritadi. Arenda to'lovi, ko'chmas mulkka to'lov, ipoteka krediti bo'yicha fondlari ilmiy va madaniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari va teatr birlashmalari uchun bir yilga 6 mln.liradan oshmasa, 22% gacha chiqazib tashlashga ruxsat berildi. Agar 6 mln.liradan ortiqcha bo'lsa 10% li chegirma qo'llaniladi.

Qolgan summasi soliq solinadigan daromad deyiladi va undan soliq summasi hisoblanadi. hisob murakkab progressiyaga asoslangan stavka bilan olib boriladi. 1990 yili quyidagi daromad solig'i pog'onasi harakatda bo'lgan:

Soliq solinadigan daromad, mln.lira	Soliq stavkasi, % hisobida
6,0 gacha	10
6-12	22
12-30	26

30-60	33
60-150	40
150-300	45
300dan ortiq	50

Shu tarzda olingan summa shaxsiy engillik hajmiga kamaytiriladi (oila qanchalik katta bo'lsa, shuncha engillik ko'p bo'ladi).

5.1.-jadval

Bolalar uchun qo'shimcha chegirmalar

Bolalar soni	Ruxsat etilgan chegirmalar, ming lira		
	Xotini qaromog'ida	Xotini mustaqil daromadga ega	Er-xotindan bittasi yo'q
1	48	96	360
2	96	192	456
3	144	288	552
4	192	384	648
5	240	480	744
6	258	576	840
7	336	672	936
8	384	768	1032
Har bir keyingi bola uchun	48	96	96

1990 yildan boshlab, xotini uchun chegirma 462 mln.lirani tashkil qiladi.

Oilaviy chegirmadan tashqari ishlaydigan yoki pensiyadagi yana yollanib ishlovchi shaxsga ham chegirma qo'llanadi.

Agar yillik daromadi 6 mln.liradan kam bo'lsa, erkin kasb egalari ham chegirmalar qo'llanadi.

5.3. Huquqiy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Soliq korporatsiyalarni foydasiga soliq solishni universal quoli hisoblanadi. Soliq hamma sanoat, tijorat, kredit-moliya kompaniyalari va ularning chet eldagi filiallariga qo'llanadi. Uning ixtiyoriga aktsioner jamiyati vakolatiga ega bo'lmagan, lekin kapitalda ulush bilan qatnashish

asosida tashkil topgan mayda korxonalar (shirikliklar, kooperativ va boshqalar) kiradi.

Soliq solish ob'ekti kompaniyani taqsimlanmagan foyda ko'rinishidagi sof daromadi hisoblanadi.

Oxirgi foyda va zarar hisob raqami va boshqa buxgalteriya ma'lumotlari asosida quyidagi formula asosida aniqlanadi: kompaniyani yalpi daromadidan ishlab chiqarish harajati chiqariladi va tijorat faoliyatini davom ettirish uchun kerakli harajatlarni chiqarib tashlanadi.

Yalpi daromadga qo'shiladi: asosiy faoliyatdan olingan tushum (tovarlarni sotish yoki xizmat ko'rsatish), ortiqcha xom ashyo, material va yarim tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan tushumlar; asosiy kapital qo'yilmalar (yer, imorat, inshoot, uskunalarni) sotishdan olingan foyda, komission va boshqa aktivlar, "bosh" va fillialari bo'lgan kompaniyalar bilan bitim tuzilganda hisobga olinmagan aktivlar qo'shilgan xolda amal qiladi.

Kompaniyani moliyaviy natijasiga soliq solinadigan bazani aniqlashda ombordagi zapaslarni (xom ashyo va tayyor mahsulotlar) va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlaridagi o'zgarishlarni ta'siri hisobga olinadi. 1988 yilgacha bu zapaslarni joriy qiymatini aniqlashda, kompaniyaga foyda beradigan uslub qo'llanilar edi. Sotib olingan xom ashyo oxirgi bahosi va tayyor mahsulot - boshlang'ich sotish bahosi bilan hisoblanadi (xalqaro amaliyotda ushbu uslubni nomini «LIFO»^{*} deb atashadi). Lekin hozirgi vaqtda faqat ombor zapaslari kamaygan holatda bu uslubdan foydalaniladi. Ombor zapaslari bir xil kategoriyalari bo'yicha guruxlanadi va kategoriya tarkibida-ularning qiymati bo'yicha ajratiladi. (Ilgari moddiy mazmunidan qat'iy nazar qiymat printsipi asosida guruhlangan). Har bir kategoriyani baholashda o'rtacha baho olinadi. Bu bahoni ishlab chiqarilgan va sotib olingan tovarlarni umumiy qiymatini ularning miqdoriga bo'lish bilan aniqlanadi. Xususan shuni qayd qilib o'tish joizki, yangi soliq qonunchiligi ombor qoldiqlarini kelgusi yil balansiga o'tqazmaydi. Shuning uchun keyingi yillari tovar-material boyliklarini 1988 yilga nisbatan ortiqcha hajmiga o'rtacha baho qo'llanadi. Uning natijasi korxonani foyda va zarar schetida o'z aksini topadi.

Korxonani yalpi daromadidan chiqariladigan harajatlar keng miqyosda qator bandlarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda xodimlarni ish haqi. Lekin bunda kompaniya direktorini foydada qatnashish natijasida olgan

* "LIFO"—hisobga oxirgi bosqichda olinib birinchi bo'lib hisobdan chiqariladi, tovar zahiralarni ishlab chiqarishga ko'chirib (yozib) o'tkazish usuli

to'lovi hisobga olinmaydi. Eksploatatsiya qilish harajatlari, asosiy fondlarni ta'mirlash va yangilash harajatlari soliq davrini boshiga olingan ularni qiymatini 5% chegarasida chiqariladi. Ilmiy-tekshirish, tajriba va konstruktorlik ishlarini xarajati birinchi yil amalga oshirganda daromaddan to'liq xajmda chiqariladi. Keyingi yillari chiqarib tashlash haqiqiy harajatni 25% idan oshmasligi kerak. Bundan tashqari korxonani foydasi hisobiga fondlar tuziladi va ular soliqqa tortilmaydi. Qaytishi ishonchsiz bo'lgan qarzlarni fondini tashkil qilish uchun sotishdan olingan tushumni 0,5%gacha ajratish mumkin. Ajratish fondini hajmi 2%ga etgunga qadar davom etadi. Keyin bir yilga ajratma hajmi 0,2% tushiriladi. Bu esa rezerv sotishdan olingan tushumni 5% hajmiga ko'tarilgan davrgacha davom etadi. Kompaniya o'zining xo'jalik faoliyati natijasida zarar ko'rsa, unga kelgusi yil foydasini shu summaga kamaytirishga ruxsat beriladi.

Agar zararni qoplash uchun foyda etarli bo'lmasa, zararni 5 yilgacha o'tqazib borish mumkin. Yangi soliq qonunchiligi bo'yicha korxonaga kredit bo'yicha yo'qotishni to'ldirish fondini tuzadi. Har yili to'ldirish fondiga umumiy kredit summasini 0,5% ajratiladi. Ajratish kreditni balans hajmini 5,0% gacha davom etadi. Bundan tashqari korxonaga horijiy valyutalarni kursini o'zgarib turishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun yo'qotish fondi tuzishga ham ruxsat berilgan.

Korporativ daromad solig'ini muhim elementi amortizatsiya hisoblanadi. Amortizatsiya yerdan tashqari hamma kapital qo'yilma turlariga taaluqli. Amortizatsiya ajratmasi tadbirkorlik tarmoqlari va asosiy vositalar turlari bo'yicha Moliya vazirligi belgilagan me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda har yilgi ajratma stavkalari quyidagi hollarda qo'llaniladi:

Asosiy vositalarning turlari	Har yilgi balans qiymatiga nisbatan amortizatsiya, % hisobida
Imorat	3-6
Uskuna	10
Mashinalar	10-16
Inventarlar	40
Muassasa uskunolari	12
Avtomobillar	20
Elektroskunalar	18

1988 yilgi soliq tadbirlari bu fondlarni tashqil topishiga muhim o'zgartishlar kiritdi. Hozirgi vaqtda amortizatsiya fondiga ajratma uskunalarni haqiqatda ishlab chiqarish jarayonida ishlatilganda amalga oshiriladi (ilgari « ishlatish mumkin bo'lsa» deb yozilar edi). Amortizatsiya belgilangan me'yorlar asosida hisoblanadi. Lekin uskunalarni ishlatishda birinchi yili norma 50%ga kamaytiriladi. Tezlashtirilgan amortizatsiya tarkibi ham o'zgargan. Ilgarigi qonunchilik bo'yicha uskunalarni olgandan keyin birinchi uch yil davomida 15%gacha hisobdan chiqarish mumkin edi.

Yangi qonunchilikka binoan birinchi uch yil davomida odatdagi amortizatsion ajratma koeffitsientlari 1,5 baravardan ortiqcha bulishi mumkin emas.

Amortizatsiya ajratmasi amaliyoti Italiyada «ushlab bo'lmaydigan» aktivlarga ham qo'llaniladi. Bu litsenziya va patentlar sotib olish va h.k.

Amortizatsiya me'yori, aktivlardan foydalanish muxlatiga bog'liq. Agar foydalanish muxlatini aniqlash qiyin bo'lsa, bir yilga 20%dan chiqarishga ruxsat berilgan.

Italiya qonunchiligi qator imtiyozlarni kiritgan. Korxonani texnik jihozlash va iqtisodiy qoloq hududlarda kapital qo'yilmani ko'paytirish uchun engillik beriladi. Iqtisodiy qoloq hududlarda joylashgan korporatsiyalar 10 yil davomida daromad solig'ini faqat 50% ini to'laydi. Daromad solig'ini boshqarish roli boshqa holatlarda ham amal qiladi. Agar asosiy vositalarni bir qismini sotish natijasida foyda olingan bo'lsa va bu foydani uch yil davomida kompaniya yangi asosiy vositalar sotib olish uchun mo'ljallagan bo'lsa, bu pul maxsus rezerv fondiga o'tqaziladi va amortizatsiya foiziga tenglashtiriladi. Shu tariqa soliqdan ozod qilinadi.

Chet elda olingan daromadni soliqqa tortish maxsus qoida bo'yicha amalga oshiriladi. Chet elda to'langan soliq Italiyada imtiyoz olish imkonini beradi. Agar Italiya boshqa davlat bilan ikkiyoqlama soliq solishdan ozod bo'lish to'g'risida shartnoma tuzgan bo'lsa, soliq olish foizi Italiya daromad solig'ini 2/3 qismidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Agar shartnoma bo'lmasa imtiyozni olish 25% chegarasida bo'ladi. Daromatlarni universal printsip asosida soliqqa tortish Italiyada bo'lmaydi va qaysi davlatdan daromad olinganligiga qarab daromad solig'ini stavkasi joriy stavkani 33dan 75% sini tashkil qiladi. 1983 yildan boshlab soliq yagona 36% stavka bilan olinadi.

Oldin daromad solig'ini asosiy stavkasi 25% edi. Bundan tashqari Italiyada yana ikkita maxsus stavkalar mavjud edi. Qimmatli qog'ozlar

bilan shug'ullanuvchi moliyaviy va xolding kompaniyalar uchun daromad solig'ini stavkasi 7,5%gacha kamaytirilgan.

«Aralash» kapital asosida ishlaydigan kompaniya va tashkilotlarda, davlat ishtiroki 50% dan ortiq bo'lsa 6,25% stavka bilan to'laydilar.

5.4. Mahalliy daromad solig'i

Mahalliy organlarni o'zini mablag'ini tashkil topish manbai mahalliy soliqlar hisoblanadi. Yangi soliq islohotiga binoan mahalliy daromad solig'ini markaziy hukumat yig'adi. Bu soliqni maqsadli xususiyati shundan iboratki, markaziy moliya organlari to'liq mahalliy hokimiyat ixtiyoriga o'tqazadi.

1977 yilgacha mahalliy hokimiyatni huquqi hukumat tomonidan belgilangan chegarada stavkani tanlar edilar. Lekin 1977 yili mahalliy hokimiyatni huquqi to'liq chegaralandi. Soliqni yagona (15%) stavka bilan oladigan bo'ldilar va mablag' to'liq davlat byudjetiga tushadigan bo'ldi.

1982 yili stavka 16,2%gacha ko'tarildi va hozirgi vaqtda shu darajada saqlanib turibdi. Mahalliy daromad solig'ini to'lovchilar xususiy shaxslar va korporatsiyalar bo'lishi mumkin.

Lekin soliq solinadigan ob'ektga, yuqorida ko'rsatilgan asosiy daromad solig'ida olinadigan hamma daromadlar kirmaydi. Ayniqsa jismoniy shaxslardan soliq olishda buning farqi juda katta. Yollanib ishlash bo'yicha olingan ish haqi, qimmatbaho qog'ozlar va jamg'armalardan olingan foizlar bo'yicha asosiy daromad solig'i manbaida olingan bo'lsa, ular bu soliqda hisobga olinmaydi. Italiyadan tashqarida olingan daromadlar ham bu soliq ob'ektiga kiritilmaydi. Ko'chmas mulkni qaytadan baholashdan olgan foydadan, chayqovchilik yo'li bilan qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasini amalga oshirishdan olingan foyda, tadbirkorlik daromadi va erkin kasb egalarining daromadi bo'yicha xususiy shaxslar bu soliqni to'lamaydilar. Amaliyotda, mahalliy daromad solig'i keng mehnatkashlar qatlamiga tegmaydi.

Korporatsiyalar uchun asosiy va mahalliy soliqlarni soliq solinadigan daromadni hisoblashda deyarli farqi juda ham kam.

Kompaniyani umumiy daromadidan horijdagi filiallar olgan daromad chiqarib tashlanadi. 1987-1988 yillar kiritilgan soliq yangiliklari shundan iborat bo'ldiki, soliq solinadigan summadan imtiyozli chiqarishlar kengaydi. Masalan, qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar va yillik daromadi 6 mln.dan 12 mln.liragacha bo'lgan korxonalariga 50% chiqarib tashlashga ruxsat beriladi. Kosiblar ,

hunarmandlar va chakana savdo, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlarini sotuvchilar, davlat muassasalari va korxonalar oshxonasiga olib kelish bilan shug'ullanuvchilar deklaratsiyada daromadlarini yana 30% ga kamaytirib ko'rsatishlari mumkin.

Mamlakatni iqtisodiy orqada qolgan janubiy hududlarida kapital qo'yilmani keltirish maqsadida davlat mahalliy soliqdan ozod qilishi mumkin.

5.5. Meros va hadyadan olinadigan soliq

Soliq mulk bilan bog'liq bo'lib, uning egasi ikki holatda o'zgarishi bilan bog'liq (o'lganda va umrbod hadya qilinganda). Soliq solishda bu sabablar o'rtasida hech qanday farq hisobga olinmaydi. Soliq solinadigan ob'ekt merosga olinadigan mulkni bozor qiymati hisoblanadi. Soliq stavkasi ikkita progressiya printsiplida tashkil qilingan: bir tomondan merosga olinadigan mulkni qiymati inobatga olinsa, ikkinchi tomondan qarindoshlik darajasi hisobga olinadi.

Shuning uchun soliq formulasi ikki qismdan iborat bo'lib, alohida hisoblanadi, lekin birgalikda byudjetga olinadi. Birinchi qism-merosga olinadigan yoki hadya qilingan mulkni umumiy qiymati (agar uning qiymati 120 mln.liradan ortiqcha bo'lsa), va ikkinchisi- har bir merosxo'ni olgan ulushidan (manfaat ko'ruvchilar). Oxirgisi aka va singillardan boshlab boshqa qarindoshlar tomonidan to'lanadi.

5.2.-jadval

Hozirgi davrda quyidagi meros va hadya soliq pog'onasi qo'llaniladi:

Meros va hadyadan olinadigan soliqning pog'onalari

Soliq solinadigan daromad, mln.lira	Mol-mulkni umumiy qiymatidan olinadigan soliq, %	Har bir merosxo'ni ulushidan olinadigan soliq, %		
		Aka-ukalar, opa-singillar	3-nchi va 4-nchi darajali qarindoshlar	Boshqa merosxo'rlar
5dan-60gacha	-	-	3	6
60-120	-	3	5	8
120-200	3	6	9	12
200-400	7	10	13	18
400-800	10	15	19	23
800-1500	15	20	24	28
1500-3000	22	24	26	31
3000dan yuqori	27	25	27	33

Er-xotin, ota-onalar va bolalari bu qismdan ozod qilinganlar va ularga faqat birinchi qismi taaluqli. Soliq formulasi 1973-1974 yillar o'tqazilgan

soliq islohotidan buyon o'zgarib qolgan, lekin uning pog'onasi (shkala) 1986 yilgi qonun qabul qilingandan keyin sezilarli o'zgarib ketdi.

Mulkni umumiy qiymatidan eng past stavka (3%) 120 mln.liralik daromadga qo'llaniladigan bo'ldi (avvalgi pog'ona bo'yicha - 50 mln.lira). Bu kategoriyani keyingi stavkalari 2 marta qisqartirilgan edi. Har bir merosxo'rni ulushi bo'yicha stavka ham keskin qisqartirildi.

5.6. Qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq

Italiyada QQS ni Evropa Ittifoqi a'zolari - mamlakatlarni qarorini amalga oshirish maqsadida 1973 yili 1 yanvarda kiritilgan edi. Boshqa Evropa mamlakatlariga qaraganda uch yil keyin moliya tizimini yaqinlashtirish tadbiri qilingan edi. Qo'shilgan qiymat solig'i o'ziga oldingi oborot solig'i va 20 dan ortiq aksizlarni birlashtirib egri soliq solishni keskin soddalashtirdi.

Tovar va xizmatlarni ko'pchilik qismlariga bu soliq solinadigan bo'ldi. Aktsiya, obligatsiya, yer, ishlab turgan korxonalarini sotish-olish, kreditlar berish, korxonalarini qo'shilishi bo'yicha bitimlar va boshqalar bu soliqqa tortilmaydi. Tovarlar va xizmatlarni eksport qilish ham bu soliqdan ozod qilingan. Lekin ularni import qilishdan soliq olinadi.

Huquqiy jihatdan bu maxsus operatsiyalar turi sifatida rasmiylashtirilgan va soliqni nollik stavkasi qo'llanadi.

Natijada eksportyorlar o'zlarini operatsiyalarini xujjatlashtirib soliq organlariga topshirishdan ozod qilinmaganlar.

Qo'shilgan qiymat solig'ini fiskal organlariga o'tqazish oldingi oyni natijasiga qarab, har oyda amalga oshiriladi.

To'lovning hajmi sotilgan mahsulotning qiymatidan to'langan soliq summasi bilan, ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga qo'shilgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni etqazib beruvchilar to'lashgan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar hisobning natijasi salbiy bo'lsa, soliq to'lovchi farqni kelgusi oylarga o'tqazishi mumkin. Bir yilda bir marta yillik oborot bo'yicha deklaratsiya tuziladi. Bu og'ir tartibdan kichik korxonalar ozod qilingan. Ular 6 oyda yoki bir yilda bir marta soliq to'lashlari mumkin.

Bundan tashqari kichik korxonalariga soddalashtirilgan soliq olish tartibi 1985 yilgi qonunda kiritilgan. Bu qonun Italiyaning moliya ahli o'rtasida Vizantini qonuni deb ham yuritiladi. Bu hujjatni asosiy mazmuni bo'lib qo'shilgan qiymat solig'ini aniqlashni soddalashtirilgan printsipini qo'llanilishi nazarda tutiladi.

Bir yillik oboroti 780 mln.liradan kam bo'lgan mayda korxonalar va erkin kasb egalariga bu tartib qo'llanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hajmi katta korxonalariga o'xshab buxgalteriya kitoblari asosida daromadni xarajat bilan solishtirib aniqlanmaydi. Ularda yalpi tushum maxsus koeffitsient (foiz) asosida har bir korxonaga kamaytiriladi.

Koeffitsientlar ishlab chiqarish sohasi va xizmat sohasida faoliyat turlariga qarab har xil belgilanadi. Uning hajmi 40dan 97%gacha. Eng yuqori koeffitsient benzin sotuvchilarga belgilangan - (97%).

Qo'shilgan qiymat solig'i tabaqalashtirishgan stavkalar asosida olinadi. Hozirgi vaqtda ular imtiyozli - 2%, asosiy - 9%, ikkita baland (ko'tarilgan)-18 va 38%, hamda nollik stavkalardan iborat.

Imtiyozli stavka - 2% birinchi navbatda zarur bo'lgan tovarlarga (non, sut va boshqa oziq-ovqat maxsulotlari), hamda gazeta va jurnallarga qo'llanadi.

Asosiy stavka - 9% keng sanoat mollariga, shu jumladan tekstil mahsulotlariga qo'llanadi.

Restoran orqali sotiladigan oziq-ovqatlar, spirtli ichimliklar, hamda benzin va neft mahsulotlari 18% stavka bilan soliqqa tortiladi. Eng yuqori stavka - 38% qimmatbaho buyumlarga (mo'yna, bezak buyumlari, sport avtomobillari) belgilangan.

5.7. Maxsus aktsizlar

Egri soliqlar tarkibida bu to'lov ikkinchi o'rindagi fiskal ahamiyatga ega. Italiyada ayrim turdagi tovarlar va xizmatlar uchun qo'llaniladi (shakar, alkogolli ichimliklar, elektroenergiya va boshkalar). Eng katta tushumni neft va neft mahsulotlari hamda tamaki mahsulotlari bo'yicha olinadigan aktsizlar ta'minlab beradi.

5.8. Ish yuritish jarayonlaridan olinadigan soliqlar

Ishbilarmonlik operatsiyalaridan olinadigan soliqlar eg'ri soliqlarni eski turi bo'lmish gerb, ro'yhatga olish va kontsession soliqlardan tashkil topadi.

Gerb solig'i. Soliqni maxsus gerb qog'ozi yoki gerb markasini har xil tijorat hujjatlarini qonun talabi darajasida (qarz majburiyatlari, kvitantsiyalar, cheklar, qo'shilgan qiymat olinmaydigan schet-fakturlar, xususiy kontraktlar va yozma bitimlar) rasmiylashtirish uchun davlat tomonidan sotish shaklida olinadi. Hamma notarial ishlardan majburiy tartibda gerb yig'imi olinadi. Gerb solig'ini hajmi hujjatlar turi bo'yicha

tabaqalashtirilgan. Ayrim turlar tarkibi ham bitim summasiga qarab bo'linib tortiladi (masalan, qarz bo'yicha tilxat). Qarz raspiskalari bo'yicha har bir 1000 liradan soliq 5 dan 8 liragacha olinadi.

Firma blanklarini har bir varag'ini bahosi 400 dan 1500 liragacha boradi.

Ro'yhatga olish (qayd qilish) solig'i. Har bir bitim va tuzilgan akt maxsus kitobda davlat tomonidan ro'yhatga olinadi.

Ko'chmas yoki ko'chirib bo'lmaydigan mulkni ayrim turlariga (suv transporti, yerda yuradigan vositalar, patentlar va boshqalar) mulk huquqi bir shaxsdan ikkinchisiga o'tganda qonun bo'yicha ro'yhatga olinadi.

Bundan tashqari hamma lizing, zayomlar bilan bog'liq bo'lgan kontraktlar, ishonch qog'ozlari, hadya hujjatlari va adliyani qarorlari va ko'rsatmalari ro'yhatga olinishi kerak.

Ro'yhatga olinadigan hujjatdagi summa soliq solinadigan ob'ekt hisoblanadi. Hujjatlarni turlariga qarab soliq stavkasi 0,5 dan 8,0% gacha boradi. Masalan, ko'chmas mulk sotilsa, eng yuqori stavka - 8,0% to'lanadi.

Agar ko'chmas mulk qaytadan sotilsa (olingandan keyin 5 yil davomida) 6% olinadi. Ko'chirib bo'ladigan mulk sotilsa, 2%, qarz hujjatlari va garov hujjatlaridan - 1,0 % to'lanadi.

Kontsersion soliq. Qator holatlarda ruyxatga olish solig'iga qo'shimcha ravishda olinadi. Asosan bu ishchan "ishbilarmon" yoki ishga taaluqli, bo'lgan operatsiyalarga taaluqli bo'lib, davlat rozichilik, ruxsat yoki litsenziya beradi. Maxsus yo'riqnomalarda 120 dan ortiq shu soliqqa tortiladigan hujjatlar ro'yhati berilgan. Soliq hajmi har bir akt turiga alohida belgilanadi.

Bu soliqni pasportlarni berilishi, muzlatgichga egalik qilishiga ruxsatnomani berilishi munosabati bilan olinadi. Yig'imler hujjatlarni berish vaqtida yoki ularni yangilash vaqtida to'lanadi. Bu yig'implarni undirishda odatda maxsus markalar qo'llanadi. Mahalliy litsenzion yig'imler jamoat joylarida mavsumiy savdo huquqi, antikvariant buyumlarini savdo qilishga ruxsat olinishida to'lanadi.

Asosiy tayanch iboralar:

- Soliqni ijaraga berish
- Qurbonlik shaklidagi yig'imler
- «Havoga solinadigan soliq»
- «Lifo» tushunchasi

- Mahalliy daromad solig'ini tushuntiring
- Kontsession soliq

Takrorlash uchun savollar:

1. Italiya davlatida soliqlarni vujudga kelishi va rivojlanishi
2. Birinchi mahalliy soliqlar qaysi manzilda tadbiq qilingan va qachon?
3. Xususiy shaxslarni daromadlarini kelib chiqish manbaiga qarab 5 kategoriyaga bo'linishini ifodalang
4. "V" kategoriyasi daromadlarini xususiyatini ko'rsating
5. Oilaviy korxonada soliq organi bilan bo'lgan munosabatlarda oila a'zolari o'rtasida daromad qanday taqsimlanadi
6. Xotin qaramog'ida 1 ta yoki 8 bola bo'lganda necha ming liradan chegirma beriladi
7. Qaytishi ishonchsiz bo'lgan qarzlarning fondi qanday tashkil qilinadi
8. Meros va hadya solig'ini stavkasi uning hajmi va har bir merosxo'ning ulushiga qarab tabaqalanishi

Test savollari

1. Eramizdan avval qaysi davlatlarda kishi boshidan olinadigan soliq qo'llangan?
 - a) Arabiston, Hindiston, Malayziya
 - b) Koreya, Yaponiya, Filippin
 - c) Frantsiya, Angliya, Germaniya
 - d) Hitoy, Vavilon, Fors
 - e) Hammasi noto'g'ri
2. Eng qadimiy zamon soliqlari, bu ...:
 - a) Qo'shilgan qiymat solig'i, korxonalar foydasiga solinadigan soliq, ekologiya solig'i
 - b) Transport vositalari egalari olinadigan soliq, it egalari solinadigan soliq, bojxona bojlari
 - c) Aylanma solig'i, suv resurslariga solinadigan soliq, meros va hadyaga solinadigan soliq
 - d) Jon boshidan olinadigan soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'i, aktsizlar
 - e) Pivoga solinadigan soliq, yer osti boyliklariga solinadigan soliq, kapital qo'yilmadan olgan foydaga solinadigan soliq
3. Xususiy shaxslarni kelib chiqish manbaiga qarab qaysi guruh daromadlari soliqqa tortiladi?

- a) Ko'chmas mulk va avtomobillar, pensiya va nafaqalar
- b) Meros va hadyadan olingan daromad
- c) Yerga bo'lgan mulk, ko'chmas mulk va imoratlar, kapital, yollanma mehnat va erkin kasb, tadbirkorlik, boshqa manbalar

d) Kredit olish, qarzni undirish

e) Hammasi to'g'ri

4. "B" kategoriyasi daromadlariga qo'llaniladigan soliq stavkalarini turlari, %:

a) 10,20,25,30

b) 10,15,18,20,24

c) 25,12,5,10,30

d) 5,8,12,16,18,20

e) Hammasi to'g'ri

5. "V" kategoriyasi mehnat orqali olinadigan daromadlarga qaysi daromadlar kiradi?

a) Yollanma mehnatdan olinadigan daromad va erkin kasb bilan shug'ullanuvchilar daromadi

b) Har oylik ish haqi, mukofotlar, 13 ish haqi, ortiqcha ishlagani uchun to'lov.

c) Korxonani foydasida qatnashish natijasida olgan daromad

d) Safarga borishdan olingan pul, xar-xil ustamalar (oila a'zolariga), uzoq yilgi xizmati uchun to'lov, kasallik varaqasi bo'yicha to'lov, ishsizlikka olingan mablag', pensiya va h.k.

e) a,b,c,d

6. Ko'chmas mulk va tadbirkorlik bo'yicha olinadigan daromad bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar:

a) Boshqaruvchilar, hisobotlarni tekshiruvchi revizorlarni maoshi

b) Jurnalistlar gonorari

c) Fabrika markasidan foydalanganligi, kashf kilganligi, patent olganligi uchun beriladigan pullik taqdirlashlar

d) Birlashmadan chiqqanlik uchun kompensatsiya

e) a,b,c,d

7. Kichik korxonalarda harajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar etishmaganligi uchun ularni qaysi hajmdagi umumiy daromad summasidan olinadi?

a) Daromad 12 mln. liragacha bo'lsa 3%

b) 12 mln. dan 150 mln.liragacha –1%

c) 150 mln. dan 180 mln. liragacha 0,5%

d) a, b, c

e) Hammasi to'g'ri

8. Umumiy daromadlar yig'indisidan qancha chigirmalar uchun yangi kodeks huquq beradi?

a) 15 b) 10 c) 20 d) 25 e) 30

9. Jismoniy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqni nechta murakkab progressiv stavkasi bor?

a) 4 b) 7 c) 8 d) 9 e) 3

10. Amortizatsiyani 3-6% li va 20% li ajratmalari qaysi turdagi asosiy vositalarga to'g'ri keladi?

a) Imorat

b) Uskuna, mashinalar

c) Inventarlar

d) Avtomobillar

e) a,d

11. Meros va hadyadan olinadigan soliqni hisoblashda qaysi guruh merosxo'rlari inobatga olinadi?

a) Aka - ukalar, opa-singillar

b) 3-nchi va 4-nchi darajali qarindoshlar

c) Boshqa merosxo'rlar

d) Begona shaxslar

e) a,b,c

12. Qo'shilgan qiymat solig'ini asosiy to'lash muxlati?

a) Dekadada

b) Har oyda

c) Kvartalda

d) Bir yilda

e) Yarim oyda

13. Qo'shilgan qiymat solig'ining amaldagi stavkalari, % da:

a) 10,20,18,15 b) 15,25,30, c) 0,2,9,18,38 d) 22,28,30, e) 16,18,20

14. Imtiyozli -2% qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi qaysi guruh tovarlariga qo'llanadi?

a) Tsement, alebastr, bo'yoq, ohak

b) Mashina, uskuna, inventar

c) Non, sut, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, gazeta, ro'znomalar

d) Benzin, avtol, dizel yoqilg'isi

e) Chit, shoyi, jun materiallari

15. Eng ko'p aktsiz soliqlari Italiyada qaysi mahsulotlardan tushadi?

- a) Shakar, tuz, o'simlik moylari
- b) Alkogolli ichimliklar
- c) Neft, neft mahsulatlari, tamaki mahsulotlari
- d) Elektroenergiya
- e) Billur buyumlari

VI BOB. SHVETSIYANI SOLIQ TIZIMI

6.1.Soliq tizimini asoslari va xususiyatlari.

6.2.Kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq.

6.3.Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i.

6.4.Qo'shilgan qiymat solig'i.

6.5.Boshqa soliqlar.

6.6.Soliq tizimi funktsiyalarini boshqarish (engilliklar va jarimalar).

6.1. Soliq tizimini asoslari va xususiyatlari

Soliq siyosati davlatda tizim tashkil qiluvchi tarkibiy qism hisoblanadi: Mazmunan har qanday mamlakatda bosqichma-bosqich hokimiyat tarkibini moliyaviy asosi hisoblanadi. Bir tomondan davlat soliq oluvchi organ sifatida jamiyatni ijtimoiy iqtisodiy talabini amalga oshiradi. Ikkinchi tomondan, esa soliq solish siyosati davlat hokimiyatini hamma bosqichlarda amalga oshirish uslubi hisoblanadi. Soliq solishda hokimiyat darajasini har bir bosqichidagi farq soliq turlari va stavkalari orqali amalga oshiriladi.

Shvetsiya soliq tizimini tahlili shuni ko'rsatadiki, uning asosiy tavsifini doimiylik va oldindan bashorat qilish (bir necha yillar davomida umumiy soliq olish tartibi o'zgarishligi dan iborat). Soliq tizimini boshqarish funktsiyasi juda rivojlangan, davlatni tarkibiy-kengaytirilgan ishlab chiqarishdagi muvozanatni saqlab turishiga qaratish;

Engillik va jarimalarga maqsadli yo'nalishlar berib, ularni umumiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga qaratish, jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy talablarni o'zgarishiga moyillik (o'ziga qabul qilishlik), inflyatsiyaga qarshi yo'naltirishni doimiyliigi, pul muomalasini holatiga qarab soliq turlari va stavkalarini egiluvchanligi, soliqni «hamma sohani egallab olishi»- pul, mulk, natural mulklarni soliq ob'ekti bo'lishligi.

Har xil darajadagi soliq munosabatlarini o'zaro bog'liqligi daromad va mulkdan tushadigan soliqlar asosan mahalliy byudjetlarga qoldiriladi va markazda faqat ma'lum harajatlarga yo'naltiriladigan maxsus, maqsadli tushumlar saqlanadi.

Qator iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirganligi sababli oxirgi yillari davlat harajatlari ko'payib ketdi va natijada soliq og'irligi oshib bordi.

1991-1993 yillarda boshigacha Shvetsiya dunyoda ichki yalpi mahsulotni davlat moliyasi orqali qayta taqsimlovchi va soliq stavkalari bo'yicha ilg'or yo'l boshchi, (rahnamo) davlati hisoblangan bo'lib, mamlakatda maxsus qonun qabul qilingan edi. Bu qonunda soliq to'lovchining yillik daromadidan 100% ortiq to'g'ri soliq olish taqiqlangan edi.

Ma'lum sharoitda hamma daromad solig'ining yig'indisi va mol-dunyosidan olinadigan soliqlarning umumiy summasi ko'rsatilgan hajmdan ortib ketar edi.

Bunday qattiq qo'l soliq siyosati natijasida moddiy o'sish darajasi pasaydi, dunyo bozorida Shvetsiya tovarlarini raqobatbardoshligi tushib ketdi, investitsiya qisqarib, qator ishlab chiqarishlar mamlakatdan tashqariga chiqib ketdi. Shuning uchun hukumat soliq stavkasini tushirish bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Birinchi navbatda qo'shilgan qiymat solig'ini (ilgari uning stavkasi 23,5% bo'lib, dunyoda yuqori stavkalardan hisoblanar edi) va bundan keyin kompaniyalar foydasiga solinadigan soliq (uning 28% stavkasi) Evropada eng past bo'lgan. Fuqarolarni shaxsiy daromadlariga solinadigan soliq ijtimoiy sug'urta badali sezilarli yuqori darajada saqlanib qoldi. Lekin ijtimoiy yordam va pensiya bilan ta'minlash yuqori darajada bo'lganligi uchun uning og'irligi sezilmadi. Hozirgi vaqtda byudjetni soliq daromadlarini 2/3 qismini QQC va iste'mol soliqlari beradi. Taxminan 20% ini to'g'ri soliqlar va qolgani ijtimoiy sug'urta badaliga to'g'ri keladi.

Shvetsiyada investitsiyani jalb qilish uchun keng miqyosda imtiyozlar va iqtisodiy rag'barlantirish dasturi ishlab chiqildi. Soliqdan ozod rezervlarni tashkil qilish uchun korxonalar soliqni real stavkasini pasaytirish, amortizatsiya ajratmasini imtiyozli stavkalarini qo'llash, eksportga mahsulot ishlab chiqarish uchun qo'shimcha imtiyozlar berishni talab qildi. Bundan tashqari investitsiyani jalb qilish uchun maxsus rag'batlantirish tizimi ishlab chiqilgan: soliq chegirmalari, imtiyozli kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar, ijtimoiy sug'urta badalini keskin pasaytirish va h.k.

Shvetsiyani soliq tizimi quyidagi soliq turlarini o'z ichiga oladi: fuqaro va kompaniyalardan olinadigan daromad solig'i, mol-dunyoga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, meros va hadyaga solinadigan soliq, aktsiz va gerb soliqlari (yig'implari). Bundan tashqari korxonalar xodimlarni ish haqidagi ijtimoiy sug'urtaga badallar (soliqlar) ajratadi.

Markaziy hukumat darajasida korxonalar va fuqarolardan daromad solig'i va aksizlar olinadi. Hududlar (yerlar) hukumat organi fuqarolardan daromad solig'i va boshqa mayda soliqlarni yig'adilar.

Soliq sohasida, uni belgilash yuqori hokimiyat organi parlament hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda mahalliy organlar, ularga tegishli soliqlar bo'yicha stavkalarini o'zgartadilar (milliy qonunchilik belgilagan chegarada).

Byudjetni tuzish va soliq qonunlarini ishlab chiqish bilan Moliya vazirligi shug'ullanadi.

Soliqlarni yig'ish, soliq qonunchiligini saqlash ustidan nazorat bilan milliy soliq boshqarmasi va yerlarni soliq organlari shug'ullanadi.

Milliy soliq boshqarmasining o'zini ixtiyorida aksizlarni va chet elga o'tqaziladigan manbaida daromaddan olinadigan soliqlarni yig'ish qoldirilgan.

Yerlarni soliq organlarida daromad soliqlari, ijtimoiy sug'urta badallari va qo'shilgan qiymat soliqlarini undirish qoldirilgan.

Milliy va mahalliy daromad soliqlari bitta yagona soliq deklaratsiyasi asosida va bir xil qoida bo'yicha yig'iladi. Lekin har xil byudjetlarga o'tqaziladi. Importdan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona boji va yig'imlar Boshqarmasi tomonidan yig'iladi.

Milliy soliq boshqarmasi soliq qonunlarini bajarish bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi va uni qanday talqin qilish kerakligini tushuntiradi. Ushbu Boshqarma tarkibida ish olib boruvchi huquqiy qo'mita boshqarmasi soliq to'lovchilarni talabi asosida aniq holatlarda soliqlarni boshqarish bo'yicha oldindan xulosa (xotima) beradilar. Soliq to'lovchi ushbu xulosani olishi mumkin. Bu holatda unga va kerakli soliq organlariga xulosa majburiy bo'lib qoladi.

Agar soliq to'lovchi qabul qilmasa xulosa bo'yicha Oliy ma'muriy sudga shikoyat qilishi mumkin va oxirgi organni qarori hammaga majburiy deb hisoblanadi.

6.2. Kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq

Kompaniyalar foydasiga solinadigan soliqqa aksioner jamiyatlar, kooperativlar va Shvetsiyada tijorat faoliyati yurituvchi chet el kompaniyalari tortiladi. Soliqqa tortish 1947 yilgi milliy daromad solig'i to'g'risidagi qonun va keyingi kiritilgan o'zgarishlar asosida boshqariladi. Keyingi eng muhim o'zgarish 1990 yili Daromad solig'iga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonun hisoblanadi.

1947 yilgi kompaniyalar to'g'risidagi qonunga binoan, ular faqat aksioner kompaniya shaklida tashkil qilinishlari va o'zlarining tavsifi bo'yicha taxminan Amerikani kompaniyalariga o'xshash bo'lishlari kerak edi. Bir vaqtni o'zida qonunda ko'rsatilishicha, ularni ish yuritishlari va hisobotlari yirik korxonalar uchun va mayda, o'rtacha korxonalar uchun har xil bo'lishligi belgilangan edi.

Aktivi 35 mln.kron va xodimlarni soni 200 kishidan ortiq yoki fond birjasida listingga* ega bo'lgan korxonalar yirik kompaniya hisoblanadi. Aksioner kompaniyalar uchun kapitalni eng kam hajmi 50 ming kronni tashkil qilishi kerak va bu holatda kompaniya bitta mulkdorga ega bo'lishi kerak. Hamma kompaniyalar patent va ro'yhatga olish Boshqarmasida ro'yhatdan o'tishlari kerak va undan keyin Boshqarmani tashkil qilish to'g'risidagi hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlardan xabardor qilib, direktorlar kengashining tarkibi, kompaniya nomidan hujjatlarga qo'l qo'yadiganlar va rasmiy auditorlar to'g'risida ma'lumot beradilar.

Boshqarmada saqlanadigan ushbu hujjatlarni hammasi keng jamoatchilikka tanishish uchun ijozat etiladi.

Yillik hisobotlar va kompaniyaga taaluqli muhim ma'lumotlar umummillat darajasida ro'znomalarda chop qilinishi kerak.

Savdo sheriklari patent va ro'yhatga olish Boshqarmasida huquqiy shaxs hisoblanib, hisobga olinsalar ham foydaga solinadigan soliqqa tortilmaydilar, ularning daromadi soliq solish nuqtai nazaridan o'rtoqlik qatnashuvchilarini o'rtasida taqsimlangan hisoblanadi (tashkiliy hujjatlarda belgilangan qismlarda) va faqat qatnashayotgan daromadi sifatida daromad solig'iga tortiladi. Kompaniyalar uchun hisobot Qoidasi 1976 yilgi buxgalteriya ucheti to'g'risidagi qonunda belgilangan. Har yili kompaniya hisoboti o'z ichiga boshqarmani hisobotini, hisobot balansini foyda va zararlar hisob raqamini va moliya hisobotiga izoh berish (tushuntirish), kompaniyani moliyaviy holatiga xulosalarni oladi. Moliya hisoboti auditor tomonidan tekshirilgan va uning xulosasi yozilgan bo'lishi kerak.

Auditorlar ikkita kategoriyaga bo'linadilar:

1) vakil (vakolatli) auditorlar. Ular vakillar institutiga birlashgan bo'ladilar va yirik kompaniyalarni tekshirish huquqiga egalar.

2) Litsenziya berilgan auditorlar. Ular yirik kompaniyalardan tashqari har qanday korxonani tekshirishlari mumkin.

* listing (list – ing. ro'hat) – EHM yordamida olingan, qayta ishlangan dasturni natijalarini harflar va raqamlar bilan ifodalaniishi.

Bundan tashqari auditorlik amaliyoti bilan maxsus bilimga ega bo'lgan va dong'i chiqqan boshqa shaxslar ham shug'ullanishi mumkin. Lekin ularning faoliyatlari kichik kompaniyalar va korxonalar bilan chegaralanib qoladi.

Auditorlar ma'lum yoki chegaralanmagan muxlatlarga kompaniya aksionerlari majlisi tomonidan tayinlanadi va faqat aksionerlar majlisi qarori bilan almashtiriladi (yoki auditorni o'zining iltimosiga ko'ra).

Rezident kompaniyalar foydaga solinadigan soliqqa Shvetsiyada va undan tashqarida olgan daromadlari bo'yicha tortiladilar. Odatda Shvetsiya qonunlari asosida ro'yhatga olingan va munosib reestrğa (ro'yhatga) kiritilgan kompaniyalar rezident hisoblanadi.

Qolgan hamma kompaniyalar Shvetsiyani norezidentlari deb ataladi. Shuni ko'rsatib o'tish kerakki, Shvetsiya o'zining hamma asosiy savdo sheriklari bilan soliq bitimi tuzgan va ular bilan aloqada tortishuvlar yuzaga kelsa, ko'rsatilgan bitimlar asosida hal qiladilar.

Norezident kompaniyalarni faqat Shvetsiyadagi manbailardan olingan daromadlari, Shvetsiyadagi mol-mulknı qaytadan sotishdan olingan daromad va Shvetsiya hududida doimiy ishchan muassasalari orqali bajarilgan faoliyati natijasida olingan daromadlar soliqqa tortiladi.

Doimiy ishchan muassasalar orqali amalga oshirilgan faoliyat natijasida olingan daromad odatdagi tartibda soliqqa tortiladi. Bunda doimiy ishchan muassasalar soliqqa tortish nuqtai-nazaridan alohida korxonaga hisoblanadi va o'zini foydasini hisoblab boshqa Shvetsiya kompaniyalari kabi soliq deklaratsiyasini topshirishlari kerak. Royalti shaklida daromad oladigan chet el firmalari Shvetsiya hududida faoliyat olib borgan hisoblanadi va soliq deklaratsiyasini topshirib, foydaga solinadigan soliqni odatdagi tartibda to'lashlari kerak.

Chet elga o'tqazishda dividendlar manbasida olinadigan soliqqa tortiladi. Lekin bu soliq foizdan olingan daromadlar o'tqazilganda olinmaydi.

Kompaniya - foydaga solinadigan soliqni to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza kompaniyani moliya hisobotida ko'rsatilgan sof daromad (foyda) asosida aniqlanadi.

Shu bilan bir qatorda oxirgi natija, soliq qonunchiligida ko'rsatilgan o'zgartishlarni kiritish bilan hisoblanadi. Bir tomondan hisobot foyda solig'idan ozod qilingan ayrim daromad turlari chiqazib tashlanadi (masalan, qiz kompaniyalardan olingan dividendlar) va boshqa tomondan harajatlar va chiqarishlarga ayrim chegaralash va limitlar qo'llanadi. Soliq

solinadigan foydani hisoblash asosi kompaniyani tushumi hisoblanadi. Keyin tushumdan daromadni olish uchun qilingan normal va asoslangan harajatlar chiqazib tashlanadi.

Bular birinchi navbatda yollangan xodimlarga berilgan ish haqi va ishlab chiqarish (tijorat) faoliyati jarayonida sarflangan material va xom ashyolar hisoblanadi. Ish haqi va shunga o'xshash to'lovlar harajatlarga to'liq hajmda olib boriladi. Ularga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar (ijtimoiy sug'urtaga ajratish) to'liq qo'shiladi. Ishlab chiqarish jarayonida ist'emol qilingan xom ashyo va materiallar tannarxga birin ketin FIFO* uslubida olib boriladi.

Kompaniyani tashkil qilish va ro'yhatdan o'tqazish harajatlari, kompaniyani birinchi yilgi harajatlari olib boriladi. Bunda gerb solig'i va kompaniyani ro'yhatga olish uchun undiriladigan majburiy yig'imlar chiqazib tashlanadi.

Huquqiy xizmat ko'rsatish uchun qilingan harajatlar faqat tijorat faoliyatini olib borish bilan bog'liq bo'lsagina umumiy harajatga o'tkaziladi. Lekin soliq organlari bilan bo'lgan tortishuvlardagi harajatlar yuqoridagi harajatlarga o'tkazilmaydi.

Odatda hech qanday chegaralashsiz, to'liq xajmda to'langan foizlar va royalti† harajatlarga o'tkazib beriladi (faqat o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar haqida gap yuritilmaganda).

Ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida foydalanilgan mashina va uskunalar hamda imorat va inshooatlar qiymati harajatga amortizatsiya orqali olib boriladi.

Aktivlarni amortizatsiya qilinadigan baza qiymati yoki sotib olish bahosi (shu bilan bog'liq harajatlar qo'shilgan holda-transport harajati, o'rnatish va sozlash harajati, bojxona yig'imi, bojlar va boshqalar), yoki ishlab chiqarish vositalari korxonani o'zida tayyorlangan bo'lsa tayyorlash bahosida olinadi, mashina va uskunalarni (transport vositalarini qo'shgan holda) amortizatsiyasi esa ikki xil usulda hisoblanishi mumkin: bir tekis to'g'ri liniyalik amortizatsiya yoki kamayib boruvchi qoldiq usulini qo'llanilgan davrda.

Bundan tashqari 3 yildan kam muxlatda foydali qo'llaniladigan va qiymati 2000 krondan kam (yirik kompaniyalarda 10000 krongacha) bo'lgan aktivlar, olingan yilning o'zida harajatlarga o'tkaziladi. Bir tekis

* FIFO – birinchi bo'lib kiritiladi hisobga, birinchi bo'lib hisobdan chiqariladi. Tovar zapaslarini ishlab chiqarishga o'tqazish (yozish) usuli.

† Royalti – litsenziya, mualliflik va shunga o'xshash to'lovlar

amortizatsiya uslubida hisobot balansida ko'rsatilgan aktivlarni qiymati asos qilib olinadi va undan har yili 20% o'tqazilib boriladi. Kamayib (pasayib) boruvchi qoldiq uslubida, aktivlarni balans qiymatidan hisobot yilgacha bo'lgan amortizatsiyasi chiqazib tashlanadi va qoldiq summadan har yili 25% o'tqaziladi.

Kompaniya joriy yilga hamma aktivlari uchun bitta amortizatsiya uslubini qo'llashi mumkin. Kompaniya tanlangan uslub bilan bir qatorda (masalan, kutilmagan ravishda yalpi daromad pasayib ketganida), amortizatsiyani hisoblangan summasini pasaytirib, tejalgan summani kelgusi yillari foydalanishi mumkin.

Imorat va inshootlar bir maromdagi amortizatsiya uslubi yordamida amortizatsiyalashadi. Ishlab chiqarish imorati va maxsus zarar keltiruvchi ishlab chiqarishida (kimyo sanoati va h.k.) foydalanganlik uchun odatda har yilgi stavka 4 va 5% ni tashkil qiladi, fuqarolarga taaluqli imoratlar bo'yicha normal amortizatsiya stavkasi bir yilga 2% tashkil qiladi.

Yer uchastkalari amortizatsiya qilinmaydi. Lekin yer holatini yaxshilash, yo'llarni o'tqazish va h.k. harajatlar bir yilga 5% hajmda amortizatsiyaga o'tqaziladi.

Nomoddiy aktivlar-patentlar, savdo markalari va boshqalar faqat boshqa shaxslardan olingan bo'lsa va daromad olish maqsadida foydalanilgan bo'lsa amortizatsiya qilinishi mumkin.

Amortizatsiyani hisoblash tartibi bu holatda ham mashina va uskunalarni amortizatsiya qilish tartibida olib boriladi.

Xodimlarni notijorat maqsadlar uchun vakillik, o'yin-kulgi (sayr tomosha) va dam olish harajatlari ma'lum sharoitda va limitlar chegarasida harajatlarga olib boriladi.

Hayr-ehson va muhtojlarga yordam berish va shunga o'xshashlarga maxsus me'yorlar belgilangan.

Oxirgi yillari soliqdan ozod qilingan rezervlar muhim darajada chegaralanmoqda. Bu davlatni oxirgi siyosatlari bilan bog'liq. Davlat sekin-asta soliq stavkasini tushirib, engilliklarni chegaralab bormoqda.

Qarzlarni qaytarib olish mutloq mumkin bo'lmasa va ularni fors-major sharoitlari bo'yicha olish imkoniyati bo'lmasa ularni qaytarib bo'lmas yo'qotishlarga o'tkazib yuboriladi.

Kompaniyani tijorat faoliyati asosida to'langan soliqlar (jarima, jazolar summasidan tashkari) harajatlarga to'liq hajmda qo'shiladi. Agar chet el daromadi Shvetsiyada soliqqa tortiladigan bo'lsa, chet el daromad solig'i harajatlarga o'tkaziladi, yoki soliq krediti hisobida olinadi.

Kompaniyani ayrim daromadlari foydaga solinadigan soliqqa tortilmaydi va shu sababli soliq solinadigan bazalarga ham qo'shilmaydi. Bunday daromadlarga masalan, kompaniyadan olinadigan va soliq to'lovchiga 25% va undan ortiq beriladigan dividendlar kiradi.

Kompaniya soliq to'lovchilarga beradigan dividendi foydani taqsimlash hisoblanadi. Lekin 1979 yil 1 yanvardan keyin chiqarilgan aktsiyalar bo'yicha maxsus engillik - ularning 10% gacha summasi yil harajatiga to'langan yili o'tkaziladi.

Kompaniyani tijorat faoliyati natijasida olgan zararni, soliq maqsadida, keyingi yillarda hisobga olish uchun o'tkaziladi. Bu vaziyatda muxlat chegaralanmaydi. Lekin kompaniya imkoniyat boricha tezroq hisobdan chiqarishga harakat qiladi. Zararni o'tgan yillarga olib borishga ruhsat berilmaydi.

Kompaniya tugatilganda yoki shunga o'xshash boshqa holatda reestrдан (ro'yhatdan) chiqarilganda, ungacha yuzaga kelgan zarar o'z-o'zidan yo'qoladi va qabul qiladigan (qabul qilish huquqli) kompaniyaga o'tkazilmaydi.

O'zaro bog'liq kompaniyalar uchun maxsus qoida bo'lib, uning asosida soliq xizmati kompaniyalarni soliq majburiyatlarini bozor bahosidan kelib chiqib, qaytadan hisoblaydilar.

Bu tartib faqat ichki firma baholari ko'rsatilgan bazadan keskin farq qilgan holda qo'llanadi.

Shvetsiyadagi chet el kompaniyalarini bo'limlari soliqqa tortish tartibi bo'yicha doimiy ishchan muassasalar holatiga tushadi va ularning soliqqa jalb qilish tartibi mahalliy tarmoqlanish natijasida hosil bo'lgan sho''ba kompaniyalarnikiga o'xshagan bo'ladi.

Foydaga solinadigan soliq bo'yicha hisobot davri yil hisoblanadi. Hisobot yilini boshlanishi 1 yanvar, 1 may, 1 iyul yoki 1 sentyabr bo'lishi mumkin. Hisobot yilini o'zgartirish faqat soliq organlarini ruhsati bilan amalga oshiriladi.

Yangi kompaniyalar uchun birinchi hisobot davri kompaniyani tugatilganda, oxirgi hisobot davri uzaytirilishi mumkin, lekin davr 18 oydan oshmasligi kerak.

Soliq deklaratsiyasi hisobot davri tamom bo'lgandan keyin 6 oydan oshmagan muxlatda topshirilishi kerak. Soliq to'lovchi, undan olinadigan soliq summasini hisoblamaydi. Uning deklaratsiyada bergan ma'lumotlariga qarab, soliq organi soliq summasini hisoblab chiqadi.

Hisob-kitobni natijasiga qaramay, kompaniyalar oldingi yilgi soliq hisobidan kelib chiqib, butun hisobot davrida avans to'lovlarini amalga oshirishlari kerak.

Avans to'lovlar - 18 yanvar, 18 mart, 18 may, 18 iyul, 18 sentyabr va 18 noyabrda amalga oshiriladi.

Soliq organlari deklaratsiya topshirilgandan keyin 6-7 oy mobaynida soliqni oxirgi hisob-kitobini qilib, soliq to'lovchiga jo'natadi. Agar zaruriyat bo'lsa, talabnoma olingandan keyin 2-3 oy ichida etishmagan soliq summasi to'lanishi kerak. Agar ortiqcha to'langan bo'lsa soliq majburiyatidan ortiqcha berilgan avans kompaniya tomonidan qaytarilib olinishi mumkin, yoki joriy avans to'lovlari hisobiga o'tkazib yuboriladi.

Soliq organlari vaqt-vaqti bilan kompaniyalar o'zlarining soliq majburiyatlarini bajarganliklarini tekshirib turadi. Lekin doimiylik faqat 5 yilda bir marta tekshiriladigan yirik kompaniyalarga taaluqli hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun bo'yicha hisobga olish va hisobot hujjatlari 10 yildan kam bo'lmagan muxlatda saqlanishi mumkin. Soliq qonunchiligi soliqqa taaluqli hujjatlarni eng kamida 6 yil saqlashni talab qiladi.

Foydaga solinadigan soliqni stavkasi 28% ni tashkil etadi. Bundan tashqari kompaniyalar chet elga dividendlarni o'tkazganlarida, ularning umumiy summasidan 30% stavka bilan soliqni ushlaydilar (harakatdagi soliq kelishuvlarini sharti bo'yicha standart stavkalar 10-15% gacha yoki nolgacha tushirilishi mumkin).

Soliq deklaratsiyasi kompaniya vaqtini o'tkazib topshirilganida 1000 dan 4000 krongacha jarima solinishi mumkin.

Avans to'lovlarni 2 haftagacha vaqtida o'tkazmagan bo'lsalar 2% hajmida to'lov summasidan jarima olinadi, agar 2 oydan ortiq ushlanib qolinsa 4%dan 6% gacha jarima olinadi.

Keyinchalik jarima qo'llash davom etadi va har bir oyga 1,0% dan to'planib boradi.

Soliq to'lovchilar soliq organlarini qarori ustidan yuqori soliq organlariga yoki yer sudiga shikoyat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tariqasida ikkala tomon apellyatsiya va yuqori apellyatsiya sudiga murojaat qilishlari mumkin.

6.3. Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i

Fuqarolarni daromadini soliqqa tortish 1928 yilgi munitsipal daromad solig'i to'g'risidagi qonun va 1947 yilgi milliy daromad solig'i

to'g'risidagi qonun va keyingi o'zgartishlar va qo'shimchilar bilan boshqariladi. Ushbu qonunlarga binoan Shvetsiya rezidenti Shvetsiya va ularni tashqarida hamma manbalardan olinadigan hamma daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar. Norezidentlar faqat Shvetsiyada olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar: yollanib ishlashdan olingan daromad, doimiy muassasalari orqali Shvetsiyada amalga oshirgan faoliyatidan olingan daromad, Shvetsiyada joylashgan ko'chmas mulkdan olingan daromad.

Rezidentlar munitsipal daromad solig'ini, yollanib ishlashdan olgan daromadlari va tijorat faoliyatidan olingan daromadlaridan to'laydilar. Agar shu daromadlarning umumiy summasi bir yilga 200 ming krongdan oshib ketsa, milliy daromad solig'ini qo'shib to'laydilar. Ular milliy daromad solig'ini o'zlarining kapitalidan olingan daromadlaridan ham to'laydilar (foizlar, dividendlar, mol-mulknini qaytadan sotishdan olingan daromad, aksiyalar va h.k.)

Norezidentlar tijorat faoliyatidan olgan daromadlari bo'yicha munitsipal daromad solig'i va qolgan daromadlari bo'yicha milliy daromad solig'ini to'laydilar.

Soliq solish maqsadida Shvetsiyani rezidentlari quyidagi shaxslar hisoblanadi: a) Shvetsiya hududida doimiy yashab turganlar; b) Shvetsiyada odatdagi yashash joyiga ega bo'lganlar; v) Shvetsiyada muhim iqtisodiy va oilaviy aloqasi bo'lganlar.

Birinchi mezon asosan, jismoniy shaxs doim Shvetsiyada yashash sharti bajarilishi kerak.

Ikkinchi mezonning mazmuni, jismoniy shaxs ma'lum vaqtini chet mamlakat (mamlakatlar)da o'tkazganligini ko'rsatadi. Bu mezon bo'yicha shaxs Shvetsiya xududida 6 va undan ko'proq oylar davomida (uzluksiz holda) yashab tursa Shvetsiyani rezidenti bo'lib har yili yana hisobga olinadi.

Uchinchi mezon shunday holatda qo'llanadiki shaxs oldin doimiy yashovchi sifatida Shvetsiyani rezidenti bo'lgan va keyin ayrim sabablarga ko'ra chet elda ma'lum vaqt o'tkazishga majbur bo'lgan sharoitda qo'llaniladi. Bunday shaxs Shvetsiyani rezidenti hisoblanadi, u yerda oilasi, doimiy uyi bo'lgan holda va muhim iqtisodiy faoliyat olib borgan vaziyatda foydalaniladi.

Soliq solish nuqtai-nazaridan yuqoridagi mezonlarga va shartlarga mos kelmaydigan shaxslar norezident hisoblanadi. Norezidentlarni soliqqa tortish qator qonunlar bilan belgilangan (1991 yili qabul qilingan

norezidentlarga qo'llanadigan milliy daromad solig'i to'g'risidagi qonun, sportsmen va ijodiy kasb egalaridan olinadigan soliq to'g'risidagi qonun).

Qonunda yakka soliqqa tortish va oila a'zolari yakka tartibda o'zlarining soliq majburiyatlari bo'yicha hisobot beradilar, agar mustaqil daromad manbaiga ega bo'lsalar balog'atga etmagan bolalar ham hisobot berishlari kerak.

Jismoniy shaxslarni soliq solinadigan daromadi quyidagi daromadlar bo'yicha hisoblanadi: yollanma ishdan olingan daromad, tijorat faoliyatidan olingan daromad va kapitaldan olingan daromad.

Yollanma ishdan olingan daromad faqat ish haqi yoki mukofotni o'z ichiga olib qolmay, har xil natura to'ldirishlar, engiliklarni ham inobatga oladi (kompaniya hisobidan avtomobil olish, ovqatlanish va h.k.) shu bilan bir qatorda Shvetsiya firmalari tomonidan taklif qilingan xorijiy mutaxassislar va olimlar, uy joy uchun berilgan to'ldirish, bolalarni o'qitish uchun berilgan mablag'lar bo'yicha soliqdan ozod qilinadilar. Chet elda yollanma ish bajarayotgan Shvetsiya rezidentlari, bu daromadlar bo'yicha Shvetsiyada ozod qilinadilar. Lekin shunday asosda bu daromadlar kelib chiqqan mamlakatda mahalliy soliqqa tortilishi kerak.

Yollanma ishchilar o'zlarning ish haqisini bir qismini ish bilan bog'liq bo'lgan qisman harajatlarni qoplash uchun soliq olinadigan summadan chiqarib tashlaydilar. Birinchi navbatda bunga ishga borish va qaytish harajati va ba'zi boshqa harajatlarni qoplash (to'ldirish) uchun to'langan mablag'lar.

Bunday chiqarishlarni umumiy chegarasi bir yilga 5000 kronni tashkil qiladi. Soliq solishdan safar harajatlarni qoplash uchun berilgan to'ldirishlar ham chiqarib tashlanadi.

T i j o r a t faoliyatidan olingan daromad kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq tartibida hisoblanadi. Daromad olish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar umumiy harajatga olib boriladi va soliq solinadigan daromadni kamaytiradi.

Tijorat maqsadida foydalanilgan aktivlar va mulklardan soliq xizmati tomonidan kompaniya va korxonalariga belgilangan me'erlar asosida amortizatsiya hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ko'chmas (alohida uy yoki yashaydigan imorat) mulkni 50% ortiq foydali maydoni mulk egasi yoki uning oilasi tomonidan yashash uchun ishlatilsa soliqdan ozod qilinadi.

K a p i t a l d a n olinadigan daromad o'z tarkibiga har-xil kapital qo'yilmalardan olingan foyda, aktsiyalarni olish va sotish va lotoreyalardan olinadigan daromadlarni oladi. Zararlar va kapital bilan

amalga oshiriladigan jarayonlarni harajati soliq solinadigan bazani kamaytirishga olib keladi.

Yollanma ishdan va tijorat faoliyati bilan shug'ullanib olgan daromadi bo'yicha jismoniy shaxs yakka tartibda eng kamida 11000 kron bo'lgan chegirma olishi mumkin (hamma shaxslar uchun haqiqiy soliq solinmaydigan minimum) va eng yuqori hajmda 20000 kron (bir yilga 200 ming krongan ko'p daromad olganda). Xususiy pensiya, sug'urta-kompaniyasi polislari bo'yicha beriladigan badallarga chegirmaning maxsus turi belgilangan.

Ish bo'yicha operatsiyalar natijasida olingan zararlar soliq solinadigan daromadni kamaytirishga olib borilishi mumkin. Lekin bu holatda quyidagi chegaralash tartibini saqlash talab qilinadi: faol tijorat faoliyatidan olingan zarar, faqat shu sohadan olingan daromadga taaluqli bo'ladi. Kapital bilan bo'ladigan operatsiyalardan olingan zarar (aktsiyalar, boshqa aktivlar bo'yicha) faqat shu faoliyatdan olingan daromadga o'tkaziladi. Bunda umumiy summasi bo'yicha emas, har bir operatsiya turi bo'yicha alohida hisoblanadi.

Munitsipal daromad solig'ini stavkasi hududlar bo'yicha farq qiladi, odatda 31% ni tashkil qiladi.

Milliy daromad solig'i yollanma ishdan va tijorat faoliyatidan olingan daromaddan ularning hajmi yil hisobida 229 ming krongan ortiq bo'lsa, ortiqcha daromaddan 25% olinadi. Kapitaldan olingan daromad 30% stavka bilan soliqqa tortiladi (daromadni hamma turlariga taaluqli).

Shvetsiyada ish haqi yoki pensiya oluvchi norezidentlar milliy soliqni qat'iy belgilangan 25% hajmda to'laydilar.

Tijorat faoliyatidan olingan daromaddan esa yuqorida ko'rsatilgan stavkada munitsipal soliq to'laydilar.

Agar ushbu daromadlarni umumiy summasi bir yilga 200 ming krongan ko'p bo'lsa, ortiqcha summasidan qo'shimcha 20% stavka bilan milliy soliq olinadi. Chet ellik sportsmenlar (...) va ijodiy kasb bilan shug'ullanuvchi shaxslar Shvetsiyada daromad olgan bo'lsalar, ular stavkasi 15% bo'lgan maxsus soliqqa tortiladilar. Agar norezidentlar Shvetsiyada kapitaldan daromad olsalar va bu daromad Shvetsiyadagi soliq solishga to'g'ri kelsa, ushbu daromadlar uchun 30% li stavka qo'llanadi. Bunda engillik beradigan norezidentlar uchun shaxsiy chegirma qo'llanmaydi. Soliq to'lovchilarga hisobot yili kalendar (taqvim) yili bo'lib, 31 dekabrda tugaydi. Soliq deklaratsiyasini topshirish hisobot yilidan keyingi yilni 15 fevraligacha belgilangan. Yollanma ishdan

daromad oladigan shaxslar deklaratsiyani soddalashtirilgan shaklda tuzadilar.

Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga deklaratsiya topshirish muhlati 31 martgacha uzaytirilgan.

Shvetsiyada yollanma mehnatdan daromad va pensiya oladigan norezidentlar soliq deklaratsiyasi topshirish majburiyatidan ozod qilinganlar. Ish haqidan olinadigan soliq yollovchi tomonidan ushlanadi va byudjetga xodim hisobiga o'tqaziladi.

Hisob-kitob yilning oxirida taqdim qilingan soliq deklaratsiyasi asosida qilinadi va shunga qarab kelgusida qo'shimcha soliq olinadi yoki qaytarilib beriladi.

Soliq deklaratsiyasini topshirishni kechiktirilgani uchun 500dan 2000 krongacha jarima olinadi. Jarima jazolari daromadni yashirganda yoki belgilangan engillik va chegirmalardan noto'g'ri foydalanilganda ham qo'llanadi.

Soliq organlarini qarori ustidan shikoyat qilish tartibi kompaniya va korxonalariga belgilangan tartibdan farqi yo'q.

Ijtimoiy sug'urta to'lovlari yollovchi tomonidan ish haqiga nisbatan ajratma (ularni keyinchalik soliq solinadigan foydani aniqlashda harajatlarga olib boradi) hisoblash vaqtida amalga oshiriladi. Bu to'lovlarning hajmi xodimga berilgan hamma to'lovlarni 33% ini tashkil qiladi.

O'zining hisobiga ishlaydigan shaxslar, ijtimoiy sug'urta badalini mustaqil to'laydi va ular uchun badalning hajmi 31,25% ularning sof daromadidan hisoblanadi. Ayrim holatlar uchun (masalan, pensiya yoshidagi shaxs yollanib ishlaganda) ijtimoiy sug'urta o'rniga ish haqiga solinadigan maxsus soliq olinadi. Soliqning stavkasi umumiy olingan ish haqidani 21,39% hajmda belgilangan. Bundan tashqari 1993 yil 1 yanvardan ham tadbirkorlar, ham yollanma xodimlar kasallikdan sug'urta qilish badalini 3,95%dan olingan ish haqi summasidan to'laydilar.

Shvetsiya korxonalarida chet ellik xodimlar ishlaganda ham to'lovni berish ko'zda to'tilgan. Shu bilan bir qatorda Shvetsiya qator davlatlar bilan ijtimoiy sug'urta bo'yicha maxsus bitimlar tuzgan va davlatlardan kelgan fuqarolarni holati shu bitimlar asosida echiladi. Masalan Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va Skandinaviya davlatlarini fuqarolari Shvetsiyada bir yildan kam muhlatda ishlagan bo'lsalar ijtimoiy sug'urta to'lovidan ozod qilinadilar. Ko'pchilik Evropa davlatlari va Turkiya

fuqarolariga engillik muhlati 2 yil va Frantsiya, Isroil va Marokkash davlatlari fuqarolariga 3 yil belgilangan.

6.4. Qo'shilgan qiymat solig'i

Shvetsiya hududida tijorat maqsadida hamma tovarlar va xizmatlarni sotish qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Kompaniya, korxonalar va xususiy shaxslar yuqoridagi sotishlarni amalga oshirganlarida QQSni o'zlarining baholariga qo'shishlari kerak va QQS to'lovchisi sifatida ro'yhatdan o'tishlari zarur. Bir yilga aylanmasi 200 ming krandan kam bo'lgan korxonalar va xususiy shaxslar ro'yhatdan o'tishdan ozod qilinadilar. Lekin hisoblangan QQS summasini daromad solig'i bo'yicha berilgan deklaratsiyada ko'rsatishlari zarur.

Chet el fuqarolari Shvetsiyada ishchan muassalari bo'lsa va u orqali soliq solinadigan jarayonni amalga oshirilsa, yoki Shvetsiya hududida xizmat ko'rsatilganda, yoki Shvetsiya hududida joylashgan omborxonalaridan tovarlarni sotganida chet el kompaniyalari va fuqarolari QQS to'lovchisi sifatida ro'yhatdan o'tishlari kerak.

Import QQSGa tortiladi va eksport QQSDan ozod qilinadi. Soliq sotilgan tovar va xizmat bilan invays* hujjatida ko'rsatilishi kerak.

QQSni hisoblash bazasi tovar va xizmatlarni, ularga hisoblangan hamma soliqlar va yig'imlar qo'shilgan bahosi hisoblanadi. Soliq to'lovchilar chiqib ketayotgan QQS bilan kirib kelayotgan QQSlar summasini farqini to'laydilar.

Ayrim tovarlar bo'yicha kirib kelayotgan QQSni hisobga olish bekor qilingan. Ularning ichida, masalan, avtomobil, vino va qattiq spirtli ichimliklar bor. Odatda QQS uchun hisobot davri 2 oy hisoblanadi.

QQS bo'yicha deklaratsiya hisobot davri tugaganidan keyin 35 kun chegarasida topshirilishi kerak. Yirik aylanmaga ega bo'lgan korxonalar uchun hisobot davri 1 oy belgilangan. Deklaratsiyani topshirishni kechiktirganlardan 100 kron jarima olinadi. QQS ni kamaytirish ham jarima bilan jazolanadi. Jarima kamaytirilgan summani 20% tashkil qiladi (kamaygan soliq summasini to'lagandan keyin jarima olinadi).

QQSni standart stavkasi 25% ga barobar.

Pasaytirilgan stavka 12% bo'lib, uni oziq-ovqat tovarlariga, mexmonxona va restoranlar xizmatiga va jamoat transporti korxonalariga qo'llanadi.

* invays usulida QQS hisob-fakturadan foydalanib shakllantiriladi-

QQSdan bank va moliya xizmatlari, sug'urta, sog'liqni saqlash xizmati, maorif, kontsert faoliyati, kino ishlab chiqarish, radio, televidenie, pochta xizmatlari ozod qilingan.

Eksportga tovar etkazib beruvchilar QQSni olingan mahsulot va xizmatlar bahosidagi summasini o'rniga to'ldirish (qaytarib berish) mablag'ini oladilar. Chet el turistlari Shvetsiyada sotib olingan tovarlar bo'yicha qaytarib beriladigan QQS summasini chegara punktlarida joylashgan maxsus agentlikdan oladilar (naqd pul yoki naqd pulsiz, hisob raqamidan o'tkazish yo'li bilan).

6.5. Boshqa soliqlar

Meros va hadyaga solinadigan soliqni Shvetsiya rezidentlari Shvetsiyada joylashgan yoki uning tashqarisidagi mulkni bergan vaqtda to'laydilar. Norezidentlar faqat Shvetsiyada joylashgan mulkdan to'laydilar. Shvetsiya fuqarolari mamlakatdan chiqib ketgan bo'lsalar ham meros va xadiyaga solinadigan soliq bo'yicha ko'chib ketgandan keyin 10 yil davomida rezident hisoblanadilar.

Soliq stavkasi (10 dan 30%gacha) progressiya tarzida oshib boradi va uning hajmi o'tkaziladigan mulkni qiymati va hadya qiladigan bilan benefits* larni (mulkni oluvchi) qarindoshlik darajasiga bog'liq. Hadya sifatida har yili soliqsiz 10000 krongacha mulk berilishi mumkin.

Mulkni tirik qolgan er-xotin va bolalarga merosga o'tqazish ham tez-tez soliqdan ozod qilinadi.

M a x s u s d a r o m a d solig'i kompaniyalar uchun hayotni sug'urta qilish va pensiya fondi uchun belgilangan. Soliqqa shu tashkilotlarni ko'chmas mulkka va qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilmalardan olingan daromadi tortiladi.

Soliq stavkasi 10% ni tashkil qiladi.

Shvetsiya rezidentlari hayotni sug'urta qilish to'g'risida chet el kompaniyalari bilan shartnoma tuzishi bilan, shartnoma asosida sug'urta mukofotini o'tkazishda uning summasidan 15% li daromad solig'i to'lashlari kerak. Xususiy mulkka tegishli ko'chmas mulk ob'ektlari (ishlab chiqarish va tijorat ko'chmas mulkidan tashqari) k o' ch m a s mulkka solinadigan soliqqa tortiladi. Soliq solinadigan baza ob'ektni kadastr qiymati hisoblanadi (odatda uning bozor qiymatini 75% ni tashkil

qiladi). Soliq stavkasi shaxsiy uylar uchun 1,7% va yashash uylaridagi kvartiralar uchun – 2,5% belgilangan.

G e r b s o l i g' i va y i g' i m l a r ushbu to'lov har xil bitim va jarayonlarni ro'yhatga olishda yig'iladi. Ko'chmas mulkni sotish va olishda gerb yig'imi 1,5- 3,0%, korxonalar birinchi marta aktsiz chiqarganda 2% va h.k. olinadi.

A k t s i z l a r tarkibida asosiy o'rinni tamaki, spirtli ichimliklar va benzinga solinadigan aktsizlar egallaydi.

Bundan tashqari muhim daromadlarni energiya quvvatini uzatadigan, reklama va o'yin bizneslariga solinadigan soliqlar olib keladi.

Soliq sohasida xalqaro hamkorlikda Shvetsiya dunyoda asosiy etakchi o'rinni egallaydi. Shvetsiya keng miqyosdagi umumiy soliq bitimlaridan tashqari meros va hadyaga solinadigan soliq bo'yicha ko'p davlatlar bilan soliq bitimlariga ega (qo'shni mamlakatlar – Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Islandiya bilan maxsus ko'p tomonlama konventsiya tuzilgan). Qator davlatlar bilan Shvetsiya dengiz va havo yo'llarida yuk tashishdan olinadigan daromadni boshqarish bitimi va ijtimoiy sug'urtani boshqarish bitimlariga ega.

Shvetsiya byudjetini yirik daromadlaridan biri ijtimoiy to'lovlar hisoblanadi.

Ijtimoiy to'lovlar asosan ish haqi fondiga nisbatan ajratmadan iborat.

6.1.-jadval

Yollanma xodimlarni ish haqi yuzasidan ajratmalar

Ajratma turlari	Ish haqiga nisbatan foiz hisobida
Pensiya bilan ta'minlash uchun	13,0
Tibbiy sug'urtaga	8,43
Xalq pensiyasi (xizmat yili yo'q shaxslar uchun)	5,86
Ishlab chiqarishda shikastlanishdan sug'urta qilish	1,38
Nafaqani sug'urta qilish	0,2
Xizmatchilarni oldindan muhofaza qilish	0,17
Ishsizlikka nafaqa berish, ishni yo'qotganlarni boshqa kasbni egallashini moliyalashtirish	2,12

Kompaniya bankrot bo'lgan vaqtda ish haqini kafolatlash	0,2
Hayotni sug'urta qilish	0,61
Guruxni sug'urta qilish	0,95
Ishdan bo'shatilganda nafaqa berish	0,28
Qo'shimcha nafaqa uchun	3,1
Jarohatlanishdan sug'urta qilish	1,0
Kafolat fondiga	0,06
Nafaqa to'lovlariga solinadigan soliq	0,6

Ajratmani umumiy summasi 38% ni tashkil qiladi. Agar yollangan xodim emas, firmalarni egasidan undirilganda, ijtimoiy to'lovlarni tarkibi o'zgaradi va uning umumiy salmog'i ham yuqoriroq -39,3% bo'ladi.

6.6. Soliq tizimi funktsiyalarini boshqarish (engilliklar va jarimalar)

Ijtimoiy mummolarni echishga nisbatan iqtisodiy muammolarni echishda davlat byudjet resurslarini qayta taqsimlashda kamroq faollik ko'rsatishi, davlat haqiqatda ham ijtimoiy sohaga nisbatan iqtisodiy sohaga kam e'tibor beradi deb bo'lmaydi.

Iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda asosiy rol engilliklar tizimi va imtiyozlarga to'g'ri keladi va ular huquqiy shaxslar uchun birinchi navbatda kapitalni qaysi sohaga ajratishlari uchun yo'l ko'rsatib beradi. Iqtisodiy engilliklarni tavsif belgilari shundan iboratki, ular iqtisodiy kon'yukturani doimiy o'zgarib turishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham ularni aniq ob'ektlarga qo'llashda nisbiy qisqa muddatli ekanligi bilan ajralib turadi.

Uzoq muddatli reja bo'yicha engilliklarni umumiy doimiy yo'nalishlari deb, tarmoqlar, hududlar, ilmiy texnika rivojlanishi va hokazolarni tushunish mumkin. Engilliklar ma'lum maqsadga va ma'lum muxlatga beriladi. Muxlat o'tgandan keyin, uni uzaytiriladi, pasaytiriladi yoki vazifa bajarilganda bekor qilinadi.

O'tgan asrni etmishinchi yillari xo'jalik yuritishni tashkilot shakllari - aksioner jamiyatlardan tadbirkorlikni boshqa shaqlariga o'zgartirilgandan keyin soliq qonunchiligida ham ular hisobga olindi. Saksoninchi yillar qabul qilingan qonunlar xo'jalik sub'ektlarini ishlab chiqorishni yangilashga iqtisodiy rag'barlantirdi.

Kapital qo'yilma umumiy zaxirasining qonuni, modernizatsiya qilishni maxsus fondi to'g'risida qonun, yangilash schetiga badallar berish qonuni va boshqalar shular qatoriga kiradi.

Shvetsiyalik aksioner jamiyatlar va ba'zi xuquqiy shaxslar, masalan sof daromadni hisoblashda kapital qo'yilmani umumiy fondiga 50% belgilangan yillik daromaddan (byudjetga soliq to'lashdan oldin) ajratma olishlari mumkin.

Qonun bo'yicha fond mablag'idan foydalanish tartibi ham o'rnatilgan.

Fond mablag'idan foydalanishga ruxsat beriladi. Shunday muxlatga va shunday sharti bilanki bozordagi holat va boshqa holatlar shuni talab qilsa. Ruxsat berish sharti bo'lishi mumkin qachonki davlat sanoat maxkamasi belgilab bergan tartibda korxonadan qurulish va kapital ishlar olib borilsa. Kapital qo'yilmani umumiy fondlardan foydalanish to'g'risidagi xuqumatni o'tish qarori kiritgan aniqlik (maqsad va muxlat) inobatga olinadi. Oxirgi yillari muhim hisoblanadi tarmoqlar (o'rmonchilik va qishloq xo'jaligiga qo'yilmalar tog' ishlari) xudud va ekologiya muammolari.

Kapital qo'yilmani umumiy fondini tashkil qilish va foydalanishni texnik tomoni ham katta qiziqtirish uyg'otadi. Fondni tuzishga axd qilgan korxonadan kerakli summani Davlat bankidagi foizsiz schetga o'tqazadi. Schetdan pul mablag'ini davlat sanoat maxkamasi xabarnoma bergandan keyin olinadi. Xabarnomasida foydalanishga ruxsat berilganligi, uni olish va bankni berish kunlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Qonun bo'yicha fondni mablag'i faqat haqiqiy xorajat amalga oshirilgandan keyin olinadi.

Belgilangan engillikni berish davlat nazorati va soliq to'lovchini kapital qo'yilma fondini harajat qilishda qattiq javobgarligi asosida olib boriladi. Fond ruxsatsiz foydalanilsa, foydalanilgan summa soliq solinadigan bazani ko'paytiradi va yana bu baza 20% ko'paytiriladi. Agar mablag' qonun asosida sarflansa, harajat qilingan summani hammasi soliqdan ozod qilinadi.

Badallar to'g'risidagi qonunlarda vaqtincha foyda scheti (1980 yil), kapital qo'yilmani maxsus scheti (1982 yil) va yangilash scheti (1984 yil)lariga Shvetsiya aksioner jamiyatlari, iqtisodiy birlashmalar va amonat banklari mablag'ni davlat bankidagi foizsiz schetlarga o'tqazishlari kerak. Foydalar schetiga-25% kapital qo'yilmani maxsus schetiga-20% va yangilash schetiga-10% taqsimlashdan oldingi yillik daromaddan o'tqazadilar. Agar korxonadan ko'rsatilgan badallarni to'lashdan bosh tortsa,

to'lanmagan summaga 100% ko'shib, soliq solinadigan daromad hisoblanadi.

Ko'rsatilgan fondlarni tashkil qilish majburiy harakterga ega va korxonada badal to'lashdan bosh tortish o'rniga kapital qo'yilmaga mablag' ajratishi foydali hisoblanadi. Agar badal to'lanmasa uning ustidan olinadigan 100% soliq sifatida byudjetga olinadi va davlat tomonidan boshqa kanallar bo'yicha bengilangan maqsadlarga sarflanadi.

Iqtisodiy muammolarni echishda davlat asosiy tayanch sifatida huquqiy shaxslarni olishiga qaramay, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ham bu usuldan foydalanadi.

Davlat jismoniy shaxslarni tijorat faoliyatida ishchanlik faolligini oshirish va bu bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni rag'barlantiradi.

Masalan, ishchi joyida yaxshi sharoit qilish, sovitilgan ichimliklar, ish bilan bog'liq bo'lgan ovqatlar harajati xizmatdan daromad hisoblanmaydi. An'anaviy va esdalik sovg'alar daromad hisoblanmaydi (Agar umumiy summasi 6000 krondan oshmasa).

Xususiy shaxslarni ixtirochilik faoliyatini rag'barlantirish ham katta qiziqish uyg'otadi. Davlat ixtirochilikdan olingan daromadni soliqqa tortish muxlatini keyinga surib beradi.

Qator sharoitlarda qachon daromadlar kam bo'lib, engilliklar katta summani tashkil qilmasa tadbirkorlar tijorat faoliyati uchun ssudalar olish, qaytarib berilmaydigan davlat dotatsiyalari olish huquqiga egalar.

Lekin tadbirkor berilgan yordamga qo'yilgan shartni bajarmasa, olgan yordam summasini qaytarishi kerak.

Yordam berish qonunidan kelib chiqqan holda eksportga kredit beriladi. Ijtimoiy, iqtisod va bandlik nuqtai nazaridan zaruriyat bo'lsa yoki raqobat tomon chet el kreditini olsa eksport- kredit komissiyasi eksportni kreditlashga rozichilik beradi.

Eksport krediti sotib oluvchiga ko'chmas mulkni kelishilgan qiymatini yarimidan ortiq summaga beriladi. Lekin 300 ming krondan ortiq emas. Eksportni kreditlash ikki yildan kam bo'lmagan muxlatga harakat qiladi.

Eksport kreditini yarimini moliyalashtirish bank orqali yoki boshqa kredit muassasi yordamida amalga oshiriladi.

Eksport kreditiga yordam berish shuni anglatadiki, korxonada chegirmadan foydalanish o'rniga soliq solinadigan yillari eksport kreditini moliyalashtirish uchun davlat nafaqasini oladi. Nafaqa yordam talab qiladigan harajatni 50% tashkil qiladi. Nafaqa soliq solinadigan, daromad davlat va kommunal daromad soliqlarni hisoblashda inobatga olinmaydi.

Nafaqa davlat soliq boshqarmasi tomonidan beriladi. Nafaqa berilgandan keyin eksport korxonasi joylashgan kommunaga xabar beriladi.

Shvetsiyada foydani soliqqa tortishdan ozod qiladigan boshqa engilliklar ham mavjud.

Lekin bu, ko'p korxonalar uchun engillik emas, foydani xukumat belgilagan maqsadlarga yuborish majburiyati hisoblanadi.

Sotsial to'lovlar haqidagi qonunga binoan to'lovlar ish beruvchilar, hamda ish haqiga tenglashtirilgan daromad manbaiga ega bo'lgan sug'urta ob'ektlari tomonidan beriladi.

To'lovga asos sifatida yil davomida ish beruvchi tomonidan to'langan ish haqi yoki natura mukofotlar (xodimlarga uy-joy, avtomobil, oziq - ovqat va boshqalarni berish) va ayrim xizmatlarni bojarganligi uchun beriladigan mukofotlar olinadi. Ish beruvchi, masalan har yili kosallikni sug'urtasi (10,1%) yoshini hisobga olgan pensiya (9,45%) va boshqalarni beradi.

Shuni ko'rsatish kerakki ijtimoiy ajratmalar «umumiy tushumlarga» aralashib ketmaydi va ular qonunda belgilangan aniq maqsadlarga yuboriladi. Bu mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflash imkoniyati yo'q.

Qonunlar qobul qilingandan keyin, uni amalga oshirish davlat soliq organlari tomonidan bajariladi. Faqat shu organ, sharoitni hisobga olgan holda ayrim aniqliklar kiritishi mumkin.

Har bir aniq holatda davlat soliq organini qarori oxirgi hisoblanadi va bu qarorni sudda rad qilib bo'lmaydi (masalan, pensiya fondiga ajratma va x.k.).

Davlat soliq inspeksiyasini qonunlarni amalga oshirishda mustaqil tekshiruvchi organligi mamlakatda yagona byudjet siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladi va Shvetsiyani yagona mustaqil davlatni budligini ta'minlab beradi.

Shvetsiyani soliq qonunchiligida yana qator engilliklar berish inobatga olingan.

Asosiy tayanch iboralar:

- Vakil (vakolatli) auditorlar
- litsenziyali auditorlar
- Doimiy ishchi muassasalari
- Royalti
- Bir tekis to'g'ri liniyalik amortizatsiya
- Kamayib boruvchi qoldiq bo'yicha hisoblash usullari

- FIFO usuli

Takrorlash uchun savollar:

1. Shvetsiyada XX asrning oxirida soliq tizimini iqtisodiy va ijtimoiy turmushga ta'siri
2. Maxsus daromad solig'i qaysi xolatda to'lanadi?
3. Chet ellik fuqarolar Shvetsiyada bir yildan kam ishlasalar ijtimoiy sug'urta to'lovidan necha yilgacha ozod qilinadilar?
4. Shvetsiya boshqa mamlakatlar bilan soliq soxasida qanday bitimlarga ega?

Test savollari:

1. Shvetsiyada to'g'ri va egri soliqlarni hozirgi solmog'i:
 - a) 80-20
 - b) 60-40
 - c) 30 – 70
 - d) $\frac{2}{3}$ – $\frac{1}{3}$
 - e) 50 - 50
2. Qaysi gurux soliqlar markaziy byudjetga tushadi?
 - a) Milliy va maxalliy daromad soliqlari, mol-mulk solig'i
 - b) Meros va-xadyaga solinadigan soliq
 - c) Fuqaro va korxonalaridan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar
 - d) Maxsus daromad solig'i, gerb yig'imi
 - e) Energiya quvvati, reklama, o'qish bizneslariga solinadigan soliq
3. Mahalliy byudjetlarga tushadigan soliq va to'lovlar guruhini aniqlang:
 - a) Maxsus daromad solig'i, aktsizlar
 - b) Fuqaro va kompaniyalardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i
 - c) Energiya quvvatiga solinadigan soliq, gerb yig'imi, mol-mulk solig'i
 - d) Munitsipal daromad solig'i, milliy daromad soliq, meros va hadyaga solinadigan soliq, reklamaga solinadigan soliq, o'yin biznesiga solinadigan soliq boshqalar
 - e) Hammasi to'g'ri
4. Yirik kompaniyani aktivi va xodimlari soni qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Aktivi –50 ming kron, xodimlarni soni 15 kishi
- b) Aktivi – 10 mln. kron, xodimlar soni 50 kishi
- c) Aktivi – 45 mln. kron, ishlovchi xodimlar soni 100 kishi.
- d) Aktivi – 40 mln. kron xodimlarning soni 300 kishi
- e) Hammasi noto'g'ri

5. Foydaga solinadigan soliq bo'yicha hisobot davri bir yil hisoblanadi. Yilni qaysi vaqtdan boshlanadi?

- a) 1 yanvar
- b) 1 may
- c) 1 iyul
- d) 1 sentyabr
- e) a,b,c,d

6. Kompaniyaning hisobga olish va hisobotlari 10 yilgacha saqlanadi, soliq deklaratsiyasini tasdiqlovchi hujjatlar necha yil saqlanishi kerak?

- a) 5 yil v) 3 yil s) 10 yil d) 6 yil e) 8 yil

7. Fuqarolarni kapitaldan olingan daromadlariga nimalar kiradi?

- a) Foizlar
- b) Dividendlar
- c) Mol-mulkni qaytadan sotishdan olingan daromad
- d) Aktsizlar
- e) a,b,c,d

8. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari, % da :

- a) 10,20 b) 15,25 c) 25,12 d) 20,30 e) 0,10,20

VII BOB. ISPANIYA SOLIQ TIZIMI

7.1. Soliq tizimini huquqiy asoslari va boshqarish organlari.

7.2. Soliq tizimini tarkibi.

7.3. Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i

7.4. Qo'shilgan qiymat solig'i.

7.5. Korporatsiyaga solinadigan soliq

7.6. Mahalliy byudjetlarga tushadigan soliqlar.

7.1. Soliq tizimini huquqiy asoslari va boshqarish organlari

Ispaniyada soliq tizimini takomillashtirish maqsadida ayrim davrlarda soliq isloxi o'tqazilib turiladi. Hozirgi zamon soliq tizimi 1977 va 1984-1985 yillar o'tkazilgan soliq isloxlari asosida tashkil topgan. Xududlar moliyaviy ahvolini mustaxkamlash maqsadida 1994 yilda Ispaniyada qisman soliq islohatlari o'tqazildi va ayrim federal soliqlarni xududlarda joriy qilish belgilandi. Shundan so'ng federal soliqlarning besh turi qoldi.


Islohotlarni o'tqazishda quyidagi muxim muammolar echilgan: soliq to'lovchiga to'lash jarayonini engillashtirish; yuridik va jismoniy shaxslarga indentifikatsion raqamlar berish bilan soliq to'lovchilarni hisobga olinishi yaxshilangan; soliq to'lash ustidan nazoratni kuchaytirish maqsada bank tarkibi bilan aloqani yanada chuqurlashtirish, yaqinlashtirish; mutaxassislashgan soliq boshqarmalarini tashkil qilish. Islohotlar jarayonida soliq etiketkasi, ya'ni yorlig'i kiritildi. Etiketkada soliq to'lovchi to'g'risida ma'lumotlar, uning indentifikatsion raqami, uning to'laydigan soliq turlari qo'rsatiladi. Yuridik shaxslarga soliq etiketkasi, ularni ro'yhatga olish vaqtida topshiriladi, jismoniy shaxslarga esa yashash joylariga jo'natiladi. Soliq deklaratsiyalari soliq to'lovchilarga ko'rsatilgan soliq etiketkalari bilan birgalikda topshiriladi. Ushbu hujjatlarni kiritish takrorlanishlarni (dublirovaniye) yo'q qildi va xatolarni sonini kamaytirdi. Har bir soliq to'lovchilarga soliq vektori beriladi. Bu joriy yili soliq to'lashi majburligi to'g'risida eslatma hisoblanadi. 1992 yili Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi tarkibidagi soliq boshqarmasi o'rniga soliq agentligi tashkil qilindi. Soliq agentligining asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat: soliq organlari aoliyatini rejalashtirish; soliq qonunchiligi ustidan nazorat qilish uchun umumdavlat tadbirlarini utqazish; hudud, provintsiya va mahalliy soliq organlarini ma'muriy boshqarish va moddiy-texnika ta'minotini tashkil qilish. Har yili Soliq agentligi hamma soliq xizmatlariga majburiy bo'lgan yillik reja qabul qiladi. Hudud boshqarmalari 25%gacha o'zlarining tadbirlarini kiritadi. 1993 yili

agentlikni harajatlari smetasi 108696 mln.pesetni tashkil qildi; xodimlarini umumiy soni 26253 kishidan iborat edi. Ularning 61% inspektorlar va 39% soliq agentlaridan iborat edi.

Hududlar bo'yicha taqsimot quyidagicha: 17 ixtisoslashgan mintaqaviy bo'limlar, 56 provintsiyalar bo'limlari, 92 bojxona punkti, 206 ma'muriy (munitsipial) bo'limlardan iborat. Soliq tushumi (brutto) 12459 mln.pesetni tashkil qilgan.

7.1.-jadval

Soliq agentligini tarkibi



Agentlikni asosiy vazifasi qonunlar va boshqa bo'limlar, ijtimoiy sub'ektlar va davlatlar (Evropa ittifoqi a'zolari) bilan tuzilgan shartnomalarga to'g'ri kelgan holda davlat soliqlar va boj to'lovlari tizimlarini faol kengaytirish va ularni yig'ishdan iborat. Ushbu vazifani

muvozaqqiyatli bajarishlari uchun soliq to'lovchilar o'zlarini soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishlari kerak. Shu bilan faoliyatida ikkita asosiy yo'nalishlar kelib chiqadi:

- soliq to'lovchilarni soliq to'lashlarini engillashtirish;
- soliq jinoyatlari bilan kurashini osonlashtirish.

Soliq agentligining qolgan maqsadlaridan ustivor yo'nalishdagi quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- soliq to'lovchilarga axborot berish va yordam ko'rsatishni hajmini oshirish. Axborot uslubi asosida soliq to'lovchilarini iltimosi bilan ularga soliq deklaratsiyasini ayrim turlarini tuzib berish, telefon orqali yordam berish yangi axborot xizmati kiritildi. Infopma deb atalgan olti mingdan ortiq savol va javob beradigan yordam dasturi tuzilgan. Soliq to'lovchilarni murojaati bo'yicha qaror qobul qilish keskin tezlashtirilgan:

- modullar asosida ob'ektiv baholash tartibi mustaxkamlandi. Ushbu ishni mayda tadbirkorlar bilan olib boriladi;

- soliq majburiyatlarini bajarish ustidan tekshirish, nazorat va soliq jinoyatiga qarshi kurashni kuchaytirildi. Bu borada ikki yo'nalish rivojlandi:

- axborot tizimi asosida yalpi nazorat va inspektorlar faoliyati. Axborot tizimi asosida yalpi nazoratda daromad solig'i bo'yicha yillik deklaratsiyalarni, QQS bo'yicha hisob-kitoblarni baholash, tadbirkorlarni davriy deklaratsiyasini tekshirish kabi turlarini ajratish mumkin. Masalan, inspektorlarni xujjatli tekshiruvlari natijasida soliqdan 403663 mln.peset yashirincha qarz topilgan;

- bajarish tartibi asosida soliqlarni undirishni samaradorligi. Soliq agentligi, ixtiyoriy bajarilmagan qarzlarni undirib oladi va ularni qaytarilmasligi uchun chora-tadbirlar ko'radi;

Boj va maxsus soliqlar sohasida soliq chegarasini Evropa ittifoqi a'zolari o'rtasida yo'q bo'lib ketishi va umumiy ichki bozorni tashkil topishi boj va maxsus soliqlarni bir funktsiyasi boshqa funktsiyalari bilan almashishiga olib keldi.

Bu tashqi chegarani mustaxkamlash zarurligiga va firibgarlik bilan kurashishni kuchaytirishni talab qildi.

Soliq agentligi tarkibida soliq firibgarligiga qarshi kurash bo'limlari tashkil qilindi.

1995 yildan boshlab bo'limlar umummillat va mintaqalar darajasida xizmat qiladi.

Hamma soliq to'lovchilar 4 guruhga bo'linganlar. Ular soliq boshqarmalari tomonidan nazorat qilinadilar. Maxsus ro'yhat asosida davlat soliq agentliga yiriq soliq to'lovchilarni (banklar, avtozavodlar) tekshiradi. Mintaqa (region) boshqarmalari, shu mintaqada joylashgan yillik aylanmasi yoki aksioner kapitalini umumiy summasi 1 mlrd peset tashkil qilgan soliq to'lovchilarni, va maxsus ruyxat bo'yicha anik korxonalarini tekshiradi. Provintsiyal boshqarmalar qolgan soliq to'lovchilar bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, mayda korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha maxsus bo'limlar xarakat qiladi.

Soliq agentligida soliq to'lovchilar to'g'risida keng ma'lumotlar banki tashkil qilingan. Ma'lumot, qoida bo'yicha 6 yilda bir marta to'planadi (da'vo muxlati Ispaniyada 5 yil). Ushbu axborot departamentida saqlanadigan ma'lumotlar bankida ish haqi to'plash, olish, ozod kasb shaxslari faoliyati to'g'risida ma'lumotlar, ko'chmas mulk va ular bilan operatsiyalar, moliyaviy operatsiyalar (aktsiyalar, protsentlar va x.k.), mamlakatdan tashqarida chet elda sotish-olish, valyuta operatsiyalari, turizmdan tushumlar, aksioner jamiyatlarni tashkil qilish bo'yicha ma'lumotlar, chet mamlakatlarda sotish-olishlarni, valyuta operatsiyalari, turizmdan tushumlar, aksioner jamiyatlarni tashkil qiluvchilar haqida ma'lumot, shu jumladan jismoniy shaxslar, o'tgan 6 yil davomidagi tekshiruvlar natijasi, uchinchi shaxslardan kelgan ma'lumotlar, qarzlarni to'g'risidagi ma'lumotlar. Ushbu departamentdan axborotni olish uchun maxfiylik (yashirish) chegarasi belgilanmagan.

Departamentga axborot olish to'g'risida murojaat qilish uchun, uni asoslash kerak. Axborot olish uchun murojaat qilgan shaxs ularni boshqalarga e'lon qilishga haqi yo'q, mintaqalarda ham axborot banki tashkil qilinadi. Lekin hajmi kichik.

7.2. Soliq tizimini tarkibi

Ispaniyani soliq tizimi uchta pog'onadan iborat: davlat, mintaq, mahalliy (munitsipial) soliqlar, to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar davlat byudjetini 47,2% tashkil qiladi. Ularning tarkibiga daromad solig'i – 38%, kompaniyalarga solinadigan soliq-8%, jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq. Ushbu soliqni mintaqalarga berish masalasi echilmoqda (nerezidentlardan tashqari).

Egri soliqlar byudjet daromadni 40,3% tashkil qiladi. Shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i 25,0%, maxsus soliqlar (vino-aroq mahsulotlari

va tamakidan va ayrim transport turlaridan olinadigan aktsiz va h.k.) bojxona boji. Byudjet daromadini shakllantirishda boshqa to'lovlar ham ma'lum rol o'ynaydi. Shu jumladan to'lovlarni kechiktirilgani uchun olinadigan jarima. Daromadi 1 mlrd. pesetdan yuqori bo'lsa yirik soliq to'lovchilar hisoblanadi. Eksportni hajmi 20 mln.pesetdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar eksporterlarni davlat reestriga kiritiladi. Ularning ro'yhati har bir soliq boshqarmasida bo'ladi.

Mintaqa davlat organlari soliqlarni kiritishda qonun asosida chegaralanganlar (masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan soliq stavkasini 15% ko'tarish huquqiga egalar).

Ko'chmas mulk, iqtisodiy faoliyatga, transport, yerga, imoratga, qurilish ishini olib borishga, ma'muriy faoliyatni olib borish uchun soliqlarni munitsipalitetlar o'rnatadi. Mahalliy organlar xarxil ijtimoiy ish, rekonstruktsiya kabi ishlarga maxsus soliqlar kiritishlari ham mumkin.

7.3. Daromad solig'i

Ispaniyada 13 mln.ga yaqin odamlar daromad solig'i to'laydilar. Daromad solig'i to'g'risidagi qonun 6 iyun 1991 yili qabul qilingan va 1992 yili kiritilgan o'zgarishlar bilan hozir qo'llanadi.

Soliq solinadigan bazaga quyidagilar kiradi:

- ish haqi, pensiya, ishsizlik bo'yicha nafaqa, natural daromadlar;
- kapitaldan olinadigan daromad;
- tadbirkorlik va kasbiy faoliyatdan olinadigan daromad;
- mulkni o'sishi.

Soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi:

- kasallik va chiqish bilan bog'liq nafaqalar;
- yutuqlar va mukofotlar (davlat va mintaqa);
- qizil xoch (krest) tashkil qilgan lotoreyalar;
- davlat stipendiyalari.

Soliq solinadigan bazadan ijtimoiy sug'urtaga ajratma, profsoyuz badali chiqarib tashlanadi. Lekin chiqarish soliq solinadigan bazani 5%dan, va 250 ming peset absolyut summadan yuqori bo'lmasligi kerak.

Soliq to'lovchi qaramog'idagi har bir bolaga va 65 yoshdan yuqori shaxslarga bir yilga 20 ming peset harajatgacha chiqazib tashlanadi. Bundan tashqari soliq solinadigan bazadan muxtojlariga berilgan yordam va nogironlar fondiga o'tqazilgan mablag', tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan mablag' va hujjatlar mavjud bo'lsa 15% dori-darmonga ajratmalar chiqarib tashlanadi.

Qo'zg'atiladigan va ko'chmas kapitaldan foydalanish natijasida olingan sof daromad ham soliqqa tortiladi (foydani taqsimlashda qatnashish, dividendlar, foizlar, renta, arendaga berishdan olingan daromad).

Sof foyda uch xil tartibda aniqlanadi:

- to'g'ridan-to'g'ri baholash (daromad minus harajat. Bu eng ko'p tarqalgan tartib;

- koeffitsientlar asosida baholash. Sof daromad umumiy daromaddan kelib chiqib, undan qonuniy belgilangan koeffitsient asosida harajatlari chiqarib tashlanadi. Bunda aylanmani umumiy hajmi 12 dan ortiq bo'lmagan yollanma ishchi mavjud bo'lganda 5 mln pesetdan ortiq bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga ushbu tartibda baholash uchun soliq to'lovchini roziligi kerak;

- indeks va modullar asosida baholash. Baholash yollanma ishchi soniga qarab, iste'mol qilinadigan elektroenergiya, avtotransportni soni va umumiy quvvati, o'tiriladigan joyni miqdori va boshqalarga qarab amalga oshiriladi. Hajmi davlat belgilagan darajadan yuqori bo'lmasligi kerak. Bu tartibda baholash uchun soliq to'lovchini roziligi kerak.

Soliq to'lovchini mulkini ko'payganligi olingan va sotilgan mulkni qiymatidagi farqiga qarab belgilanadi. Mulkni qiymati o'zgargan davr hisobga olinadi. Agar mulk jismoniy shaxsni kasbiy faoliyatida ishlatilmagan bo'lsa, undan olingan daromad chiqarib tashlanadi. Bunda mulkga haqiqatda ega ekanligiga xujjat mavjud bo'lishi kerak.

Soliq solishga rezidentlar (183 kundan ortiq bo'lganlar) va hamma daromadlari bo'yicha Ispaniyada, moddiy qiziqishlari mavjud bo'lgan norezidentlar tortiladi.

Norezidentlar to'lov manbaidan 25% stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi. Ikki xil deklaratsiya topshiriladi: individual va oilaviy.

1978 yilgi qonun faqat oilaviy deklaratsiya bo'lishini belgilagan. Lekin 1979 yil Konstitutsiya sudi o'zgartirdi: soliqqa faqat individium, gurux individiumlari tortilmaydi deb qaror chiqardi. Shu vaqtdan boshlab qanaqa deklaratsiya berish kerakligini to'lovchining o'zi bengilaydi.

Deklaratsiya kelgusi yilini 20 iyunigacha beriladi, to'lov 2 bosqichda ham amalga oshirilishi mumkin: birinchi marta 60% soliq, qolgan 40% - 5 noyabrgacha (ma'lum sharoitlarda to'lov muxlati 5 yilga keyinga surilishi) mumkin.

Daromaddan soliq hisoblanayotganda ko'chmas mulk qiymatining 2 foizi qo'shib hisoblanadi.

Daromad solig'i yakka tartibda yoki oilaviy juft bo'lib to'lanadi. Soliqqa tortilmaydigan minimumi yillik daromaddan birinchi holatda (yakka tartibda) 400 ming peset, ikkinchi holatda (er-xotin) 800 ming pesetni tashkil qiladi. Daromadni o'sib berishni hisobga olib 16 stavkali progressiv shkala joriy qilingan. Uning minimal stavkasi 20 foiz, maksimal stavkasi 56 foizni tashkil etadi. Yakka tartibda fuqaroning olgan daromadi bir yilda 9550 ming pesetdan oshganda; oilaviy juftlikning daromadi 11000 ming pesetdan oshganda eng yuqori soliq stavkasi qo'llanadi.

Ta'kidlash joizki, 16 stavkali daromad solig'i hisoblab chiqarish ancha noqulayliklar yaratmoqda. Shuni hisobga olib, Ispaniyada daromad solig'i stavkalarini qisqartirish to'g'risida takliflar ishlab chiqilmoqda. Federal byudjetga tushgan daromad solig'ining 15 foizi xuddudiy byudjetga o'tkazib beriladi.

7.4. Qo'shilgan qiymat solig'i

Qushilgan qiymat solig'i federal byudjetining daromad qismining 24,9 foiziga teng.

Qo'shilgan qiymat solig'i 1986 yili Ispaniyani Evropa iqtisodiy hamjamiyatiga (hozir Evropa ittifoqi) qo'shilishi munosabati bilan kiritilgan. 1987 yili -huquqiy xujjatlashtirilgan. 1993 yili qo'shilgan qiymat solig'i to'g'risidagi qonunga o'zgartishlar kiritilgan.

QQSga ichki aylanma tortiladi. Soliq solish ob'ekti- huquqiy va jismoniy shaxslarni hamma tadbirkorlik va kasbiy faoliyati hisoblanadi.

Bu soliq tendentsiyasining keyingi yillarda o'sishi kuzatilgan. Ispaniya federal byudjeti bilvosita soliqlardan ikkinchi asosiy soliq bo'lib aktsiz solig'i hisoblanadi. Federal byudjetning daromad qismini 13,2% tashkil qiladi. Evropa mamalakatlari kabi aktsiz solig'i alkogol ichimliklaridan, tamaki mahsulotlari, yoqilg'i, avtomobillar va boshqa ayrim mahsulotlardan olindi.

1995 yili QQS stavkasi 4,7 va 16 foizlardan tashkil topgan. Ular har yili iqtisodiy konyukturaga qarab o'zgartirilib turiladi. QQS eksport qilinganda qaytariladi, aktsizdan olinmaydi. Soliqning eng past stavkasi – 4% birinchi navbatda zaruriy mahsulotlarga qo'llanadi (non, don, sut, tuxum, meva, sabzavot, kitoblar, gazetalar, dorilar, munitsipal uy-joy, nogironlar uchun mashinalar va x.k.).

7% stavka –birincha guruhga kirmaydigan oziq-ovqat, uy hayvonlari ozuqasi (yemishlik uchun), kam mulkli oilalarga uy-joy va ba'zi

xizmatlarga (mexmonxona, transport), tarjima qilish, teatr, sirk, kino, muzey, ko'rgazma, sport tadbirlari va boshqalarga qo'llanadi. Qolgan mahsulot (ish,xizmat)larga 16,0% stavka ishlatiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi: maorif, eksport, shifoxonadagi tibbiy xizmat, moliya va bank operatsiyalari, sug'urta ishi, ko'chmas mulk bilan ayrim operatsiyalar (uy-joyni arendaga berish). Agar tovar yoki xizmat QQSsiz olinsa, sotish ham QQSsiz bo'ladi (QQSdan texnik ozod qilish deb yuritiladi).

Hisobga o'tkazish uchun hamma hisob raqamlari (schyotlar) olish bo'yicha tekshiriladi (buxgalteriya hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak). QQS to'lov hujjatlarida alohida ko'rsatiladi. 5 mln. pesetdan ortiqcha summaga hisoblansa (zachyot qilinsa), hujjatli tekshiruv o'tkaziladi. QQS to'g'risidagi deklaratsiya har kvartalda, kvartaldan keyingi oyni davomida topshiriladi, muxlatini buzganligi uchun shtraf 50 ming pesetni tashkil qiladi. Agar 3 oy ushlab turilsa – soliq hajmidan 10% olinadi, 6 oygacha - 50% va 6 oydan yuqori - 100% to'lov kvartalda bir marta amalga oshiriladi- kvartaldan keyingi oyni 20 sanasiga to'lanadi.

QQSni qaytarish oxirgi yillik deklaratsiya asosida 6 oy ichida amalga oshiriladi. Hamma kelishmovchiliklarni avval soliq sudi ko'radi (Bu ko'rish ma'muriy xarakterga ega), keyinchalik odatdagi adliyada ko'riladi.

QQS bilan bo'ladigan firibgarliklarni eng ko'p tarqalganlari quyidagilardan iborat:

- qalbaki hisob raqamlari (schetlar) - haqiqiy sotish va olish bo'lmagan
- yashirincha sotish (naqd pulga hisob-kitob qilish)
- texnik yashirish
- buxgalteriya hujjatlarini qalbakilashtirish.

QQS bo'yicha jinoiy javobgarlik belgilangan. Eng uzog'i bilan 6 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi, hamda ayrim hollarda 600% jarima solish tartibi ham o'rnatilgan.

7.5. Korporatsiyaga solinadigan soliq

Korporatsiyalarga solinadigan soliqning soliq solinadigan bazasi quyidagilardan tashkil topadi:

- tovarlarni (xizmat) sotishdan olinadigan foyda;
- mulkni o'sishi (kamayishi).

Soliqning o'rtacha stavkasi 35%dan iborat, kooperativlar 26% stavka bilan soliqqa tortiladi.

Dividendlarni ikki marta soliqqa tortish ham mavjud.

Investitsiyaga chegirma (skidka) beriladi: asosiy kapitalga –5%, kinosanoati uchun –25%, madaniyat sohasiga -10%. Maorif, kasbiy tayyorlash, ishchi o'rinlarini tashkil qilish (bir ishchi o'rni – 15 ming peset).

Deklaratsiya hisobot yili o'tgandan keyingi yilni 1 iyuliga topshiriladi. Ispaniya ikkitomonlama soliq solishni bekor qilish uchun 52 bitim tuzgan. Yangi soliqlar faqat davlat darajasida belgilanadi. Mintaqa xokimiyati soliqlarni boshqarish huquqiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartiradilar va yangi mahalliy soliqlarni kiritadilar.

Mahalliy byudjetlarga tushadigan soliqlar

Ko'chmas mulkka (yer uchastkasi, munitsipial okrug chegarasidagi imoratlar) solinadigan soliq mahalliy byudjetlarga tushadi. Mulknı baholash Kadastr boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Stavkasi differentsiatsiya qilinadi. Kadastr boshqarmasi – davlat tarkibiga kiradi, mulknı ruyxatga olish, baholash va qaytadan baholash bilan shug'ullanadi. Stavkasini munitsipialitet boshqaradi.

Iqtisodiy faoliyatdan olinadigan soliq. Ilgari maxsus litsenziya berilib, unda ruxsat etilgan faoliyatga to'liq tavsif berilgan va har yili litsenziya uchun to'lov berilgan. Bunda katta hajmda xujjatlar yuritilib, tayyorlangan. Soddalashtirish uchun maxsus hisob-kitob moduli kiritilgan. To'lov har yili uchun qoldirildi, lekin hisobot tuzish uchun buxgalteriya yuritish kerak bo'lmay qoldi. Soliq solinadigan ob'ekt tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xuquqiy va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Soliqni hajmi faoliyatning aniq turiga bog'liq, munitsipial situatsion indeksni munitsipial koeffitsientiga (yoki korxonani joylashgan joyiga bog'liq).

Yer uchastkalarini o'sib borayotgan qiymatiga solinadigan soliq. Yer uchastkasini boshqa egasiga berilganda qo'llanadi. Soliq solinadigan baza sifatida yer uchastkasini kadastr qiymatini sotib olingandan boshqa egasi uchun sotilganga qadar o'zgargani hisoblanadi.

Mexanik avtotransport vositalariga solinadigan soliq . Soliq ob'ekti – shu mulkka egalikni qo'lga kiritish, stavkasi mashinani turi va quvvatiga bog'liq.

-Individual xarakterga ega bo'lmagan xizmat ko'rsatish uchun soliq. Masalan, axlatni olib ketish, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan imoratni qurish. Soliq solish har yili vazirlik tomonidan chiqariladigan katalog asosida amalga oshiriladi.

Maxsus soliqlar. Ularning yordamida, individual xarakterga ega bo'lgan xizmat qiymatini o'rnini to'ldiradi. Masalan, tratuarnı asfaltlash

ishlarini qiymati yaqin joylashgan uylarda yashovchilarni o'rtasida bo'linadi.

Yig'im va kontributsiyalar. Munitsipialitet tomonidan xizmat uchun kompensatsiya o'rnatiladi, natijasida soliq to'lovchi qo'shimcha daromad oladi. Ushbu yig'im va kontributsiyalarni ruyxati har yili chop qilinadi.

Ispaniya 17ta hududlar (region) va maxsus statusi bor ikkita hududdan tashkil topadi. Soliq xuquqini aniqlashda ular uch guruhga bo'linadi.

Bask va Navarra yurtlari soliq solishda keng huquqlardan foydalanadilar. Ular har-xil turdagi soliqlarni belgilash huquqiga egalar. Bu soliqlar mintaqalar va mahalliy byudjetga tushadi.

Bir guruh hududlar (shu jumladan Kataloniya), soliq stavkalarini o'zgartirish (boshqargan) huquqiga egalar.

Soliq sohasidaga faoliyatni chegaralovchi qonun 1993 yili qabul qilingan.

Misol tariqasida Kataloniyani hududiy byudjetiga tushadigan to'lovlarni ko'ramiz.

1. Meros va hadya tariqasida o'tadigan mulkka soliq, agar mulk Ispaniyada bo'lsa, soliq rezident va norezidentlardan olinadi. Soliq quyidagilarga solinadi:

- hadya yoki meros tariqasida beriladigan mulkka;
- merosxo'r olgan sug'urta summasiga.

Soliq solinadigan baza qonun bo'yicha chiqarishlarni amalga oshirgandan keyin qolgan mulk va sug'urta summasi hisoblanadi.

Agar to'g'ridan – to'g'ri merosxo'r 21 yoshdan katta bo'lsa, soliq solinadigan bazadan 2470 ming peset chiqarib tashlanadi. Agar to'g'ridan-to'g'ri merosxo'r 21 yoshgacha bo'lsa, qo'shimcha har bir past yoshiga har yili 617 ming pesetdan chiqarib tashlanadi. Lekin chiqarilgan summa 7408 ming pesetdan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ikkinchi va uchinchi darajali merosxo'rlar soliq solinadigan summadan 1235 ming peset chiqarib tashlash huquqiga egalar. Uzoq merosxo'rlarga chiqarib tashlash amal qilmaydi. Soliq solinadigan baza to'liq soliqqa tortiladi. Agar merosxo'r nogiron bo'lsa, soliq solinadigan summasini 7408 ming pesetga kamaytirish huquqiga ega.

Soliq stavkasi 7,65 dan 34,0 foizgacha.

2. Mulikka va mulk huquqini berishga solinadigan soliq. Ushbu soliqni to'lovchilar huquqiy shaxslar hisoblanadi. Soliq solinadigan ob'ekt arendaga berilgan, garovga qo'yilgan, sotish va olish bo'yicha bitim tuzilgan ko'chmas mulk hisoblanadi. Yuqoridagi xujjatlar notarius orqali

tasdiqlangan bo'lishi kerak. Qo'zg'atiladigan mulk bo'yicha soliq stavkasi 4% va ko'chmas mulkka 6%.

3. Hayotni sug'urta qilishga solinadigan soliq.

Soliq har yili 0,2% stavka bo'yicha to'lanadi. Agar soliq solinadigan baza 17 mln.pesetdan ko'p bo'lsa, soliq stavkasi 0,5% bo'ladi. Federal hukumat bilan kelishilgan holda viloyatlar boshqa mayda soliqlarni kiritish huquqiga ega.

4. Jismoniy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq. 1920 yilgacha bu favqulodda soliq hisoblangan. Soliq solinadigan baza mulkni qiymati xisoblanadi. Qiymatdan mulkni bahosini tushirish natijasida yuzaga kelgan miqdor chiqozib tashlanadi. Tarixiy va madaniy qimmatbaho buyumlar soliqqa tortilmaydi.

Ispaniyada 183 kundan ortiq istiqomat qilgan chet el fuqarolari ham o'z mulki bo'yicha deklaratsiya qiladi. Soliq solinadigan eng kam hajm-25875 ming peset hisoblanadi.

Bundan yuqori summaga soliq 0,2% stavka bilan solinadi. Agar mulkni qiymati 1656 ming pesetdan ko'p bo'lsa soliq stavkasi 2,5% ga ko'tariladi.

7.6.O'yin biznesiga solinadigan soliq

Quyidagi o'yin bizneslariga soliq solinadi:

- kazino
- bingo (loto turidan), attraktsionlar, luna-park va boshqalar
- o'yin avtomatlari.

Xususiy soliqlar 12193 mln. pesetdan iborat bo'lib, ular byudjet daromadining 1,1 foizini tashkil qiladi. Ularning asosiysi «bingo» o'yini solig'ini aytish mumkin. Bu soliq 10043 mln.peset yoki byudjet daromadining 0,6 foizini tashkil qiladi.

«Bingo» o'yini solig'i «bingo» chiptalarini sotish paytida oddiy yo'l bilan chiptalarning narxiga 32 foiz stavka qo'shish hisobiga olinadi.

Qimor o'yini soliqlari kazino, atraktsion, luna-parklar, avtomat o'yinlaridan undiriladigan soliq (bingodan tashqari)- 3750 mln.pesetdan iborat yoki byudjet daromadining 0,2 foizini tashkil qiladi. Soliq stavkalari 20 foizidan 55 foizgacha o'zgarib turadi.

Ispaniyani soliq tizimida quyidagi deklaratsiyalar turi qabul qilingan:

- ixtiyoriy deklaratsiya qilish uchun deklaratsiya;
- axborot deklaratsiyasi (qarzi to'g'risida xabar beradi);
- natijalar bo'yicha deklaratsiya.

Deklaratsiya faoliyat turlariga qarab, har oyda, xar kvartalda va bir yilda bir marta beriladi.

Har oyda (20 sanagacha) yirik to'lovchilar va aktsiz yig'implari bo'yicha deklaratsiyani topshiradilar.

Ko'pchilik soliq to'lovchilar deklaratsiyani kvartalni oxirgi oyidan keyingi oyni 20 sanasigacha topshiradilar. Yillik deklaratsiyani jismoniy shaxslar 20 iyulgacha topshiradi. 1995 yili deklaratsiyani daromad solig'i bo'yicha topshirish 30 iyungacha surilgan.

Soliq to'lovchining talabiga binoan soliq yilni oxirigacha bo'lib to'lanishi mumkin (60% va 40%).

Jismoniy shaxslarni mulkiy holati va kompaniya faoliyati haqidagi deklaratsiya 25 yanvargacha topshirilishi mumkin. To'lash muxlatini 6 oyga va kerak bo'lsa yana 20 kunga uzaytirib berishi mumkin. Maxsus deklaratsiyalar uchun muxlat – aprel, oktyabr, dekabr (tulov –20%). Deklaratsiya pozitiv (ijobiy qo'shimcha soliq to'lash) va negativ (salbiy qaytarish) bo'lishi mumkin. Soliqni qaytarish 10 kun ichida amalga oshiriladi.

Axborot deklaratsiyasi – bu deklaratsiya 0,5 mln. pesetdan yuqori daromadlar bo'yicha, hamda kapital qo'yilma va ish haqi to'lash bo'yicha beriladi.

Ispaniyani soliq tizimi va soliq organlarini tarkibi ham amaliyot bo'yicha ahamiyatga ega. Eng avvalo, bu norezidentlarni to'lov manbaidagi daromadiga soliq solishni ustidan nazorat qilish. 1992 yilgacha bank foizlari, dividendlar va boshqa to'lovlarni chet el yuridik shaxsiga o'tkazilganda soliq organini belgisi quyilishini talab qilinar edi. 1992 yili bu tartib bekor qilindi, lekin soliqni ushlaganlik uchun 50 dan 300% jarima solish kiritildi.

Ispaniyada yagona hujjatli tekshiruv davlat rejasi bo'lib, unda tekshiruv davrlari va kunlari belgilanadi. Hududlar davlat rejasidagi tekshiruvlarning 25%gacha hajmini mustaqil o'tkazish huquqiga egalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bitta tarmoq keskin rivojlanishda, boshqa bir tarmoq - depressiyaga tushib qoladi. Bu sharoitda nazoratni ular qaysi tarmoqdan ko'p soliq qoladigan bo'lsa o'sha tarmoqda o'tqazadilar.

Kadrlar bilan ishlash masalasida ham o'zlariga xos xususiyatlarga ega. Soliq xizmatini xodimlari ikki guruxga bo'linadi – inspektorlar va soliq agentlari. Soliq agenti o'rta maxsus bilimga ega bo'lishi kerak. Agent mutaxassislikka kamroq aloqador masalalarni ko'radi. Masalan, ayrim holatga tegishli faktni tekshirish, ma'lumotlar to'plash, soliq to'lovchi

to'grisida ma'lumot olish uchun maxsus blankani to'lg'azish va x.k. Agent texnik, kurer ishlari va inspektorni ko'rsatmalarini bajaradi, Maxsus soliq sudi soliq sohasidagi hamma tortishuv, kelishmovchiliklarni ko'radi. Soliq sudidan o'tib, fuqorolar sudiga murojaat qilib bo'lmaydi. Soliq inspektori xujjatli tekshiruvdan keyin soliq to'lovchi xamkorlik qilgani uchun undan jarimani 50% kamaytirish to'g'risida engillik beradi.

Asosiy tayanch iboralar:

- Soliq etiketkasi
- Soliq vektori
- Indeks va modullar asosida baholash

Takrorlash uchun savollar:

1. Ispaniyada soliqni boshqarish organlarini o'ziga xos xususiyatlari
2. To'g'ri va egri soliqlar tarkibi
3. Federal, mintaka va mahalliy soliqlarning turlari
4. Daromad solig'idan beriladigan engilliklar
5. Qo'shilgan qiymat solig'ining o'ziga xos xususiyatlari
6. Iqtisodiy faoliyatdan olinadigan soliq
7. Mol-mulk solig'ini turlari
8. O'yin biznesiga solinadigan soliqlar

Test savollari:

1. Soliq agentligining funktsiyalariga nimalar kiradi?
 - a) soliq organlari faoliyatini rejalashtirish
 - b) byudjet harajati ustidan nazorat qilish
 - c) byudjet tasnifi o'zgartirish
 - d) hudud, provintsiya va mahalliy soliq organlarini boshqarish
 - e) mahalliy soliq organlarini boshqarish
2. Ispaniyada soliqni qaysi boshqarma organlari mavjud?
 - a) soliq agentligi, hudud, provintsiya va mahalliy bo'limlar
 - b) soliq agentligi, provintsiya
 - c) qo'mita, departament, bo'limlar
 - d) qo'mita, provintsiya
 - e) provintsiya, hudud
3. Daromad solig'ini solish bazasiga nimalar kirmaydi?
 - a) ish haqi, pensiya, ishsizlik bo'yicha nafaqa

- b) kapitaldan olinmaydigan daromad
- c) kasallik va chiqish bilan bog'liq nafaqalar, yutuqlar va mukofotlar, davlat stipendiyalari
- d) tadbirkorlik va kasbiy faoliyatdan olinadigan daromad
- e) mulkning o'sishi.

4. Daromad solig'i 2 bosqichda to'lanadi. Birinchisida uning necha foizi beriladi?

- a) 30%
- b) 45%
- c) 25%
- d) 60%
- e) 75%

5. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalariga qaysi gurux kiradi?

- a) 5, 12, 14
- b) 4, 7, 16
- c) 10, 15, 20
- d) 2, 6, 8
- e) 3, 9, 17

6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha deklaratsiya qaysi vaqtda topshiriladi?

- a) har oyda
- b) har kvartalda
- c) kvartaldan keyingi oy davomida
- d) ikki kvartalda bir marta
- e) bir yilda bir marta

7. Korporatsiya soliqlari qaysi gurux stavkalar bilan olinadi?

- a) 10, 15
- b) 6, 8
- c) 4, 12
- d) 35, 26
- e) 10, 20

8. Qaysi hududlar har-xil turdagi soliqlarni belgilash huquqiga egalar?

- a) Kataloniya
- b) Bask, Navara
- c) Andaluziya, Aragon
- d) Asturiya, Valensiya
- e) Leon, Mursiya

9.«BINGO» o'yinida chiptaning narxiga necha foiz soliq stavkasi belgilanadi?

- a) 10%
- b) 15%
- c) 40%
- d) 32%
- e) 50%

10.Qaysi faoliyat va xizmatlar, maxsulotlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi?

- a) mehmonxona , transport, teatr, tsirk
- b) kino, muzey, ko'rgazma, sport tadbirlari
- c) kitoblar, gazetalar, dorilar
- d) non, sabzavot, meva
- e) maorif, shifoxonadagi tibbiy xizmat, eksport

11.Meros taraqasida beriladigan mulkdan qaysi gurux merosxo'rlarga qiymatdan qisman chiqarib tashlash qo'llanmaydi?

- a) 21 ortiq yoshdagi merosxo'rlar
- b) 21 yoshgacha bo'lgan merosxo'rlar
- c) ikkinchi darajali merosxo'rlar
- d) uchinchi darajali merosxo'rlar
- e) uzoq merosxo'rlar.

VIII BOB. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARINING SOLIQ TIZIMI

8.1. Federativ va konfederativ davlatlarni soliq tizimini xususiyatlari

8.2. Amerika qo'shma shtatlari soliq tizimining asoslari

8.3. Federal soliqlar

8.3.1. Daromad solig'i

8.3.2. Ish haqidan olinadigan soliqlar

8.3.3. Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq.

8.3.4. Boshqa soliqlar

8.4. Shtatlarning soliq tizimi

8.5. Mahalliy soliqlar

8.1. Federativ va konfederativ davlatlarni soliq tizimini xususiyatlari

Federalizmga asoslangan soliq tizimini, ayniqsa, hozirgi zamon dunyo iqtisodiyotini rivojlanishi sharoitida o'rganish, bu tizimda mulklarni taqsimlash uslublarini va daromad, soliqlar manbaini kelib chiqishini bilish, muhim qiziqtirish uyg'otadi. Federatsiya deb – bir necha davlat a'zolari ma'lum huquqiy davlat mustaqilligini saqlab qolib, yangi yagona davlat tuzilmasini tashkil qilish tushuniladi. Federatsiya shakli ittifoq fuqaroligi, armiya va ittifoq davlat organlarini mavjudligini talab qiladi. O'z navbatida konfederatsiya esa, bu bir necha alohida davlatlarni ittifoqi bo'lib, o'zini mustaqilligini saqlab qoladi, lekin bir necha umumiy boshqarish organlari bo'yicha birlashadilar. Dunyo amaliyotida AQSh, Germaniya, Kanada federativ, Shveytsariya – konfederativ davlatlar hisoblanadi.

Federalizm – hokimiyat tizimi sifatida konstitutsiya bo'yicha qator hukmronlik qilish funksiyalari hudud organlariga beriladi va shu bilan bir qatorda eng yuqori hukmronlik – markaziy hukumat – millat mustaqilligini ifodalovchi organ ixtiyorida qoldiriladi. Hozirgi zamon federalizmini raqobatbardosh federalizm deb yuritiladi. Bunda kichik kollektivlarni vazifasi imkoniyat boricha pastki hokimiyat organlari tomonidan echilishi kerak. Shunday tartib, yuqori mustaqillik va haqiqiy demokratiyani ta'minlab beradi. Mahalliy organlar erkin tovarlarni sotishga, xizmat ko'rsatishga ko'maklashishlari kerak. Tovarlarini boshqa joyda ishlab chiqarib, litsenziya olingan bo'lsa, mahalliy organ uni tekshirishi va

litsenziya berishi kerak emas. Shunda ular “begona” tadbirkorlarni taklif qilib, soliq bazasini kengaytirib boradi.

Yana har bir manzil o'zining harajati, daromadi bilan qoplab borishi zarur. Shuning uchun o'zining soliq bazalarini mustahkamlash zarur. Hamma darajadagi hokimiyat o'zining soliq tizimini tashkil qilib, rivojlantirish huquqiga ega. Agar hamma soliq stavkalari markazdan belgilansa, hududlarni mustaqilligiga katta zarar etkazilar edi. Natijada haqiqiy raqobatbardosh federalizmni amalga oshirib bo'lmas edi.

Federativ davlatlarda soliq tizimi yuqoridagi printsiplar asosida tashkil topishi kerak. Unitar davlatlarda esa faqat siyosiy kuch, erkinlik markaziy hokimiyat ixtiyorida bo'ladi. Federativ davlatlarda haqiqiy davlat mustaqilligi ikki darajada bo'ladi – markaziy va hududiy. Lekin davlat birligini ta'minlash uchun yagona soliq qonunchiligini ta'minlab berish kerak. Yuqorida ko'rsatilgan qoida va tartiblarga binoan federativ davlatlarni soliq tizimlari tashkil qilingan.

8.2.Amerika qo'shma shtatlari soliq tizimining asoslari

«Hayotda o'lim va soliqdan muqarrar narsa yo'q»
(B.Franklin)

AQSh katta tarixga ega boy davlat bo'lganligi uchun uning soliq tizimi chuqur o'rganilgan, nazariy asoslangan va amaliyotda keng miqyosda sinalgan. Bu tizim bir necha asrlar davomida amaliy xususiyatlarini saqlab, ularni rivojlantirib kelmoqda.

AQSh konstitutsiyasiga binoan federal va shtat hukumatlari mustaqil soliq siyosati yuritish huquqiga ega. Soliqlar federal, shtat hukumatlari va mahalliy organlari hukumati tomonidan yig'iladi.

AQShning hozirgi soliq tizimi 1986 yil sentyabr oyida qabul qilingan. Ushbu soliq islohoti qonuni 1942 yili kiritilgan daromad to'g'risidagi qonundan keyin eng yirik soliq tadbiri hisoblanadi.

Islohotning asosiy maqsadi federal soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va «adolatli» soliq solish yo'li bilan mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish darajasini rag'batlashtirishdan iborat edi. Islohot natijasida fuqarolarni daromad solig'iga tortish va korporatsiya foydasini soliqqa tortish tizimi sezilarli darajada o'zgardi. Daromad solig'ini eng yuqori stavkasi ayrim shaxslar uchun –50dan 26 foizga va korporatsiyalar uchun 46 dan 34 foizga tushirildi. 1993 yili qabul qilingan qonun ham soliq tizimiga talaygina o'zgartirish kiritdi. Qonunda xususiy shaxslar uchun ikkita soliq stavkasi (36 va 39,6%) va korporatsiyalarga 34

dan 35 foizgacha o'zgartish kiritildi. Shu bilan bir qatorda xizmatga taa'lluqli ziyofat, ko'ngilochar tadbirlar bilan bog'liq chegirmalar qisqartirildi.

AQShda 70% dan ortiq soliq tushumlari to'g'ri soliqlardan, shu jumladan, ularning 40 foizdan ko'prog'i federal daromad solig'idan iborat.

Soliqlarning zarurligi, mazmuni va ahamiyati ko'pchilik AQSh iqtisodchilari tomonidan nazariy jihatdan asoslangan. Bu sohada Kempbell, Makkonel, Stenli Bryu va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Qator kamchiliklar, qarama-qarshiliklar, iqtisodiyotning ko'ptarmoqliligi xususiyatlarini va harakatdagi soliq qonunchiligini murakkabligini hisobga olib, hozirgi vaqtda AQSh soliq kodeksining yangi loyihasi tayyorlangan.

Ijtimoiy manfaatdorlik va ijtimoiy xizmatning tabiati juda murakkab va qo'p qirrali hisoblanadi. Shu sababli aniq shaxs amaliyotda qaysi sohadan ko'p daromad ko'rayotganini aniqlash qiyindir. Shuning uchun aniq shaxs avtomobil yo'llaridan, bepul o'rta ta'lim tizimidan, davlat va mahalliy xavfsizlik organlari, yong'indan himoya qilish va ob-havoni prognoz qilish xizmatlaridan qanday moddiy manfaat olishini belgilash oddiy masala emas. Demak, soliq og'irligini taqsimlash muammoli masala bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda soliq og'irligini taqsimlash muammosiga ikki xil qarash mavjud:

- olingan manfaatni soliqqa tortish printsipi (tamoyili);
- to'lov qobiliyati kontseptsiyasi printsipi (tamoyili).

Olingan manfaatni soliqqa tortish printsipiga asosan, uy xo'jaliklari va tadbirkorlar davlat beradigan tovar, ko'rsatgan xizmatni xuddi boshqa tovarlarni sotib olgandek qabul qilishlari kerak. Hukumat tomonidan taklif qilinadigan tovar va xizmatlarni qabul qiluvchilar, ushbu tovar va xizmatlarni moliyalashtirish uchun soliq to'lashlari kerak. Mantiqiy jihatdan bu to'g'ri bo'ladi. Ijtimoiy manfaatning bir qismi olingan manfaatni soliqqa tortish qoidasi asosida moliyalashtiriladi. Masalan, benzindan olinadigan soliq, qoida bo'yicha, yo'llarni qurish va ta'mirlashni moliyalashtirishga sarflanadi. Kim sifatli yo'ldan naf olsa, yo'l uchun xarajatni to'laydi. Shunga qaramay, qachonki aniq va keng miqyosda olingan manfaatni soliqqa tortish printsipi qo'llanganda shu zahoti muammolar kelib chiqadi.

Birinchi muammo - uy xo'jaligi boshlig'i, tadbirkor ayrim xizmatlardan qanday hajmda naf (foyda) olishini baholash. Avtomobil egalari yaxshi sifatli avtoyo'ldan har xil darajada foyda olganlaridek,

avtomobil egasi bo'lmagan shaxslar ham foyda oladilar. Yaxshi yo'llarni paydo bo'lganidan tadbirkorlar ham bozorlarni kengaytirib talaygina yutadilar.

Ikkinchi muammo - qabul qilingan afzalliklarni soliqqa tortish printsipi asosida moliyalashtirish hukumatni daromadlarni qaytadan taqsimlash harakatini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuningdek, kambag'al oilalarni xayriya nafaqalarini moliyalashtirish uchun kerak bo'lgan mablag'ni ularni soliq to'lashga majbur qilish yo'li bilan qoplash fikri ham bema'ni va natijasiz hisoblanadi.

To'lov qobiliyati printsipi manfaatni soliqqa tortish printsipidan keskin farq qiladi. Bu printsipning asosida soliq yuki asosan aniq daromad va farovonlik darajasiga bog'liq degan fikr yotadi.

To'lov qobiliyati printsipi yuqori daromadli shaxslar yoki tadbirkorlar kam daromadlilarga nisbatan absolyut va nisbiy ko'proq soliq to'lashini talab qiladi.

Bu kontsepsiya asosida quyidagi fikr yotadi: uy xo'jaligi tomonidan olingan har bir qo'shimcha dollar o'z navbatida qiziqishni tobora pasayib borishiga olib keladi. Bunday holni yuzaga kelish sababi oddiy: daromadning dollarda olingan dastlabki qismi birlamchi ehtiyojga ega bo'lgan tovarlarga sarf etilib, keyingi mablag'lar u darajada zarur bo'lmagan tovar va xizmatlarga ishlatiladi. Bu shuni anglatadiki, kambag'aldan soliq sifatida undirilgan dollarlar boy odamdan soliq sifatida olingan dollarlarga nisbatan ko'proq zararni tashkil etishi mumkin.

Shunday qilib, soliqdan qo'rilgan zararni tenglashtirish (baravarlashtirish) maqsadida, soliqni olinadigan daromad hajmiga qarab taqsimlanadi. Bu alohida ahamiyatli holatdir. Lekin bu printsipni qo'llashni ham muammolari mavjud. Masalan, bir yilga 50 ming dollar daromad oladigan uy xo'jaligi 10 ming dollar oladigan uy xo'jaligidan ko'proq soliq tulash qobiliyatiga ega. Lekin, boy kishi o'zining daromadiga qarab necha marta ko'proq soliq to'laydimi, yo'qmi degan savol tug'iladi. Amaliyotda har bir kishini soliq to'lash imkoniyati to'liq aniqlanmagan. Masalani echishda mamlakatni boshqaruvchi partiya, vaqt talabi, hukumatni daromadga bo'lgan talabini hisobga olgan holda, afzalroq ko'rilgan holat olinadi.

Amerika iqtisodiyotining soliqlari tarkibi olingan manfaatni soliqqa tortish printsipiga ko'ra, ko'proq to'lov qobiliyati kontsepsiyasiga to'g'ri keladi. To'lov qobiliyati va olingan manfaatni soliqqa tortish printsiplarini ko'rib chiqish pirovard natijada soliq stavkalari to'g'risidagi savolga va

har qanday shaxsni daromadi oshganda bu stavkalarni o'zgartirish masalalariga olib keladi.

Soliq stavkalari progressiv (ilg'or, taraqqiy), proporsional (muttanosib) va regressiv (orqaga qaytish) tarzida bo'ladi. Shunga qarab soliqlarni ilg'or, mutanosib va regressiv turlariga bo'lish mumkin. Bunday ta'riflash stavka bilan daromadni bir-biriga munosabatiga asoslanadi. Daromadni olishga sabab, hamma soliqlar daromaddan, mahsulotdan, imorat, yer uchastkasidan olinishiga qaramay, kimningdir daromadidan to'lanadi.

Daromad o'sishi bilan o'rtacha stavka oshib borsa, soliq progressiv (ilg'or) hisoblanadi. Bunday soliq faqat absolyut (mutlaq o'zgarmas) summani faraz qilib qolmay, daromad oshishi bilan olinadigan qismini ko'payishini ham anglatadi.

Regressiv soliqda, daromad oshishi bilan o'rtacha stavka pasayib boradi. Bunday soliqlar daromad ko'payishi jarayonida uning kam va yanada kam qismini olishni talab qiladi. Regressiv stavkalar bo'yicha soliq katta absolyut summani keltirishi va balki daromad ko'payishi bilan katta absolyut summani keltirmasligi mumkin. Muttanosib (proporsional) soliq shunday belgilanadiki, daromad hajmini o'zgarishidan qat'iy nazar, o'rtacha soliq stavkasi o'zgarmay qoladi. Ta'kidlab o'tish lozimki, progressiv soliqlar boylarni qattiqroq ezsa, regressiv soliq kambag'allarga og'irroq ta'sir qiladi.

Federal hukumat tomonidan olinadigan soliqlar mamlakatni hamma hududlarida bir xil bo'lib, ular federal daromadni asosiy bandi hisoblanadi. Shtat soliqlari bir-biridan farq qiladi. Aholining yashash joyini tez-tez o'zgartirib, ya'ni ko'chib yurishi yuqori darajada bo'lganligi uchun bu soliqlarni yig'ish mexanizmi texnik jihatdan juda ham murakkab hisoblanadi. Bu holat ham AQSh soliq tizimining xususiyatlariga izoh beradi.

Byudjet tushumining katta qismini to'g'ri soliqlar ta'minlaydi. Uning hissasi juda yuqori (70 foizgacha). Egri soliqlar asosan regressiv soliq bo'lganligi uchun oddiy soliq to'lovchilar tomonidan doimiy ravishda tanqid qilinadi. Lekin, ko'pchilikning fikricha egri soliqlarning yagona shubhasiz fazilati bor - ularni yig'ishning oddiyliigi. Haqiqatda tovarni sotib oluvchi sotishdan olinadigan soliqni to'lashdan bosh tortmaydi. Teskari holatda unga tovar sotmaydi.

AQShda to'g'ri va egri soliqlarning tarkibi quyidagi sxemada

keltirilgan.

8.1.-chizma

AQSHning soliq tizimi	
To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Aholidan olinadigan daromad solig'i.	1. Aktsizlar, bojxona boji.
2. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq: federal, shtat, mahalliy	2. Ijtimoiy sug'urtaga xususiy tadbirkorlarni federal badallari
3. Shtatlarni va mahalliy organlarni mol-mulk solig'i	3. Transport vositalari yig'imi va boshqa soliqlar (tadbirkorlardan olinadigan shtatlar va mahalliy soliqlar)
4. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma (federal, shtatlar)	
5. Meros va sovg'alardan olinadigan soliq	
6. Fuqarolardan transport vositasi uchun olinadigan yig'im	

AQSh - federal respublika. Ularning davlat tuzilishi asosida faqat hokimiyatni vazifalari bo'yicha bo'linish emas, hududlar bo'yicha ham ajratish yotadi.

Hokimiyatning hududlar bo'yicha tuzilishi etarli darajada vazifalarni aniq chegaralash va uchta hududlar –federal, shtat, mahalliy hokimiyatlarni alohida xuquqlarini nazarda tutadi. Bunday ajratilish bilan byudjet xarajatlari va soliq tushumlarining xarakteri uzviy bog'liqdir.

Federal hukumatning asosiy faoliyati mudofaa, mamlakatning tashqi aloqalari, inson resurslarini qayta ishlab chiqarish (sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, daromadlarni qayta taqsimlash) va davlat qarzi xizmatini ta'minlashdan iborat.

Federal hukumatning har-xil xarajatlari ichida quyidagi guruhlar ajralib turadi:

- daromadni himoya qilish;
- milliy mudofaa;

- davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash.

Daromadni himoya qilish kategoriyasi qariyalar, mehnatga qobiliyatsiz, ishsiz, tibbiyot yordamiga muhtoj nogironlarga yordam ko'rsatish yo'li bilan ularning daromadlari darajasini saqlab turish bilan bog'liq. Milliy mudofaa federal byudjetning to'rtidan bir qismini qamrab oladi. Bu davlat qo'shinlarini jangovar holatini ta'minlash uchun yuqori darajada xarajat qilinishini anglatadi. Davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash oxirgi davrda nisbatan oshdi. Bu bir tomondan davlat qarzini oshishi va ikkinchi tomondan foiz stavkalarini ko'tarilishi bilan bog'liq.

Yuqorida ko'rsatilgan harajatlarni qoplash uchun federal hukumat daromadga va, shu jumladan, soliqlarni yig'ish imkoniyatiga ega.

Federal byudjetga fuqarolardan olinadigan daromad solig'i, ish haqi fondiga solinadigan soliq va korporatsiyalva 10 tsent kelib tushadi. Bundan tashqari, kichik hajmda aktsiz yig'implari, bojxona boji, qo'chmas mulkka solinadigan soliq, sovg'alarar foydasiga solinadigan soliqlar kelib tushadi. Yuqoridagi ketma-ketlikka muvofiq soliq sifatida yig'ilgan har bir dollardan 45,35 dan olinadigan soliq va boshqalar federal byudjetga tushadi. Federal byudjetga tushadigan aktsiz solig'i- benzin, chekish mahsulotlari, alkogol ichimliklarini sotish bilan bog'liq bo'lgan tanlangan soliqlar hisoblanadi.

Shtatlarga aholiga va korporatsiya mulkiga taalluqli nazoratni muntazam tartibga solish, ma'muriy boshqarish funksiyalari, ishchi kontraktlarni bajarilishi ustidan nazorat qilish, kasb faoliyatiga litsenziya berish, fuqarolar holati aktini rasmiylashtirish va boshqa vazifalar yuklatilgan.

O'z-o'zini boshqaruvchi mahalliy organlar asosan o'zlarining hududlarida aholi va korxonalariga har xil xizmat ko'rsatadilar. Bu maktabda o'qitish, kommunal xizmati ko'rsatish, yo'l xo'jaligi, ijtimoiy yordamlar berish, shaxs va mulkni muhofaza qilish, uy-joy qurilishi, shaharni rivojlantirish, yong'in va politsiya xizmati, dam olish joylariga qarash kabi vazifalarni bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, yashovchilarga istiqomat qilishlari uchun moddiy va sotsial sharoit yaratish, shu hududda joylashgan korxonalarni ishlab chiqarishini rag'barlantirishdan iborat bo'ladi.

AQShda iqtisodiyotni byudjet - soliq orqali boshqarish juda keng miqyosda qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda 25%ga yaqin ichki milliy mahsulot byudjet orqali qaytadan taqsimlanadi.

AQShda tashkil topgan hokimiyat tarkibiga binoan har bir darajada byudjet tashkil topadi - federal hukumat byudjeti, shtatlar va mahalliy o'z-o'zini boshqaruvchi organlar byudjetiga bo'linadi. Navbatdagi moliya yiliga (1 oktyabrdan boshlanadi) federal byudjetning loyihasi hamma federal vazirliklar va mahkamalar ishtirokida ma'muriy-byudjet boshqarmasi tomonidan tuziladi va prezident tomonidan kalendar yilining boshida kongressga olib chiqiladi. Kongressda loyiha ko'riladi va navbatdagi moliya yili boshlangunga qadar tasdiqlanadi.

Iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida, ayniqsa, tanqislik holatini bartaraf qilish uchun federal byudjetning ham daromad, ham xarajat qismidan foydalaniladi, ishlatiladi. Harajat qismi 20 ta asosiy byudjet kategoriyalariga bo'linadi. Shu jumladan, milliy mudofaa harajati, xalqaro ishlarni olib borish, qishloq xo'jaligi, transport, energetikani rivojlantirish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta va boshqalar taxminan 60% umumdavlat xarajatlari federal byudjet zimmasiga va qolgani shtat va mahalliy organlar byudjetiga to'g'ri keladi.

AQShni XX asr oxiridagi iqtisodiy siyosatida asosiy o'rinni soliq sohasidagi tadbirlar egalladi. 1981-1983 yillarda bosqichma-bosqich daromad solig'ini stavkasi sezilarli pasaytirildi. Islohot soliqlarni to'plash boshqarmasi (STB) zimmasiga to'g'ri keldi. Unga rahbar etib Charlz Rossoti tayinlandi. Yangi boshliq 33 ta hududiy STBni direktorlari va bosh taftishchilarini almashtirdi. Charlz Rossoti soliq boshqarmalari faoliyatidagi kamchiliklarni topdi va ularni yo'qotishi natijasida boqimanda kamaytirildi.

AQSh byudjet tizimini har bir shahobchasi alohida soliqlarga asoslangan. Masalan, federal byudjetni to'ldirishda asosiy manba aholidan va korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi. Shtatlar byudjeti sotishdan olinadigan soliqqa va mahalliy (shu jumladan, munitsipial) hukumat byudjeti ularning hududida joylashgan mulk qiymatidan olinadigan soliqqa asoslangan.

AQShda hokimiyat darajasi va soliq turlari bo'yicha byudjet tushumining odatdagi tarkibi
(foiz hisobida)

Hokimiyat darajasi	Hamma soliqlar	Soliq turlari bo'yicha			
		Daromad solig'i		Sotishga solinadigan soliq	Mulk qiymatiga solinadigan soliq
		Fuqarolardan	Korporatsiyalardan		
Federal	56,4	82,1	76,9	30,2	-
Shtat	26,8	16,3	20,9	58,6	4,0
Mahalliy	16,8	1,6	2,2	11,2	96,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, federal byudjetga 82,1% fuqarolardan va 76,9% korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i kelib tushayapti. Sotishga solinadigan soliqning asosiy qismi shtatlar byudjetiga tushmoqda. Mol-mulkka solinadigan soliqning deyarli hammasi mahalliy byudjetlarga yo'naltirilmoqda. Shunday qilib, federal byudjet o'zining asosiy talabini fuqarolardan va korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i hisobiga, shtatlar-sotishga solinadigan soliq va mahalliy organlar- mol-mulkka solinadigan soliq hisobiga qoplaydilar. Ma'lum darajada, an'anaviy bo'lmagan sotishga solinadigan soliq ham mahalliy hokimiyat talabini qondiradi. AQShni hozirgi zamon soliq tizimiga federal xukumat va shtat hamda mahalliy hokimiyatlar soliqlarni asosiy turlaridan parallel tarzda foydalanishlari xarakterlidir.

AQShning soliq tizimi

Soliqlar		
Federal	Shtatlar	Mahalliy
1. Daromad solig'i (federatsiya)	1. Daromad solig'i (shtatlar)	1. Daromad solig'i (mahalliy)
2. Korporatsiyalar foydasi	2. Korporatsiyalar foydasi	2. Korporatsiyalar foydasi
3. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma	3. Ijtimoiy sug'urta fondiga badallar	3. Ijtimoiy sug'urta fondiga badallar
4. Bojxona boji	4. Sotishga solinadigan soliq	4. Umumiy sotishga solinadigan soliq, aktsizlar, ekologiya solig'i
5. Meros va hadyalar	5. Maxsus alkohol ichimliklar, chekish	5. Meros va hadyalardan

	mahsulotlari va yoqilg'iga solinadigan aktsizlar	
	6. Meros va xadyalar	6. Mol-mulk solig'i
	7. Mol-mulk solig'i	7. Transport vositalaridan yig'im
	8. Transport vositalaridan yig'im	

Aholi har uch xil turdagi daromad solig'ini: federal, shtat va mahalliy, ikki xil mol-mulk solig'i: universal va aktsiz solig'ini, shtat hamda mahalliy byudjetlarga to'laydi.

8.3. Federal soliqlar

AQShda umumdavlat pul mablag'lari fondi federatsiya byudjetida to'planadi. AQShning byudjet tizimida markaziy o'rinni federal byudjet egallagani uchun, bu byudjetning daromadlari tarkibini ko'rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

8.3.-jadval

Daromadlar	Haqiqiy (moliyaviy yil)		
	1980	1990	1992
Aholidan olinadigan daromad soliqlar, mlrd.dollar	244,1	466,9	529,5
Umumiy daromad hajmiga foiz hisobida	47,2	45,3	45,5
Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq, mlrd. Dollar	64,6	93,5	101,9
Umumiy daromad hajmiga nisbatan foiz hisobida	12,5	9,1	8,7
Ijtimoiy sug'urta fondiga beriladigan badallar, mlrd. Dollar	157,8	380,0	429,3
Umumiy daromad hajmiga nisbatan foiz hisobida	30,5	36,8	36,8
Aktsizlar, mlrd. Dollar	24,3	35,3	47,8
Umumiy daromad hajmiga nisbatan foiz hisobida	4,7	3,4	4,1
Meros va hadyalardan tushum mlrd.dollar	6,4	11,5	13,3
Umumiy daromad hajmiga nisbatan foiz hisobida	1,2	1,1	1,1
Bojxona boji, mlrd. Dollar	7,2	16,7	19,3
Umumiy daromad hajmiga nisbatan foiz hisobida	1,4	1,6	1,7
Boshqa tushumlar, mlrd. Dollar	12,7	27,0	23,9

Umumiy daromad hajmiga nisbatan foiz hisobida	2,5	2,6	2,1
Hamma daromadlar, mlrd. Dollar	517,1	1031,3	1165,0
Foiz hisobida	100,0	100,0	100,0

Federal soliqlarni yalpi yig'imi 1,2 trln. Dollarni hozirgi kunda undan ham ko'pni tashkil qiladi, shunday hajmdagi soliqlarni 110 mln.dan ko'p soliq to'lovchilar va 15 mln. Har xil mulk shakliga asoslangan mustaqil xo'jalik sub'ektlaridan yig'ish, iqtisodiy va moliya sohasida yuqori darajada huquqiy chegaralar mavjudligi (faqat harakatdagi federal qonunchilik 4 ming bet tekstdan iborat) sharoitida juda murakkab vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, federal byudjetning daromadi asosan federal daromad solig'i, federal korporatsiyaga solinadigan soliq va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalardan iborat. Aholidan olinadigan daromad solig'ini 4/5 qismi federal byudjetga tushib, uning daromad qismining deyarli yarmini tashkil qiladi.

Shu sababli daromad solig'ini chuqurroq yoritish talab etiladi.

8.3.1 Daromad solig'i

Har yili Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarolari federal soliq xizmati (FSX) bo'limiga soliq deklaratsiyasini topshiradilar. Soliq xizmati deklaratsiyalarni, shu jumladan, pochta orqali jo'natilgan, elektron liniyalar orqali yuborilgan ma'lumotlarni soliq xizmati kompyuterlariga kiritish uchun daromad olmoqchi bo'lgan uy bekalari, ishsiz odamlarni yollaydi. Keyinchalik bu ma'lumotlar banklar, do'konlar, katta bo'lmagan firmalar va yirik korporatsiyalardan olingan materiallar bilan solishtirilib, soliq tekshiruviga asos bo'ladi. Agar, amerikaliklar, kredit kartochkalaridan tez-tez foydalanib, bitimlarni uchdan bir qismini naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali amalga oshirishini inobatga olsak, ularning karmoni soliq inspektorlari uchun ochiq-oydin, ravshan bo'lib qoladi.

AQShda soliq tizimini juda murakkab, noqulay va chalkashligini soliqqa tortish sohasidagi mutaxassislar ham tan olishadi. Amerika soliq tizimini murakkabligini bilish uchun 3000 hujjat asosidagi soliq to'lovchilar qo'llanmasini har bir amerikalik FSXni yaqindagi bo'limidan olishi mumkin. Soliq to'lovchilar uchun har xil soliq hujjatlari, yo'riqnoma va boshqa bosib chiqarilgan ko'rsatmalar ba'zi yillari 500 donadan oshib ketadi. Bu holat ham soliq tizimining oddiy emasligidan dalolat beradi.

Federal daromad solig'i solinadigan sub'ektlar (huquqiy shaxslar) AQShning fuqarolari va shu mamlakatning rezidentlari hisoblanadi.

Soliq deklaratsiyasini topshirish zaruriyatini quyidagi chegaralari va asoslari belgilab beriladi:

- yalpi daromadni kattaligi;
- oilaviy ahvoli;
- soliq to'lovchining yoshi

Jami yalpi daromadga soliqdan ozod qilinmagan daromad, to'lovchi olgan pullar, tovarlar, mulklar, xizmatlar kiradi. Umumiy mulk egasi sifatida AQShning birorta shtatida yashovchi oila uchun alohida huquqiy holat belgilanadi. (Arizona, Kaliforniya, Luiziana, Nevada, Nyu-Meksiko, Texas, Washington, Viskonsin shtatlarida). Bu guruh soliq to'lovchilarga shu shtatlarni qonunchiligi asosida umumiy mulk deb belgilangan har qanday daromadning yarmi soliq to'lovchining daromadi hisoblanadi. Soliq to'lovchining oilaviy holati xisobot yilining oxirgi kuni bo'yicha belgilanadi (ko'pchilik soliq to'lovchilar uchun 31 dekabr hisoblanadi). Qator Evropa mamlakatlari kabi bu shtatlarda nikohdagi er-xotinlar bitta deklaratsiya topshirishlari mumkin.

Belgilangan jami daromadning hajmi bu darajadan yuqori bo'lsa, deklaratsiya topshiriladi (1997 yili olingan daromaddan 1998 yili deklaratsiya taqdim etiladi).

8.4.-jadval

AQShida deklaratsiya asosida soliqlarni daromaddan undirilishi

Oilaviy holati	yoshi	umumiy yalpi daromad (dollar), \$
Oilasiz	65 yoshgacha	6800
	65 va undan katta	7800
Birgalikda deklaratsiya berganda	65 yoshgacha ikkala (nikohdagilar)	12200
	65 va undan katta (bitta turmush o'rtog'i)	13000
	ikkala turmush o'rtog'i	13800
Alohida deklaratsiya berganda (nikohdagilar)	yoshidan qat'iy nazar	2650
Oila boshlig'i	65 yoshgacha	8700
	65 va undan katta	9700
Beva (qaramog'ida yosh bolasi bor beva)	65 yoshgacha	9550
	65 yosh va undan katta	10350

Jadvalda ko'rsatilgan jami yalpi daromad har yili o'zgarib turadi. Oxirgi yillari chegara darajasi ko'tarilib bormoqda. Bu inflyatsiya bilan bog'liq. Marhum, vafot etgan oila boshlig'i yoki uning rafiqasi uchun soliq deklaratsiyasi tirik qolgan rafiqasi, (bajaruvchi, vasiy) tomonidan beriladi. Bunda faqat bu soliq to'lovchining ma'lumotlari vafot etgan muddatidagi jadvalda ko'rsatilgan hajm va raqamlarga to'g'ri kelishi kerak.

Jadvalda bolalar, qaramog'idagi shaxslar kategoriyasi berilmagan. Ular mehnatga oid va mehnatdan tashqari daromadlar, jami daromad, oilaviy holati, yoshi va boshqalarga qarab soliq deklaratsiyasi topshiradilar. Hisobga olinadigan daromadlar darajasi alohida jadval asosida belgilanadi.

Mehnat bilan topilgan daromadlarga ish haqi, choy-chaqa puli, soliq olinadigan stipendiyalar, o'quvchi va ilmiy xodimlarga beriladigan subsidiyalar kiradi. Mehnatsiz topilgan daromadlar soliq solinadigan kapitaldan olingan foiz, aksiyalardan olingan dividendlar hisoblanadi. Ishsizlikka beriladigan nafaqaga ijtimoiy ta'minot yo'nalishi beradigan soliq olinadigan nafaqa, pensiya va boshqalar kiradi.

Bolalarni mehnat daromadlaridan soliq to'lash javobgarligi ota-onalar va vasiylarga yuklatilgan. Agar bola 14 yoshga to'lmagan bo'lsa, uning daromadi foiz va dividendlardan iborat bo'lsa, ma'lum sharoitlarda ota-onalar o'zlarining deklaratsiyalariga qo'shishlari mumkin. Bunday holatda bolalar alohida deklaratsiya topshirmaydilar. Ba'zi toifada mehnat qiluvchilar (ofitsiantlar, sartaroshlar, taksistlar va boshqalar) har kuni olgan choy-chaqa pullarini alohida jurnalda hisobga olib borishlari kerak. Jurnalda quyidagilar yozilishi shart: ishchini familiyasi, ismi-sharifi, yashash manzili, ish beruvchini familiyasi va xizmat joyining nomi.

Jurnalga mijozlardan olingan choy-chaqa summasi, boshqa xodimlardan, ishxona boshlig'i tomonidan berilgan choy-chaqa pullari yoziladi. Agar ishchi jurnal yuritmasa, har bir olgan choy-chaqasi uchun, uni tasdiqlaydigan hujjatlarni saqlashi zarur. Navbatdagi oyning 10 sanasigacha xizmatchi ish beruvchiga yozma ravishda hisobot berishi kerak. Buning uchun olingan choy-chaqa hajmi ma'lum darajadan yuqori bo'lishi kerak (1996 yili-20 dollar). Ish beruvchi ishchilarni choy-chaqalarini hisobga oluvchi jurnalini yuritadi. Choy-chaqa hisobidan daromad solig'i, sotsial ta'minotga va tibbiy sug'urtasiga ajratmalar shu jurnalda o'z aksini topadi. Ko'p hollarda oxirgi soliq ishchilarning ish haqidan chegirilib chiqariladi.

Yollanib ishlamaydigan (yakka tadbirkorlar) shaxslar deb, AQShda yakka o'zi savdo va biznes, mustaqil pudrat va boshqa mustaqil biznes bilan shug'ullanadigan shaxslar hisoblanadi. Bu shaxslar yakka tartibdagi faoliyat uchun soliq to'laydilar. Foyda olish maqsadida doimiy va to'xtovsiz amalga oshiriladigan faoliyat tadbirkorlik deb yuritiladi. Tasodifan yoki ishqibozlik (xobbi) sifatida shug'ullanish tadbirkorlik hisoblanmaydi.

Yollanib ishlamaydigan shaxslar guruhiga erkin kasb egalari, cherkov xizmatchilari, fermerlar kiradi. Agar fermer boshqa bir faoliyat bilan shug'ullansa, undan olgan daromad umumiy daromadiga qo'shiladi va biznesdan olingan umumiy daromad hisoblanadi. Xususiy biznesdan olinadigan sof daromad deb har xil faoliyat turlaridan olingan sof foyda hisoblanadi.

Biznesning bir turidan ko'rilgan zarar, uning boshqa turidan olingan daromadni kamaytiradi. Yakka mehnat faoliyati yuzasidan olinadigan soliqni, asosiy ishdan tashqari vaqtda faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar to'laydi. Masalan, aviazavodda ishlaydigan slesar avtomobilni remont qilsa, deklaratsiyada faoliyatidan olgan daromadni ko'rsatishi kerak. Chunki bu daromad yakka tartibdagi mehnat faoliyati natijasida olingandir. Soliq to'lovchi o'ziga tegishli bo'lmagan yerda chorvachilik yoki dalachilik ishlari bilan shug'ullansa, hosilning bir qismi, chorvachilik mahsuloti yoki sotishdan olingan daromad uning mehnati uchun haq to'lash bo'lib, faoliyat uning xususiy biznesi hisoblanadi. Agar soliq to'lovchi vositachi (o'rtadi turuvchi) yoki boshqa kishini ishini olib boruvchi bo'lsa ham yuqorida ko'rsatilgan qoida o'z kuchini saqlab qoladi.

Shaxsiy biznesi bilan shug'ullanish natijasida olinadigan sof tushum summasiga qo'shiladigan boshqa daromadlar va zararlarga quyidagilar kiradi:

- imoratni, avtomashinalar turishi uchun ajratilgan maydon, omborlar, garajlar, mehmonxona nomerlari (xonalari), umumiy ovqatlanish punktlarida o'tirish joyi, turistlar bazasi va boshqalarni berish natijasida olinadigan daromad mablag'lari;

- ro'znoma va jurnallarni sotishdan olinadigan daromad (1996 yili 18 yoshdan katta bo'lgan soliq to'lovchilarga);

- davlat xizmatchilari yoki mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari xizmatchilarining gonorari.

Agar ularning bajarayotgan ishlari federal mablag'lar va shtatlar mablag'i hisobiga ijtimoiy ta'minotni sug'urta qilish kelishuvi ta'siriga tushmasa;

- ishchan faoliyat jarayonida olingan foizlar. (Masalan, qarzga olingan qimmatli qog'ozlar);

- ayrim boshqa turdagi to'lovlar.

Umumiy yalpi daromad soliq solinadigan yilning ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, soliq to'lovchi daromad va xarajatlarni hisobini olib borgan davr vaqti olinadi. Ko'pchilik soliq to'lovchilarga soliq solinadigan yil kalendar yilga - 12 oy (1 yanvardan 31 dekabrgacha) to'g'ri keladi. Soliq to'lovchi xohlagan davridan foydalanishi mumkin. Uni fiskal yili deb yuritiladi. Bu 12 oy davom etadigan har qanday davr hisoblanib, uning oxirgi kuni oyning oxirgi kuniga to'g'ri keladi, (dekabr oyidan tashqari), 52 yoki 53 hafta davom etadigan fiskal yili xaftani har bir kunida tomom bulishi mumkin. Hisobga olish (bir vaqtda xisobot berish) davrini tanlash soliq to'lovchi tomonidan birinchi marta deklaratsiya bergan yili amalga oshiriladi. Dastlab tanlangan hisobot davrini o'zgartirish uchun FSXni ruxsatini olish kerak va ma'lum hajmda boj to'lash kerak bo'ladi. Birinchi deklaratsiya berilgan birinchi yili soliq hisobi usuli tanlanadi. Ular ikki usuldan iborat: kassa va hisobga o'tkazish .

Kassa usulini qo'llaganda soliq to'lovchi daromad va harajatlar hisob-kitobini shu daromadlardan foydalanish, ixtiyoriga ko'ra daromadlarni idora qilish huquqlarini olgan davrdan boshlab olib boradi. Ushbu usulni amerikalik soliq to'lovchi jismoniy shaxslar ko'proq qo'llaydilar. Hisobga olishning kassa metodida daromadni olish vaqti bo'lib soliq to'lovchi daromaddan foydalanish va daromadlarni idora qilish huquqini olgan vaqti hisoblanadi (masalan, naqd pulni olgan yoki pul mablag'larini bankdagi hisobga kelib tushgan vaqti hisoblanadi). Harajatlarni amalga oshirish davri deb, soliq to'lovchi ularni to'lagan vaqti hisoblanadi (naqd pulni berish yoki bank tomonidan pul mablag'larni o'tqazish uchun to'lov talabnomasini olgan vaqti). Agar jismoniy shaxsni yollovchi ish haqidan qarzini ushlab qolsa yoki boshqa uchinchi shaxs uchun qandaydir mablag' ushlansa, umumiy ushlangan pul summasi ja'mi daromadga kiradi. Soliq to'lovchini qarzi kechirilsa yoki qarzni uchinchi shaxs qoplasa ham bu tartib saqlanib qoladi. Jismoniy shaxsni daromadiga uning ixtiyoridagi mulk yuzasidan uchinchi shaxs to'lagan mablag' ham kiradi. Xuddi shu tartibda soliq to'lovchi uchinchi shaxs tomonidan olgan daromad va

bergan mablag'i hisobga olinadi. Jismoniy shaxsning nomidan harakat qilayotgan vakil olgan daromad ham jismoniy shaxsning daromadi hisoblanadi.

Hisobga o'tkazish usuli qo'llanganda soliq hisobi soliq to'lovchi tomonidan daromadga egalik huquqi olgan vaqti yoki xarajatlarni unga ta'aluqligini tan olingan vaqtiga ko'ra haqiqiy daromadni olgan va harajat qilgan paytini hisobga olmagan holda amalga oshiriladi.

Daromadlarni olingan davri deb, soliq to'lovchiga so'zsiz to'lanishi kerak bo'lgan summani yoki kelishuv bo'yicha barcha majburiyatlarni bajargan davrini aniqlangan vaqti hisoblanadi. Harajatlarni amalga oshirilish vaqti deb, har ikki tomon haqiqatda o'z majburiyatlarini bajarganligi yoki hisoblangan summani so'zsiz to'lanishi aniq belgilangan vaqt hisoblanadi. Ikki tomon haqiqiy o'zining majburiyatlarini bajargandan yoki kerakli mablag' berilishi aniq bo'lgan vaqt harajat qilish davri hisoblanadi. Harajatlar haqiqiy to'langan yilida emas, balki harajatlar amalga oshirilgan yilida hisobga olinadi. Agar oldindan mablag' tushsa (soliq to'lovchi daromadni mablag'ga egalik huquqini olishdan oldin olsa) umumiy daromadda haqiqiy to'langan yilida hisobga olinadi. Daromadga avans tariqasida olingan foizlar yoki arenda to'lovi hamda keyinroq ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lashlar kiradi.

Deklaratsiya to'lg'azilgandan keyin soliq to'lovchini davlatga bir dollardan kam qarzi bo'lsa, bunday boqimanda kechiriladi. Agar to'langan soliqlarni summasi, hisoblangan hajmdan ko'p bo'lsa soliq to'lovchi farqni olishi mumkin. Hohlasa ortiqcha to'langan soliq summasini qisman yoki to'liq kelgusi yili hisobiga o'tqazishi mumkin. Bir dollardan kam bo'lgan ortiqcha to'langan summa soliq to'lovchini yozma ravishdagi bayoni asosida qaytariladi.

FSX cheki bo'yicha beriladigan pul, uni yozdirilgan kundan boshlab 12 oydan oshmagan muddatda olinishi kerak. 12 oy o'tgandan keyin chek bekor qilinadi va pul FSXga qaytariladi. Qaytadan chekni olish uchun FSXga maxsus murojaat qilish kerak.

Amerika davlatida xalqaro tashkilotlarda yoki boshqa bir mamlakat hukumatiga qarashli yoki boshqa davlatga qarashli tashkilotda ishlayotgan AQSh fuqarosi ijtimoiy ta'minot va tibbiy sug'urta tizimiga to'laydigan soliqlardan ozod qilingan bo'lsa, bu holda u Qo'shma Shtatlar hududida xizmati uchun olingan daromadlardan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida soliq to'laydi. Agar AQSh fuqarosi o'z mamlakatidan tashqarida yashasa va o'zining biznesi bilan shug'ullanadigan bo'lsa, ko'p hollarda o'zining

biznesi daromadidan soliq to'lashdan ozod qilinadi. Horijiy fuqarolar yil davomida AQShda yashagan bo'lsa, soliq deklaratsiyasi topshirish bo'yicha AQSh fuqarolariga tenglashtiriladi. Chet elliklar - norezidentlar, AQSh fuqarolari yoki rezidentlari bilan nikohda bo'lsa hisobot davrini (yilni) oxirida yuqoridagi guruh soliq to'lovchilariga tenglashtiriladi. Boshqa guruh chet elliklar - norezidentlar uchun deklaratsiya topshirish qoidasi AQShda qabul qilingan qoidadan farq qiladi. Agar chet ellik fuqaro AQShda hisobot yilini ma'lum vaqtidagina yashagan bo'lsa, unga soliq deklaratsiyasi topshirish tartibi maxsus o'rnatiladi.

Soliq deklaratsiyasini topshirishni AQShda oxirgi muhlati 15 aprel hisoblanadi. Agar bu muhlat dam olish kunlariga (shanba, yakshanba) to'g'ri kelsa, deklaratsiya topshirishni oxirgi kuni kelayotgan birinchi ishchi kuniga to'g'ri keladi. Agar soliq to'lovchi belgilangan vaqtda soliq deklaratsiyasini topshira olmasa maxsus hujjatni to'lg'azib FSXga topshiradi va muhlatini keyinga surishni iltimos qiladi. Soliq to'lovchi deklaratsiyada ko'rsatilgan soliq summasini bo'lib-bo'lib, keyinga muddatini surib to'lash huquqiga ham ega. Bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risidagi iltimosi bajarilgan taqdirda ham, vaqtda to'lanmagan summa yuzasidan jarima olinadi.

Daromad solig'ini hisoblash tartibi odatdagidek olib boriladi. Jami yalpi daromaddan, uni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar chiqazib tashlanadi va natijada sof daromad aniqlanadi. Shundan keyin sof daromad summasidan soliq engilliklari (standartli chegirmalar deb atalgan) va boshqa chegirmalar ajratiladi. Masalan, xayriya-ehsonga berilgan mablag', shtatlar va mahalliy byudjetlarga ajratilgan soliqlar, tibbiyot va stomotologiya xizmatlari uchun to'lovlar, tabiiy ofat oqibatini yo'qotish xarajatlari, o'qitish harajatlari va h.k. Natijada olingan summa soliq olinadigan daromadni tashkil qiladi.

Ayrim iqtisodchilarning hisob-kitobi bo'yicha amerikaliklar umumiy daromadidan o'rtacha 28% ni davlatga ajratadi. Ularning ta'kidlashicha, federal shaxsiy daromad solig'i past darajada progressiv bo'lib, soliq stavkasini chegarasi 15 dan 39,6 foizgacha bo'ladi. Garovga qo'yishdan olingan foiz, mol-mulk solig'ining summasi, shtat va mahalliy organlarni obligatsiyasidan olingan daromadlarga soliq solinmaydi. Bu esa o'z navbatida soliqlarni progressiv xarakterga egaligini barbod qiladi. AQShda shaxsiy daromad solig'ining yana bir xususiyati inflyatsiyani o'sish darajasiga qarab uni «indeksatsiya» qilinadi.

**AQShda federal daromad solig'ining stavkalari
(1997 yil)**

Soliq to'lovchilarning oilaviy ahvollari	Soliq solinadigan daromad (dollar)	Soliq summasi (dollar), \$
Yolg'iz (oilasiz)	0-24650	Soliq olinadigan daromaddan 15%
	24650-59750	3697,5+24650dan ortiq summadan 28%
	59750-124650	13525+59750dan ortiq summadan 31%
	124650-271050	33644,5+124650dan ortiq summadan 36%
	270050 va undan yuqori	86348,5+271050dan ortiq summadan 39,6%
Birgalikda deklaratsiya bergan nikohdagilar, (beva)	0-41200	Soliq olinadigan daromaddan 15%
	41200-99600	6180+41200dan ortiq summadan 28%
	99600-151750	22532+99600 dan ortiq summadan 31%
	151750-271050	38698,5+151750 dan ortiq summadan 36%
	271050 va undan yuqori	81698,5+271050 dan ortiq summadan 39,6%
Niqoh holatida, lekin deklaratsiyani alohida topshiradigan	0-20600	Soliq olinadigan daromaddan 15%
	20600-49800	3090+20600dan ortiq summadan 28%
	49800-75875	11266+49800 dan ortiq summadan 31%
	75875-135525	19349,25+75875 dan ortiq summadan 36%
	135525 va ukdan yuqori	40823,25+135525 dan ortiq summadan 39,6%
Oila boshlig'i	0-33050	Soliq olinadigan daromaddan 15%
	33050-85350	4957+33050 dan ortiq summadan 28%
	85350-138200	19601,5+85350dan ortiq summadan 31%
	138200-271050	35985+138200dan ortiq summadan 36%
	271050 va undan yuqori	83811+271050 dan ortiq summadan 39,6%

Buni amalga oshirishdan asosiy maqsad soliq to'lovchilarni narxning oshishi natijasida yuqori darajada soliq to'lovchilar guruhiga o'tib qolmasligidan iborat. Masalan, 5% li inflyatsiyada jadvalda ko'rsatilgan soliq solinadigan daromad hajmi bo'yicha har bir guruhni chegarasi 5% ga oshadi. Shuning uchun baho darajasi oshishi bilan soliq to'lovchi yuqori stavkada to'lamlasligiga olib keladi.

Soliq islohoti soliq to'lashdan bosh tortishga imkoniyat yaratadigan soliq qonunchiligidagi anchagina tuynuklarni yopgan bo'lsada, hali ularning ayrim turlari saqlanib qolmoqda. Yuqori daromadga ega bo'lgan ko'pgina har xil «darcha»lardan foydalanib, daromad solig'ining umumiy summasini keskin pasaytirishlari mumkin. Masalan, yuqori darajali daromadga ega bo'lgan kishilar soliq stavkasini 39,6% dan 0 foizga tushirishi mumkin. Buning uchun ular pullarini omonat kassalar depoziti va korporatsiyalarni obligatsiyasiga joylashtirmay, ularga shtat va maxalliy organlarni obligatsiyasini sotib oladilar, chunki shtat va mahalliy organlar obligatsiyasidan olinadigan daromad soliqqa tortilmaydi. «Yashirinchi iqtisod»ni daromadini ham yashirish imkoniyati mavjud. Kichik biznes egalari, naqd pul oladigan doktorlar, offitsiantlar ham daromadini yashirishi mumkin.

Daromadlar ichki xizmatini baholashiga ko'ra, soliq to'lashdan bosh tortish daromad solig'ini tushumini 20% gacha pasaytirishi mumkin. Lekin shuni aytish kerakki, 1986 yilgi soliq islohotidan keyin soliq stavkasini past chegarasi o'rnatilgandan keyin, soliq to'lashdan bosh tortish uchun omillar kamaydi.

8.3.2. Ish haqidan olinadigan soliqlar

Ijtimoiy sug'urtaga qo'yilmalar yoki ish haqi fondidan olinadigan soliq sug'urta badali bo'lib, majburiy sug'urta rejasi asosida to'lanadi. (Masalan, qarilikni sug'urta qilinishi - bepul tibbiy yordam berish davlat dasturi harakatdagi qonunchilikda belgilangan sotsial ta'minot hisoblanadi). Bu soliqlar ham ish beruvchilar, ham yollanma mehnat qiluvchi shaxslardan olinadi. Bu shuni anglatadiki, ish beruvchi har bir ishchiga, uning ish haqidan to'lanadigan soliq hajmida pul o'tqazadi.

Ijtimoiy sug'urta solig'i hamma ish haqiga emas, balki qonun bilan belgilangan uni bir qismiga solinadi (soliq bazasi yiligi 55 ming \$ gacha bo'lgan summani tashkil etadi). Soliq stavkasi 7,9%.

Ish haqidan olinadigan soliq ikki qismdan iborat, uning eng ko'p qismi qariyalarni sug'urta qilish, ishga yaroqsiz kishilarni va o'lim holatini

sug'urta qilishga ajratiladi. Bu soliq ish beruvchi va xizmatchilardan ish haqiga nisbatan 6,2% hajmda olinadi. Qolgan ikkinchi qismi (1,45%) bemorni shifoxonaga yotqizishini sug'urta qilishga ishlatiladi. Kontrakt, ya'ni shartnoma asosida ishlovchilar bir vaqtning o'zida ish beruvchilar va xizmatchilar uchun bu soliqni to'laydi, lekin, daromadining 92,35% idan soliq olinadi. Bu orqali ish beruvchini qismini soliqtan chegirib tashlangandek bo'ladi. 1994 yili bu soliqni birinchi qismi dastlabki 60600 dollar ish haqidan (o'rtacha ish haqi o'zgarishi bilan bu chegara indeksatsiya qilinadi) va ikkinchi qismi ish haqining hajmidan qattiy nazar hammadan ushlangan. Bir yilga 50000 dollar ish haqi oladigan xizmatchidan ijtimoiy sug'urta solig'i 7650 dollar hajmda olingan va uning yarmini ish beruvchi, qolganini esa xizmatchi to'lagan. Ko'p ishchilar uchun ijtimoiy sug'urta solig'i (ish beruvchi va ishchining ulushi, hissasi qo'shiladi) o'zining daromad solig'idan ko'p bo'ladi (ishchini shaxsiy daromad solig'iga nisbatan ulushining ancha past bo'lishiga qaramasdan). Misol tariqasida bir yilga 40000 dollar oladigan ishchini olamiz. Uning qaramog'ida xotini va ikkita farzandi bor. U to'rtta odam uchun soliq engilligi oladi va ish haqidan me'yoriy summani chiqazib tashlash amalga oshiriladi. Natijada ishchi 3578 dollar daromad solig'i to'laydi va uning ish beruvchi bilan to'lagan ijtimoiy sug'urta solig'i 6080 dollarni tashkil qiladi.

Ish haqidan olinadigan soliqni boshqa turlariga katta bo'lmagan ishsizlik solig'i (ish beruvchidan olinadi) hamda ijtimoiy sug'urta solig'iga o'xshagan eskirgan temir yo'llar uchun olinadigan soliq kiradi. 80 - yillari ijtimoiy sug'urta solig'i to'xtovsiz ko'tarilib bordi. Bu soliq har qanday chegirma va imtiyozlardan holis bo'ldi. O'rtacha va past ish haqi oladigan ko'pgina ishchi va xizmatchilar uchun bu soliqqa olinadigan summa, ularning shaxsiy daromad soliqlarini hajmiga yaqinlashdi va ayrim holatlarda oshib ham ketdi. XX asrning 80 – yillari mamlakatda soliqni kamaytirish shiori keng targ'ibot qilinganiga qaramasdan ijtimoiy sug'urta solig'ining oshib borishiga aholi sezilarli qarshilik ko'rsatmadi. Buning sababi shundaki, bu soliq orqali olingan yig'im qonun bo'yicha to'liq qariyalarga, nogironlarga, boquvchisini yo'qotgan oilalar va shu kabilarga berildi. Shuning uchun ijtimoiy sug'urtaga ajratma odamlar tomonidan qarilikni ta'minlash deb qabul qilindi. Haqiqatda ham shunday bo'ldi.

Ish haqiga solinadigan soliq regressiv hisoblanadi. Chunki uni kimningdir qat'iy belgilangan absolyut daromadiga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, 7,9% hajmda ish haqiga solinadigan soliq stavkasi 55 ming

dollar ish haqi shaklidagi daromadga qo'llangan. Shunday qilib, 55 ming dollar oladigan kishi 4345 dollar yoki 7,9% daromadini to'lashi kerak. Shu vaqtning o'zida 110 ming dollar yoki ikki barobar ortiq daromad oladigan kishi ham soliq sifatida 4345 dollar to'laydi. Bu esa uning daromadini 3,95%inigina tashkil qiladi.

Rasmiy nuqtai-nazardan qaralganda soliqlarni to'lash «o'z xohishiga ko'ra» tamoyiliga asoslangan. Bunday xulosa to'liq haqiqatga to'g'ri keladi deb aytib bo'lmaydi. Bir tomondan, mamlakatning faoliyat ko'rsatayotgan aholisi har yili soliq deklaratsiyasini to'ldiradi. Unda batafsil tarzda bir yilda olingan daromad va to'lash uchun hisoblangan soliq hajmi ko'rsatilib boriladi. Ikkinchi tomondan, fuqaroni soliq to'lash majburiyati aniq qilib qonunda belgilab qo'yilgan. Shuning uchun «o'z hohishi bilan» soliq to'lashdan bosh tortish, yoki daromadning bir qismini yashirish jazo choralarini qo'llashga, jumladan, ozodlikdan mahrum qilishgacha olib keladi. «O'z hohishi bilan» tamoyili bu erda shunday tushuniladiki, davlat moliya organlari orqali daromadni hisoblab o'tirmay, nazorat qilish funksiyasini o'zida saqlab qoladi va hisoblash ishlarini soliq to'lovchining o'ziga qoldiriladi.

Lekin, amaliyotda yollanib ishlovchi shaxslarni daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta solig'i ish beruvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ish haqi va maoshidan ushlab qolinadi. Bu vaqtda tadbirkorlar har bir ishlagan kishiga maxsus kvitantsiya beradi va unda ish haqining hajmi va ushlangan soliq summasi ko'rsatiladi. Kvitantsiyalarni yana bir nusxasi soliq boshqarmasiga jo'natiladi va moliya vazirligi tomonidan nazorat qilinadigan soliq sifatida olingan summa federal soliq depozitiga (maxsus bank hisob raqami) o'tqaziladi. Hozirgi vaqtda soliq depozitlari orqali 70% ga yaqin hamma turdagi federal soliqlar (shu jumladan 100% ijtimoiy sug'urtaga solinadigan soliqlar) yig'iladi.

Joriy yili yalpi daromadi eng kamida 20 ming dollar, shu jumladan, ish haqidan tashqari boshqa manbalardan 500 dollar olishni mo'ljallagan shaxslar, har bir chorak shu summadan daromad solig'ini to'lashlari kerak.

Davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'tgan kalendar yili uchun pirovard hisob-kitob har yili 15 apreldan kechiktirilmagan holatda amalga oshiriladi. (Shu muhlatgacha barcha mustaqil faoliyat ko'rsatayotgan shaxs yakuniy soliq deklaratsiyasini to'ldirib soliq boshqarmasi adresiga jo'natishga majburdir("1040-shakl")). Bunda manbalardan olingan daromad, har xil chegirmalar, yakuniy daromad solig'ining hajmi,

oldindan to'langan va ushlab qolingan soliq summalari batafsil ko'rsatiladi.

Yollanib ishlovchi soliq to'lovchilar "1040- shakli"ga qo'shimcha ravishda ish beruvchidan olingan eslatilgan kvitantsiyani nusxasini qo'yadilar. Bunda daromadni hajmi va undan ushlangan soliqlar ko'rsatiladi.. Bu "1040- shakli"ni soliq to'lovchi jo'natishi bilan bir vaqtni o'zida, daromad solig'idan mavjud bo'lgan qarzini ham to'lashi kerak. Soliq to'lovchini haqiqiy to'lagan summasi bir yilga davlat oldidagi uning majburiyatidan oshib ketishi ham tez-tez uchrab turadi. Bu tafovut faqat yakuniy deklaratsiya tuzilgandagina aniqlanadi. Shunday hollarda soliq boshqarmasi 6-8 hafta ichida ortiqcha to'langan summani qaytaradi. Bu mablag'lar ba'zi yillari yalpi yig'imni 6-7% ini tashkil qiladi.

Shunday qilib, hajmi va ko'lami bo'yicha daromad solig'i AQShda eng ko'p tarqalgan soliq bo'lib qoladi.

8.3.3. Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq

Bu soliq uchinchi yirik federal solig'i hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda avval qo'llanilgan dividendlarni iqtisodiy ikki tomonlama soliqqa tortish qisman chegaralandi. Korporatsiyalar aksionerlarining daromadini bu tartibda soliqqa tortish aksiyalarga mablag' qo'yishni ma'lum darajada chegaralar edi.Ushbu soliqning byudjet daromadidagi solmog'i tushib borishi, keyingi yillarida uning asosiy xususiyati bo'lib qolmoqda. Masalan, 1960 yili -24 %,1990-9,1 % va 1992 yil -8,7 % ga tushishi kuzatildi. Soliq salmog'ini tushib borishi qonuniy asosi sifatida uning stavkasini pasaytirish, korporatsiyalar uchun qator engilliklar kiritish, uskunalarga nisbatan tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llashdan foydalanish va natijada tezlashtirilgan amortizatsiya normasini qo'llash sabab bo'ldi.

Soliq solishda yangi yo'nalish kelib chiqqanligini ta'kidlab o'tish kerak.

Boshqacha qilib aytganda, byudjet daromadida tayanch bo'lgan shaxsiy daromad solig'i bilan bir qatorda korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliqni fiskal roli oshib bormoqda. Boshqa soliqlar kabi korporatsiya foydasiga solinadigan soliqda ham, birinchi navbatda, soliq solinadigan daromad aniqlanadi.

Amerika korporatsiyalarini soliq solinadigan daromadi quyidagi shaklda belgilanadi.

Солиқ солинадиган даромад = ялпи даромад - одатдаги чегирма - махсус чегирма
--

Yalpi daromad quyidagilarni o'z tarkibiga oladi:

- tovarlarni sotishdan olinadigan yalpi tushum;
- xizmat ko'rsatishdan olingan yalpi tushum;
- dividendlar (hamma summasi yalpi daromadga qushiladi);
- renta to'lovi va royalti;
- kapitalni o'sishidan olinadigan daromad;
- sotishdan olinadigan boshqa daromadlar (zararlar).

Yalpi daromaddan chiqariladigan odatdagi chegirmalar quyidagilardan iborat:

- ish haqi;
- ta'mirlash harajati;
- umidsiz qarzlarni (qarzni qaytarmaslik holatlarida);
- renta to'lovlari;
- mahalliy soliqlar va shtat soliqlari;
- kreditlar bo'yicha beriladigan fondlar;
- hayr- ehsonga ajratmalar;
- amortizatsiya (qayta ishlash sanoatida);
- resurslarning qamayishi chegirmasi (qazib oluvchi sanoat);
- reklama harajati;
- reklamaga ajratma;
- pensiya fondiga ajratma va foydani taqsimlashda qatnashuvchi ishlovchilarga ajratma;
- ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazish harajatlari;
- zararlar.

Odatdagi chegirmadan tashqari yalpi daromaddan operatsion zararlar, olingan dividendlardan 85% (ayrim vaqtlarda 100%) va boshqa maxsus chegirmalar chiqarilib tashlanadi.

Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq aniqlangan soliq solinadigan daromadga belgilangan stavkani qo'llash yo'li bilan hisoblanadi. 1986 yilgi soliq islohotida korporatsiya foydasiga solinadigan soliqni yuqori stavkasini bekor qilindi va uning progressiya darajasi kamaytirildi. Yuqori stavkasi 1987 yil 1 iyuldan 46%ga va 1988 yil 1 iyuldan 34%ga tushirildi. Soliq stavkasi soliq solinadigan daromadni hajmiga qarab tabaqalashtiriladi. AQShda korporatsiya foydasiga solinadigan soliq bosqichma-bosqich tarzida beriladi. Korporatsiya birinchi 50 ming dollar soliq solinadigan daromaddan 15% va 25% keyingi 25 ming dollardan va

qolgan summasidan 34% to'laydi. Undan tashqari 100ming dollardan 335 ming dollargacha daromaddan 5% qo'shimcha yig'im olinadi. Ushbu bosqichlik soliq solish o'rta va kichik korxonalar uchun juda katta ahamiyatga ega. Oxirgi davrda soliqning eng yuqori stavkasi qonun asosida 35% qilib belgilangan.

Hisoblangan soliq summasidan baholangan soliq to'lovlari chiqazib tashlanadi.

Yuqoridagi aytilgan to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1. Qo'shimcha ishchi o'rinini tashkil qilganligi uchun rag'batlantirish soliq krediti, soliq solish ob'ektiga kirmaydigan maxsus maqsadlarga ishlatiladigan benzin, maxsus yoqilg'i, moylash materiallari bo'yicha federal aktsizlarga beriladigan soliq krediti.

2. Ilmiy-tekshirish, tajriba va konstruktorlik ishlari (ITTKI) o'sishi uchun chegirma shaklida beriladigan kredit.

Investitsiya soliq krediti 1986 yili qisqartirilgan. Ayrim tijoratga aloqasi bo'lmagan tashkilotlar, shu jumladan, diniy, hayriya-ehson, o'qitish, davolash tashkilotlari, savdo assotsiatsiyalari, kasaba birlashmalari korporativ soliqdan ozod qilinganlar. Lekin bu tashkilotlarni asosiy faoliyatidan tashqari ishlari soliqdan ozod qilinmaydi. Korporatsiyalar joriy daromadlari yoki ayrim hollarda o'tgan yil daromadini hisobga olgan holda soliqni chorak bo'yicha to'laydi. Soliq deklaratsiyasi to'lg'azilganda o'zlarining soliq majburiyatlarini, to'langan soliq summasi bilan solishtiradilar.

Korporatsiyani foydasiga solinadigan federal soliq, shuni taqozo etadiki, korporatsiya egalari (aktsiyani ushlab turuvchilar) soliqni hamma og'irligini ko'taradilar. Soliq masalalari bo'yicha ayrim ekspertlarning aytishicha, soliq og'irligini ozgina qismini mahsulotga yuqori baho belgilash orqali ist'emolchilar zimmasiga yuklatiladi. Ist'emolchiga o'tkazilgan soliqning bir qismi sotishdan olinadigan soliqqa o'xshash regressiv xarakterga ega.

Mamlakat iqtisodini «reindustrializatsiya» qilishni «rag'banlashtirish» maqsadida ayrim ekspertlar davlatni soliq tizimini qaytadan tashkil qilishni tavsiya qilmoqdalar. Ularning fikricha, asosiy dalil bo'lib, oxirgi o'n yillar ichida AQShda Yaponiya va Germaniya Federativ Respublikasi hamda boshqa rivojlangan mamlakotlarga nisbatan ishchilarning mehnat unumdorligini tushib ketganligi ko'rsatiladi.

8.3.4. Boshqa soliqlar

AQShda federal ist'emol solig'i yoki sotishdan olinadigan soliq yo'q. Lekin, har xil aktsiz soliqlari mavjud. 1993 yili federal hukumat 48,1 mlrd dollar (yoki ichki yalpi mahsulotga nisbatan 0,8%) aktsiz soliqlarini to'pladi.

Asosiy federal aktsizlar ichimlik, chekish mahsulotlari, asosan avtostrada yullar va aeroportlar fondiga taa'luqli benzin, boshqa yoqilg'ilar solig'i va telefon xizmati uchun soliqlardan iborat.

Telefon aktsizi keng tarqalgan federal soliq hisoblanadi. Chunki, aholi istiqomat qiladigan uylarning 94% telefon aloqasiga ega. Telefon solig'i ijtimoiy sug'urta solig'iga nisbatan ko'proq odamlarga to'g'ri keladi.

AQShda neftdan olinadigan ekologiya aktsizi chegaralangan holatda foydalaniladi: har bir barel neftdan 14,7 tsent olinadigan aktsiz xavfli materiallar va neft to'kilib ketganda undan ko'rilgan zararni moliyalashtirish superfondiga ishlatiladi.

AQShda atmosferani ozon qatlamini buzuvchi ayrim kimyoviy modda - materiallarga ham soliq solinadi. Ushbu ekologik soliqlar 1993 yili 2 mlrd. dollarga yaqin mablag'ni tashkil qildi. AQShda atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi uglerod bilan oltingugurt qo'shilmasi bo'yicha soliq olinmaydi.

AQSh hukumati maxsus aktsiz bilan reklama aktsizini oladi. Maxsus aktsizlar o'z tarkibiga bir gallon benzindan 18.4 tsent (xalqaro standartlardan ancha past) olinadigan soliqni, bir pachka sigaretdan olinadigan 24 tsent soliqni, bir gallondan 13,5 dollar sof alkogoldan olinadigan soliqni va AQSh hududidan chiqib ketishi uchun har bir kishidan olinadigan 6 dollar soliqlarni oladi. Reklama aktsizini misoli sifatida 3% li telefon solig'i, 10 foizli ichki aviatsiya yuki tashish va yuk tashish mashinalarini pritseplari uchun 12 foizli soliqlar xizmat qiladi.

1989 yilda er-mulklarning 1,1% unifikatsiyalashtirilgan soliq asosida soliqqa tortilgan. Bu soliq sovg'a va vafotidan keyin hadyani boshqa shaxsga o'tkazish soliqlari ularning hajmidan 37 dan 55 foizgachasini tashkil qiladi. Agar sovg'a tariqasida berilsa soliqni chiqazib tashlash metodi, vafotidan keyin hadyani boshqa shaxsga o'tkazish bo'lsa, soliqni qo'shish metodi qo'llanadi. Bu esa vafotidan keyin hayriya yordami deb tushuniladi. Soliq kumulyativ (to'planib ta'sir qiluvchi) bo'lganligi uchun, kredit o'tgan yili to'langan soliq uchun beriladi. Unifikatsiyalashtirilgan (bir xillashtirilgan) kredit 192000 dollar hajmda bo'lsa, 600000 dollarni

sovg'a tariqasida o'tkazishga imkoniyat beradi va qolgan qismi yer-mulk (imenie) solig'iga tortiladi.

Umumlashtirilgan kreditga qo'shimcha ravishda donorlar 10000 dollargacha (er-xotin 20000 dollargacha) ehson (hadya) qilsa, ularga har yili soliqdan ozod qilish tartibi qo'llanadi.

Er-xotin bittasi ikkinchisiga hadya yoki vasiyat qilsa yoki hayr-ehson qilsa, soliq umuman solinmaydi.

AQShda yer mulkiga (imenie) soliq bazasini saqlab qolish maqsadida, oldingi avlod, masalan, nevaralarga vakolatnoma bersa yoki to'liq o'tqazsa, uning hajmidan 55% soliq olinadi. Agar bir odamga bir million dollargacha o'tqazilsa soliq solinmaydi.

Bojxona boji Federal byudjetning arzimagan daromadini tashkil qiladi. 1992 yili 1,7% dan iborat bo'lgan va uzoq davr vaqtida ko'payish va kamayish tomonlariga o'zgarmagan. Bu soliqni asosiy maqsadi ayrim tovarlar va mamlakatlar uchun savdo proteksionizmini qo'llashdan iborat.

8.4.Shtatlarning soliq tizimi

Shtatlar hukumati maorif, ijtimoiy farovonlik, sog'liqni soqlash, shifoxona, avtomagistrallar, ijtimoiy xavfsizlik va boshqa xarajatlarini moliyalashtiradi.

Bu xarajatlarni moliyalashtirish ham, asosan soliq daromadlari hisobiga amalga oshiriladi.

AQShda soliq tushumining 1/4 qismi shtatlarga to'g'ri keladi. Ko'pchilik shtatlar o'zlarining daromad soliqlarini, korporativ soliqlarini, sotishga solinadigan soliq va mol-mulkni o'tkazish soliqlarini yig'adilar. Shaxsiy daromad solig'i 43 shtatda va korporativ solig'i 44 shtatda olinadi. Michigan shtatida, masalan, korporativ soliqni qo'shilgan qiymat solig'iga almashtirishdi. Texas shtatida korporativ imtiyozli soliqqa daromadning bir qismini qo'shib, uni kvazikorporativ daromad solig'iga aylantirishdi. Sotishdan olinadigan soliq 45 shtatda qo'llaniladi. Alyaska va Nyu-Gempshirda shaxsiy daromad solig'i va sotishga solinadigan soliqni olmaydilar.

AQShda mol-mulkka qo'llaniladigan asosiy soliq xususiy mulkka solinadigan soliqdan va asosan ko'chmas mulkka solinadigan soliqdan iborat. Shtatlarni daromad soliqlari odatda federal soliqlarni qisman o'zgartishlar bilan qaytaradi. Shaxsiy daromad solig'i bo'yicha qo'pchilik shtatlar federal solig'iga moslashadilar. Shtatlarda me'yoriy ajratish,

shaxsiy engilliklari va soliq jadvali to'g'risida o'zlarining nizomlarini ishlab chiqadilar. Qator shtatlar daromadni aniqlashda kengroq tushuncha qo'llaydilar. Shtatlarni daromad solig'i federal soliqni hisoblashda chegirib tashlanganligi sababli soliq to'lovchilarga shtat solig'i kamayadi. Ko'pchilik shtatlar soliq amortizatsiyasi bo'yicha o'zlarining qoidalarini ishlab chiqqanlar. Korporativ soliq oluvchi 44 shtatda soliq me'yoriga va soliq jadvaliga keskin ravishda bir-biridan farq qiladigan turli variantlar qo'llanadi. 16 shtat shaharlarga daromad solig'i olish uchun ruxsat bergan. Mahalliy soliqlarning ko'pchilik qismi ishlab topilgan daromaddan olinadi. Merilend okruglari va Ayovani maktab okruglari o'zlarining shaxsiy soliqlarini shtat solig'idan foiz tariqasida oladilar.

Nyu-Yorkda daromaddan 3,4% gacha progressiv soliq ushlanadi.

Shtat va mahalliy organlar hokimiyati, hukumat tomonidan soliqqa tortiladigan sub'ektlardan soliq oladilar. Shtatlar va mahalliy organlarda umuman mamlakatdagi kabi to'g'ri soliqlar asosiy o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda shtat va mahalliy organlarni 60%dan ortiq hamma soliq tushumlari to'g'ri soliqlarni tashkil qiladi.

8.6.-jadval

**Shtatlarda soliq turlari bo'yicha soliq tushumining tarkibi
(foiz hisobida)**

Soliq turlari	Salmog'i (%)
1. Sotishdan olinadigan umumiy soliq	32
2. Aholidan olinadigan daromad solig'i	30
3. Eqilg'idan olinadigan aktsiz	6,3
4. Tamakidan olinadigan aktsiz	2,0
5. Spirtlik ichimliklardan olinadigan aktsiz	1,6
6. Transport egalaridan olinadigan soliq	3,5
7. Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq	7,9
8. Mol-mulk solig'i	2,0
9. Meros va sovg'adan olinadigan soliq	1,0
Jami	100

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, salmog'i bo'yicha asosiy o'rinni sotishdan olinadigan soliq va aholidan olinadigan daromad soliqlari egallaydi. Sotishdan umumiy tanlab olinadigan soliq shu shtat hududida sotiladigan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlarning chakana bahosi ustiga qatiy

belgilangan ustama haq hisoblanadi (soliqning hajmi albatta har bir savdo chekida va xizmatlar uchun kvitantsiyada ko'rsatiladi). Sotishdan olinadigan soliqni mamlakat bo'yicha o'rtacha salmog'i 4%dan ozgina yuqori bo'ladi. Soliq solish ob'ekti sifatida tovarlar aylanishini har bir bosqichidan yalpi tushum olinadi. Soliq stavkasi chakana bahoga nisbatan belgilanadi va shtatlarga qarab o'zgaradi. Eng past stavkasi - 3% va eng yuqori stavkasi - 7,5%.

Tovarlarga solinadigan egri soliq yoki ist'emolga solinadigan soliq sotishga solinadigan soliq yoki aktsiz solig'i shaklini olishi mumkin. Ikki turdagi soliqlarning bir-biridan farqi ularning mazmunida, qo'llaniladigan sohalarida aks etadi.

Sotishdan olinadigan soliq keng doiradagi mahsulotlarga qo'llanishi mumkin, aktsiz solig'i esa ko'p bo'lmagan, tanlangan mahsulotlar guruxini qamrab oladi. Federal hukumat umumiy sotishdan olinadigan soliqni undirmaydi, bu soliq deyarli hamma shtatlar hukumati daromadining asosiy manbai hisoblanadi. Ko'pchilik shtatlar oziq-ovqatga va retsept bilan beriladigan dorilarga bu soliqni qo'llashmaydi. Sotishdan olinadigan umumiy soliq, 3 foizli chegirmani bilan birinchi ko'rinishda proporsional soliqqa o'xshaydi. Lekin, haqiqatda daromadga nisbatan regressiv hisoblanadi. Soliqning regressivligi sababi shundaki, sarmoyador shaxs daromadiga nisbatan u kam daromadli shaxsni daromadini deyarli hammasini qamrab oladi. Sarmoya egasi daromadini bir qismini omonatga qo'yib soliqdan olib qolishi mumkin, kam daromadli esa buni qilolmaydi. Misol: kam daromadli Frank 20 ming dollar daromadga ega va uning hammasini sarflaydi. Sarmoyador Djonson esa 40 ming dollar daromadga ega lekin undan faqat 20 ming dollarni sarflaydi. Faraz qilaylik 3 foizli sotishdan olinadigan soliq stavkasini har birini alohida shaxsiy xarajatiga qo'llasak, Frank soliq sifatida 600 dollar to'lashi kerak (20 ming dollardan 3%). Djonson esa umumiy daromadidan 1200 dollar (40 ming dollardan 3%) to'lashi kerak edi. Amalda esa Frankni 20 ming dollarli hamma daromadi, Djonsonni esa faqat yarim daromadi soliqqa tortiladi. Djonson ushbu soliqni 600 dollar hajmida to'laydi, yoki 40000 dollardan faqat 1,5% to'laydi. Shunday qilib sotishdan olinadigan umumiy soliqning regressiv ekanligini ko'rib turibmiz. Sotishdan olinadigan soliqni qo'shilgan qiymat soliq (QQS) bilan almashtirish to'g'risida takliflar mavjud bo'lib, bu takliflar hozirda muhokama qilinmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, QQS muhim daromad manbai bo'lishi bilan bir qatorda ist'emolni chegaralaydi. Mablagning ko'p qismini ist'emolga

emas, jamg'armaga yo'naltirib, QQSni to'lashdan qutulish mumkin. Yana shu ma'lumki, jamg'arma (ist'emoldan bo'shagan mablag') iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish uchun kerakli resurslarni bo'shatadi va ularni ishlab chiqarishga yo'naltiridigan tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanishga imkoniyat yaratadi. Buning natijasida QQSni tadbiiq qilish, mutaxassislarni fikricha, milliy daromad tarkibini ist'emoldan investitsiyaga o'tish yo'li bilan o'zgartiradi. Natijada mehnat unumdorligi o'sadi va «raqobatbardosh afzallik, ustunlik» tiklanadi.

Maxsus (o'ziga xos) aktsizlar hamma soliq tushumlarini 3% ni tashkil qiladi. Bu aktsizlar sigaretlar, benzina va ayrim shtatlarda avtomobil va boshqa tovarlarga solinadi. Benzina solinadigan soliq Missuri shtatida bir gallon yoqilg'i uchun 7 tsentni tashkil qilsa, Vashingtonda 18 tsentdan iborat. Shu bilan bir qatorda 14 tsentlik baho ko'proq tarqalgan. Soliq stavkasi ko'tarilib boradi va doimiy ravishda qaytadan ko'riladi. Alkogolga solinadigan soliq qator shtatlarda ulgurji sotish summasidan olinadi (Gavayya shtatida 20%) yoki chakana sotishdan (Alabama shtatida 48%, Ayova shtatida 15%, Michiganda 9,85%). Qator shtatlarda soliq qat'iy belgilangan summada dollar xisobida har bir gallon ichimlikdan olinadi. Alkogol, benzin va boshqa mahsulotlar bo'yicha olinadigan aktsiz shtatlar byudjetiga har yili 3 mlrd.dollarga yaqin daromad beradi. Aktsiz solig'iga o'tmagan shtatlarda olinadigan soliq turlariga mineral resurslar, neft, tabiiy gaz, ko'mir, o'rmon mahsulotlaridan olinadigan qazib olish solig'i kiradi. Mamlakat bo'yicha shtatlarni o'rtacha 3% daromadini tashkil qiladi. Alyaska, Luiziana, Oklaxoma, Texas va Nayoming shtatlarida 18-25% tashkil qiladi.

Atrof-muhitni sanoatning zararli chiqindilaridan muhofaza qilishga qaratilgan yangi soliqlarni alohida guruhga ajratish zarur. Bu soliqlar deyarli yaqinda, XX asrning 80-yillarda tadbiiq qilingan. Hozirgi davrda AQShda «ekologiya solig'i»ni kiritish bo'yicha yangi qonunchilik takliflari kiritilgan. Moliya bo'yicha ekspertlarning fikricha, kelajakda federal byudjetga turli xil «ekologiya soliqlari»dan havo va suvlarni ifloslanishi, har xil zararli chiqindilar bilan bog'liq tushumlar ko'payib boradi. Amerika iqtisodida bu soliqlardan keladigan tushumlar kamtarlik xususiyatiga ega. Lekin jamiyat uchun atrof-muhitni yuqori darajada toza tutishga rag'batlantirish katta ahamiyatga ega. Masalan, chiqindilarga solinadigan soliq odamlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish uchun kompaniyalarni nazoratining samarali usullarini qo'llash va yangi texnologiyalarni tatbiiq qilishga undaydi. Shuni qayd qilish kerakki, faqat

zaharli chiqindilarni chiqazib tashlash emas, balki yer (tuproq qatlamiga o'tib ketadigan zaharli moddalar ham soliqqa tortiladi. Ushbu soliqni tatbiq qilish tajribasini o'rganish kerak va bu boshqa mamlakatlar uchun ham foydalidir.

Shtatlarni ikkinchi muhim daromad manbalari sifatida shaxsiy daromad solig'i xizmat qiladi. Bu soliq o'zining tarkibi bo'yicha federal soliqqa o'xshaydi, lekin stavka darajasi engilliklar tizimi va chegirib tashlash turlari bo'yicha farq qiladi. Shtatlarda aholining daromadini soliqqa tortish yagona sxema asosida amalga oshiriladi. Lekin ularning stavkalari va soliq yangilliklari shtatlarda har xil. Masalan, eng past stavkasi o'rtacha 2-4%, yuqorisi (Gavayi, Shimoliy Dakota shtatlari)-10-12%, o'rtacha stavka 6-7% va undan past bo'ladi. Ko'pchilik shtatlarda soliq stavkalari darajalarga bo'lingan, lekin progressiya sezilarli darajada emas va 10-15 ming dollar daromaddan umuman yo'qotiladi. Shuning uchun past va qisman o'rtacha daromadga soliq solish progressiyaga ega bo'lsa, yuqori daromadlarni soliqqa tortishda progressiya umuman yo'qoladi. Aholidan daromad solig'ini olish tartibi joylarda juda murakkablashgan. Chunki hokimiyatlar soliq solinadigan ob'ektni har xil belgilaydilar. Masalan, ba'zilar o'zining shtatini fuqarolari daromadini, hududiy kelib chiqishidan qat'iy nazar soliqqa tortadilar, boshqalari esa soliqqa shu shtatda olingan daromadni, uchinchilari esa unisini ham, bunisini ham tortadilar.

Shtatlarda aholidan olinadigan daromad solig'ining stavkasi, qoida bo'yicha federal daromad solig'ining eng past stavkasini darajasiga ham etmaydi, ma'lum darajadagi daromadga qo'llaniladigan stavka federal stavkadan anchagina past. Har bir shtatda soliq to'lovchiga soliq olinmaydigan minimum qo'llaniladi va soliq oila boshlig'iga solinsa, minimum summasi ikki barobar ko'payadi. Soliq olinmaydigan minimum qaramog'idagi har bir shaxsga beriladi. Soliq olinmaydigan minimumning hajmi shtatlar bo'yicha 900 dollardan (shtat Nyu-York) 6000 dollargacha (shtat Missisipi) belgilingan. Mahalliy soliq solish tizimining muhim xususiyati shundan iboratki, shtat va mahalliy organlarni byudjetiga to'langan mahalliy daromad solig'i soliq to'lovchini federal daromad solig'i bo'yicha majburiyatidan ayirib tashlanadi. Tizimning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, soliq solinmaydigan minimumni har yili soliq indeksatsiyasi bilan bog'lanadi va soliq solish chegarasi inflyatsiyani hisobga olgan tarzda qaytadan ko'riladi. Bu tadbirlar keng miqyosdagi soliq to'lovchilarni manfaatini qo'llab-quvvatlaydi.

Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq mahalliy organlar hokimiyatini 7,9% soliq tushumini tashkil qiladi. Soliqlarning bu turi korxonalar va ishlab chiqarishni, shu jumladan, ekologik zarar keltiruvchi korxonalarni ushbu shtat va mahalliy organlar hududida joylashishiga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi qurol sifatida ishlatiladi. AQSh ni mahalliy qonunlariga binoan korporatsiya foydasiga solinadigan soliq 44 shtatda olinadi. Soliq solish stavkasi AQShda o'rtacha 6,0%ni tashkil qilsa, Michiganda 2,35% dan Konnektikutda 11,5% gacha boradi. Federatsiya korporatsiyaga solinadigan solig'i bo'yicha soliq majburiyatini hisoblash jarayonida undan shtat va mahalliy organlar byudjetiga to'langan foydaga solinadigan soliq chiqazib tashlanadi. Ayrim shtatlarda mahalliy foydaga solinadigan soliq bo'yicha soliq majburiyatini hisoblash jarayonida federal foydaga solinadigan soliq chegirib tashlanadi.

Merosdan olinadigan soliq 36 shtatda qo'llanadi. Meros beruvchi va merosni oluvchilarni bir-biriga qarindoshlik darajasiga qarab soliq stavkasi tabaqalashtiriladi. Agar xotini, farzandlari va ota-onalari merosni olsalar, soliq stavkasi 1%dan 16% gacha qo'llanadi. Meros oluvchi meros beruvchiga qarindosh bo'lmasa stavka 3 dan 30% gacha qo'llanadi. Agar meros oluvchilar singlisi yoki akalari bo'lsa, yuqoridagi stavkalarining o'rtasi qo'llaniladi. Meros bo'yicha soliq stavkasi shtatlar bo'yicha ham o'zgaradi. Masalan, shimoliy Karolina shtatida, vafot etgan kishining turmush o'rtog'i, bolasi, ota-onalari olingan merosdan 1dan 12 foizgacha, vafot etgan kishiga qarindosh bo'lmaganlardan 8-17 foizgacha olinadi (eng yuqori stavka 3000 ming dollardan ortiq bo'lgan merosga qo'llanadi). Men shtatida yuqoridagiga to'g'ri keladigan stavkalar 5-10% va 14-18% ni tashkil qiladi. Bu soliqni olishda soliq olinmaydigan minimum belgilangan. Konnektikut shtatida, masalan, marhumni rafiqasidan 300 ming dollargacha va qator shtatlarda rafiqasi merosdan olinadigan soliqdan to'liq ozod qilinadi. Qolgan shtatlarda merosdan olinadigan soliqning boshqa xili (turi) o'rnatilgan. U egasi vafot etgandan keyin qoldirilgan mulkning qiymatidan olinadi. Soliqning hajmi qoldirilgan mulkni kattakichikligiga bog'liq, unga qarindoshchilik darajasi ta'sir qilmaydi (meros rafiqasiga qoldirilgandan tashqari holatlarda).

Aynan shu holda, har-xil shtatlarda soliq turlaridan foydalanishda katta tafovutlar mavjudligini eslatib o'tish joizdir. Shunday qilib, shaxsiy daromad solig'i hamma shtatlar byudjetining asosiy daromadi bo'lib qolishiga qaramay, to'rtta shtatda shaxsiy daromad solig'i qo'llanilmaydi.

Shu bilan bir qatorda shtatlar o'rtasida soliqning kelib tushishi va xarajatlar bo'yicha katta tafovutlar mavjud.

Shtat va mahalliy organlar darajasida yig'iladigan soliqlar doimiy ravishda ularni harajatlarini qoplashga yaqqol etishmaydi. Bu etishmovchiliklar qo'pchilik holatda mablag'larni qaytadan taqsimlash yoki federal hukumatning subsidiyalari bilan qoplanadi, ko'pchilik holatda 15% dan 20% gacha shtatlarni va mahalliy organlarni daromadlari federal byudjetdan olingan mablag'lardan tashkil topadi. Federal subsidiyaga qo'shimcha ravishda shtatlar ham mahalliy hokimiyat muassasalariga subsidiyalar beradi. Hukumatlararo mablag'larni qayta taqsimlashning bunday tizimi fiskal federalizmi deb ataladi.

Federal byudjet taqchilligi to'g'risidagi bezovtaliklar federal subsidiyalarni kamayishiga, shtatlar va mahalliy hokimiyatlarni soliq stavkalarini ko'tarishiga, yangi soliqlarni kiritish va harajatlarini kamaytirishga majbur qila boshladi.

8.5.Mahalliy soliqlar

Mahalliy hokimiyat organlarini harajatida asosiy o'rinni maorif harajatlari (40%dan) egallaydi. Undan keyin farovonlik, sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, uy-joy, ijtimoiy xavfsizlik va transport harajatlari turadi.

AQShda 83 ming ma'muriy birlik (19 ming munitsipalitet ,17 ming shahar o'z-o'zini boshqaruv organlari, 15 ming maktab okruglari, 29 ming maxsus tumanlar, 3 ming okruglar) mavjud bo'lib, mahalliy soliqlar tarkibi va stavkalarini AQShda va qator g'arb davlatlarida tahlil qilish, ularni to'rt guruhga tasnif qilishga imkoniyat beradi.

Birinchi guruh– faqat shu hududda yig'iladigan soliqlar. Bunga to'g'ri va egri soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlardan asosiylariga mol-mulk solig'i, meros va hadyalardan olinadigan mahalliy soliqlar kiradi. Eg'ri soliq solish juda ko'p qirrali hisoblanadi. Eg'ri soliqlar universal aktsizlar yoki sotishdan olinadigan soliq, maxsus aktsizlardan iborat. Ikkinchi guruh - mahalliy soliqlar ma'lum hajmda mahalliy byudjetga ajratiladigan umumdavlat soliqlariga ustama hisoblanadi. Moliyaviy mazmuni jihatidan bu ustama mahalliy soliqlardan moliya resurslarini yo'naltirish shakli bo'yicha ajralib turadi.

Uchinchi guruh - bu transport vositalari, tomosha, mehmonxona soliqlari, kommunal yig'im va boshqalardan iborat.

Nyu-Yorkda, masalan mehmonxonada yashash solig'i 1991 yili yashash qiymatining 19% ini tashkil qildi. AQShda ist'emol soliqlari tarkibida quyidagi soliqlarni belgilash mumkin: avtomashinani ro'yhatga olish solig'i, avtomobillarni turar - joyga qo'yish solig'i, yoqilg'iga solinadigan aktsiz, avtostradalardan foydalanganlik uchun soliq. Oxirgi soliq shtat va shahar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi. Soliq stavkasi avtomobilni og'irligiga qarab belgilanadi.

To'rtinchi guruh- mahalliy soliqlar fiskal xarakterga ega bo'lmay, mahalliy boshqaruv organlarini siyosatini aniqlaydi. Bu guruhga atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologiya solig'i kiradi. Nyu-Yorkda suv havzalarini neft dog'laridan tozalash solig'i qo'llaniladi. Korporatsiyalar o'z faoliyati natijasida paydo bo'ladigan «tavakkalchilik» chiqindilari bo'yicha ham soliq to'laydilar. Suyuqliklarni saqlashga mo'ljallangan, ikkinchi marta foydalanilmaydigan idishlarni ishlab chiqarganligi uchun kompaniyalar maxsus soliqqa tortiladi. Bu yerda gap konserva bankalari va boshqa idishlar to'g'risida bormoqda. Mahsulot ishlatilgandan keyin idishlar chiqindi sifatida tashlanadi.

Shunday qilib, mahalliy byudjetlarda mahalliy aktsiz osti solig'i, shaxsiy daromad solig'i, korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalar, sotishdan olinadigan umumiy soliq, aktsizlar, ekologiya solig'i, meros va xadyalardan olinadigan, transport vositalaridan yig'im, mol-mulk solig'i, litsenziya va vizalar berish solig'i va boshqalar kelib tushadi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini (okrug, munitsipalitet, tuman, maktab tumani) hammasida byudjetni asosiy daromadini mol-mulk solig'i tashkil qiladi (75,0%). Qolgan soliqlar deyarli katta o'rinni egallamaydilar.

Sanoati rivojlangan, mamlakatlarda, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida munitsipial daromadlar manbaida eng katta salmoqni ko'chmas mulkka solinadigan soliq egallaydi. Qoida bo'yicha mahalliy byudjetlar shtatlarning federal hukumatidan subsidiyalar oladilar. Oxirgi yillari lotoreya va boshqa soliqsiz daromadlarni salmog'i ko'paymoqda. Bir necha mahalliy hukumatlar o'zlarining sotishdan olinadigan soliqlarini qo'llaydilar.

Mahalliy darajada birlamchi soliq real mulkka solinadigan soliq hisoblanadi. Bu soliqqa asos bo'lib qiymatni baholash hisoblanadi. Baholangan qiymat bilan bozor qiymati o'rtasida katta farq bo'lishi mumkin. Odatda baholangan qiymat bozor qiymatidan ancha past bo'ladi.

Mulkka solinadigan soliq samarali soliq turlaridan bo'lib, qoida bo'yicha 1-2 % atrofida bo'ladi. Nominal me'yori real qiymati tushishi munosabati bilan baland bo'lishi ham mumkin. Mulk ham foydalanishiga qarab tasniflanadi: uy-joy mulkiga, tijorat va sanoat mulkiga nisbatan kam soliq solinadi.

Kam mulkka ega bo'lgan aholi qatlamiga kredit berish va soliq og'irligini engillashtirish maqsadida bir qator mahalliy boshqarmalar mulkka solinadigan soliq bo'yicha nizom ishlab chiqqanlar. Bunga qo'shimcha ravishda mahalliy hoqimiyatlar nomoddiy mulkdan ham soliq oladilar. Soliq me'yori taxminan real (haqiqiy) mulkka solinadigan stavkalariga to'g'ri keladi.

Asosiy mahalliy soliq - mol-mulk solig'i alohida fuqarolardan va mahalliy boshqaruv organlari ixtiyoridagi manzillarda mulkka ega bo'lgan korxonalaridan olinadi. Mol-mulk solig'i ham shtatlar byudjetiga, ham mahalliy organ hokimiyatlari byudjetiga tushadi. Agar shtatlar byudjetida mol-mulk solig'i umumiy soliq tushumlarini 2% ini tashkil qilsa, mahalliy hokimiyat byudjetida bu soliq asosiy o'rinni egallaydi. Mol-mulk solig'iga hamma ko'chmas mulk (yer, undagi imorat, uy-joy qo'shilgan holda) va shahar hududi chegarasida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qisman shaxsiy mulk tortiladi (masalan, avtomashina va avtomobil turar joyi).

Soliq solinadigan mulk quyidagi turkumlarga bo'linadi:

1. Ko'chmas mulk (yer, imorat, turg'un moslamalar);

2. Real (moddiy) shaxsiy mulk:

a) daromad olish uchun foydalaniladigan aktivlar (uskunalar, mashinalar, tovar-material boyliklari, qishloq xujalik uskunalari, hosil, poda va boshqalar);

b) uy xo'jaligini yuritish mulki (uzoq muhlat foydalanadigan tovarlar: avtomobil, muzlatgich, televizor va hokazo).

3. Nomoddiy aktivlar (aktsiyalar, qarz majburiyatlari, pullar);

4. Kommunal va boshqa korxonalarni ob'ektlari va qurilmalari, temir yo'l ob'ektlari.

Shtatlar qonunchiligida mol-mulk solig'i solinadigan ob'ektlar oldindan belgilanib beriladi.

Soliqdan quyidagilar to'liq ozod qilinadi:

1. Federal hukumat, shtatlar hukumati va mahalliy organlarning mol-mulki;

2. Tijorat maqsadida foydalanilmaydigan, xizmat sohasida foyda olmaydigan tashkilotlar, hayriya va diniy muassasalarning mulki, mehnat uyushmalari, fermer birlashmalari, veteranlar birlashmalari.

Mol-mulk solig'idan 4 shtatda shaxsiy mulk ozod qilinadi. Nomoddiy aktivlar (aktsiya, qarz majburiyatlari, pul) 36 shtatda ozod qilingan. Shtatlar xazinasini 4/5 qismini shu soliqlardan tushumlar tashkil etadi. Hozirgi vaqtda bu soliqni solish bazasi chegaralanib borish xususiyatiga ega. Soliq solinadigan baza sifatida qo'chmas mulklar, ishchi uskunalar, tovar-moddiy boyliklarining zahiralari va har xil ob'ekt va qurilmalar olinadi. Hududda joylashgan korxonalar va odamlar «differentsial renta»dan foydallanganligi uchun mol-mulk solig'ini shaharga tovon (o'rnini to'ldirish) tariqasida o'tkazadi.

Mol-mulk solig'i soliq bazasidan ma'lum foiz hajmida aniqlanadi. Soliq bazasi soliq solinadigan mol-mulkni baholangan qiymati hisoblanadi. Bu qiymat bozor qiymatidan belgilangan me'yor proporsiyasida (mutanosiblikda) aniqlanadi. Baholash ikki-uch yilda bir marta amalga oshiriladi. Baholash jarayonida mol-mulkning emirilishi va shu vaqtning o'zida bozorda yuzaga keladigan baho hisobga olinadi. AQShda mol-mulkni baholash qiymati XX asrning to'qsoninchi yillarida bozor bahosining 30-40% darajasida bo'lib, doimiy oshib borish xarakteriga ega bo'lgan va bozor bahosiga yaqinlashib borgan. Shunday qilib, mahalliy hokimiyat soliq stavkasi, soliq solinadigan mulkning bozor bahosiga nisbatan baholangan qiymatini o'zgartirish orqali mahalliy byudjet tushumiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Soliq bazasining xususiyati mahalliy hokimiyatni ko'chmas mol-mulkni ko'paytirishga qiziqtiradi va bu o'z navbatida mahalliy byudjetga tushumlar hajmini oshirishga olib keladi.

Shaharlarni va boshqa turar joylarni obodonlashtirish, ko'p hollarda, uy-joy qiymatini belgilash, yangi korxonalar (qoida bo'yicha atrof muxitni ifloslamaydigan) ni, firmalarni jalb qilish, ularga kerakli infratuzilmani oldindan yaratish, kadrlar tayyorlash masalasini echish va boshqa yuqoridagi maqsadlarga javob beradi. Mahalliy byudjetning moliyaviy asosi bo'lgan mol-mulk solig'i o'zining afzalliklari bilan bir qatorda, muhim kamchilaklarga ham ega. Uning afzalligi-o'zining moddiy bazasi- yer va unda bunyod qilingan qurilishlarga tayanadi. O'z navbatida, bu mahalliy hokimiyatga mustaqil moliya siyosati olib borishga, o'zini-o'zi moliyalashtirishga kerakli sharoit yaratib beradi.

Mol-mulk solig'ining kamchiligi, uning regressiv soliqligidadir. Boshqacha qilib aytganda, uni to'lashda moddiy imkoniyat bilan bog'liq emasligi va uni olishni qiyinligi, elastik emasligi, soliq avtomatik ravishda va kerakli tezlikda iqtisodiy o'sishga javob bermasligidir.

Ko'pchilik iqtisodchilar imoratdan olinadigan mol-mulk solig'ining regressivligi, sotishdan olinadigan soliq sababiga asoslangan, deb hisoblaydilar. Birinchidan, mulk egasi o'zining solig'ini kvartira to'loviga qo'shadi. Ikkinchidan, mol-mulk solig'i daromad summasiga nisbatan foiz hisobida boylarga nisbatan kambag'allar uchun anchagina yuqori, chunki kambag'allar o'zlarining daromadlarini talaygina qismini uy-joy uchun sarflashga majburdirlar. Taxmin qilinadiki, mol-mulk solig'ini regressivligi yana shu sabab bilan oshadiki, mol-mulk solig'ini stavkasi har xil hududlarda turlicha belgilanadi. Masalan, shaharni markaziy xududlarida, uning pasayishi, zaiflashishi natijasida mulkning qiymati tushib ketsa, kerakli soliq tushumini ta'minlash uchun uning stavkasini ko'tarishga to'g'ri keladi. Shu bilan bir qatorda o'sib, gullab borayotgan shaharni atrofida, chekkalarida, uy-joyning bozor qiymati oshib boradi. Shuning uchun kerakli soliq tushumini ta'minlash uchun, uning past stavkasini saqlab, o'zgartirmay qoldirsa ham bo'ladi. Ayrim tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ichki yalpi maxsulot 1% ga ko'tarilsa, fuqarolardan olinadigan daromad soliq 1,7 va korporatsiyalardan olinadigan soliq 1,2 % ortmoqda. Shu bilan bir qatorda mol-mulk solig'i 1% dan kamroq sotishdan olinadigan soliq esa -0,7% ni tashkil qilayapti. Ayrim hisob-kitoblarga qaraganda mol-mulk solig'idan tushumlar hozirgi vaqtda mulkni bozor qiymatini o'sishidan ancha orqada qolmoqda.

Shunday qilib, AQShni soliq tizimi, davlat tuzilishiga asoslangan bo'lib, o'zining qo'p qirraligi, murakkabligi va ko'p darajali tarkibi bilan ajralib turgan holda to'liq mamlakat iqtisodining o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy tayanch iboralar:

- To'g'ri va egri soliqlar
- Olingan manfaatni soliqqa tortish tamoyili
- To'lov kontseptsiyasi tamoyili
- Federal, shtat va mahalliy soliqlari
- Soliq deklaratsiyasi tavsifi
- Mehnat va mehnatsiz topilgan daromadlar tarkibi
- Yollanib ishlaydigan va yollanib ishlaymaydigan shaxslar tarkibi

- Soliq hisobini kassa va ajratma usullari va ularning farqi
- Mol-mulk solig'i solinadigan mulk tarkibi

Takrorlash uchun savollar:

1. AQShni siyosiy, ijtimoiy holati va iqtisodiy salohiyati uning soliq tizimiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. AQSh soliq tizimining tarkibi
3. To'g'ri va egri soliqlar qanday yo'nalishda o'sib bormoqda?
4. Fuqarolardan olinadigan soliqlarni AQSh soliq tizimidagi salmog'i, ahamiyati
5. Federal soliqlar tarkibi va ularning davlat byudjetida tutgan o'rni
6. Har bir byudjet tizimi shahobchasidagi asosiy soliqlarni ko'rsating
7. Jamlangan yalpi daromad tarkibiga nimalar kiradi?
8. Ofitsiant, sartarosh va taksistlarni choy-chaqa pullari qanday va nimaga hisobga olinadi?
9. Rezident va norezidentlarni deklaratsiya topshirishdagi farqi nimadan iborat?
10. Shaxsiy daromad solig'i stavkasini tafovut chegarasini ko'rsating
11. Korporatsiya solig'ida yalpi daromaddan chiqariladigan chegirmalar tarkibini keltiring
12. Shtatlar soliq turlarini tarkibi va salmog'i

Test savollari:

1. AQSh hozirgi soliq tizimi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
 - a) avgust 1984 y
 - b) iyun 1985 y
 - c) yanvar 1986 y
 - d) sentyabr 1986 y
 - e) noyabr 1986 y
2. AQShda 1983 yilgi qonunda qanday soliq stavkalariga o'zgarishlar kiritildi?
 - a) ko'tarildi
 - b) o'zgartirilmadi
 - c) pasaytirildi
 - d) pasaytirildi va ko'tarildi
 - e) hammasi noto'g'ri
3. AQShda soliq tarkibi qaysi soliqqa tortish tamoyiliga to'g'ri keladi?
 - a) Manfaatni soliqqa tortish

- b) Yalpi ichki mahsulotni hajmi
- c) To'lov qobiliyati kontseptsiyasi
- d) Manfaatni soliqqa tortish va to'lov qobiliyati kontseptsiyasi
- e) Hammasi noto'g'ri

4. Qaysi soliqlar federal, shtat va mahalliy byudjetlarga tushadi?

a) Sotishga solinadigan soliq, mol-mulk solig'i, transport vositalaridan yig'im

b) Daromad solig'i, korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq, ijtimoiy sug'urtaga ajratma, meros va hayriyalar

c) Aktsizlar, meros va hayriyalar, ekologiya solig'i

d) Daromad solig'i, aktsizlar, transport yig'imi

e) Ekologiya solig'i, mol-mulk solig'i, bojxona boji

5. AQShda byudjet daromadlarini 1/3 qismini qaysi soliq va to'lovlar tashkil qiladi?

a) Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq, aktsizlar, boshqa tushumlar

b) Bojxona boji, meros va hayriyadan tushumlar, mol-mulk solig'i

c) Ekologiya solig'i, mol-mulk solig'i, aktsizlar

d) Aholidan olinadigan daromadlar solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma

e) Aktsizlar, bojxona boji, meros va hayriya tushumlari.

6. AQShda daromad solig'ini aniqlashda qaysi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi?

a) Umumiy daromad, ish bilan ta'minlanganlik, mol-mulkni mavjudligi

b) Ish xaqi hajmi, oilaviy ahvoli, yashash hududi

c) Korxonadan olingan asosiy va qo'shimcha daromadlar, yoshi, aktsiyalari mavjudligi

d) Mol-mulk mavjudligi, oilaviy ahvoli, aktsiyalarga egaligi.

e) Yalpi daromad hajmi, oilaviy ahvoli, yoshi.

7. Daromad solig'ini olishda qo'llaniladigan stavkalar (foiz hisobida)

a) 15, 28, 31, 36, 39

b) 20, 31, 37, 40, 41

c) 16, 27, 30, 35

d) 15, 31, 37, 39, 40

e) 17, 30, 32, 37, 39

8. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliqqa tortishda yalpi daromad tarkibiga nimalar kiradi?

a) Mahsulotni sotishdan tushum, amortizatsiya ajratmasi, asosiy vositalarni sotishdan tushum

b) Tovarlarini sotish, xizmat ko'rsatishdan tushumlar, dividendlar, renta to'lovi, sotishdan olinadigan boshqa daromadlar

c) Tovarlarini sotish, bankdan olingan foizlar, dividendlar, jarimalar

d) Debitor qarzlarni to'ldirish, jarimalar, asosiy va obrot fondlarni sotishdan olingan mablag'lar

e) Amortizatsiya ajratmasi, dividendlar, jarimalar, foizlar

9. Shtatlarda asosiy daromadni tashkil qiladigan soliqlar nimalardan iborat?

a) Tamakidan olinadigan aktsiz, spirtli ichimliklardan olinadigan aktsiz, transport egalaridan olinadigan soliq, meros va hadyalardan olinadigan soliq

b) Yoqilg'idan olinadigan aktsiz, meros va hadyalardan olinadigan soliq, transport egalaridan olinadigan soliq, mol-mulk solig'i

c) Sotishdan olinadigan umumiy soliq, aholidan olinadigan daromad solig'i, yoqilg'idan olinadigan aktsiz, korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq

d) Aholidan olinadigan daromad solig'i, spirtli ichimliklardan olinadigan aktsiz, meros va hadyalardan olinadigan soliq, transport egalaridan olinadigan soliq

e) Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq, tamakidan olinadigan aktsiz, transport egalaridan olinadigan soliq, mol-mulk solig'i

10. Mol-mulk solig'i solinadigan mulk turkumlari quyidagilardan qaysi biridan iborat?

a) Nomoddiy aktivlar, ko'chmas (turg'un) moslamalar, qishloq xo'jalik uskunalari

b) Uy xo'jaligini yuritish mulki, nomoddiy aktivlar, temir yo'l ob'ektlari

c) Yer, imorat, mashina, tovar material boyliklari, aksiyalar

d) Hammasi noto'g'ri

e) ko'chmas mulk, real (moddiy) shaxsiy mulk, nomoddiy aktivlar, kommunal va boshqa korxonalarini ob'ektlari, temir yo'l ob'ektlari

IX BOB. KANADADA SOLIQLAR

9.1. Kanadada soliq solish tizimi

9.2. Korporatsiyalarda daromad (foyda)ga solinadigan soliq

9.3. Sotishga solinadigan soliq

9.4. Aholiga solinadigan soliqlar.

9.5. Kooperativlarga solinadigan soliqlar

9.6. Munitsipal organlarni soliq sohasidagi ishlari

9.7. Deklaratsiyani to'g'ri to'lg'azilganligini davlat tomonidan baholanishi, soliq organlari xarakatini nazorat qilish va ular ustidan arz qilish tartibi

9.8. Kanadani hududlarida soliqni boshqarish

9.1. Kanadada soliq solish tizimi

Kanada daromad solig'i bo'yicha birinchi harbiy qonun 1917 yili kiritilgan edi. Bu soliqni vaqtincha amalda bo'ladigan tadbir deb hisoblab, uning mablag'ini birinchi jahon urushida qatnashganligi uchun harbiy harajatlarni qoplashga yo'naltirilgan. Bu qonun juda ham kichik hajmda bo'lib o'n betlik qog'ozga joylashgan edi. 1948 yili Kanadada daromad solig'i to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. 1962 yili daromad solig'i sohasida yirik islohotlar o'tkazildi. 1971 yili daromad solig'i to'g'risidagi qonunga keng miqyosda o'zgartishlar kiritildi. 1981 yilgi davlat byudjeti to'g'risidagi hujjatda davlat dasturi berilgan va unda soliq solish sohasida yirik islohot o'tkazish ko'rsatilgan edi. 1988 yili parlament tomonidan islohotning birinchi bosqichi ko'rib chiqildi va unda daromad soliqlariga tegishli masalalar muhokama qilindi. Bu islohot o'zining asosiy belgilari bo'yicha asosan AQShning 1986 yilgi soliq islohotini qaytardi. Islohot davrida soliqning asosiy bazasi kengaytirildi, soliq stavkasi pasaytirildi va iqtisodning har xil tarmoqlari bo'yicha soliq yuki tartibga solindi.

Kanada hukumati tomonidan soliq tizimi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Davlat byudjetiga moliyaviy resurslarni tushishini ta'minlash;
- ijtimoiy sohani moliyalashtirish;
- daromadlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish;
- aholining nochor qismi daromadini o'sishiga ko'maklashish;
- mamlakatda iqtisodiy kon'yukturani barqarorlashtirish;
- iqtisodiy o'sishni yuqori darajasini ta'minlash.

Kanada hukumatining talabiga binoan soliq tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak: birinchidan, soliq tizimi gorizontal bo'yicha tenglikni ta'minlab berishi kerak. Bir xil daromadlar, ularning olinadigan manbaidan qat'iy nazar bir xil stavkada soliqqa tortilishi kerak. Bundan tashqari soliq tizimi vertikal tenglikni ham ta'minlashi kerak. Yuqori daromadlar soliqqa progressiv stavkalar asosida tortilishi ta'kidlandi. Soliq tizimi jamiyatni ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchasiga javob berishi va daromadlarni qayta taqsimlashda ham adolatli bo'lishi kerak. Bundan tashqari soliq tizimi etarli darajada egiluvchan bo'lishi zarur. Soliq tizimi hukumatga iqtisodiy kon'yukturani o'zgarishiga e'tiborini qaratishga imkoniyat tug'dirib berishi kerak va kerak bo'lsa, unga ta'sir ko'rsatishi zarur. Yana soliq tizimi ma'lum darajada oddiy va samarali bo'lmog'i kerak. Bu esa o'z navbatida soliq to'lovchi uchun deklaratsiyani to'ldirish ishini va to'lanadigan soliq hisob-kitobini engillashtirishi kerak. Yana hukumat organlarini nazorat qilish vazifalarini osonlashtirishi zarur.

Soliq tizimi barqarorlik va oldindan bashorat qilish imkonini berishi talab qilinadi. Soliq to'lovchilardan qaysi daromadlari soliqqa tortilishi, kimlar uni to'lashi, to'lov muhlatlari kabi ma'lumotlardan ularni to'liq xabardor qilish va boshqa masalalarni echish zarurdir. Erkin iqtisod tizimiga ega bo'lgan Kanada soliq tizimi ayniqsa savdo sherigi AQShga nisbatan raqobatdosh bo'lishi, Kanadaga chet el kapitalini oqib kelishiga imkoniyat yaratishi zarur. Bu hamma maqsadlar va talablar ob'ektiv qarama-qarshi xususiyatlarga ega. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun Kanada hukumati vaqti-vaqti bilan soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritib turadi.

Kanada uch pog'onalik, markazlashtirilmagan soliq tizimiga ega. Kanadaning federal hukumati, mahalliy provintsiya (poytaxtdan uzoqdagi joy) va munitsipalitetlarning soliq tizimi mavjud. Shuning uchun har bir soliq to'lovchi federal, provintsiyal va munitsipal soliq to'laydi. Uch darajadagi soliq tizimida o'zining aniq daromadlari belgilangan. Federal darajada 50% daromadlar, provintsiyalarda 40% va mahalliy byudjetlarda 10% daromadlar to'planadi.

Kanada soliqlarini quyidagi tashkilotlar boshqaradi: Moliya Federal departamenti (vazirlik) obshina (jamo) palatasiga byudjet loyihasini topshirib, keyin o'z nuqtai-nazarini vazirning ma'ruzasida ifodalab qonunshunoslik faoliyatiga hissa qo'shadi.


•Moliya federal departamenti soliq siyosati bo'limi federal soliqlarni kiritishda qonunchilik huquqlarini ishlab beradi va ularni samaradorligini aniqlaydi.

•Tarif va daromadlar bo'yicha federal agentligi soliqlarni yig'ish bilan shug'ullanadi. Kanadada soliq to'lashda shaxsiy javobgarlik printsipti qo'llanganligi uchun agentlik Soliq to'lovchiga soliq to'lash haqida xabar beradi, deklaratsiyani to'lg'azish bo'yicha yordam beradi. Soliq to'lovchilarni o'zlari byudjetga to'lovni o'tqazadilar. Agar agentlik noto'g'ri ma'lumotlarni topsa soliq to'lovchini adliyaga topshiradi. Federal agentlik daromad solig'i korxonani foydasiga solinadigan soliq federal sotishga solinadigan soliq (Kvebek provintsiyasidagi yig'implardan tashqari), pensiyaga ajratma, bandlikka ajratma, aktsiz va bojxona to'lovlari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari agentlik har xil ijtimoiy nafaqalarni to'laydi. Provintsiyalar bilan kelishilgan holda mahalliy soliqlarni yig'ish uchun javob beradi.

•Provintsiyalarni moliya vazirligi quyidagi mahalliy soliqlarni yig'adi: korxonani foydasiga solinadigan soliq, sotishdan olinadigan soliq, aktsizlar (benzin, yoqilg'i, tamaki va spirtli ichimlik mahsulotlari), yer solig'i va yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlar. Bundan tashqari provintsiyal agentlik ijtimoiy nafaqani tarqatish uchun ham javob beradi.

9.1.-chizma

Kanadani soliq tizimi



Soliq solish bo'yicha hamma kelishmovchiliklar soliq adliyasi tomonidan echiladi. Kanadaning konstitutsiyasida uch bosqichni har biri

uchun davlat boshqaruv organi undirib oladigan soliqlarni turlari belgilangan. Ushbu hujjatda boshqaruv organlarini har bir bosqichi javob beradigan savollar tarkibi ham berilgan. Kanadani federal hukumati, provintsiya va munitsipalitetlarni hukumati konstitutsiyada belgilangan majburiyatlari va o'zlarining huquqlari chegarasida, bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda byudjetini rejalashtiradi va soliq solinadigan daromadlar, tovarlar, soliq stavkalari, o'zlarining soliq imtiyozlari sistemasi bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ijro etuvchi tashkilotlar bu savollar bo'yicha o'zini taklifini tayyorlaydi va mamlakatni parlamentiga (federal hukumat) yoki qonun chiqaruvchi organlarga (davlatni pastki boshqarish organlari) topshiradilar. Muhokama qilingandan keyin qonun chiqaruvchi organlar soliqlar to'g'risida qonun qabul qiladilar. Ushbu me'yoriy aktlar mufassal, keng yoritilgan, batafsil qismlarga ajratilgan hujjat bo'lib, bajaruvchi organlarga amaliy faoliyatlarida o'z tushunchalari bo'yicha tarflashga imkon bermaydi. Har bir davlat hokimiyati organi soliq vakolatidan o'ziga qarashli hududda foydalanadi. Agar firma bir necha provintsiyalarda ish olib borsa, har bir provintsiyani hukumati umumiy daromadni (foyda) shu hududda olingan qisminigina soliqqa tortadi.

Davlat hokimiyat organlarini etarli darajada mustaqil bo'lishlariga qaramay federal hukumat, provintsiya va munitsipalitetlarni soliq tizimi o'zaro bog'lik, bir-biriga qaram xususiyatlarga ega. Bu esa Kanada soliq tizimi kompleks va birlik xususiyatiga ega ekanligini ifodalaydi. O'zaro bog'liq va birlik shundan iboratki, birinchi navbatda katta hajmdagi byudjet mablag'i dotatsiya sifatida yuqori byudjetdan pastki byudjetlarga yo'naltiriladi. Bu mablag'ni bir qismi tenglashtirish tizimi bo'yicha beriladi. Federal hukumat iqtisodiy orqada qolgan provintsiyalarga dotatsiya berishdan asosiy maqsad aholi uchun sog'liqni saqlash, ta'lim berish, san'at bo'yicha normal darajada sharoit yaratishdan iborat.

To'lovlarni birgalikda amalga oshirilganida federal-provintsiyal, provintsiyal-munitsipalitet hukumatlari iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sohalar dasturi bo'yicha mablag'larni o'zlashtirishadi. Ikkinchidan, federal hukumat bilan ko'pchilik provintsiyal organlar ixtiyoriy bitimlar tuzadilar va bu hujjat asosida federal hukumat provintsiyal daromad soliqlarini yig'ish va ularni to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat qilishni texnik tomonini o'z zimmasiga oladi. Ushbu bitim federal va munitsipal soliq solinadigan daromadni hisoblash uslubini bir xil qiladi. Uchinchidan, provintsiyalar o'rtasida kapital qo'yilmani hududga keltirish, yuqori malakali kadrlarni jalb qilish bo'yicha o'zaro konkurentsia (raqobatlik), soliqlarni juda ham

ko'tarilib ketishiga yo'l qo'ymaydi va bu orqali Kanadada hududlar bo'yicha soliqlarni tenglashtirish amalga oshiriladi.

Soliqlarni turlari bo'yicha ko'rib chiqilganda, shunga e'tiborni qaratish zarurki, daromad soliqlari federal hukumati va provintsiya hukumatlari tomonidan olinadi. Daromad soliqlari tarkibida aholi daromadidan olinadigan soliqlar mavjud. Daromad soliqlari Kanadada davlat daromadini asosiy bandi hisoblanadi. Mol-mulk solig'i Kanadani munitsipalitetlari tomonidan yig'iladi. Munitsipalitetlar yer mulkini berishga solinadigan soliqni ham undiradilar. Soliq sotib olish vaqtida amalga oshiriladi.

Soliq o'tkazib beriladigan mulkni 0,5% dan 1% gacha qiymatini tashkil qiladi, Har bir munitsipalitet o'zining soliq olish tartibiga ega. Sotishga solinadigan soliqqa kelsak, uni Kanadaning federal hukumati, ayrim provintsiyalar hukumati ham oladi. Sotishga solinadigan soliq federal hukumat tomonidan firma-ishlab chiqaruvchi darajasida Kanadada etishtiriladigan hamma tovarlardan olinadi. Hozirgi harakatdagi soliq stavkasi 12% ni tashkil qiladi. Federal darajada aktsiz solig'i ham mavjud bo'lib, har-xil stavkalar bilan bu soliq ayrim bezak buyumlariga nisbatan qo'llanadi.

Sotishga solinadigan provintsiyal solig'i Kanadani Albertidan tashqari hamma provintsiyalarida qo'llanadi. Bu soliq chakana savdo tizimida olinadi. Stavkasi provintsiyalar bo'yicha har-xil hajmda belgilangan. Bu soliqqa, qoida bo'yicha oziq-ovqat, bolalar kiyimi, kitob va dori-darmonlar tortilmaydi. Bundan tashqari, Kanadada benzinni sotish uchun maxsus soliq qo'llanadi va bu soliq federal hukumat miqyosida va provintsiyalarni hukumati tomonidan olinadi (Alberti va Saskachevan bundan mustasno). Bu soliqni fermerlar, baliqchilar, qazib oladigan, qayta ishlaydigan va o'rmonchilik sanoati korxonalarini to'lamaydilar.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtaga yig'imni federal hukumat va provintsiyalarni hukumatlari oladi. Bu soliqlar aholi va korporatsiyalar uchun to'g'ri soliq hisoblanadi. Yig'imni stavkasi va summasi Kanadaning hududlari bo'yicha tabaqalashgan. Masalan, bu soliqni Ontarioda oila bir yilga 714 dollar to'laydi.

Daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar moliya organlariga har yili deklaratsiya topshiradilar. Deklaratsiyada daromadlarini hajmi va o'zlari hisoblagan soliq hajmi ko'rsatiladi. Aholidan soliqlar asosan ish joyidan olinadigan ish haqidano hisoblanadi.

Kanadada yangi qonunga binoan federal darajada daromad solig'ini eski 10ta stavkasi o'rniga 3ta stavka va har bir hududda o'zining mahalliy qo'llanadigan stavkalari bo'ladi.*

9.1.-jadval

Kanada korporatsiyalarini daromad (foyda)siga solinadigan soliqni stavkalari

(% hisobida)

Provintsiya, hududlar	Asosiy stavka		Federal-provintsiyal stavka	
	Daromad solig'i	Foydaga solinadigan soliq	Daromad solig'i	Foydaga solinadigan soliq
Nyufaundlend	21,0	14,0	52,3	43,12
Yangi Shotlandiya	19,0	16,0	50,3	45,12
Prints Eduard Orol	19,0	15,0	50,3	44,12
Nyu-Bransunk	20,1	17,0	51,4	46,12
Kvebek	21,6	8,9-16,2	52,0	38,0-45,0
Ontario	21,6	15,5	52,9	44,6
Manitoba	19,1	17,0	50,4	46,1
Saskachevan	20,6	17,0	51,9	46,1
Alberta	14,8	15,5	46,1	44,6
Britaniya Kolumbiyasi	22,9	16,5	54,2	45,6
Yukon	15,3	15,0	46,6	44,1
Shimoliy-g'arbiy xududlar	13,0	14,0	44,4	43,1

Jadvalda Kanadada qo'llaniladigan korporatsiyalar daromad (foydas) dan olinadigan stavkaning eng yuqori chegarasi federal-provintsiyal stavkalarga tegishlidir. Daromad solig'ini 44,4% ni tashkil etgan eng quyi va 54,2% ni tashkil etgan eng yuqori chegarasi stavkalar asosidan undiriladigan soliqlarni federal-provintsiyal byudjet daromadlarini katta qismini ta'minlab berishni ko'rsatadi. Yana stavkalarining har-xil kattalikda o'rnatilishi haqida, provintsiya, xududlarda ishlab chiqarish korxonalarini korporatsiyalar faoliyat yuritishi va daromad olishi shu joylardagi geografik, ijtimoiy tabiiy va inson omillari (malakali mutaxassislarning mavjudligi) ga bog'liqdir.

* «Налоговая система зарубежных стран (под. ред. В.Князева, Д.Черник М.1997, 24-27 бетлар) asosida tuzilgan.

9.2. Korporatsiyalarda daromad (foyda)ga solinadigan soliq

Federal byudjetni muhim daromad manbai, huquqiy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqlar hisoblanadi. Uning tarkibiga korporatsiyalarni foydasiga solinadigan soliq va yirik korporatsiyalarni kapitaliga solinadigan soliqlar kiradi. Birinchi marta soliq Kvebek provintsiyasida 1875 yili sug'urta kompaniyalarini mukofotiga qo'llash uchun kiritilgan edi. 1882 yili bu soliq temir yo'l, banklar va aloqa tizimlarida qo'llandi. 1912 yilga kelib bu soliq hamma provintsiyalarda ishlatiladigan bo'ldi. Foydaga solinadigan soliq texnik nuqtai-nazaridan daromad solig'iga yaqin bo'lganligi uchun uning rivojlanishi ham o'xshash shaklda bordi, ya'ni soliq stavkasi oshib bordi va provintsiyalar bu soliq «zapaslaridan» siqib chiqarila boshlandi.

Daromad (foyda)ga solinadigan soliqni federal byudjetni va provintsiyal byudjetlarni umumiy daromadidagi salmog'i nisbatan yuqori emas, federal byudjetda 10% va provintsiyal byudjetlarda 4% tashkil qiladi.

Daromad (foyda)ga solinadigan soliqni stavkalarini hisobi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan:

- AQShni soliq darajasiga qarab, Kanadada korporatsiyalarni soliqqa tortishda baravar sharoit yaratish Kanadani qayta ishlash sanoatida chet el kapitalini salmog'i 40% ga yaqin va neft qazib olish, hamda neftni qayta ishlash sanoatida 70% dan ko'prog'ini tashkil qilishiga olib keldi.

- Kichik biznesni rivojlanishini rag'batlantirish (katta bo'lmagan firmalar, bir yillik daromadi 200 ming dollargacha va ishda band odamlarining soni 100 kishigacha bo'lgan).

Korporatsiyalarni daromad (foyda)si federal va provintsiyal darajalarda soliqqa tortiladi.

1988 yilda quyidagi soliq stavkalari soliq solinadigan daromad (foyda)ga nisbatan foiz hisobida belgilandi:

	Yirik biznes	Kichik biznes
federal	28	12
provintsiyal	15	10
ja'mi	43	22

Korporatsiyani foydasiga solinadigan soliq stavkasini provintsiyal va federal darajadagi o'zaro nisbat, Kanadani asosiy provintsiyalari –Ontario, Manitoba, Saskachevan, Albertilarda qo'llaniladigan shaxsiy daromadga soliqni o'zaro munosabatlariga o'xshash belgilangan va uning hajmi 46,5-

54,0 foizlar qilib belgilangan. Federal soliqni stavkasi Kanada bo'yicha qonunda yagona tarzda belgilangan bo'lib, u 12-28 foizlarni tashkil qiladi.

Provintsiyal soliq stavlari provintsiyani qonun chiqaruvchi majlisi tomonidan aniqlanadi va ular bir-biridan farq qiladi. Provintsiyal soliq stavlarni o'zgarishi federal soliq stavkasini o'zgarishiga olib kelmaydi. Munitsipialitetlar korporatsiyalarni daromadidan (foyda)sini soliqqa tortish huquqiga ega emaslar.

Umumiy soliq solish tizimidan ajratma belgilangan va buning asosida qayta ishlash sanoatining korxonalarini rivojlanishi va bandlikni ta'minlash uchun soliq stavkasi 23% hajmda o'rnatilgan. Provintsiya darajasida bu imtiyoz bekor qilingan.

Kanada mutaxassislarini fikricha, ularni qayta ishlash sanoati korxonalarini samaradorligi AQShga nisbatan past. Shuning uchun chet el kapitalini keltirish maqsadida past soliq stavkasini belgilash orqali imtiyozlar beriladi.

Tabiiy resurslarni qazib olishga soliq tushumini provintsiya hukumati belgilaydi. Chunki Kanada qonunchiligiga binoan resurslar provintsiyalarga qarashli hisoblanadi. (Bundan faqat dengiz shelfida neft qazib olish va neftli qumliklarni qayta ishlash va boshqalar mustasno). Yerosti boyliklarini qazib olish uchun korporatsiyalar provintsiya hukumatiga arenda to'lovi to'laydilar. Bunda arenda umumiy daromad (foyda)ni holati hisobga olmagan tartibda amalga oshiriladi. Lekin foydaga solinadigan soliq, faqat foyda mavjudligida olinadi. Alberti provintsiyasida, asosiy neft va gaz qazib olinadigan hududda, arenda to'lovi yalpi daromadni 12-13% ni tashkil qiladi (Buni Kanadani Petroleum Assotsieyshn-Kanadian yirik neft-gaz kompaniyasi) amalga oshiradi. Provintsiyani Moliya Vazirligi to'lov stavkasini bosqichini ishlab chiqqan va uni bir barrel neftga, neftning sifati, skvajinani (quduq) debetiga va neft konlariga qarab 0 dan 25% gacha belgilagan.

Korporatsiya daromadiga solinadigan soliqlar bo'yicha qator imtiyozlar beriladi. Yangi kapital qo'yilmani rag'batlantirish uchun soliq solinadigan daromad kamaytiriladi yoki soliq summasi to'g'ridan to'g'ri kamaytiriladi. Lekin bu shaxsiy daromadlarni va ish haqini ko'paytirishga qaratilmagan.

Yalpi daromaddan ayrim harajatlarni chegirib tashlash va soliq krediti uslublari keng ishlatiladi:

- yangi neft quduqlari ishga tushirilgan joyda arenda to'lovlaridan 3 dan 5 yilgacha ozod qilinadi;
- arenda to'lovini keyingi davrga o'tkazish;
- arenda to'lovi foizini pasaytirish;
- yangi qazilma boyliklarini qazish, o'zlashtirish uchun past stavka bilan yoki foizsiz davlat krediti berish;
- tijorat banklarida kreditni davlat garantiyasini berish;
- ma'lum maqsadga (ilmiy tadqiqot, uskuna, kadrlar tayyorlash) qaytib berishlik, qaytib bermaslik sharti bilan to'g'ridan-to'g'ri davlat subsidiyasini berish yoki kompensatsiya xususida subsidiya berish;
- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarni davlat tomonidan moliyalashtirish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlar harajatlarini 100 dan 135% gacha daromaddan chiqazib tashlash yoki soliq krediti berish (qazilma boyliklarni qidirish harajati uchun ham shu tartib qo'llanadi);
- kapital harajatlarni ITTKI (NIOKR) harajatlariga birinchi yil hisobidan chiqarib qo'shish;
- amortizatsiyani qoldiq qiymati bo'yicha olish (kamayib boradigan balans);
- tezlashtirilgan amortizatsiya;
- soliq to'lash muhlatini uzaytirish;
- kelgusi yillari soliq skidkasini hisobga o'tkazish (agar foyda 0 ga barobar bo'lsa);
- davlat bilan birgalikda mulk shaklini tuzish;
- aksioner kompaniyada aktsiyasini sotib olish bilan qatnashish;
- boshqalar (vaqtincha preferantsion aktsiyalar, undan olingan daromad soliqqa tortilmaydi. Qisman va to'liq infrastruktura harajatini qoplash);
- eksport qilinadigan mahsulot soliqqa tortilmaydi.

Asosiy kapital (asosiy fondlar)ni tezroq almashtirish uchun Kanadada soliq solinadigan daromad (foyda)ni aniqlashda tezlashtirilgan amortizatsiya qo'llanishi mumkin. Bunda mahsulot tannarxiga amortizatsiya ajratmasi uskunani haqiqiy xizmat qilish muhlatidan kelib chiqib belgilangan normada o'tkaziladi, lekin soliq solinadigan daromadni aniqlashda, kamayib borish uslubi asosida olingan foyda summasi

hisoblanadi. Shunday tartibda soliqdan buxgalteriya va soliq amortizatsiyasini farqi hajmidagi summa soliqdan ozod qilinadi.

9.2.-jadval

Kanada qonunchiligida hamma asosiy fondlar (asosiy kapital) 39 nominatsiyadagi sinflarga guruhlangan amortizatsiya normasi

Aktivlar turi (hammasi 39 guruh)	Me'yor, %
Qayta ishlab chiqarish sanoati:	
Uskunalar	25
Inshoatlar	4
Transport uskunalari	30
Qazib oluvchi tarmoqlarni uskunalari	25
Mebel va idora uskunalari	30
Yer qaziydigan mashinalar	30
Qayta ishlash sanoatini texnik qurollantirish	amortizatsiya
Energiya tejaydigan uskunalar	25

1988 yilgi soliq islohoti amortizatsiya me'yorini pasaytirdi va amortizatsiya muhlatini sekinlashtirdi. Natijada soliq tushumi ko'paydi.

Shu davr ichida progressiv uskunalar olish va yangi texnologiyani tadbiq qilishni rag'batlantirish maqsadida soliq krediti kiritildi. Soliq summasidan chiqaziladigan kapital qo'yilmani qiymatidan 7-10-20%li investitsion soliq krediti belgilandi. Federal va provintsiyalar darajasida maxsus ITTKI rag'batlantirishni maxsus tizimi qo'llandi.

Har bir provintsiya mustaqil o'zini siyosatini yurg'izadi. Lekin qo'shnisini siyosatini ham hisobga oladi. Federal darajada, qoida bo'yicha, daromaddan soliq olishda ITTKni qiymatini 100% hajmida imtiyozli narxini pasaytirish (skidka) beriladi. Bunga joriy va kapital harajatlar kiradi. Bundan tashqari korporatsiyaga investitsion soliq krediti beriladi. Stavkasi xududlar bo'yicha tabaqalashtiriladi (o'rtacha 20%) investitsion kredit ITTK oldin berilgan kreditni hisobga olgan holda beriladi. Masalan, yillik ITTK fondi 10 mln.dollar shu summaga daromaddan soliq olishda skidka beriladi. Bu faqat ITTKga ajratilgan mablag' to'liq sarflanib, qoldiq nolga baravar bo'lganda amalga oshiriladi.

Agar. ikkinchi yili ITTKI harajatlari 0 ga teng bo'lsa soliq kreditini summasi soliq solinadigan daromadga qo'shiladi va odatdagi tartibda soliqqa tortiladi. Masalan, 2 mln. dollar kredit, daromadga 50% soliq

stavkasi bilan qo'shilib, 1 mln. dollar soliqqa aylanadi. Bu mexanizm firmalarga katta mablag'larni tejashga yordam beradi. Ushbu misolda firma soliqdan 6 mln. dollar tejab qoladi.

Hisob: ITTKI-10 mln. dollar daromadga soliq solishda kamaytirilgan summa, shu jumladan 2 mln. dollar soliq krediti. Qoldiq 8 mln. dollar harajatlar. 50%li stavka bilan 4 mln. dollar soliq to'lanishi kerak edi. Qolgan 4 mln. dollar soliqdan to'g'ri rejali hisoblanadi va bo'yicha 2 mln. dollar kredit qo'shiladi. Shu yo'l bilan davlat hisobidan 6 mln. dollar tejab qolinadi. Hukumat soliq kreditini ITTKIni 35%gacha qiymatini bajarish uchun beradi. Daromadga ega bo'lmagan yangi kompaniyalar ITTKIni amalga oshirish uchun byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri dotatsiya oladi. ITTKIni rag'batlantirish uchun qator provintsiyalarda maxsus imtiyozlar berilgan. Soliq solinadigan daromaddan provintsiyal soliq solish uchun ITTKI qiymatini 100 dan 135%gacha daromaddan skidka chiqazib tashlanadi. Bu esa ITTKIni juda yuqori foydali qiladi.

Mablag'larni o'zlashtirish davrida korporatsiya zarar olsa, uni soliq to'lashdan ozod qilinadi. Ularga ko'rilgan zararni kelgusi yillarni foydasidan qoplash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Agar ishlab turgan korporatsiyada zarar paydo bo'lsa, unga zararni oldingi uch yil soliq solingan foydadan chiqazib tashlash tartibi qo'llanadi (Agar foyda olingan bo'lsa) korporatsiyaga bu holatda qaytadan hisob-kitob qilingan soliq summasi qaytariladi yoki zararni kelgusidagi 7 yilga taqsimlanadi. 7 yillik muhlat Kanada sanoatini tajribasidan olingan. Shu muhlatda korxonada foyda oladigan darajaga ko'tariladi yoki uni yopish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

9.3. Sotishga solinadigan soliq

Federal va provintsiyal byudjetlarni umumiy daromadida sotishga solinadigan soliq (oborot solig'ini boshqacha ko'rinishi) muhim rol o'ynaydi. Bu soliq Kanadada federal va provintsiyal darajasida ishlab chiqariladigan hamma sanoat tovarlari va Kanadaga chetdan keltiriladigan tovarlarga qo'llanadi.

Federal soliqqa yagona stavka - 12% belgilangan (avtomobil, televizor va x.k.) va tovarlar bahosiga bu soliq qo'shilgan. Hashamatli buyumlar bundan mustasno. Ular bo'yicha yuqori stavkalar qo'llanadi. Alkogol, spirt, tamaki - 18%, uy-joy qurish uchun foydalaniladigan tovarlarga - 8%, aloqa xizmati uchun -10% belgilangan. Boshqa turdagi xizmatlarga bu

solliq solinmaydi. Ushbu federal solliq egri solliq hisoblanadi. Uni ishlab chiqaruvchi firma to'laydi. Haqiqatda ishlab chiqarilgan tovarlarni taxminan 1/3 qismiga solliq solinadi, chunki bu solliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan iste'molchi uni to'lamaydi. Moliya Vazirligining hisobiga ko'ra 50%ga yaqin sotishga solinadigan solliq ishlab chiqarish-texnik ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlardan olinadi.

Provintsiyal sotishga solinadigan solliq har bir provintsiyada mustaqil belgilangan. Faqat tovarlarni oxirgi iste'molchiga sotishda olinadi (Ontario - 8%, Kvebek - 12%, Alberta - 0%).

Turizmni rivojlantirish maqsadida Kvebek va Manitoba provintsiyasi hokimiyatlari Kanadada tovarlarni sotib olish, xizmatlardan foydalanishda, sotishdan olinadigan solliq to'lagan chet el fuqarolariga federal dastur asosida solliqni qaytarib berish tartibiga o'tganlar. 1997 yil 1 apreldan boshlab Nyu-Bransuik, Yangi Shotlandiya va Nyufaundlend provintsiyalari tovarlar va xizmatlar bo'yicha o'zlarining mahalliy solliqlarini qo'shdilar. Qo'shilgan stavka 15% (7% - federal va 8% - provintsiyal) ni tashkil etdi.

Sotishga solinadigan solliq oziq-ovqat, bolalar kiyimi, oyoq kiyim, kitob va dorilarga qo'llanmaydi. Islohotni ikkinchi bosqichida (1991 yil) sotishga solinadigan solliq qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan. Alohida provintsiyal solliqlar va federal solliq yagona qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i deb, oxirgi mahsulot bahosi bilan material va xom ashyolarni qiymati o'rtasidagi farq tushuniladi. Lekin solliq summasi oxirgi mahsulot bahosidan hisoblanadi. Masalan, 100 dollarga material sotib olindi, uni qayta ishlandi va 200 dollarga sotdi. Shunda solliq bahodan protsent hisobida aniqlanib va etkazib beruvchiga to'langan summa chiqazib tashlanadi. Shu summaga solliqdan skidka qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini ko'p bosqichli sotishga solinadigan solliq desa ham to'g'ri bo'ladi.

Kelgusi bosqichlarda oradagi bosqichma-boskich solliq to'lovlari chiqarib tashlanadi. Shunday qilib, sekin-asta hamma solliq summasi oxir-oqibatda oxirgi iste'molchi zimmasiga tushadi.

Solliqni to'lovchi-iste'molchi 7%li stavka bilan to'laydi. Tovarlarni sotib olganda yoki mehmonxonada yashaganligi uchun to'lovni berganda, kimyoviy tozalash, sartaroshxona, fotoatele va shunga o'xshashlar, preyskurantda qo'rsatilgan bahoga yana 7%li solliq qo'shadilar. Tovar cheklari yoqi kvitantsiyalarda xizmat uchun solliq alohida qatorda ko'rsatiladi.

Aktsiz soliqlarini olish ham federal hukumat zimmasiga yuklatilgan. Kanadada ushbu soliq eng qadimiy soliqlarga kiradi. Asosiy aktsiz solinadigan tovarlarga benzin, alkogol ichimliklar, chekish mahsulotlari kiradi. Benzina solinadigan soliq (avtomobilni ro'yhatdan o'tkazishda olinadigan litsenziya yig'imi) provintsiyalarda zaruriyat bo'lgan davrlarda qo'llanildi. 1924-1926 yillarda avtomobil yo'llar etishmadi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida federal hukumat soliqni qo'shimcha stavka bilan qo'tardi. Hamda 1970 yilgi neft taqchilligidan keyin uni tashqi savdoni boshqarish uchun federal hukumat ixtiyoriga topshirildi. 1986 yili neft shov-shuvi tugagandan keyin Ottava o'zining yoqilgi bozorida qatnashishini saqlab qoldi. Hozirgi vaqtda hukumatni ikkala darajasi ham soliqlarni yig'ishda ishtirok etadi. Federal hukumat soliqni qat'iy belgilangan bir litrdan 8 tsent hajmida ushlab qoladi.

Tarif boji doim federal hukumatni ixtiyorida bo'lgan. Konfederatsiyani tashkil qilish davrida, savdoni soliqqa tortish daromadni asosiy manbai bo'lgan. Lekin keyinchalik boshqa manbalarni rivojlanishi va shimoliy Amerika va butunjahon savdo tashkilotlarida erkin savdo qilish to'g'risida bitim tuzilgandan keyin tariflarga davlat daromadining asosiy manbai sifatida qiziqish yo'qoldi.

9.4. Aholiga solinadigan soliqlar

Aholidan to'g'ri va egri soliqlar undiriladi. To'g'ri soliqlarga daromad solig'i, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, xizmatdan foydalanganlik uchun soliq (ko'prikdan foydalanganligi uchun soliq), yoqilg'iga solinadigan soliq, tranzit to'lovi (erni o'tqazib berish), sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtaga solinadigan yig'imlar kiradi.

Egri soliqlarga, birinchi navbatda, sotishga solinadigan soliq kiradi. Ko'rsatilgan soliqlarni ko'pchiligi federal darajasida va provintsiyal darajalarida to'lanadi. Munitsipalitetlarga ko'chmas mulkka solinadigan soliq, moliya kapitalini o'sishiga solinadigan soliq va xizmatlardan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

Aholini daromadiga solinadigan soliq

1. Soliq solinadigan ob'ektlardan asosiysi biri daromad hisoblanadi. Daromad tushunchasi daromad solig'i to'g'risidagi qonunda ko'rsatilmagan. Amaliyotda yalpi daromaddan, daromad olish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni chiqazib tashlanadi. Bunga natural daromadlar ham qo'shiladi (masalan, firmani avtomobilidan foydalanish)

2. Kelib tushish tartibi: Daromad sifatida kelib tushgan pul emas, hisoblangan summa olinadi.

3. Soliqni quyidagilar to'laydi: Kanadada yashovchi, Kanadada ishlovchi, Kanadada biznes bilan shug'ullanuvchi, Kanadadagi mulkka ruxsat beruvchi shaxslar.

4. Mamlakatda yil davomida yashovchini hamma daromadi (chet eldan olgani qo'shib) soliqqa tortiladi. Mamlakatda yilni ma'lum davrida yashaydigan shaxsni umumiy daromadi soliqqa tortiladi. (Lekin faqat yashagan davriga.) Norezidentlarni faqat Kanadada olgan daromadlari soliqqa tortiladi.

5. Fuqarolarni daromadlarini ikki marta soliqqa tortmaslik uchun, boshqa mamlakatlar bilan bitimlar tuzilgan.

6. Ayrim shaxslar mustaqil ravishda o'zlarining daromadlarini hisoblaydi va har yili daromad to'g'risidagi standart shakldagi deklaratsiya blankasini to'ldiradilar. Ishlayotgan shaxslardan soliq summasi yil davomida ish haqisidan ushlab qolinadi. Yillik soliq summasini aniqlashda, yil davomida to'langan summalarni qaytadan hisob-kitob qilinadi.

Daromadga har xil manbalardan kelgan tushumlar kiradi:

I. Yollanib ishlovchi shaxs daromadi:

ish haqi

II. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs daromadi:

foyda

III. Ijaraga berilgan mulkdan olingan daromad;

IV. Investitsiyadan olingan daromad:

foizlar, dividendlar

V. Kapitalni (sarmoyani) o'sishidan olingan daromad

investitsiyaga mo'ljallangan buyumlarni qaytadan sotishdan olingan foydani 2/3 qismi soliqqa tortiladi.

VI. Boshqa daromad turlari:

nafaqa, dotatsiya, kundalik harajatga ajratilgan mablag' va boshqalar.

7. Soliq solinadigan daromaddan quyidagilar chiqarib tashlanadi:

I. Nafaqa fondiga ro'yhatga olingan to'lovni berish, qarilik uchun to'plangan mablag'.

II. Kasaba uyushmasiga a'zolik to'lovi va boshqa assotsiatsiyalarga a'zolik uchun to'lovlar;

III. Bolalarni boqish bo'yicha harajatlar (ota-onalar ishlayotgan vaqtda bolalarni boqish bo'yicha harajatlar).

IV. Investitsiya bilan bog'liq harajatlar
(kapital qo'yilmaga foydalanilgan kredit bo'yicha foiz to'lovlar).

V. Boshqa tushumlar.

ko'rsatilgan summalarni umumiy daromaddan chiqazib tashlash sof daromadni ko'rsatadi.

8. Soliq solinadigan daromadni aniqlash uchun qo'shimcha sof daromaddan chiqarib tashlanadi:

I. Boshqa yillarning zarari.

II. Kapitalni o'sishidan olingan soliq solinmaydigan birinchi 100000 daromad;

III. Boshqa chiqazishlar.

9. Soliq solinadigan daromadlar asosida soliq summasi hisoblanadi:

9.3.-jadval

I. Federal soliq quyidagi stavkalar bilan aniqlanadi:

Soliq solinadigan daromad	Stavkani chegarasi
0 dan – 27500 CanD gacha	17%
27501 dan – 55000 CanD gacha	26%
55000 CanD dan yuqori	29%

II. Provintsiyal soliq federal soliqdan foiz hisobida aniqlanadi
(Kvebekdan tashqari)

9.4.-jadval

Provintsiyal soliqlarni stavkalari:

Nyufaundlend	60
Shaxzoda Edvard Aylend oroli	57
Yangi Shotlandiya	56,5
Nyu Brasuik	60
Ontario	51
Manitoba	54
Saskechevan	60
Alberti	46,5
Britaniya Kolumbiyasi	51,5
Shimoliy-G'arbiy hududlar	43
Yukon	45

10. To'lanishi kerak: soliq krediti chiqarib tashlangan summasi:

a) Oilani demografik tavsifi:

- umumiy (1020 dollar. Bu baravar eng kam yashash minimumini tashkil qiladigan 6000 dollar daromaddan olinadigan soliqqa);
 - oilaliklarga (850 dollar ishlamaydigan er yoki xotinga);
 - qaramog'idagilarga (250 dollardan yillik daromadi 2500 dollardan past bo'ladigan shaxslarga);
 - qariyalarga (60-65 yoshdan yuqori bo'lgan shaxslarga 550 dollardan);
 - bolalar uchun (65 dollardan birinchi ikkita bola uchun va 130 dollardan har bir keyingi bola uchun).
- b) Dividendga beriladigan kredit;
- nafaqa fondiga ajratma (20% dan ortiq bo'lmasligi kerak).
 - ishlamaydiganlar uchun
 - ta'lim olish uchun;
 - tibbiy xizmat ko'rsatish harajatlari uchun.

9.5. Kooperativlarga solinadigan soliqlar

Kooperativ o'zini xodimlariga yoki boshqa fuqarolarga xizmat qilishiga qarab solinadigan daromad solig'i farq qiladi. Kooperativ tovarlarni chakana bahoda oladi. Agar foyda olinsa uni yilni oxirida ikkiga bo'ladilar, ya'ni kooperativ a'zolaridan olingan va kooperativ a'zosi bo'lmaganlardan olingan foydalarga. Kooperativ a'zolariga xizmat qilishdan olingan foyda, ularning sotib olgan tovarlarini salmog'iga qarab taqsimlanadi. Bu o'rnini to'ldirish (kompensatsiya) sifatida qaraladi. Bu to'lovlar soliq solishda kooperativ daromadidan chiqazib tashlanadi. Bu kompensatsiyani bir qismi kooperativning aktsiyasi shaklida berilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida paychilarni kapital qo'yilmalariga tenglashtiriladi. Agar bu to'ldirish iste'mol tovarlari bo'yicha bo'lsa, oluvchi soliq deklaratsiyasida ko'rsatmaydi. Agar sanoat mollari bo'yicha olinsa, bu summa ko'rsatiladi va undan qo'shimcha soliq to'lanadi. Kooperativ foydaga solinadigan soliqni to'ldirish maqsadida taqsimlanmagan foyda yuzasidan to'laydi. Kooperativlarni soliqqa tortishda katta summalardan hohlaganini oladi:

- a) kooperativ a'zolariga xizmat qilishdan olingan foyda;
- b) to'ldirish uchun taqsimlanmagan foyda.

Umumiy soliq hohlagan katta summadan 47,5% olinadi. Har bir kooperativ a'zosini shaxsiy raqami mavjud va sotib olishda komp'yuterda

u ro'yhatga olinadi. Fermerlar boshqa xususiy shaxslar kabi soliqqa tortiladi. Lekin ularga nisbatan alohida qoida ham bor. Daromad, boshqalarga o'xshab, uni olish huquqi yuzaga kelganda emas, haqiqiy yil davomida kelib tushgan summa hisoblanadi. Bundan tashqari o'g'it sotib olish va boshqa harajatlar soliq solishda sotib olgan yilgi daromaddan chiqaziladi (o'g'itni kelgusi yillari ishlatishi ham mumkin). Soliq solishda fermer daromadi o'rtacha 5 yilga hisoblanishi mumkin. Uskunalar bo'yicha amortizatsiya odatdagi sxemada yoziladi.

9.6. Munitsipal organlarni soliq sohasidagi ishlari

Soliq sohasida munitsipalitetlar mutlaqo mustaqildir. Soliqni ko'chmas mol-mulk egalaridan undiradi. Munitsipalitetlar o'zini hududida qurilish qilish uchun yig'im belgilaydi. Yig'imni 5% dan kam bo'lmagan summasini jamoa umumiy foydalanadigan manzillarini qayta tashkil qilish, bezash ishlariga yuboriladi. Munitsipal byudjetni uzoq muddatli qarzi byudjetni umumiy hajmini 42% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda bu qarz soliq solinadigan mulkni 1%i dan yuqori bo'lmasligi kerak. Qarz bo'yicha to'lovlar esa munitsipalitetni umumiy joriy harajatlarni 20% dan oshmasligi zarur. Munitsipalitetlar aholidan, biznesdan mablag'ni qarzga olish uchun boj, aktsiya va obligatsiyalar chiqaradi, zayomlar maqsadli bo'lgani uchun, qayta taqsimlash yo'li bilan qarzga olingan mablag'larni bir joydan ikkinchi joyga yo'naltirish mumkin emas. Munitsipal byudjetni taqsimotini Ottava shaharini byudjetini misolida ko'rish mumkin. Joriy byudjet – 100%, ijtimoiy transportga dotatsiya-17%, dam olish va madaniyat sohasi harajatlari - 17%, aholini va mulkni himoya qilish (mirshab, o't o'chiruvchi) - 37%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam - 1%, ekologiya - 5%, bepul xizmatlar - 6%, qolgani-boshqa harajatlar. Daromadlar manbai – provintsiyadan beriladigan yordam va subsidiyalarni –10%hajmida tashkil etadi. Ular ikki xil bo'ladi: maqsadli va kompleksli. Maqsadlida: masalan 50-80%i yo'l harajatlarini qoplash; komplekslida shart qo'yilmasdan byudjet defitsitiga umumiy summa tarzida beriladi. Maxsus yig'imlar - 25% (litsenziya berish uchun yig'imlar, renta, xizmatlar) ga teng. Mulkka solinadigan soliq - 29% ni tashkil qiladi.

Provintsiya va federal hukumatlarini ularni ko'chmas mulkiga solinadigan soliq o'rniga beradigan yordamlari - 36% (hukumatlar soliq to'lamaydilar, uning o'rniga munitsipalitetlarga yordam puli jo'natadilar).

Huquqiy va jismoniy shaxslarni ko'chmas mulkiga solinadigan soliq doimo munitsipalitetlarni ixtiyorida bo'lgan va konfederatsiyani

tuzilmasdan oldin foydalanilgan. Soliq daromadlari shahar infratuzilmasini, ijtimoiy imoratlarni (maktab, tartibni saqlash organlari va h.k.) saqlab turish uchun sarflangan. Huquqiy shaxslarni, mol-mulkini olinsa, boshlanishida soliq tijorat imoratlari (ofislar), ombor zaxiralari va boshqa joylardan olingan. Buni nohaq deb, savdo xodimlari arz qila boshlagan. Hozirgi vaqtda soliq ko'chmas mulk egalari tomonidan to'lanadi va uni hajmini ularning qiymatidan foiz hisobida aniqlanadi. Shahar kengashini a'zolari, meriya rahbari aybi bilan byudjet defitsiti yuzaga kelsa, udar shaxsiy mulklari bilan javob beradilar va adliya orqali jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Soliq solish uchun mulkni baholash provintsiya hukumatini funktsiyasiga kiradi va provintsiyada soliqdan skidka berishda bir xil yondashishni ta'minlab beradi. Provintsiyalarda bu ishni baholash bo'yicha maxsus bo'lim ish olib boradi. Ontario provintsiyasida 31 bo'lim bo'lib, ularning har birida 100 tadan xodim ishlaydi. Baholashni maqsadi munitsipalitetga soliq bazasi to'g'risida tushuncha berishdir. Yer va imoratlar baholanadi, uy jihozlari, asbob-anjomlar va uskunalar baholanmaydi. Asosiy baholash - bozor qiymati asosda bajariladi, ya'ni erkin bozorda shu mulkni sotishdan olinadigan summa hisoblanadi. Hisob qiymatini aniqlash uchun 3 ta ta'sir qiluvchi omil hisobga olinadi. Birinchisi - qiymatni yuzaga keltirish uchun ketadigan harajatlar; ikkinchisi - mulk keltiradigan daromad; uchinchisi - bozor ma'lumotlarini hisobini olib borish yoki solishtirma yondashuv. Baholash mulkdor qatnashmagan tartibda amalga oshiriladi. Mulkdorga mulk qiymati o'zgarganligi va soliq stavkasi to'g'risida xabar qilinadi. O'zaro kelishmovchiliklar provintsiya hukumatiga qarashli maxsus tribunal (adliya tashkiloti)da echiladi. Tribunal a'zolari hukumat tomonidan tayinlanadi. Sug'urta kompaniyalari qiymatni mustaqil baholaydilar va o'zlarining baholash xizmatiga egalar. Mulkni bir qismini yo'qotish qaytadan baholashga olib keladi.

Ko'chmas mulkdan soliqni mulk qiymatidan 0,5-1,0% hajmida olinadi. Sartaroshxonalaridan – uy qiymatidan 30%, advokatlar idorasi va tibbiyot xonalari –50%, spirt ishlab chiqarish-14% to'lanadi. Munitsipalitet hamma ob'ektlar bo'yicha hujjatlar to'plami olib boradi. Baholash 11 ta provintsiyaga umumiy apparat (70 ta baholovchilar) tomonidan olib boriladi. Ontario provintsiyasida shikoyat (appellyatsiya) qilish uchun maxsus tribunal tuzilgan.

Tabiiy resurslarga solinadigan soliq, odatda provintsiyalar ixtiyorida bo'ladi. Tabiiy resurslar (neft, gaz, qazilma boyliklar, o'rmon, boliq va suv

zapaslari) provintsial byudjetda muxim o'rinni egallaydi. Lekin xar xil hududlar uchun ularning ahamiyatlari ham har xil. Bu holat tabiiy resurslar mamlakat bo'yicha bir xil taqsimlanmaganligi bilan bog'liq. Masalan, bu soliqlar Alberti provintsiyasida hamma tushumlarni 1/4 qismini tashkil qilsa, Saskachevanda 1/10 iga to'g'ri keladi.

Qazilma boyliklar ijtimoiy va xususiy foydalanish guruhlariga bo'linadi. Ularga uch xil turdagi bojlar solinadi: monopol kirish huquqi uchun, ishlab chiqarish (royalti) huquqi uchun va qazib olingan boylikdan ajratma berish. Hususiy egalik qilishda qazib olishni soliqqa tortiladi (shaxtaga solinadigan soliq). XIX asrning oxirigacha qazilma boyliklardan olinadigan soliqlar muhim rol o'ynamagan. Lekin o'rmonda daraxt qirqish katta daromad keltirgan. Hamma hududlarda shaxtalar qurilganidan keyin, ulardan keladigan tushum ham ko'paygan. U davrlarda tabiiy resurslarni soliqqa tortish sinov tartibida olib borilayotgan edi. Masalan, Kvebek provintsiyasida elektroenergiya ishlab chiqarish uchun suv resurslariga soliq solingan.

Munitsipalitet byudjetini ishlab chiqish tartibi.

Joriy yilini yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatni joriy va kelgusi yilga istiqbolini ishlab chiqish boshlanadi. Istiqbol ikki yilga belgilanadi. Munitsipal kengashni bo'limlari (boshqarmalari) istiqbolni shlab chiqadilar. Aprel-may oylarida iqtisodni rivojlantirishni strategik rejasi tayyorlanadi. Bu reja iyun-avgust oylarida munitsipal kengashni hamma bo'limlarida ko'riladi va ular reja to'g'risida o'zlarining memorandumlarini topshiradilar. Oktyabr oyida hamma takliflarni ko'rib chiqilgandan keyin byudjetni asosiy stavkalari belgilanadi. Shuning asosida noyabr-dekabr oylarida operativ byudjet, kapital qo'yilma, uzoq muhlatli dastur va uni moliyalashtirish hajmi tuziladi. Rejalashtiriladigan yilni yanvar-fevral oylarida loyiha ma'muriy muhokamadan o'tadi va munitsipal kengashni doimiy qo'mitalarida ko'rib chiqiladi. Mart oyida kengashda tasdiqlanib va shundan keyin soliq stavkalari ham qonuniy kuchga kiradi. Moliyaviy yil - kalendar yil hisoblanib, birinchi yanvardan boshlanadi. Shuning uchun rejalashtirilayotgan yil davomida soliq stavkasi tasdiqlanganiga qadar, soliqlarni huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan oldingi yil stavkasi asosida to'lanadi va keyin qaytadan hisob-kitob qilinadi. Soliqlar bir yilda 6 marta olinishi kerak.

9.7. Deklaratsiyani to'g'ri to'lg'azilganligini davlat tomonidan baholanishi, soliq organlari xarakatini nazorat qilish va ular ustidan arz qilish tartibi

Soliq deklaratsiyasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil to'ldiriladi va kelgusi kalendar yilni 30 aprelegacha topshirilishi zarur. Soliq organlari tanlov asosida deklaratsiyani to'g'ri to'ldirganligini tekshiradi va undagi ma'lumotlarni haqiqiylikiga e'tiborni qaratadi. Ular buxgalteriya kitoblarini ko'rish va reviziya o'tqazish huquqlariga ham egalar. Buning natijasida davlat organlari tomonidan hisoblangan soliq summalari, soliq to'lovchidan olingan ma'lumotlardan farq qilishi mumkin. Shunda kelishmovchilik yuzaga kelsa, soliq to'lovchi huqumatni baholashidan norozi bo'lsa, davlat organlarini baholashini noto'g'riligini tasdiqlab berishi kerak.

Soliq to'lovchi daromadlar vazirligiga, Kanadani soliq adliyasiga appelyatsiyaga berishi mumkin. Keyin Kanadani federal adliyasiga va nihoyat Kanadani Oliy adliyasiga berishi mumkin. Soliq qonunchiligini buzganligi uchun fuqarolarga nisbatan har xil jazolar qo'llanadi. Deklaratsiyani kechiktirib bersalar, ulardan soliq summasini 5% hajmida jarima olinadi. Bunga yana har bir kechiktirilgan oy uchun 1% dan qo'shib boriladi (shu tartib 12 oygacha davom etadi). Jarima qo'llangandan keyin, uni tasdiqlash Daromadlar vazirligiga yuklatilgan. Federal va provintsial huqumatlari bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda soliq to'lovchiga jarima solishlari mumkin. Bundan tashqari daromad solig'i bo'yicha qonunni buzganlarni jinoiy javobgarlikka ham tortish mumkin. Jinoyat qonunchiligida to'lanmagan soliq summasiga 50 dan 200 foizgacha jarima solinadi yoki jarima solinib, yana 2 yilga qamoqqa yuborish mumkin. Bu choralar soliq deklaratsiyasida noto'g'ri ma'lumotlar berilganligida, moliyaviy hujjatlarni yo'q qilinganida, ularni qalbakilashtirilganida, qonunni buzganida yoki jinoiy kelishuvlarni amalga oshirilganida soliq to'lovchilarga qo'llanadi.

9.8. Kanadani hududlarida soliqni boshqarish

Kanadani federal hukumati provintsiyalar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlaydi va daromadi past provintsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri dotatsiyalar beradi. Provintsiyani nochor va boy ekanligini aniqlash mezoni ularning potentsial soliq yig'ish imkoniyati orqali hisoblanadi. Aholini ijtimoiy turmush darajasini tenglashtirish uchun maxsus dastur amalga oshiriladi. Provintsiya imkoniyatini hisobi, mamlakatdagi o'rtacha

solliq stavkasiga asoslanadi. Moliya Vazirligi tomonidan har yili qaytadan hisob-kitob qilinadi. Tenglashlashtirish - bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad darajasi asosida olib boriladi. Bu farqni hisoblash bo'yicha maxsus qonun mavjuddir. Federal hukumatni provintsiyalar bilan boshqa qator o'zaro aloqalar shakli mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri provintsiyalarga pul to'lovlari berish (shunday shart bilan provintsiya federatsiyani belgilagan tartiblari asosida ish olib boradi. Masalan, federal hukumat shifoxonada yotish qiymatini 50%ini qoplaydi, lekin provintsiya shifoxonasi ta'minlashni o'rtacha standartini ta'minlay olgan taqdirdagina amal qiladi).

- ijtimoiy yordam dasturi (ishsizlikni yo'qotish, madaniyatni rivojlantirish, ta'lim va boshqalar), birgalikda dasturlar ishlab chiqish, ularni tadbiiq qilish va birgalikda moliyalashtirish (federal infrastruktura, transkanada avtostradasi va h.k.).

Federal va provintsiya hukumatlari o'rtasida (har biri bilan alohida) bitim tuziladi va hujjatda yagona solliq inspeksiyasi yig'adigan solliq turlari ko'rsatiladi. Solliqlarning ayrim turlari bo'yicha ilgari kelishuvlar bo'lmagan, ular keyinroq tadbiiq etildi. Masalan, sotishga solinadigan solliqni chakana savdoga belgilash va yig'ish provintsiyal hukumatni ishi bo'lib, ishlab chiqarish bo'yicha bu solliqni federal hukumat yig'adi. Bu solliq to'g'risida hukumatlar o'rtasida bitim yo'q. Solliq solishda qonunchilik tashabbusi faqat Moliya Vazirligi va vazirlar Mahkamasiga (federal, provintsiya) zimmasiga yuklatiladi. Tarmoqlar bo'yicha vazirliklar o'z fikrlarini vazirlar mahkamasida izhor qilishlari mumkin, lekin parlamentda bunday huquqqa ega emaslar. Parlamentda vazirlar mahqamasi tasdiqlagan qonunchilik hujjatlari asosida ish yuritadi.

Asosiy tayanch iborlar:

- Uch pog'onalik solliq tizimi
- Federatsiya, provintsiya, munitsipalitetlar solliq tizimi
- Daromad solliq stavkalari
- Provintsiyalarni solliq sohasidagi huquqlari
- Amortizatsiyalar farqi
- IITKIning rivojlantirishga beriladigan solliq imtiyozlari, kredit va dotatsiyalar
- Kooperativ solliq

Takrorlash uchun savollar:

1. Kanada soliq tizimini tashkil topishi va rivojlanishi
2. Soliqlarni qanday organlar boshqaradi?
3. Korporatsiyalarni foydasiga solinadigan soliq bilan ularning kapitaliga solinadigan soliqlarni farqini ko'rsatin.
4. Sotishga solinadigan soliq xususiyatlarini yoritib bering
5. Hududlar bo'yicha soliqlar qanday boshqariladi?

Test savollari:

1. Federal byudjetga qaysi guruh soliqlar tushadi?:
 - a) Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, tabiat resurslariga solinadigan soliq, tadbirkorlikka solinadigan soliq.
 - b) Tovar va xizmatlarga solinadigan soliq, ro'yhatga olish va litsenziya yig'implari, aktsizlar, foydaga solinadigan soliq.
 - c) Tabiiy resurslarga solinadigan soliq, daromadlar solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq va h.k.
 - d) Tarif bojlari, daromad solig'i, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar, aktsizlar, foydaga solinadigan soliq.
 - e) Hammasi noto'g'ri.
2. Federal byudjetga tushadigan korporatsiyalarni daromad (foydasiga) solinadigan soliq stavkalarini ko'rsating, %da:
 - a) 10-20
 - b) 12-28
 - c) 8-14
 - d) 16-24
 - e) 15-30
3. Provintsiyalar byudjetiga tushadigan korporatsiyalarni daromad (foydasiga) solinadigan soliq stavkalarini aniqlang, %da:
 - a) 8-12
 - b) 10-16
 - c) 15-20
 - d) 10-15
 - e) 18-22
4. Yer osti boyliklarini qazib olish uchun korporatsiyalar beradigan arenda to'lovi qaysi ko'rsatkichga nisbatan aniqlanadi?:
 - a) Yalpi mahsulot
 - b) Umumiy tushum

- c) Tannarx
- d) Sof daromad
- e) Yalpi daromad

5. Provintsiyal byudjetga qaysi guruh soliq va to'lovlar tushadi?:

a) Tabiiy resurslarga solinadigan soliqlar, daromad solig'i, kapital aktivni o'sishiga solinadigan soliqlar, ish haqidan olinadigan soliqlar, tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar, aktsizlar, foydaga solinadigan soliq.

b) Tarif bojlari, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, tabiiy resurslarga solinadigan soliq,

c) Daromad solig'i, kapital aktivlarni o'sishiga solinadigan soliq, ro'yhatga olish va litsenziya yig'implari.

d) Ish haqidan olinadigan soliqlar, tarif bojlari, tadbirkorlikka solinadigan soliq.

e) Ro'yxatga olish va litsenziya yig'implari. kapital aktivlarni o'sishiga solinadigan soliq, aktsizlar, ko'chmas mulkka solinadigan soliq.

6. Munitsipal byudjetga qaysi guruh soliq va to'lovlar tushadi?

a) Kapital aktsizlarni o'sishiga solinadigan soliq, ish haqidan olinadigan soliqlar, daromad solig'i.

b) Tabiiy resurslarga solinadigan soliq, tadbirkorlikka solinadigan soliqlar.

c) Tarif bojlari, daromad soligi, tabiiy resurslarga solinadigan soliqlar, aktsizlar, ro'yhatga olish va litsenziya yig'implari.

d) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq, tadbirkorlarga solinadigan soliq, ro'yhatga olish litsenziya yig'implari.

e) Hammasi noto'g'ri.

7. Qaysi guruh stavkalar sotishga solinadigan soliqqa taaluqli?

a) 6-8,14,16

b) 8,10,12,18

c) 5,9,11,18

D) 7,11,15,16

e) hammasi to'g'ri

8. Aholidan daromad solig'i olinganda soliq ob'ekti sifatida qaysi daromad olinadi?

a) Umumiy tushum.

b) Mahsulot qiymatidan moddiy harajatlar chegirilgan ko'rsatgich.

c) Yalpi daromaddan (tushumlar) uni olish bilan bog'liq harajatlar chiqarilgan summa.

d) Tushumdan tannarx chiqazib tashlangan summa,

e) Mahsulot qiymatidan ish haqi fondini chegirilgan summa.

9. Qaysi jismoniy shaxsga daromad solig'i solinadi?

a) Kanadada yashovchi

b) Kanadada ishlovchi

c) Kanadada biznes bilan shug'ullanuvchi

d) Kanadada mulkka ruxsat beruvchi

e) a,b,c,d

10. Daromadga qaysi mablag'lardan kelgan tushumlar kiradi?

a) Ish haqi

b) Tadbirkorlikdan olingan foyda

c) Arendaga berilgan mulkdan olingan daromad

d) Investitsiyadan olingan daromad foizlari, dividendlar, kapitalni o'sishidan olingan daromad

e) a,b,c,d

11. Soliq solinadigan daromaddan quyidagi qanday chegirmalar chegirib tashlanadi?

a) Nafaqa fondiga berilgan mablag'

b) Kasaba uyushmasi va boshqa assotsiatsiyalarga a'zolik uchun to'lovlar

c) Bolalarni boqish harajatlari

d) Investitsiya bilan bog'liq harajatlar va boshqalar

e) a,b,c,d

12. Munitsipal byudjetni uzoq muddatli qarzi qaysi hajmdan oshmasligi kerak (foiz hisobida) ?

a) 50

b) 60

c) 42

d) 80

e) 30

13. Munitsipalitetlarni qarz bo'yicha to'lovlari yillik joriy harajatlarni qaysi hajmidan oshmasligi kerak (foiz hisobida)?

a) 30

b) 50

c) 40

d) 20

e) 60

14. Mulk solig'ini ob'ekti bo'lgan ko'chmas mulk qaysi bahoda olinadi?

- a) Qoldiq qiymati
 - b) Bozor qiymati
 - c) Boshlang'ich qiymati
 - d) Qaytadan tiklash qiymati
 - e) Hammasi to'g'ri
15. Kanadada moliyaviy yil qachon boshlanadi?
- a) Birinchi yanvar
 - b) Birinchi mart
 - c) Birinchi aprel
 - d) Birinchi iyul
 - e) Hammasi noto'g'ri

X BOB. SHVEYTSARIYANI SOLIQ TIZIMI

10.1. Soliq tizimini huquqiy asoslari

10.2. Konfederatsiya soliqlari

10.2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

10.2.2. Huquqiy shaxslarni foyda va kapitaliga solinadigan soliq

10.2.3. Manbaida olinadigan soliq

10.2.4. Gerb solig'i

10.2.5. Qo'shilgan qiymat solig'i

10.2.6. Bojxona bojlari

10.3. Kanton va munitsipal soliqlar

10.1. Soliq tizimini huquqiy asoslari

Shveysariya davlati 1291 yil 1 avgustda tashkil topgan. 1815 yilda Vena Kongressi Shveysariyani “neytral”, ya’ni “doimiy be’taraf”, deb e’lon qildi. 1848 yilda qabul qilingan konstitutsiya Shveysariyani davlatlar ittifoqidan yagona federativ davlatga aylantirdi. “Universal betaraflik” Shveysariyaning tashqi siyosiy doktrinasi hisoblanadi.

Shveysariya Federativ parlament respublikasi bo’lib konfederatsiya (markaziy shtat), 26 kantonlar va ularga kiruvchi 3000 munitsipalitetlardan iborat.

Shveysariya yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakatdir. Aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulotning miqdori jihatidan rivojlangan mamlakatlar o’rtasida asosiy o’rinlarda turadi. Sanoatda yuqori sifatli qimmatbaho elektr, mashinasozlik, kimyo sanoati pretsizion stanoksozlik*, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqariladi va eksport qilinadi. Shveysariya banklari iqtisodda muhim ichki va ayniqsa xalqaro miqyosda rol o’ynaydi. Ularning umumiy aktivi yalpi ichki mahsulotdan ikki baravardan ko’pdir.

Kantonlar suveren ma’muriy jihatdan hududiy birlik bo’lib, o’zlarining konstitutsiyasiga, parlamenti va hukumatiga ega. Lekin kantonlar huquqi federal konstitutsiya tomonidan cheklangan.

Shveysariya soliq tizimi asta-sekin shakllana boshlagan. Konstitutsiya qabul qilingunga qadar kantonlar (shtatlar) asosiy daromadlarini bojlardan olganlar. 1848 yili bojxona bojlarini yig’ishni kantonlar konfederatsiya

* pretsizion stanoksozlik – yuqori darajadagi aniqlik bilan ishlaydigan stanoklarni ishlab chiqarish

ixtiyoriga berdilar. Lekin kantonlar daromad va mol-mulk solig'ini to'plash huquqini o'zlarida qoldirdilar.

Soliqlar yirik korporatsiyalar va kichik firmalar faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun hukumat doimiy ravishda soliq tizimini takomillashtirish ustida ish olib boradi. Bu esa o'z navbatida butun dunyoda qattiq raqobat sharoitida mamlakatda savdo-sotiq faoliyatini olib borishga xammada qiziqtirish uyg'otadi.

Federalizm printsiptiga asoslangan holda mamlakatda uch pog'onalik soliq solish tizimi qo'llanadi.

Soliqlar konfederatsiya hukumati, kanton va munitsipalitetlar tomonidan yig'iladi.

Har bir pog'ona bo'yicha soliqlar taqsimlangan.

Konfederatsiyaga kelib tushadigan soliq va yig'implar:

I. Daromad va mulkdan olinadigan to'lovlar.

- 1) Daromad solig'i
- 2) Foyda va kapitalga solinadigan soliq
- 3) Manbadan olinadigan soliqlar
- 4) Gerb yig'imi
- 5) Harbiy xizmatni o'tmagan shaxslarga solinadigan soliq

II. Iste'mol va egalikdan olinadigan soliqlar

- 1) Qo'shilgan qiymat solig'i
- 2) Tamaki mahsulotlarga solinadigan soliq
- 3) Pivoga solinadigan soliq
- 4) Distirlangan spirtga solinadigan soliq
- 5) Bojxona boji (import, eksport va qo'shimcha)

Kantonlar to'playdigan tushumlar:

I. Daromad va mulkdan olinadigan to'lovlar

- 1) Daromad solig'i va toza aktivlarga solinadigan soliq
- 2) Jon boshidan olinadigan soliq
- 3) Foyda va kapitalga solinadigan soliq
- 4) Meros va xadyadan olinadigan soliq
- 5) Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq
- 6) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq
- 7) Ko'chmas mulkni o'tkazib berish uchun solinadigan soliq
- 8) Savdoga solinadigan soliq

II. Iste'mol va egalikdan olinadigan soliqlar

- 1) Transport vositalariga solinadigan soliqlar
- 2) Itlarga solinadigan soliq

- 3) Tomoshaga solinadigan soliq
 - 4) Gerb yig'imi
 - 5) Hidravlik elektrostantsiyalariga solinadigan soliq va boshqalar
- Munitsipalitetlar ixtiyoriga kelib tushadigan soliq va yig'implar:

I. Daromad va mulkdan olinadigan soliqlar

- 1) Daromad solig'i va sof aktivlarga solinadigan soliq
- 2) Jon boshiga solinadigan soliq
- 3) Foyda va kapitalga solinadigan soliq
- 4) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq
- 5) Ko'chmas mulkni o'tkazib berish uchun solinadigan soliq
- 6) Savdoga solinadigan soliq

II. Ist'emol va egalik qilishdan olinadigan soliqlar

- 1) Itlarga solinadigan soliq
- 2) Tomoshaga solinadigan soliq
- 3) Boshqa soliqlar

XX asrni oxirgi o'n yilligida soliq daromadlari uchta pog'ona o'rtasida quyidagi tartibda taqsimlangan: konfederatsiya 40%, kantonlar 34% va munitsipalitetlar 26%.

Shveytsariya konstitutsiyasiga binoan, soliqlar asosiy qonun (konstituttsiya)ga qat'iyon muvofiq ravishda undiriladi. Hokimiyatni har bir darajasi konstitutsiyada ko'rsatilgan soliqlarnigina yig'adi, konstitutsiyaning qoidalariga ko'ra, uchta organning birortasi ham boshqasiga halaqit bermaydi, soliq to'lovchilar zimmasidagi yuk esa soliqqa tortishning iqtisodiy chegarasidan o'tmaydi. Umuman kantonlarga har qanday turdagi soliqlarini undirishlariga ruxsat etilgan, yig'ilishi konfederatsiyaning eksklyuziv yurisdiksiyasi (ya'ni faqat uning o'ziga tegishli huquqi) bo'lgan soliq turlari bundan mustasno, kantonlar o'z soliq qonunlarini yaratish huquqiga egalar. O'z navbatida munitsipalitetlarning o'z soliqlarini yig'ish huquqlarini kantonlarning konstitutsiyasida belgilanadi.

Shveytsariyani ijtimoiy tartibida munitsipalitetlar muhim avtonom o'z-o'zini boshqarish organlari hisoblanadi. Ular boshlang'ich ta'lim berish, ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy harajatlarni amalga oshiradi.

Natijada munitsipalitetlar avtonom fiskal mustaqillik bilan yonma-yon funktsional avtonomiyani amalga oshiradilar.

Shveytsariyada soliqlar ikkita guruhlariga bo'linadi:

1. Daromad va mulkdan olinadigan soliq

2. Iste'mol va egalik qilishga solinadigan soliqlar

Konfederatsiya, kantonlar va munitsipalitetlar ikkala toifadagi soliqlarni yig'adilar. Bu soliqlar o'z navbatida to'g'ri va egri soliqlardan tashkil topadi.

Shveysariyada soliqlarni belgilash quyidagi ikki boshqa-boshqa tizimlarga asoslangan:

- yakunlovchi soliq solish. Soliq (asosan huquqiy shaxslar bo'yicha) soliq davri tugaganidan so'ng hisoblab chiqariladi.

- dastlabki soliq solish. Soliq (asosan jismoniy shaxslar bo'yicha) yillik yoki ikki yillik soliq davri tugaganidan oldin avvalgi bir yoki ikki yilda olinadigan daromad asosida hisoblab chiqariladi.

Masalan, 2003 yil solig'i 2003/2004 yillarga to'lanadi (avans to'lovlari). Soliq hajmini aniqlash 2001/2002 yillar olingan daromad asosida aniqlaydi.

Shveysariyani soliq haqidagi qonun hujjatlari uning konstitutsiyasida belgilangan va quyidagi printsiplarga asoslangan:

- teng huquqli
- savdo erkinligi
- mulkchilik huquqini kafolatlash
- kantonlararo ikki tomonlama soliqqa tortishni ta'qiqlash
- asossiz soliq tushumlarini ta'qiqlash

Mamlakatda soliq solishni (vertikal va gorizontal yo'sinda) uyg'unlashtirishga katta e'tibor beriladi. Bu esa soliq tizimini takomillashtirish va soddalashtirishga yordam beradi.

Shveysariyada xalqaro ikki yoqlama soliq solishga katta e'tibor beriladi. Ikki yoqlama soliq solish xar xil soliq yurisdiksiyalarini bir-biriga to'g'ri kelishi natijasida yuzaga keladi. Natijada soliq to'lovchi bir turdagi daromad yoki kapitaldan ikkita yurisdiksiyalar asosida soliq to'lashiga to'g'ri keladi. Ikki tomonlama soliqqa tortish xalqaro va kantonlar darajasida yuzaga keladi. Kantonlar darajasidagi kelishmovchilikni federal oliy adliya xal qiladi. Xalqaro ikki tomonlama soliqqa solish xalqaro konventsiyalar tuzish asosida bartaraf qilinadi.

Ikki tomonlama soliq solishdan ikkita uslub bilan chiqib ketish mumkin: ozod qilish uslubi va kreditlash uslubi. Ozod qilish uslubida mamlakat rezident mamlakat - manbaga birlashtirilgan daromad va kapitalni ozod qiladi. Kreditlash metodida ikkala mamlakat ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan daromadlarni soliqqa tortish huquqiga ega.

Qanday bo'lishidan qat'iy nazar mamlakat-rezident mamlakat-manbada to'langan soliqni o'zinikiga qarshi ravishda kreditlaydi.

10.2. Konfederatsiya soliqlari

Konfederatsiya soliqlari mamlakat daromadining 2/5 qismini tashkil qilib qator to'g'ri va egri soliqlar hamda yig'implardan iborat bo'ladi.

Konfederatsiya soliq daromadlarining tarkibi 1990 yillarning ikkinchi yarmida quyidagicha ko'rinishda edi: QQS – 29,1%, to'g'ri soliqlar – 23,6%, bojxona bojlari – 14,9%, hisob-kitob solig'i – 10,1%, davlat yig'implari – 4,5%, boshqa soliqlar – 5,5%, soliqdan tashqari yig'implar – 12,3% ni tashkil qilgan.

10.2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Daromad solig'i federal to'g'ri soliqlardan biri bo'lib jismoniy shaxslardan olinadi. Soliqqa rezidentlar yoki Shveysariyada foyda keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi vaqtincha rezidentlarni daromadlari tortiladi (chegaralanmagan soliq javobgarligi). Chegaralangan soliq javobgarligi Shveysariyada maxsus iqtisodiy munosabatlarga ega bo'lgan norezidentlarga qo'llanadi. Bu holatda soliq Shveysariyadagi manbalardan olingan maxsus daromadlar turlaridan olinadi.

Soliq ikki yillik davrga aniqlanadi va har yili kantonlar tomonidan konfederatsiya uchun yig'iladi.

Federal soliq solish ob'ekti bo'lib, quyidagi daromadlar hisoblanadi:

- maishiy xizmat ko'rsatuvchi qaram va qaram bo'lmagan firmalar
- badal (tovon)lik (annuitetlar*, nafaqalar)
- qo'shimcha (uzoq yillik xizmati uchun qo'shimcha to'lov, kichik hajmdagi mukofotlar) to'lovlar.
- kapitalni o'sishi, mulkni hajmini ko'payishi, mulk huquqini oshishi, ular korxonada amalga oshirilgan hollarda.
- lotoreya sovrinlari va boshqalar.

Odatda daromad olish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar (masalan, mutaxassislar xizmati uchun to'lovlar) yalpi daromaddan chiqazib tashlanadi.

Qo'shimcha ijtimoiy chegirmalar yolg'iz ota-onalarga, bolalarga, qaramog'idagi bolalarga, umumiy daromadga ega bo'lgan oilaviy

* annuitet – renta yoki doimo olinib turiladigan daromad

juftliklarga beriladi. Bundan tashqari sug'urta yig'implariga, omonat depozitlari bo'yicha foizlar chiqarilib tashlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi progressiv hisoblanadi. Eng ijobiy (ma'qul) stavka oilaviy juftliklarga qo'llanadi. Ularga "ikki baravar oshirilgan shedula" tizimi qo'llanadi. Bu tizimda erini daromadi xotinini daromadi bilan qo'shib hisoblanadi. Soliqning eng yuqori stavkasi 11.5% dan iborat.

10.2.2 Huquqiy shaxslarni foyda va kapitaliga solinadigan soliq

Soliqni Shveytsariyada ro'yhatga olingan ofisi yoki harakatdagi boshqaruv organi mavjud bo'lgan huquqiy shaxslar to'laydi. Soliqni solishda ikki turdagi huquqiy shaxslar ajratiladi:

- korporatsiyalar (qo'shma korxonalar, chegaralangan javobgarlik korxonalar) va korporativ shirkatlar;

- assotsiatsiyalar va tuzilmalar, hamda davlat muassasalari va cherkov tashkilotlari.

Korporatsiya va kooperativlar foydaga va kapitalga solinadigan soliqlarga tortiladi.

Federal foydaga solinadigan soliq progressiv soliq hisoblanadi. Soliqni uch pog'onalik daromadlar shkalasi bo'yicha undiriladi. Shunga binoan soliq og'irligi soliq solinadigan foydani sof aktivlar bilan bir-birini munosabatiga qarab ortib boradi. Bazaviy soliq 3,63% stavka bilan olinadi. Soliq solinadigan foydani 4% i ortiq daromad keltiradigan qismidan, yana qo'shimcha 3,63% hajmda soliq olinadi. Qo'shimcha 8% dan ortiq daromad beradigan qismidan 4,84% hajmda ikkinchi qo'shimcha soliq olinadi. Eng yuqori soliq stavkasi foydalar yig'indisidan 9,8% dan ortib ketmasligi kerak.

Kapitalga solinadigan soliq proportsional hisoblanadi. Soliq olingan kapitaldan va balansda ko'rsatilgan zahiralardan olinadi. Hozirgi davrda soliq solinadigan kapitaldan 0,08% stavka bilan soliq olinadi.

Xolding kompaniyalardan soliq olishni ayrim xususiyatlari mavjud. "Xolding kompaniyalari" degan tushunchaga chegaralangan sherikchilik aksioner kompaniyalari va ma'suliyati cheklangan kompaniyalar va kooperativlar kiradi. Ularning asosiy maqsadi boshqa kompaniyalardagi xoldinglarni doimiy boshqarishdan iborat bo'lishi kerak.

Xolding kompaniyalari investitsion foydani umumiy daromaddan chegirish yo'li bilan soliq imtiyozi oladilar. Bu ikki marta soliq to'lamaslik

uchun quyidagi holatda qo'llaniladi: kompaniya boshqa kompaniyaga investitsiya qilib soliq to'lagan hollarda. Natijada xolding kompaniyalar sof foydaga solinadigan soliqni to'lamaydi. Ulardan faqat kapitalga solinadigan soliq olinadi. Investitsion trust* hisoblangan tashkilot, tuzilma va boshqa huquqiy shaxslar soliqni federal soliqlar qonuni asosida to'laydilar. Bunday tashkilotlarni foydaga solinadigan soliqlari sof foydalarini 4% tashkil qiladi. Lekin davlat tashkilotlari va cherkov organlari bu soliqdan ozod qilinganlar. Yuqoridagi kabi huquqiy shaxslarni kapitali korporatsiyalarga qo'llanadigan stavka 0,08% hajmida olinadi. Bu soliq bo'yicha soliq solinmaydigan minimum 50000 Shveytsariya Franki hisoblanadi. O'zining aktivida ko'chmas mulkga ega bo'lgan investitsion fondlar foydaga solinadigan soliqni daromadga solinadigan soliq stavkalari bilan hisoblaydilar. Ular kapitalga solinadigan soliqni to'lamaydilar.

10.2.3. «Manba» dan olinadigan soliq

“Manba”dan (kutilayotgan soliq) federal konstitutsiya va federal qonun asosida olinadi.

Bu soliq mulkdan olingan daromaddan dastlabki (oldindan) undiriladigan soliq hisoblanadi. Maxsus stavka 35% hajmida dividendlarga, lotereya yutuqlariga qo'llanadi. Sug'urta to'lovlariga 8% yoki 15% li stavkalar belgilangan. “Manba” dan olinadigan soliq federal to'g'ri daromad solig'ini o'rnini egallaydi.

Soliq yalpi daromad va soliq solinadigan faoliyatni turiga qarab belgilanadigan stavkaga bog'liq. Bu masalalarni hammasi ikki tomonlama soliq solishdan xolis bo'lishi uchun Shveytsariyani boshqa davlatlar bilan tuzadigan shartnomalarida boshqariladi. “Manba” dan olinadigan soliq Shveytsariyada doimiy yashaydigan yoki uning rezidenti bo'lib, to'lanadigan, foydali faoliyatga ega bo'lgan, lekin maxsus organ (Aliens Registration Office) beradigan yashash uchun ruxsatnomasi bo'lmagan horijiy fuqarolarga nisbatan qo'llanadi.

Yalpi daromadni aniqlashda qo'shimcha daromadlar va sog'liqni ta'minlab turish, baxtsiz hodisalardan, ishsizlikdan sug'urta qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar-chegirmalar hisobga olinadi. Shveytsariyada doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, yoki rezident hisoblanmagan

* investitsion trust (trustee investments) - vasiylar tomonidan qo'yiladigan kapital mablag'lar (ishonib berilgan mulkni investitsiya qilish vakolatiga ega bo'lgan hollarda).

jismoniy va huquqiy shaxslarga chegaralangan soliq javobgarligi qo'llanadi. Ular faqat chet mamlakatda soliq solinadigan qo'shimcha daromadga mulk bo'yicha soliqlarni hisoblashi mumkin. "Manba"dan soliqni chiqarib tashlash faqat chet el fuqarolariga qo'llanib qolmay, Shveytsariya fuqarolari va huquqiy shaxslariga ham qo'llanishi mumkin.

10.2.4. Gerb yig'imi

Gerb yig'imi federal konstitutsiya va 1973 yilgi federal qonun asosida yig'iladi.

Soliq majburiyati maxsus qonuniy harakatni amalga oshirganda kelib chiqadi. Masalan, aktsiyalarni chiqarish yoki qimmatbaho qog'ozlarni berish.

Yig'imlarni uch darajasi o'rtasida farq mavjud:

1. Shveytsariyadagi korporatsiyalar, xususiy kompaniyalar va kooperativ jamiyatlar aktsiya nominalini chiqarganda yoki ko'paytirganida olinadigan gerb yig'imi. Obligatsiya va pullik bozor shartnoma majburiyatlarini chiqarilganida ham olinadi.

Kompaniyalarda emissiyani amalga oshirganlarida ularning soliq qarzdorligi yuzaga keladi. Rezidentlar chiqargan aktsiyalardan yig'im 2% ni tashkil qiladi. Yangi tashkil qilingan aktsiyalar kompaniyalar va ma'suliyati cheklangan kompaniyalar uchun chegirma mavjud. Uning eng yuqori hajmi 250000 shv.fr. ni tashkil qiladi. Kompaniya rezidentlari chiqargan qarz majburiyati bo'yicha to'liq va to'liq bo'lmagan har bir yil uchun 0,12 % ni tashkil qiladi.

O'rta muhlatli bank veksellari uchun stavka 0,06% belgilangan.

Korporatsiyalar birlashganida, huquqiy tarkibi o'zgarganda, chet eldan Shveytsariyaga ko'chib kelib joylashgan manzilini o'zgartirish natijasida olingan hollarda aktsiyalar soliqqa tortilmaydi.

Gerb yig'imlari ichki va chet el mamlakatlarini qimmatbaho qog'ozlarni o'tkazganda (sotib olish yoki sotish) va shu tarzda transport hujjatlarini o'tkazganda yig'iladi.

Evroobligatsiyalar, boshqa chet el valyutasidagi obligatsiyalar, kasbiy brokerlar qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirgandagi tijorat aktsiyalari soliqqa tortilmaydi.

Ichki qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha 0,15% li va chet el qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha 0,3% li yig'im olinadi va uni to'lov asosida, ya'ni qimmatbaho qog'ozlarni sotish va sotib olish narxi summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Gerb yig'imiga sug'urta to'lovlari ham tortiladi. Sug'urta polisi bo'yicha olingan mukofot summasidan va avtomobillarni kompleks sug'urta qilishdan va mulkni sug'urta qilishdan ayrim polislar bo'yicha 5% li yig'im olinadi.

Aholini turmush darajasini va qarilikni ta'minlash bo'yicha polislar orqali sog'liq darajasiga qarab va baxtsiz hodisa yuz berganda to'lanadigan mablag'lardan yig'im olinmaydi, yig'imni sug'urta qiluvchi to'laydi.

10.2.5. Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'i Shveytsariyada aylanmadan olinadigan soliq o'rniga 1995 yili 1 yanvarda kiritilgan. Bu soliqni tadbiq qilishda birinchi navbatda asos qilib Evropa davlatlari Evropa ittifoqi a'zolari qabul qilgan degan fikr hisobga olindi. QQS - bu umumiy foydalanish va ist'emol solig'i hisoblanadi.

Soliq ishlab chiqarishni hamma sohalarida, taqsimotda, tovarlarni import qilishda, vatanni xizmat sohasi va chet eldan 10000 shv.fr. yuqori summaga olingan xizmatlar olinadi.

Soliq foyda olish uchun qaratilgan mustaqil yoki tijorat faoliyatidan va u bilan bog'liq bo'lgan mahsulot yuborish va xususiy ichki ist'emoldan olinadi. Oxirgisini hajmi bir yilga 75000 shv.fr. dan yuqori bo'lishi kerak.

Ichki stavka va xizmatlar bo'yicha soliqni hisoblashda asos qilib yalpi to'lov olinadi.

Shveytsariyada soliqdan oldingi chegirma qo'llanadi. Bu esa o'z navbatida soliq jamg'armasi xosil bo'lishidan qutqaradi (masalan, sotib olishni soliqqa tortish, tovar aylanmasini soliqqa tortish) Har bir soliq to'lovchi shaxs o'zining tovar aylanmasi bo'yicha yalpi summadan, soliqdan olingan chegirmani chiqazib tashlaydi.

Bu soliqning xususiyati shundan iboratki ikki xil aylanmani ajratadilar: QQSdan ozod qilingan (boshqacha qilib aytsak, nol stavka bilan soliqqa tortish) va soliq solishdan chiqarib tashlanadigan aylanma.

Ikkala aylanmadan QQS olinmaydi, lekin QQSni o'rnini to'ldirish huquqi farq qiladi. Birinchisida shaxs QQSni to'ldirish huquqiga ega bo'lsa, ikkinchisida esa bunday huquqga ega emas.

Soliq solishdan quyidagi faoliyat turlari ozod qilinadi:

- hujjatlar bilan tasdiqlangan eksportga jo'natish;
- chegarani kesib o'tganda transport xizmati;
- chet elda foydalanish va baholash xizmatlari.

QQS solishdan quyidagi faoliyat turlari chiqazib tashlanadi:

- ijtimoiy soha, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urta bo'yicha xizmatlar;
- madaniyat, ta'lim va sug'urta sohalaridagi faoliyat;
- pul va moliya sohalaridagi aylanma (mulkni boshqarish va kolleksiya qilishdan tashqari);
- uzoq muddatli lizingga o'xshagan mulkka egalik qilishdagi o'zgarishlar;
- birja va lotoreya o'yinlari va boshqalar;
- ma'lum sharoitlarda tashkilotlarni xizmati;
- ichki pochta markalarini shu maqsadda foydalanish uchun sotish.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha uch turdagi stavkalar qo'llanadi: standart -6,5% li, maxsus -3% li, mehmonxona sohasida(yotish va pansion), pasaytirilgan -2% li. Oxirgisi oziq-ovqat, ichimlik (spirtli ichimliklardan tashqari)va mehmonxona, umumiy ovqatlanish sohalarida xizmat ko'rsatish, yirik shoxli mol, parranda, baliq, o'simlik va gullarni urug'i, don, em va o'g'it, tibbiyot mahsulotlari, gazeta va jurnal, kitoblar va boshqa matbuot mahsulotlari, radio va televidenie xizmatlari (tijorat faoliyatiga standart stavka) uchun qo'llanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan olinadigan daromad Shveytsariya byudjetini qariyb 1/3 qismini tashkil qilishiga qaramay, boshqa ayrim mamlakatlarga nisbatan sezilarli past stavkalar qo'llaniladi va nisbiy kengroq engilliklar beriladi.

10.2.6. Bojxona bojlari

Bojxona bojlari ham egri soliqlardan bo'lib, konstitutsiya va bojxona boji to'g'risidagi akt (1925 yil) asoslarida olinadi.

Shveytsariyada bojxona boji ham eksport, ham import operatsiyalaridan bojxona tarifida belgilangan stavkalar asosida olinadi. Boj faqat og'irlik birligidan olinadi, uning qiymati hisobga olinmaydi. Bojxona boji orqali olingan daromadni bir qismi maxsus maqsadlarga yo'naltiriladi. Masalan, yoqilg'iga belgilangan qo'shimcha boj milliy, tez yurish magistrallarini qurish uchun yuboriladi.

Oxirgi davrda federal moliya boshqarmasi federal darajada korporativ soliq solishni isloh qilish ustidan ish olib bormoqda.

Soliq solishni o'zgartirish quyidagi yo'nalishda olib boriladi:

- xolding kompaniyalariga chegirma berishda yangi uslub qo'llash (xoldingdan olingan daromaddan soliq chegirmasi berish);

- foydaga proporsional soliq solishga kapitalga solinadigan soliqni kreditlashni kiritish;
- kompaniyalar guruhi ichidagi yo'qotishlarni boshqarish;
- yangi chiqazilgan qimmatbaho qog'ozlardan olinadigan gerb yig'imidan beriladigan chegirmani yuqori chegarasini ko'tarish.

Shveytsariyada konfederatsiya darajasida, harbiy xizmatni o'tmagan shaxslardan soliq olinadi.

10.3. Kanton va munitsipal soliqlari

Soliq solishni huquqiy asosi bo'lib, 26 ta kantonn soliq qonunlari va har-xil munitsipal qoidalari hisoblanadi. Lekin kantonlarda oxirgi yillarda soliq solish uyg'unlashtirilmoqda (moslashtirmoq). Qonunga binoan, 2001 yilni boshiga o'zlarini soliq qonunlarini bir tartibga keltirib, ularni darajasini tenglashtirish vazifasini olganlar. Konfederatsiya huquqiga tegishli bo'lmagan har qanday soliqni kantonlar amaliyotga kiritish huquqiga ega. Munitsipalitetlar faqat kantonlar ruxsat bergan soliqlarnigina kiritish huquqiga egadirlar (fiskal huquqiy vakolat).

Daromad va sof aktivlariga solinadigan munitsipal soliqlar ko'pchilik holatda foiz shaklida yoki kantonlarni asosiy soliq stavkalarini tarkibiy qismi shaklida belgilanadi. Ular kantonlarning soliq daromadlarini bir qismi holatida ham belgilanadi. Ayrim kantonlarda munitsipalitetlar o'zining soliq qonunchiligiga ega. Boshqa kantonlarda ular kantonlar qonunchiligi doirasida soliq olishlari mumkin. Milliy uchta cherkov organlari (reformatik, rimcha-katolik va eski katolik) deyarli hamma kantonlarda cherkov solig'ini har bir ibodatxonaga qatnovchi dindor kishidan, hamda o'zining kantonida soliq solinadigan huquqiy shaxslardan olinadi.

Daromad va sof aktivlarga soliq solish. Ushbu soliqlar davriy (vaqt-vaqti bilan) olinadigan soliqlar hisoblanadi va shuning uchun ular ma'lum bir muxlatga yig'ilishi mumkin. Vaqt chegaralari bunday soliqlarga fiskal davr bilan o'rnatilishi mumkin. Ko'pchilik kantonlarda soliq stavkasi ikki elementdan iborat: qonun asosida belgilangan qat'iy stavka va ma'lum vaqtdan keyin belgilanib turiladigan qat'iy belgilangan multiplikator stavka. Asosiy soliq soliq faktorlarini soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Lekin soliqni haqiqiy to'lanadigan summasini bilish uchun asosiy soliqni har yilgi ko'paytiruvchi ko'rsatkichiga ko'paytirish kerak.

Ko'paytiruvchi ko'rsatkich soliq stavkasidan koeffitsient yoki foiz shaklida ifodalanadi va qonun asosida bir yilga belgilanib qo'yiladi.

Munitsipialitetlar, kantonlar kabi hisob-kitob uchun shu kabi baza va shedulalardan foydalanadilar.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Konfederatsiyalar kabi kantonlar ham jismoniy shaxslardan daromad solig'i oladilar. Hamma kanton va munitsipialitetlar asosiy daromad solig'i va qo'shimcha sof aktiviga solinadigan soliq tizimini qo'llaydilar. Daromad solig'i to'g'risidagi kantonlarni qonunlari o'zining tarkibi bo'yicha federal to'g'ri soliqlar to'g'risidagi qonunlar bilan o'xshashligi bilan ajralib turadi. Hamma kantonlar yakka, alohida bo'lakdarni hisobga olmagan holda yalpi daromadni soliqqa tortadilar. Shuning uchun jismoniy shaxslar daromadlarini har bir turini deklaratsiyada ko'rsatishlari kerak. Ular quyidagi daromatlardan iborat: kasbiy faoliyati bilan bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan, o'rnini to'ldirish (kompensatsiya) to'lovlari, subsidiyalar, mulk va ko'chmas mulklardan olinadigan daromadlar.

To'g'ri soliq stavkalari faqat beshta kantonlarda o'rnatilgan. Boshqa kantonlarni soliq qonunchiligi faqat asosiy soliqni stavkasini ko'rsatish bilan chegaralanadi. Oxirgi to'lanadigan soliqni summasini aniqlash uchun soliq bazasi foiz yoki birlikda belgilangan koeffitsientga ko'paytiriladi. Koeffitsientlarni ahamiyati har yili moliyaviy ist'emolchi siyosiy organlar (kantonlar, jamiyatlar va cherkovlar) talabiga qarab belgilanadi.

Misol: oilasiz kishi Tsyurix shaxrida yashaydi va 80000 shv. fr. soliq solinadigan daromadga ega. Qonunchilikda belgilangan baza stavkasi asosida soliqni baza summasini soliq to'lovchi uchun 5495 shv. fr. ga teng. Ushbu summaga kanton 108 % li koeffitsient qo'llaydi. Tsyurix munitsipialiteti - 130 % ni va cherkov tashkilotlari – 11 % ni qo'shadilar. Shunday qilib, to'lanadigan umumiy soliq summasi— $5495*108\%+5495*130\%+5495*11\%=13683$ shv. fr. tashkil qiladi.

Shveytsariya soliq qonunchiligi shunday printsipga asoslanadiki, unda oilani daromadi va aktiv iqtisodiy birlikni tashkil qiladi va federal soliq, kantonlar va jamiyatlar solig'iga tortiladi. Birga yashaydigan er-xotinni daromadi va sof aktivlari qo'shiladi. Ota-ona hisoblanadigan shaxslarni daromadiga, koida bo'yicha, bolalarni daromadi ham qo'shiladi. Faqat bitta holat qoidadan tashqari bo'lib, unda shaxsga alohida soliqqa tortish tartibi o'rnatilgan. Shveytsariyani daromad solig'i to'g'risidagi qonunchiligida progressiv stavka bilan oilani soliqqa tortish, noo'rin soliq

og'irligini (yukini) oshiradi. Bunday ahvolni yumshatish uchun qonunshunoslar quyidagi tartibga solish tadbirlarini qo'llashadi:

- Ikkitali shedula – bir martalik shedulaga qo'shiladi va oilaviy ikkilikka, soliq og'irligini engillashtiradi. Bu tizim konfederatsiya va ko'pchilik kantonlar tomonidan foydalaniladi.

- Daromadni maydalash. Oilani umumiy daromadi umumiy daromadga tegishli stavka bilan ma'lum foizga pasaytirilgan holda soliqqa tortiladi. Bu tizim to'rtta kantonda qo'llanadi. Masalan, ushbu uslubdan foydalanganlikda 1000000 shv. fr. daromadga haqiqiy soliq solish uchun 60000 shv. fr. etarli bo'ladi.

- Oila a'zolarini soniga qarab soliq solish. Oila a'zolarini soniga qarab o'zgaruvchan bo'lishidan foydalaniladi. Soliq stavkasini aniqlash uchun umumiy oilaviy daromad ushbu ko'rsatkichga bo'linadi. Bu tizim faqat bitta kantonda qo'llanadi.

Hamma kantonlarda daromad olish uchun kerak bo'lgan harajatlari yalpi daromaddan chiqazib tashlanadi (masalan, mutaxasislarga to'lash harajatlari). Bu soliq bo'yicha ijtimoiy chegirmalar er-xotinga, yolg'iz otionalarga, qaramog'idagilarga ma'lum sug'urta yig'implaridan beriladi. Ushbu chegirmalarni hajmi kantonlar bo'yicha farq qiladi. Daromad solig'ini stavkasi hamma kantonlarda progressiv hisoblanadi. Belgilangan chegaradan daromad hajmi ko'payishi bilan stavkasi ko'tarilib boradi. Hamma kantonlar Shveysariyada vaqtincha ishlayotgan chet ellik shaxslardan daromaddan "manba" dagi soliqni undiradilar. Ish beruvchi soliq to'lovlarini ushlab, kantonlarni soliq majburiyatiga o'tkazishi kerak.

Xech qanday tijorat faoliyati bilan shug'ullanmay Shveysariyada yashovchi chet ellik fuqarolarga ayrim kantonlar bir xil turdagi stavkani qo'llashi mumkin. Kantonlar ularga tanlash huquqini berib yoki odatdagi soliqni yoki bir xil turdagi stavkali soliqni to'lashga imkoniyat beradi.

Bir xil stavkadagi soliq daromad solig'ini almashtiradi va ayrim kantonlarda mulkka solinadigan soliqni o'rnini oladi. Soliq domitsiliyi* va soliq rezidentsiyasi Shveysariyada bo'lgan chet ellik fuqarolarga bu soliq qo'llanadi. Bunda soliqni belgilash vaqtida va 10 yil davrida ular Shveysariyani tijorat korxonalarini xodimi bo'lmasliklari kerak. Soliqni hisoblash tartibi oddiy va odatda soliq og'irligini engillashtirishni nazarda tutadi. Soliq bir tomondan soliq to'lovchini harajatlari asosida belgilanadi

* Domitsiliy(domicill) – shaxsning millati va uning qaerdaligidan farq qiladigan shaxsning doimiy yashash joyi va davlati.

va ikkinchi tomondan uning daromadini tarkibiga bog'liq. Harajatga bog'liq soliqni aniqlashda soliq to'lovchini va Shveytsariyada yashovchi va unga ko'maklovchi shaxslarni xar yilgi yashash minimumini summasi hisobga olinadi. Bunda harajat Shveytsariyadami yoki chet elda qilinganligini farqi yo'q. Quyidagi harajatlar hisobga olinadi: ovqatlanish qiymati va kiyim, uy xo'jaligi harajatlari, o'qish va madaniyat harajatlari, hamda avtomobil bo'yicha harajatlar. Harajatlarga asoslangan soliq ikki manbada: olingan yalpi daromaddan olinadigan soliqdan va ikki yoqlama soliq solish bo'yicha Shveytsariya bilan kelishilgan va to'liq ham qisman chegirmaga ega bo'lgan chet el soliqlaridan past bo'lishi kerak emas.

Ichki manbalardan olinadigan daromad quyidagilardan iborat: Shveytsariyada joylashgan ko'chirib bo'ladigan va ko'chmas mulkdan olinadigan daromad mualliflik huquqidan foydalanganlik uchun tushum, Shveytsariyada qo'llanadigan patent va litsenziya to'lovlari, hamda Shveytsariya manbalaridan olinadigan to'lovlar, annuitetlar va pensiyalarga. Bu soliq bo'yicha chegirmalar berilishi mumkin. Har-xil stavkalarini (odatdagi soliq stavkasi, er-xotin juftligi uchun stavka, qaramog'idagi bola bilan yakka to'lovchi uchun stavka) qo'llanish natijasida yuzaga kelgan chegirmalar, engilliklar bo'lishi mumkin. Bir yaxlitdagi stavkada faqat soliq to'lovchini talabi bo'yicha soliq hisoblanadi. Agar soliq to'lovchiga odatdagi soliq solish ma'qul bo'lsa, uning o'zi bir xil stavkani yoki odatdagi stavkani qo'llashni tanlaydi.

Jismoniy shaxslarni sof aktiviga solinadigan soliqlar. Bu soliq hamma kanton va munitsipialitetlarda olinadi. Soliq solinadigan ob'ekt hamma mulkning summasini yig'indisi va qiymatiga ega bo'lgan soliq to'lovchini mulk huquqi hisoblanadi. Soliq mulkni bozor qiymatidan kelib chiqqan xolda to'lanadi. Soliq solinadigan mulkka ko'chirib bo'ladigan (qimmatbaho qog'ozlar, bank depozitlari, avtomobillar) va sotib olishga belgilangan ko'chmas mulklar, turmushni sug'urta qilish polisi, sug'urta qilingan pensiyalar, biznes aktivlari kiradi. Soliq solinadigan baza bu soliq bo'yicha sof aktivlar hisoblanadi. Ya'ni, hamma chegirmalar qilinganidan keyin tashlangandan keyin qolgan yalpi daromad hisoblanadi. Qo'shimcha ma'lum ijtimoiy chegirmalar sof daromad hisobidan amalga oshiriladi. Uning hajmi kantonlar bo'yicha tabaqalashgan. Sof daromaddan olinadigan soliq stavkasi progressiv hisoblanadi. Ko'pchilik kantonlar soliq chegirmasi beradilar. Agar chet el fuqarolari bir xil stavka bilan daromad solig'i to'lasalar, ko'pchilik kantonlarda alohida sof aktivdan soliq to'lamaydilar. Kantonlar yana jon boshiga solinadigan soliq yoki uy

xo'jaligiga solinadigan soliqni yig'adilar. Kantonlarni asosiy qismida daromad solig'iga qo'shimcha ravishda bu soliqni qat'iy belgilangan summasi yig'iladi. Soliqni tijorat bilan shug'ullanuvchi shaxslar to'laydilar. Bu soliq stavkasi eng past hisoblanadi.

Huquqiy shaxslarni soliqqa tortish. Kompaniyalar foydaga solinadigan soliq va huquqiy shaxs kapitaliga solinadigan soliqni to'laydilar. Federal to'g'ri soliq to'g'risidagi qonun bo'yicha huquqiy shaxslar kantonlar va birlashmalar darajasida o'zining idorasi ro'yhatga olingan yoki boshqaruv organi mavjud joylarda soliq to'laydilar. Hamma kanton va munitsipalitetlarda (Basel-City dan tashqari) korporatsiya va qo'shma korxonalar sof foydaga solinadigan soliq va kapital (nominal kapital yoki aktsioner kapital) va rezerv fondlardan qo'shimcha soliq to'laydilar. Ko'pchilik kantonlarda boshqa huquqiy shaxslar assotsiatsiya, tuzilmalar, davlat institutlari va cherkov tashkilotlari o'zlarining sof foydaga solinadigan va kapitaldan olinadigan soliqlarini korporatsiyalar kabi to'laydilar. Ba'zi kantonlarda shunday huquqiy shaxslar jismoniy shaxs sifatida soliqqa tortiladi. Sof foydadan olinadigan soliq qoida bo'yicha progressiv hisoblanadi. Ba'zi kantonlarda bu soliq stavkalari past proportsional bo'ladi. Kapitalga solinadigan soliq har bir mingta birlikda ifodalangan proportsional stavka asosida ko'pchilik kantonlarda olinadi. Bir nechta kantonlarda engil progressiv stavka qo'llanadi. Daromadi to'liq yoki qisman Shveysariyada olingan va chet el kompaniyalaridan foiz shaklida olingan daromaddan kompaniyalar yuqoridagi soliqlarga hamma kantonlarda tortiladi. Bu esa ko'p marta soliqqa tortishdan saqlab qoladi. Ko'rsatilgan kompaniyalarga soliq imtiyozlari beriladi. Shuning uchun ular foydaga solinadigan soliqni to'laydilar va pasaytirilgan kapitalga solinadigan soliqni to'laydilar.

Daromad solig'i to'g'risidagi federal qonunda «Xolding kompaniyalari» deb atalgan tushuncha yo'q. Lekin chegirma mavjud va shuning uchun foydaga solinadigan soliqni 100 % ga ko'paytirish mumkin. Hamma kantonlarni soliq qonunchiligida ushbu soliqni to'liq qisqartirish ko'zda tutilgan. Uchta kantonda uning hududida joylashgan mulkdan olinadigan daromadni shu soliqqa tortiladi. Kapitalga solinadigan soliq to'g'risida federal qonunda xolding kompaniyalar uchun soliq chegirmasi ko'rilmagan. Kapital aktsioner jamiyatlarda qo'llanadigan oddiy stavka asosida soliqqa tortiladi. Shunga qaramay kantonlar xoldinglarga pasaytirilgan kapitalga solinadigan soliqni oladilar.

Bundan tashqari kantonlar bo'yicha soliq solish tizimi va stavkalar farq qiladi. Ko'pchiligida proporsional (qat'iy belgilangan) stavkalar qo'llanadi.

Kantonlar yana domitsillashtirilgan deb atalgan kompaniyalarni soliqqa tortadi. Kantonda faqat boshqaruv idorasi bo'lsa va u yerdan biznesni boshqarsa, kompaniyani domitsillashtirilgan deyiladi. Tijorat faoliyati kanton manzilida ular tomonidan olib borilmaydi. Konfederatsiyaga nisbatan kantonlar domitsillashtirilgan kompaniyalarga qulay (ko'ngildagidek) soliq tartibi o'rnatadilar:

- Kantonda joylashgan ko'chmas mulkdan ba'zida daromad olinsa undan soliq olish kerak bo'lsa ham foydaga solinadigan soliq olinmaydi (mazmunan hamma kantonlarda shu tartib qo'llaniladi);

- Olingan foydani bir qismini soliqqa tortishda kantonda joylashgan idorani, kompaniyani tijorat faoliyatidagi axamiyati inobatga olinadi (bu ikkita kantonda qo'llanadi).

Federal qonunchilikda domitsillashtirilgan kompaniyalarni kapitaliga nisbatan hech qanday imtiyoz tartibi belgilanmagan. Uning teskarisi bo'lib, kompaniyalarni kapitali soliq solish ob'ekti hisoblanadi va ularga aksioner kompaniyalarga belgilangan soliq stavkalari qo'llanadi.

Konfederatsiyadan farqli ularoq, kantonlar o'zlariga muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi kompaniyalarni tashkil qilishga ko'maklashadilar. Uni to'liq va qisman soliqdan ozod qilish yoki soliq imtiyozlarini berish (masalan, tezlashtirilgan amortizatsiyadan foydalanish) yo'li bilan amalga oshiradilar. Bunday imtiyozlar vaqt bilan chegaralanadi, uzog'i bilan 10 yillik muddatga qo'llanadi. Bunday imtiyozlar, birinchi navbatda, foyda va kapitalga solinadigan soliqlarga nisbatan qo'llanadi. Ular asosan to'liq yoki qisman soliqdan ushlab qolish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkni o'sishiga solinadigan soliq. Soliqni jismoniy va huquqiy shaxslar to'laydilar. Ayrim kantonlarda mulkni to'liq o'sgan qismi maxsus soliqni, eksklyuziv soliqni ob'ekti hisoblanadi. Ya'ni, mulkni o'sgan qismi faqat shu soliqqa tortiladi, boshqa soliqqa emas. Qolgan kantonlarda maxsus soliq solish ob'ekti bo'lib, xususiy mulkni sotishdan olinadigan daromadni o'sishi hisoblanadi (konfederatsiya bunday o'sishni soliqqa tortmaydi). Shu vaqtni o'zida ko'chmas biznes mulkni sotishdan olingan kapitalni o'sishi (shaxsiy biznesga ega bo'lgan shaxslarni aktivi yoki huquqiy shaxslarniki) yoki ko'chmas tijorat mulk

odatdagi daromadga va foydaga solinadigan soliq ob'ekti hisoblanadi va oddiy tartibda daromad va foydaga qo'shiladi.

Lotoreyaga solinadigan soliq. Bu soliq hamma kantonlarda (ba'zilaridan tashqari) olinadi. Soliq lotoreya yutuqlari, sport pullaridan (masalan, futbol musobaqasida o'yinni natijasini bashorat qilish, otlarga stavka belgilash va h.k.)

Ko'chmas mulkka solinadigan soliq. Bu soliq kantonlarda undiriladi. Deyarli kantonlarning 12 tasida mulk faqat mulkka yoki kapitalga solinadigan soliqni ob'ekti hisoblanadi va yana yer mulkiga yoki ko'chmas mulkka solinadigan mulk solig'ini ob'ekti ham bo'ladi. Mulikka solinadigan soliq asosiy munitsipal soliq hisoblanadi. Kantonlarda soliqlar undirilganida, munitsipalitetlar odatda daromaddan foiz oladilar, ko'chmas mulkdan olinadigan soliq esa mulk joylashgan manzilda olinadi.

Soliqni hisoblashda fermer mulkidan tashqari, mulklar bozor qiymati asosida baholanadi va shu vaqtni o'zida fermer mulki va o'rmonzorlar daromadliligi asosida baholanadi. Shunday asosda soliq to'liq qiymatidan kelib chiqqan holda baholanadi, chegirmani hisobga olmaydi.

Mulkni o'tishiga solinadigan soliq. Shveysariya qonunchiligida ko'rilgan bu soliq har qanday mulkni (yoki mulk huquqini) o'zgarishidan olinishi ko'zda tutilgan. Soliq kanton va munitsipalitetlar hududida joylashgan mulkdan olinadi. Qoida bo'yicha soliq kantonlar tomonidan olinadi. Ayrim holatlarda faqat munitsipalitetlar oladi. Soliqni ikkalasi kantonda va munitsipalitetlarda olish ham amaliyotda qo'llanadi.

Transfert uchun komission yig'im olish. Transfertga solinadigan soliq o'rniga ayrim kantonlar transfert uchun komission yig'im oladilar. Soliq sotib olish bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi va uni mulkni sotib oluvchi to'laydi (jismoniy yoki huquqiy shaxs). Soliq stavkasi odatda proporsional hisoblanadi va ko'pchilik kantonlarda sotib olish bahosini 1 % dan 4 % gacha tashkil qiladi.

Meros va hadyadan olinadigan soliq. Meros va hadyadan olinadigan soliqning asosiy xususiyati shundan iboratki, bu soliqni asosan kantonlarda undiriladi. Lekin ayrim kantonlarda munitsipalitetlar ham bu soliqni yig'ish huquqiga egadirlar. Bu soliq deyarli hamma kantonlarda mavjud. Bundan mustasno, Lyutsern kantonidir. Bu yerda hadyadan tashqari soliq olinmaydi. Shvis kantonida esa soliq merosdan ham hadyadan ham olinmaydi. Ayrim kantonlarda mulkni avlodlarga (qisman uzoq avlodlarga) o'tkazish, hamda mulk (rafiqasi o'lganda) bir rafiqadan ikkinchi rafiqaga o'tganda mulkni o'tishi soliqqa tortilmaydi.

Meros solig'i ob'ekti mulkni merosxo'rlarga qonun belgilagan tartibda o'tishi yoki oldindan belgilangan kishiga berilishi hisoblanadi. Soliq solish huquqi vafot etgan shaxsni oxirgi doimiy yashash manzili joylashgan kantonga berilgan. Ko'chirib bo'ladigan mulkni hadya qilishga solinadigan soliq, hadya beruvchi yashayotgan kantonda hadyani berish vaqtida amalga oshiriladi. Ko'chmas mulkni hadya qilganda, soliq ko'chmas mulk joylashgan kantonda olinadi. Solgern va Nevshatel kantonlarida meros boji, vafot etgan kishini bo'linmas mulkidan olinadi. Meros va hadya soliqlari bir marta (bir vaqtda) olinadigan soliq hisoblanadi. Meros solig'ini asosi qilib vasiyat qiluvchi o'lgan vaqtidagi mulkni bozor qiymati hisoblanadi. Hadyani asosiy belgisi bo'lib, mulkni berish vaqtidagi qiymati hisoblanadi. Shunday qilib, mulkni bozor qiymati ikkala soliqda xam asosiy belgilovchi omil hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va xizmatni sug'urta qilish, bundan mustasnodir. Chegirma hajmi va soliqdan ozod qilish summasi bir kantondan ikkinchisiga o'tganda boshqarish quroli sifatida keskin farq qiladi. Meros va hadya soliqlarining stavkalari ko'pchilik kantonlarda progressiv hisoblanadi. Soliq og'irligi qarindoshchilik darajasi va (yoki) mulkni qiymatiga bog'liq.

Hamma kantonlarda har yili transport vositalariga solinadigan soliqni oladilar. Shveysariyadagi hamma avtomobillar Shveysariya nomeriga ega bo'lishlari kerak. Avtomobilni litsenziyalash va ro'yhatga olish hujjatlarini va raqamlarini berish kantonda amalga oshiriladi. Qoida bo'yicha konfederatsiya, kanton, munitsipalitet yoki xorijiy firmalar vakolatxonasi nomidan ro'yhatga olinadigan avtomobillardan soliq olinmaydi. Soliqni to'lovchi nomiga avtomobil yozilib, unga raqam berilgan shaxs hisoblanadi. Avtomobillarni turlariga qarab soliq summasi o'zgaradi.

Asosiy tayanch iboralari:

- Federalizm printsipi
- Daromad va mulkdan olinadigan soliqlar
- Iste'mol va egalikdan olinadigan soliqlar
- Daslabki soliq solish
- Ikki tomonlama soliq solish: ozod qilish uslubi va kreditlash uslubi
- Annuitet
 - "Manba" dan olinadigan soliq
 - Chegaralangan va chegaralanmagan soliq javobgarligi
 - Qat'iy belgilangan stavka va multiplikator stavkalari

Takrorlash uchun savollar:

1. Kantonlar o'zlarining soliq qonunchiligini ijro qilish huquqiga ega bo'la oladilarmi?
2. Harbiy xizmatni o'tmagan shaxslarga solinadigan soliq
3. Jon boshiga solinadigan soliq
4. Tomoshaga solinadigan soliq
5. Soliq haqidagi qonun hujjatlari qaysi printsiplarga asoslangan?
6. Ikki yoqlama soliq solishni o'ziga xos xususiyatlari Shveytsariyada nimalardan iborat?
7. Xolding kompaniyalari tarkibiga qaysi turdagi korxonalar kiradi?
8. Gerb yig'imlarini uchta darajasi o'rtasidagi farqlar
9. Soliq solishda kanton va munitsipalitetlarni huquqiy farqlari
10. Chet el fuqarolari soliqqa qanday tartibda tortiladi?

Test savollari:

1. Konfederatsiyaga daromad va mulkdan kelib tushadigan soliqlar guruhi:
 - a) Tomoshaga solinadigan soliq, savdoga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq.
 - b) Transport vositalariga solinadigan soliq, harbiy xizmatni o'tmagan shaxslarga solinadigan soliq, tomoshaga solinadigan soliq.
 - c) Gerb yig'imi, itlarga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, ko'chmas mulkni o'tkazib berish uchun solinadigan soliq.
 - d) Daromad solig'i, foyda va kapitalga solinadigan soliq, manbadan olinadigan soliqlar, gerb yig'imi, harbiy xizmatni o'tmagan shaxslarga solinadigan soliq.
 - e) Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, itlarga solinadigan soliq.
2. Konfederatsiyada ist'emol va egalikdan olinadigan soliqlar guruhi nimalardan iborat?
 - a) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq.
 - b) Meros va hayriyadan olinadigan soliq, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq.

c) Qo'shilgan qiymat soligi, tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq, pivoga solinadigan soliq, disterlanmagan spirtga solinadigan soliq, bojxona boji.

d) Foyda va kapitalga solinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq, pivoga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq.

e) Tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq, ko'chmas mulkni o'tqazib berish uchun solinadigan soliq, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq.

3. Kantonlarda daromad va mulkdan olinadigan soliqlar guruhi:

a) Daromad solig'i va toza mulkdan olinadigan soliq, jon boshidan olinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, meros va hadyadan olinadigan soliq.

b) Tomoshaga solinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona boji, ko'chmas mulkka solinadigan soliq.

c) Qo'shilgan qiymat solig'i, tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq, pivoga solinadigan soliq, disterlangan spirtga solinadigan soliq.

d) Tomoshaga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, bojxona boji.

e) Jon boshiga solinadigan soliq, bojxona boji, disterlangan spirtga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, bojxona boji.

4. Munitsipalitetlar qaysi guruh harajatlarni moliyalashtiradi?

a) Pensiya bilan ta'minlash, kasallik vaqtida sug'urta mablag'ini berish.

b) Boshqarish harajati, iqtisodiyotni moliyalashtirish, byudjet defitsiti (tanqisligi)ni qoplash.

c) Boshlang'ich ta'lim berish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot.

d) A, V, S

e) Ishsizlarga moliyaviy yordam berish, nogironlarni ta'minlash, tadbirkorlarga moliyaviy yordam berish.

5. Shveytsariya soliq qonunlari qanday tamoyillarga asoslangan?

a) Har bir ob'ektdan bir marta soliq olish, to'g'ri soliqlarga e'tibor berish imtiyozlarini kuchaytirish.

b) Mulkchilik shakliga qarab stavkalarni o'zgartirish, oilaviy holatini hisobga olish, jarimani chegaralash.

c) Bir martalik, savdo erkinligi, jarimani chegaralash, teng huquqli.
d)Teng huquqli, savdo erkinligi, mulkchilik huquqini kafolatlash kantonlararo ikki tomonlama soliqqa tortishni taqiqlash.

e) Hammasi noto'g'ri.

6. Kantonlar uchun ist'emol va egalikdan olinadigan soliqlarni aniqlang?:

a) Savdoga solinadigan soliq, gerb yig'imi, jon boshiga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq.

b) Daromad solig'i, sof aktivlarga solinadigan soliq, ko'chmas mulkni o'tkazib berish uchun solinadigan soliq, tomoshaga solinadigan soliq.

c)Foyda va kapitalga solinadigan soliq, savdoga solinadigan soliq, kapitalning o'sishiga solinadigan soliq, gerb yig'imi, itlarga solinadigan soliq.

d) A,V,S

e)Transport vositalariga solinadigan soliq, itlarga solinadigan soliq, tomoshaga solinadigan soliq, gerb yig'imi, gidravlik elektrostantsiyalariga solinadigan soliq va boshqa soliqlar.

7.Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olinganda qaysi turdagi stavka qo'llanadi?

a) Proportsional

b) Regressiv

c) Progressiv

d) A,V,S

e) hammasi noto'g'ri

8.Huquqiy shaxslarni foydalari yig'indisiga qo'llaniladigan eng yuqori stavka necha foizni tashkil qiladi?

a) 12,0

b) 11,0

c) 9,8

D) 9,8

e) Hammasi to'g'ri

9.Munitsipalitetlar ixtiyoriga o'tadigan daromad va mulkdan olinadigan soliqlar guruhini aniqlang:

a) Jon boshiga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, itlarga solinadigan soliq, boshqa soliqlar.

b) Transport vositalariga solinadigan soliq, tomoshaga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq.

c) Daromad solig'i va sof aktivlarga solinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, ko'chmas mulkni o'tkazib berish uchun solinadigan soliq, savdoga solinadigan soliq.

d) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq, savdoga solinadigan soliq, gerb yig'imi, meros va hadyadan olinadigan soliq, jon boshiga solinadigan soliq, foyda va kapitalga solinadigan soliq.

e) Hammasi noto'g'ri.

10. Sug'urta polisi bo'yicha olingan mukofotdan qaysi foiz hajmida gerb yig'imi olinadi?

a) 0,12%

b) 0,06%

c) 0,3%

d) 0,15%

e) 5%

11. Munitsipalitetlar ixtiyoriga tushadigan ist'emol va egalik qilishdan olinadigan soliqlar guruhiini aniqlang:

a) Daromad solig'i va sof aktivlarga solinadigan soliq, foyda va kapitalga, solinadigan soliq, tomoshaga solinadigan soliq.

b) Qo'shilgan qiymat solig'i, disterlangan spirtga solinadigan soliq, kapital o'sishiga solinadigan soliq, boshqa soliqlar.

c) Tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq, bojxona boji, itlarga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, savdoga solinadigan soliq.

d) a, b, c

e) Itlarga solinadigan soliq, tomoshaga solinadigan soliq, boshqa soliqlar.

12. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qaysi turdagi stavkalar qo'laniladi?

a) Standart (6,5%)

b) Maxsus (3%)

c) Pasaytirilgan (2%)

d) a,b,c

e) Hammasi noto'g'ri

13. Boshqa mamlakatlarga nisbatan qanday qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari qo'llaniladi?

- a) Yuqori
- b) Tenglashtirilgan
- c) O'rtacha
- d) Past
- e) Nisbatan past

14. Qaysi milliy cherkov organlarida cherkov solig'i to'lanadi?

- a) Reformatik cherkovlar
- b) Rimcha-katolik cherkovlar
- c) Eski katolik cherkovlar
- d) a,b,c
- e) Hammasi to'g'ri

15. Meros va hadyaga beriladigan mulk qaysi bahoda hisoblanadi?

- a) Qoldiq qiymati
- b) Hadya qiluvchi belgilagan baho
- c) Bozorda belgilangan qiymat
- d) Sug'urta qilishda o'rnatilgan baho
- e) Hammasi noto'g'ri

XI BOB. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA SOLIQQA TORTISH

11.1. Germaniyada soliqqa tortish va soliqlarni boshqarish asoslari

11.2. Germaniyada soliqlar tasnifi

11.3.1. Germaniyada soliq tizimi

11.3.2. Daromad solig'i

11.3.3. Hunarmandchilik solig'i

11.3.4. Yer solig'i.

11.3.5. Korporatsiya solig'i.

11.3.6. Kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliq.

11.3.7. Mol-mulk solig'i.

11.3.8. Yer maydonlarini sotib olish solig'i.

11.3.9. Qo'shilgan qiymat solig'i.

11.3.10. Sug'urta faoliyati daromadlarini soliqqa tortish

11.4. Iste'mol soliqlari

11.5. Cherkov solig'i

11.6. Qishloq xo'jaligi sektorida soliq solish xususiyatlari

11.7. Fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishga qaratilgan imtiyozlar

11.1. Germaniyada soliqqa tortish va soliqlarni boshqarish asoslari

Germaniya — sanoati rivojlangan davlatlardan biri, jahonda yalpi ichki mahsulot bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Jahon savdosidagi ulushi bo'yicha xatto ikkinchi o'rindadir. Masalan, 1995 yilda yalpi ichki mahsulot AQShda 6982 mlrd. dollarni, Yaponiyada 4961 mlrd. dollarni ni tashkil etgan bo'lsa, Germaniyada 2421 mlrd. dollarni tashkil etdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot tegishli ravishda 26500, 39600, 29700 dollarga teng bo'ldi.

Germaniya - Federativ Respublika. U 9 ta federatsiya (BUND), ep (LanDERN) va jamoa (Gemeinden) dan iborat.

Germaniyada soliqlarning ustuvor tizimi (huqiqiy asosi) quyidagicha:

1. Qonuniy vakolati — tegishli soliq turlari uchun soliq qonunlarini nashr etish huquqi;

2. Daromad vakolati - soliqlardan tushadigan daromadga da'vogarlik xuquqi;

3. Ma'muriy vakolat – soliqlarni boshqarish huquqi. Asosiy qonunning 105-moddasiga muvofiq qo'yidagilar qonuniy vakolatga egadir:

a) federatsiyalar:

1) faqat federatsiyalargina bojxona to'lovlari va moliyaviy monopoliyalarga nisbatan qonuniy vakolatga egalar;

2) boshqa soliqlarga nisbatan ular ulushli vakolatga ega, agap:

- to'liq, yoki qisman federatsiyaga tegishli bo'lsa;

- ularda qonun qabul qilish zarurati federatsiya darajasida bo'lsa;

b) federal yerlar:

- qonunchilik vakolatlarida federatsiya ulushli ishtirok etish uchun sabab bo'lmasa;

- qonunchilik vakolatlarida federatsiya o'z huquqidan foydalana olmasa;

- iste'mol tovarlari va hashamatdorlik buyumlariga solinadigan mahalliy soliqlar to'g'risida.

Federal qonunlar bilan federatsiyaga tegishli soliqlar taptibida solinadigan Soliqlar to'lanishi bo'yicha ma'lum vaqt va miqdori belgilanadi.

Soliq qonunlarining qo'llanishi, jumladan, undirish, shikoyatli va mas'uliyat masalalari soliqlar va to'lovlar Nizom bilan tartibga solinadiki, u soliq siyosati sub'ektlari va ob'ektlari, soliqlarni undirishning umumiy tartibi va ularni o'zgartirish asoslari, jismoniy va yuridik shaxslarning o'z soliq, majburiyatlarini, soliq to'lovchilar daromadi haqidagi ma'lumotlarni tekshirish jarayonlarini bajarmasliklaridan kelib chiqadigan huquqiy choralarni belgilaydi.


Germaniya Federativ Respublikasidagi mavjud soliq turlarining har biri (daromad, hunarmandchilik, korporatsiya va qo'shilgan qiymat solig'i) bo'yicha maxsus qonunlar bo'lib, ular soliq bilan bog'lik, barcha muayyan masalalarni tartibga soladi (mayda bosma shriftda 2652 betdan iboratdir).

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi soliq tizimini xalqaro hujjatlar ham boshqaradi. Bu hujjatlarga ikki yoqlama soliqqa tortish to'g'risidagi shartnomalar, tashqi iqtisodiy aloqalar to'g'risidagi huquqiy nizom va boshqa soliqqa oid, ayniqsa Evropa iqtisodiy hamdo'stlik tizimini yaratish haqidagi masalalarni o'z ichiga oladigan halqaro-xuquqiy xujjatlar kiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalarda soliq teng xuquqliligiga rioya

qilish va xorijiy sarmoyalarda soliq raqobatbardoshligini oshirish shunday huquqiy bazaki, uning asosida xamjamiyatlikning birgalikda agrar siyosatini o'tkazish uchun maxsus yig'imlar amalga oshiriladi. GFRda soliq siyosati masalalarini boshqarish uchun erlar miqyosida maxsus moliyaviy idoralar mavjud. Bojxona bosh idoralari bojxona ciyosatini va bilvosita iste'mol soliqlarini boshqaradi. Buni quyidagi chizmadan ko'rish mumkin:

11.1-chizma


Moliyaviy boshqaruv tuzilmasi



GFRning asosiy qonunida soliqlar sohasida ma'muriy vakolatlar belgilab berilgan. Buni quyidagi chizmadan ko'rish mumkin:


11.2-chizma

Ma'muriy vakolatlar



Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi Germaniyada ham majburiy va ixtiyoriy yig'im, to'lovlardan foydalaniladi. Soliqlar, tabiiyki majburiy yig'imlarga kiradi.

11.3-chizma



Soliqlar - bir martalik yoki joriy pul to'lovlaridir (ma'lum xizmatlar uchun to'lov hisoblanmaydigan va mavjud yagona-huquqiy tizim doirasida daromad olish maqsadida qonunga muvofiq ushbu to'lovlarni to'lashga majbur bo'lgan barcha shaxslarga solinadigan to'lovlar).

11.1.-jadval

GFR byudjetining daromad qismidagi soliqlar ulushi

	1970		1985		1988 kutiladigan		1994	
	summa mlrd, marka	%%	summa mlrd, marka	%%	summa mlrd, marka	%%	summa mlrd, marka	%%
1.Jami soliqlar, sh.j.:	154,1	100,0	437,2	100,0	480,6	100,0	786,63	100
Daromad solig'i	54,5	35,04	182,04	41,07	207,4	43,02	320,3	40,7
Qo'shilgan qiymat solig'i	38,01	24,7	109,08	25,01	123,2	25,06	264,04	33,6
Hunarmandchilik solig'i	10,07	6,09	30,8	7,0	32,4	6,07	37,0	4,7
Korporatsiyadan olinadigan solig	8,7	5,6	31,8	7,3	29,0	6,0	32,2	4,1
Aktsizlar	22,6	14,7	46,1	10,5	48,2	10,0	74,2	9,4
Boshka har-xil tulovlar	19,05	12,7	36,3	8,4	40,4	8,5	58,21	7,4
2.Byudjet daromadlari	188,2	-	565,1	-	606,0	-	-	-
3.Byudjet daromadlari-da soliqlarning nisbiy miqdori	81,8	-	77,3	-	70,34	-	-	-

Yig'im (poshlina)lar - qonun bilan belgilab qo'yilgan tovon (kompensatsiya), boshqaruv tartibiga murojaat qilganligi (foydalanish) uchun to'lov. Masalan, imzoni notarial tasdiqlash.

Badallar - pul summalari (ma'lum davlat muassasalari, tashkilotlardan foydalanganlik uchun to'lovlar). Masalan, ijtimoiy cyg'ypta.

Germaniyada 40 tadan (1994y.) 50tagacha (1989y.), soliq turlari mavjud bo'lgan.

GFRda soliqlarning yalpi milliy mahsulotga nisbati quyidagicha:

1970y. – 22,8%; 1980y. - 24,6%; 1985y. - 23,7%; 1988y. - 22,9%; 1989y, - 23,6% (loyiha); 1994 y. – 22,0%. Qator rivojlangan mamlakatlarga nisbatan Germaniyada yalpi ichki mahsulotda soliq'larga tortish ylushi ancha past.

Germaniyada davlat byudjetida, boshqa barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi soliqlar etakchi o'rinni egallaydi.

Shunday qilib, byudjet daromadlarining 4/5 qismi soliq tushumlari hisobiga shakllanadi.

11.2. Germaniyada soliqlar tasnifi

Germaniyada soliqlar tasnifi quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1.Soliq tushumlaridan foydalanish huquqi bo'yicha;
- 2.Mulkiy soliqlar va bitimlarga solinadigan soliq;
- 3.Bojxona bojlari va aktsizlar;
- 4.Tasnifining boshqa har xil usullari.

Soliqlar, eng avvalo, soliq tushumlaridan foydalanish huquqi alomatlariga qarab tasniflanadi. Soliq tushumlaridan foydalanish huquqiga qarab ylar: federal soliqlar, yerlar soliqlari, qo'shma soliqlar, mahalliy soliqlar va cherkov soliqlariga bo'linadi.Mulkiy soliqlar va bitimlarga solinadigan soliqlar alohida guruhlanadi. Mulkiy soliqlar daromaddan va mulkdan undiriladigan soliqlarga ajratiladi. Daromaddan undiriladigan mulkiy soliqlarga quyidagilar kiradi: daromad solig'i (jumladan, ish haqidan olinadigan soliq va kapital daromadga solinadigan coliq)

Foydaga solinadigan soliq Qisman Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga solinadigan soliq

Cherkov solig'i

Mulkdan undiriladigan mulkiy soliqlar quyidagilardir:

- Mol-mulk solig'i
- Meros solig'i

- Yer solig'i

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish

Qisman huquqiga solinadigan soliq. Cherkov solig'i

O'z navbatida bitimga solinadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- Qo'shilgan qiymat solig'i (keltiriladigan tovarlar aylanishidan olinadigan soliqlar);
- Yer maydonlari olishga solinadigan soliq;
- Avtotransport vositalari egalariga solinadigan soliq;
- Totalizator va lotoreyalar solig'i,
- Qimorxonalaridan tushadigan kirimdan olinadigan soliq;
- Kapital aylanmadan olinadigan soliq;
- Sug'urta faoliyatidan tushadigan daromaddan olinadigan soliq;
- Veksel yig'imi;
- Yong'inga qarshi, soqchilikka solinadigan soliq.

Federatsiya bojxona yig'implari va spirt-aroz mahsulotlari monopoliyasi bo'yicha, shuningdek, boshqa soliqlar bo'yicha, agar ulardan olinadigan yig'implar qisman yoki to'liq federatsiyaga taa'lluqli bo'lsa va federatsiya darajasida huquqiy cheklovga talab bo'lsa, butkul qonuniy vakolatga ega.

Yerlar qonuniy vakolatga ega (agar federatsiya qonunlariga raqobat qiluvchi o'zga narsa bo'lmasa va bunday raqobat bo'lgan taqdirda, federatsiya o'z huquqlaridan foydalanmaydi), shuningdek, daromadlardan foydalanishning o'ziga xos shakllariga solinadigan soliqlar xususida federatsiya soliqlarni yerlar va federatsiya o'rtasida taqsimlash, daromad solig'ida munitsipal organlarning ulushi haqidagi va boshqa masalarni hal qiladi.

Soliqlar haqidagi federal qonunlar (ularning bir qismi yerlarga va munitsipalitetlarga taa'lluqli) bundesrat* roziligini talab qiladi. Germaniyadagi soliqlar byudjet tizimining tegishli eplarga birlashtirilgan va belgilangan me'yorlar bo'yicha ular o'rtasida taqsimlanadigan turlarga bo'linadi.

Asosiy qonunning 106-moddasiga muvofiq soliqlar federal soliqlar, qo'shma soliqlar, o'lka soliqlari, mahalliy soliqlarga ajratiladi. Shu munosabat bilan soliqlar: a) federatsiyaga b) federatsiya va yerlar bilan qo'shma; v) yerlar; g) obshchinalarga taa'lluqli bo'ladi.

* Bundesrat – GFRda yerlar boshqaruvi organi

Federatsiyaga quyidagi soliqlardan tushadigan tushumlar taalluqlidir:

a) federal colliqlar — bojlar, kapital aylanmasiga solinadigan soliq, sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadga solinadigan soliq, veksel solig'i, birdamlik solig'i, Evropa Ittifoqi bo'yicha soliqlar, pivo solig'idan tashqari aktsizlar (spirt-aroq mahsulotlari, tuz, vinolar, yarim tayyor mahsulotlar, qahva, tamaki, mineral yonilg'ilarga solinadigan aktsiz solig'i); b) qo'shma soliqlardagi ulush: ish haqiga solinadigan soliq va hisoblangan daromad solig'i (hozirda — 42,5%). Korporatsiyadan hisoblangan soliqlar (50%), aylanma soliq: jumladan keltiriladigan tovarlar aylanmasidan olinadigan soliq.

Federatsiya va o'lkalarning har ikkisiga quyidagi soliqlar taa'lluqlidir:

a) Qo'shma(birlashtirilgan yoki umulashtirilgan) soliqlar: ish haqiga solinadigan soliq, korporatsiyalardan olinadigan soliq, aylanma solig'i (jumldan, keltiriladigan tovarlar aylanmasidan olinadigan soliq):

b) Hunarmandchilik solig'ini taqsimlash.

O'lkalar byudjetiga quyidagi soliqlar kelib tushishi kerak:

a) o'lka soliqlari: mulkiy soliq, meros solig'i, yer maydonlari olish uchun solinadigan soliq, transport vositalari egalariga solinadigan soliq, pivo solig'i, totalizator va lotoreya o'yinlari utkazishdan olinadigan soliq, yong'inga qarshi soqchilik solig'i, qimorxonalar tushumidan olinadigan yig'imlar;

b) qo'shma soliqlardagi ulush: ish haqiga solinadigan soliq va hisoblangan daromad solig'i (hozirda 42,5%), daromaddan hisoblanmagan soliq va korporatsiyalarga solinadigan soliq (50%), aylanma solig'i, jumladan, keltiriladigan tovarlar aylanmasidan olinadigan soliq:

v) hunarmandchilik solig'ini taqsimlashdagi ulush (50%).

Obshinalarga quyidagi soliqlar taa'lluqlidir:

a) mahalliy soliqlar: hunarmandchilik solig'i, yer solig'i, mahalliy aktsizlar va daromadlardan foydalanishning o'ziga xos shakllariga solinadigan soliq (it egalariga solinadigan soliq, ko'ngilochar muassasalar daromadiga solinadigan soliq);

b) ish haqi solig'i tushumlaridan va hisoblanadigan daromad solig'i tushumlaridan ulush (95%);

v) o'lka qonun xujjatlari doirasida soliq badallari.

Bojxona bojlari va aktsizlar soliqlarning alohida guruhini tashkil qiladi. Bojxona bojlari chetdan keltiriladigan va chetga chiqariladigan tovarlarga bo'linadi. Aktsizlar quyidagi gypyhlarga bo'linadi: oziq-ovqat mahsulotlari, ovqatga ta'm beruvchi tovarlarga, boshqa har-xil iste'mol

tovarlari va keltiriladigan tovarlarga. Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha shakarga, tuzga solinadigan soliq va boshqalar bo'ladi. Ovqatga ta'm beruvchi tovarlarga solinadigan aktsiz solig'i gypyiga tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq, kofe solig'i, choy solig'i, vinolarga solinadigan soliq, pivo solig'i, alkogolli ichimliklarga solinadigan soliqlar kiradi.

Boshqa har-xil iste'mol tovarlarga solinadigan aktsiz solig'iga neft mahsulotlari, yoritish vositalariga solinadigan soliqlar kiradi.

Chetdan keltiriladigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tasnifning boshqa har xil usullari turli alomatlariga qarab amalga oshiriladi.

1. Eng avvalo soliqlar to'g'ri soliqlarga va egri soliqlarga bo'linadi (ish haqiga solinadigan soliq, tuz solig'i).

2. Shaxsiy (sub'ektiv) soliqlar, real (ob'ektiv) soliqlar.

3. Foydadan to'lanadigan soliklar (sarf-harajatlarga qo'shiladigan soliqlar). Misollar: daromad solig'i (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga solinadigan soliq).

4. Umumiy (maqsadga qaratilgan soliqlar). Misollar: Neft mahsulotlariga (qisman) solinadigan daromad solig'i.

5. Joriy soliqlar (bir marta tulanadigan soliqlar). Misollar: daromad solig'i (yer maydonlari olish uchun solinadigan soliq).

6. O'z-o'zini soliqqa tortish tartibida to'lanadigan soliqlar (ma'lum muddatga to'lanadigan soliqlar). Misollar: daromad solig'i, sug'urta faoliyatidan tushadigan daromadlarga solinadigan soliq.

Germaniya Federativ Respublikasida soliqlarning to'liq tafsiloti quyidagi jadvalda berildi.

11.4.-chizma

SOLIQLAR	
Nomi	Tushuntirishlar
Qishloq xo'jalik soliqlari	qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarini tenglashtirish
Kuzatuv kengashlari a'zolaridan olinadigan soliq	ushlab qolishga belgilangan soliq
Pivo solig'i	daromadning soliqqa tortiladigan qismidan
Birja bitimlari bo'yicha aylanma olinadigan soliq	kapital aylanmasidan olinadigan soliq
Spirтли ichimliklarga solinadigan soliq	aktsiz solig'i
Import uchun qo'shilgan qiymat solig'i	qo'shilgan qiymat solig'ining undirish shakli
Daromad solig'i	daromad va mol-mulkka solinadigan soliq
Meros va sovg'a qilish solig'i	daromad va mol-mulkka solinadigan soliq
Yonginga qarshi soqchilik solig'i	sug'urtaga solinadigan alohida soliq

Savdo- ishlab chiqarish jamiyatlariga solinadigan soliq	kapital aylanmasidan olinadigan soliq
Ichimliklarga solinadigan soliq	mahalliy soliq
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga solinadigan soliq	daromad va mol-mulkka solinadigan soliq
Ko'chmas mulk olishga solinadigan soliq	qo'shilgan qiymat solig'ining alohida turi
Yer solig'i	mahalliy soliq
It egalardan olinadigan soliq	mahalliy soliq
Ovchilik va baliq ovlash huquqiga solinadigan soliq	mahalliy soliq
Kofe solig'i	aktsiz solig'i
kapitaldan olinadigan daromad solig'i	daromad solig'i undirishning bir shakli
Kapital aylanmasidan olinadigan soliq	qo'shilgan qiymat solig'ining undirish shakli
Foyda solig'i	daromad solig'ining alohida turi
Avtotransport vositalariga solinadigan soliq	bitimlarga solinadigan soliq
Ish haqidan olinadigan daromad solig'i	daromad solig'i undirishning bir shakli
Neft mahsulotlariga solinadigan soliq	aktsiz solig'i
Ot poygasi lotoreya va totalizator solig'i	qo'shilgan qiymat solig'ining alohida turi
Spirтли ichimliklar sotish uchun solinadigan soliq	mahalliy soliq
Shampan vinosi solig'i	aktsiz solig'i
Qimorxonalariga solinadigan soliq	mol-mulk va bitimga solinadigan soliq
Tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq	aktsiz solig'i
Choy solig'i	aktsiz solig'i
Qo'shilgan qiymat solig'i	bitimlarga solinadigan soliq
Tomosha va ko'ngilochar korxonalar daromadiga solinadigan soliq	mahalliy soliq
Mol-mulk solig'i	daromad va mulkdan olinadigan soliq
Sug'urta solig'i	qo'shilgan qiymat solig'ining bir turi
Veksel yigimi	qo'shilgan qiymat solig'ining bir turi

Shunday qilib, GFRdagi soliqlar davlatning jamiyat O'sib borayotgan ehtiyojlarini mablag' bilan ta'minlab qondirish maqsadlarida foydalanadigan eng muhim iqtisodiy dastagi hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan materiallar, shuningdek Germaniyadagi soliqlar davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

11.3. Germaniyada soliq tizimi

Soliq tizimi – qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan belgilanib, ijro organlari tomonidan undiriladigan soliqlar yig'indisi, shuningdek, soliqlar tuzilish tamoyili va usullaridir. Bu tizimning ahamiyati va tarkibini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qurilishi belgilaydi.

Hozirgi sharoitlarda soliq tizimi davlatning moliyaviy zahiralari ta'minlashga qaratilgandir. Asosiy soliqlarga daromad solig'i, jumladan,

ish haqidan undiriladigan soliq, yer solig'i, korporatsiya soliqlari, mol-mulk solig'i, kapital daromadga solinadigan soliq, aktsizlar va qo'shilgan qiymat soliqlari kiradi. Soliqlar hajmini va umumiy davlat daromadida tutgan o'rnini bilish uchun yana quyidagi ma'lumotlarga murojaat qilamiz.

1996 yilda yig'ilgan soliqlar (aylanmasi)

DM (nemis markasida, mlrd.)

- 251278 - Ish hakidan olinadigan soliq,
- 20038 - Qo'shilgan qiymat solig'i
- 68251 - Mineral yoqilg'iga solinadigan soliq;
- 4588 - Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga solinadigan soliq
- 3682 - Chetdan keltirilayotgan tovarlarga solinadigan qo'shilgan qiymat solig'i.
- 29458 - Korporatsiya daromadiga solinadigan soliq
- 26091 - GFRning yangi yerlari foydasiga birdamlik solig'i
- 25450 - Kapital daromadga solinadigan soliq
- 20698 - Tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq
- 14642 - Yer solig'i
- 14348 - Cyg'ypta faoliyatidan keladigan daromadga solingan soliq
- 13746 - Avtotransport vositalari egalaridan olinadigan soliq
- 11626 - Daromad solig'i
- 9990 - Boshqa yer soliqlari
- 9035 - Mol-mulk colig'i
- 6512 - Bojxona yig'implari
- 5085 - Vino va spirtli ichimliklarni sotish uchun soliq,
- 4054 - Meros solig'i
- 3393 - Boshqa aktsizlar
- 1718 - Pivo solig'i
- 1463 - Boshqa mahalliy soliqlar, yig'implar va bojlar

11.3.1. Daromad solig'i


Soliqlar tizimida daromad solig'i etakchi o'rinni egallaydi. Bu soliq har yili absolyut summada emas, balki byudjet daromadlaridagi nisbiy miqdorda ham o'smoqda. Agar daromad solig'i 1970 yilda butun byudjet daromadining 35,4 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili bu ko'rsatkich 40,7 foizga teng bo'ldi.

Daromad solig'i GFRda jismoniy shaxslardan undiriladigan eng muhim to'g'ri soliqlardan biridir. Bunday soliqqa yollanma ishlarda


ishlaydigan, erkin kasbdagi shaxslarning daromadlari (gonorarlar), kapital daromadga, bank qo'yimlaridan tushadigan foizlar, ijara, turar-joy binolarini ijaraga topshirish, shaxsiy faoliyat va boshqalar tortiladi. Teng daromadga teng soliq (uning manbaidan qat'iy nazar) tamoyili soliqqa tortishning asosidir. 1988 yilning yanvar oyidan boshlab soliqqa tortilmaydigan minimum daromad bo'yodoklar uchun 4762 DM va oilali fuqarolar uchun 9505 DMni tashkil qildi. Bo'yodoqlardan yiliga 4753 markadan 18056 markagacha, oilali fykapolardan esa 9505 markadan 36070 markagacha 22 foiz miqdorida soliq ushlab qolinadi (eng kam stavkada). Tegishli ravishda 18036-36071 markadan 130031-260063 markagacha bo'yodoqlar va oilali fuqarolardan daromad o'sib boruvchi stavka asosida 22 foizdan 56 foizgacha soliqqa tortiladi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, shuni xulosa qilish mumkin-ki, Germaniya Federativ Respublikasida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining stavkalari jahon soliq tizimida qo'llaniladigan stavkalardan ancha yuqoridir. Germaniyada bu xil soliq hisoblanishi ko'p mehnat va vaqt resurslarini talab qilishiga qaramasdan, ancha mukammal va differentsiyalanganligi uni boshqa mamlakatlardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblanishi, undirilishi usullaridan farq qilishini ko'rsatadi. Soliqni aniqlanishida juda ko'p omillar hisobga olinadi: oilaviy ahvol, ishlaydiganlar soni, mehnat faoliyatining qanday turdaligi, qaysi mutaxassislik bo'yicha daromad olayotgani va h.k. Bu ma'lumotlar o'z navbatida yana bir necha kategoriyalarda klassifikatsiyalanadi. Chegirmalar, imtiyozlar juda keng miqyosda ishlatiladi. Bunday katta informatsion ma'lumotlar bazasi soliq qonunchiligi asosida aniq va o'z vaqtida hisoblanadi. Katta hajmdagi bu ma'lumotlarni kompyuterga kirgizish, guruhlash, aniqlash, hisoblash uchun yollanma ishchilar (uy bekalari, talabalar va boshq.).

Soliq to'lash majburiyatining boshlanishi va soliq to'lovchilarni hisobga olish



O'zining «soliqqa tortiladigan daromadi» ni hisoblab chiqarishning
tahliliy tartibi (soddalashtirilgan chizma)



Germaniyada jismoniy shaxslar soliqqa tortiladigan daromadlarini taxminan shaxsan hisoblab chiqishlari mumkin. Bu ma'lumotlar albatta

moliya, soliq organlari tomonidan tekshirib chiqiladi. Katta shtatga ega bo'lgan soliq maslahatchilari hisob-kitobni olib borishda fuqarolarga tegishli maslahatlar berishadi. Chizmadan jismoniy shaxslar yil davomida oladigan daromadlarini summasi, ularning manbasini qayd qilib borishlari kerakligi ko'rinib turibdi.

Yiliga 130032 - 260064 markadan ortiq daromadlarga 56 foiz darajada yagona stavka bilan solinadi soliq majburiyatining boshlanishi va soliq to'lovchilarni hisobga olish chizmada berilgan (5-chizma).

Korxonalaridagi hamma hisob-kitoblar moliya organlari bilan kelishilgan dasturlar asosida EHM yordamida amalga oshiriladi.

Soliq summasining to'g'riligi soliq to'lovchining deklaratsiyasi asosida tegishli taqvimiy yil tugagandan so'ng aniqlanadi. Deklaratsiya tegishli moliya idorasi tomonidan tekshiriladi va agar tekshirishda kamchiliklar topilmasa soliq xabarnomasi shaklida tasdiqlanadi.

Shu bilan birga yollanish bo'yicha ishlayotgan soliq to'lovchilar yilning har choragida bundan oldingi yil darajasida moliya idorasiga bo'nak ajratmalar ajratishga majburdirlar (6-chizma). Soliqqa tortiladigan daromad miqdorini hisoblab chiqishda "ishlab chiqarish harajatlari", "xizmat va mehnat faoliyati bilan bog'liq harajatlari" va "oilani ta'minlash bilan bog'liq harajatlari" shaklida ko'plab chegirmalar qo'llaniladi. Masalan, bolalikdan to'lanadigan to'lovlar, ishga borish va ishdan qaytishda sarflanadigan transport harajatlari, hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq har-xil sug'urta turlari va malakasini oshirish harajatlari soliqqa tortilishdan ozod etiladi. Oiladagi bolalar soni hisobga olinadi, xususiy uy qurish va boshqalarga imtiyoz beriladi.

Ish haqiga solinadigan soliq miqdorini aniqlashda, "soliq kassalari", "soliq haritalari" va "soliq jadvallari" kabi maxsus usullar qo'llaniladi.

Ish haqiga solinadigan soliq summasi haqidagi zarur hisob-kitoblar daromad darajasi, (sinf)ga qarab jadvallarning maxsus albomida saqlanadi.

Birinchi daraja (sinf)ga bolalari bo'lmagan bo'ydoqlar va uylangan, beva bo'lgan yoki III va IV soliq darajalariga kirish uchun yaxshiroq sharoiti bo'lmagan ajralishganlar taaluqlidir.

Ikkinchi daraja (sinf)ga ajralishgan yoki beva qolgan bo'lib, qaramog'ida kamida bitta bolasi bo'lgan (agar ular uchun oila byudjetini saqlashga mo'ljallagan) yiliga soliqqa tortilmaydigan 4752 DM (1990 yildan boshlab 5616 marka) mumkin bo'lsa, bo'ydoqlar kiradi.

Uchinchi daraja (sinf)ga uylangan (turushga chiqqan) ishchilar (agar er-xotindan bittasi ishlasa), kiradi. Agar er-xotinning har ikkisi ishlasa, u holda bittasini umumiy roziligidan so'ng V daraja (sinf)ga o'tadi.

To'rtinchi daraja (sinf)ga er-xotinni har ikkisi ham ishlaydigan ishchilar kiradi. Er ham, xotin ham ishlagan taqdirda ular alohida-alohida soliq to'laydilar.

Beshinchi daraja (sinf) – bu uylangan (turushga chiqqan) ishchilar bo'lib, oilada er ham, xotin ham ishlaydi, lekin ulardan bittasi umumiy rozilikka ko'ra III darajaga kiradi.

Oltinchi daraja (sinf) – bu bir nechta joyda ish haqiga ega bo'lgan ishchilardir (ular hisobga olinishi kerak).

Soliq darajalari yollanib ishlaydigan ishchilarga belgilangan doirada soliqqa tortilishning eng qulay stavkalarini tanlash imkonini beradi.

Soliq jadvallari faqat soliq darajalarini emas, balki oiladagi bolalar sonini, ular kimning qaramog'ida ekanligini, daromadlarni qo'shib yoki alohida hisobga olishni ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, soliq jadvallarida soliq solinishdan ozod etilgan qator daromadlar ham hisobga olingan.

60000 DM yillik ish haqidan daromad solig'ini aniqlash quyidagi jadvalda keltirildi.

11.2.-jadval

Soliq darajasi (sinf)	Bolalar soni						
	0	1	2	3	4	5	6
I	15453	14399	13368	12363	11385	10436	9516
II	-	12450	11469	10517	9595	8704	7847
III	9636	8960	8306	7674	7066	6480	5916
IV	15453	14923	14399	13881	13368	12363	12363
V	25820	-	-	-	-	-	-
VI	26462	-	-	-	-	-	-

Ish haqidan soliq haritasi asosida soliq ushlanadi. Yashash joyidagi kommuna (obshina)da to'ldiriladigan haritada ishchining soliq darajasi, bolalari soni, qaysi dinga e'tiqod qilishi tasdiqlanadi. Shundan so'ng bu haritaga ishchining 64 yoshga etishi bilan soliqdan ozod etilish summasi kiritiladi. Bundan jismoniy kamchiligi bo'lgan (nogiron) shaxslar uchun

ozod etilgan summa qayd qilinadi (ish beruvchi va o'lka yohud obshchina moliya idorasi bu summani hisobga olishi uchun).

Taqvimiy muddat davomida daromad solig'i summasi (ish haqiga solinadigan soliq summasi) yil yakuni bo'yicha to'lashdan qaytarilishi mumkin. Mexnatga haq to'lash shartlari yoki oilaviy sharoitning o'zgarishi darhol soliq haritasiga kiritilishi mumkin. Yakuniy hisob-kitoblar taqvimiy yil yakunida qilinadi.

GFRda daromad soliqlari doimo o'zgarishda bo'lib turadi. Ular 1983-1985 yillarda, soliq isloxoti jarayonida, 1986, 1988 va 1990 yillarda (ya'ni uch bosqichda) amalga oshirilgan.

Birinchi bosqichda – 1986 yilda daromad solig'ining umumiy summasi taxminan 10,9 mlrd. DMga pasaya boshladi. U birinchi navbatda oilalarga kam va o'rtacha daromad oluvchi shaxslarga taaluqli bo'ldi. Soliqqa tortilmaydigan minimum ko'tarildi.

Ikkinchi bosqichda – 1988 yildan boshlab daromad solig'ining pasayishi 13,7 mlrd. markani tashkil etdi. Soliqqa tortilmaydigan minimum ko'tarildi.

Uchinchi bosqichda – 1990 yilning 1 yanvaridan e'tiboran soliqqa tortilmaydigan minimum 5616-11232 DMgacha etdi.

1990 yildan boshlab yangi soliq tarifi joriy qilindi, u progressiv zonada (22-56%) o'sib boruvchi egri soliq o'rnini ancha to'g'ri bevosita soliq o'rniga almashtirdi. Soliqning boshlang'ich stavkasi 19 foizni (22 foiz o'rniga), oxir - oqibat stavkasi 53 foizni (56 foiz o'rniga) tashkil etdi.

Yangi tarifning maqsadi birinchi navbatda, malakali ishchi kuchi va o'rta tadbirkorlar zimmasidagi "Soliq boji"ni engillashtirish edi.

Yangi tarifning joriy qilinishi kam daromadli ko'p bolali oilalarni soliqdan ozod etdi.

Tariflarning eng ko'p pasayishi yiliga 60-120 markani soliqqa tortiladigan hollarda (bo'ydoqlar va oilalilar uchun) sodir bo'ldi. Bu o'rinda daromad 35 foizga yaqin (amaldagi 51 foiz o'rniga) soliqqa tortiladi. Soliq tarifining pasayishi ma'lum miqdorda qator imtiyozlarning bekor qilinishi hisobiga o'tkaziladi.

11.3.2. Hunarmandchilik solig'i

Hunarmandchilik solig'i ikki qismdan – kapital solig'i va daromadga solinadigan soliqdan tarkib topadi. U GFR moliyasida obshchinalar byudjeti daromadlarida muhim manba hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi hamda shaxsiy mehnat faoliyatidan tashqari har qanday

faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan hunarmandchilik korxonasi uning soliqqa tortiladigan ob'ekti hisoblanadi. Erkin kasb egalari ham bunday soliqqa tortilmaydi.

Hunarmandchilik solig'i bilvosita soliqlar qatoriga kiradi. Uni undirish foydani asosiy soliqlaridan biri – korporatsiya solig'i to'langunga qadar taqsimlash tartibida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, u bevosita soliqqa tortiladigan foydani kamaytiradi.

Hunarmandchilik solig'i real, ya'ni ob'ektiv soliqlar qatoriga kiradi.

Sub'ektiv soliqlar (masalan, daromad solig'i va korporatsiyalardan olinadigan soliqlar)dan farqli o'laroq, ular insonning imkoniyatiga emas, balki ashyolar, yer uchastkasi, hunarmandchilik korxonasiga qaratiladi. Mazkur holatda soliqqa tortish ob'ekti hunarmandchilik korxonasi, uning ob'ektiv daromad imkoniyati va undan foydalaniladigan kapital hisoblanadi. Bunda korxonaning kimga qarashliligi, uning faoliyatidan daromad kimga tushishligi va korxonaga egasining shaxsiy vaziyati qanday ekanligining farqi yo'q. Ishlab chiqarish harajatlari sifatida qaraladigan hunarmandchilik solig'i soliqqa tortiladigan daromadni kamaytiradi va daromad solig'i yoki korporatsiyalardan olinadigan soliq miqdoriga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik solig'i mahalliy soliqlar qatoriga kiradi va ijtimoiy sarf-harajatlarni qoplash uchun eng muhim dastlabki va umumiy manba hisoblanadi. Federatsiya va yerlar hunarmandchilik solig'ini taqsimlashda (hozirgi paytda ular tushum summalarining 15 foiziga yaqinini tashkil etadi) o'z ulushlariga egadirlar.

1996 yilda tushumlar 45,9 mlrd. GFR markasini tashkil etdi. Hunarmandchilik solig'i faoliyati mazkur mamlakat doirasida belgilanadigan har bir hunarmandchilik korxonasi uchun tegishlidir. Hunarmandchilik korxonasi deyilganda, o'z faoliyatini daromad solig'i haqidagi qonunlarga muvofiq amalga oshiradigan korxonaga tushuniladi.

Soliqqa tortish birinchi hunarmandchilik faoliyatidan tushadigan daromad va korxonaga kapitali hisoblanadi. Yangi federal yerlarda korxonaga kapitali hozircha hunarmandchilik solig'iga tortilmayapti.

Hunarmandchilik solig'idan tushadigan daromad solig'i to'g'risidagi qonunga muvofiq (yoki korporatsiya solig'i to'g'risidagi qonunga muvofiq) hunarmandchilik faoliyati natijasida olinadigan foyda, hunarmandchilik solig'ining ob'ektiv xususiyatiga javob beradigan va hunarmandchilik hamda yer solig'idan sodir bo'ladigan ikki yoqlama soliq yukining oldini olish uchun mo'ljallangan summani oshirish yoki

kamaytirishdir. Korxonaga kapitali deyilganda, baholash to'g'risidagi qonunga binoan hunarmandchilik korxonasi yagona qiymati tushuniladi. Bu o'rinda ham ma'lum va qisqartirishlar ko'zda tutiladi.

Ushbu soliq bo'yicha jismoniy shaxslar va shirkatlar uchun 48000 GFR markasi miqdorida soliqqa tortilmaydigan minimum ko'zda tutiladi. 144000 GFR markasidan oshiq bo'lmagan hunarmandchilik daromadlari uchun imtiyozli soliq stavkalari amal qiladi.

Hunarmandchilik solig'ini undirishning huquqiy asosi 1991 yilda qabul qilingan hunarmandchilik solig'i to'g'risidagi qonun hisoblanadi.

Hunarmandchilik solig'i miqdorini hisoblab chiqarish uchun moliya organlari federatsiyada tasdiqlangan baza stavkalar bo'yicha hisoblab chiqilgan summani oladilar. Bunday stavkalar ikkita: hunarmandchilik daromadidan (5%) va hunarmandchilik kapitalining soliqqa tortiladigan ishlab chiqarish fondlari qiymatidan (0,2%) olinadi.

Yer moliya organlari soliqning hisob-kitobli miqdori, ya'ni muayyan obshchina uchun minimal hisoblangan miqdor haqida obshchina xabar qiladilar. O'z navbatida obshchina ham soliq summasiga tuzatish koeffitsienti belgilash huquqiga egadir.

1988 yili GFRda bunday koeffitsient o'rtacha 3,6 miqdorda bo'lgan. Bunda ba'zi obshinalar bo'yicha o'zgarish 2,0 dan 4,8 farqlanib turdi. Hunarmandchilik solig'i summasini hisoblab chiqarish quyidagicha:

11.3.-jadval

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar
Hunarmandchilik daromadidan	Hunarmandchilik kapitalidan
1. Foyda – 110 marka	1. Ishlab chiqarish fondlari qiymati – 1000 marka
2. Ustama va chegirmalar saldosini +7	2. Ustama va chegirmalar qoldig'i (saldo) +19 marka
3. Soliqqa tortiladigan summa – 117 marka	3. Soliqqa tortiladigan summa 1019 marka
4. Soliqning baza stavkasi – 5%	4. Soliqning baza stavkasi – 0,2%
5. Soliq summasi $(117 \cdot 5 : 100) = 5,85$	5. Soliq summasi $2,04 (1019 \cdot 0,2 : 100) =$

Obshinaning moliya organlariga xabar qiladigan solig'ining umumiy hisob-kitob summasi =

$$(5,85 + 2,04) = 7,89 \text{ DM.}$$

Obshchina qabul qiladigan oshirilgan koeffitsient – 4,0.

Soliqning yakuniy summasi $(7,89 \cdot 4,0) = 31,56$ DM.

Umuman GFR moliya vazirligi va savdo-sanoat palatasi (SSP) mutaxassislari hunarmandchilik solig'ining joriy qilinishi Mahalliy xo'jalikning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, deb hisoblaydi.

Lekin hamdo'stlik mamlakatlari doirasida yagona soliq siyosatining o'tkazilishida savdo-sanoat palatasining fikricha hunarmandchilik solig'i bekor qilinadi. Chunki boshqa mamlakatlarda bunday soliqni “umuman eshitishmagan”. Tabiiyki, 40 mlrd. markadan ortiq turadigan daromad tushumlarini kompensatsiya qilish haqidagi masala keskin tusga ega bo'lib qolmoqda. Bir nechta variantlar ko'rib chiqilmoqda. Masalan, savdo-sanoat palatasi mutaxassislarning, sanoat, savdo, qurilish va boshqa korporatsiyalar, shuningdek banklarning manfaatdorlik nuqtai nazari quyidagicha: qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini bir muncha oshirish (ya'ni ularni Yagona iqtisodiy hamdo'stlik mamlakatlari stavkalariga yaqinlashtirish) kerak va foydadan tushadigan bevosita soliqlar bo'yicha mavjud imtiyozli, shuningdek, jadallashtirilgan amortizatsiya usulini qisqartirish (yoki xatto bekor qilish) lozim. Yo'qotishlar o'rnini to'ldirishdan tashqari, mutaxassislar bunday yondashuv “erkin raqobat uchun teng shart sharoitlar” yaratish imkonini beradi, deb hisoblamoqdalar.

11.3.3. Yer solig'i

Yer solig'i ob'ektlilik - real soliqlar qatoriga kiradi. Shuning uchun soliq miqdorini aniqlash yer uchastkasining xususiyatlari va qiymatida hal qiluvchi o'rin tutadi. Yer egasining vaziyati esa deyarli hech istisnosiz, qarab chiqilmaydi. Yer uchastkalariga qurilish qilingan taqdirda yer solig'i ishlab chiqarish harajatlariga kiradi. Ijtimoiy turar joy qurilishi sohasida u turar joyni saqlash uchun harajatlar qoplanadigan kvartira haqiga kiritilgan.

Mazkur mamlakat doirasida mulk hisoblanadigan yerlar soliqqa tortiladi (qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalarini, shuningdek fuqarolarga ajratilgan yer maydonlari). Bevosita soliq hisoblanadigan yer solig'i orqali har yili davlat xazinasiga salkam 15 mlrd. marka tushiriladi (1996 yili-14 mlrd.) Bu soliq ko'chmas mulk solig'i hisoblanadi. Soliqqa tortilish ob'ekti-qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalarini, kompaniyalar va xususiy shaxslarga qarashli yer maydonlari, shuningdek shu uchastkada qurilgan binolardir.

Yer solig'i obshchina tomonidan undiriladi. Yer solig'i stavkasi asosiy stavkaning ikki qismidan tashkil topadi. Bu stavkalar ba'zi ko'chmas mulk turlari uchun markazlashtirilgan tartibda belgilanadi. Shuningdek, bu stavkalar mahalliy moliyaviy ahvolga qarab belgilanadigan obshchina ustamalaridan ham tashkil topadi.

Yer solig'i to'g'risidagi (1974 yildagi) qonunchilikka muvofiq soliq quyidagi turga ajraydi: yer solig'i A (qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalarini uchun) va yer solig'i V (kompaniyalar va xususiy shaxslarning yer uchastkalari va qurilishlari uchun). Soliq stavkalari quyidagi turlarga ajraydi.

- Qishloq, o'rmon xo'jaligi korxonalarini uchun- 0,6%.

- Yerlarning qurilish qilingan va qilinmagam uchastkalari uchun - 0,35%.

- Bitta oila uyi egallagan yer maydoni uchun boshlang'ich qiymati 75 ming marka bo'lsa - 0,26 %.

- Uy qiymatining koldig'i - 0,35%.

- Ikkita oila uyi egallagan yer maydoni uchun - 0,31%.

Obshchinaning ustamalarini odatda A solig'i bo'yicha 2% va V solig'i bo'yicha 3,0 foizni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalaridan yer solig'i qonunga binoan soliqqa tortiladigan foydadan qilinadigan harajat sifatida undirishga ruhsat etiladi. Yer solig'i to'lash majburiy bo'lib u xususiy shaxsning moliyaviy natijalari va daromadiga bog'liq bo'lmaydi. Yer solig'i to'lashdan davlat muassasalari, cherkovlar, maktabgacha tarbiya muassasalari, kasalxonalar, internat va hokazolar ozod etiladi. Shuningdek, ilmiy maqsadlarda foydalaniladiganlardan ham soliq undirilmaydi.

Turar joy qurilishini rag'batlantirish sohasida GFRda yangi qurilgan uy-joylardan o'n yil davomida yer solig'i to'lamaslikka ruhsat etiladi.

Odatda yer solig'i yilning har choragida bo'nak to'lovlari shaklida o'tgan yilgi tushumlar darajasiga qarab undiriladi. To'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi uch yilda bir marta, ko'chmas mulkda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qarab, qayta hisob-kitob qilinadi.

11.3.4. Korporatsiya solig'i

Korporatsiya solig'i to'g'risida amal qilinayotgan qoida 1977 yildagi soliq islohotiga muvofiq va keyingi o'zgarish va qo'shimchalarga binoan joriy qilingan. Bu soliq soliqqa tortiladigan haqiqiy foydaga solinadigan va u federal hamda o'lka byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi. Jamlangan

byudjetning umumiy soliq summasida bu soliqning nisbiy mavqei 4-6 foiz atrofida bo'ladi. Shunga qaramay, bu soliqning GFR qonunchiligi doirasida korporatsiya maqomi (aktsionerlik jamiyatlari, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar va h.k.)ga ega bo'lgan yirik va o'rta kompaniyalarning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatini boshqarishdagi ahamiyati kattadir. Chunki soliqlarni ichida u etakchi o'rinlardan birini egallaydi. 1996 yili korporatsiya daromadidan olinadigan soliq GFRda 29,5 mlrd. markani tashkil qildi.

Germaniyada soliqqa tortiladigan foydaga solinadigan korporatsiya solig'ining ikkita asosiy (baza) stavkalari belgilangan.

Agar foyda taqsimlanmasa, u holda soliq stavkasi 56 foizni, dividendlar shaklida taqsimlanadigan foyda bo'yicha esa 36 foizni tashkil etadi.

Taqsimlanadigan foyda aktsionerlarning (ularga ham daromad solig'i solinadi) shaxsiy daromadlariga kirganligi tufayli korxonalarining bunday foyda qismiga ikki yoqlama soliqqa tortilishi vaziyati tug'iladi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, GFR va yagona iqtisodiy hamdo'stlikka a'zo boshqa mamlakatlarda korxonalarining oladigan foydasiga solinadigan soliq tizimi taqsimlanadigan foydani ikki yoqlama soliqqa tortilishini istisno etadi. Bunga hisobga olish (zachyot) deb ataladigan yo'l bilan erishiladi, unda kompaniyaning taqsimlanadigan foydaga to'laydigan solig'i daromad solig'i orqali aktsionerlarning shaxsiy daromadlarini soliqqa tortishda inobatga olingan.

Shunday qilib, taqsimlangan foydaga solinadigan 36 foizli korporatsiya solig'i iqtisodiy nuqtai nazardan olib qaralganda, go'yo aktsionerning daromad solig'ini oldindan to'lash turidek ko'rinadi. Korxonaning taqsimlanadigan foydasiga solinadigan soliqning tugal miqdori dividend oluvchilardan olinadigan shaxsiy daromad solig'ining stavkasiga bog'liq bo'ladi. Hisobga olish (zachyot) tizimi quyidagi tarzda amalga oshiriladi: odatda bankning vositachiligi orqali amalga oshiriladigan aktsiya bo'yicha dividendlarni to'lashda aktsionerga taqsimlanadigan foyda solig'ini chegirgan holda dividendlar (36 foiz miktorda) to'lanishi va korxonani bu soliqni to'laganligi to'g'risida ma'lumotnoma beriladi. Uzil-kesil hisob-kitob qilish uchun aktsioner moliya boshqarmasiga korxonaning taqsimlanadigan foyda solig'i summasini to'laganligi haqida (unga to'langan dividend ko'rinishida) ma'lumotnoma va o'zining jamlama daromadi haqida ma'lumot (deklaratsiya) taqdim etadi. Ana shu ma'lumot asosida aktsionerning

jamlanma daromadiga solinadigan daromad solig'i stavkasi aniqlanadi va dividendlarning yakuniy summasi hisoblab chiqariladi. Bunda agar kompaniya taqsimlangan foyda uchun to'lagan soliq summasi aksioner uchun hisoblab chiqilgan soliq summasidan oshib ketsa, u tovon (kompensatsiya) puli (ya'ni 36 foiz va o'z solig'i o'rtasidagi farqni) oladi. Aks holda esa aksioner bu farqni to'lashi kerak bo'ladi.

Hisob-kitob shartli quyidagicha:

1. Korxonaning taqsimlanadigan foydasi - 420 ming DM.
2. Taqsimlanadigan foydaga solinadigan soliq stavkasi - 36%.
3. Korxonadan olinadigan soliq summasi : $(420 \cdot 36 / 100) = 151,20$ ming marka.
4. Aksionerga dividendlar to'lash uchun sof foyda summasi : $(420 - 151,20) = 268,80$ ming DM.
5. Aksionerning korxonadan tomonidan taqsimlanadigan foyda uchun soliq to'laganligi haqida ma'lumotnomasi shartli bitta - 151,20 ming marka.
6. Aksionerdan olingan daromad solig'ining individual stavkasi (shartli qabul qilingan) - 50 %.
7. Aksioner daromad solig'ini summasi : $(420 \cdot 50 / 100) = 210$ ming marka.
8. Aksioner to'lashi lozim bo'lgan soliq summasi:
 $(210 - 151,20) = 58,80$ ming marka.

Korxonaning korporatsion soliqqa tortiladigan foydasi yuridik shaxs sifatidagi korxonaning maqomini olgan holda daromad solig'i to'g'risidagi qonun asosida hisoblab chiqiladi.

EIH ga a'zo bo'lgan mamlakatlar doirasidagi soliq islohoti munosabati bilan korporatsion soliqning asosiy stavkasi 1990 yilda 56 foizdan 50 foizgacha pasaytirildi. Bunda taqsimlanadigan foydadan olinadigan 36% miqdoridagi soliq o'zgarishsiz qoldi. Amaldagi soliqqa tortish tizimida va hisobga olish tizimida erishiladigan asosiy samara shundan iboratki, korxonadan foydasi faqat bir marta soliqqa tortiladi. Bu Germaniya soliqqa tortish tizimidagi muhim jihatdir.

11.3.5. Kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliq

Soliq xususiy kompaniyalar aksiyalaridan olinadigan dividendlar, obligatsiyalardan, foizlar va bankdagi omonatlardan, zayom bo'yicha yutuqlardan va ayrim boshqa daromadlardan undiriladi. Kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliq 1996 yilda 25,5 mlrd. DMga

yaqinini yoki yig'ma byudjetning soliq daromadlarining 2% dan ortig'ini tashkil etdi.

Daromad solig'i to'g'risidagi ayrim qonunlar kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliqning huquqiy negizi hisoblanadi.

Kapitaldan olinadigan daromad solig'i quyidagilarni tashkil etadi:

- ma'suliyati cheklangan jamiyatlar va shirkatlar olinadigan foydada aktsiya dividendlari orqali o'z ulushi bilan qatnashishida, 25%;

- 1955 yilgacha chiqarilgan zayomlardan belgilanadigan foizlardan 30%;

- ikki tomonlama bank operatsiyalaridan –30 % (foizli bo'nak), 35%-shu jumladan: federatsiya va boshqa viloyat korporatsiyalari zayomlarida (masalan, federal xazina majburiyatlari, moliyalash bo'yicha majburiyatlari, kommunal obligatsiyalar), sanoat obligatsiyalari, garov varaqalari, bankning qarz majburiyatlari, shuningdek, agar qarzdor mamlakatning kredit muassasasi bo'lsa;

- oddiy pullik talabnomalar (masalan, foizga qo'yiladigan depozitlar yoki 1 % dan ortiq bonus, muddatli depozitlar va jamlama hisob varaqalari).

Kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliq kreditorga kapitaldan daromad kelib tushgan paytda vujudga keladi. Ana shu davrda to'lovchi yoki kapitaldan daromad to'laydigan instantsiya kreditorning hisob varaqasidan soliq chegirmasini amalga oshiradi va ushbu summani to'lovchini soliqqa tortish masalalari bilan shug'ullanadigan moliya muassasiga o'tkazadi.

Dividendlarning korporatsion soliq ushlab qolingani keyingi qoldiq summasidan soliqlar undiriladi. Kapital egasi tomonidan kapitaldan olingan daromaddan to'langan soliq summasi soliq to'lovchini umumlashtirilgan daromadidan daromad solig'i olishda hisobga olinadi. Soliq stavkasi olinadigan daromad turiga bog'liq bo'ladi.

Aktsiyalardan olinadigan dividendlar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar kapitalida ishtirok etishda va shaxsiy korxonada hamda shirkatlar kapitalida turlicha qatnashishlardan olinadigan daromatlardan undiriladigan soliq stavkasi 25% qilib belgilangan. Stavka – proporsionaldir. Bir qator mamlakatlarda bunday soliq mustaqil soliq sifatida amal qiladi, ko'pchilik mamlakatlarda pullik kapitaldan olinadigan daromatlarga daromad solig'i solinadi. Dividendlardan soliqni undirish qoidasi quyidagicha bo'ladi: kompaniya dividendlarni to'lash vaktida ularning 25 % ni soliq idorasiga avtomatik tarzda o'tkazadi. Aktsiyador

dividendlarning qolgan qismini oladi (odatda, bank muassasasi orqali) va unga dividendlardan ushlab qolingani soliq summasi haqida ma'lumotnoma beriladi. Keyinchalik soliq deklaratsiyani to'ldirishda aktsiyador boshqa daromadlar bilan bir qatorda olingan dividendlar summasini ham ko'rsatadi. Aktsiyadorning umumiy daromadidan olinadigan soliq hisoblab chiqilganidan so'ng taqsimlangan foydadan olinadigan korporatsion soliqni to'lashda bo'lgani singari kompaniyaning to'lagan soliqlarini hisobga olish usuli qo'llaniladi.

Shunday qilib, ikki tomonlama soliq solish istisno etiladi. Buning natijasida dividendlar pirovard oqibatda daromad solig'ining yakka tartibdagi stavkasi asosida soliqqa tortiladi.

Hisob-kitob uchun misol:

1. Hisoblangan dividendlar summasi (korporatsion soliq chiqarib tashlanganda) - 200 ming marka.

2. 25 % miqdorda kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliq (1*2) - 50 ming marka.

3. To'langan dividendlar (1-2) - 150 ming marka

4. Dividendlardan daromad solig'ining yakka tartibdagi stavkasi bo'yicha olinadigan daromad solig'i 40% (shartli ravishda, $200 \times 40 : 100$) va summasi quyidagicha bo'ladi - 80 ming marka

5. Soliq idorasiga to'lanishi lozim bo'lgan farq $80 - 50 = 30$ ming DM.

GFRda soliq islohoti doirasida 1987 yil 1 yanvardan boshlab banklarning bank muassasalari, sug'urta kompaniyalaridagi omonatlardan (muddati 3 oydan ortiq bo'lgan) olinadigan foizlardan va qimmatli qog'ozlardan (obligatsiyalar, sertifikatlar va shu kabilar) olinadigan foizlardan 10%lik stavka bo'yicha undiriladigan soliqni o'tkazish majburiyati joriy qilingan. Bunday soliq summasi ancha katta miqdorni tashkil etadi. Masalan, 1994 yilda yig'ma davlat byudjeti daromadlarida bank foizlaridan olinadigan soliq tushumlari 13,7 mlrd. markani tashkil qildi.

Bunday tartibning joriy etilishi shunga olib keldiki, garchi daromadlarning bunday turi qonunga muvofiq soliqqa tortilishi lozim bo'lib, soliq deklaratsiyasida tegishli modda mavjud bo'lsa ham omonatchilarning 80% dan ortig'i foizlardan olinadigan daromadlardan daromad solig'ini to'lamaydi. GFR bilan bir qatorda foizli daromadlardan olinadigan soliq Yaponiya va Ispaniyada (20%), Buyuk Britaniya, Kanada va Frantsiya (25%), Italiyada (30%), Shvetsariyada (35%) va boshqa

mamlakatlarda ham mavjud. Biroq EIH ning ayrim mamlakatlarida (Lyuksemburg va Daniyada) bunday soliqning yo'qligi shunga olib kelishi mumkinki, kapitalning erkin harakat qilishda pullik omonat soliqqa tortishdan bo'yin tovlash maqsadida ana shu mamlakatlarga o'tkazilishi mumkin.

Shuning uchun EIH doirasida dividendlar va foizlardan olinadigan daromadlardan undiriladigan soliq ob'ektlari va stavkalarini bir xillashtirish to'g'risida muzokaralar boshlanishi mo'ljallangan.

11.3.6. Mol-mulk solig'i

Mol-mulk solig'i mol-mulkdan olinadigan va butunlay yerlar byudjetlariga tushadigan soliqdir.

Soliq 1996 yilgi mulkiy soliq to'g'risidagi qonun asosida, 1991 yilni baholash to'g'risidagi qonunda mol-mulkni hisobga olish va baholashning asosiy qoidalari, Federal konstitutsiyaviy sudning 1995 yildagi qaroriga muvofiq undiriladi. Ushbu soliqqa doir amaldagi qonunchilik har doim ham Konstitutsiyaga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun bu soliqni undirish bo'yicha albatta bir qator o'zgartirishlar joriy etiladi.

Daromad solig'iga o'xshab mulkiy soliqning undirilishida cheklanmagan soliq majburiyati farqlanadi. Cheklanmagan soliq majburiyati mamlakat doirasida yashash joyiga yoki odatda bo'ladigan joyga ega jismoniy shaxslar, shuningdek, joylashgan joyi - direktsiyasi mamlakat doirasida bo'lgan korporatsiyalar, shirkatlar va yirik mulkiy ob'ektlarga yuklanadi. Cheklangan soliq majburiyati mamlakat doirasida yashash joyiga yoki odatda turar joyga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek, joylashgan joyi-direktsiyasi mamlakat doirasidan chetda bo'lgan korporatsiyalar, shirkatlar va yirik mulkiy ob'ektlarga yuklanadi.

Yangi o'lkalarda yashash joyiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, ularda joylashgan korporatsiyalar, shirkatlar uchun alohida qaror qabul qilingan. Ular 1991 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrda mulkiy soliqni to'lashdan ozod qilingan. Cheklangan soliq majburiyati agar soliq to'lovchi alohida qoidalarga binoan (masalan, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama soliq solinishini bartaraf qilish to'g'risidagi bitim) mulkiy soliqni to'lashdan ozod qilingan bo'lmasa, uning mamlakatdagi va xorijdagi hamma mol-mulkiga tegishli bo'ladi.

Yangi o'lkalardagi korxonalarining mol-mulki, egalik qiladigan yerlari va foydali qazilmalar, shuningdek, qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalarining joriy ishlab chiqarish vositalarini ortiq qismi, shuningdek,

direktsiyalari bu o'lkalarda joylashgan jamiyatlarda qatnashish ulushi 1991 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrda soliq majburiyatidan ozod qilingan. Mamlakat mulkiga cheklangan soliq majburiyati tegishli bo'ladi, agar bunday mulkning soliq qiymati 20000 GFR markasidan kam bo'lsa.

Soliq to'lovchining joriy yil boshidagi, mulkning yig'indisi korxonalar mol-mulking soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdoriga va shaxsiy soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorga kamaytirilgan umumiy mol-mulki mulkiy soliqni hisoblash bazasi hisoblanadi. Mulkiy soliq bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdorlar va ko'p sonli imtiyozlari mavjud.

Mol-mulkning boshqa turlari bo'yicha bir qator imtiyozlari ham bor. Masalan: umumiy summasi 110000 GFR markasidan kam bo'lgan foizli va foizsiz kapital qarzlari, jamg'arma omonatlari, bank aktivlari, mamlakatdagi va xorijiy to'lov vositalari, aksiyalar va ulushlar hisob-kitob uchun qabul qilinmaydi. Shuningdek, sug'urta qilingan shaxslarning bevalari va etimlariga to'langan summalar, pensiyalar va boshqa renta e'tirozlari, ijtimoiy sug'urta hisobidan to'lovlar aholining bandligi jamg'armasidan nafaqalar va shu kabilar hisobga olinmaydi. Agar asl metallar, qimmatbaho toshlar, dur, tangalar va hamma turdagi medallarning qiymati umuman olganda 1000 GFR markasidan ortiq bo'lsa, faqat shunda hisobga olinadi. Qiymati 20000 GFR markasidan oshadigan san'at asarlari, kolleksiyalar hisobga olinadi. Korxonaning savdo kemalari sifatidagi mulki 50% ga hisob uchun qabul qilinadi.

Shaxsiy soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorlar: mulkiy soliqning alohida hisoblangan summasiga ega har bir shaxs yoki umumiy hisoblangan summasidan qatnashuvchilardan (er, xotin va bolalar) 120000 GFR markasiga teng soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorga ega bo'ladi. Agar soliq to'lovchi 60 yoshga to'lgan bo'lsa yoki taxminan 3 yilga nogironlar to'g'risidagi qonunga binoan 100% lik nogironlik nafaqa olgan bo'lsa, unga 50000 GFR markasiga teng soliqqa tortilmaydigan qo'shimcha eng kam miqdor taqdim etiladi. Agar soliq umumiy tarzda hisoblanadigan er-xotinlardan birining sharoiti yosh yoki nogironlikka tegishli shartlarga muvofiq kelsa, unda ularga 50000 GFR markasiga teng soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor taqdim etiladi. Mabodo er-xotinning har bir ikkalasining sharoiti ana shunday shartlarga muvofiq kelsa, unda ularga taqdim etiladigan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor summasi 100000 GFR markasigacha ko'paytiriladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha ozod qilish va imtiyozlarning boshqa turlari ham mavjud.

Mol-mulk solig'i ko'chirib bo'ladigan va ko'chmas mulk qiymatidan undiriladi (sanoat, savdo, qishloq xo'jalik korxonalari uchun) bunday ob'ekt yer maydoni, uylar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar ham bo'lishi mumkin. Mol-mulk solig'i yuridik, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga netto (qarzlarni chegirib tashlanib) soliq hisoblanadi.

Soliq stavkalari proporsional va odatda yuqori emas. Masalan, GFR da jismoniy shaxslar uchun stavkalar 0,5%, yuridik shaxslar uchun -0,6% qilib belgilangan. Hozirgi mulkiy soliq shaxsiy soliq hisoblanadi va real soliqlardan farqli ravishda unga soliqqa tortishda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor va soliq bo'yicha imtiyozlar hisobga olinadi. Mol-mulkning baholanishi soliq deklaratsiyasiga binoan amalga oshiriladi.

Korxonaning mol-mulki qarzi summasi, ijtimoiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar, pensiya to'lovlari va shu kabilar chegirib tashlanib, soliqqa tortiladi. Kompaniya va jismoniy shaxs mol-mulki qiymatining baholash mulkni soliqqa tortishning muhim elementi hisoblanadi. Qonunlarga binoan "mol-mulkning birlik qiymati" soliqqa tortiladi.

GFRda korxonalar mol-mulkning umumiy baholanishi keyingi marta 1964 yilda amalga oshirildi, 1974 yilda esa korxonalar mol-mulki qiymati turli koeffitsientlar bo'yicha (1-4 gacha) o'zgartirildi va mol-mulk solig'iga tortish uchun asos sifatida belgilandi (shunigdek, qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalari bo'yicha daromad solig'i, hunarmandchilik va yer soliqlari uchun, ham bu koeffitsientlar asosida qiymat olindi). Mol-mulkning birlik qiymati baholash uchun mol-mulkning barcha elementlarining daromadligi asosida ularning jami bahosi negiz qilib olinadi. Firmaning ko'chmas mulki uni baholash paytidagi, uning sotilish narxi bo'yicha jami ko'rsatgichga, ko'char mulki esa-qoldiq qiymati bo'yicha, qimmatli qog'ozlar va uchastkalar-kurs qiymati bo'yicha o'rnatiladi.

Kompaniya mol-mulkining mol-mulk solig'i undiriladigan eng kam miqdori belgilangan. Keyingi vaqda GFRning amaliy va ilmiy doiralarida kompaniyalardan olinadigan mol-mulk solig'ini tanqid qilish kuchaymoqda. Gap shundaki, birinchidan, kompaniyalarning ko'chmas mulki uch marta soliqqa tortiladi - mol-mulk, yer va hunarmandchilik soliqlari. Ikkinchidan, boshqa mahalliy soliqlardan farqli ravishda, mol-mulk solig'ini soliqqa tortiladigan foydadan ishlab chiqarish harajatlari sifatida chegirib tashlash mumkin emas. Uchinchidan, mol-mulk solig'i, xatto kompaniya hisobot davrini zarar bilan tugallagani holda ham

to'lanishi lozim. Bunday holda u kredit hisobidan yoki kompaniya mol-mulkinging sotilishi evaziga to'lanishi kerak.

1996 yilda mol-mulk solig'i 9,0 mlrd. markani yoki yig'ma byudjet soliq tushumlarining 0,8 %ni tashkil etdi.

Shaxsiy ko'chmas mulk, shuningdek qimmatli qog'ozlar, bank hisob varaqalari, sug'urta kompaniyalariga berilgan omonatlar, san'at asarlari, qimmatbaho buyumlar, xususiy samolyotlar, yaxtalar va boshqa zeb-ziynat ashyolari soliqqa tortiladi. Soliq to'lovchilar uchun - 70 ming marka miqdoridagi, mol-mulkga ega er-xotinlar uchun – 140 ming marka miqdoridagi mol-mulkka soliq solinmaydigan eng kam miqdor belgilangan. Shuningdek har bir bola uchun 70 ming marka miqdorida chekgirmalar nazarda tutilgan.

11.3.7. Yer maydonlarini sotib olish solig'i

Bu soliq yer uchastkasi sotib olish va undan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan soliqdir. Mazkur soliqning huquqiy asosi yer maydoni sotib olish to'g'risidagi 1982 yil qonunidir.

Yer maydoni sotib olish solig'iga asosan vasiqalar* va boshqa huquqiy operatsiyalar tortiladi, ular mazkur mamlakat yer uchastkasiga egalik qilish huquqini berishini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bunga ko'pgina huquqiy operatsiyalar, masalan, mulkni begonalashtirish bo'yicha sud yuritish jarayonida egalik qilish huquqinig o'tishi, majburiy sotish bilan bog'liq ishlab chiqarishda eng yuqori narxni taklif etish, tassarruf qiluvchi xo'jalik huquqining o'tishi, yer maydoniga ega bo'lgan jamiyatni barcha paylarini bitta manbaaga to'plash kiradi. Begona yerdagi imorat va binolarga meros huquqi yer maydoniga tenglashtiriladi.

Yer maydonlarini sotib olishga doir muayyan operatsiyalar soliq to'lashdan ozod etilgan, shu jumladan:

- merosni taqsimlash maqsadida sherik merosxo'rlarni merosga tegishli yer maydonini sotib olish;
- yer maydonini uni begonalashtiruvchining eri yoki xotini tomonidan sotib olinishi;
- bevosita qarindosh bo'lgan shaxslar (shu jumladan, er- xotinlar, o'gay bolalari) ning yer maydoni sotib olishi;

* vasiqa – mol-mulk sotib olganlik haqidagi rasmiy hujjat

- kam qiymatli (5000 GFR markasigacha bo'lgan) yer maydonini sotib olish;

- odatda yer maydonini sotib olish solig'i qonun tomonidan batafsil belgilangan javob xizmatidan kelib chiqib hisoblanadi. Javob xizmatlariga asosan yer sotib oluvchining yerni begonalashtiruvchi yoki boshqa shaxsga yer maydonini sotib olganligi uchun ko'rsatadigan xizmatlar ham kiradi. Ayrim alohida hollarda, masalan, javob xizmati bo'lmagan taqdirda, soliq yer maydonining qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi.

Soliq 2% ni tashkil etadi.

Yer maydonini sotib olishni soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlar moliya boshqarmasiga ma'lum qilinishi lozim. Boshqarma soliqni hisoblaydi va o'z qarorini to'lov xabarnomasida to'lovchiga ma'lum qiladi. Soliq to'langandan keyin moliya boshqarmasi moliyaviy ishonchlilik to'g'risida guvohnoma beradi, busiz yer maydonini egasi kitobiga kiritilmaydi. Yer sotib olganlik uchun tushumlar federatsiya byudjetiga o'tkaziladi. Yer uchun olinadigan soliq tushumlari butunlay yoki qisman jamoalar va jamoa birlashmalariga berilishi mumkin.

1994 yilda mazkur soliqdan tushgan mablag'lar qariyb 7 mlrd. GFR markasini tashkil etdi.

11.3.8. Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'i – ijtimoiy va shaxsiy iste'molga solinadigan egri soliq bo'lib, tovarlar yoki xizmatlarning iste'molchiga tomon qilinadigan harakatining hamma bosqichlarida olinadi. Soliq narx yoki tarifga ustama haq sifatida belgilanadi. Bilvosita soliqda davlat aslida yangi qiymatni taqsimlash qatnashchisiga aylanadi, tovar yoki xizmatni sotish paytida bu qiymatning bir qismiga o'z xuquqi borligini ma'lum qiladi. To'g'ri soliqdan farqli o'laroq egri soliqlar to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'lanmagan bo'ladi.

Soliq solish ob'ekti sifatida oborot (aylanma), ya'ni tovar etkazib berish, xaq to'lash hisobiga (pul mukofotiga) ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tavsifidagi har-xil xizmat turlari tanlangan. To'lanadigan xaq haridorning tovar (xizmat)ni sotib olish soxasidagi barcha harajatlarni qamrab oladi, lekin uning qo'shilgan qiymatga to'lagan solig'i chegirib tashlanadi. Qonun tovar etkazib berish tavsifi va soliq solish imtiyozlarini belgilab beradi.

Masalan, eksportga etkazib berilgan tovarlarga, dengiz flotiga va fuqaro aviatsiyasiga etkazib berilgan tovarlarga, kredit operatsiyalari va qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar va hokazolar uchun soliq solinmaydi.

Soliq solinadigan har bir oborot solig'i kamida 14% ni tashkil etadi. Shuningdek imtiyozli 7% li soliq stavkasi ham amal qiladi. U oziq ovqat mahsulotlariga (spirtli ichimliklar, kafe va restoranlarning oborotlaridan tashqari), jamoat transportlariga, axborot vositalari (kitoblar, gazetalar, jurnallar) va san'at asarlariga qo'llanadi.

Soliq solish sub'ekti sifatida "tadbirkor", ya'ni doimiy ravishda ishlab chiqarish, hunarmandchilik, savdo va daromad olish maqsadida boshqa faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiradigan shaxs belgilangan. Ya'ni, tadbirkor ham yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

11.7.-chizma

Aylanma olinadigan soliqni belgilash va to'lash chizmasi

	moliya idorasi	moliya idorasi	moliya idorasi
14	28	42	
	100	200	300
A+14	V+28	S+42	D

"A" tadbirkor "V" tadbirkorga 100 birlik plyus 14 birlik miqdorda (14%) oborot solig'i, jami 114 birlik etkazib beradi. "A" tadbirkor 14 birlikni moliya idorasiga topshiradi. "V" tadbirkor moliya idorasiga topshiradigan oborot solig'ini ana shu miqdorga kamaytirishga, ya'ni "A" tadbirkor to'lagan soliq summasini qaytarib olish huquqiga egadir. Agar "V" o'z tovarini "S" savdogarga sotsa, u 228 birlik mablag'dan 28 birlikni (14%) ni moliya idorasiga topshiradi.

Nihoyat, "S" o'z tovarini "D" iste'molchiga 300 birlikdan 42 birlikni oborot solig'i sifatida moliya idorasiga topshiradi. Iste'molchi 342 birlik to'lar ekan, butun oborot solig'ini ham (qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga) to'lagan bo'ladi. Xaqiqatda butun soliqni 42 birlikni (14+28) tashkil etadi.

Mahsulot etkazib beruvchi to'lov talabnomasi yozilgandan keyin buyurtmachi xaq to'lashi va mablag' o'tkazishini kutib o'tirmay qo'shimcha qiymat solig'ini darhol byudjet daromadiga o'tkazadi. Bu tartib amalda tadbiriq etiladi va u 1979 yil 26 noyabrdagi oborot solig'i to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlangan.

Amalda har bir tadbirkor ko'plab bitishuvlarni amalga oshiradi. Qonunda belgilanishicha, soliq joriy yil uchun bitimlar bazasida uzil-kesil aniqlanadi. Biroq o'sha qonun tadbirkorni hisobot muddati o'tgandan keyingi oyning 10 kunidan kechiktirmay moliya idorasiga belgilangan shaklda soliq deklaratsiyasi topshirish vazifasini yuklaydi. Odatda, mazkur muddat taqvim oyini tashkil etadi, agar o'tgan yili to'langan soliq 6000 markadan oshmasa, u holda tadbirkor soliq deklaratsiyasini topshirishdan ozod qilinadi. Masalan, tadbirkor 1997 yilning yanvari uchun 100000 marka miqdoridagi oborotga ega bo'lib, unga 14% stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Ana shu oy uchun u o'ziga ko'rsatilgan xizmatlarga hisob varaqasi olgan bo'lib, unda oborotdan olinadigan soliq 10200 markaga tengdir. Bunday holda uning hisobot davridagi (1997 yil yanvar) hisob-kitoblar bo'yicha qarzlarni summasi quyidagilarni tashkil etadi:

Umumiy oborot summasi - 100000 marka

Ana shu summaga oborot solig'i (14%) –14000 marka

Unga qaytarilgan soliq summasi (unga qo'yilgan hisoblar bo'yicha) – 10200 marka

Moliya idorasiga to'lovlar – 3800 marka

Tadbirkorga qaytariladigan soliq to'lanishi kerak bo'lgan soliqdan ko'proq bo'lishi mumkin. Bunday holda moliya idorasi tadbirkorga manfiy farq uchun bo'nak berganday bo'ladi. Moliya idorasi bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda tekshirishdan o'tkazish (tadbirkor yil mobaynidagi hisob-kitoblarni mustaqil ravishda, moliya idorasining ishtirokisiz amalga oshiradi, tadbirkorga o'zaro mahsulotlar etkazib berish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida hisobga olish, stavkalarini alohida hisobga olish va h.k.). Deklaratsiyalar tuzish moliya idorasiga tadbirkorlarni saralab nazorat qilish, zarurat tug'ilganda soliq olish yuzasidan tegishli choralar ko'rish imkonini beradi.

Kalendar yili o'tib bo'lgandan keyin eng kechi bilan keyingi yilning 31 mayiga qadar, tadbirkor moliya idorasiga bir yil uchun soliq deklaratsiyasi taqdim qilishi shart. Agar to'langan va to'lanishi kerak bo'lgan summalar o'rtasida farq borligi ma'lum bo'lsa, u holda bu farq qo'shimcha ravishda moliya idorasiga beriladi yoki bir oy ichida moliya idorasi tomonidan tadbirkorga qaytarib beriladi. Daromad solig'i haqidagi qonun quyidagi o'ziga hos xususiyatlarni nazarda tutadi:

a) oldingi, kalendar yilidagi oboroti (oborotdan olinadigan soliqni ham qo'shganda) 100000 markadan oshmaydigan tadbirkorlar soliq to'lashdan ozod qilinadi. Lekin bunday holda u ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'ziga

qo'yilgan hisoblardagi oborotdan qaytarib beriladigan soliqni olish xuquqidan mahrum etiladi. Shuningdek, ular oborotdan olinadigan soliq ko'rsatilgan hisoblarni taqdim etish xuquqiga ham ega bo'lmaydilar. Bunday holda tadbirkor daromad solig'i to'lashi kerak bo'ladi. Agar bu qoida buziladigan bo'lsa, u holda hisob raqamida ko'rsatilgan summani tadbirkor moliya idorasiga taqdim etadi. Tadbirkor soliqdan ozod etilishdan voz kechishga va umumiy asoslarda hisob-kitobga o'tishga haqlidir, lekin u yangi sharoitda kamida 5 yil ishlashi lozim.

b) Agar umumiy asoslarda soliq to'laydigan tadbirkor joriy kalendar yilida 60000 markadan oshmaydigan daromad olsa, u holda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining 80% gacha regressiv soliq to'lash xuquqini oladi.

v) Qishloq va o'rmon xo'jaligining xususiyati shuki, ular moliya idorasiga oborot solig'i to'lamaydilar, taqdim etilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ular oborotdan to'langan soliqlarni qaytarib olmaydilar.

GFRda amal qilayotgan qo'shilgan qiymatdan soliq olish tizimining afzalligi shundaki, u birinchi navbatda ijtimoiy mahsulotning har bir aylanish fazasini nazorat qilish va qatnashchilarning o'zaro bir-birini tekshirish imkonini beradi.

11.3.9. Sug'urta faoliyati daromadlarini soliqqa tortish

Sug'urta faoliyatidan tushadigan daromadlarni soliqqa tortish, masalan, kompaniya sarmoyasidan olinadigan soliq, birja oborotidan olinadigan soliq va veksellarni tovar-pul munosabatlaridan kelib chiqadigan soliqlarga kiradi. Sug'urta faoliyati daromadlaridan keladigan tushumlar federal byudjetda va 1996 yilga 14,3 mlrd. GFR markasini tashkil etdi. Soliq 1959 yilda qabul qilingan va keyin tuzatishlar kiritib borilgan qonun asosida olinadi. Sug'urta badallari (mukofotlar, badallar) mazkur soliqqa tortiladi. Sug'urta faoliyati daromadidan olinadigan soliq sug'urta badalidan kelib chiqib hisoblanadi, hosillarni do'l urishni sug'urta qilganda – sug'urta summasidan soliq olinadi.

Soliq 15% ni tashkil etadi, yong'in kelib chiqqanda va yong'in tufayli ishlab chiqarish faoliyati to'xtatilganda, 10% - yong'inga qarshi elementlari bor binolar sug'urta qilinganda, 13,75% - yong'inga qarshi elementlari bor uy jihozlari sug'urtasida, 14% - dengiz kemalari sug'urtasidan, 2% - baxtsiz hodisalardan sug'urta qilinganda, 3% - sug'urta badali bilan birga qaytariladi. Do'l urish sug'urta qilinganda soliq

sug'urta summasining har 1000 GFR markasidan 0,20 GFR markasi hisobida olinadi. Sug'urta kompaniyalari soliqni muntazam ravishda o'tkazib turadilar. Sug'urta faoliyati daromadidan olinadigan soliqni EH doirasida uyg'unlashtirish zarurati tug'ildi, biroq mazkur g'oyani amalga oshirish vaqti hali ma'lum emas.

11.4. Iste'mol soliqlari

GFRning soliq qonunlariga muvofiq iste'mol soliqlari yig'imlar sifatida belgilanadi, ular ayrim tovarlarni iste'mol qilish yoki foydalanish soliqlaridir.

Tovarga soliq solish odatda tovarlarni ishlab chiqarish bosqichida yoki ularni chet eldan keltirish vaqtida amalga oshiriladi. Iste'mol solig'iga tortiladigan tovarlarning 4 asosiy guruhi mavjuddir:

- soliqqa tortiladigan tovarlar; ulardan ajratmalr federatsiya byudjetiga kelib tushadi (neft va neft mahsulotlari solig'i, shakar, choy, spirtli – aroq mahsulotlari, kofe, yoritish asboblari, tuz va boshqa ayrim tovarlar solig'i). Federal byudjetga kelib tushadigan bunday soliqlar ulushi markazlashgan hukumatni barcha soliq daromadlarining 20% dan ko'prog'ini tashkil etadi;

- soliq tushumlari yerlar byudjetiga yuboriladigan tovarlar: Bu asosan pivodan olinadigan soliqdir;

- import oborot soliqlari solinadigan tovarlar. Mamlakatga keltiriladigan buyumlarning ko'pchiligi ana shu soliqqa tortiladi. Import oborot solig'i ayni vaqtda oborotdan olinadigan soliq shakli ham hisoblanadi (qo'shilgan qiymat solig'i);

- to'rtinchi guruhga mahalliy soliqlar solinadigan tovarlar kiradi (ayrim alkogolli va alkogolsiz ichimliklar solig'i, quyib sotish uchun litsenziya to'lovi, itlarga soliqlar).

Iste'mol soliqlari soliq solishning fiskal jixatdan eng samarali shaklaridan biri hisoblanadi. GFR da o'tkazilgan tadqiqotlarga muvofiq, ularni undirish harajatlari bu soliqlardan keladigan tushumlarni umumiy miqdorining faqat 0,7% ini tashkil etadi. Iste'mol soliqlarining yuqori samaradorligiga shu bilan erishiladiki, asosan ko'rsatib o'tilgan tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan ozroq qismi soliqqa tortiladi. Masalan, shakar solig'iga hammasi bo'lib 66 ta shakar zavodi, tuz solig'iga 42 ta korxonasi, pivo solig'iga 1219 ta pivo korxonasi tortiladi va hokazo. Iste'mol qilinadigan tovarlarning ko'pchiligidan olinadigan soliq ajratmalari

to'g'riligini nazorat qilish bo'jxona xizmatiga yuklangan, biroq bir qancha yerlar va mahalliy organ bo'yicha bu nazoratni amalga oshiradi.

Ko'pgina iqtisodchilarning fikriga ko'ra, GFR da iste'mol soliqlariga tortiladigan tovarlarning qat'iy tasnifi mavjud emas. Masalan, harbiy-dengiz flotini moliyalash uchun birinchi jahon urushi davrida joriy qilingan vijirldigan vino solig'i hozirgi vaqtda ham undiriladi. Iste'mol buyumlari soliqlari (aktsizlar) tarkibida mineral yonilg'idan olinadigan soliq muhim o'rin tutadi. Bu soliq 1996 yilga qariyb 68,2 mlrd. markani tashkil etdi va federatsiya daromadlarining manbai hisoblanadi.

Mineral yonilg'i solig'ining tuzilishi iqtisodiyotga, ayniqsa transport, energetika sohasiga jiddiy ta'sir qiladi. Masalan, yonilg'i soliqlaridagi katta farqlar iste'molchilik xususiyatlarining kuchli o'zgarishlariga sabab bo'lishi mumkin, natijada dvigatel va avtomobilsozlikda qaytadan olishga olib keladi. Chunonchi, keyingi yillarda etilli benzinni iste'mol qilish bir muncha kamaydi, chunki unga juda faollik bilan soliq solinadi, hozirgi vaqda umumiy ishlatiladigan yonilg'i tarkibida atigi 10% ni tashkil etadi. Soliqlar to'g'risidagi keyingi qonun 1993 yilning boshlaridan amal qilib kelmoqda va u EHning aktsizlarini uyg'unlashtirish sohasidagi direktivalarini (aktsizga tortiladigan tovarlarning umumiy tizimi, ularga egalik qilish, tashish va nazorat qilish to'g'risidagi direktivalarni shuningdek, mineral yonilg'i aktsizlarini tuzilishini uyg'unlashtirish va aktsiz stavkalarini, mineral yonilg'i turlarini yaqinlashtirish sohasidagi) hisobga oladi. EH doirasida tovarlarning ayrim guruhlarini soliq solinadigan va soliq solinmaydigan turlarga ajratiladi.

Soliq solish ob'ekti yonilg'i, yoqilg'i va moylash materiallari sifatida mineral yonilg'ining iste'mol qilinishidir. Iste'molning boshqa turlari, shu jumladan eksport soliq to'lashning ko'pgina turlaridan ozod qilingan. Ular orasida yonilg'idan boshqa maqsadlarda foydalanish yonilg'ini isitish maqsadlari, yohud gaz turbinalarining ishlashi uchun ishlab chiqarishda soliqdan ozod qilish alohida o'rin tutadi.

1993 yil 1 yanvardan boshlab mamlakat doirasida moylash materiallariga soliq solish bekor qilindi. Shu tufayli nemis moylash materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat shartlari Evropa ichki bozor shartlariga moslashtirildi. Yoqilg'i materiallari mineral yoqilg'ilar ichida soliq solinadigan materiallar juda keng va katta guruhni tashkil etadi. Shuni aytish kifoyaki, 1994 yilda ular bo'yicha soliq tushumlari 59,3 mlrd. marka bo'lgan.

Quyidagi yoqilg'ilardan soliq olinadi:

- etil qo'shilmagan benzin – 980 GFR markasi (1000l.)
- etil qo'shilgan benzin – 1080 GFR markasi (1000l.)
- dizel yoqilg'isi 620 GFR markasi (1000l.)

Suyultirilgan gazlar (propan, butan), tabiiy gaz va boshqa gazsimon uglevodli materiallarga ham mineral yoqilg'i solig'i solinadi.

Soliq stavkasi quyidagicha:

- suyultirilgan gaz – 612,50 GFR markasi (1000 kg.) (yoqilg'i sifatida boshqa yog'lar aralashmagan);
- tabiiy gaz va boshqa gazsimon uglevodlar – 47,60 GFR markasi (1m³).

Mineral yoqilg'iga solinadigan soliqning 1-guruhining yoqilg'i materiallari solig'i tashkil etsa, 2-guruhni suyuq va og'ir gaz tashkil etadi.

Quyidagicha soliq solinadi:

- engil yoqilg'i – 80 GFR markasi (1000 l.)
- og'ir yoqilg'i – 30 GFR markasi (1000 kg.)

Agar yoqilg'i isitish maqsadlarida ishlatilsa, soliq stavkasi 1000 kg. uchun 30 markaligicha qolaveradi. Bordi-yu, undan elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan bo'lsa, 55 GFR markasi miqdorida soliq olinadi.

Bu soliq bo'yicha uning to'lovchilarini alohida qayd etib o'tish kerak. Tovarlarga solinadigan soliq bevosita ularning ishlab chiqaruvchilaridan, yoki keyingi savdo bosqichlarida tovar narxi orqali iste'molchidan ham undiriladi. Shunday qilib soliq to'lovchilarning cheklangan miqdorini hisobga olgan holda soliqlarni nisbatan pastroq ma'muriy harajatlarni bilan olish mumkin.

Soliq to'lovchilar ixtiyoriy soliq to'lash uchun kerak bo'ladigan summalarni qaytarish uchun etarli darajada vaqt (o'rta hisobda 55 kun) kerak bo'ladi.

Mineral yoqilg'i tayyorlovchilarga imtiyoz beriladi. Masalan, tayyorlovchi zavod doirasidagi ishlab chiqarishda ishlatiladigan yoqilg'iga, yonilg'i yoki mineral moylarning muayyan turiga soliq solinmaydi. Mazkur imtiyoz mineral yoqilg'ini ishlatishda tayyorlovchi zavodga imtiyozli sharoitlar yaratib beradi. Bu hol energetika ishlab chiqarishida yoqilg'i ishlatishga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Yoqilg'ini soliqqa tortish energetika siyosatidagi iqtisodiy vosita sifatida joriy etilgan bo'lib, nemis tosh-ko'mir sanoatining energetika bozoridagi o'zgarishlarga ko'nikishini osonlashtiradi, shuningdek, yangi energetika manbalarini topishga yordam berishi lozim edi. Shuning uchun "yoqilg'i solig'i"ning

tushumlari avval boshdanoq energetika siyosatidagi aniq maqsadli tadbirlarni ta'minlashga mo'ljallangan edi. Biroq 1989 yil 1 yanvardan boshlab aniq maqsadli tadbir bekor qilindi, chunki haqiqatda federatsiyaning maqsadlariga bo'lgan katta harajatlari uning mohiyatini yo'qqa chiqardi.

11.5. Cherkov solig'i

Cherkov solig'i – badal emas, balki soliqdir. U cherkovlarga soliqlarni to'la huquqqa ega bo'lgan holda olishlari, ularning cherkov vazifalarini bajarishlari uchun xizmat qiladi. Soliq to'lovchilar cherkov korporatsiyasining a'zolaridir. Cherkov korporatsiyasi cherkov solig'ini aynan cherkov tumanidagi (o'z diniy e'tiqodi asosida) yashash joyida olishga xaqlidir. Ayrim cherkov doiralarida “cherkov qavmlari” o'rniga “cherkov jamoasi” ning ”a'zolari” yoki “qavmlari” ham bo'lishlari mumkin. Cherkovdan chiqish cherkov solig'ini majburiy to'lashini to'xtatilishini bildiradi.

Cherkov solig'ini hisoblash uchun ba'zi soliqni cherkov yoki moliya boshqarmasi idora qilinishidan qat'iy nazar, daromad solig'ining yillik miqdori (ish haqidagi olinadigan soliq) hisoblanadi, u bitta bolaga 300 GFR markasi miqdorida kamaytiriladigan bo'ladi. Kapital daromadidan olinadigan soliqni hisoblash bazasi sifatida hisobga olinmaydi. Daromad solig'i (ish xaqi solig'i) bilan bir qatorda cherkov solig'i olish to'g'risidagi ko'pchilik qonunlarda hisoblash bazasi sifatida mol-mulk solig'i va yer solig'ining tayanch miqdori nazarda tutiladi. Biroq bu soliq solinadigan bazalar deyarli qo'llanilmaydi.

Agar er-xotin turli din vakillari bo'lib, turli cherkovlarga mansub bo'lsalar ularning daromad solig'i umumiy hisob-kitobga kirsa, u holda daromad solig'i (hisoblash bazasi) ikkiga bo'linadi, shundan keyin cherkov solig'i har bir diniy jamoa bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi, yoki dastlab go'yo er-xotin bitta jamoaga qarashli deb hisoblanadi, so'ngra u har bir jamoa bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqariladi. Agar har ikkala jamoaning cherkov stavkalari bir hil bo'lsa, ikkinchi yondoshuv tadbiri etiladi. Dindor erdan yoki xotindan olinadigan soliq birgalikdagi daromad solig'ining (ish xaqi solig'ining) uning bir o'ziga tegishli qismidan hisoblab chiqariladi.

Soliq stavkalari federal yerga qarab daromad solig'i (ish xaqi solig'ining) 8 va 9% o'rtasida bo'ladi. Ayrim yerlar qonunlari eng kam cherkov solig'ini nazarda tutadi. Cherkov solig'i asosan moliya

boshqarmalari tomonidan daromad solig'ini aniqlash vaqtida hisoblanadi. Agar shaxs ish haqi solig'ini to'lasa ish beruvchi cherkov solig'ini ish oluvchining yashash joyidagi soliq stavkasi bo'yicha hisoblaydi va uni ish haqi solig'i bilan birgalikda soliq boshqarmasiga yuboradi. 1994 yilda cherkov solig'idan tushgan pul 17,6 mlrd. GFR markasidan iborat bo'lganligi ularning katta miqdorda ekanligidan dalolat beradi.

11.6. Qishloq xo'jaligi sektorida soliq solish xususiyatlari

Qishloq xo'jaliklarida soliq solish barcha mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlarni tushunib olish uchun ishlab chiqarishning tashkil etilishini, iqtisodiyotning ahvolini, davlat bilan xalq xo'jaligining bu tarmoqning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini bilish zarur.

Germaniya Federativ Respublikasida butun maydonlarning taxminan yarmi – bu deyarli 36 mln. ga – qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan yerlardir. Shuning uchun ham Germaniya faqat sanoati yuqori rivojlangan davlat bo'lib qolmasdan, shu bilan birga u yuqori samarali qishloq xo'jaligiga ham egadir, u keng assortimentdagi yuqori sifatli oziq-ovqatlar etkazib beradi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya qishloq xo'jaligi tarkibi tubdan o'zgardi. 1950 yildan boshlab Germaniyaning sharbidagi qishloq xo'jaligi korxonalari soni 1,2 mln.ga qisqardi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida daromad olishdagi istiqbollari yaxshi bo'lganligi sababli, fermerlarning ko'pchiligi sanoat korxonalariga va xizmat ko'rsatish korxonalariga ketib qoldi. Bundan tashqari mexanizatsiyaning yuksakligi tufayli qishloq xo'jaligida ishchi kuchining kattagina qismi bo'shab qoldi. 1950 yilda qariyb 1,6 mln. fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, unda deyarli 3,9 mln. kishi oilasi bilan bir yil davomida to'liq ish kuni mehnat qildi. 1995 yilda faqat 523 ming ana shunday xo'jaliklar bo'lib, ularda 275 mingga yaqin kishi band bo'ldi. Xo'jaliklar soni va ishchi kuchining qisqarishi mehnat unumdorligini oshishi bilan bog'liq bo'ldi. Agar 1950 yilda qishloq xo'jaligidagi bitta xodim faqat 10 kishini boqqan bo'lsa, 1994 yilda 91 kishini boqa olar edi.

Mehnat unumdorligini ana shunday zo'r o'sishiga qaramay, qishloq xo'jaligidagi daromadlarning ko'payishi hamisha ham xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi daromadlarning o'sishidan orqada qolardi.

Germaniyaning qishloq xo'jaligi uchun, avvalgidek, oilaviy xo'jaliklar xosdir. 1995 yilda barcha fermerlik korxonalarining deyarli 90% 50 ga dan oshmaydigan maydonda xo'jalik faoliyati yuritdi. Sharbiy Evropadagi

boshqa mamlakatlarga nisbatan bu yerda yordamchi hunarmandchilik alohida ahamiyatga ega bo'lib, oilalarga asosiy daromadni qishloq xo'jaligidan olmaslik imkonini berdi. 1993 yilda xo'jaliklarning deyarli 55%ini ana shu toifaga kiritish mumkin edi.

Agar sotishdan keladigan daromadlarning umumiy summasiga qarab xulosa chiqariladigan bo'lsa, u holda cho'chqa va mol go'shti, shuningdek don va qand lavlagi sharbiy Germaniya qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng muhim turlaridir. Ayrim mintaqalarda vinochilik, mevachilik, sabzavotchilik sohalari va hokazolar etakchilik qildi.

Chorvachilik asosan chorva mollari soni kamroq bo'lgan xo'jaliklarda rivojlanmoqda. 1994 yilda sog'in sigirlarning deyarli 66%i mollar soni 40 boshdan oshmaydigan fermerlarda boqildi.

Germaniyaning sharqida qishloq xo'jaligi boshqacha tuzilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu erda qariyb 600000 fermer xo'jaligi mavjud edi. GDRning sobiq hukumati ularni sekin-asta mustaqil xo'jalik yuritishdan voz kechishga majbur qildi. Ularning o'rnini qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kooperativlari (QIK), yirik xo'jaliklar, shu jumladan, davlat xo'jaliklari va davlat korxonalari egallaydi.

1990 yil oktyabrda Germaniya qayta birlashgandan keyin sobiq GDRda qishloq xo'jaligi qayta xususiy lashtirildi. Hozir turli huquqiy shakldagi 30200 ta korxonalar mavjud. Ulardan 90 foizidan ko'prog'i – yakka tartibdagi korxonalar yoki birovlarning nomi berilgan korxonalar va deyarli 10 foizi – shirkatlar yoki kompaniyalardir. Bularning to'rt dan uch qismi sobiq QIKdan tashkil topgan bo'lib, ularning soni ilgari 4000 ga yaqin edi. Ular Germaniyaning sharqidagi qishloq xo'jalik maydonlarning taxminan 60 foiziga ishlov beradi.

Germaniya hukumati sharqiy Germaniya qishloq xo'jaligining Evropa Ittifoqi iqtisodiy tuzilmasiga ko'nikishi va integratsiyalash jarayonini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlamogda.

Sobiq qishloq xo'jalik kooperativlarini raqobatbardosh korxonalariga aylantirish jarayonida ham yordam qo'rsatilmoqda, bu esa o'z samaralarini bermoqda. Ko'pgina yakka xo'jaliklar, xususan, katta maydonlarga ishlov berish hisobiga birmuncha foyda olishdi. Yagona agrar bozor tashkil etilishi bilan muhim agrar bozor masalalari EI tomonidan hal etilmoqda. Bular bozor, narh tashqi savdo siyosatiga va ko'proq darajada esa tarkibiy tuzilish siyosatiga taalluqlidir. Biroq tarkibiy siyosati hozircha asosan Germaniya tomonidan hal etilmoqda. Qishloq xo'jaligining tuzilishini va qirg'oqlarni muhofaza qilishni yaxshilash umummilliy dasturi mavjud.

Uning doirasida suv xo'jaligi tadbirlari, qishloq joylarda yo'l kurilishiga mablag' ajratiladi. Ayrim xo'jaliklar doirasida ratsionalizatsiya sohasidagi tadbirlarni amalga oshiradiganlar uchun yordam ko'rsatiladi.

Noqulay tuproq-iqlim sharoitidagi mintaqalarda joylashgan fermer xo'jaliklarga alohida mablag'lar ajratiladi. Bozorlarni "yukdan bo'shatish" uchun hukumat ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarishga kvota belgilaydi. Ishlab chiqarish hajmlarini samarali tartibga solish bilan bir qatorda bevosita subsidiyalar ajratishdan keng foydalanmoqda. Garchi Germaniya qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiluvchi eng yirik mamlakat bo'lsa ham, bu mahsulotlarni import qilish ancha ko'proqdir.

Yuqorida aytilganlarning hammasi davlatning iqtisodiyoti qishloq xo'jalik sektori bilan soliq munosabatlarida hisobga olinmoqda. Germaniyada qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun keng miqyosda moliya-kredit dastaklaridan foydalanadi.

Germaniyaning tajribasi O'zbekistonda mahalliy sharoitga moslashgan tartibda, ayrim holatlarda ularnikiga nisbatan takomillashtirilgan shakllarda tadbiriq qilinmoqda. 2009 yili "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturini tasdiqlanishi, fermer xo'jaliklariga qator iqtisodiy yordam berish, ularga ajratilgan yerlarni optimallashtirish, kredit yordamlari, soliq engilliklari berish, chet el investitsiyalarini kiritishga imkoniyat yaratish, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, qishloqlarni qiyofasini o'zgartirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

"...navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa – qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, ... ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat"* . Germaniya EIH tarkibiga kirganligi sababli bir qator yig'imlar va soliqlarga doir masalalar Evropa hamjamiyati tomonidan hal etilmoqda.

EIH qishloq xo'jaligi sohasida quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

- qishloq xo'jaligining mahsuldorligini, ishlab chiqarishni oshirish;
- aholi jon boshiga qishloq xo'jaligidan keladigan daromadlarning orttirish;
- bozorlarni barqarorlashtirish;
- mo'tadil narxlar bo'yicha ta'minotni tashkil etish.

* Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari – T.: O'zbekiston, 2009 y. 41 -bet

Ana shu maqsadlarga erishish uchun narxlar vositasida bozor munosabatlarini keng tartibga solish amalga oshiriladi.

Evropa hamjamiyatining umumiy agrar siyosati doirasida yig'imlar yig'ish shu asosda amalga oshiriladi.

Mol keltirish soliqlari – Evropa hamjamiyatining mahsulot keltirish davrida olinadigan yig'imlari bo'lib, ular EH qishloq xo'jalik bozor tashkilotlari doirasida belgilanadi. Bu yig'imlar qonunga binoan soliq'larga tenglashtiriladi. Hamjamiyat ichida har yili belgilanadigan narxlar uchinchi mamlakatlarga nisbatan to'g'rilanishi va muvofiqlashtirilishi lozim. Bu mamlakatlarning narxlari ma'lum darajada jahon bozori narxlari bilan belgilanadi. Sodda variantda u quyidagicha ko'zga tashlanadi: qishloq xo'jalik tovarini keltirishda jahon bozori narxi bilan hamjamiyat ichidagi narx o'rtasidagi farq mol keltirish solig'i sifatida o'rni qoplanadi, chetga mol chiqarishda esa u eksport qiluvchiga qaytariladi.

Agar jahon bozoridagi narx, istisno tariqasida hamjamiyat ichidagi narxdan yuqori bo'lsa, u holda bu farq mol keltirishda undirib olinadi. Mol chiqarishda esa soliq sifatida taqdim etilishi mumkin.

Evropa hamjamiyatida har yili qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha qariyb uch mingta farmoyish chiqariladi. Shuning uchun ular bo'yicha yig'imlar va soliqlarning to'liq ro'yhatini berish qiyin. 1995 yildan boshlab soliqlar – agrar bojlar – federal boj xizmati tomonidan undirib olinadi va EH byudjetiga tushadi.

Ishlab chiqarish solig'i ham bor. Hamjamiyatda shirin ta'mini beradigan vositalar (shakar va hokazo) ishlab chiqarish doimo iste'moldan ortiq bo'ladi. Shu sababli ishlab chiqaruvchilar uchun kvota (me'yor) belgilanadi. Kvota doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotishda hech qanday cheklashlar bo'lmaydi. Ular bo'yicha barcha imtiyozlardan foydalanish mumkin, EHDan chetga mahsulot chiqarib sotish bilan bog'liq harajatlarni to'la ravishda ishlab chiqaruvchilarning o'zlari ko'taradilar. Ana shu maqsadda ulardan shakarni kvotalar doirasida ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish yig'imi olinadi. Belgilangan kvotalardan ortiqcha ishlab chiqarilgan tovarlarni hamjamiyat ichida sotish ta'qiqlangan. Ular uchinchi mamlakatlarga e'tirozsiz imtiyozli eksport shartlari asosida chiqarilishi lozim. Aks holda ishlab chiqaruvchi yig'im to'lashi shart.

Shakar ishlab chiqaruvchilar kvotadan tashqari ishlab chiqarilgan shakarni sotish, bilan bog'liq harajatlari va ishlab chiqarish yig'imlari natijasida kelib chikadigan og'irlikni qisman lavlagi etishtiruvchilarga

lavlagi narxini to'lash vaqtida o'tkazadilar. Bu hol fermerlarning ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishiga bo'lgan intilishini pasaytirishi mumkin.

Ishlab chiqarish yig'implari soliq hisoblanmaydi. Har bir a'zo mamlakat o'zining sut kvotasiga ega. Bu kvota fermerlarga ham tadbiiq etilishi mumkin. Kvota oshirilgan taqdirda fermerlar u "kafolatlangan miqdordagi sut yig'imi" to'lashlari kerak. Bu yig'imdan kelib tushgan mablag' sut ishlab chiqarishdan voz kechgan fermerlarga «sut nafaqasi» berish uchun ishlatiladi.

GFR qishloq xo'jaligida iqtisodiyotning barcha sohalari uchun umumiy bo'lgan shaxsiy daromadlar va foydadan soliq undirish tizimi amal qiladi. Biroq soliq tushumlarining asosiy miqdori uchta soliq turiga: daromad, yer va hunarmandchilik soliqlariga to'g'ri keladi. GFR qishloq ho'jaligiga soliq solish xususiyati shundan iboratki, ayni shu sohada turli soliq imtiyozlari, soliqni hisoblashning sodda va o'rtacha usullari, shu jumladan ularni soliq to'lashdan to'liq ozod qilish keng tadbiiq etiladi. Qishloq xo'jaligida tadbiiq etiladigan asosiy soliq imtiyozlariga quyidagilar kiradi:

- mayda xo'jaliklar uchun foydani sodda usulda aniqlash;
- mashinalar, asbob - uskunalar va binolar uchun tezlashtirilgan va maxsus amortizatsiya;
- investitsiya ustamaları;
- qo'shilgan qiymat solig'i 7 foizli imtiyozli stavka bo'yicha (asosiy stavkada – 14%) sodda usulda hisoblash;
- ayrim qishloq xo'jalik kooperativlari va uyushmalarini soliqlardan (korporatsiya solig'i, hunarmandchilik solig'i va mol – mulk solig'idan) ozod qilish;
- dastlabki 10 yilda foyda, mol mulk uchun soliq solinmaydigan eng kam miqdorni joriy qilish va fermerlarga xizmat qiladigan qishloq xo'jalik kooperativlarini hunarmandchilik solig'idan ozod qilish.

Bundan tashqari, qishloq ho'jaligida daromad solig'i olishda ko'zda tutilgan barcha soliq imtiyozlar va GFRning butun iqtisodiyoti uchun taaluqli bo'lgan boshqa imtiyozlar (mintaqaviy rivojlanish uchun subsidiyalar, atrof- muhitni muhofaza qilish va hokazo) amal qilmoqda. Qishloq ho'jalik fermerlari va korxonalarining alohida mavqeda turishi GFR ichida, shuningdek EIH doirasida asosan oziq – ovqat mollari bozoridagi yuqori raqobat bilan, rivojlanayotgan mamlakatlardan arzon qishloq ho'jalik mahsulotini ma'lum darajada eksport qilish bilan, buning

oqibati sifatida ayrim fermer xo'jaligining nisbatan beqarorligi bilan izohlanadi.

Soliq solish maqsadida qishloq xo'jalik korxonalarini uchta asosiy guruhga bo'lingan, ulardan har biri uchun daromadlarni (foydani) hisoblashning o'z usuli belgilab berilgan. Birinchi guruhga qariyb 110 mingta xo'jalik (yoki umumiy xo'jaliklarning 16%) kiradi, ularning ekin ekiladigan maydoni 32 ga dan oshadi yoki oladigan yillik foydasi 40 ming markadan ortiqdir. Bu xo'jaliklarga qonun yo'li bilan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish mol – mulki balansini tuzib chiqish asosida muhosiblik hisobotini yuritish topshirilgan. Mol – mulkning ayrim qismlarini (mashinalar, binolar, chorva mollari, inshootlar, zahiralari, hosil, uy-joy imoratlari va boshqa uy-joy mol-mulki) baholash uchun uning yil boshidagi va yil oxiridagi o'rtacha bahosi tadbiriq etiladi. Yil mobaynida mol-mulk hajmining o'zgarishi soliqqa tortiladigan foyda deyiladi. Foydaga ferma egasining barcha shaxsiy harajatlari qo'shiladi.

Dastlab mol-mulkni baholashni 6 yilda bir marta o'tkazish mo'ljallangan edi, biroq 1974 yilda o'tkazilgan birinchi baholashdan keyin bunday baholashlar murakkabligi va ko'p harajat talab qilishi tufayli boshqa o'tkazilmaydi. Amalda mol-mulkni baholash vaqtida soliq inspektori uning 1974 yilda belgilangan qiymatiga 20% ustamani tadbiriq etadi.

Foydadan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor (bo'yoqqa – 2000 marka, er-xotinga 4000 marka) chegirib tashlangandan keyin, shuningdek qonunda ruxsat etilgan boshqa chegirmalar olib tashlangandan so'ng foydadan daromad solig'i va boshqa soliqlar undiriladi. Umuman bu guruh xo'jaliklardan har yili 1 mlrd. markadan ortiq mablag' kelib tushadi va bu qishloq xo'jalik korxonalaridan olinadigan umumiy soliqlarning 50% ga to'g'ri keladi.

Ikkinchi guruh ekin maydoni 25-32 gektargacha yoki yalpi daromadi 32-40 ming marka bo'lgan qishloq xo'jalik fermalarini qamrab oladi. Bu korxonalar qonunga binoan mol-mulk balansini tuzmaydilar, lekin ular o'z daromad va harajatlarini qayd qilishlari va shu asosda soliqqa tortilishi kerak bo'lgan foydani aniqlashlari kerak.

Agar ko'rsatib o'tilgan ishlov beriladigan maydonga yoki tegishli daromadga ega bo'lgan korxonalar o'zlarining daromadlari va harajatlarini hisobga olib bormas ekanlar, u holda soliq inspektori soliq deklaratsiyasida ko'rsatilgan ferma egasining daromadini ko'paytirish huquqiga egadir (yiliga 20% gacha) Bu hol fermer hisob-kitob qilib, bu bilan o'zining

deklaratsiyada e'lon qilingan daromadi summasini asoslab bermaguncha davom etadi. Bu korxonalar soni xo'jaliklarning 7% dan ortadi. Qishloq xo'jalik korxonalarining uchinchi, eng ko'p sonli guruhini ho'jalik faoliyati natijalari to'g'risida hech qanday hisobot yuritmaydigan ho'jaliklar tashkil qiladi Bunday xo'jaliklarning yillik daromadi 32 ming markadan kamroq va yerlari 25 gektardan kamroqdir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barcha omillariga baho berishning bu usuli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari yillik balansini tuzib chiqish lozim bo'lgan yirik xo'jaliklar mol-mulkingining qiymatini aniqlashda ham qo'llanadi.

Alohida olingan ayrim firmaning qishloq xo'jalik mol-mulkiga baho berish bir necha bosqichda o'tkaziladi, ularning har biriga ishlab chiqarish omillaridan birinchining ta'sir ko'rsatishi hisobga olinadi:

--- xo'jalik mol-mulkiga baho berishning boshlang'ich bandi yer sifatini aniqlashdir. Sifati va kelib chiqish bo'yicha turlicha bo'lgan ishlov beriladigan yer uchastkalari uchun ishlab chiqilgan maxsus baholar (koeffitsientlar) asosida ishlov beriladigan yerlar tegishli turkumlarga bo'linadi. So'ngra yer holatiga doir tuzatish kiritiladi, 1 dan (optimal) 7 gacha (o'tkazib yuborilgan - sifati tushib ketgan) bo'lgan koeffitsientlardan foydalaniladi.

Yerga baho berishning navbatdagi bosqichida xo'jalik yuritishning boshqa tabiiy shart-sharoitlari, masalan, iqlim sharoitlari, yer uchastkasining tabiiy joylanishi va hokazolar hisobga olinadi. Yerga baho berishning mazkur bosqichida qishloq xo'jalik maydonlarining turlicha hosildorligi mutlaq miqdorlarida emas, balki 1 gektar maydonga mo'ljallangan nisbiy miqdorda taqqoslanadi. So'ngra koeffitsientlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish yo'li bilan ho'jalik yuritishning shunday shart-sharoitlari, chunonchi uchastkaning qayerga joylashganligi, transport magistrallariga yaqinligi ishlab chiqish hajmi va uning tashkil etilishi, narxlar va ish haqining mintaqaviy darajasi, mahsulotni sotish shartlari va hokazolar ham hisobga olinadi. Keyingi bosqichda olingan ko'rsatkichlar qishloq xo'jalik yerlari umumiy maydoniga, shu jumladan, xo'jalik va uy-joy imoratlari egallagan uchastkalar va xonadon uchastkalariga bo'linadi. Oxirgi bosqichda yer uchastkasining foydalilik ko'rsatkichiga irrigatsiya ishlari qiymati va yer solig'ining summar hajmi asosida tuzatish kiritiladi. Yer uchastkasining foydaliligiga berilgan baho maxsus baholash komissiyasiga taqdim etiladi va u tasdiqlagandan keyin

solliqlarni hisoblash va boshqa operatsiyalar uchun yuridik hujjat hisoblanadi.

GFR da yerning foydaliligiga yagona baho berish bilan bir qatorda xo'jalik mol-mulkiga yagona baho berish ham amalga oshiriladi. O'z harajatlari va daromadlarini hisobga olib bormaydigan ho'jaliklar uchun paushal* usul bilan hisoblab chiqilgan daromad butun mol-mulkka baho berish uchun ham asos bo'ladi.

Qishloq xo'jalik maydonlarining o'rtacha foydalilik darajasi 5,5% darajasida belgilangan bo'lib, GFRda 1 ga yerning hisob qiymati 1000 markadan 2000 marka o'rtasini tashkil etadi, o'rtacha hajmda - 1800 marka va eng yuqori narxda 3726 marka turadi. Biroq yerning bozor bahosi hisob-kitob ko'rsatkichlaridan birmuncha yuqoridir.

11.7. Fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishga qaratilgan imtiyozlar

GFR sanoat korxonalarini o'zining asosiy faoliyatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlar (NIOKR)ni amalga oshirishda ko'pincha foydalanishning dastlabki yillarida belgilangan me'yorlarga nisbatan oshirilgan amortizatsiyani ko'paytirish yo'li bilan ishlab chiqarish fondlarini hisobdan chiqarish usulini qo'llaydilar. Dastlabki yilda koeffitsient odatda me'yorning 1,3% dan oshmaydi.

Qishloq xo'jaligida ham mahsulot tannarxiga "Jadal amortizatsiya usuli» qo'llanadi. Masalan, asbob-uskunalar sotib olingandan keyin birinchi yili ular qiymatining 50%gacha qismini hisobdan chiqarishga ruxsat etiladi. Foydalanish normativ muddati 10 yilgacha bo'lgan yordamchi uskunalariga dastlabki 3 yilda ular qiymatining 80%gacha qismini hisobdan chiqarish mumkin.

Qishloqdagi binolar va inshootlarning me'yoriy xizmat ko'rsatish muddati 25 yil, amortizatsiya me'yori - yiliga 4%dir. Bunday holda foydalanishning dastlabki 3 yilida ular qiymatining 30%gacha qismini hisobdan chiqarish mumkin. Shundan keyingi yillarda ishlab chiqarish harajatlarini hisobdan chiqarish uchun amortizatsiyani hisoblash fondlarning qoldiq qiymatidan amalga oshiriladi.

Yuqorida bayon qilingan masala yuzasidan GFR qonunlarida ikkita tartib amal qiladi. Savdo huquqi asosida korxonalar o'z ixtiyori bilan

* Paushal summasi – (pauchal-nem. jami) alohida turlarga bo'linishni amalga oshirmasdan hisoblangan solliqlarning jami

“Jadallashtirilgan amortizatsiya usuli”ni qo’llash huquqiga egadir, soliq huquqiga muvofiq esa fondlarning emirilishini hisobdan chiqarish ana shu fondlarning me’yoriy xizmat qilish muddatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Moliya idoralari soliqlarni belgilashning to’g’riligini taftish qilishda odatda fondlarni hisobdan chiqarish jadal usulini qo’llaydigan sanoatchilarning sa’y-harakatlariga rozi bo’ladilar. Amortizatsiyani hisoblashning qaror topgan tajribasi mablag’larni eng yangi texnika va texnologiyani sotib olishga yoki ishlab chiqishga yo’naltirish uchun tezlik bilan jamg’arish imkonini beradi.

GFRda mamlakat eksportini rivojlantirishga davlat ko’magining biron-bir shakli rasman qo’llanilmaydi. Buning ustiga GFR eksportda davlat tomonidan dotatsiyalar berishni bekor qilishni yoqlab chiqmoqda. Mamlakatda eksportni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri har qanday tavakkallardan eksport bitishuvlarini sug’urta qilishdir. G’arbiy Germaniya eksportyorining bankdan kredit olishida eksportni sug’urta qilish ayniqsa katta ahamiyatga egadir, chunki ko’p hollarda kredit beruvchi banklar bitishuvni sug’urtalash shaklida o’zlari uchun kafolatni talab qiladilar. Har yili eksport bitimlarini sug’urta qilish uchun GFR hukumati sug’urta limitlari belgilaydi. Bu fondning hajmi G’arbiy Germaniya iqtisodiyoti eksport potentsiali ehtiyojlariga muvofiq belgilanadi.

G’arbiy Germaniya firmalarining chet elga tovar chiqarishda qo’shilgan qiymat solig’i (14%) to’lashdan ozod qilinishi GFRda eksportning rivojlanishga bilvosita solig’i tovarlarning ayrim guruhlariga bo’yicha jiddiy farq qiladi. Masalan, ko’pgina xom-ashyo tovarlari va chala mahsulotlar uchun (GFRsanoati ularni import qilishdan manfaatdordir) bojxona bojlari belgilanmaydi yoki ularning hajmi unchalik katta bo’lmaydi.

Tayyor buyumlarga bojxona bojlari yuqoridir. Biroq bu yerda ham muayyan farqlar bor. GFR firmalari ham jahon bozorida, ham ichki bozorda kuchli mavqega ega bo’lgan tovarlarga kam bojar belgilangan.

Asosiy tayanch iboralari:

- Germaniyada federatsiya, yer va obshchinalarni soliq sohasidagi huquqlari
- Germaniyani moliyaviy boshqaruv tuzilmasi
- Bitimlarga solinadigan soliqlar
- Federal va yerlar (o’lkalar) byudjetiga tushadigan soliqlar

- Shaxsiy (sub'ektiv) soliqlar, real (ob'ektiv) soliqlar
- Umumiy maqsadga qaratilgan soliqlar, joriy (bir marta to'lanadigan) soliqlar

- Pivo solig'i
- O'zining «soliqqa tortiladigan daromadini» hisoblash

Takrorlash uchun savollar:

1. Byudjetda soliqlar ulushini o'zgarishi
2. Soliq majburiyatini boshlanishi va soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish tartibi
3. Soliq jadvali va soliq darajalari (sinf) nimani anglatadi?
4. Hunarmandchilik solig'i real va ob'ektiv soliq ekanligini isbotlab bering.
5. Iste'mol solig'iga tortiladigan tovarlar guruhini keltiring.
6. Cherkov solig'i nima?
7. Qishloq ho'jaligida soliq solish xususiyatlari.

Test savollari:

1. Germaniyada majburiy yig'imlar:
 - a) Soliqlar
 - b) Yig'imlar
 - c) Badallar
 - d) Maxsus chegirmalar
 - e) a,b,c,d
2. GFR byudjetining daromad qismida qaysi soliq asosiy o'rinni egallaydi?
 - a) Hunarmandchilik solig'i.
 - b) Qo'shilgan qiymat solig'i
 - c) Korparatsiyadan olinadigan soliq.
 - d) Daromad solig'i.
 - e) Aktsizlar.
3. Mulkdan undiriladigan mulkiy soliqlarni ko'rsating.
 - a) Mol-mulk solig'i
 - b) Meros solig'i.
 - c) Yer solig'i.
 - d) a,b,c
 - e) Hammasi noto'g'ri
4. Federal soliqlar guruxini ko'rsating.

a) Qo'shilgan qiymat solig'i, yer maydonlari olishga solinadigan soliq, kapital aylanmadan olinadigan soliq.

b) Bojlar, kapital aylanmasiga solinadigan soliq, sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadga solinadigan soliq, veksel solig'i, Evropa ittifoqi bo'yicha soliqlar, aktsizlar (bir qismi) qo'shma soliqlardagi ulushi.

c) Veksel yig'imi, cherkov solig'i, qimorxonalardan tushadigan kirimdan olinadigan soliq, totalizator va lotoreyalardan olinadigan soliq.

d) Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga solinadigan soliq, hunarmandchilik solig'i, meros solig'i, mol mulk solig'i.

e) Hammasi noto'g'ri.

5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar solig'ini fuqarolarni qaysi turdagi daromadlaridan olinadi?

a) Bankdan olinadigan kredit, sug'urta tashkilotlaridan olinadigan to'ldirish mablag'lari, avtomobilni sotishdan olinadigan tushum.

b) g'ullanma ishda ishlaydigan erkin kasbdagi shaxslarni (gonorar) daromadlari, bank qo'yilmalaridan tushadigan foizlar, turar-joy binolarini ijaraga topshirish, shaxsiy faoliyat va boshqalardan olingan daromadlar.

c) Qarzni undirishdan olingan mablag', tadbirkorlik faoliyati bo'yicha sotilgan tovar summasi, nafaqa.

d) Stipendiya, invalidlarga berilgan nafaqa, sigirni sotishdan olingan tushum va h.k.

e) Hammasi to'g'ri.

6. Ish haqiga solinadigan soliqda daromad darajasi - uchinchi sinf to'lovchilarni aniqlang.

a) Ajralishgan, beva qolgan va oilasida bitta bola bo'lganlar.

b) (Turmushga chiqqan) uylangan ishchilar agar er-xotindan bittasi ishlasa, ikkalasi ishlasa bittasini roziligi bilan 5 darajali sinfga o'tadi.

c) Er-xotin ikkalasi ham ishlaydi va alohida-alohida deklaratsiya topshiradi.

d) Uylangan (turmushga chiqqan) er ham xotin ham ishlaydi, lekin ularni bittasini roziligi bilan 3 darajali sinfga kiradi.

e) Bir nechta joyda ish haqiga ega ishchilar.

7. O'lkalar byudjetiga tushadigan soliq va to'lovlar guruhi.

a) Aktsizlar, xunarmandchilik solig'i, yer solig'i, veksel solig'i, aylanma solig'i, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga solinadigan soliq.

b) Mulkiy solik, meros solig'i, yer maydonlari olish uchun solinadigan soliq, transport vositalari egalariga solinadigan soliq, pivo solig'i,

totalizator va lotoreya o'yinlari o'tkazishdan olinadigan soliq, yong'inga qarshi soqchilik solig'i, qimorxonada tushumlaridan olinadigan yig'imlar.

c) It egalariga solinadigan soliq, ko'ngil ochar muassasalar daromadiga solinadigan soliq, ish haqi solig'i, hunarmandchilik solig'i.

d) a,b,c

e) Hammasi noto'g'ri.

8. Ish haqiga solinadigan soliqda daromad darajasi beshinchi sinf to'lovchilarini aniqlang.

a) Ajralishgan yoki beva qolgan bo'lib, kamida qaramog'ida bitta bolasi bo'lgan bo'ydoqlar.

b) Uylangan (turushga chiqqan) ishchilar (agar er-xotindan bittasi ishlasa). Agar er-xotinni ikkalasi ishlasa, bittasini roziligi bilan ikkinchisi V darajaga o'tadi.

c) Er-xotinning ikkalasi ishlaydi. Er ham, xotin ham ishlagan taqdirda ular alohida-alohida soliq to'laydilar.

d) Uylangan (turushga chiqqan) ishchilar, er ham xotin ham ishlaydi ularning bittasi umumiy rozilikka ko'ra III darajaga o'tadi.

e) Bir necha joyda ish haqiga ega bo'lgan ishchilar.

9. Federatsiya va o'lkalarni har ikkisiga tushadigan qo'shma va boshqa soliqlar guruhi.

a) Yer maydonlarini olishga solinadigan soliq, kapital aylanmadan olinadigan soliq, hunarmandchilik solig'i.

b) 1) Qo'shma soliqlar: ish haqiga solinadigan soliq, korporatsiyadan olinadigan soliq, aylanma solig'i;

2) hunarmandchilik solig'ini taqsimlash.

c) Mulkiy soliq, meros solig'i, yer maydonlari olish uchun solinadigan soliq, transport vositalari egalariga solinadigan soliq.

d) Ish haqiga solinadigan soliq ulushi, aylanma soliq, hunarmandchilik solig'i, bojxonada boji, aktsizlar.

e) Hunarmandchilik solig'i, meros solig'i, kapital aylanmasiga solinadigan soliq, totalizator va lotoreyalar solig'i, mulkiy soliq.

10. GFRda yer solig'ining asosiy stavkalari, % da:

a) 0,5, 0,4 0,36, 0,38

b) 0,6, 0,35, 0,26 0,35, 0,31

c) 0,7 0,45, 0,17, 0,33 0,37

d) a,b,c

e) Hammasi to'g'ri

11. Korporatsion soliqning ikkita asosiy stavkalari, % da:

- a) 30,40
- b) 35,38
- c) 36,50
- d) 32,45
- e) 31,40

12. Mol -mulk solig'ining asosiy ob'ektlari:

- a) Yer maydoni, uylar, qimmatli qog'ozlar, asl metallar va hokazo.
- b) Pensiyalar, bank aktivlari, jamg'arma omonatlari.
- c) Ijtimoiy sug'urta hisobidan to'lovlar, bandlik fondidan nafaqalar.
- d) a,b,c
- e) Hammasi noto'g'ri.

13. Obshchinalar byudjetiga tushadigan soliqlar guruhi.

a) Hunarmandchilik solig'i, yer solig'i, mahalliy aktsizlar, it egalariga solinadigan soliqlar, ko'ngilochar muassasalar daromadiga solinadigan soliq, ish haqi solig'i va daromad solig'i tushumlaridan ulush soliq badallari.

b) It egalariga solinadigan soliq, molk- mulk solig'i, ish haqi solig'i, daromad solig'i, aktsizlar, transport vositalari egalariga solinadigan soliq, yer solig'i.

c) Qimorxonalardan tushadigan kirimdan olinadigan soliq, kapital aylanmalaridan olinadigan soliq, veksel yig'imi, yong'inga qarshi soqchilikga solinadigan soliq.

- d) a,b,c
- e) Hammasi to'g'ri.

14. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari, %da:

- a) 20,25
- b) 30,28
- c) 18,24
- d) 10,20
- e) 14,7

15. Iste'mol soliqlarining asosiy ob'ektlari.

- a) Mashina va uskunalari, imorat va inshootlar.
- b) Moylash materiallari, bolalar uchun oziq-ovqatlar
- c) Oziq-ovqatning asosiy turlari, madaniy-maishiy xizmatlar.
- d) Neft mahsulotlari, shakar, choy, spirtli ichimliklar, tamaki, pivo.

XII BOB. YAPONIYA SOLIQ TIZIMI

12.1. Yaponiyada soliq solish asoslari.

12.2. Soliq siyosati.

12.3.1. Soliqlarning asosiy turlari:

12.3.2. Daromad solig'i.

12.3.3 .Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq.

12.3.4 .Mol-mulk solig'i.

12.3.5 .Yer qiymatiga solinadigan soliq.

12.3.6 .Ist'emol solig'i.

12.3.7. Aktsizlar va boshqa soliqlar

12.4. Soliq tizimini boshqarish

12.1. Yaponiyada soliq solish asoslari

Ikkinchi jahon urushidan keyingi soliqqa tortish tizimini yaponcha modeli tizimi kuchli sotsial siyosatni yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan mukammal darajada qo'shib olib borish bilan ifodalanadi. XX asrni 60 – 80 yillarga to'g'ri keladigan davrda yapon jamiyatining ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar yuz berdi. G'arbiy davlatlarda tabiiy hisoblangan, yollanib ishlovchilarning aholi tarkibidagi salmog'i oshgani alohida ahamiyatga ega. Bu guruh aholi soni jihatidan asosiy o'rinni egallab, boshqa davlatlardagi yo'nalishlardan farq qilib, Yaponiyada aniq namoyon bo'ldi. Ushbu holatlardan avvalo yirik kapitalistik mulkni maydalanish jarayonini (depersonifikatsiya) alohida ko'rsatish mumkin. Natijada har xil ijtimoiy guruhlarni daromadining darajasi o'zaro yaqinlashib bordi. Ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan yirik mulkdorchilikni yo'qotilishi ayrim shaxslar, guruh egalarini korporatsiyalar ustidan nazorat qilishdan mahrum qildi.

Hozirgi vaqtda Yaponiyada nafaqat yirik korxonalarini shaxsiy egalarini (ushbu tarkib 40-yillarni oxirida, urushdan keyin Amerika okkupatsion hukumati o'tkazgan islohotlarda yirik monopolistik birlashmalarni mulki sotilgandan keyin), sezilarli hajmda aktsioner jamiyatlarni aktsiyasiga ega bo'lgan va kompaniya ustidan nazorat qiladigan shaxsiy egalarni topish ham qiyinlashib ketdi.

Yaponiyada etakchi mulk egalari depersonizatsiya qilingan kompaniyalar hisoblanadi. Ularning kapitali asosan banklarni kreditlari hisobiga tashkil topadi va bu qarz mablag'lar asosan aholining pul jamg'armalari hisobiga tashkil qilinadi.

Yaponiyada mulkdorchilikni baholashda, aktsiyani egalari oladigan dividendlardan keladigan daromad hajmi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu daromad juda ham kam hajmni tashkil qiladi. Masalan, ish haqini to'lashni har yilgi o'rtacha o'sish darajasi aktsiya egalari dividendan oladigan daromadlarni o'sishidan yuqori turadi.

Yaponiyada 90% aholining daromadi asosan ish haqidan tashkil topadi. Oila byudjetining tashkil topishida mulkdorchilikdan keladigan daromad katta ahamiyatga ega emas. Boy odamlarni 10% umumiy daromadida bu manba 13,5% ni tashkil qiladi. Bu holat Yaponiyada mehnatsiz daromadga yashaydigan boy kishilar umuman yo'q degan gap emas. Odatda, ularni mamlakat aholisini tarkibidagi salmog'i shunchalik kamki, ularni statistikada alohida ijtimoiy guruh deb hisoblanmaydi.

Ish haqi sifatida taqsimlanmaydigan qo'shimcha mahsulot qiymati, amaliyotda to'liq korparatsiyani ishlab chiqarish va moliya faoliyati uchun sarflanadi.

Yaponiyada korxonani boshqarishda o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, o'quvchi o'quv yurtini bitirishi bilan ishga joylashadi. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, o'qishni bitirishidan bir yil oldin bitiruvchini ishga joylash boshlanadi. Shuning uchun bitiruvchilarni asosiy qismi oldindan qanday ishda ishlashini biladi. Masalan, 2000 yili hamma o'qishni bitirganlar tarkibida ish joyi aniqlanganlarni salmog'i 65% ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich ikkinchi jahon urushidan keyin eng past ko'rsatkichni tashkil etdi. Xizmatchi ma'lum yoshga etgandan keyin, qoida bo'yicha bu 50 yoshga teng, uni ajralib chiqqan, tarmoqlanish natijasida yuzaga kelgan sho'baga ishga jo'natiladi.

Mablag'ni korxonani xizmatchisiga investitsiya qilib, korxonada ishchini uzoq muxlat ishlatish natijasida o'zining investitsiyasini o'sishiga to'liq ishonadi. Korxonada xizmatchini uzoq muxlat ishlatish natijasida korporativ ichidagi nou-xau va texnologik yangiliklarni saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uzoq muxlatli xizmati uchun qelgusida beriladigan pensiyaga yig'ilayotgan mablag', xizmatchida uzoq muxlat xizmat qilish uchun qiziqish uyg'otadi.

Uzoq muddatli xizmatini hisobga olgan holda xizmatchini oladigan pul ta'minoti avtomatik ravishda oshib boradi. Yirik korxonalarda xizmatchini 10 yildan ortiq halol xizmati uchun yangi ta'rif to'lovi tizimiga o'tkazish tartibi qo'llanadi.

Yaponiyada shaxsiy qaror qabul qilish juda kam uchraydi. Asosiy va muhim qarorlarni kollektiv, birgalikda qabul qilinadi. Bu o'z navbatida ayrim loyihalarni amalga oshirishdagi tavakkalchilikni ancha pasaytiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan Yaponiya itisodiyotini xususiyatlari soliqlarni yig'ishni tashkil qilishda hisobga olinadi.

Yaponiyani soliq tizimi asosan XIX asrda tashkil topgan. Yaponiyani hozirgi zamon soliq tizimi 1949 moliya yilida o'tkazilgan soliq islohotida yuzaga kelgan. Soliq tizimini asosan moliya sohasidagi amerikalik mutaxassis professor Shalp taklifi bilan tashkil qilingan. Bundan keyin soliq tizimiga bir necha marta o'zgartirishlar kiritilgan, to'ldirilib, takomillashtirilgan.

12.2.-jadval

Davlat soliq tushumlari tarkibini xalqaro solishtirish
(foiz hisobida %)*

Moliya yili	AQSh		Buyuk britaniya		Germaniya		Frantsiya		Italiya		Yaponiya	
	to'g'ri soliq	Egri soliq	to'g'ri soliq	Egri soliq	to'g'ri soliq	Egri soliq	to'g'ri soliq	Egri soliq	to'g'ri soliq	Egri soliq	to'g'ri soliq	Egri soliq
1934-1936	47,5	52,5	51,0	49,0	36,6	63,4	25,8	74,2	27,0	73,0	34,8	65,2
1950	80,0	20,0	54,1	45,9	32,6	67,4	34,7	65,3	13,4	86,6	55,0	45,0
1980	90,6	9,4	59,2	40,8	52,2	47,8	40,0	60,0	52,9	47,1	71,1	28,9
1990	91,8	8,2	59,2	40,8	50,1	49,9	40,0	60,0	57,2	42,8	73,7	26,3
1995	91,3	8,7	56,7	43,3	47,9	52,1	39,6	60,4	54,8	45,2	66,1	33,9
1997	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	63,8	36,2

XX asrning 80-yillari oxirida bir qator rivojlangan mamlakatlar kabi Yaponiyada ham soliq islohoti o'tkazilgan.

1989 yil 1 yanvardan buyon Yaponiyada hozirgi zamon soliq solish tizimi qo'llanilib, unda to'g'ri soliqlarni roli nisbatan pasaytirilib, egri soliqlarni ahamiyati ko'tarilgan. Ushbu islohot natijasida huquqiy shaxslar to'laydigan to'g'ri soliqlarni salmog'i 1990 moliya yili yillik foydani 58%ini tashkil qildi. Buni tarkibida tenglashtiriladigan soliqni qat'iy belgilangan hajmi hisobga olinmagan. Natijada korporatsion soliqlarning hammasini yig'indisi AQShdagi 31,6% va Buyuk Britaniyadagi 24,3% o'rniga Yaponiyada 48,9%ni tashkil qildi. Iste'molga solinadigan soliq

* Eslatma: 1. AQSH ma'lumotlari kalendar yili asosida berilgan.

2. Germaniya ma'lumotlari 1990 yilgacha GDRsiz va undan keyingi yillar birlashtirilgan Germaniya bo'yicha berilgan.

daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma bilan bir qatorda mamlakat byudjetini tushumida muhim o'rinni egallaydi.

Soliq olish darajasi bo'yicha Yaponiya ko'pchilik rivojlangan mamlakatlardan past keladi (AQShda taxminan ichki yalpi mahsulotga nisbatan 28%ni tashkil etadi).

Yaponiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, kam daromadli shaxslarga engilroq va boy kishilarga og'irroq darajada soliq solish tartibi qo'llaniladi.

Boshqa mamlakatlar kabi Yaponiyada ham soliqlar to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi o'zaro nisbiy taxminan 64:36 nisbatni tashkil qiladi.

To'g'ri soliqlarni asosiy qismi (35,0%) daromad solig'iga to'g'ri keladi. Soliqning asosiy og'irligi mamlakatda aholini asosiy qismini tashkil qiladigan o'rtacha daromadga ega bo'lgan shaxslar zimmasiga tushadi.

1960 moliya yili markaziy byudjetni jami daromadi 1961 mlrd. ienni tashkil qilib, uning 1618,3 mlrd. (82,5%) ieni soliq va gerb yig'implari hisobiga olingan.

1965 yilda davlat kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish manbaini ko'paytirish maqsadida hukumat «qurilish zayomlari»ni chiqarishga majbur bo'ldi. Shunga qaramay, markaziy byudjetni umumiy daromadlari tarkibida soliq va gerb yig'implari salmog'i amaliyotda o'zgarmay qoldi, ular 75-85% chegarasida qayd etildi.

1973 yili kuzida yuzaga kelgan birinchi «neft zarbasi» urushdan keyingi davrda eng chuqur darajada iqtisodiy pasayishlardan biri bo'ldi. 1975 moliya yili soliq va gerb yig'implarini kelib tushishi, ayniqsa korporatsiya foydasiga solinadigan soliq sezilarli tarzda pasayib ketdi va markaziy byudjet daromadida 64,0% gacha tushdi.

1976 yildan boshlab iqtisodni rag'batlantirish va barqarorlashtirish, hamda aholi tushumini yaxshilash byudjet harajatini o'sishiga olib keldi. Shu vaqtni o'zida byudjet daromadini o'sishi juda sust holda edi. Bu sharoitda hukumat davlat zayomlarini va shu jumladan, maxsus zayomlarni chiqarishga suyanib qoldi. Chiqarilgan zayomlar salmog'i davlat byudjetini umumiy daromadiga nisbatan 30% dan yuqori darajadaga ko'tarildi, soliq va gerb yig'implari salmog'i taxminan 60%ga tushib qetdi. 1980 yildan boshlab hukumat zayomlarni chiqarishni chegaralay boshladi. 1982 yili «nol shift (cho'qqi, tepa)» siyosati qabul qilindi. Bunda vazirlik

va boshqarmalarni byudjeti oldingi yil hajmida saqlanib qoldi va markaziy byudjet harajatlarini o'sish chegarasi o'rnatildi. Natijada markaziy byudjetni umumiy daromadida soliq va gerb yig'imlarini salmog'i osha boshladi.

Yaponiyani hukumatini byudjeti umumiy schyot (markaziy byudjet) va maxsus schyotlar byudjetidan tashkil topadi. Umumiy schyot jami byudjet hisoblanib hukumat faoliyatini asosiy yo'nalishlarini harajatini qoplaydi.

Maxsus schyotlar byudjeti hukumat maxsus proektlarni amalga oshirganda yoki maxsus fondlarni qoplash yoki foydalanish bilan shug'ullangan taqdirda tuziladi. Shu bilan bir qatorda hukumat tarkibiga kirmaydigan, lekin u bilan o'zaro aloqada bo'ladigan hukumat boshqarmalariga ham byudjet tuziladi. Markaziy byudjet asosan soliq va gerb tushumlari hisobiga tashkil topadi. Lekin 1934 dan 1936 moliya yiligacha 2,3 mlrd. umumiy schyot daromadidan 1 mlrd. ienga (44,7%) yaqin mana shu manbaalardan olingan edi.

12.3.-jadval

Byudjetni umumiy hisob raqami bo'yicha daromadlar tarkibi va byudjet tushumlari yig'indisida soliqlarning salmog'i, %

moliya yili	soliq va gerb yig'imlaridan daromadlar (A)	davlat monopoliyasidan daromadlar	davlat korxonalaridan daromad va tushumlar	hukumat aktivlarini sotishdan olingan daromad	boshka daromadlar	davlat zaemlari	avvalgi moliya yili qoldig'ini olib o'tish	ja'mi (V)	
								(A)	(V)
1934 dan 1936 gacha	1,02	0,2	0,05	0,02	0,24,	0,67	0,07	2,27	44,4
1950	456,4	114,5	5,0	17,4	64,4	-	59,2	716,8	63,7
1990	60105,9	11,1	22,4	162,0	2701,1	7312,0	1389	71703,4	83,8
1997	57802,2	16,8	23,3	302,9	2520,1	16707,0	17,9	77390,0	74,7
2003	41786	-	-	-	-	36445,0	-	81789,1	51,1

Ikkinchi jahon urushidan keyin moliyaviy sog'lomlashtirish siyosati yuritila boshladi. Bu dastur doirasida yillik byudjet harajatlari (ijtimoiy ishlar harajatidan tashqari) davlat zayomlari va qarzlari (davlat zayomlari

chiqarilgan taqdirda ham) dan tashqari manbaalar hisobiga moliyalashtirishi kerak edi.

Yaponiya banklariga, qoida bo'yicha, ularni joylashtirishga kafolat berish taqiqlangan edi. Buning natijasida umumiy markaziy byudjet daromadida soliq va gerb yig'implarni tushumlarining salmog'i osha boshladi.

Soliq va gerb yig'implari tushumlarining salmog'ini o'zgarishini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

2003 yil byudjetida soliq va gerb yig'implarining umumiy hajmini umumiy hisobi daromadlarini 51,1% ini tashkil qildi. Umumiy hisoblar byudjetiga ko'rsatilgan yili davlat zayomi obligatsiyalarini sotishdan 36 trl. 445 mlrd. yena yoki 44,6% va 3 trln. 558,1 mlrd. yena (4,4%) soliqsiz tushumlar kelib tushdi.

Ayrim soliqlarni roli va ahamiyatini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'g'ri soliqlar 58,1% hamda egri va boshqa soliqlar 41,9 tashkil qilgan, to'g'ri soliqlardan asosiy davlat soliqlari daromad solig'i (daromad manbaida va deklaratsiya tizimi bo'yicha olinadigan soliqlar) 13 trln. 810 mlrd iendan yoki umumiy soliqlarni 35,0% dan tashkil topdi.

1997 moliya yili markaziy byudjetga 57802 mlrd. ien soliq va gerb yig'implarini kelib tushishi mo'ljallangan. Shu jumladan 54681 mlrd. ien soliqlar, 1102 mlrd. ien bojxona boji va tonnaj yig'imi hamda 2001,9 mlrd. ien gerb yig'imi kelib tushishi hisobga olingan.

To'g'ri soliqlardan asosiy davlat soliqlari daromad manbaida olinadigan daromad solig'i (16852 mlrd. ien yoki 28,3% davlat soliqlari tushumlaridan), korporatsiya foydasiga solinadigan soliq (9114 mlrd. ien yoki 21,8%). Egri soliqlar ist'emol solig'idan (9489 mlrd. ien yoki 22,7%) va alkogolli ichimliklarga solinadigan aktsizlardan (1733 mlrd. ien yoki 4,1%) iborat.

Hozirgi zamon Yaponiya soliq tizimi AQSh va G'arbiy Evropa davlatlari soliq tizimidan ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

Yaponiya soliq tizimi davlat soliqlari va mahalliy soliqlardan tashkil topadi.

Davlat soliqlari o'zining tarkibiga quyidagilarni oladi: jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq, ist'emol solig'i, huquqiy shaxslar daromadiga solinadigan soliq, benzina solinadigan soliq, spirtli ichimliklarga solinadigan soliq, merosga solinadigan soliq, tamaki

mahsulotlariga solinadiga soliq, avtotransport og'irligiga solinadigan soliq, bojxona boji va boshqalar. Bu soliqlar umumiy schetlar byudjetiga tushadi.

12.4.-jadval

Soliq tushumlarini tarkibi

Moliya yili	1990		1995		1997		2003	
	summa	%	summa	%	Summa	%	Summa	%
Soliqlarni nomi hammasi*	62780	100,0	54963	100,0	59481	100,0	41786	100,0
I. To'g'ri soliqlar	46297	73,7	36352	66,1	37927	63,8	24276	58,1
1. Daromad solig'i	25996	41,4	19515	35,5	20882	35,1	13810	35,0
A) Daromad manbaida	18779	29,9	15726	28,6	16852	28,3	-	-
B) Soliq deklaratsiyasi tizimi bo'yicha	7217	11,5	3789	6,9	4030	6,8	-	-
2. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq	18384	29,3	13735	25,0	14432	24,3	9114	21,8
3. Merosga solinadigan soliq	1918	3,1	2690	4,9	2461	4,1	-	-
4. Yer qiymatiga solinadigan soliq	-	-	406	0,7	152	0,3	-	-
II. Egri va boshqa soliqlar	16483	26,3	18611	33,4	21554	36,2	17510	41,9
1. Ist'emol solig'i	4623	7,4	5790	10,5	9813	16,5	9489	22,7
2. Alkogolli ichimliklariga solinadigan aktsiz	1935	3,1	2061	1,7	2063	3,5	1733	4,1
3. Tamaki mahsulotlariga solinadigan aktsiz	996	1,6	1042	1,9	1062	1,8	917	2,2
4. Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha bitimlarga aktsiz	748	1,2	479	0,9	351	0,6	-	-
5. Bojxona boji	825	1,3	950	1,7	1093	1,8	808	1,9
6. Gerb yig'imi	1894	3,0	1941	3,5	2019	3,4	1129	2,7

Umumiy soliq tushumlarini 64,0% davlat soliqlari va qolgani mahalliy soliqlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Yaponiyani davlat byudjetida soliq mablag'larini asosiy qismi davlat soliqlarini ajratma asosida qaytadan taqsimlash natijasida mahalliy byudjetlarga o'tkazish asosida tashkil

* Йилни охирига ўтказилган қолдиқларни ҳисобга олган ҳолда

topadi. Mamlakatda 47 ta prefektura bo'lib, ular 3045 ta shahar, shahar tipidagi qishloq, tumanlarni birlashtiradi va ularning har birida o'zining mustaqil byudjeti mavjud. Soliqlarni taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Moliya resurslarini taxminan 64,0% mahalliy mablag'lar sifatida harajat qilinadi, qolgan qismi esa umumdavlat funktsiyalarini bajarish uchun yo'naltiriladi.

Mamlakat byudjetini va prefektura byudjetlarini daromad qismi faqat soliqqa asoslanib qolmaydi.

Yaponiyada boshqa davlatlarga nisbatan soliqsiz tushumlarni salmog'i ancha baland.

Soliqsiz to'lovlarga arenda to'lovi, yer uchastkalarini va boshqa munitsipal ko'chmas mulklarni sotish, penya, jarima, obligatsiyalarni sotish, lotoreya va zaemlardan olinadigan daromad va boshqalar kiradi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar prefektura aholisidan olinadigan soliq, tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliq, prefektura ist'emol solig'i, avtotransportlarga solinadigan soliq, benzin va boshqa neft mahsulotlarini etkazib berish uchun soliq, ko'chmas mulkni olish uchun solinadigan solik, ovchilikka solinadigan soliq, tamaki mahsulotlarga solinadigan soliq, ofis va idoralarga solinadigan soliq va boshqalardan tashkil topadi..

Mahalliy soliqlar va yigimlaridan tushumlar hajmi
(2003 yil)

Ko'rsatkich-lar	Soliq turlari										
	Prefektura aholisidan olinadigan soliq	Tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliq	Prefektura iste'mol solig'i	Avto-transportlarga solinadigan soliq	Benzin va boshqa neft mahsulotlarini etkazib berish uchun soliq	Ko'chmas mulkni olish uchun soliq	Avto-transportni olish uchun soliq	Tamaki mahsulotlariga solinadigan prefektura solig'i	Ovcilikka solinadigan soliq	Boshqalar	Ja'mi
Summasi mlrd. ien	138,9	3698,3	2397,2	1810,9	1128,3	440,2	454,8	282,8	1,1	81,4	13433,9
Salmog'i (foiz hisobida)	23,4	27,5	17,8	13,5	8,4	3,3	3,4	2,1	0,0	0,6	100,0

Prefekturalar ixtiyoriga kelib tushadigan mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibida hajmi jihatidan asosiy o'rinlarni tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliqlar, aholidan olinadigan prefektura soliqlari, prefektura iste'mol soliqlari egallaydi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar munitsipial organlarni ixtiyorida ham to'planadi.

Munitsipal organlarni mahalliy soliqlar va yig'implarining tarkibi.
(2003 yil)

Ko'rsatkichlar	Soliq turlari						
	Ko'chmas mulkka solinadigan soliq	Shahar,tuman, posyolkalar aholisidan olinadigan soliqlar	Shahar qurilishiga solinadigan soliqlar	Tamaki mahsulotlarga solinadigan munitsipial soliqlar	Ofis, idoralar va boshqalarga solinadigan soliqlar	Boshqalar	Ja'mi
Summasi, mlrd.ien	8761,0	7397,7	1257,0	868,9	281,5	145,8	18738,6
Salmog'i, (foiz hisobida)	46,8	39,5	6,7	4,6	1,5	0,8	100,0

Munitsipal (shahar, tuman, poselka va boshqalar) organlarga asosiy tushumlar ko'chmas mulkdan olinadigan soliq va munitsipal organlarni aholisidan olinadigan soliqlardan keladi. Daromadning soliq bandlariga shuningdek, o'tgan yil qoldiq summasi ham kiritiladi.

Soliqlar to'g'risida to'liqroq tassavurga ega bo'lish uchun milliy daromadga nisbatan soliq og'irligini bilish muhim ahamiyatga ega.

12.7-jadval

Milliy daromadga nisbatan soliq og'irligi* (yuki)

Moliya yili	Milliy daromad (A) mlrd.ien	Soliq og'irligining hajmi			Soliq og'irligini koeffitsienti	
		Davlat soliqlari (V) mlrd.ien	Mahalliy soliqlar mlrd.ien	Jami (S) mlrd.ien	Davlat soliqlari (V): (A) %	hammasi (S) : (A) %
1934-1936	14,1	1,2	0,6	1,8	8,5	12,9
1950	3381,5	570,2	188,3	758,5	16,9	22,4
1970	61029,7	7773,3	3750,7	11524,0	12,7	18,9
1990	345739,0	62779,8	33450,4	96230,2	18,2	27,8
1995	379720,4	54963,0	33675,0	88638,0	14,5	23,3
1997 byudjet	398500,0	59481,2	37612,8	97094,0	14,9	24,4

Soliq og'irligini milliy daromadga nisbati ikkinchi jahon urushigacha, davlat va mahalliy soliqlarni hisobga olgan holda (1934-1936 yillar 12,9% va 1941 yili 16,2%) taxminan 15% ni tashkil qilgan. Urushdan keyingi davrda iqtisodiy barqarorlik bo'lmagan yillari esa 20% atrofida saqlanib qolgan. 1976 yildan boshlab soliq og'irligi koeffitsienti sekin - asta oshib bordi va 1990 yili 27,8% tashkil qildi.

Lekin «sovun pufakcha (ko'pikcha) iqtisodi»ni barbod bo'lishi va 1994 yildan boshlab daromad solig'i stavkasini tezlik bilan tushishi natijasida soliq og'irligi 1997 yili 24,4% gacha (baholash) pasayib ketdi.

Yaponiyada soliq ma'muriyati ishni olib borish harajatlari doimiy ravishda o'rganilib boriladi va ularni samaradorligini oshirish bo'yicha kerakli choralar ko'riladi.

Soliq ma'muriyati ishni yuritish harajatlariga xizmatchilarni ish haqi, transport harajatlari, muassasalarni ishlashi bo'yicha harajat va bosh soliq boshqarmasini boshqa harajatlari kiradi va ular davlat byudjetini umumiy schetiga ko'shiladi.

*ESLATMA: 1. Davlat soliqlari to'g'risidagi ma'lumotlar 1980 yilgacha Yaponiya davlat korporatsiyalarini tamaki va tuz sotishdan olgan daromadini hisobga olgan va 1955 moliya yilidan davlat soliqlariga maxsus schyotlardagi soliqlar qo'shilgan.

2. Mahalliy soliq davlat soliqlarini taqsimlashdan kelib tushgan mablag'lar qo'shilmagan.

3. Milliy daromad to'g'risidagi ma'lumotlar haqiqiydir.

Soliqlarni yig'ish bo'yicha har yilgi harajatlar (mln.ien)

Mo- liya yili IV- dan III gacha	Har bir 100 ienga hara- jati (9:11)	Transport harajati	Muas- sasini ishlashi bo'yicha hara-jati	Imoratni xizmat harajatlarini qoplash	Subsi- diyalar va komis- sion muko- fot-lar	Pochta xizmati uchun uning maxsus scheti- ga o'tka- zish	Boshka- lar	ja'mi	Indeks (1950= 100)	Soliq va gerb yig'im- larini tushumi mlrd. ien	Indeks (1950=100)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1950	2,79	5433	2332	3009	125	868	74	12203	100	4371	100
1980	1,40	296472	14255	30377	1858	4799	1694	350924	2876	249913	5718
1990	0,90	424939	19161	1107	2486	3946	2795	518021	4245	575266	13161
1997	1,23	52017	20765	1889	2285	2226	5115	654454	5363	532752	12188

1997 moliya yili byudjetida soliqlarni yig'ishni umumiy harajati 654,5 mlrd. ienni tashkil qildi.

Jami harajat tarkibida eng katta harajat ish haqi to'lash hisoblanib, unga 520 mlrd.ienn yoki 79,4% sarflangan. Qolgan harajatlar tarkibida yirik harajatlar soliq muassasalarini ishlashi uchun harajatlar (102,2 mlrd. ienn) va transport harajati (20,8 mlrd. ienn) hisoblanadi.

1950 yili davlat soliq boshqarmasining (DSB) soliq va gerb yig'imlarini to'plash bo'yicha har 100 ienn soliq tushumi uchun 2,79 ienn sarflangan, ushbu harajatlar ulushi keyingi yillari kamayib borib, 1950 yildan yuqori bo'lmagan. 1996 moliya yili bu harajatlar 1,30 ienni va 1997 moliya yili 1,23 ienni tashkil qildi.

Soliq yig'ish harajatini kamayib borishiga asosiy sabab DSB ularni hajmini ko'payishiga yo'l bermaganligi hisoblanadi.

Iqtisodiyotni o'sishi va soliq hamda gerb yig'imlarini tushumini ko'payishi soliq xodimlarini ishini yaxshilab, ishlash samaradorligini oshirib, ortiqcha harajatlarni chegaralash orqali yig'im harajatlarini kamaytirdi.

Lekin, oxirgi yillari soliq va gerb yig'imlarining tushumlari kamayishi natijasida «solishtirma» harajat ko'tarilib bormoqda, soliqlarni to'plashdagi «solishtirma» harajatlarni kamayishi soliq ma'muriyati ishini samaradorligini ko'rsatadi. Lekin soliqlarni yig'ish harajati soliq solishni adolatli bo'lishi bilan ham bog'liqligini hisobga olsak, ularni faqat soliq va gerb yig'imlarini umumiy tushumi bilan solishtirib baholash ham bir tomonlama bo'lib qoladi.

12.2. Soliq siyosati

Yaponiyani soliq siyosati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini hisobga olgan holda tashkil qilingan.

Yaponiyani soliq tizimi soliqlar deklaratsiyasi tamoyiliga asoslangan. Bu tartib soliq to'lovchidan mustaqil ravishda o'zining soliq solinadigan bazasini, soliq majburiyatini hisoblab, mahalliy soliq inspeksiyasi boshlig'iga oxirgi soliq deklaratsiyasini topshirishini talab qiladi. Soliqlarni yig'ish ham asosan soliq to'lovchilarni ixtiyoriy ravishda to'lashlari tartibida amalga oshiriladi.

Soliq deklaratsiyasini bunday tizimi sharoitida soliq ma'muriyatining asosiy vazifasi soliq to'lovchilarga soliq to'lashni muhimligini etkazish, tushuntirish, ularni soliq deklaratsiyasini to'g'ri to'ldirish va soliqlarni ixtiyoriy ravishda to'lashlariga qiziqtirishdan iborat.

Bu sohada soliq ma'muriyati shunday soliq siyosatini tashkil qiladiki, bu siyosat soliq to'lovchilarni manfaatini ko'zlab, soliq to'lash tartibini saqlashga qiziqtirishdan iborat.

Soliq siyosatini yo'nalishi uning asosiy vazifalarini belgilab berib, ularni bajarishda amalga oshiriladigan tadbirlarni umumiy ma'lumotini beradi.

Bu siyosatni asosiy yo'nalishlarini quyidagi uchta tamoyillarga keltirish mumkin:

1. To'g'ri to'ldirilgan soliq, deklaratsiyasini topshirgandan keyin. Soliqlarni ixtiyoriy to'lashga va soliq inspeksiyasiga konsultatsiya olish uchun murojaat qilishga soliq to'lovchini qiziqtirish.

Soliq to'lovchilar to'g'ri to'ldirilgan soliq deklaratsiyasini berish va ixtiyoriy ravishda soliqlarni tulashlari uchun, ular soliq solishni muhimligini tushunishlari, o'zlarini fuqarolik majburiyatlarini bilishlari, soliq qonunchiligini mazmuni bilan tanishib, buxgalteriya hisobi qoidalarini chuqur o'rgangan bo'lishlari kerak.

Davlat soliq boshqarmasi aholi bilan ishlash tizimi asosida soliq to'lovchilarga soliq solishni turli ko'rinishlarini tushuna bilishiga, soliq qonunchiligi bilan tanishtirish, buxgalteriya hisobini olib borish amaliyotini o'rgatishlari bo'yicha boshqaruv va maslahat berish ishlarini olib boradi.

Tekshirish davrida davlat soliq boshqarmasi faqat haqiqatni tadbiiq qilish, soliq to'lovchini xatolarini to'g'rilabgina qolmay, ular soliq qonunchiligini yanada chuqurroq bilishlari, soliq tartibini saqlashlarini kuchaytirilishiga ham alohida ahamiyat berishlari kerak.

2. Qoida asosida soliq solish tartibini ta'minlash uchun intilish.

Ixtiyoriy soliq to'lash tartibini darajasini ko'tarish uchun soliq deklaratsiyasi topshirilganda va soliqlar to'langanda soliq ma'muriyati hamma soliq to'lovchilar o'z vazifalarini bajarishlarini ta'minlab berishi kerak.

Noto'g'ri to'ldirilgan deklaratsiyalar tekshirilib, to'g'rilanishi kerak. Agar soliq to'lashdan muhim darajada bosh tortilsa, qattiq choralar ko'rilishi shart.

3. Tartiblilik, hamjihatli va samarali soliq ma'muriyatini tashkil qilish kerak.

Soliq to'lovchilarni soliq ongini oshirish va ularni ishonchini oqlash uchun, ular bilan bo'lgan hamkorlikda soliq ma'muriyati beg'arazlik,

xolislik, adolatlikni namoyon qilib, tartibli, hamjihat va samarali ishchi sharoitni yaratishlari zarur.

Har bir soliq organi xodimi, o'zini davlat byudjet tizimini suyanchig'idek xis qilishi kerak, o'zining tutgan mavqei bilan mag'rurlanishi va o'zini qattiq tartibligini saqlash kerak. Bunday munosabat soliq xizmati bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi aloqani yanada mustahkamlaydi va ularni ishonchini egallab oladi.

Davlat soliq boshqarmasi soliq qonunchiligini bajarilishiga javob beradi. Ayniqsa, byudjet daromadini asosiy qismini tashkil qiladigan ichki soliqlarni hisoblash va yig'ish uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgardirlar. DSB ushbu faoliyatini soliq to'lovchilarni tekshirish va boshqarish, soliq maslahati xizmatini ko'rsatish, aholi bilan faol ish olib borish orqali bajaradi. Soliq deklaratsiyasi tizimini qoniqarli holatda amalga oshirilishida DSB aholi bilan ish olib borganda soliq tartibini saqlashga sharoit yaratib berishi kerak.

Soliq tekshiruvlari o'tqazish va ma'lumotlarni to'plashda soliq organlari soliq to'lovchilar bilan o'rtamiyona jiddiylik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. DSB soliq majburiyatlarini to'liq hisobga olib, soliq tushumini ta'minlab, boqimandani majburiy undirishga chora-tadbirlar ko'radi.

Soliq deklaratsiyasi tizimi shu bilan ta'riflanadiki, soliq to'lovi oldin soliq to'lovchilar bergan deklaratsiya bilan aniqlanadi.

Bu tizimni samaradorli amalga oshirishni asosiy sharti, soliq to'lovchilarni tartibli, doimiy va to'g'ri hisob-kitob olib borish va daromadlarni ob'ektiv ravishda hisoblashdan iborat.

Yaponiyada deklaratsiya tizimi AQSh soliq tizimini qattiq ta'siri asosida 1947 yili tadbiriq qilingan.

Soliq organlari bundan oldin ajratma tizimini qo'llab, ma'muriy qarorlari bilan soliq hajmini belgilab berganlar.

Soliq deklaratsiyasi tizimi Yaponiyada katta qiyinchiliklar bilan, ayniqsa shaxsiy daromad solig'i bo'yicha amaliyotga kiritildi. Bu tizimni kiritilgandan buyon yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi va bu tizim jamiyatda chuqur ildiz otdi. Deklaratsiya tizimini tadbiriq qilishda DSB soliq tizimi va soliqlarni yig'ish tartibi bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirdi:

1. Soliqlarni deklaratsiya qilish tizimini asosini yaratish uchun 1950 yili soliq deklaratsiyasini «ko'k» tizimini kiritdi.

2. Soliq deklaratsiyasini yanada mustahkamlash maqsadida «ko'k» rangdagi deklaratsiyani to'ldirmaydigan soliq to'lovchilarga 1984 yili

yozuvlarni saqlash tartibi, buxgalteriya hisobi tizimi, daromad va harajatlarni ajratilgan holda topshirish tartibi o'rnatildi.

3. Buxgalteriya hisobini yuritishda yordamga muhtoj soliq to'lovchilarga qo'llanmalar berildi va «ko'k» deklaratsiya qo'llaydigan soliq to'lovchilarni assotsiatsiya bilan hamkorlik qilish tartibi o'rnatildi.

4. Soliq olinadigan daromadni katta hajmda berkitishda gumonsiragan soliq to'lovchilarni har tomonlama chuqur tekshirish.

Ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish soliq olish tizimini yanada mustahkamladi.

«Ko'k» soliq deklaratsiyasi tizimi. Soliq deklaratsiyasi tizimi soliq to'lovchilardan doimiy va aniq buxgalteriya hisobini olib borishni talab qiladi.

Buxgalteriya hisobini olib borish amaliyotini tadbir qilish uchun prof. Shalp tavsiya qilgan kompleks soliq islohoti doirasida 1950 yili «ko'k» deklaratsiya tizimi kiritildi. «Ko'k» deklaratsiya tizimida tadbirkor yoki yuridik shaxs mahalliy soliq inspeksiyasi boshlig'idan, qog'ozda chop qilingan soliq deklaratsiyasini maxsus shaklini topshirishga ruxsat oladi. Bunday soliq to'lovchilardan buxgalteriya hisobi kitoblari va yozuvlarini doimiy ravishda, ma'lum me'yorlarga javob beradigan tarzda saqlashlarini talab kiladi. Bunday deklaratsiyani to'ldirmaydigan jismoniy va huquqiy shaxslardan farqliroq «ko'k» soliq deklaratsiyasi tizimiga o'tgan soliq to'lovchi daromadlarni hisoblashda ayrim engilliklar oladilar va ularga engillik beriladigan soliq tartibi qo'llaniladi. «Ko'k» deklaratsiya tizimi Yaponiyani soliq deklaratsiyasi tizimida asosiy rolni o'ynaydi.

Hozirgi kunda «ko'k» deklaratsiya tizimi keng ko'lamda qo'llaniladi va oxirgi yillari bunday deklaratsiyani to'ldiruvchi soliq to'lovchilarni soni 4,59 mln. jismoniy shaxslar va 2,53 mln huquqiy shaxslarga etdi.

Deklaratsiya tizimini mustahkamlash va adolatli soliq solish ahamiyatini ko'tarish maqsadida 1984 yilgi soliq islohotida «Oq» soliq deklaratsiyasi to'ldiruvchilarga ham buxgalteriya hisob raqamini majburiy tartibda qo'llash tavsiya qilindi.

Tadbirkorlik faoliyatidan daromad oladigan soliq to'lovchilar va «ko'k» deklaratsiya bermaydiganlar quyidagilarni bajarishlari majbur:

1. Xo'jalik faoliyatiga taaluqli tuzilgan va olingan yozuvlar va xujjatlarni saqlash; (yozuvlarni saqlash tizimi)

2. Agar tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad 3 mln. iendan ortiq bo'lsa, xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan tartibini kiritish (buxgalteriya hisob raqamlari tizimi).

3. Oxirgi soliq deklaratsiyasiga tadbirkorlikdan olgan tushumni umumiy hajmi va kerakli harajatlarni bandlari bo'yicha xujjatlarni ilova qilish (daromad va harajatlarni bo'lish tizimi). «Ko'k» deklaratsiya topshirmaydigan xuquqiy shaxslar ham buxgalteriya kitobini yuritishlari va unda oddiy shaklda bitimlar to'g'risida yozuvlarni amalga oshirishlari zarur. Ushbu bitim va hisob-kitoblarga taaluqli tuzilgan va olingan xujjatlarni saqlash kerak. Oxirgi yillari bir milliondan ortiq jismoniy shaxslar buxgalteriya schetlarini ushbu tizimini qo'llamoqdalar.

Egri soliqlar uchun soliq deklaratsiyasi tizimi.

Egri soliqlarga nisbatan ham 1962 yili eski soliqni hisoblash tizimi o'rniga deklaratsiya tizimi kiritildi.

12.3. Soliqlarning asosiy turlari

Yaponiyani soliq tizimi AQSh va Evropa davlatlari kabi soliq turlari ko'pligi bilan ta'riflanadi. Har bir davlat solig'i qonun asosida boshqariladi.

Qonunda umumdavlat soliqlari ko'rsatiladi. Yana umumdavlat miqyosida mahalliy soliq bo'yicha qonun ularning turlarini va eng yuqori stavkalarini belgilab beradi. Ayrimlari mahalliy parlament tomonidan aniqlanadi. Mamlakatda hammasi bo'lib 25 davlat va 30 mahalliy soliqlar qo'llaniladi.

Ularni 3-ta yirik guruhlarga tasniflash mumkin:

- jismoniy va huquqiy shaxslarga solinadigan to'g'ri daromad soliqlari;
- mol-mulkka solinadigan to'g'ri soliq;
- to'g'ri va egri ist'emol soliqlari.

12.3.1. Daromad solig'i

Byudjetni asosini to'g'ri soliqlar tashkil qiladi. Ularning tarkibida boshlovchi o'rinni jismoniy va huquqiy shaxslardan olinadigan daromad solig'i egallaydi. To'g'ri soliqlar byudjet daromadini qariyb 60% dan ortig'ini tashkil qiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ikkita yirik guruhlardan iborat:

- a) daromad manbaida olinadigan daromad solig'i;
- b) soliq deklaratsiyasi asosida solinadigan daromad solig'i.

A) Daromad manbaida olinadigan daromad solig'i tizimi.

Asosiy soliq to'lovlari bo'lmish daromad solig'i va korporatsiya foydasiga solinadigan soliqlarni qoida bo'yicha, soliq to'lovchilarni o'zi hisoblab, o'zlari to'laydi (deklaratsiya tizimi orqali), ularni ayrim turlari daromad manbaida ushlab qolinadi.

Daromad manбайдan olinadigan daromad solig'i tizimida ish haqi, dividend, foiz, soliq buxgalterlarini xizmati uchun to'lov va h.k. (soliq ushlab qoluvchi agentlar) to'lovchi shaxslar ma'lum tartibda daromadni to'lash vaqtida soliq summasini hisoblaydilar va berilgan daromaddan ushlab qolingani soliqni to'laydilar.

Daromad manbaida ushlab qolinadigan foiz daromadga solinadigan soliq, alohida soliq sifatida chiqarib tashlangandan keyin, oxirgi soliq deklaratsiyasi berilganda soliq to'lovchiga ushlab qolingani summa bo'yicha engillik beriladi. Bundan tashqari ishchi va xizmatchilarga nisbatan ish haqidani ushlab qolinadigan daromad solig'i bo'yicha har yili amalga oshiriladigan soliqlarni qaytadan hisoblash tizimi qo'llaniladi.

Bu tizim chegarasida yollangani ishchini o'rniga ish beruvchi (ushlab qolish agenti) jami soliq majburiyatlarini, chiqarib tashlanadigan summani, chegirmani hisoblab chiqadi va yilni oxirida qoldiq summani to'laydi. Bu tizim soliq solishni aniq bo'lishini inobatga oladi va soliq to'lash jarayoni bilan bog'lik bo'lgani ishchi va xizmatchini ortiqcha tashvishini kamaytiradi.

Daromad manbaida daromad solig'i olish tizimi birinchi marta Yaponiyada 1899 yili davlat va korporativ obligatsiyalardan olingani foiz bo'yicha daromaddan soliq olish uchun qo'llanilgan.

Mehnatdan olinadigan daromadga nisbatan bu tizim 1940 yili qo'llanilgan. To'liq bu tizim hozirgi shaklida ikkinchi jahon urushidan keyin kiritilgan.

Soliq solish ob'ekti bu tizim chegarasida boshqa tushumlardan tashqari mehnatdan daromad va ishdan bo'shaganda beriladigan nafaqa tarzida olingani daromad hisoblanadi. Bu ob'ekt tarkibiga yana qator boshqa turdagi daromadlar kiradi. Shu jumladan, foiz daromatlari, aktsiyalar bo'yicha berilgan dividendlardan olingani daromad, mualliflarni gonorarlari, musiqalar yaratish va yozish bo'yicha olingani gonorarlar, boshqa xizmatlar uchun taqdirlash mablag'i (masalan, advokatlar, diplomli buxgalter-revizorlar va boshqa mutaxassislar xizmatlari uchun to'lovlar; sotsial sug'urta fondidan shifokorlar olgani taqdirlash mablag'lari hamda san'at xodimlari, professional beysbolistlar, futbolistlar, erkin savdo agentlari, inkassator va ofitsiantlar (barlarda) olgani to'lovlari, hamda

fondlar birjasida qaydnoma qilinib, sotilgan aktsiyalardan olingan foydalar.

Soliqni daromad manbaida ushlab qolishga vakolati bor shaxslarni soni 1997 yil 30 iyunga mehnat daromadlari bo'yicha 4,0 mln. kishi, 3,23 mln. kishini taqdirlash, gonorar va boshqa shakllarda daromad olganlar, 200 ming kishi aktsiyalar dividendi asosida daromad olganlar va 50 ming kishi foiz tariqasida daromad olganlardan tashkil topdi. Daromad manbaida daromad solig'i olish tizimi samarali xizmat qiladi. 1997 moliya yili 20882 mlrd.ien byudjetga tushgan daromadlar solig'i tushumini jamidan 16852 mlrd ien yoki 81% shu tizim orqali kelib tushdi. Bu tizimni mexanizmi mukammal ishlab chiqilgan. Mehnat daromadlaridan daromad solig'ini ushlab soliq to'lovchini daromadini hajmini va uning daromadidan shaxsiy chegirishlarni chiqarishni hisobga olgan har xil shkalalar asosida amalga oshiriladi. Doimiy mehnat daromadi va mukofotlar hamda boshqa maxsus to'lovlarga soliq solishni har xil shkalalari (darajalar) belgilangan.

Bu darajalar shunday tuzilganki, ular ish beruvchiga umumiy daromaddan soliqlarni to'g'ri ushlab qolishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari har yilgi soliqlarni qaytadan hisoblash jarayonida ish beruvchilar ishchi va xizmatchilarni shaxsiy hayotlari to'g'risida ma'lumotlar oladi. Bu esa o'z navbatida ish haqidan soliqlarni to'g'ri ushlab undaydi. Agar soliqlar to'liq to'lanmagan bo'lsa yoki ortiqcha to'langan bo'lsa, balans tiklanishi kerak va farqi ish beruvchi tomonidan yoki davlat yoki yollanma ishchiga to'lanishi kerak.

Mehnat daromadlariga har yilgi qaytadan hisob-kitob tizimi qo'llaniladi. Ulardan soliq ushlab joriy daromad manbaidan daromad solig'i olish tizimi orqali amalga oshiriladi. Maxsus holatlardan tashqari vaqtda bu tizim mehnat daromadi oluvchilardan soliq inspeksiyasiga oxirgi soliq deklaratsiyasini topshirishni talab qilmaydi. Faqat. Agar daromadni asosiy mehnat faoliyatidan tashqari boshqa manbailardan ham olsalar va ular ma'lum darajadan oshib ketsa oxirgi soliq deklaratsiyasi topshiradilar.

Shunday qilib, bu tizim ishchi va xizmatchilarni idora yozuvchilardan ozod qiladi. Hozirgi vaqtda mehnat daromadi oluvchi ko'pchilik soliqni joriy daromad manbaida ushlab tizim orqali to'laydilar.

Yaponiyada 1996 yili daromad manbaida olinadigan daromad solig'i tushumi 16185,1 mlrd.ienni tashkil qildi.

Shu jumladan mehnat daromadidan –11932,7 mlrd. ien pensiyaga hisoblanadigan nafaqadan olingan daromaddan - 227,2, foiz daromad-1588,4 mlrd. ien aktsiyalar bo'yicha beriladigan dividendlardan daromad-845,1 mlrd. ien kapitalni o'sishidan olinadigan daromaddan-175,8, mukofotlar, gonorarlar va boshqalardan-1147,4 va chet el fuqarolarini Yaponiyadagi daromadidan-268,6 mlrd.i.en.

Shunday qilib, taxminan 70% daromad manbaida olinadigan daromad solig'ini tushumi mehnat daromadiga to'g'ri keladi.

B) *Soliq deklaratsiyasi asosida solinadigan daromad solig'i.*

Byudjet asosini to'g'ri soliqlar tashkil qiladi. Ularning tarkibida asosiy o'rinni huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i egallaydi. Ushbu to'lov umumiy soliq tushumlarini 60% ini tashkil qiladi.

Jismoniy shaxslar davlat daromad solig'ini 5 stavkali progressiv shkala (bosqich) bo'yicha to'laydilar. Bundan tashqari uch stavkali prefektura daromad solig'i ham qo'llaniladi. Mahalliy daromad soliqlari ham mavjud. Bulardan tashqari har bir shaxs daromadini hajmidan qat'iy nazar bir yilga 3200 ien soliq to'laydi.

Daromad solig'ini hajmi 1 yanvardan 31 dekabrgacha davrni o'z ichiga oladigan kalendar yiliga to'g'ri keladigan shaxsiy soliq solinadigan daromadini baholash natijasida aniqlanadi. Soliq to'lovchilar, qaytadan hisoblash natijasida olinadigan soliqdan tashqari, oxirgi soliq deklaratsiyasini, soliq solinadigan yildan keyingi 16 fevral bilan 15 mart o'rtasidagi vaqtda topshirishlari kerak. 1996 yil uchun soliq deklaratsiyasini 31 mart 1997 yil holatiga 19,65 mln. ien soliq to'lovchilar topshirganlar, shulardan 8,24 mln. ien soliq deklaratsiyasi tizimi asosida daromad solig'ini to'laydilar va 8,82 mln. ien ortiqcha to'langan summalarni qaytarib berishni talab qildilar.

Soliq majburiyatiga ega shaxslar 2 guruhga bo'linadi:

- tadbirkorlik daromadi oluvchilar;
- boshqa daromadlar oluvchilar.

Birinchi guruhga savdo-sanoat tadbirkorlari, fermerlar, shifokor, advokat va boshqalar kiradi.

Ushbu kategoriya daromad oluvchilar o'z navbatida savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi va boshqa tadbirkorlik daromadi oluvchilarga bo'linadi. Birinchi ko'rinishida to'g'ri daromad solig'i juda ham yuqori hisoblanadi. Lekin shuni hisobga olish kerakki, juda ko'p soliq solinmaydigan

engilliklar bo'lib, ular oilaviy ahvolini ham hisobga oladi. Soliq to'lashdan davolanishga sarflangan mablag' ozod qilinadi. Ko'p bolali oilalarga qo'shimcha soliq engilliklari beriladi.

XX asrni to'qsoninchi yillarining birinchi yarmida Tokioda yashovchini o'rtacha yillik daromadi 7,100-7,500 mln. ienni tashkil qilgan. Yaponiyani boshqa prefekturalarda bu hajm ancha past. O'rtacha haq oladigan odamni 30%dan ortiq daromadi daromad solig'idan ozod qilinishi mumkin.

12.9.-jadval

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish

Soliq turlari	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan ob'ektlar	Soliq stavkasi (2001 yil)
Daromad solig'i	qabul qilingan jismoniy shaxs	huquqiy shaxs daromadi	25-34,5%
	3,3 mln.iendan oshmaydigan daromadidan		10%
	3,3 mln.dan 9,0 mln iengacha bo'lgan daromadidan		20%
	9,0 mln.dan 18 mln.iengacha bo'lgan daromadidan		30%
	18,0 mln.iendan ortiq daromadidan		37%
Jismoniy shaxs faoliyati uchun soliq	muttanosib qabul qilingan jismoniy shaxs	Jismoniy shaxs faoliyatidan olingan daromad	4-5%
Jismoniy shaxsdan olinadigan fuqarolik prefektura solig'i	muttanosib qabul qilingan jismoniy shaxs	Jismoniy shaxs daromadi	2-3%
Jismoniy shaxsdan olinadigan fuqarolik munitsipal solig'i	muttanosib qabul qilingan jismoniy shaxs	Jismoniy shaxs daromadi	3-10%

Kompaniyani 31 dekabr joriy yili ishlaydigan doimiy xizmatchilariga daromadni deklaratsiya qilish tartibi o'rniga har oyda ish haqidan qat'iy belgilangan foiz asosida ushlab tartibi o'rnatilib, kalendar yili tamom bo'lish vaqtida daromad solig'ini qaytadan hisob-kitob qilish qabul qilingan.

Soliq deklaratsiyasini topshirish davrida soliq organlari katta tadbirlar o'tqazadi.

Soliq inspeksiylari o'z-o'zini boshqarish organlari va manfaatdor xususiy assotsiatsiyalar bilan birgalikda soliq to'lovchilar soliq qonunchiligini to'g'ri tushunishlari maqsadida o'rgatish va to'g'ri tuzilgan soliq deklaratsiyalarini topshirishlari uchun soliq seminarlari o'tkazadilar.

Maslahat berish punktlari ham tashkil qilinib, ulardan soliq to'lovchilar hech qanday to'sqinchilik bo'lmagan holda boshqaruv ko'rsatmalari va konsultatsiyalar olishlari mumkin.

Soliq organlari soliq deklaratsiyalarini tekshirishni tashkil qiladilar. Ko'pchilik soliq to'lovchilar soliq deklaratsiyasini kelgusi yil mart oyini ma'lum kunigacha topshirib, o'zlarini majburiyatlarini bajaradilar.

Lekin, ayrim to'lovchilar deklaratsiyani topshirmaydilar, yoki e'tiborsizlik natijasida noto'g'ri tuzilgan deklaratsiyani beradilar yoki oldindan aniq bo'lgan soliq solinadigan daromadni bir qismi qo'shilmagan soxta deklaratsiyalar topshiradilar. Soliq inspeksiylari soliq deklaratsiyasini to'g'riligini tekshiradi va bu jarayonda to'lov vedomostlarini ajratib, ularni qaytadan ko'rib chiqadilar. To'lovchi topshirgan deklaratsiya daromad solig'i to'g'risidagi nizomga va shu to'lovchi to'g'risida boshqa olingan ma'lumotlarga ko'ra tahlil qilinadi.

Soliq organining xodimlari yuqoridagi hujjatlarni tuzadilar va ma'lumotnomada berilgan har bir shaxsga tegishli xabarlarni to'liq tahlil qiladilar.

Deklaratsiyalarida xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'ygan soliq to'lovchilarni tekshirish o'tqazilgandan keyin ularni xabardor qilinadi va to'g'rilangan deklaratsiyani topshirishni so'raydilar.

Soliq deklaratsiyasini topshirmagan soliq to'lovchilarga «muxlati o'tgan soliq deklaratsiyasini» topshirish iltimos qilinadi.

Agar soliq to'lovchilar iltimoslarga e'tibor bermasalar soliq inspeksiya boshlig'i, ahvolni to'g'rilashni talab qiladi va deklaratsiya topshirmaganlarga chora ko'rishni belgilaydi.

Soliq solinadigan daromadni katta hajmda yashirganligi to'g'risida gumon qilinganda bu shaxslarni hujjatli tekshirish boshlanadi (bir vaqtni o'zida daromad va iste'mol soliqlari bo'yicha amalga oshiriladi).

Agar yashirilgan daromad juda katta hajmda bo'lsa va bir necha kun davomida tekshirish imkoniyati bo'lmasa, soliq inspeksiya batafsil tekshirish uchun kerakli vaqtni ajratadi.

Tekshirish uslubi har bir aniq sharoitda farq qiladi. Biznesni turi, hajmi va buxgalteriya hisobotini ahvoriga qarab mos keladigan uslub qo'llaniladi. Tadbirkorlik faoliyati qiyinlashgan va yirik mulklarni maydalashtirilgan sari qalloblik, firibgarlikni ko'proq hiyla-nayranglari qo'llansa hozirgi zamon uslublari qo'llaniladi. Masalan, birga ish olib boruvchilarni va bank schetlarini tekshirish amalga oshiriladi.

Hujjatli tekshiruv vaqtida soliq inspektori soliq to'lovchiga uning kamchiliklarini ko'rsatib, ularni to'g'rilabgina qolmay, u tasavvur qilishi uchun tekshiruv mazmunini ham tushuntiradi.

Agar tekshirish natijasida soliq to'lovchilar orasida umumiy va tez-tez uchraydigan xatolarni topsalar soliq organlari boshqa soliq to'lovchilarga bu kamchiliklarni qaytarmaslik uchun o'zlarini o'zi tekshirishni amalga oshirishi uchun ko'rsatma beradi.

12.3.2. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy shaxslardan olinadigan daromad soliq korporatsiya foydasiga solinadigan soliq deb ham yuritiladi.

Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq huquqiy shaxslarni (ular Yaponiyada 1997 yili 2,7 mln. bo'lgan) soliq solinadigan daromadidan olinadi.

Korxonalar va tashkilotlar foydasidan qo'yidagi to'lovlarni beradi: davlat daromad solig'i foydadan 34,5% hajmda, prefektura daromad solig'i - davlat daromad solig'ini 5%i hajmda yoki foydadan 1,67% stavka hajmda va shahar (poselka, tuman) daromad solig'i - davlat daromad solig'ini 12,3% hajmda yoki foydadan 4,12% hajmda to'lashadi. Umumiy summasini aniqlasak, natijada yuridik shaxsdan byudjet daromadiga taxminan foydadan 40%ga yaqin mablag' olinadi. Bundan tashqari foyda prefektura ixtiyoriga tushadigan tadbirkorlik faoliyati uchun to'lanadigan soliq manbai ham hisoblanadi.

12.10.-jadval

Huquqiy shaxslar daromadini soliqqa tortish

Soliq turlari	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan ob'ekt	Soliq stavkasi
Huquqiy shaxsni foydasiga solinadigan soliq	Tegishli huquqiy shaxs	Huquqiy shaxs daromadi	25-34,5%
Huquqiy shaxs faoliyatiga solinadigan soliq	Tegishli huquqiy shaxs	Huquqiy shaxsni faoliyatidan olinadigan daromad	5,6-11,5%

Huquqiy shaxsdan olinadigan prefektura fuqarolik solig'i	Tegishli huquqiy shaxs	Huquqiy shaxs foydasidan olinadigan soliqlar yig'indisi	5-6%
Huquqiy shaxsdan olinadigan munitsipial fuqarolik solig'i	Tegishli huquqiy shaxs	Huquqiy shaxs foydasidan olinadigan soliqlar yig'indisi	12,3-14,7%

Ayrim huquqiy shaxslarga foydaga solinadigan soliqni imtiyozli stavkalari qo'llaniladi.

Masalan, kooperativlar, jamoat tashkilotlari, tibbiyot muassasalari 27%li soliqlar yig'indisini to'laydilar, foydaga solinadigan soliq yoki foydani bir qismi 8 mln. iendan oshib ketmasa 28% li stavka bilan soliqqa tortiladi. Bu kichik korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Soliq deklaratsiyasi asosida soliqlarni to'lashni boshqarish uchun soliq inspeksiya «sifatli tekshirish tizimi»ni qo'llaydi. Shu tizimga qarab huquqiy shaxslar ishonchlilik darajasiga qarab ayrim guruhlariga bo'linadi. Tekshirish va boshqarish har bir guruhni harakteristikasi (tavsifnomasi) ga moslashgan uslublar bilan amalga oshiriladi.

Soliq deklaratsiyasi to'g'ri tuzilgan deb topilgan huquqiy shaxslarni deklaratsiya tuzishni shunday davom etish uchun rag'barlantiriladi. Agar huquqiy shaxs ustidan doimiy nazorat qilish talab qilinsa, soliq organlari doimiy ma'lumot yig'ishni tashkil qiladi va kerak bo'lsa chuqur tekshirishni amalga oshiradi.

Agar tekshirish natijasida soliq deklaratsiyasida soliq majburiyati noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa yoki soliq deklaratsiyasi topshirilmagan bo'lsa, soliq inspeksiya boshlig'i xatolarni to'g'rilash, kechiktirilgan deklaratsiyani topshirish yoki boshqa choralar ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi. Soliq inspeksiyalari to'g'ri tuzilgan deklaratsiyalarni taqdirlash maqsadida, ularni tuzishda amaliy boshqaradi va deklaratsiyani tayyorlashga qarashadi.

Soliq deklaratsiyasi.

Korporatsiya foydasiga solinadigan soliqqa har bir hisob davriga olinadigan daromad va mulkni chiqarishdan olingan mablag' tortiladi. Huquqiy shaxslar soliq deklaratsiyasini hisobot davri (masalan, xo'jalik yili) tamom bo'lgandan keyin ikki oy davomida topshirishlari kerak.

Hozirgi vaqtda amaliyotda hamma huquqiy shaxslar ixtiyoriy ravishda soliq deklaratsiyasini topshiradilar.

Korporatsiya foydasiga solinadigan soliqni umumiy summasi ixtiyoriy ravishda soliq to'lovchi deklaratsiyada ko'rsatgan summasi va plyus, soliq inspeksiya boshlig'i tekshirish natijasida aniqlagan ko'shimcha soliqlardan tashkil topadi. Hozirgi vaqtda 95% tushumlar ixtiyoriy deklaratsiyada ko'rsatilgan soliqlardan iborat bo'ladi.

Soliq deklaratsiyasini tekshirish.

Huquqiy shaxslar taqdim qilgan soliq deklaratsiyasi ularni to'g'riligini tahlil qilish uchun soliq inspeksiya guruhiga beriladi.

Soliq deklaratsiyasini tekshirish uning mazmunini, kompaniyani shunga o'xshash hajmdagi va shu soha faoliyati deklaratsiyasini mazmuni bilan solishtirilib ko'riladi. Tahlil jarayonida oldin to'langan soliqlar ko'rsatkichlari va inspeksiya mavjud bo'lgan materiallar, axborotlar bilan, ayniqsa DSB kompyuter tizimi ma'lumotlari to'liq foydalaniladi.

Hujjatli tekshirish.

Tekshirish natijasida soliq summasi ko'paytirilib ko'rsatilgani aniqlanganda, hujjatli tekshirish amalga oshiriladi. Odatda tekshirish buxgalteriya kitoblarini, schetlar va yozuvlarni holatini o'rganishdan boshlanadi. Tadbirkorlik faoliyatini murakkablashishi munosabati bilan soliq to'lashdan bosh tortish borgan sari ustalik bilan amalga oshirilmoqda.

Zaruriyat mavjud bo'lganda soliq inspektorlari ishchi sheriklarini va bankka qo'yilgan omonatlarini tekshirishi mumkin. Hujjatli tekshirish soliq inspeksiya guruhini a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin yirik korporatsiyalarni tekshirish soliq inspeksiya maxsus inspektorlari tomonidan bajariladi. Tekshiriladigan korporatsiyada katta hajmda soliq to'lashdan bosh tortish taxmin qilinganda, maxsus inspeksiya guruhini tashkil qilinadi.

Oxirgi yillari shu maxsus ishlarni bajarish uchun alohida inspektor lavozimi kiritilgan. Kompyuter tekshiruvlarini o'tkazish uchun mutaxassis lavozimi tayinlangan. Bir vaqtda tekshirish uchun korporatsiya foydasiga solinadigan soliq va manbaida olinadigan daromad soliqlari bazasiga iste'molga solinadigan soliq ham kiritildi. Shunday qilib, bir vaqtda uchta soliq bo'yicha tekshiruv o'tqaziladi. Hujjatli tekshiruvni natijasida 1996 moliya yili 175 ming donadan 46 ming holatda atayin noto'g'ri (buzilgan) ma'lumotlar berilgan. Bu esa o'z navbatida umuman soliqni tekshirish, ayniqsa hujjatli tekshirish yanada muhimligidan xabar beradi.

12.3.3. Mol-mulkka solinadigan soliq

Alohida guruhni huquqiy va jismoniy shaxslar bir xil stavkada to'laydigan mol-mulk solig'i tashkil qiladi. Bu stavka odatda mol-mulk qiymatini 1,4% ini tashkil etadi.

Mol-mulkni qaytadan baholash 3 yilda bir marta amalga oshiriladi, soliq solinadigan hajmga hamma ko'chmas mulk, yer, qimmatli qog'ozlar, bank depoziti bo'yicha foizlar kiradi.

Soliq mulkni bir egasidan ikkinchisiga o'tish vaqtida, ya'ni mol-mulk olinganda yoki sotilganda olinadi. Bu guruhga litsenziyani ro'yhatga olishga solinadigan soliq, gerb yig'imi, merosga solinadigan soliq, irrigatsiya va yerni yaxshilashga solinadigan soliqlar kiradi, o'ziga xos, maxsus xususiyatga ega yer qiymatiga solinadigan soliq ham kiradi.

Merosga solinadigan soliq va hadyaga solinadigan soliq

Merosga solinadigan soliq, vafot etganlarning mol-mulkiga merosxo'rlik qilish yoki vasiyatnoma asosida mulk olgan shaxsga solinadi.

Mol-mulkni qiymati asos hisoblanadi.

12.11.-jadval

Mol-mulkka solinadigan soliqni aniqlash baza mexanizmi

Soliq turlari	Soliq to'lovchi	Soliq solinadigan	Soliq stavkasi
Merosga solinadigan soliq	Meros olgan shaxslar	Merosga olingan mulk qiymati	10-70%
	Bazali chiqarib tashlash: 50 mln.ien+10 mln.ien x qonuniy merosxo'rlar soniga		
Hadya tariqasida olingan mol-mulkka solinadigan soliq	Hadya olgan shaxs	Hadya tariqasida olingan mulk qiymati	10-70%
	Bazali chiqarib tashlash: 6 mln.ien ga teng		

Soliq solinadigan qiymatni hisoblashda umumiy hajmdan, vafot etgan shaxsni qarzi, mol-mulkni olgan shaxsni marhumni ko'mish marosimiga qilingan harajati chiqarib tashlanadi. Qonun asosida merosxo'rlar tomonidan olingan merosni qiymati asosiy chiqarib tashlanadigan meros mol-mulkni (50 mln.ien +10 mln ien qonun bo'yicha merosxo'rlarni soniga ko'paytiriladi) hajmidan ko'p bo'lsa, shu ortiqcha qismidan olinadi.

Hadyaga solinadigan soliq hadyaga mol-mulk olgan shaxslarga, shu mulkni qiymatidan kelib chiqqan holda solinadi. Soliq hajmi hadyaga olingan mol-mulkni qiymati 1 yanvar va o'tgan yilni 31 dekabriga, asosiy chiqarib tashlanadigan hajmdan (6 mln.ien) yuqori qismidan aniqlanadi.

Soliq deklaratsiyalarini topshirish va tekshirish.

Merosga solinadigan soliq, hadyaga solinadigan soliqlarga ham soliq deklaratsiyasi tizimi qo'llaniladi. Soliq xizmati xodimlari soliq deklaratsiyasi blankalarini va uni to'lg'azish bo'yicha tushuntirish ko'rsatmasini muayyan soliq to'lovchilarga jo'natadi.

Soliq inspeksiyasi soliq deklaratsiyasini tayyorlash, mol-mulkni baholash va soliq majburiyatini hisoblash bo'yicha o'zining xizmatini taklif qiladi. Yaponiyada yildan-yilga merosga solinadigan soliq va hadyaga solinadigan soliqni to'lovchilari ko'payib bormoqda va shu bilan bir qatorda to'lovlar summasi ham oshib bormoqda. Masalan, 1950 yil merosxo'rlar soni 40 ming kishini, soliq hajmi esa 2,8 mlrd. ienni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yili bu son 144 ming odamni va summasi 2173 mlrd. ienni tashkil qildi.

12.3.4. Yer qiymatiga solinadigan soliq

Yer bahosini tezlik bilan o'sib borish muammosini echish maqsadida Yaponiyada yer qiymatiga soliq solish tadbiri qilinadi va bu qaror 1992 yil 1 yanvardan kuchga kirdi.

Soliqni kiritishdan asosiy maqsad yerni spekulyativ qiymatini va undan olinadigan yutuqni kamaytirish, hamda chegaralangan jamiyat boyligi bo'lmish yerni soliqqa tortishda adolatli soliq og'irligini o'rnatishdan iborat edi. Soliq solishda eng murakkab savol yer uchastkasini qiymatini baholash edi. Yaponiyada 80 yillarni ikkinchi yarmida yerni bahosi keskin ravishda o'sa boshladi. Mamlakat aholisi joylashishini zichligini hisobga olganda bu masala bo'yicha hech qanday shubha yo'q edi. Bunga yana maxsus iqtisodiy sharoit ham ko'maklashdi. Shu davrda ofislar ochish uchun katta talab yuzaga keldi. Tokio, Nyu-York va London kabi dunyoni asosiy informatsion- axborot va bank markaziga aylana boshladi. Banklarga va xalqaro kompaniyalarga ofislar ochish uchun talab oshishi bilan chayqov (spekulyativ) kelishuvlar soni ko'paydi. Yaponiya hukumati tomonidan shu davrda 2000 yilgacha poytaxtni rekonstruktsiya qilish rejasi e'lon qilindi. Rejada katta hajmdagi qurilishni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Reja matbuotda e'lon qilingandan keyin davlat organlariga yutug'i bilan qaytadan sotish uchun zudlik bilan

yerni sotib olinib boshlandi. Yana bitta omil o'z xirasini qo'shdi. Boshqa ko'chmas mulkka nisbatan yerni olish va sotishda soliq olinmas edi. Buni ustiga banklar oson va engilklar bilan yer uchastkasi bo'yicha bitim tuzuvchi firmalarga kredit bera boshlandi. Shu jumladan, katta hajmda uzoq muddatli kredit ham ajrata boshlandi.

Yerni bahosi faqat oshib boradi, pasaymaydi degan fikr jamiyatda qattiq o'rnashib oldi. Buning natijasida Tokioda ba'zi yillari yerni bahosini o'sishi 5-75%ni tashkil qildi. Bu jarayon Yaponiyani boshqa yirik shaharlarida ham yuzaga keldi. Yerni bahosini oshishi shahar ichidagi migratsiyaga ham ta'sir ko'rsatdi.

Shoshilinch holatda aholi yashaydigan uylar ofislar uchun qaytadan jihozlandi.

Munitsipal organlar yerni baland bahosi sharoitida yangi yerlarni ijtimoiy maqsadlar yo'l, park qurish va shahar infrastrukturasiga kiradigan boshqa inshootlarni qurish uchun sotib ola olmadi.

Qiymatga proporsional ravishda soliqlarni oshishi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin edi.

Shuni hisobga olib, oxirgi qayta baholashga nisbatan yer solig'i 10% dan ortiqqa oshirilishi mumkin emasligi belgilanib qo'yildi.


Yer qiymatiga solinadigan soliq har yili xuquqiy va jismoniy shaxslarni mulki hisoblanmish yerlarga solinadi.

Ushbu soliqni, soliq solinadigan qiymat asosiy chiqarib tashlanadigan hajmdan yuqori bo'lsa, Yaponiyada shu yilning 1 yanvar 00 soat 00 minutida yer mulkiga ega bo'lgan huquqiy va jismoniy shaxslar to'laydilar.

12.1.-chizma

Yer qiymatiga solinadigan soliqni hisoblash usuli

har yilning 1 yanvaridagi yerni qiymati



Umumiy holda, uy-joy qurilishi uchun ajratilgan yerlar, ayrim qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik yerlari va ijtimoiy manfaatlar uchun

foydalaniladigan yerlar soliq solishdan ozod qilinadi. 1 kv. m. yerining qiymati 30 ming iendan kam baholansa, bu yerlar ham soliqdan ozod qilinadi.

Soliq solinadigan qiymat joriy yilning 1 yanvariga bo'lgan bozor qiymatining yig'indisi hisoblanadi. Shu tartibda merosga soliq solinadigan yerlarning qiymati baholanadi.

Ayrim turdagi yerlar, korxonalarni joylashtirish to'g'risidagi qonun asosida ulardan foydalanish qat'iy rasmiy chegaralangan (masalan, atrof-muhitni muhofoza qilish maqsadida uskunalar o'rnatish uchun ajratilgan yerlar). Shu tarzda «Yong'in xavfsizligi qonuni» ta'sir qiladigan xavfli moddalar ishlab chiqaradigan zavodlarni qurish uchun ajratilgan yerlar aniq qiymatlarini yarmi hajmida soliqqa tortiladi. Yuqori sifatli uy-joy qurish uchun ajratilgan yerlar qiymatini 1/5 hajmida soliqqa tortiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida uskunalar o'rnatish uchun ajratilgan yerlarni me'yordan ortiqcha qismi va foydalanilmaydigan hamma kelib-ketishiga ochiq bo'lgan davlat yerlari 2/3 qiymati hajmida soliqqa tortiladi.

Ikki xil chiqarib tashlash (chegirma) mavjud: belgilangan summani chegirib tashlash va yer maydoniga proporsional hajmda chegirib tashlash. Asosiy chegirib tashlashga shu ikkitadan eng kattasi olinadi.

1. Belgilangan summani chegirib tashlash:

a) Odatdagi ustav fondi yoki pay kapitalini hajmi 1 mlrd. iendan ortiq bo'lgan korporatsiyalar –500 mln.iен;

b) Odatdagi ustav yoki pay kapitali 100 mln.iendan yuqori va 1 mlrd. iendan kam bo'lgan korporatsiyalar-800 mln.iен.

v) Qolgan korporatsiya va jismoniy shaxslar uchun-1,5 mlrd iен.

2. Yer maydoniga proporsional hajmda chegirib tashlash ham maxsus tartibda hisoblanadi. Soliq stavkasi-0,15%. Tulanadigan soliq hajmi soliq stavkasiga soliq olinadigan yerni qiymatidan asosiy chiqarib tashlashni ajratib, qolganiga ko'paytiriladi.


Agar soliq solinadigan yerni hajmi asosiy chegirib tashlashdan ko'p bo'lsa, soliq to'lovchilar mahalliy soliq inspeksiya boshlig'iga joriy yili 1 dan 31 oktyabrgacha davr ichida soliq deklaratsiyasini topshirishi kerak. Deklaratsiyada ko'rsatilgan soliq summasini yarmi deklaratsiyani topshirish muxlati tamom bo'lgunga qadar to'lanishi kerak. Qolgan yarmi kelgusi yili 31 martgacha to'lanadi. Yaponiyada 1996 yili 4 ming ta jismoniy shaxslar 5,5 mlrd.iен va 18 ming ta korporatsiya 167,2 mlrd.ienga teng yer solig'i to'ladilar.

12.3.5. Iste'mol solig'i

Yaponiyada umumiy hajmi bo'yicha daromad solig'i va molk-mulk solig'idan keyin uchinchi o'rinni davlat byudjeti daromadida iste'mol solig'i tushumlari egallaydi.

12.1.-diagramma

Yaponiyada umumiy soliq tushumlarida iste'mol solig'ining hissasi, yillar bo'yicha diagrammasi (%)*



Diagrammadan ko'rish mumkinki, Yaponiyada iste'mol solig'ining faqat umumiy tushumi ko'payibgina qolmasdan, uning hamma soliqlar tarkibidagi salmog'i ham ortib bormoqda.

Yaponiyada iste'mol solig'i mazmunan qo'shilgan qiymat solig'iga yaqin bo'lib, katta bo'lmagan stavkalar bilan olinadi.

1988 yili soliq islohoti o'tkazilgan. Islohot natijasida 1989 yil 1 yanvardan boshlab, iste'mol solig'i olinadigan bo'ldi. Soliqni katta bo'lmagan soliq og'irligi bilan keng ko'lamdagi iste'moldan olinadigan bo'ldi. Keyingi yillari qator o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritildi va shular qatorida «iste'mol solig'i to'g'risida» qonun qabul qilindi.

Iste'mol solig'ini bir qismini mahalliy byudjetlarga ajratish o'rniga mahalliy iste'mol solig'i kiritildi. Qaytadan ko'rilgan «Iste'mol solig'i to'g'risida»gi qonun va yangidan ajratilgan mahalliy iste'mol solig'i 1997 yil 1 yanvarda kuchga kirdi. Iste'mol solig'i bilan Yaponiyada savdo-sanoat korxonalarini tomonidan aktivlarni va ularni sotish arendasi, tadbirkorlik faoliyati tartibida pullik xizmat ko'rsatish, hamda bojxona zonasidan olingan import yuklari soliqqa tortiladi. Soliqni korxonalar va import yuklarni bojxona zonasidan oluvchilar to'laydi. Soliqqa tortiladigan

* Manba: An outline of Japanese Taxes 2001-2002 edition 370p

sotishni hajmi 30 mln. iendan kam bo'lgan korxonalar soliq solinadigan baza davriga (xususiyl tadbirkorlar uchun o'tgan yildan oldingi yil va huquqiy shaxslarga - o'tgan yildan oldingi hisobot yili) soliqdan ozod qilinadi. Shu tartibda kichik korxonalar ham ozod qilinadi. Lekin, o'z hohishi bilan to'lashlari ham mumkin.

Huquqiy shaxslar tarkibida ko'rsatilgan baza davriga ega bo'lmagan korporatsiyalar (ijtimoiyl sug'urta korporatsiyalari va joriyl hisobot davrini boshiga ustav fondi va pay kapitali 10 mln. iendan ortiq bo'lmagan korporatsiyalardan tashkari keyinchilik – «yangi tashkil qilingan xuquqiy shaxslar» deb yuritiladi) shu hisobot davriga iste'mol solig'idan ozod qilmaydi. Bu tartib huquqiy shaxs bo'lib 1997 yil 1 apreldan keyin tashkil topgan kompaniyalarga qo'llaniladi.

Yerga egalik huquqini berish, yerni arendaga berish va mamlakat ichidagi moliyaviyl bitimlar soliq solishdan ozod qilinadi. Moliyaviyl bitimlar soliq solish ob'ekti bo'la olmaydi. Chunki iste'molga soliq og'irligini yo'naltirishga to'g'ri kelmaydi. Ijtimoiyl siyosatdan kelib chiqib, tibbiyot xizmati va ta'lim ham soliqdan ozod qilinadi.

Iste'mol solig'i Yaponiyani ichida iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatdan olinadi. Shunday qilib, bu soliqni eksport bitimlarga, xalqaro yuk tashish va xalqaro aloqaga dahli yo'q. Yaponiya ichida bitim tuzilsa, iste'mol solig'i solinadigan baza soliq solinadigan aktivlarni berishda olingan tovon (badal) (yoki bitimni aniq summasi)dan iborat bo'ladi. Agar bitimlar import bo'yicha tuzilsa, importning bojxona boji olinadigan umumiy summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Iste'mol solig'ini stavkasi - 4%. Bundan tashqari mahalliy iste'mol solig'ini stavkasi markaziy soliqqa nisbatan - 25% (yoki iste'mol solig'i bo'yicha hisoblanganda 1% ni) tashkil qiladi. Shunday qilib, markaziy va mahalliy soliqlar stavkasini yig'indisi 5% dan iborat. Byudjetga beriladigan iste'mol solig'ini hajmini hisoblashda, soliq solinadigan joriyl davr ichida

Ist'emol solig'ini olish sxemasi

Material-larni ishlab chiqaruvchilar		Oxirgi mahsulotni ishlab chiqaruvchilar		Ulgurji sotish		Chakana savdo		Ist'emol-chilar
Sotish hajmi-20050 iste'mol solig'i (1) 1000	Soliq	Sotish hajmi –50000 sotish hajmidan soliq (2) 2500 sotib olish hajmi-20000 sotib olishdan olingan soliq(1) 1000	Soliq	Sotish hajmi-70000 sotish hajmidan soliq (3) 3500 sotib olish hajmi 50000 sotib olishdan olingan soliq(2) 2500	Soliq	Sotish hajmi 100000 sotishdan olingan soliq (4) 5000 sotib olish hajmi-70000 sotib olishdan soliq (3) 3500	Soliq	Umumiy to'langan summa 105000 (A)+(B)+(V)+(G)
To'langan soliq (A) (1) 1000	10 00	To'langan soliq (B) (2)-(1) 1500	15 00	To'langan soliq (C) (3)-(2) 1000	10 00	To'langan soliq (D) (4)-(3) 1500	1 500	To'langan umumiy soliq summasi 5000

to'langan yoki to'lanadigan soliq solinadigan sotib olish yoki bojxona zonasidan olingan soliq solinadigan yuk bo'yicha ist'emol solig'i joriy davrga soliq stavkasi asosida hisoblangan ist'emol solig'i summasidan chiqarib tashlanadi.

Ushbu chiqarib tashlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi*

a) agar soliq solinadigan sotishni salmog'i umumiy sotish hajmida soliq solinadigan davrda 95% dan oshib ketsa, sotib olishga taaluqli to'langan ist'emol solig'ini hamma summasi chiqarilib tashlanadi.

Soliq solinadigan sotishni salmog'i	=	Soliq solinadigan sotishni soliq to'lash davridagi umumiy hajmi (soliqlarni hisobga olmagan holda)
		Soliq solinadigan davrdagi umumiy sotish hajmi (soliqlarni hisobga olmagan holda).

b) agar soliq solinadigan sotishni salmog'i 95%dan past bo'lsa, soliq chegirmasi sifatida chiqarib tashlanadigan summa yoki yakka (alohida), yoki proporsional usullarda aniqlanadi:

1) Yakka (alohida) usul:

soliq solinadigan davrda

soliq solinadigan sotib olish bo'yicha soliq

soliq solinadigan sotishga taaluqli va soliq solinmaydigan sotishlarga taaluqli qismlarga bo'linadi yoki unisi va bunisiga taaluqli bo'lishi mumkin.

Chiqarib tashlanadigan soliq hajmi		Soliq solinadigan sotib olish bo'yicha soliqning hajmi va soliq solinadigan sotishga taaluqlisi		Soliq solinadigan sotib olishga taaluqli soliq hajmini soliq solinadigan va soliq solinmaydigan sotishga nisbati	x	Umumiy sotish hajmida soliq solinadigan sotishni ulushi
------------------------------------	--	---	--	--	---	---

2) proporsional usul:

$$\text{Chiqarib tashlanadigan soliq hajmi} = \frac{\text{Soliq solinadigan sotib olishga to'g'ri keladigan soliq hajmi}}{\text{Umumiy sotish hajmida soliq solinadigan sotish hajmini ulushi}}$$

* Eslatma, soliq solinadigan sotib olish bo'yicha soliqdan chiqarib tashlashdan foydalanish uchun buxgalteriya kitobi, soliq solinadigan sotib olishni tasdiqlovchi yozuv, chytot-faktura, tilxat, kvitantsiya va boshqa bitimni amalga olganligini tasdiqlovchi hujjatlar saqlanishi kerak.

Ist'emol solig'i bo'yicha majburiyatni hisob-kitobini amalga oshirishda kichik va o'rta korxonalar soddalashtirilgan soliq solish tizimidan foydalanadilar.

Savdo-sanoat korxonalarida sotish hajmi soliq solinadigan davrga 200 mln.iendan kam bo'lsa soliq solinadigan sotish olish solig'i sifatida sotish bo'yicha ist'emol solig'ini ma'lum koeffitsientga* ko'paytirish yo'li bilan chiqarib tashlashi mumkin.

Yaponiyani ichida bitim tuzadigan korxonalar soliq solinadigan davrni oxirgi kundan keyin 2 oy mobaynida soliq deklaratsiyasi topshirishlari va soliqlarni to'lashlari kerak. (Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsalar mart oyini oxirigacha amalga oshirishlari kerak).

Soliq deklaratsiyasida o'tgan soliq solish davriga ist'emol solig'ini summasini 4 mln.iendan ortiq ko'rsatgan korxonalar oraliq soliq deklaratsiyasi berishlari kerak va har 3 oyda ko'rsatilgan soliq summasini 1/4 qismi hajmida oraliq to'lovlarini amalga oshirishlari kerak.

Import bo'yicha bitimni amalga oshiruvchi korxonalar soliq deklaratsiyasini topshirishni va soliq to'lovini soliq solinadigan yukni bojxona zonasidan olib chiqqan vaqtda bajaradilar.

Korxonalar buxgalteriya kitobini yuritishlari aktivlarni berganda batafsil yozuvlarni olib borishlari va soliq solinadigan yuklarni bojxona zonasidan olganda belgilab borishlari zarur.

Ist'emol solig'i bo'yicha boshqarish va tekshirish. Iyul 1991 yilgacha ist'emol solig'i bo'yicha siyosat asosan aholi bilan ish olib borish, maslahatlar berish va boshqarish bilan chegaralgan edi. Ko'rsatilgan vaqtdan keyin soliq tekshirishlari ham amalga oshiriladigan bo'ldi.

Soliq to'lovchilarga qulay bo'lishligi uchun ist'emol solig'i bo'yicha hisob-kitob va tekshirish daromad solig'i va korporatsiya foydasiga solinadigan soliq bilan bir vaqtda olib boriladigan bo'ldi.

Shu tartibni jamiyat ongida o'rnashib qolishi uchun choralar ko'riladi.

Samaradorli tekshirishlar birinchi navbatda yirik va qasddan soliq to'lamaydigan shaxslarga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda bunday tekshirishlar ortiqcha to'langan summalarni qaytarib berishni talab qilgan huquqiy shaxslarga ham qo'llaniladi.

* sotib olish bo'yicha shartli koeffitsient quyidagi kategoriya korxonalar bo'yicha belgilangan:

- 1) birinchi kategoriya korxonalar (ulgurji savdo)-90%
- 2) ikkinchi kategoriya korxonalar (chakana savdo) –80%
- 3) uchunchi kategoriya korxonalar (ishlab chiqarilich)-70%
- 4) to'rtinchi kategoriya korxonalar (1)-(3) va (5)dan tashqari-60%
- 5) beshinchi kategoriya korxonalar (xizmat sohasi)-50%.

Shunday qilib, to'g'ri soliq solish tartibini ta'minlash uchun hamma choralar ko'riladi. Ist'emol solig'i tizimida daromad solig'i va korporatsiya foydasiga solinadigan soliqdan farqi bor. Masalan, soddalashtirilgan soliq to'lash sxemasidan foydalanmaydigan korxonalariga buxgalteriya kitobi va schet-fakturalar saqlanib qolinmasa, sotib olish bo'yicha soliq summasini chiqarib tashlash qabul qilinmaydi.

Shu munosabat bilan, soliq hisobini to'g'ri olib borish uchun va kelajakda to'g'ri tuzilgan soliq deklaratsiyasini topshirishni ta'minlab berish uchun kerakli boshqarish ishlari olib boriladi.

1995 yili soliq majburiyati ifodalangan deklaratsiyalar soni 2364 mingni va 7166,7 mlrd.ien soliq summasini tashkil qildi. Shundan jismoniy shaxslar 703 ming va 229,3 mlrd ien va korporatsiyalar 1662 ming va 6937,4 mlrd. iendan iborat bo'ldi.

12.3.6. Aktsiz va boshqa soliqlar

Alkogol ichimliklarga solinadigan aktsiz. Alkogol ichimliklarga aktsiz solig'i solish tizimi Yaponiyada uzoq davrli tarixga ega. Alkogol ichimliklarni ishlab chiqishga litsenziya berish tizimi Meydzi (1868 yil) hukumati tashkil topgandan keyin kiritilgan edi. Ularni sotish uchun litsenziya berish 1938 yili tashkil qilingan.

Litsenziya berish tizimlari alkogol ichimliklarga solinadigan aktsizlarni tushumini barqarorlashini ta'minlab berdi. Ular, aholini sog'lig'ini saqlashda, mast holatda transportni boshqarish natijasida yo'l-transport hodisalarini kelib chiqishini kamaytirdi.

Alkogolga davlat monopoliyasi, yoki litsenziya tizimi AQShda va boshqa mamalakatlarda ham qo'llaniladi. Litsenziya alkogol ichimliklarni ishlab chiqarishga mo'ljallagan ishlab chiqaruvchi zavodlarga har bir tipi va nomi uchun beriladi. 1997 yil 31 mart kuniga bunday zavodlarni (litsenziyalangan korxonalar) soni 3289 ga etdi. Yaponiyada 2293 SAKE guruch arag'i ishlab chiqaradigan (2236 tasi litsenziyalangan) korxonalar bo'lib, ular mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan kichik va o'rta korxonalardan iborat. Ba'zi korxonalar o'zgarib turgan iqtisodiy kon'yukturaga moslasha olmadi va amaliyotda sotsial-iqtisodiy sharoitni o'zgarishi SAKEga talabni tushirib yubordi va natijada SAKE ishlab chiqaruvchilar soni kamayib ketdi. Masalan, 1955 yili SAKE ishlab chiqaradigan korxonalar soni 4021-ta bo'lsa 1996 yili 2306 ni tashkil qildi. Ko'rsatilgan sababga asosan huqumat «SAKE ishlab chiqarish va u bilan bog'liq tarmoqlarni barqarorlashtirish maqsadida maxsus tadbirlar» qonunini qabul qildi va uni amalga oshirdi. Bu tadbirlar SAKE ishlab chiqarish fondlariga kredit

garantiyalari tizimini qo'llash, alkogol ichimliklar ishlab chiqarish uskunalari zamonaviylashtirish fondlarini tashkil qilishdan iborat.

Pivo va viski ishlab chiqarish korxonalarini soni kollegi va ulardan yirik ishlab chiqarish quvvati mavjudligi uchun bu tarmoqda ishlab chiqarish va ular o'sib bormoqda nisbatan barqaror. Masalan, 1950 yili pivo ishlab chiqarish uchun 13 korxonalar va 1966 yili-143 korxonalar litsenziyaga ega bo'lgan. Viski ishlab chiqaradigan korxonalar ham shunday holatda edi. Agar 1965 yili ular 18-ta bo'lsa 1996 yili 23 ni tashkil qildi.

«Alkogolli ichimliklarga solinadigan aktsiz to'g'risida»gi qonun qayta ko'rilganda (1994 yil), pivo ishlab chiqarishni eng pastki ishlab chiqarish hajmi belgilandi. Uni 2000 mingdan 60 ming litrga tushurish ularni mayda ishlab chiqaruvchilarni ko'payishiga olib keldi («Mahalliy pivo»). Bunday pivoni ishlab chiqarish bo'yicha 31 oktyabr 1997 yili 169 litsenziya berildi.

Alkogolni sotish uchun litsenziya har bir savdo korxonasiga kerak. 1966 yil 31 martdagi holatda 184000 litsenziyalangan savdo birliklari (tochka) bo'lgan. Iste'molchilarni manfaatini ko'zlab 1989 yildan boshlab spirt ichimliklari bilan savdo qilishga litsenziya berishni chegaralash qisqartirilib borildi.

Univermaglarga litsenziya berish faol boshlanadi, aholi sonini me'yori qo'llanildi va litsenziya berishni lotareya tizimi amalga oshirildi va h.k. 1994 yil iyul oyida tartibga solish bo'yicha hukumat qarori qabul qilindi. Shundan keyin, litsenziya olishi bilan hohlagan import alkogol ichimliklari bilan univermaglarda savdo qilishni erkinlashtirildi, aholi yashaydigan va ma'muriy hududlarda litsenziya kvotasi kengaytirildi, oziq-ovqat magazinlariga mazasi uchun qo'shiladigan shirin SAKE «Mirin»ni chakana savdoda sotish uchun litsenziya berildi.

1996 yili may oyida alkogol mahsulotlar bo'yicha Markaziy komissiyada spirtli ichimliklar bilan savdo qilishni litsenziyalash tizimini tamoyillarini muhokoma qilish boshlandi. 1997 yil 13 iyunda komissiya o'zining ma'ruzasini tasdiqladi. Hujjatda spirtli ichimliklar bilan savdoni litsenziyalashni kelajakda ham saqlab qolishni ta'kidlandi (kadrlar masalasi qo'shilgan holda). Shu bilan bir qatorda, soddalashtirish va takomillashtirish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilindi: iste'molchilarga qulaylikni yanada ko'tarish uchun masofaviy asos bekor qilindi, alkogol ichimliklarni aylanish doirasini takomillashtirishda aholi sonini hisobga olish, maxsus harakterga ega bo'lgan har xil tadbirlarni qaytadan ko'rib chiqish, bekor qilish. Masalan, maxsus litsenziyalarni,

yirik savdo birliklariga import alkogol ichimliklarni yarmakasini o'tqazish uchun vaqtincha litsenziya berish va h.k.

Kelajakda shu ma'ruza asosida qator choralar ko'riladigan bo'ldi.

Yaponiyada ishlab chiqarilgan alkogol ichimliklar bo'yicha aktsizlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadi va korxonalar ishlab chiqaruvchi alkogol mahsulotni ortib jo'natgan onda aktsiz solig'i olinadi. Import alkogol ichimliklar bo'yicha aktsiz, bojxona zonasidan alkogol mahsulotlarni olib chiqib ketuvchilar tomonidan yukni ortib chiqib ketish vaqtida to'lanadi.

Aktsiz solinadigan baza alkogol mahsulotini hajmi hisoblanadi. Alkogol ichimliklar 10 tipga va 11 turga bo'linadi va soliq stavkasi har bir tipga alohida belgilanadi. Ayrim turdagi alkogol ichimliklardan tashqari (pivo, vino), soliq stavkasi ichimlikdagi alkogolni foiziga qarab belgilanadi. Ishlab chiqaruvchilar har bir zavoddan ortib jo'natilgan ichimliklar partiyasi bo'yicha aktsiz deklaratsiyasini kelgusi oyni oxirigacha topshirishlari kerak va mahsulot jo'natilgan oyni keyingisini oxirigacha aktsiz solig'ini to'lashlari kerak. Alkogol mahsulotlarni bojxona zonasidan olib ketuvchi shaxslar, oldidan deklaratsiyani topshirishlari kerak va bojxona zonasidan mahsulotni olib ketgungacha qadar aktsiz to'lovini topshirishlari zarur.

Ishlab chiqaruvchini iltimosiga ko'ra, aktsiz solig'ini to'lash 1 oyga qoldirilishi mumkin.

Soliqni muxlatida to'lalmalik, sotishdan olinadigan tushumni ushlab qolinishi sababi bilan bog'liq bo'lsa ishlab chiqaruvchi zalog (...)ni berishi zarur. Bojxona zonasidan alkogol mahsulotlarni olib ketuvchi shaxslar ham zalogni ... bergandan keyin bojxona boshlig'i aktsizni to'lash muxlatini surib berishini iltimos qiladilar. 1996 yili umumiy tushgan aktsiz summasini 75,5% pivoga, 7,9%-SAKE va 7,8% viskiga va qolgani boshqa ichimliklarga to'g'ri keldi. Agar aktsizlarni tushumi SAKE bo'yicha 1990 yili 41,3% tashkil qilgan bo'lsa, uning salmog'i keyinga yillari tushib ketganligi aniq ko'rinib turibdi. Uning teskarisi, pivodan tushgan aktsizlar 1950 yili 27,5% tashkil qilib, 1996 yili uning salmog'i deyarli 2,5 marta oshdi.

Soliq organlari alkogol ichimliklarni ishlab chiqaruvchilarni tekshirib turadi. Tekshirish qonun bo'yicha belgilangan xom-ashyo ishlatiladimi, ishlab chiqarish uslublari talab darajasidami kabi savollarga javobni tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchilar korxonadan ortib jo'natilgan har bir partiya alkogol mahsulotlar bo'yicha aktsiz deklaratsiyasini to'g'ri topshirilganligini ham

tekshiriladi. Agar tekshirish natijasida aktsiz summasini noto'g'riligi, yoki deklaratsiyasi topshirilmagan bo'lsa soliq inspeksiyasini boshlig'i, ularni to'g'rilashga, chora ko'radi yoki xususiy ajrim belgilaydi. Amaliyotda bunday xodisalar juda kam uchraydi. Shuning uchun alkogol ichimliklar bo'yicha aktsiz solig'ini olishda soliq intizomi boshqa soliqlarga nisbatan ancha yuqori.

Alkogolli ichimliklar sotuvchi korxonalarni tekshirish, qo'shimcha ravishda va sotilayotgan ichimliklarni laboratoriyada tahlil qilish maqsadida qo'llaniladi.

Davlat alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarishni boshqaradi. Bu soha bo'yicha qator qarorlar va me'yoriy xujjatlar qabul qilingan. Ular quyidagilardan iborat: «Alkogolli ichimliklarni sotish muammolarini echishni asosiy yo'nalishlari», «spirtli ichimliklar ishlab chiqaruvchi tarmoqni modernizatsiya qilish». Bu qaror ichimliklarni ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta korxonalarni modernizatsiya va ratsionalizatsiya qilish uchun qaratilgan edi.

Alkogol mahsulotlari idishlarini ikkinchi marta qaytadan ishlashga yordamlashish tadbirlari o'tkazilgan edi. Alkogolli ichimliklarni voyaga etmaganlar ist'emol qilishini oldini olish me'yoriy xujjalari qabul qilingan. Bundan tashqari alkogol mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va ist'emol qilishni boshqarish va ular bo'yicha soliqlarni to'lash kabi xujjatlar ham qabul qilingan. Yaponiyada ayrim egri soliquyidagilarni o'z torkibiga oladi: chekish mahsulotlari bo'yicha aktsizlar, benzina aktsiz, mahalliy yo'l solig'i, avia yoqilg'iga aktsiz, neftdan olingan gazga aktsiz, neftga aktsiz, birjaga solinadigan soliq, gerb yig'imi, transport vositalarini tonnajiga solinadigan soliq va energiya resurslarini o'zlashtirishga yordam berish solig'i.

Cekish mahsulotlariga solinadigan aktsiz. Bu aktsiz chekish mahsulotlarini ishlab chiqarishga solinadi. Aktsizni chekish mahsulotlarini tabak fabrikasidan yoki bojxona zonasidan olib chiqib ketishda olinadi. Soliqni to'lovchilar chekish mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va bojxona zonasidan ushbu mahsulotlarni olib ketuvchi shaxslar hisoblanadi. Soliq stavkasi umumiy qoida bo'yicha 1000 sigaret uchun 3126 ien hisoblanadi.

Benzina solinadigan aktsiz va mahalliy yo'l solig'i. Benzin bo'yicha aktsiz yig'imi va mahalliy yo'l solig'i olinadi. Bu ikki soliq bitta ob'ektga qarashli bo'lib, bir xil soliq bazaga ega bo'lganliklari uchun deklaratsiya olishda, soliq to'lashda yagona soliq sifatida qaraladi. Shunday qilib, benzin bo'yicha olingan aktsiz umumdavlat moliyaviy resursi bo'lishiga

qaramay, yo'llarni qurish, rekonstruktsiya qilish qonuniga binoan to'liq butun mamlakat bo'yicha yo'llarni maxsus moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bundan tashqari ko'rsatilgan va boshqa qonunlarga binoan, olingan tushumlarni 1/4 qismi mahalliy byudjetlar uchun qaytadan taqsimlangan mablag' sifatida qurilish va rekonstruktsiya qilish maxsus schetiga moliyaviy manbai hisobida o'tkaziladi.

Mahalliy yo'l soliqlari tushumi to'liq prefektura, shahar, maxsus tuman, poselka va qishloqlarga yo'llarni saqlash uchun maxsus moliyalashtirish manbai sifatida to'liq qaytadan taqsimlanadi. Soliq stavkasi har bir kilometr yo'l uchun 53800 ienga teng (48600 ien benzina solinadigan aktsiz va 5200 ien mahalliy yo'l solig'i). Okinava prefekturasida bu stavkani umumiy yig'indisi 46800 ieini tashkil qiladi. Benzina solinadigan aktsiz va mahalliy yo'l solig'i benzinni ishlab chiqaruvchilar va benzinni bojxona zonasidan oluvchilar tomonidan to'lanadi. Asosan bu to'lov avtomobilga ishlatiladigan benzindan olinadi. Xomashyo sifatida nefteximiya mahsulotlari ishlab chiqarish uchun olinadigan benzinlar aktsizdan ozod qilinadi. Benzina solinadigan aktsiz va mahalliy yo'l solig'ini kelib tushishini ta'minlash uchun DSBsi neft birlashmasi (ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi), nefteximiya assotsiatsiyasi, tashqi savdo va sanoat vazirligining tabiiy resurslar va energiya Boshqarmasi bilan ma'lumot almashadi.

Agar 1950 moliya yili aktsiz tushumi 782 mln ienni tashkil qilgan bo'lsa, 1980 yili-1825670 mln.ien va 1996 yili-2808280 mln.ienga teng bo'ldi.

Aviatsiya yoqilg'isiga solinadigan aktsiz. Aktsiz aviatsiya yoqilg'isiga solinadi va uni to'lovchilar qoida bo'yicha, samolyotlarni egalari hisoblanadi. Aktsiz stavkasi 26000 ien bir kilometr havo yo'lga belgilangan.

Okinava havo yo'llaridan o'tadigan samolyotlar uchun 15600 ien belgilangan. Aviatsiya yoqilg'isidan tushadigan aktsizlar markaziy va mahalliy aeroportlarni qurish va xizmat qilishni moliyalashtirishga sarflanadi.

Neft gaziga solinadigan aktsiz. Benzin kabi, umumdavlat aktsizi avtomobil yoqilg'isi bo'lmish neft gazlariga ham solinadi. Avtomobillarni yoqilg'i idishlarini to'ldirish uchun berilayotgan neft gazi soliqqa tortiladi. Uni avtomobilni idishlarini kim to'ldirsa, o'sha to'laydi. Soliq stavkasi bir kilogramm yoqilg'i uchun 17,50 ienni tashkil qiladi.

Tushayotgan ushbu aktsizni yarmi yo'llarni qurish va rekonstruktsiya qilishni umumdavlat moliya manbai hisoblanadi. Qolgan yarmi

yuqoridagidek moliya manbai sifatida prefekturalar va alohida ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar o'rtasida taqsimlanadi.

Neftga solinadigan aktsiz. Neftga solinadigan aktsiz xom neft, import tariqasida olib kelinadigan neft mahsulotlari, gazga o'xshash ko'mir vodorodlariga qo'llaniladi. Xom neftga bo'lgan aktsizni stavkasi bir kilometr ga 2040 ienni va tabiiy gazga - bir tonnaga 720 ienni, import yo'li bilan keltiriladigan suyultirilgan neft gazini (LPG) bir tonnasi uchun 670 ien belgilangan. Neftdan olinadigan aktsiz tushumi neft va unga tenglashtirilgan alternativ energiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha davlat chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Birjaga solinadigan soliq. Birjaga solinadigan soliqqa va moliyaviy f'yucherslarda amalga oshiriladigan hamma f'yuchers bitimlari (shu jumladan indeksli f'yuchers bitimlari) va opsiyon bitimlar tortiladi. Uning to'lovchilari birjada qatnashib, bitimlar tuzuvchilar hisoblanadi.

Birja soliqlarni yig'ishda maxsus vakil bo'lib, uni qatnashuvchilardan yig'ib, soliq organlariga to'lashi kerak. Soliq solinadigan baza va soliq stavkasi f'yuchers bitimlari bo'yicha, bitimni kontrakt summasidan 0,001% tashkil qiladi. Opsiyon bitimlardan -0,01% opsiyon bahosidan iborat bo'ladi.

Gerb yig'imi. Gerb yig'imi ma'lum turdagi xujjatlarga, masalan, kontraktlar, veksellar va aktsiya guvohnomalariga qo'llaniladi. Qoida bo'yicha gerb yig'imi, uning hajmiga teng daromad qiymatini ifodalovchi markalarni eslatilgan xujjatlarga yopishtirish yo'li bilan belgilanadi. Lekin, ayrim hollarda, masalan, doimiy ravishda juda ko'p soliq to'lanadigan xujjatlar o'tkazilsa, soliq to'lovchilar o'zlariga qulay bo'lishi uchun, soliqni deklaratsiya asosida yoki naqd pul to'lash uslubini tanlashlari mumkin. Gerb yig'imini stavkasi bitta xujjat yoki kitob uchun 200dan 600000 iengacha bo'lishi mumkin.

Daromad markalari mulk huquqini ro'yhatga olish va litsenziya berish uchun ham qo'llaniladi. Mulk huquqini belgilash yoki uni berishni ro'yhatga olishni va davlat imtihonlarini topshirishi uchun to'lovni berishda daromad markalari yopishtiriladi.

Transport vositalarini tonnajiga solinadigan soliq. Transport vositalarini tonnajiga solinadigan soliq avtomobillarni texnik ko'rikdan o'tkazishda qo'llaniladi. Soliqni texnik ko'rikni sertifikatini oluvchi shaxs, yoki mikrolitrajlik avtomobillarni ro'yhatga olish nomerini oluvchilar to'laydi. Soliq stavkasi avtomobillarni turi va hajmiga qarab belgilanadi. Bu soliqni 1/4 qismi mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlariga mahalliy yo'llarni qurish va rekonstruktsiya qilish uchun beriladi.

Energiya manbailarini o'zlashtirishga hamkorlik qilish solig'i. Energiya manbailarini o'zlashtirishga hamkorlik qilish solig'i umumiy elektroenergiya sotuvchi korxonalar sotadigan elektroenergiyaga solinadi. Soliqni hukumat AES, TES va GES larni qurishga ko'maklashish, elektroenergiya ishlab chiqarish uchun neftga alternativ manbailar topishni rag'barlantirish uchun ishlatiladi. Soliq stavkasi - 1000 kvt/soat sotilgan elektroenergiya uchun 445 ien belgilangan.

Egri soliqlarni tekshirish. Bosh soliq boshqarmasi doimiy ravishda soliq tizimini ma'muriy boshqarishni samaradorligini va egri soliqlarni tekshirishni natijasini nazorat qilish ishlarini olib boradi. Yirik korxonalarni tekshirishni hududiy soliq boshqarmalari va kichik korxonalarni soliq inspeksiylari olib boradi. Bosh soliq boshqarmasi soliq to'lovchilar bilan tanishtirish seminarlari va soliq to'g'risidagi ma'lumotlarni targ'ibot qilish bo'yicha ham ish olib boradi. Soliq boshqarmasi qonunbuzarchilik ustidan ham keng miqyosda nazorat yuritadi. Birinchi navbatda tekshirish tizimi ishga tushiriladi. Yaponiyada soliq deklaratsiyasi tizimi qo'llanilib, uning chegarasida soliq to'lovchi o'zining daromadini mustaqil va to'g'ri hisoblab, soliqlarni to'lab borishi kerak. Egri soliqlar bo'yicha tartib buzganligi ustidan tekshirish o'tkazish tizimi. Egri soliqlar bo'yicha tartibni buzganligi ustidan tekshirish o'tqazish tizimi, to'g'ri soliqlar bo'yicha buzilgan tartibni tekshirish tizimiga nisbatan uzoq tarixga ega. 1883 yili soliq tizimi xodimlari birinchi marta alkogol ichimliklar ishlab chiqarish tamaki mahsulotlari bo'yicha aktsizlar va ikkita boshqa soliqlar bo'yicha to'lovchilar soliq to'lashdan bosh tortganlari sababli maxsus tekshirish huquqini oldilar. Tez orada boshqa egri soliqlarni to'lashdan bosh tortgan to'lovchilarga ham ushbu tartibni qo'llash odat to'siga aylandi.

1890 yili egri soliqlarni to'lashdan bosh tortgan shaxslarga ko'riladigan choralar to'g'risida qonun chiqarildi. Bu qonunda hamma egri soliqlarni to'lashdan bosh tortgan shaxslarga chora ko'rishni maxsus tartibi o'rnatildi.

Bu qonunga qator o'zgartirilishlar kiritilgandan keyin, uni 1949 yili qaytadan tuzib, to'g'ri soliqlarni to'lashdan bosh tortganlar ham qo'shildi. Qonunga yangi nom berilib, uni «Soliq tartibini buzganlik ustidan davlat nazorati» qonuni deb yuritiladigan bo'ldi. Ushbu qonun hozirgi kungacha kuchga ega. 1890 yili «Egri soliqlarni to'lashdan bosh tortgan shaxslarga ko'riladigan choralar» qonuni kiritilgandan keyin egri soliqlar bo'yicha ma'muriy ishlar ikkita tizimga asoslandi: tartibbuzarlikni oldini olish uchun tekshiruv o'tkazish va soliq solishdan bosh tortganligi ustidan

nazorat qilish uchun tekshirish. Egri soliq solishdan bosh tortish ko'p miqdorda bo'lganligi uchun, qonun qabul qilingandan keyin oldindan xabar berish tizimi o'rnatildi.

Oldindan xabar berishni mazmuni shundan iboratki tekshirish natijasida hududiy soliq boshqarmasi yoki soliq inspeksiyasini boshlig'ida shaxsni soliq to'lashdan bosh tortganligi to'g'risida jiddiy shubha tug'lsa, u tartibbuzarga xabar beradi va xabarda jarimani hajmiga yoki mayda ustama (penya)ga teng pulni to'lashga yoki hibsga olingan mulk hajmiga teng moddiy ajratmani to'lash majburiyligini ko'rsatadi.

Soliq to'lashdan bosh tortgan shaxs, ixtiyoriy ravishda bu xabarnomaga bo'ysunishi yoki bo'ysunmasligi mumkin. Agar shaxs jarimani to'lamaslikka qaror qilsa, unga qarshi jinoiy ish ochiladi va uni jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Agar, ashaddiy tartibbuzarlik aniqlansa, oldindan xabar bermasdan jinoiy ish qo'llanadi.

Ist'emol solig'i bo'yicha ham oldindan xabar qilish tizimi qo'llanmaydi. Bundan import bo'yicha bitimlar mustasno. Hozirgi kunda egri soliqni to'lashdan bosh tortuvchilar ustidan nazorat qilish shunday holatdagi litsenziya qo'llash va qattiq tekshirishlar natijasida katta hajmdagi yoki ashaddiy bosh tortishlar juda kam uchraydi.

Ilgari alkogolli ichimliklarni uyda ist'emol qilish yoki sotishga yasharinchi ishlab chiqarish, tayyorlash holatlari uchrab turar edi. Hozirgi vaqtda soliq organlari tomonidan nazorat qilish va boshqarish ishlari olib borilganligi sababli alkogol ichimliklarni yashirinchi ishlab chiqarish yoki alkogol kontrabandasi amaliyotda deyarli yo'q qilingan. Davlat soliq boshqarmasi benzina solinadigan aktsiz solig'i va boshqa egri soliqlarni katta hajmda to'lashdan bosh tortuvchilarga nisbatan qattiq choralar ko'radi. Masalan, 1950 yili chora ko'rilgan buzishlar 74341ni tashkil qilgan bo'lsa, 1996 yili 8 ni tashkil qildi. Shu jumladan xabar berishlar 65112 va 6, jinoiy ish qo'zg'atilganlar soni 7314 va 1, ishni to'xtatilgani 1673 va 1 ga to'g'ri keldi. Xabar berish natijasida olingan jarimalar 606 mln va 3 mln. iendan iborat bo'ldi.

Shunday qilib, egri soliqlarni to'lashdagi tartib buzarliklar, soliq organlarini nazorat va tekshirish ishlari kuchayishi natijasida katta yutuqlarga olib kelmoqda, nazorat va taftish ishlarini samaradorligi oshib bormoqda.

12.4. Soliq tizimini boshqarish

Bosh soliq boshqarmasi (BSB) ikkinchi jahon urushidan keyin soliq sohasidagi betartiblik sharoitida yuzaga kelgan. Moliya Vazirligining soliq departamentini soliq yig'ish funksiyasini ajratib berish asosida yuzaga keldi.

BSB hamma davlat soliqlarini hisoblash va yig'ishni amalga oshiradi. Bundan faqat bojxona boji, tonnaj yig'imi va maxsus tonnaj yig'imi mustasno.

Moliya Vazirligining soliq departamenti soliq tizimini o'rganish, rejalashtirish va ishlab chiqish uchun javob beradi. Yuqoridagi kabi ishlarni bojxona boji, tonnaj yig'imi va maxsus tonnaj yig'imi bo'yicha, hamda ularni hisoblash va yig'ish bo'yicha Moliya Vazirligining bojxona departamenti va unga qarashli bojxona bo'limlari olib boradi.

Hozirgi kundagi Bosh soliq boshqarmasini tarkibi uchta shaxobchadan iborat: Bosh soliq boshqarmasi, regional (hududiy) soliq boshqarmalari va soliq inspeksiya xizmatlari.

Bosh soliq boshqarmasi, bosh boshqarmadan va 11 ta hududiy boshqarmalardan iborat (Tokio, Kanto-Sin'etsu, Osaka, Sapporo, Seiday, Nagoya, Kanadzava, Xirosima, Takamatsu, Fukuoka va Kumamoto), Okinava hududiy soliq inspeksiya xizmati va mamlakat bo'yicha 524 ta soliq inspeksiya xizmatlarini o'z ichiga oladi. Bosh boshqarma 4 ta bo'limlardan iborat: boshqarma boshlig'ini sekretariati, soliq solish bo'limi, tushumlarni yig'ish va nazorat qilish bo'limi va tekshirish va tergov qilish bo'limlari. Bosh boshqarma siyosatni umumiy yo'nalishini belgilaydi va davlat soliq solish rejasini bajaradi. Shu bilan bir qatorda mamlakat bo'yicha yagona soliq qonunchiligini qo'llashni muvofiqlashtirish uchun hududiy soliq boshqarmalari va soliq inspeksiya xizmatlariga ko'rsatma va yo'llanmalar beradi.

Bosh boshqarma boshqa vazirliklar, mahkamalar, qiziqqan tashkilotlar va xorijiy soliq organlari bilan aloqalarni muvofiqlashtiradi.

Har bir 11 ta hududiy soliq boshqarmalari bosh boshqarma kabi tashkilot tarkiblariga ega. Ular, o'zlariga bo'yinsinuvchi soliq inspeksiya xizmatlariga bosh boshqarma ko'rsatmasi asosida buyruqlar beradi. Hududiy soliq boshqarmalari ham to'g'ridan-to'g'ri doimiy tekshirishlarda, qonunbuzarlikni aniqlash va soliqlarni yig'ishda qatnashadi. Masalan, shu boshqarmada tekshirish va qonunbuzarlikni aniqlash bo'limi korporatsiya foydasiga solinadigan soliqni va ist'emol solig'ini yirik kompaniyalarda tekshiradi va soliq to'lashdan bosh tortuvchilarni aniqlab, chora ko'radi. Bundan tashkari shu boshqarmani soliq inspeksiya xizmatlarini inspektorlari egri soliqlarni, masalan, alkogol ichimliklar va benzindan olinadigan aktsizlar bo'yicha yirik

kompaniyalarni tekshiradi. Shu boshqarmani nazorat va tushumlarni yig'ish bo'limi muxlati o'tgan soliqlarni va yirik boqimandalarni undirish bilan shug'ullanadi.

Okinavani hududiy soliq inspeksiya 1972 yil 15 mayda tashkil qilingan. Bu inspeksiya boshqa hududiy soliq boshqarmalarni funktsiyalarini bajaradi. Lekin ulardan farqli o'laroq kamroq ish bajaradi va o'zining tarkibida bo'limlarga ega emas.

Soliq inspeksiya to'g'ridan-to'g'ri ichki soliqlarni yig'ish va soliq to'lovchilar bilan yaqindan aloqani mustahkamlab boradi.

Har bir soliq inspeksiya o'ziga qarashli hududlar bo'yicha hamma ichki soliqlarni baholash (aniqlash) va yig'ish huquqiga ega. Bu inspektorlarni tashkil qilish, ularning ishni hajmiga bog'liq. Qoida bo'yicha, inspeksiya boshlig'i qo'l ostida ular bitta bo'limdan va 3 ta guruhdan iborat: muvofiqlashtirish bo'limi, tushumlar ustidan nazorat va yig'ish guruhi, inspeksiya guruhi (jismoniy shaxslar) va inspeksiya guruhi (huquqiy shaxslar):

- muvofiqlashtirish bo'limi kadrlar masalasiga, buxgalteriya hisobi, soliq inspeksiya idorasi umumiy masalalarga javob beradi;

- nazorat va tushumlarni yig'ish guruhi soliq majburiyatlari ustidan nazorat qilish, soliq boqimandalarini to'liqroq yig'ish uchun javobgar hisoblanadi;

- jismoniy shaxslar bo'yicha inspektorlik guruhi daromad solig'i va alohida tadbirkorlardan olinadigan ist'emol solig'i bo'yicha ish olib boradi va ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanadi;

- mol-mulk solig'i bo'yicha inspektorlik guruhi meros va hadya soliqlarini yig'ishga javob beradi;

- yuridik shaxslar bo'yicha inspektorlik guruhi korporatsiya foydasiga solinadigan soliq, korporatsiya olinadigan ist'emol solig'i, daromad manboida olinadigan daromad solig'i va egri soliqlarni yig'ish bo'yicha javobgar hisoblanadi. Eng kichik soliq inspeksiya idorasida faqat bitta muvofiqlashtirish bo'limi va bitta inspektorlik guruhni tashkil qilinadi.

Har bir guruh faoliyati ustidan nazoratni katta soliq inspektori yoki soliqlarni yig'ish bo'yicha katta inspektor yurg'izadi. Har bir guruh tarkibi 7-10 odam iborat.

Yirik soliq inspeksiya idorasida aholi bilan ishlash bo'yicha maxsus (alohida) inspektor bo'lib, ichki soliqlar chegarasida ish olib boradi, hamda alkogol mahsulotlari bo'yicha katta soliq inspektori tayinlanib, u alkogol ichimliklar bo'yicha aktsizlarni yig'ishga javob beradi va ishlab chiqaruvchilar ustidan nazorat yuritadi. Yirik inspeksiya idorasida yana

inspeksiya boshlig'ini muovini bo'lib, u boshliqqa yordam beradi, maxsus inspektorlik lavozimi ham belgilanib, u yirik soliq to'lovchilarni tekshirish bo'yicha javob beradi. Yana soliqlarni yig'ish bo'yicha maxsus inspektor bo'lib, u yirik boqimandalarni yig'ish uchun javobgar hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni tez darajada rivojlanishi bilan yuridik shaxslarni soni va aholi ayniqsa shaharlarda ko'payib bordi. Ushbu sharoitda BSBni ma'muriy xizmatini sifat darajasi tushib ketmasligi uchun oxirgi 10 yil ichida, shaharlardagi yirik soliq inspeksiyalarini bo'lish yo'li bilan 11 ta yangi soliq inspeksiyasi ochildi. BSB tarkibiga Davlat vino tayyorlash ilmiy tekshirish instituti kirib, ular alkogol ichimliklarni ishlab chiqarishni tahlil qilib, ilmiy tekshirishlar o'tkazadi va Davlat soliq kolleji ham kiritilgan bo'lib, ular soliq tizimi xodimlarini o'qitish dasturlari bilan shug'ullanadi.

Davlat soliq adliyasi soliq solish bo'yicha echilmagan holatlar bo'yicha soliq to'lovchilarni arizalarini qaytadan ko'rib chiqadi. Davlat soliq kolleji va Davlat soliq adliyasi hududiy soliq boshqarmasi joylashgan yirik shaharlarda va Okinavadagi hududiy soliq inspeksiyalarda o'zlarining bo'limlarini ochgan. Bosh soliq boshqarmasining shtat xodimlarini tarkibi ham mamalakatdagi iqtisodiy sharoitga qarab o'zgargan. Ikkinchi jahon urushidan keyin yuqori darajadagi giperinflyatsiya va aholini yangi soliq tizimi bilan tanish emasligi natijasida soliq ma'muriyatida tartibsizlik, tushunmaslikka olib keldi va uni inqiroz chegarasiga olib bordi. Uning xodimlarini soni deyarli 62 ming kishiga etdi. Iqtisodiyotni tiklash pirovardiga etkazilgandan keyin 1954 yili ularning soni 50300 kishiga tushirildi.

1972 yildan 1986 yilgacha xodimlarining soni 52 ming atrofida tebranib turdi. Bu davlat ma'muriyati va moliya sohasida oddiy bo'lmagan holatni ifodalay edi. Lekin, 1989 yili ist'emol solig'ini va 1991 yili er qiymatiga solinadigan soliq kiritilgandan keyin BSB tarkibi 1992 yili 56 mingdan ortib ketdi va 1997 yili 57202 kishini tashkil qildi. BSB tarkibi quyidagi tartibda taqsimlangan: 55736 kishi (97,4%)-hududiy soliq boshqarmalari va inspeksiyalarida, 606 kishi (1,1%)- bosh boshqarmada, 37 odam (0,14%) –davlat vino tayyorlash institutida, 368 kishi (0,6%) – davlat soliq kollejida va 456 odam (0,8%)- davlat soliq adliyasida ishlaydi.

Majburiyatlari xususiyati bo'yicha 68% xodimlar daromad solig'i, korporatsiya foydasiga solinadigan soliq va ist'emol solig'ini baholash bilan band, 14%- tushumlar ustidan nazorat va yig'imlar ishida va qolgan 18%-umumiy ma'muriy ishlarda xizmat qiladi.

Shunday qilib, Yaponiyada soliqlarni boshqarish katta soliq xodimlari armiyasi tomonidan amalga oshiriladi va ularning har biriga davlat xazinasiga yo'naltirilgan 0,9 mlrd.iendan ko'proq soliq va gerb yig'implari to'g'ri keladi. Oxirgi o'n yillarda soliq va yig'implarni yo'naltirish harajatlarini kamaytirish evaziga ishini samaradorligini oshirdi.

Asosiy tayanch iboralar:

- Depersonifikatsiya
- Yaponiya soliq tizimini xususiyatlari
- No'l shift (cho'qqi, tepalik) siyosati
- Soliqlarni yig'imi harajatini tarkibi
- Soliq siyosati yo'nalishlarini asosiy tamoyillari
- «Ko'k» soliq deklaratsiyasi tizimi
- Energiya manbaalarini o'zlashtirishga hamkorlik qilish solig'i
- F'yuchers va opsiyon bitimlari

Takrorlash uchun savollar:

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni yo'nalishi
2. Nima uchun depersonizatsiya qilingan kompaniyalarni kapitali asosan bank krediti hisoblanadi?
3. Ishchilarni uzoq muxlat xizmat qilishini sabablari
4. Milliy daromadga nisbatan soliq og'irligi qanday o'zgarib bordi?
5. Manbaida va soliq deklaratsiyasi asosida olinadigan soliqlarni farqini tushuntiring
6. Ist'emol solig'ini olish tartibini yoriting

Test savollari:

- 1.Yaponiyani umumiy hisoblar byudjetida davlat zayomlari salmog'i (foiz hisobida):
 - a) 10,0
 - b) 20,0
 - c) 50,0
 - d) 45,0
 - e) 30,0
2. Umumiy hisoblar byudjetida soliq va gerb yig'implarini salmog'i (foiz hisobida):
 - a) 50

- b) 30
- c) 70
- d) 80
- e) 45

3. To'g'ri va egri soliqlarni oxirgi yillardagi munosabati (foiz hisobida):

- a) 35;65
- b) 58;42
- c) 55;45
- d) 70;30
- e) 74;26

4. Daromad solig'ini byudjetda tutgan o'rni (foiz hisobida):

- a) 40
- b) 45
- c) 20
- d) 25
- e) 35

5. Umumiy hisoblar byudjetiga tushadigan davlat soliqlari guruhini aniqlang:

a) Prefektura aholisidan olinadigan soliq, iste'mol solig'i, ko'chmas mulkni olish uchun solinadigan soliq.

b) Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha bitimlarga solinadigan aktsiz, yer qiymatiga solinadigan soliq, ovchilikga solinadigan soliq.

c) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq, iste'mol solig'i, xuquqiy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq, benzina solinadigan soliq, spirtli ichimliklarga solinadigan soliq, tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq, avtotransport og'irligiga solinadigan soliq, bojxona boji.

d) Soliq deklaratsiyasi bo'yicha solinadigan daromad solig'i, merosga solinadigan soliq, tamaki mahsulotlariga solinadigan aktsiz.

e) Iste'mol solig'i, korporatsiya foydasiga solinadigan soliq, alkohol ichimliklarga solinadigan soliq.

6. Soliqsiz to'lovlar:

- a) Ijara to'lovlari
- b) Yer uchastkalari va boshqa ko'chmas muklarni sotish
- c) Penya, jarima
- d) Obligatsiyalarni sotish, zayomlardan olinadigan daromad va boshqalar

- e) a,b,c,d

7. Prefekturalarga kelib tushadigan mahalliy soliqlar va yig'imlar.

a) Prefektura aholisidan olinadigan soliq, avtotransportga solinadigan soliq.

b) Tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliq, benzin va boshqa neft mahsulotlarini etqazib berish uchun soliq

c) Prefektura ist'emol solig'i, ovchilikga solinadigan soliq, tamaki mahsulotlariga solinadigan soliq

d) Ko'chmas mulkni olish uchun soliq, ofis va idoralarga solinadigan soliq va boshqalar

e) a,b,c,d

8. Munitsipal (shahar, tuman poselka va boshqalar) organlarini mahalliy soliqlari va yig'implari:

a) Ko'chmas mulkga solinadigan soliq, shahar, tuman, poselka aholisidan olinadigan soliqlar

b) Shahar qurilishiga solinadigan soliqlar, tamaki mahsulotlariga solinadigan munitsipial soliqlar

c) Ofis, idoralarga solinadigan soliqlar va boshqalar

d) a,b,c

e) Hammasi to'g'ri

9. Oxirgi yillardagi soliq og'irligi koeffitsientini aniklang :

a) 24,4

b) 16,2

c) 12,9

d) 20,9

e) 27,8

10. Manbaida olinadigan daromad solig'i ob'ektini tarkibi:

a) Mehnatdan daromad (ish haqi)

b) Pensiyaga ketishdagi nafaqadan olingan daromad, foiz daromad

c) Aktsiyalar bo'yicha beriladigan dividendlardan daromad, kapitalni o'sishidan olingan daromad

d) Mukofotlar gonorarlar

e) a,b,c,d

11. Soliq deklaratsiyasi asosida olinadigan daromad solig'i stavkalari (foiz hisobida):

a) 25,34,5,10,0

b) 20,30

c) 37,4-5

d) 2-3,3-10

e) a,b,c,d

12. Huquqiy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar turini belgilang.

- a) Xuquqiy shaxs foydasiga solinadigan soliq
- b) Xuquqiy shaxs faoliyatiga solinadigan soliq
- c) Xuquqiy shaxsdan olinadigan prefektura fuqarolik solig'i
- d) Xuquqiy shaxsdan olinadigan munitsipial fuqarolik solig'i
- e) a,b,c,d

13. Xuquqiy shaxs daromadidan olinadigan soliqlarni ob'ektlari va stavkalari:

- a) Jismoniy shaxs daromadi 25-34,5%
- b) Huquqiy shaxs faoliyatidan olinadigan daromad 5,6-11,5%
- c) Huquqiy shaxs foydasidan olinadigan soliqlar yig'indisi 5-6%.
- d) Huquqiy shaxs foydasidan soliqlar yig'indisi 12,3-14,7%
- e) Hammasi to'g'ri (taxminan 40% foyda byudjetga olinadi)

14. Meros va xayriyaga solinadigan soliqlarni eng yuqori stavkasini belgilang.

- a) 60% b) 70% c) 80% d) 85% e) 90%

XIII BOB. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

13.1. Xitoy xalq respublikasida soliqqa tortish sohasidagi tashkilotlarning vakolati va ularning vazifasi.

13.2. XXRda soliqlarning guruhlanishi

13.3. Aylanmadan olinadigan soliq

13.4. Foyda (daromad)larga solinadigan soliq

13.5. Resurs to'lovlari

13.6. Maqsadli soliqlar va yig'imglar

13.7. Mol-mulk solig'i

13.8. Operatsiya (xarakatlar)ga solinadigan soliq

13.9. Bojxona boji

13.10. Davlat soliq solish ma'muriy organi

13.1. XXRda soliqqa tortish sohasidagi tashkilotlarning vakolati va ularning vazifalari

Soliq-Xitoy g'aznasining asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda soliq muhim iqtisodiy dastak bo'lib, davlat tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

1994 yildagi soliq islohatini ijobiy natijasi shundan iboratki, birinchi marta dunyoda Xitoyda "Sotsializmni bozor iqtisodiga" moslashtirilgan ta'sirchan soliq tizimi tashkil qilindi. XXR harakatdagi soliq tizimi Xitoyga tashqi dunyoni ochib berishga qaratilgan, bu esa o'z navbatida qizg'in sur'atda milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga olib keldi. XXI asr boshida XXR iqtisodiyotini rivojlanish suratiga dunyo mamlakatlari havas bilan qaraydi.

13.1.-jadval

XXR da davlat byudjetiga soliqlarni kelib tushishi dinamikasi.

Yillar	Solio' tushumining umumiy summasi (mln.yuan)	Byudjet daromadida soliq tushumlarining salmog'i (%)	YaIM umumiy summasida soliq tushumining salmog'i (%)
1960	20,37	35,6	14,0
1970	28,12	42,4	12,5
1980	57,17	49,3	12,7
1985	204,08	101,8	22,8
1990	282,19	96,1	15,2
1993	425,33	97,8	12,3
1994	512,69	98,3	11,0

1995	603,80	96,7	10,3
1996	690,98	93,3	10,2
1997	823,40	95,2	11,0

Shunday qilib, oxirgi 40 yil davomida byudjet darajasidagi soliq salmog'i qariyb 2.5 baravar ko'tarildi va ichki yalpi mahsulotdagi salmog'i sekin asta tushib 11,0 % atrofiga keldi.

Soliq qonunchiligi va soliq siyosatini yaratib, amalga oshiruvchilarga quyidagi davlat organlari kiradi:

1. Milliy ijtimoiy kongress va uning doimiy qo'mitasi
2. Davlat kengashi
3. Moliya vazirligi
4. Soliqqa tortish davlat mamuriyati
5. Davlat kengashi haqidagi tarifikatsiya va taqiqlash qo'mitasi
6. Boj bosh boshqarmasi.

Soliq qoidalari milliy ijtimoiy kengash tomonidan ishlab chiqiladi. Soliq solish sohasida qoidalar (instruktsiya) davlat kengashi tomonidan tayyorlanadi. Soliq solish sohasida maxkama qoidalari moliya vazirligi tomonidan tayyorlanadi.

Davlat kengashi va Boj bosh boshqarmasi, masalan QQS bo'yicha vaqtincha yo'riqnomani tushuntirish bilan shug'ullanadilar.

Hitoy qonunchiligi bo'yicha ayrim huquqiy aktlar faqat "yuqori darajada" emas, balki joylardagi boshqaruv organlarida ham qabul qilinishi mumkin. Har-xil hokimiyat darajasiga qarab soliq tuzumlari markaziy soliqlar (o'zining), mahalliy soliqlarga (o'zining) va markaziy ham mahalliy byudjetlarga tushadigan soliqlar (boshqaruvchi soliqlar)ga bo'linadi. Markaziy soliqlar" mamlakat ichidagi aylanmalardan olinadigan iste'mol solig'i, bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona organlari yig'adigan iste'molga solinadigan soliqlar. Mahalliy soliqlar: daromad solig'i, shaxar va tumanlarni yeridan foydalanganlik uchun to'lov, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanganlik uchun soliq, asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq, yerni sotishga solinadigan soliq, mol-mulk solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, merosga solinadigan soliq, avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulkka, hosilga soliq (ushbu soliq turi asrlar davomida amal qilib keldi, faqatgina 2006 yil avgustidan bekor qilindi. Mahsulotlarning narxiga ta'sir etdi, dehqonlar uchun engilliklar yaratdi va daromadning o'sishiga olib keldi), uy qurishga solinadigan

solliq, dehqonchilikka solinadigan solliq, hayvonlarni boqish va ko'paytirishga solinadigan solliq.

Boshqaruvchi solliqlar:

-mamlakat ichidagi aylanmaga solinadigan qo'shimcha qiymat solig'i: 75% - markaziy byudjet va 25% - mahalliy byudjet.

-Tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan solliq: temir yo'l departamenti, bank va sug'urta kompaniya birlashib to'laydigan solliqning bir qismi, hamda sug'urta va moliya kompaniyalari qo'shimcha 3% to'laydigan solliq markaziy byudjet daromadiga o'tkaziladi, qolganlari mahalliy byudjetlar daromadiga yo'naltiriladi.

- Korxonalar foydasiga solinadigan solliq: davlat korxonalari, mahalliy banklar va bankdan tashqari moliya institutlari to'laydigan solliq, temir yo'l departamenti, bank, sug'urta kompaniyalari birlashib to'laydigan solliqni markaziy byudjet daromadiga o'tkaziladi. Qolganlari mahalliy byudjet daromadiga o'tkaziladi.

- Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el korxonalarini foydaga solinadigan solliq: chet el banklari to'laydigan solliq markaziy byudjetga tushadi va boshqa subektlardan olinadigan solliq mahalliy byudjet daromadiga tushadi.

- Resurs solliq: qirg'oq atrofida neftni qazishdan tushadigan solliq markaziy byudjetga va qolgan ob'ektlardan olinadigan solliqlar mahalliy byudjetga yo'naltiriladi.

Shaxarlarni saqlash va qurish uchun solliq: temir yo'l departamenti, xar xil bank va sug'urta kompaniyalari birlashib to'lanadigan solliq markaziy byudjetga, qolgani mahalliy byudjetga yuboriladi.

Gerb yig'imi*: 88% - markaziy byudjetga va 12% - mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

HXR qonunchiligida chet el investitsiyasiga solliq solish masalalari ham ko'rilgan: chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar, chet el korxonalari va chet el fuqarolari quyidagi solliq turlarini to'laydi: qo'shilgan qiymat solliq, iste'molga solinadigan solliq, tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan solliq, chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el korxonalari foydasiga solinadigan solliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solliq, resurs solliq, yerni sotish uchun solliq, ko'chmas mulkga solinadigan solliq, gerb yig'imi, avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanganlik uchun solliq, mulkni

* Gerb yoki tamg'a yig'imi - maxsus davlat yig'imi bo'lib, ayrim shaxs va tashkilotlardan fuqarolik-huquqiy bitimlarni rasmiylashtirishda olinadi. Tamg'a (gerb) yig'imi 1624 yili birinchi marta Gollandiyada kiritilgan

o'tkazishdan olinadigan soliq, dehqonchilikka solinadigan soliq, bojxona boji, tashqi pul mablag'lari, chet el texnologiyasi va nou-xau.

Hitoyga jalb qilish uchun chet el fuqorolari va yuridik shaxslariga soliq solishda ko'p miqdorda soliq engilliklari berilgan.

Masalan, iyul 1999 yil xolatiga soliq imtiyozlari borish bo'yicha 60 mamlakat bilan HXR shartnomasi bo'lgan. Shu jumladan, Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Rossiya, Hindiston, Ukraina, Litva, O'zbekiston va boshqalar. Shulardan 50dan ortig'i ishlab turgan shartnomalarga kiradi. HXRda soliqlar muxim iqtisodiy ahamiyatga ega.

13.2. Hitoy Xalq respublikasida soliqlarning guruhlanishi

Hozirgi zamonda Hitoyda 25 turdagi soliqlar ishlatiladi. Ularning xususiyati va bajaradigan funktsiyalariga qarab quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin.

Oborot solig'i: ushbu guruh soliqlar ularning 3 ta turini birlashtiradi: qo'shilgan qiymat solig'i, iste'molga solinadigan soliq (sotishga solinadigan soliq), tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliq. Ushbu soliqlarni yig'ish ishlab chiqarish, muomila va xizmatlar sohasidagi tovar aylanmasi, sotish xajmiga bog'liq.

Foyda (daromad)ga solinadigan soliq. Bunga quyidagilar kiradi: mamlakat korxonalarini foydasiga solinadigan soliq, chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar, chet el korxonalarini foydasiga solinadigan soliq va jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i kiradi. Bu guruh soliqlardan tushumlar xuquqiy shaxslarni olgan foydasini summasiga va jismoniy shaxslarni daromadini hajmiga bog'liq.

Resurs to'lovlari: resurs solig'i va yer solig'i, shaxar va tuman yerlaridan foydalanganlik uchun to'lovlardan tashkil topadi. Ushbu soliqlar tabiatdan foydalanuvchilar va shaxar yer-mulklaridan foydalanganlardan olinadi.

Resurs to'lovi davlat mulki hisoblangan tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun solinadi.

Ularning asosiy maqsadi – har-xil mintaqalar va sharoitlarda tabiatdan foydalanish natijasida olgan soliq to'lovchilarni daromadini baravarlash hisoblanadi.

Maqsadli soliq va va yig'imlar: shaharlarni saqlash va rivojlantirishga solinadigan soliq, qishloq yerlaridan foydalanganlik uchun soliq, asosiy kapitalga investitsiya qilishga solinadigan soliq, yerni sotishga solinadigan soliq.

Mol-mulk solig'i: mol-mulk solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, merosga solinadigan soliq (kiritish arafasida).

Operatsiyalardan (xarakatdan) soliq. Bu guruhga kiradi: avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanganlik uchun soliq, gerb yig'imi, mulkni o'tkazishga solinadigan soliq, qimmatli qog'ozlar muomilasiga solinadigan soliq (kiritish arafasida), bu soliqlar ayrim operatsiyalarga (xarakatlar) solinadi.

Qishloq xo'jalik soliqlari: dehqonchilikka solinadigan soliq, hayvonlarni boqish va ko'paytirishga solinadigan soliq.

Dexqonchilikdan yoki chorvachilik faoliyatidan daromad oluvchi xuquqiy va jismoniy shaxslar soliq to'lovchi hisoblanadi.

Bojxona boji. Hitoy xududiga tovarlarni olib kelish (olib ketish) soliqqa tortiladi. 1994 yilda Hitoy soliq tizimida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayni paytda HXR dagi barcha soliqlar 3 guruhga bo'linadi.

Markaziy soliqlar, qo'shma soliqlar, mahalliy soliqlar. Markaziy soliqlar bojxona bojlari, iste'mol solig'i, bojxona undiradigan QQS, shuningdek banklar, tashkilotlar, davlat korxonalar va xorijiy savdo korparatsiyalaridan undiriladigan xo'jalik faoliyati uchun solingan biznes solig'i deb yuritiladi.

Qo'shma soliqlar* QQS, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq, qimmatli qog'ozlarga solinadigan soliq hamda boshqa bank va tashkilotlardan undiriladigan biznes solig'ini birlashtiradi.

Mahalliy soliqlar korxonalar foydasiga solinadigan soliq, boshqa manbalardan undiriladigan biznes solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, gerb yig'imlari, meros uchun soliq, yer qiymatini oshirganlik uchun soliq va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hitoy xalq respublikasidagi asosiy soliqlar guruhlar bo'yicha ko'rib chiqildi.

Xo'jalik faoliyati uchun soliq (biznes solig'i) quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- soliq solinadigan xizmatlar ko'rsatish
- nomodiy aktivlar sotish
- ko'chmas mulkni sotish

U tovar aylanmasiga asoslanib hisoblanadi. Unga doir hisobotlarni topshirish va to'lash davriyligi har oyda amalga oshiriladi. Faoliyat turlariga ko'ra soliqning quyidagi stavkalari belgilanadi:

* Qo'shimcha to'lanadigan soliq - Hitoyda foydaga solinadigan soliq stavkasi asosan markaziy hokimiyat tomonidan belgilansa (30%), unga qo'shimcha ravishda mahalliy hokimiyat 3% "mahalliy" soliq stavkasini o'rnatadi.

Transport xizmati – 3%
Qurilish, muhandislik ishlari -3%
Moliyaviy faoliyat - 8%
Pochta va telekommunikatsiyalar -3%
Madaniyat va sport - 3%
Xordiq chiqarish 5-20% (barlar, restoranlar 5%)
Namoddiy aktivlar xarid qilish - 5%
Ko'chmas mulkni sotish -5%

13.3. Aylanmadan olinadigan soliqlar

Ushbu soliqlar qo'shilgan qiymat solig'i, iste'mol solig'i va tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliqlardan tashkil topadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i. Ushbu soliqqa xitoy xududida sotish aylanmasi, tovarlarni import qilish, xizmat ko'rsatishlar tortiladi.

Tovarlarni aylanmasiga ikkita stavka qo'llanadi – 13% va 17%. Tovarlarni birinchi zaruriylar tarkibiga kiradigan yoki boshqa guruh tovar va xuquqlarga taalluqligiga qarab ko'rsatilgan stavkalar qo'yiladi.

Tovarlarni eksport qilish nol stavka bilan soliqqa tortiladi. Soliq summasini aniqlash uchun to'lovchilar guruhlariga bo'linadi: odatdagi, mayda va import qiluvchilar.

Odatdagi soliq to'lovchilar byudjetga to'lanadigan QQS bo'yicha kvartaliga to'langan va solingan soliq ucheti hisobotini alohida olib borishlari zarur. Ko'rsatilgan summalar o'rtasidagi farq byudjetga to'lanadigan soliq summasini ko'rsatadi.

Byudjetga to'lanadigan QQS summasini aniqlash formulasi: byudjetga to'lanadigan QQS joriy davrga olingan QQS – shu davrda to'langan QQS.

Olingan QQS joriy davrdagi sotish hajmiga belgilangan stavkaga ko'paytiriladi.

Mayda soliq to'lovchilar soliqni tovarlarni sotishdan olgan daromad yoki ko'rsatilgan xizmatini belgilangan stavkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydilar. Tijorat sohasidagi savdo aylanmasi 4% va qolgan sektorlardagi aylanmalar 6% ko'paytiriladi.

Import guruhi bo'yicha soliq keltirilayotgan tovarlarni boj qiymati stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Soliq solinmaydigan tovarlar: o'zlari mustaqil sotadigan qishloq xo'jalik korxonalarini va fermerlar ishlab chiqargan maxsulotlari, boshqa mamlakatlarda qayta ishlab HXRga olib kelinadigan tovarlar, aholidan olingan antikvar kitoblar, tibbiyot preparati va asboblari, niokr (ilmiy izlanish va tajriba konstruktor ishlari)ni o'tkazish uchun keltirilgan

instrument va uskunalar, maorif ehtiyoji uchun keltirilgan uskunalar, boshqa davlatlar hukumatlari va tashkilotlari to'lovni bergan to'lov material boyliklari, nogironlar ehtiyoji uchun, ularning korxonasi olib kelgan buyumlar, chet el va vatanning investorlari moliyalashtiradigan davlat buyurtmasi bilan amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha keltirilgan uskunalar.

Iste'molga solinadigan soliq. Soliqqa ishlab chiqariladigan va XR xududiga import orqali keltiriladigan quyidagi guruh tovarlar tortiladi: Chekish maxsulotlari, alkogol ichimliklar, kosmetika, yuvelir buyumlari, benzin, motorli qayiq, moped, mototsikl, avtamobil va boshqalar. Eksport qilinadigan iste'mol tovarlari soliqdan ozod qilingan. Soliq stavkalari tovarlar guruhi va ayrim guruhlar tarkibi bo'yicha tabaqalantirilgan. Asosan foizi stavkalar qo'llanadi va ayrim tovarlar bo'yicha qat'iy pulda belgilangan stavka ham ishlatiladi. Masalan chekish maxsulotlari bo'yicha 25-50%, alkogol ichimliklar bo'yicha 5-25%, kosmetika 30%, zargarlik buyumlari 5-10%, benzinning bir litr uchun 0,2-0,28 yuan olinadi. Chetdan keltiriladigan iste'mol tovarlari belgilangan stavka bilan boj qiymatidan olinadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliq. Hitoy Xalq respublikasi xududlarida xizmat ko'rsatish, nomoddiy aktivlarni o'tkazish, ko'chmas mulklarni sotuvchi korxonalar va fuqarolar to'laydilar.

Soliq solinadigan ob'ekt va stavkalari quyidagilardan iborat: transport va aloqa (3%), moliya, sug'urta biznesi (8%), madaniyat va sport (3%), tamosha o'yinlari (5-20%), xizmat ko'rsatish (5%), ko'chmas mulkni sotish (5%) va boshqalar. Soliq to'lashdan ozod qilinadi: xizmat ko'rsatgan tibbiyot muassasalari, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi, uylanish va ko'mish xizmatlari, invalidlarni aholiga qilgan xizmatlari, o'qitish, o'simlik va hayvonot dunyosini kasalliklardan muhofaza qilish, madaniy tadbirlar bo'yicha kirish to'lovlari, diniy xizmatlar.

13.4. Foyda (daromad)ga solinadigan soliq

Bu guruh soliqlar tarkibida mamlakat korxonalarini foydasiga solinadigan soliq, chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan va chet el korxonalarini foydasiga solinadigan soliq va jismoniy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqlar kiradi.

A) Mamlakat korxonalarini foydasiga solinadigan soliq.

Soliqni xuquqiy asoslari 1993 yilgi korxonalar foydasiga solinadigan soliq bo'yicha vaqtincha yo'riqnoma hisoblanadi. (1994 yili uni bajarish

bo'yicha tushuntirish berilgan). Soliqni davlat, kollektiv, xususiy, qo'shma korxonalar va boshqa tashkilotlar (xususiy shaxslar) to'laydi. Soliq solinadigan ob'ektga maxsulot, ish, xizmatdan olinadigan foyda, boshqa tadbirkorlik faoliyatidan va operatsiyalardan (manbai) olingan foydalar hisoblanadi. Foydaga solinadigan soliq to'lovchi hisobot yili davomida olgan foydasidan ruxsat etilgan chiqarishlar (imtiyozlar) chiqarib tashlangandan keyin qolgan foydaga solinadi.

Soliqni hisoblash tartibi: foydaga solinadigan soliq = soliq solinadigan foyda x 33% : 100.

Asosiy stavkadan tashqari ikkita pasaytirilgan stavkalar - 18% va 27% - kam foydali, past rentabellik korxonalariga qo'llaniladi.

Soliq chiqarishi (chegirma) va soliq imtiyozlari ma'lum talablarga javob beradigan korxonalariga qo'llaniladi. Masalan, yuqori texnologiyani qo'llayotgan korxonalar, chiqindilarni qayta ishlash, kambag'al hududlarda yangi tashkil qilingan kompaniyalar, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan korxonalar, ijtimoiy ahamiyatli xizmat ko'rsatuvchi (aholini mehnat bilan ta'minlash) korxonalar, shaxar korxonalar va davlat qishloq xo'jalik korxonalar va h.k.

B) Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el korxonalariga foydasiga solinadigan soliq.

Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el korxonalariga foydasiga solinadigan soliq hisoblash va undirib olish mexanizmi 9 aprel 1991 yili qabul qilingan HXR qonunida belgilangan. Bosh boshqarma ofisi xitoyda joylashgan chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalariga soliq solinadigan foydasi hamma daromadi (xitoy xududida olingan va chet elda olingan) hisoblanadi. Chet el kompaniyalariga foydaga solinadigan soliqni faqat HXR xududida olingan manbalar hisobidan to'laydilar.

Ushbu korxonalariga soliq olinadigan bazasi, joriy yil olingan umumiy (yangi) foydasi uni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajat va yo'qotishlar summasiga kamaytirilgan hajmda hisoblanadi. Soliqni 33% stavka bilan to'laydi (30% + 3% foydaga solinadigan "mahalliy" soliq). Hitoy hududida vakolatxonasi bo'lmagan lekin HXR xududidan daromad oladigan (foizlar, ijara to'lovi) Hitoy hududida vakolatxonasi bo'lgan, lekin bu hududda olingan daromad asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan korxonalar umumiy olgan daromadlaridan 20% soliq to'laydilar.

Soliq chegirmalari va soliq imtiyozlari ishlab chiqarish, eksport va texnologik, chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el korxonalariga maxsus iqtisodiy zonada joylashgan bo'lsa yoki davlat

tomonidan belgilangan iqtisodiy va texnologiyani rivojlantirish zonalari, offshor zonalarda joylashgan bo'lsa beriladi. Chet el investorlari (yuridik shaxs) daromadini kompaniyaga kelgusida qayta investitsiyaga bersa (uning ustav kapitalini ko'paytirish uchun), yoki bu mablag'lar HXR hududida qatnashsalar, yangi ishchi o'rinlari tashkil qilish uchun ishlatsalar, bu daromadlar soliqqa tortilmaydi. Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar foydaga solinadigan soliq bo'yicha qo'shimcha chiqarish berilsa, bu chiqarish mahalliy xokimiyat chiqargan qaror asosida bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qonuniy asoslari HXRni 10.0.9.1980 yilgi qonunni (1993 yil qaytadan ko'rilgan), uni bajarish bo'yicha 28.01.1994 yil chiqarilgan tushuntirish xujjatlari hisoblanadi. Soliqni to'lovchilar xitoyda doimiy yashash joyi bo'lgan jismoniy shaxslar yoki bunday joylarga ega bo'lmasdan HXR xududida bir yil va undan ortiq yashagan shaxslar hisoblanadi. Ushbu shaxslar soliqni hamma daromadlaridan (HXR xududida va chetki davlatlardan olgan) to'laydilar. HXR xududida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, uning rezidenti hisoblanmagan, yoki uning xududida bir yildan kam yashagan jismoniy shaxslar soliqni faqat HXR xududida olingan daromadlardan to'laydilar. Soliq ob'ekti ishchi va xizmatchilarni ish xaqi, yordamchi yakka xo'jalikdan olgan daromad yoki tadbirkorlik faoliyati orqali olgan daromad, korxonalar va tashkilotlardan pudrat va ijara shartnomalari asosida olgan daromadlari, ko'rsatilgan xizmatga berilgan mukofot, mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlar hisoblanadi.

a) asosiy muhim soliq ishchi va xizmatchilarni olgan ish xaqisidan ushlangan soliq hisoblanadi. Soliqqa har oyda olgan ish xaqi 800 yuanga kamaytirilgan (qattiq belgilangan xarakat summasi) holda tortiladi. Olingan farqqa to'qqiz pog'onali quyidagi soliq stavkalari qo'llanadi.

Pog'ona	Xar oyda soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi	O'rnatilgan chegirma
1.	501 ortiq emas	5	0
2.	501-2000	10	25
3.	2001-5000	15	125
4.	5001-20000	20	375
5.	20001-40000	25	1375
6.	40001-60000	30	3375
7.	60001-80000	35	6375
8.	80001-100000	40	10375

9.	100000 dan ortiq	45	15375
----	------------------	----	-------

HXR hududida doimiy yashash joyi bo'lmagan, lekin shu xududda ish xaqi oladigan shaxs yoki xitoyda doimiy yashash joyi bo'lgan va uning xududidan tashqarida ish xaqi oladigan shaxslar 800 yuanga qo'shimcha (bir oyga 3200 yuan) xarajatlarga qo'shimcha kamaytirish oladilar.

b) yakka yordamchi xo'jalikdan va tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadni soliq tortish. Soliq solishga yordamchi xo'jalikdan olingan yoki tadbirkorlik faoliyatidan olingan va uni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajat yo'qotishlarni chiqarib tashlangan yangi daromad hisoblanadi. Olingan farqqa quyidagi 9 bosqichni (pog'onali) soliq stavkasi qo'llanadi:

Pog'ona	Xar yilgi soliq solinadigan daromad	soliq stavkasi	beriladigan chegirma
1.	5001 dan ortiq emas	5	0
2.	5001 – 10000	10	250
3.	10001 – 30000	20	1250
4.	30001-50000	30	4250
5.	50000	35	6750
Har yili soliq solinadigan daromad			
Yordamchi xo'jalik va tadbirkorlik faoliyati			

Hisoblash tartibi:

Yordamchi xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatidan har yilgi soliq solinadigan daromadi uning har yilgi umumiy daromadidan uni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni chiqarish yo'li bilan aniqlanadi.

Har yilgi soliq summasining qiymati = (har yilga soliq solinadigan daromad) x (soliq stavkasi) va undan belgilangan chiqarishni ayirish.

v) korxonalar va tashkilotlardan shartnoma va ijara asosida olingan daromadlar. Soliqqa korxonalar va tashkilotlardan shartnoma va ijara orqali olingan umumiy yillik daromad tortiladi. Daromad xarajat summasiga kamaytiriladi (bir oyga 800 yuan) olingan farqqa "b" punktda ko'rsatilgan stavkalar qo'llanadi.

Soliqqa har bir tushum 4000 yuandan yuqori bo'lmasa, 800 yuanga kamaytirib qolgani tortiladi. Agar har bir tushum 4000 yuandan ko'p bo'lsa, daromaddan xarajatning 20% chiqarib tashlanadi.

Soliq stavkasi 20%, soliq solinadigan daromad = umumiy olingan daromad - 800 yuan (yoki 20% daromad); soliq summasi = soliq solinadigan daromad x 20 : 100.

g) mulkni sotishdan olinadigan daromad.

Soliq solinadigan daromad = mulkni sotishdan olingan boshlang'ich qiymati-sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar

Soliq summasi = soliq solinadigan daromad x 20 : 100

d) foizlar, dividendlar va boshqa tushumlar.

Soliq summasi = Har bir manba bo'yicha umumiy daromad summasi x 20% : 100.

Quyidagi daromadlarga soliq solinmaydi:

- xalqaro tashkilotlar, chet el tashkilotlari va davlat organlari tomonidan ilmdagi, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, atrof muhitni muhofaza qilishdagi yutuqlarga berilgan mukofotlar.

- davlat kengashi farmoyishi bilan chiqarilgan moliyaviy obligatsiyalar bo'yicha foizlar, Moliya vazirligi chiqargan davlat zaemlari va omonat depozitlari bo'yicha olingan foizlar.

- Davlat Kengashini yagona qoidasiga binoan ish haqiga qo'shilgan maxsus hukumat ustamasi, davlat kengashi qarori asosida beriladigan soliq solinmaydigan subsidiyalar, dotatsiyalar va qator to'lovlar.

- muhtojlarga yordam berish tashkilotlarining nafaqalari, moddiy yordam, boquvchisini yo'qotganlarga berilgan nafaqa.

- sug'urta to'lovlari;

- harbiy xizmatchilarga beriladigan pul mablag'lar va pul mukofotlar;

- yagona davlat nizomi asosida davlat ishchi va xizmatchilarini ish haqisiga qo'shimcha, chiqish nafaqasi, uzoq xizmati uchun nafaqalar;

- bankdagi schyotda to'planadigan tibbiy sug'urta nafaqasi va uzoq yillik xizmati uchun nafaqa;

- diplomatiya va konsul darajasidagi shaxslarni olgan daromadlari.

13.5. Resurs to'lovlari

Resurs to'lovlari resurs solig'i va yer solig'idan, (shahar va tumanlarni yeridan foydalanganlik uchun to'lov) tashkil topadi.

a) Resurs solig'i.

HXR hududida mineral resurslarni qazish bilan shug'ullanayotgan tabiatdan foydalanuvchilar-huquqiy va jismoniy shaxslar soliq to'lovchisi hisoblanadi.

Soliqning stavkalari quyidagi mineral resurslarini turiga qarab belgilanadi.

	Soliq ob'ekti	Soliq stavkasi
--	---------------	----------------

.	Xom neft	Bir tonnaga 8-30 yuan
.	Tabiiy gaz	1000 kub metr uchun 2-15 yuan
.	Ko'mir	0,3-5 yuan 1 tonnaga
.	Temir rudalari	1 tonnaga 2-30 yuan
.	Rangli metallar rudasiga	1 tonnaga 0,4-30 yuan
.	Tuz	
1)	Qattiq tuz	1 tonnaga 10-60 yuan
2)	Suyuq tuz	1 tonnaga 2-10 yuan

Soliq summasi = (soliq solinadigan ob'ektlar miqdori) X (Har birlikka soliq stavkasi).

Asosiy soliq chegirmalari va engilliklari.

Agar bu xom-ashyo isitish maqsadida ishlatilsa, neftni qazib olish soliqdan ozod qilinadi. Soliq to'lovchilar - tabiatdan foydalanuvchilar tabiiy ofatdan, halokatdan zarar ko'rsalar, ko'rgan zararlari hajmidan kelib chiqib chiqarishlar va imtiyozlar beriladi.

Temir rudalari va rangli metallarni qazib oluvchi shaxta (artel)larga soliq chiqarishlari beriladi.

b) Yer solig'i (shahar va tumanlar yeridan foydalanganlik uchun to'lov)

Soliqni korxonalar va fuqarolar to'laydi. Bundan chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan tashkilotlar, chet el kompaniyalari va xorijiy fuqarolar mustasno.

Soliq stavkasi mintaqalar bo'yicha har bir birlikka tavsiflanadi. Masalan, bir kvadrat metrga yillik stavka yirik shaharlar uchun 0,5-10 yuan, o'rtacha shaharlar uchun esa 0,4-8 yuan va kichik shaharlarga 0,3-6 yuan, hamda qazib olinadigan hududlarda 0,2-4 yuan.

“Kambag'al” mintaqalar va yuqori potentsiali bor tumanlarga soliq stavkasi ko'tarilishi va tushurilishi mumkin.

Hukumat, ijtimoiy va harbiy organlar egallagan yerlar, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar egallagan yerlar, cherkov, park, tarixiy yodgorliklar egallagan yerlar, munitsipal ma'muriy organlarga qarashli umumiy foydalanadigan yerlar, daraxt va o'rmonlar

bilan band bo'lgan yerlar, chorvachilik kompleksi va baliq xo'jaligi bilan band bo'lgan yerlar, atrof- muhitni muhofaza qilish, energetika va transport xo'jaligi ehtiyoji uchun band qilingan yerlar soliq solishdan ozod qilinadi.

13.6.Maqsadli soliqlar va yig'imlar

Ushbu guruh soliqlar: qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanganlik uchun soliq, shaharlarni saqlash va rivojlantirish uchun soliq, asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq, yerni sotishga solinadigan soliq.

a) qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanganlik uchun soliq. Soliq huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadi. Bunga chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el fuqarolari kirmaydi. Yerni imoratlar qurish va boshqa qishloq xo'jaligidan tashqari maqsadlarga foydalanilsa soliqqa tortiladi. Soliqqa davlat va kollektiv mulki hisoblangan qishloq xo'jalik yerlari tortiladi. Soliq stavkasi mintaqalar (joylar) bo'yicha bir odamga to'g'ri keladigan yer uchastkasini o'rtacha razmyeriga qarab va mintaqadagi iqtisodiy vaziyatga qarab tabaqalashtiriladi.

Qo'shni hududlar o'rtasida keskin farq bo'lmasligi uchun Moliya vazirligi provintsiyalar va provintsiyalar bo'yicha soliq birligiga belgilangan o'rtacha stavka tabaqalashtirilgan. Bu stavka har bir kvadrat metrga 2,5- 9 yuanga teng. Soliq summasi qishloq xo'jalik yerini stavkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Soliq bir marta to'lanadi.

Asosiy engilliklar va imtiyozlar quyidagicha:

Harbiy ob'ektlar, temir yo'l, aeroport, maktab, shifoxona joylashgan yerlar; irrigatsiyaga mo'ljallangan yerlar; qishloqlarda joylashgan mayda yer uchastkalari, yordamchi xo'jalikni olib borish uchun (uy oldidigi yerlar), qochoq va ko'chirilgan odamlar bilan band yerlar soliqdan ozod qilinadi. Agar yerlar qishloq aholisiga yangi uylar qurish uchun berilsa, soliq chiqarishi va imtiyozi qo'llaniladi. Xizmatdagi harbiylar va ularning oilalariga, etim bolalarga, dehqonlarga - agar ular sezilarli og'ir moliyaviy ahvolda bo'lsalar, mehnat invalidlarini ta'minlash, avtomobil yo'llarini qurish uchun ajratilgan yerlarga soliq solinmaydi.

b) Asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq.

Soliq to'lovchilar HXR hududida asosiy asosiy kapitalga mablag' qo'yadigan tashkilotlar, ularning bo'limlari, uy xo'jaligi va fuqarolar hisoblanadi. To'lovchilar tarkibiga chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar, chet el kompaniyalari va xorijiy davlatlarning fuqarolari kirmaydi.

Soliq ob'ekti va uning stavkalari

	Soliq solinadigan ob'ektlar	Soliq stavkasi,%
	A. Infrastruktura	
.	Davlat ob'ektlari	0
.	Davlat tashabbusi bilan kiritilgan loyihalar, lekin transport, energetika holati bilan chegaralangan	5
.	Ofislar, mehmonxona yotoqxona	30
.	Uy-joy qurilishi, tijorat qurilishi qo'shilgan holda	0,5
.	Boshqa yo'nalishlar	15
	B. Rivojlanish va rekonstruktsiya	
.	Davlat ob'ektlari	0
.	Boshqa ob'ektlar (uy joy qurilishining ayrim ob'ektlariga stavka 5%)	10

Davlat sektoriga investitsiya qilish afzal hisoblanadi.

Soliq asosiy kapitalga qilingan investitsiyani umumiy summasidan olinadi.

v) Yerni sotishga solinadigan soliq (ko'chmas mulk) soliq to'lovchi davlat yeridan foydalanish huquqini boshqarish va unda joylashgan qurilishlarni (ko'chmas mulkni sotish) sotish va boshqalar ixtiyoriga o'tkazish orqali daromad olgan tashkilot va fuqarolar hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza soliq to'lovchi ko'chmas mulkni sotishda qo'llangan baholash narxi asosida belgilangan qiymat hisoblanadi.

Qo'chmas mulkni baholash qiymati = ko'chmas mulkni sotishdan olinadigan tushumi- chiqarishga mo'ljallangan xarajatlar turlari. Soliqni progressiv stavkasi qo'llaniladi.

Pog'ona		Soliq stavkasi,%
1.	50% chiqariladigan xarajatlar moddasidan oshmaydigan baholangan qiymat	30
2	50% dan ortiq va 100% ga chiqariladigan xarajatlar moddasidan	

	oshmaydigan baholangan qiymat	40
3	100% ortiq va 200% chiqariladigan xarajatlar moddalaridan oshmaydigan baholangan qiymat	50
4	200% chiqariladigan xarajatlar moddasidan oshadigan baholangan qiymat	60

Soliqni hisoblash tartibi: birinchi qadam soliq to'lovchi ko'chmas mulkni sotishdan olgan baholangan qiymatni aniqlashdan iborat. Ushbu summa ko'chmas mulkni sotishdan olingan tushumdan xarajatlar moddasini chiqazib tashlangandan qolgani hisoblanadi. Shu yo'l bilan topilgan soliq solinadigan bazaga soliq stavkasi qo'llanadi.

Soliqdan imtiyozlar beriladi. Agar soliq to'lovchi yashaydigan uyni sotish natijasida olgan tushumi- baholangan hisobda chiqaziladigan xarajatlar moddasini 20% dan ortiq bo'lmasa yoki davlatni qurilish talablari bo'yicha buzilgan uyni o'rniga yangi uy-joy berilsa soliqdan ozod qilinadi.

13.7.Mol-mulk solig'i

Bu guruh soliqlar mol-mulk solig'i qo'chmas mulkka solinadigan soliq va merosga beriladigan mulkka solinadigan soliqlardan iborat.

a) Soliq shahar, okrug, tuman, industrial va qazib olinadigan hududlarda olinadi.

Soliq to'lovchilar - imorat va inshootni mulk egalari, ofislarni egalari, ularda joylashgan garov xatlar bo'yicha kreditorlar, ijaraga beruvchilar hisoblanadi. Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar, chet el kompaniyalari va chet el fuqarolari bunga kirmaydi.

Soliq bazasiga ikki xil stavka qo'llaniladi: 1,2% va 12%.

Agar soliq bazasi sifatida - mulkni qoldiq qiymati olinsa (boshlang'ich qiymat 10-30% ga kamaytirilgan) 1,2% stavka qo'llanadi. Agar soliq bazasi sifatida mulkni ijaraga berish natijasida olingan daromad hisoblansa soliq 12% bilan olinadi.

Davlat organlari o'z ehtiyoji uchun foydalanadigan qo'chmas mulk soliq to'lashdan ozod qilinadi. Ijtimoiy tashkilotlar, qurolli kuchlar, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan korxonalar, cherkovlar, parklar, tarix yodgorliklari, fuqarolar mulki hisoblangan tijorat maqsadida ishlatilmaydigan qo'chmas mulk, buzilgan, yashash uchun yaroqsiz uy-joylar ham shu tartibda ozod qilinadi

b) Qo'chmas mulkka solinadigan soliq.

Hozirgi vaqtda bu soliqni chet el investitsiyali tashkilotlar, chet el kompaniyalari va chet el fuqarolari to'laydilar. Agar ular imorat va inshootlarga mulk egasi hisoblansa, garov xati bilan kreditorlar va ijaraga beruvchilar ham to'laydilar.

Soliq bazasiga ikki xil stavka qo'llanadi. Ko'chmas mulk qiymatiga nisbatan 1,2%. Agar mulkni ijaraga berib, daromad olsa, u holda 18% stavka qo'llaniladi.

Soliq engilliklari: yangi qurilgan imoratlar qurilish tamom bo'lgan oydan boshlab 3 yil davomida ozod qilinadi. Imorat rekonstruktsiya qilinsa, uning xarajati yangi shunga o'xshagan imoratni narxini yarmini tashkil qilsa, ikki yil davomida ozod qilinadi.

Boshqa turdagi engilliklar joylardagi hokimiyat organlari tomonidan beriladi.

13.8. Operatsiya (harakatlarga)ga solinadigan soliq

Guruhga avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanganlikka solinadigan soliq, tamg'a yig'imi, mulkni o'tkazishga solinadigan soliq, qimmatli qog'ozlarni aylanishiga solinadigan soliq (hali kiritilmagan)lar kiradi. Bu soliqlar ma'lum operatsiyalar yoki harakatlarga solinadi.

a) Avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanganlikka solinadigan soliq

Soliqni mulk sifatida avtotransport vositalari va suv kemalariga ega bo'lgan tashkilot va fuqarolar HXR hududida foydalanganliklari uchun to'laydilar.

Soliq bazasi avtotransport uchun ularning soni yoki netto-narx, suv kemalariga - ularning netto- tonnasi yoki kemani umumiy yuk ko'tarish hajmi, soliq summasi alohida avtotransport va alohida suv kemalari uchun hisoblanadi. Har-xil stavkalar qo'llaniladi:

Avtotransport uchun: 60-320 yuan- passajir transportiga, 16-60 yuan har bir tonnaga -yuk tashuvchi transportga, 20-80 yuan- mototsikllarga va 1,2-32 yuan motorsiz vositalarga.

Suv vositalariga: motorli kemalarga har bir tonna yukga 1,2-5 yuan, motorsiz kemalar uchun bir tonna yukga 0,6-1,4 yuan.

Hukumat organlari, ijtimoiy tashkilotlar, harbiy bo'limlar, byudjetdan moliyalashtiriladigan korxonalar, mirshab, yong'in xizmati, sog'liqni saqlash departamenti, atrof muhitni muhofaza qiluvchi organlar, bir tonnadan ortiq bo'lmagan baliq ovlovchi kemalar, invalidlar foydalanadigan vositalar, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan traktorlar uchun soliq engilliklari mavjud. Chet el investitsiyalik korxonalar, chet el

kompaniyalari va chet el fuqarolari - avtotransport va suv kemalaridan foydalanuvchilar soliqqa boshqa stavkalar bilan tortiladilar. Avtotransport vositalari (kvartal stavkasi) 15-80 yuan

-passajir transporti, 4-15 yuan bir tonnagacha yuk tashish transporti uchun, 5 yuan mototsikllarga, 0,3-8 yuan motorsiz vositalarga. Suv vositalariga kvartal stavkasi)-0,3-1,1 bir tonnaga- motorli kemalarga, 0,15-0,35 yuan bir tonna yukga-motorsiz kemalarga.

Soliq engilliklari quyidagicha:

Hitoy hududidagi elchixonalar, konsullik, ularning vakillari (diplomatlar, konsullar, ma'muriy, texnik xodimlar, ularning xotinlari va balog'atga etmagan bolalari) ning avtotransport vositalari soliq solishdan ozod qilinadi. Chet el investitsiyalik korxonalar, chet el kompaniyalariga qarashli yong'in mashinalari, tez yordam mashinalari ham soliqqa tortilmaydi.

b) Gerb yig'imi

Korxonalar uning bo'limlari, uy xo'jaligi va fuqarolarga XXR hududida iqtisodiy hujjatlarni to'ldirish, berish va tasdiqlash huquqi berilgan tashkilot soliq to'lovchi hisoblanadi. Soliq stavkasi beriladigan hujjatlar (amalga oshiriladigan operatsiyalar) turiga qarab farq qiladi. Stavka 0,03 foizdan 0,4 foizgacha belgilanadi.

Oldin to'langan yig'im hujjatini dublikatiga va nusxasi berilganda, mulkni hukumat organlari, etim, qari va invalidlarga yordam beruvchi mehr- muruvvat tashkilotlariga o'tkazilganda, hujjatlarni rasmiylashtirganda, foizsiz yoki diskontlik kreditlarni (zayomlarni) rasmiylashtirganda Gerb yig'imi to'lanmaydi. Hitoy hukumati va moliya organlari, xorijiy davlatlar hukumati, xalqaro moliya tashkilotlari bilan imtiyozli kredit shartnomalari tuzganda ularni rasmiylashtirish, qishloq xo'jalik, o'rmon xo'jaligi va chorvachilik bo'yicha sug'urta shartnomasi rasmiylashtirilganda ham gerb yig'imi to'lanmaydi.

v) mulkni o'tkazishga solinadigan soliq

Hitoy hududida o'tkaziladigan mulkka mulk huquqi beriladigan huquqiy shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi. Soliq bazasi quyidagilardan tashkil topadi:

1) kelishuv bahosi - imoratni sotib olish va sotishdagi yoki davlat mulki hisoblangan yerdan foydalanish huquqi berilganda

2) Qo'chmas mulkni to'lovsiz berish (bezvozmezdno)ganda-yer imoratni harakatdagi bozor bahosidan kelib chiqib soliq organlari belgilagan mulk bahosi. Soliq stavkasi 3%-5% chegarasida belgilangan. Aniq stavkani ko'rsatilgan chegarada mahalliy hokimiyat belgilaydi.

Hukumat organlari, institutlar, mehr-muruvvat ko'rsatuvchi tashkilotlar, shaxsiy ehtiyojiga ishlatadigan harbiy korxonalar, hamda ilmiy ishlarni olib borish uchun kerakli maydonlar, tog', tepalik, plyajlar bilan band bo'lgan yerlar, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik, chorvachilik ehtiyojlari uchun ajratiladigan yerlar, diplomatiya vakolatxonalari va ularning xodimlari, urush va boshqa kuch ishlatish natijasida buzilgan uylar o'rniga yangisini qurish soliq to'lashdan ozod qilingan.

13.9. Bojxona boji

Soliq to'lovchilar tovarlarni import qilishga huquqi bor yuk oluvchilar, qonun bo'yicha tovarlarni eksport qiladigan yuk jo'natuvchilar hisoblanadi. Birinchilari import (olib kirish) bojxona bojini va ikkinchilari eksport (jo'natuvchi) bojxona bojini to'laydilar.

Soliq stavkalari ikkiga bo'linadi: import, eksport. Import boj stavkalari umumiy va imtiyozli bo'ladi.

HXR bilan imtiyozli soliq solish shartnomasi tuzilmagan mamlakatlarga nisbatan umumiy stavkalar qo'llansa, HXR bilan imtiyozli soliq solish shartnomasi tuzgan mamlakatlarga imtiyozli stavkalar qo'llanadi.

1999 yili boj klassifikatorida 6940 import qilinadigan tovarlar ro'yxati bo'lgan. 20 dan ortiq import bojini umumiy - 0%, 8% dan 270% gacha stavkalari va 50 dan ortiq imtiyozli - 0%, 1% dan 121,6% gacha (o'rtacha arifmetik stavka baravar 16,8%) stavkalar mavjud. Eksport bojini olib qarasak, 36 eksport qilinadigan tovarlarga 5 ta har xil -20% dan 50% gacha stavkalar qo'llaniladi. Bojni hisoblashda, qiymat yoki miqdori olinishi mumkin. Boj summasi import (eksport) qilinadigan tovarlar soni yoki tovarlarni qiymatini boj stavkasiga ko'paytirilganiga teng bo'ladi.

Yuklar (tovarlar) qiymati 10 yuandan kam bo'lsa; reklama buyumlari, sotishga mo'ljallanmagan tovarlarni nusxasi, xalqaro tashkilotlar va xorijiy vakolatxonalar bepul bergan tovarlar boj to'lashdan ozod qilinadi.

Ayrim imtiyozlar HXR boshqa mamlakatlar bilan tuzgan shartnomalarda ko'rilishi mumkin.

13.10. Davlat soliq solish ma'muriy organi

Davlat Soliq Solish ma'muriy organi* Hitoyda eng yuqori soliq organi hisoblanadi. Davlat kengashida vazirlik statusida hisoblanadi. Ushbu organning asosiy funksiyasi - davlat daromadlarini boshqarish va nazorat qilishdan iborat.

Asosiy vakolatlari:

- soliq qonunlarini ishlab chiqish, ularni bajarish bo'yicha yo'riqnoma va tushuntirish xatlari tayyorlash, moliya vazirligi bilan birgalikda soliq siyosati to'g'risida takliflar tayyorlash va ularni ko'rib chiqish uchun davlat kengashiga topshirish hamda ularni bajarish tartiblarini ko'rsatib berish;

- markaziy va mahalliy soliq organlarini vakolatini belgilaydi, soliq solish qoidalari yordamida mamlakatdagi makroiqtisodiy holatni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;

- soliq organlarini ishlash tartibi va qoidalarini tayyorlab berish, ularni bajarish ustidan nazorat qilish, mahalliy soliq organlarini joylarga borib ishi bilan tanishish;

- soliq tizimini isloh qilish to'g'risida takliflar tayyorlash;

- soliq qonunlarini va yo'riqnomalarni bajarilishi ustidan nazorat qilish, soliq siyosatini amalga oshirish;

- markaziy (shaxsiy) soliqlarni, boshqaruv soliqlarni, dehqonchilik solig'i, davlat fondlariga ajratmalarni yig'ish, boshqarish;

- davlat byudjeti daromadini loyihasini tayyorlash, kelishilmagan savollarni tushuntirish, soliqdan chiqazishlar va imtiyozlar berish ustidan nazorat qilish, xalqaro miqyosda soliq solish sohasida ma'lumot almashish va kooperatsiya qilishga yordamlashish, xalqaro soliq konvensiyalarida qatnashish, tuzilgan shartnoma va kelishuvlarni bajarish, eksport-importda yig'im va QQS ni qaytarish, yoki iste'mol solig'i ustidan nazorat qilishni tashkil qilish;

- kadrlar masalasini echish, ish haqi hajmiga bog'liq masalalarni echish, soliq ma'muriyati xodimlarini xarajatlarini boshqarish, mahalliy soliq organlarini boshliqlarini va boshliqlar muovini ishga olish va bo'shatish to'g'risida tavsiyalar berish;

- soliq xodimlarini professional va ma'naviy tayyorlash va o'qitish;

- soliq targ'ibotini tashkil qilish, soliq sohasida ilmiy izlanish, soliq agentlarini ro'yxatga olish.

* Davlat Soliq Solish Ma'muriyati - Hitoyda eng yuqori soliq organi bo'lib, Davlat Kengashida huquqi jihatidan vazirlik holatida bo'lib davlat daromadlarini boshqarish va nazorat qilish funksiyasini bajaradi.

Ma'muriyat rahbari va uning to'rtta muovini davlat kengashi tomonidan tayinlanadi. Bosh iqtisodchi va bosh buxgalter ma'muriyat boshliqlari

tarkibiga kiradi. Vazirlik tarkibida 14 funktsional departamentlar mavjud va har bir departament bir nechta bo'limlarni (boshqarmalar) o'z ichiga oladi.

Bosh boshqarmaga yuqori lavozimli shaxslar bo'limi, sekretariat, kuzatuvchi kengash, ilmiy-tadqiqot bo'limi, yangiliklar bo'limi va moliya bo'limlari kiradi.

Oborot solig'i boshqarmasi QQS, iste'molga solinadigan soliq, tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliqlarga javob beradi. Bundan tashqari, soliq tekshirishi boshqarmasi, moliya departamenti, rejalash va statistika boshqarmasi, kadrlar boshqarmasi, nazorat qilish departamentlari ham tashkil qilingan.

Yuqoridagilardan tashqari, soliq solish masalalari bilan ba'zi nodavlat institutlar, aloqa vositalari, ilmni oshiradigan markaz, xizmat ko'rsatish markazi, axborot texnologiyasi markazi, ilmiy tekshirish institutlari va boshqalar shug'ullanadi. Hudud, mintaqalar va mahalliy darajada ham soliq organlari tashkil qilingan. Mintaqalar va mahalliy soliq inspeksiya organlaridan tashkil topadi. Davlat ma'muriy soliq solish organining mintaqaviy bo'limlari to'g'ridan-to'g'ri ma'muriyat boshliqlariga bo'ysunadi. Ular funktsional organ bo'lib, o'z hududlaridagi soliqlarni yig'ishga javob beradilar. Mahalliy sharoitni hisobga olgan holda ular soliq qonunlari, yo'riqnomalar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqishga ham javob beradilar. Bo'limlarni boshliqlari va ularning yordamchilari ma'muriyat boshliqlari tomonidan tayinlanadi.

Hududiy bo'linmalarni bo'limlari 12 dan ko'p bo'lmaydi. Ular umumiy bo'lim, aylanmadan soliq bo'limi, foydaga solinadigan soliq bo'limi, rejalashtirish va moliya bo'limi, kadrlar bo'limi, nazorat bo'limi, soliq siyoati va boshqalardan iborat. Qo'shimcha ravishda hududiy bo'linmalar soliqni tekshirish byurosi, soliqni undirish byurosi, eksport va import ustidan soliq nazorati byurolarini tashkil qilishlari mumkin.

Mahalliy soliq inspeksiya organlari mahalliy ijro etuvchi organlar va yuqori soliq bo'linmalarini birgalikda boshqaruvida bo'ladilar. Yuqori soliq bo'linmalari pastki organlarni vertikal boshqaradi. Boshqacha qilib

ta'kidlanganda, kadrlar masalalari, tashkiliy masalalarni echadilar va xarajatlar smetasini asosiy ko'rsatkichlarini belgilab beradilar. 1999 yilning boshida HXR da 992000 kishi soliq xizmatchilari safida ishlagan. Umumiy xodimlardan 575000 xodim Davlat soliq solish ma'muriyatida va

416000 kishi mintaqaviy va mahalliy soliq inspeksiylarida xizmat qilganlar.

Asosiy tayanch iboralar:

- Davlat Soliq Solish Ma'muriyati
- Qo'shimcha to'lanadigan soliq
- Tamg'a yig'imi

Takrorlash uchun savollar:

1. HXRda soliqqa tortish sohasida vakolatga ega bo'lgan tashkilotlarni yoritib bering.
2. Hitoyda aylanmadan olinadigan soliq va qo'shilgan qiymat soliqlarini qiyosiy tavsifini bering.
3. Yashirin (o'zining) va boshqaruv daromadlari turlarini keltiring.
4. Xo'jalik faoliyati bo'yicha soliq (biznes soliq) ni ta'riflab bering.
5. HXR da qo'shimcha soliqlar nimadan iborat?
6. Tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliqni tushuntiring.
7. Operatsiya (harakatlarga) solinadigan soliqlar, ularning tarkibi va qisqacha tavsifini bering.
8. Maqsadli soliqlar va yig'imlar: tarkibi, qisqacha mazmuni.
9. Jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i ob'ektlarini ta'riflab bering.
10. HXR soliqlarni byudjet daromadi va yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i, o'zgarishlar, o'sish yo'nalishi.

Test savollari

1. Qaysi soliq markaziy soliq hisoblanadi?:
 - a) Yerni sotishga solinadigan soliq.
 - b) Asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq.
 - c) Iste'mol solig'i.
 - d) Mol- mulk solig'i.
 - e) Dehqonchilikka solinadigan soliq.
2. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olinganda qaysi stavka ishlatilmaydi?
 - a) 5%
 - b) 25%
 - c) 28%

- d) 40%
- e) 45%

3. Quyidagi daromadlarning qaysi turi jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar solig'iga tortiladi?

- a) Ilm sohasidagi yutuqlar uchun davlat bergan mukofot.
- b) Straxovaniya to'lovlari.
- c) Ishchi va xizmatchiga berilgan mukofot.
- d) Harbiy xizmatchilarga berilgan pul mukofotlari.
- e) Mehr- muruvvat tashkilotlari bergan nafaqalar.

4. Mulknii ijaraga berish natijasida olingan daromadga qo'llaniladigan stavkani ko'rsating.

- a) 19.
- b) 20.
- c) 30.
- d) 35.
- e) 5.

5. Qaysi soliq qo'shimcha soliq hisoblanadi?

- a) Mol mul solig'i.
- b) Tamg'a yig'imi.
- c) Qo'shilgan qiymat solig'i.
- d) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq.
- e) Xayvonlarni boqish va ko'paytirishga solinadigan soliq.

6. Mahalliy soliqlarga mansub bo'lmagan soliqni aniqlang.

- a) Daromad solig'i.
- b) Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanganlik uchun soliq.
- c) Bojxona organi yig'adigan iste'mol solig'i.
- d) Shaharlarni saqlash va qurish uchun soliq.
- e) Yerni sotish uchun soliq.

7. Hitoyda qaysi turdagi tovar (xizmatlar, bajarilgan ishlar) qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

- a) Sanoat korxonalarida etishtirilgan iste'mol tovarlari aylanmasi.
- b) Tijorat sohasidagi savdo aylanmasi.
- c) Fermerlar ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsotlari aylanmasi.
- d) Yo'lovchilar va yuk tashish transporti ko'rsatgan xizmatlar.
- e) Yerni ijaraga berish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar.

8. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ob'ektlariga qaysi daromad kirmaydi?

- a) Ish haqi.

- b) Yordamchi xo'jalikdan olingan daromad.
- c) Ko'rsatilgan xizmatga berilgan mukofot.
- d) Mualliflik gonorari.
- e) Olingan sug'urta to'lovlari.

9. Maqsadli soliqlar va yig'imlar tarkibiga kirmaydigan to'lovni aniqlang.

- a) Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanganlik uchun soliq.
- b) Shaharlarni saqlash va rivojlantirish uchun soliq.
- c) Shahar va tumanlar yeridan foydalanganlik uchun to'lov (yer solig'i).
- d) Asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq.
- e) Yerni sotishga solinadigan soliq.

10. Operatsiya (harakatlarga) solinadigan soliqlar guruhiga kirmaydigan to'lovni aniqlang.

- a) Avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanganlikka solinadigan soliq.
- b) Tamg'a yig'imi.
- c) Mulkni o'tkazishga solinadigan soliq.
- d) Qimmatli qog'ozlarning aylanishiga solinadigan soliq.
- e) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq.

XIV BOB. MISR ARAB RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

14.1. Misr Arab Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos hususiyatlari

14.2. Sotishdan olinadigan soliq

14.3. Xuquqiy shxslar to'laydigan foydaga solinadigan soliq

14.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

14.5. Mahalliy soliqlar va yig'imlar

14.1. Misr Arab Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos hususiyatlari

Misr – qadimgi fan va madaniyati rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Misrda davlat boshqaruvi shakllanishidan avvalroq soliqlardan foydalanganlar. Dehqonlar (fellaxlar)* asosan davlatniki hisoblangan yerlarni merosga o'tkazuvchi ijaraga oluvchilar hisoblangan. Dehqonlar (shaharlik hunarmandlar bilan birgalikda) yer o'lponi (solig'i) to'laganlar. Qo'shimcha ravishda aholidan jon boshiga solinadigan o'lpon (soliq) ham undirilgan. Yuqoridachilar bilan bir qatorda ma'muriy soliq ham yig'ilgan.

Bundan tashqari doimiy ravishda qo'shimcha ("favqulodda") o'lponi ham undirilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bizning eramizni boshida ham solq turlari kam bo'lmagan.

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan, hududi 1,0 mln.kv.kilometr, aholisi 70,0 mln. kishidan iborat. Ishga yaroqli aholisi 18,5 mln. kishini va ishsizlik 9,3 foizni tashkil etadi.

Davlat byudjetining 60 foizi soliqlardan va 40 foizi boshqa tushumlardan tushadi. 2002 yil soliqlardan 69,1 mlrd. funt va boshqa tushumlardan 25,0 mlrd. funt tushgan. Mamlakatda soliqlar bilan to'rtta asosiy boshqarma shug'ullanadi: umumdavlat soliqlari, savdodan soliq, bojxona va mulkdan to'lanadigan soliqlar boshqarmalari.

Misrda byudjet kamomadi 2005-2006 yili YaIMni 9,2%ni tashkil qildi. Davlat byudjetini asosiy daromadi Suvaysh kanalidan o'tadigan kemalardan olingan boj va undan keyin neftni qazib olish, turizmdan tushadi.

Misrda qonunchilik islom, ingliz, frantsuz aralash huquqchiligiga asoslangan.

Misr korxonalarini faoliyati har xil qonunlar bilan boshqariladi. Bu korporatsiya, investitsiya, yangi jamiyatlar va boshqalar to'g'risidagi

* Fellaxlar - asosan davlat yerlarini merosga o'tkazuvchi, ijaraga oluvchi dehqonlar

qonunlar. Chet el investori har xil tashkiliy - huquqiy korxonalar tashkil qilishi mumkin:

- xususiy tadbirkor;
- aktsioner jamiyat;
- chegaralangan javobgarlikka asoslangan yopiq aktsioner jamiyati;
- chet el kompaniyasining filiali.

Xususiy tadbirkor Misrda ruxsat etilgan har qanday biznesda ishtirok etishi mumkin. Ular bank, sug'urta va fondlar faoliyati bilan shug'ullanmaydilar. Bu shakldagi korxonalar faqat ozod zonalarda tashkil qilinishi mumkin.

Aktsioner jamiyatlar ochiq va yopiq bo'lishi mumkin. Misrni savdo reestridan o'tkazmasdan oldin ochiq va yopiq kompaniyalar 10% kapitalini misr bankida deponentga qo'yishlari kerak. Ochiq kompaniya o'zini aktsiyasini ochiq obunaga chiqarish va birjada aktsiyasini sotish huquqiga ega. g'piq kompaniyalarda obuna yopiq tarzda amalga oshiriladi, birjada aktsiyasi sotilmaydi.

Kompaniyalarni tashkil qiluvchilar soni eng kamida 3 ta va ko'pi bilan nechta bo'lishi chegaralanmagan. Chet el elliklar kompaniya aktsiyasini 100% egallash huquqiga egalar. Faqat nomi yozilgan aktsiyalarni bir xil qiymatda, eng kamida LE5 va LE1000 dan oshmagan qiymatda chiqaradilar. Kompaniya kuzatuv kengashining a'zolari eng kamida LE5000 aktsiyaga ega bo'lishlari kerak. Kompaniya chiqarilgan kapitalni 5% hajmida rezerv fond tuzishi va saqlashi majburiydir. Chet el kompaniyalari misrda filial ochishlari mumkin. Filiallar buxgalteriya hisobi olib borishlari kerak va xar yili soliq deklaratsiyasi topshiradilar.

Misrda soliq shartli ikki guruhga bo'linadi: to'g'ri soliqlar, egri soliqlar. Birinchisi o'z tarkibiga huquqiy va jismoniy shaxslarni daromad va foydalarini soliqqa tortishni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi tovarlar, xizmat va moliyaviy natijalarga egri soliq solishdan iborat. Misr xukumati asosan egri soliqqa suyanadi.

14.2. Sotishdan olinadigan soliq

Sotishdan olinadigan soliq - bu soliq 1991 yilgi qonun asosida kiritilgan va 2001 yili uni qo'llashni yangi bosqichlari belgilangan.

Umumiy sotishdan olinadigan soliq - Misr xududida sotiladigan va qo'rsatilgan xizmat qiymati ustiga qo'shish asosida aniqlanadi. Uning stavkasi 0 dan 30% gacha bo'ladi. O'zining mazmuni, Misrda qo'llash xususiyatlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'iga o'xshaydi.

Hozirgi davrda Misrda amaldagi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i olinishi ko'rsatilmagan.

Umumiy sotishdan olinadigan soliq Misrda kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq qatorida umumdavlat solig'i hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida esa sotishdan olinadigan soliq hududlar solig'i tarkibiga kiradi. Tovar ishlab chiqaruvchilar, import bilan shug'ullanuvchilar, xizmat ko'rsatish bo'yicha pudratchilar soliq to'lovchilar xisoblanadi. Keyingi yillar ular qatoriga ulgurji sotuvchilar va chakana sotuvchilar ham kiritildi. Soliq savdoga nisbatan qo'llanishi bilan chakana baho osha boshladi. Diplomatiya vakillari bu soliqdan ozod qilinganlar.

Sotishga solinadigan soliq ko'p toifa tovarlarga va ma'lum turdagi xizmatlarga (turizm, telekommunikatsiya, ko'ngil ochish tadbirlari) qo'llaniladi. Shu jumladan sotish maqsadida import orqali keltirilgan tovarlarga ham qo'llaniladi. Soliq stavkasi tovarlarga 10% dan (umumiy daraja) ma'lum tovarlarga 50% ga ham boradi. Xizmatlarga qo'llaniladigan soliq stavkasi 5%dan 10% gacha o'zgaradi.

14.3. Xuquqiy shaxslar to'laydigan foydaga solinadigan soliq

Misrda yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi qo'shma korxonalar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, yopiq aktsiyadorlik jamiyatlari, chet el korxonalari, chet el korxonalari filiallariga (agar filialning asosiy ofisi chet elda joylashgan bo'lsa) nisbatan qo'llaniladi.

Kapitalni sotishdan kelgan foyda oddiy foyda sifatida soliqqa tortiladi. Rezident korxonalarining chet el manbalaridan olgan dividendlari 32 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortiladi, lekin ularning chet elda to'lagan soliqlari hisobga olinadi (chegiriladi). Misr fond birjasida ro'yhatga olingan qimmatli qog'ozlardan olingan foizlar soliqdan ozod qilingan. Korxonalar zarar ko'rsa, shu ko'rgan zarari keyingi yilda olingan foydasidan chegirib qolinadi va soliqqa tortilmaydi. Misr soliq qonunchiligi bo'yicha sheriklik jamiyatlari soliqdan ozod qilingan. Sheriklik jamiyatlarining har bir a'zosi alohida jamiyatning umumiy foydasidagi hissasiga qarab soliqqa tortiladi.

Foydadan soliq olinganda hamma xo'jalik harajatlari daromaddan chiqazib tashlanadi (ularga amortizatsiya, foizlar, bojlar, umid qilib bo'lmaydigan, shubhalik qarzlari, arenda to'lovi, direktorlarni gonorari, adliya xarajatlari, uzoq yillik xizmati uchun to'lov, sotsial sug'urtaga ajratma va boshqalar kiradi. Harajatlar kelgusi davr foydasiga besh yilgacha muxlatga olib borilishi mumkin.

Uglevodorodlarni qazib olishni soliqqa tortish. Alohida bu soliqlar bo'yicha qonun yo'q, umumiy soliq qonunlaridan foydalaniladi. Shuni aytish kerakki, Misrda daromad, foyda solig'i bo'yicha qonun mavjud, qolgan soliqlar shu qonunlar bilan boshqariladi.

Gaz qazib oluvchi Misr kompaniyalari soliqni 40% stavka bilan foydalaridan to'laydilar. Neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar 40,55% stavka bilan to'laydilar. Mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniya, uni eksport qilishdan ham foyda olsa, stavka 32% hajmida qo'llanadi. Uglevodorodlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga imtiyozlar ham beriladi.

Neft va gazni ishlab chiqarish boshlangandan keyingi birinchi moliya yilidan boshlab imtiyozlar beriladi. Foydadan to'laydigan soliqdan 5 yilga ozod qilinadi. Agar kompaniya «Yangi sanoat zonasida» yoki yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda joylashgan bo'lsa, 10 yilga ozod qilinadi.

Qohiradan tashqari hududlarda, loyihalarni amalga oshiruvchi kompaniyalar 20 yilga ozod qilinadi. Neft va gaz qazish sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar qarz va garov bo'yicha shartnomalarni ro'yhatga olish yig'imi, notarial (gerb) yig'imlaridan ozod qilinadilar.

Misrda ko'chmas mulkni soliqqa tortish. Yer va undagi imoratlar (yashash uylari)dan foydalanish natijasida olgan foydalari soliqqa tortiladi.

Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishdan olingan foydadan olinadigan soliq yer solig'i stavkasi (14%) bo'yicha hisoblanib, bunda aniq yer uchastkasidan foydalanishdagi harajatlarni 20%ni chegirib tashlangandan keyin aniqlanadi.

Imoratdan olinadigan foydadan soliqni har yilgi imoratni renta qiymatini 10% stavkasini hisobga olgan holda imoratni ishlatib turish uchun ketgan xarajatni (20%)ni chiqazib tashlash asosida belgilanadi.

Misr Arab respublikasida suv ob'ektlari, o'rmon fondi, xayvonot dunyosi fondi va suv - biologik resurslaridan foydalanganlik uchun soliq olish ko'rilmagan.

Lekin suv ob'ektlaridan foydalanish qoidasiga xilof ravishda harakatlar yuz bergan hollarda va atrof-mitni iflos qilsalar, katta hajmda jarima to'laydilar (300 ming misr funti) yoki ozodlikdan mahrum qilinadilar (20 yilgacha). Lekin Misr Arab respublikasida ekologiya solig'i kiritilmagan.

Investitsiya qonuniga binoan chet el investorlari quyidagi faoliyatlar bo'yicha soliq va ma'muriy imtiyozlar oladilar:

- hosili past va tashlandiq yerlarni o'zlashtirish, melioratsiyalash;

- chorvachilik, uy parandalarini va baliqlarni ko'paytirish;
- yer osti boyliklarini sanoat usulida qazish;
- turistik biznesni rivojlantirish, mehmonxona, pansionatlarni ishlatib turish;
- sovutish mexanizmiga ega bo'lgan transportda mahsulotlarni furgonda tashish;
- issiqlikni saqlashni ta'minlovchi imoratlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash;
- aviatransportda jo'natish va u bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar;
- dengizda yuk tashish;
- ichimlik suvi bilan ta'minlashni qo'shgan xolda infratuzilmani tashkil qilish;
- tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan korxonalar kapitaliga qo'yilgan mablag'lar va boshqalar.

Ikki tomonlama soliq solishdan ozod bo'lish uchun Misr Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Hindiston, Jazoir, AQSh, Rossiya, Yaponiya va h.k. 38 davlat bilan shartnoma tuzgan. Sulx tuzilganda Misr foizdan daromad va royaltini soliqqa tortishni bekor qilishni talab qiladi. Chunki ularda dividendga solinadigan soliq yo'q.

Misrda korporatsiya foydasiga solinadigan soliq hajmi pasaytirilmoqda.

Birinchi iyul 2005 yildan Misrda yangi kodeks asosida soliq stavkasi pasaytirilib, 20%ga olib kelindi. Eski tartib bo'yicha sanoat va eksport kompaniyalari soliqni 22% stavka bilan va juda ko'p boshqa kompaniyalar 40% stavka bilan to'laganlar. Yangi soliq kodeksi fond birjasiga qilingan investitsiyadan olingan foydadan, aksionerlarga berilgan dividendlar, banklar bergan va obligatsiyadan olingan foizlar bo'yicha imtiyozlarni saqlab qoldi.

Ochiq savdo zonasidagi va sanoat zonasidagi kompaniyalar uchun berilayotgan hozirgi imtiyozlar bekor qilinadi. Hech bo'lmaganda bu tartib yangi kompaniyalarga nisbatan qo'llanadi.

14.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Bir nechta jismoniy shaxs birlashib, sheriklik korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Ushbu korxonalar yuridik shaxs emas, balki jismoniy shaxs deb qaraladi. Sheriklik korxonanining har bir a'zosi o'zi olgan daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshiradi va soliq to'laydi.

Soliq qonuniga asosan jismoniy shaxslar quyidagi keltirilgan beshta manbadan olgan daromadlari uchun har yili soliq stavkalari asosida soliq to'laydilar:

1) foyda olib keladigan yoki "harakatdagi» kapitaldan olingan daromadlar. Uning stavkasi kishi daromadidan 32 foiz, to'lov manbaida ushlab qolinadi. U asosan foizlarga (depozitdan olgan foizlardan tashqari), manbasi chet elda bo'lgan dividendlar (chet el soliqlari to'langanidan keyin), aktsiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi a'zolarining gonorarlari va xizmatlari uchun gonorarlarga nisbatan qo'llaniladi.

2) ko'chmas kapitaldan olingan daromadlar. Ulardan soliq 20 foizdan 48 foizgacha stavkada undiriladi. Soliq solish ob'ekti yer va ko'chmas mulkdan kelgan sof daromaddir.

3) tijorat va sanoat daromadlari. Soliq 20 foizdan 48 foizgacha bo'lgan tabaqalashgan stavkada undiriladi. Soliq solish ob'ekti bo'lib korporatsiya solig'i solinmaydigan korxonalarining sof tijorat ishlab chiqarish foydasi hisoblanadi.

4) kasb mahorati gonorarlari. Stavkasi 20 foizdan 48 foizgacha. Soliq solish ob'ekti bo'lib mustaqil kasb egalarining (yuristlar, muhandislar, buxgalterlar va hokozolar) sof gonorarlari hisoblanadi.

5) mehnat haqi. Mamlakat ichida yoki mamlakat tashqarisida to'langan ish haqi soliq ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Soliqqa tortilgan ish haqiga chet ellik ekspertlarga beriladigan oilaviy chegirmalardan tashqari hamma daromadlar kiritiladi. Soliq stavkasi progressiv bo'lib, sof daromadning 50000 funtigacha - 20 foiz, qolgan qismidan - 32 foiz miqdorida soliq undiriladi.

Misrda oxirgi yillari soliq stavkalari tushirilishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Foyda solig'ini eng yuqori stavkasi hozir 20% etib belgilangan.

Har bir soliq guruhi orasidagi pog'ona hajmi oshirildi. Bir yilga jismoniy shaxsni daromadi 5000dan 20000 misr funtini* tashkil qilsa (862\$ va 3448\$) foydaga solinadigan soliq 10% ni tashkil qiladi. Agar daromad 20000 dan 40000 gacha bo'lsa 15% va 40000 ortiq daromad bo'lsa 20% gacha foydaga solinadigan soliq olinadi. Moliya Vazirligining taxminlariga ko'ra, soliq imtiyozlari bir yilga 3,5 - 3,6 mlrd. funtni tashkil qilsa, uni o'rnini iqtisodiy faollikni oshirish hisobiga qoplash mumkin.

Shunday qilib, Misrda so'nggi 15 yilda huquqiy va jismoniy shaxslardan olinayotgan asosiy soliqlarni stavkalari sezilarli darajada pasaytirildi. Natijada soliq to'lovchilarning daromadi ko'payishiga,

* Bir misr funti 16.05.2006 yili 0,1735\$ga teng bo'lgan.

ijtimoiy ahvolni yaxshilanishiga, investitsiyaga katta e'tibor berilishiga va bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

14.5. Mahalliy soliqlar va yig'implar

Misrda quyidagi soliqlar ham mavjud:

- *Real mulk solig'i*. Ijara haqiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi: markazga uzoq yoki yaqinligi, uying mebel bilan jihozlanganligi, yo'lga yaqin yoki uzoqligi.

- *Tamg'a yig'imi*. Uning ob'ekti bo'lib ko'p turdagi hujjatlar, kafolat xatlari, turli bank hujjatlari, ro'yxatga olinmagan qimmatli qog'ozlar harakati, lizing va boshqalar hisoblanadi. Masalan, kompaniya tashkil

qilinayotganda 150-300 funt miqdorida, u tijorat faoliyati ro'yxatiga olinganida esa 15 funt miqdorida tamg'a yig'imi olinadi.

- *Meros va hadya solig'i*. Ushbu soliq meros va hadyalardan 3 foizdan 15 foizgacha bo'lgan stavkada undiriladi. 10000 funtgacha bo'lgan meros soliqqa tortilmaydi. Ushbu soliq ob'ekti bo'lib chet ellik fuqarolarning ko'chmas va harakatlanuvchi mulklari bo'lishi mumkin.

Norezidentlar esa faqat Misrda joylashgan ko'chmas mulklaridan soliq to'laydilar.

Yillik soliqqa tortiladigan daromadi 18000 misr funtidan oshgan jismoniy va yuridik shaxslar 2 foiz miqdorida rivojlantirish yig'imi to'laydilar.

1991 yilda "Tijorat solig'i to'g'risida" qonun qabul qilingan. Ushbu qonun ko'p turdagi tovarlar va ayrim turdagi xizmatlarga (asosan turizm, telekommunikatsiya xizmatlari va ko'ngil ochar xizmatlarga) nisbatan qo'llaniladi. Horijdan tijorat maqsadlarida import qilinadigan tovarlar ham soliq solish ob'ekti bo'ladi. Uning stavkasi 10 foizdan (asosiy stavka) 50 foizgacha (ayrim turdagi tovarlar uchun). Soliq tovar va xizmatlarning bahosiga qo'shiladi va iste'molchilar tomonidan savdo joyining o'zida to'lanadi. Tijorat korxonasi esa soliqni soliq idoralariga o'tkazib beradi.

Chet eldagi manbalardan daromad olgan soliq to'lovchi o'zining xorijda to'lagan soliqlari to'g'risidagi ma'lumotnomani ilova qilib, xorijda to'langan soliqlarni chegirib, Misr qonunlari bo'yicha hisoblangan soliq summasi o'rtasidagi farqni to'lashi mumkin.

Misrda soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlar muntazam olib borilmoqda.

Masalan, Misrda 2004 yili turistik faoliyat uchun yangi soliq turi kiritildi. Hukumat vakillarining fikricha bu soliqni kiritish mamlakat iqtisodiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi va Misrda dam oladigan chet elliklarni

sonini kamaytirmadi. Soliqni kiritish bilan turistlarga xizmat ko'rsatish bahosi ko'tarildi. Masalan, mehmonxona, restoran, avia uchishlar bahosi oldingi yilga nisbatan 5-10 foizga oshdi. Ilgari Misrga uchib keluvchi chet ellik 40 Misr funtini to'lasa, endilikda 50 funt to'laydi.

Misrda uylanish (nikoh) solig'i kiritish masalasi ham ko'tarilayapti. Agar amalga ohsa, shariat adliyasida uylanish kontraktini tuzganlarida 3 ming misr funtini (taxminan -500\$) yig'im sifatida to'laydilar.

Hozirgi vaqtda uylanish kontraktini tuzganda faqat 50 funt (\$6,5) gerb yig'im to'laydilar.

Asosiy tayanch iboralar:

- Tijorat solig'i tushunchasi
- Fellaxlar
- Uylanish (nikoh) solig'i

Takrorlash uchun savollar:

1. Qadimiy Misrda qanday soliq turlari bo'lgan?
2. Misrda qanday soliqlarni kiritish rejalashtirilgan?
3. Foydaga solinadigan soliqni qaysi turdagi korxonalar to'laydi?
4. Foydaga solinadigan soliq ob'ektlari
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortiladigan daromadlarning manbalari
6. - Nima uchun ish xaqidan olingan daromadga daromad solig'ini past stavkalari qo'llaniladi?
7. Real mulk solig'ini tushuntiring
8. Misrda qanday organlar mulk solig'ini boshqaradi?
9. Sotishdan olingan soliqni qo'shilgan qiymat solig'iga o'xshash xususiyatlari
10. Sotishdan olinadigan soliqni to'lovchilari guruhini ko'rsating.

Test savollari:

1. Huquqiy shaxslar to'laydigan foydaga solinadigan soliqni standart stavkasini belgilang?
 - a).55 foiz;
 - b).40 foiz;
 - c).32 foiz;
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar solig'ini qaysi stavkalar asosida olinadi?
 - a).Regressiv;
 - b).Progressiv;
 - c).Proportsional;

3. Daromad solig'ining qaysi stavkalari kapitaldan olingan daromadga qo'llanadi?

a) 20 foizdan 48 foizgacha;

b) 20 foizdan 31 foizgacha;

c) 32 foiz;

4. Ijtimoiy sug'urta ajratmalarini ishchilar qaysi hajmda to'laydilar?

a) 32 foiz;

b) 26 foiz;

c) 14 foiz;

5. Kompaniya ro'yhatga olinganida qanday hajmda tamg'a yig'imi to'laydi?

a) 20 foiz;

b) 15 foiz;

c) 12 foiz.

XV BOB. ROSSIYANI SOLIQ SOLISH TIZIMI

15.1.Soliq tizimini asoslari

15.2.Federal soliqlar

15.2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i

15.2.2. Korxonani foydasiga solinadigan soliq

15.2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

15.2.4. Aktsizlar

15.2.5. Bojxona boji

15.2.6. Yo'l fondi soliqlari

15.2.7. Meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq

15.2.8. Davlat boji

15.2.9. «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» va ular asosida tashkil topgan so'z va so'z birikmasi nomidan foydalanganlik uchun yig'im

15.3. Hududiy soliqlar

15.4. Xalq ta'limi muassasalarini ehtiyoji uchun olinadigan maqsadli soliq

15.5. Mahalliy soliqlar

15.1. Soliq tizimini asoslari

Rossiyani soliq tizimi uch darajadagi soliqlarni o'z ichiga oladi: federal, respublika va mahalliy. Bu o'z navbatida federativ davlatlarni soliq tizimiga to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarni soliq tizimi, uzoq yillar davomida amaliyotda sinaldi va ilmiy jihatdan asoslandi. Ular soliq tizimlarini isloh qildilar, federal, hududiy va mahalliy soliqlarni bir-biriga bo'lgan mutanosibligini aniqladilar, to'g'ri va egri soliqlarni mukammal darajalarini belgiladilar. Rossiyada XX asrda, soliq tizimi umuman bo'lmaydigan davlat qurilmasini topish muammosi bilan shug'ullandilar.

G'arb davlatlarida A.Laffer kontsepsiyasiga binoan soliq og'irligini kamaytirishga harakat qilindi, Rossiyada esa byudjetga foydadan ajratma to'lovi 90% gacha etib bordi. G'arbiy davlatlarda soliq orqali iqtisodni davlat boshqaruvini amalga oshirildi, unga iqtisodiy uslublar bilan istalgan yo'nalishi berildi, Rossiyada esa bu ma'muriy uslub yordamida bajarildi.

Rossiyada bir necha o'n yillar davomida tovar-pul munosabatlarini roli inobatga olinmadi. Moliyani roli bilan hisoblashmaslik 80-90 yillarda moliya inqiroziga olib keldi va pul muomalasini izidan chiqishiga sabab bo'ldi.

Aksariyat insoniyatni tarixiy rivojlanish bosqichlarida moliya davlat iqtisodi holatini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida xizmat qilib keldi. Asosan yuqorida ko'rsatilgan davrda moliya mamlakatni xo'jalik turmushidagi salbiy va noto'g'ri yo'nalishlarni to'liq va ob'ektiv ifodalab berdi. Ular quyidagilardan iborat edi: ishlab chiqarish tarkibini ratsional emasligi, uning past samaradorligi, hududiy, tarmoqlar va tarmoqlararo disproportsiyaligi (nomuttanosibligi), moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat unumdorligini pastligi, ilmiy-texnika rivojlanishida orqada qolishlik, kapital qo'yilmadan past moliyaviy foyda olish, iste'mol bozorida balansni yo'qligi va ularning natijasida - davlat harajatlarini daromadlaridan oshib ketishi, inflyatsion jarayonlarni o'sib borishi va umumiy byudjet defitsitini rivojlanishi yuzaga keldi.

Rossiya Federatsiyasida korxonalar, tashkilot va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni uch darajali tizimi kiritilgan.

Birinchi daraja - Rossiyaning federal soliqlari. Ular mamlakatni hamma hududlarida harakat qiladi, umumrossiya qonunlari asosida boshqariladi va federal byudjetni daromad qismini asosini tashkil qiladi. Bu soliqlar daromadni asosiy manbalari bo'lgani uchun, ularning hisobiga federatsiya sub'ektlarining byudjetlari va mahalliy byudjetlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlab beradi. Rossiyaning bozor iqtisodiyoti davrida harakat qilgan hamma soliqlardan (ular 30 dan 150 gacha bo'lgan), eng muhimlari beshta: qo'shilgan qiymat solig'i, foydaga solinadigan soliq, aksizlar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yer osti boyliklari va tabiiy resurslardan olinadigan to'lovlar. Ular byudjetni hamma darajalarini taxminan 70% soliq tushumini ta'minlab beradi.

Qolgan soliq va to'lovlarni kiritish yoki yo'qotish mumkin, undan federal darajada asosan sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. Reja bo'yicha 2001 yili Rossiya Federatsiyasi byudjetini daromad va harajat qismi 1193482,9 mln. rubl hajmida qabul qilingan. Uning ichki yalpi mahsulotga nisbati 15,4% ni tashkil qiladi. Bu oxirgi o'n yil davomida birinchi defitsitsiz byudjet hisoblanadi. Byudjet daromadida soliqlarning salmog'i 2000 yili 84,7% dan 2001 yili 93,5% ga ko'tarilishiga olib keldi.

15.1.-jadval

Rossiya Federatsiyasi federal byudjetining daromad qismini 2001 yilgi tarkibi*

	Daromadning turlari	Foiz hisobida
1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	43,27
2.	Aktsiz	15,76
3.	Bojxona boji	15,97
4.	Foydaga solinadigan soliq	14,47
5.	Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq	0,16
6.	Maqsadli byudjet fondlarini daromadi	1,16
7.	Soliqsiz daromadlar	5,38
8.	Boshqa soliqlar va bojlar	3,83

Rossiyani umumdavlat byudjeti asosan soliqlar hisobiga tashkil topgan. Soliqsiz daromadlarni salmog'i juda ham past. Soliqlar tarkibida etakchilik rolni egri soliqlar o'ynaydi. To'g'ri soliqlar ulushi deyarli sezilari darajada emas.

Rossiyada asosan G'arbiy mamlakatlarda harakat qilayotgan soliqlar qo'llaniladi, lekin ularning umumiy daromadda tutgan o'rni muhim darajada farq qiladi.

Masalan, 1998 yilni birinchi yarim yilligida Rossiyada daromad solig'i 13%ni tashkil qildi, Evropa davlatlarida esa 20 dan 30 foizgacha bo'ldi. Foydaga solinadigan soliq 19% va 5dan 10% gacha, bojxona boji 6% va 0,5 dan 1,5% gacha tashkil qildi.

G'arbiy mamlakatlarda, Rossiyaga nisbatan jismoniy shaxslar ko'proq soliq to'laydilar. Chunki nisbatan, xususiy mulkdorchilik keng rivojlangan, axolini moddiy turmushi yaxshi va aholisi yuqori soliq madaniyatiga ega. Ularda daromad solig'ini to'lash birinchi navbatda amalga oshiriladigan fuqorolik majburiyati hisoblanadi, uni bajarish qattiq nazorat qilinadi va bajarmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi va jazolanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, daromad solig'i asosan progressiv shkalaga (pog'onaga) asoslangan (boylar nisbatan ko'proq, kambag'allar kamroq to'laydilar) va aholi daromadlarini tenglashtirishga xizmat qiladi. Rossiya Federatsiyasida boshqa davlatlarga o'xshash ko'proq daromadli manbalar federal byudjetiga to'planadi.

Federal daromadlariga qo'yidagi to'lovlar kiradi:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- korxonalar va tashkilotlarni foydasiga solinadigan soliq;

* ж.Финансы, М.,2003, № 6

- aktsizlar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq;
- bojxona boji.

Keltirilgan beshta soliqlar davlatni moliya bazasini tashkil qiladi.

Ikkinchi daraja – Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar solig'i va o'lka, viloyat, avtonom viloyat, avtonom okruglar solig'i. Ularni hududiy soliqlar deb ham yuritiladi.

Quyidagi hududiy soliqlar o'rnatilgan (Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar solig'i, o'ka, viloyat, avtonom viloyat, avtonom okruglar solig'i):

1. Korxonani mol-mulkiga solinadigan soliq;
2. O'rmonchilik daromadi;
3. Suv xo'jaligi tizimidan sanoat korxonalarini oladigan suv uchun to'lov;
4. Huquqiy shaxslardan olinadigan ta'lim beruvchi muassasalar ehtiyoji uchun olinadigan soliq. Hududiy soliqlar umumrossiya qonunchiligi asosida federatsiya sub'ektlarini vakolatli organlari tomonidan belgilanadi. Hududiy soliqlarni bir qismi Rossiya federatsiyasini hamma hududlarida majburiy to'lov hisoblanadi. Bunday holatda hudud hokimiyatlari ma'lum darajada soliq stavkalarini boshqaradi va soliq engilliklari va ularni bartaraf qilish tartiblarini belgilaydi. Hududiy byudjetlarga eng ko'p daromadni huquqiy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i keltiradi. Bu asosan dunyo amaliyotiga to'g'ri keladi.

Lekin ayrim farqlar ham mavjud. Ko'pchilik mamlakatlarda huquqiy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq bilan jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni bir-biridan farq qilinmaydi, ko'pchilik vaqtda ularni bitta soliq deb hisoblanadi. Lekin, ayrim davlatlarda bu soliqni Rossiyacha tushunish hisobga olingan. Hudud byudjetlarini moliyaviy asosini ta'lim beruvchi muassasalarni ehtiyoji uchun olinadigan maqsadli soliq kuchli ta'minlab turadi. Faqat shu to'lov regional darajada ushbu tarmoqni rivojlanishi uchun mablag' etkazib beradi.

Uchinchi daraja - mahalliy soliqlar, yoki shaharlar, tumanlar, qishloq va h.k. soliqlari.

«Tuman» tushunchasiga soliq solish nuqtai nazaridan shahar ichidagi tumanlar kirmaydi. Vakolatli organlar (shahar Dumalari) Moskva va Sankt-Peterburgdagina hududiy va mahalliy soliqlarni belgilash, kiritish vakolatiga egalar. Mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq;
2. Yer solig'i;

3. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan ro'yhatga olish yig'imi;

4. Kurort zonalarida, oromgohlarda ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga solinadigan soliq;

5. Kurort oromgoh yig'imi;

6. Savdo qilish huquqi uchun yig'im;

7 - 9. Militsiya harajatini qoplash, hududlarni obodonlashtirish, ta'lim tizimi ehtiyojlari va boshqa maqsadlarga fuqarolar, korxonalar, muassasa va tashkilotlardan ularning tashkiliy-huquqiy tuzilish shakllaridan qat'iy nazar olinadigan maqsadli yig'imlar;

10. Reklama solig'i;

11. Avtomobillar, hisoblash texnikasi va kompyuterlarni qaytadan sotishga solinadigan soliq;

12. It egalaridan olinadigan yig'im;

13. Vino-arog mahsulotlarini sotish huquqi uchun olinadigan litsenziya yig'imi;

14. Mahalliy auksion va lotoreyalar o'tkazish huquqini olish uchun litsenziya yig'imi;

15. Kvartiraga order berish uchun yig'im;

16. Avtotransportni joylashtirish (parkovka) uchun yig'im;

17. Mahalliy simvolika (ramziy belgilardan) foydalanish uchun yig'im;

18. Otchoparda poygada qatnashish uchun yig'im;

19. Poygada yutganlik uchun yig'im;

20. Otchoparda totalizatoridagi o'yinda qatnashgani uchun yig'im;

21. Birjada amalga oshirilgan bitimdan yig'im (qonunda ko'rilgan qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasini soliq solishga tortish bitimidan tashqari);

22. Kino va telesur'atlarga olish huquqi uchun yig'im;

23. Aholi yashaydigan hududlarni tozalash uchun yig'im;

24. O'yin biznesini ochish uchun yig'im;

25. Uy-joy fondi va madaniy-oqartuv sohasi ob'ektlari ehtiyojini qoplash uchun soliq.

Byudjetga yirik tushumlarni quyidagi mahalliy soliqlar beradi:

- jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq;

- yer solig'i;

- reklama solig'i;

- uy-joy fondi va ijtimoiy madaniy sohalar ob'ektiga solinadigan soliq;

- boshqa mahalliy soliqlarni bir guruxi.

Rossiya Federatsiyasini byudjet tuzilishi, ko'pchilik Evropa mamlakatlari kabi soliqlar hududiy va mahalliy byudjet zvenolarini daromadida qo'shimcha manbaa sifatida qabul qilingan. Mahalliy byudjet daromadlarini tashkil topishida asosiy o'rinni federal soliqlaridan ajratmalar egallaydi.

Rossiya Federatsiyasini soliq tizimi byudjetni boshqarishni muhim vazifasini bajaradi.

Rossiyadagi 89 ta* milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarni mustaqilligini kengayishi va javobgarligini oshishi, ularning moliyaviy bazalarini federal soliqlarni qaytadan taqsimlash asosida mustahkamlanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echishni engillashtirmoqda. Biriktirilgan va boshqaruv soliqlari to'liq yoki qat'iy belgilangan foiz hisobida uzoq muddatga mo'ljallangan tartibda pastki byudjetlarga kelib tushadi. Gerb yig'imi, davlat boji, merosga berish yoki hadya qilish orqali olinadigan mulk bo'yicha soliq federal statusga (maqomiga) ega bo'lishlariga qaramay, odatda to'liq mahalliy byudjetlarga qoldiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarni foydasiga solinadigan soliq qat'iy belgilangan bo'laklarda: 13%+22% federal va hududiy byudjetlar o'rtasida taqsimlangan va ulardan mahalliy byudjetlarga ham ajratilgan. Aktsizlar, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari sharoitga qarab, hududlarni moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda taqsimlanadi. Ajratish foizlari o'zgarib turishi mumkin. Ajratma me'yorlari har yili federal byudjetni tasdiqlashda belgilanadi.

Huquqiy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq hududiy soliq bo'lishiga qaramay, qonunda belgilangan qoidaga asosan uning yarmi mahalliy byudjetlarga borib tushadi.

Biriktirilgan daromadlar bilan qoplanmagan byudjetni ayrim zvenolari, boshqaruv daromadlaridan ajratmalar, dotatsiya va subventsiyalar bilan to'ldiriladi. Mamlakatni soliq siyosati barcha darajadagi byudjet zvenolarini bir-biri bilan bog'lanishini va Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimini birligini ta'minlaydi. Byudjet tizimi davlatni byudjetdan tashqari fondi bilan to'ldiriladi. Fondning daromad qismi majburiy maqsadli ajratmalar hisobiga tashkil topadi. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bo'yicha byudjetdan tashqari fondga ajratma mutlaq soliq xarakteriga ega. Ajratmalarni manbai, soliq kabi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hisoblanadi, ajratma ish haqi fondi bilan bog'langan va mahsulotni (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladi. Har bir ish beruvchilar ish haqi fondidan 28% ini Davlat pensiya fondiga, 5,4%-ijtimoiy sug'urta

* 2005 yil 1 yanvar holatiga

fondiga, 1,5%-bandlik fondiga, 3,6%- majburiy tibbiy sug'urta fondlariga ajratganlar. Bundan tashqari har bir ishlovchi o'zining ish haqisidan 1% li Rossiya Federatsiyasini pensiya fondiga ajratgan.

Rossiyani hozirgi zamon soliq tizimi 1991-1992 yillardagi tubdan iqtisodni qaytadan tashkil qilish, bozor munosabatlariga o'tish sharoitidagi davrda yuzaga kelgan. Real soliq munosabatlarini boshqarishni yo'qligi, qonunlarni ishlab chiqish uchun qisqa muhlat ajratilganligi, mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz-ularning hammasi soliq tizimini tashkil topishiga ta'sir ko'rsatdi.

Rossiyani harakatdagi soliq tizimi horijiy mamlakatlarni tajribasi asosida tashkil qilingan. Shu sababli soliq tizimi umumiy tarkibi va tuzilish tamoyillari bo'yicha asosan dunyo iqtisodiyotida umumiy soliq solish tizimiga o'xshaydi. Lekin Rossiya soliq tizimini asosiy elementlari g'arbiy namuna (andozalar)ni to'liq ko'chirmasdan, o'zining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil topdi. RSFSR Oliy majlisining 27 dekabr 1991 yil qabul qilingan «Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi asoslari to'g'risida»gi qonunida soliq tizimini umumiy harakat qilish mexanizmi, soliqlar, yig'imlar, to'lovlar ro'yhati, ularni hisoblash va undirib olish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilarni majburiyatlari va javobgarligi aniqlanib berildi. Lekin, yangi soliq tizimini tashkil qilish jarayonida qonunshunoslar tomonidan bironta soliq-huquqiy tamoyillari ishlab chiqilmagan, soliq-terminologik vositalari tayyorlanmagan va h.k. kamchiliklar mavjud edi. Ularning hammasi Rossiyani moliya tizimiga va mamlakatda soliq siyosatini amalga oshirishda salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Rossiyani 1992 yilgi soliq modelini asosini ikkita soliq tashkil qildi. Ularning davlat byudjeti daromadidagi salmog'i asosiy o'rinni egallar edi, ikkita juft soliq, birinchisi - huquqiy va jismoniy shaxslarni mehnat va tadbirkorlik jarayonida yuzaga kelgan daromad (foyda)lariga va ikkinchisi- mahsulotni sotishdan olingan tushumga, xizmatga, boshqacha qilib aytganda aylanma (oborot)ga bog'landi.

Soliq va majburiy to'lovlarni ko'p bo'lishiga qaramay, jamlangan, ya'ni konsolidatsiya qilingan byudjetni soliq daromadlarini 4/5 qismini foydaga solinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hamda aktsizlar tashkil qiladi.

Jamlangan byudjetda 1996 yili umumiy soliqlar tushumida foydaga solinadigan soliqni salmog'i 26% ga yaqinni, tovarlar va xizmatlardan olinadigan egri soliqlar 43% ni (shu jumladan QQS –30%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 10% ni tashkil qildi. Shu bilan bir qatorda mol-mulk solig'i 8% va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun

to'lovlar atigi 4% hajmida bo'ldi. Mahalliy va hududiy soliqlar umumiy soliqlar tushumini 5%dan ortmagan qismiga to'g'ri keldi.

Soliqlarni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlashda va ularni belgilashda eski tartibga o'xshash, doimo federal byudjetni manfaati yuqori qo'yilganini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Soliq tizimni etakchi elementi sifatida Rossiya uchun yangi bo'lgan soliq-qo'shilgan qiymat solig'i yuzaga keldi. Bu soliq aktsizlar bilan birgalikda oldingi oborotdan olinadigan soliq va sotishdan olinadigan soliqlarni almashtirdi.

G'arbiy mamlakatlarda keng tarqalgan QQSni kiritish, Evropa bozoriga kelajakda qo'shilishni ta'min qiladi. Buning natijasida egri soliqlarni to'g'ri soliqlarga nisbatan yuqori o'rinni egallashiga olib keldi.

Egri soliqlar (QQS va aktsizlar) tizimini kiritishni asosiy maqsadi baholarni o'zgarishiga qarab, proportsional ravishda soliqlarni tushumini ko'paytirish yo'li bilan iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirishdan iborat edi. Shu bilan bir qatorda byudjetni daromad qismini ko'paytirish mo'ljallangan bo'lib, QQSni boshlang'ich stavkasi ham 28% ni tashkil qildi. Lekin, baholarga ko'ngilchanlik bilan qarash (liberizatsiya) natijasida yangi Rossiya solig'i ist'emol tovarlari va xizmatlarni qimmatlashishiga olib keldi va faqat daromad to'plash (fiskal) funktsiyasiga bajara boshladi. Agar Rossiyadagi to'g'ri soliqlar tarkibini g'arbiy mamlakatlardagi shunday soliqlar tarkibi bilan solishtirib ko'rsak, Rossiya soliq tizimini keskin farqi- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini salmog'i pastligidan bilamiz. Bu soliq iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish hamjamiyati mamlakatlarida umumiy soliq tushumini 30% tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda salmog'i jihatidan korxonaga foydasiga solinadigan soliq yuqori darajasi bilan ajralib turadi (iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish hamjamiyatiga kiradigan mamlakatlarda umumiy soliq tushumini 7% ini tashkil etadi). Shuning uchun Rossiyada o'tkazilayotgan soliq islohotining maqsadlaridan biri bosqichma-bosqich soliq og'irligini korxonaga va tashkilotlardan fuqarolarga o'tkazib borishdan iboratdir.

Rossiya soliq tizimini muhim kamchiliklaridan biri, uning barqaror emasligi va to'liq tartibga solinmaganligi. Soliq solishni yangi rejasini qabul qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi qonun ko'pchilik vaqtda moliya yili davrida amalga oshiriladi. Yangi yuzaga kelgan munosabatlarni me'yoriy boshqarish mavjud bo'lmaganligi uchun, yuzaga kelgan yangi kamchiliklar qo'shimcha qonuniy aktlar, soliq organlari va adliya amaliyotida tushuntirish va talqin qilish bilan to'ldiriladi. Soliq nazorati shakllari va usullari orasida kameral, hujjatli va yuzma-yuz qarama-qarshi

tekshiruvlar asosiy hisoblanadi. Kompyuter hisobi va soliq to'lovchilar hamda soliq ob'ektlari ustidan nazorat davlat organlari va majbur shaxslar tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida olib borish endigina tashkil qilinmoqda.

Yaqin yillar ichida Rossiyada yashab, daromad oluvchi va boshqa ob'ektlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslarni personal soliq hisobiga olishni global tizimini yaratish rejalashtirilgan va amalga oshirilmoqda. Soliq to'lovchilarni soliq to'lashdagi huquqlari va ularga javobgarlikni qo'llash va ularni huquqini davlat mashinasi oldida himoya qilish me'yoriy bazalarini mukammal emasligi hamda qonunsiz harakatlardan himoya qilish, zararlarni qoplash qoidalari to'liq ishlanmaganligi soliq tizimini yanada takomillashtirilishini talab qiladi. Soliq to'lovchilarni majburiyatlari ularning huquqlaridan talaygina ortiqroq belgilangan. Rossiya soliq tizimini xususiyatlaridan biri deb xorijiy soliq tizimlaridan uning «qattiqo'lligi»ni (keskinligi) hisoblash mumkin.

Soliq qonunchiligini buzganda eng yuksak darajada moliyaviy va ma'muriy choralar ko'riladi. Javobgarlikka tortishda, asosan fiskal maqsadga e'tibor qaratiladi, asoslanganligi, aybdorligi va adolatligi deyarli hisobga olinmaydi. Davlatni soliq to'lovchilar oldidagi javobgarligi asosan deklarativ xarakterga ega bo'lib, davlat organlari va javobgar shaxslarni noto'g'ri harakatlari deyarli jazolanmaydi. Shu bilan bir qatorda, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchilarni madaniyati darajasini pastligi va soliq qoidalarini to'liq ijro etilmasligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Keltirilgan asosiy ta'riflar shundan xabar beradiki, oxirgi yillari Rossiyani soliq tizimi jadal rivojlanishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlar soliq tizimiga nisbatan ancha past darajada ekanligi bilan ajralib turadi.

15.2. Federal soliqlar

Federal soliqlar quyidagilardan iborat:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i;
2. Korxonalarni foydasiga solinadigan soliq;
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
4. Aktsizlar;
5. Bojxona boji;
6. Yo'l fondiga olinadigan soliq;
7. Meros va hadya qilish orqali olingan mulkka solinadigan soliq;
8. Davlat boji;

9. «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» nomlaridan va ular asosida tuzilgan soʻz va soʻz birikmalaridan foydalanganlik uchun yigʻim.

15.2.1. Qoʻshilgan qiymat soligʻi

Qoʻshilgan qiymat soligʻi Rossiyada birinchi marta 1992 yili 28% li stavka bilan kiritildi va keyingi yillari toʻliq tashkil topdi va boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori darajadagi stavkasi bilan ajralib keldi. Hozir uning stavkasi 18% ga tushirilgan boʻlib QQS, ilgari harakatda boʻlgan oborot soligʻini oʻrnini olgan va bu borada soliq yigʻishni umumiy darajasini koʻtarishda va uni kelib tushish barqarorligini taʼminladi.

Aylanma (oborot) soligʻi (funktsiyasi boʻyicha) va 1991 yili harakatda boʻlgan sotishdan olinadigan soliq (soliq olish texnikasi)lardan meros sifatida QQSGa oʻtish soliq tizimini keskin oʻzgarishiga olib kelmadi va oʻsha davrga xarakterli bahoni umumiy oʻsishi deyarli sezilarli va yuqori darajada boʻlmadi, psixologik jihatdan, nisbatan bezarar (beozor) holda, amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida kam daromadli aholi qatlamini adresli yordam berish imkoniyati boʻlmaganligi uchun oziq-ovqat mahsulotlariga past stavkalar qoʻllash yoʻli bilan ijtimoiy adolatlik taʼminlab berildi.

Koʻp miqdorda boʻlmagan stavkalardan (asosiy, pasaytirilgan va nollik) foydalanish nisbiy baholarda sezilarsiz buzilishlarga sabab boʻldi. Ijobiy tomoni shundan iboratki, soliqni olish texnikasi uni toʻlashdan bosh tortishga imkoniyat bermaydi va natijada byudjetni mustahkamlaydi, soliq tizimini adolatligini taʼminlaydi.

15.2.-jadval

Qoʻshilgan qiymat soligʻini Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadida tutgan oʻrni.(trln.rubl)

Byudjet daromadlari	1994	1995	1997	2001
1.Tushum-hammasi:	134,5	164,1	435,6	1193,5
Shu jumladan:				
Federal byudjetga	47,3	68,7	194,8	
Hududlar byudjetiga	87,0	95,1	240,8	
2.Qoʻshilgan qiymat soligʻi	33,4	49,6	171,9	
Shundan:				
Federal byudjetga	19,9	26,5	128,9	
Hududlar byudjetiga	13,5	23,1	43,0	
3.QQS umumiy byudjet tushumidagi salmogʻi,%	24,9	30,2	39,5	43,3
Shu jumladan:				
Federal byudjetda	42,1	38,6	66,2	
Hududiy byudjetlarida	15,6	24,2	17,8	

Rossiya Federatsiyasida QQS egri soliq va bahoni ajralmas qismi sifatida tovar bozorida talab va taklifni boshqarish uchun qo'llaniladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1994 yili QQS Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadini 24,9% ini tashkil qildi. 1997 yilga bu soliqni kelib tushishi 39,5% hajmda rejalashtirilgan. Shu bilan bir qatorda federal byudjet daromadida QQS salmog'i 66,2% ga etgan va hududlar byudjeti daromadida 17,8% ni tashkil qiladi. QQS o'rnini va rolini baholash har xil: amaliyotchilar bu soliq byudjet daromadini juda yaxshi ta'minlab beradi deb hisoblasalar, tahlilchilar bu soliqni ortiqcha fiskal xarakterga ega ekanligini, soliq bazasini yaxshi ishlab chiqilmaganligini (aniqlanmaganligini) va uni hisoblash texnikasida kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadilar. G'arbiy iqtisodiy tizim modeliga QQS juda mos keladi va tovarga bo'lgan talabni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu soliq dunyoda 60 dan ortiq davlatni soliq tizimini elementi hisoblanadi va uni g'arbiy Evropa solig'i deb atashadi.

QQSdan foydalanishdagi g'arbiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, soliq o'zining universalligi sababli byudjetni tashkil qilishni keng bazasini yaratib beradi. QQS iqtisodiyotdagi qiymatlar darajasini tebranishini tekislaydi, oradagi farqlarni yo'qotadi, ziddiyatlarni tekislab yuboradi. Bu vazifani pul talablari va tovar takliflari o'rtasida tenglik mavjud bo'lgan davrda, tovar bozorini to'liqligi, tarmoqlararo foyda normasini nisbiy doimiyliigi, va kapitalni erkin ravishda oqib o'tishi sharoitida bajaradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i soliq va to'lovlar ichida eng muhim va shu bilan bir qatorda, uni hisoblashda, eng murakkab soliq deb ham yuritiladi. Bu soliqni boshqa birorta kategoriyadagi soliqqa tenglashtirib bo'lmaydi. Hozirgi kundagi bu soliqni undirish sharoitiga qarab, QQS aralash, ko'p ob'ektlilik soliq hisoblanadi.

Soliqni to'lash og'irligi oxirgi iste'molchilar zimmasiga tushadi. Shuning uchun, uni egri soliqlar turkumiga kiritishadi. Lekin tovarlarni (ish, xizmat) korxonada ichida o'zining ist'emoli uchun sotilsa, xo'jalik usulida bajarilgan qurilishni soliqqa tortilganda va boshqa holatlarda QQS to'g'ri soliqlar belgisini o'ziga qabul qilib oladi.

«Qo'shilgan qiymat» tushunchasi ham bir xil tariflanmaydi. Dunyoni har xil mamlakatlarida bu tushunchani ifodalashda o'zlarining konstruktsiyalaridan foydalanadilar.

Bir tomondan, qo'shilgan qiymatni ish haqi summasi (V) va olingan foyda (M) yig'indisi va boshqa tomondan, tovarlarni sotishdan olingan tushum (O) va qilingan harajatlarni (I) farqi sifatida ko'rish mumkin. Shu

ikki usulga asoslangan holda QQSni hisoblashda to'rtta mexanizmnini qo'llasa bo'ladi:

1. $R (V+M)$;
2. $RV + RM$;
3. $R (O-I)$;
4. $RO - RI$

Bu yerda R – soliq stavkasi.

Soliqni hisoblashni uchinchi usuli ham mavjud. Soliqni hisoblashda har xil mexanizmlardan foydalanish imkoniyati bo'lganligi uchun, QQSni hisoblash tartibini qonuniy belgilanganligi muhim bo'ladi. Rossiya Federatsiyasida oxirgi variantga asoslangan. Lekin, shuni ta'kidlash kerakki, qonunshunos bu kontseptsiyaga to'satdan kelib to'xtagani yo'q.

QQSni olish tartibini aniqlovchi asosiy hujjat Rossiya Federatsiyasini 6 dekabr 1991 yil «Qo'shilgan qiymat solig'i to'g'risida»gi 1992 yilgi 1-sonli qonuni (keyingi o'zgarishlar bilan) hisoblanadi.

Soliq ishlab chiqarish va muomalani hamma bosqichlarida yuzaga kelgan qo'shilgan qiymatni bir qismini byudjetga olish shakli hisoblanadi. Uni sotilgan tovarlar, ish va xizmatlar qiymati bilan, ishlab chiqarish va muomalani moddiy harajatlari qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi, soliq solinadigan oborot (aylanma) sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida ularga qo'llaniladigan baho va tariflardan kelib chiqib, QQSni qo'shmasdan aniqlanadi. Soliq solinadigan oborotga, moliya yordami tariqasida korxonani sotgan tovarlari yuzasidan olingan pul mablag'lari summasi, maxsus yo'nalishga ega bo'lgan fondlarni to'lg'azish uchun pullar yoki foydani ko'paytirish uchun ajratilgan mablag'lar, kelgusida jo'natiladigan tovarlar yuzasidan olingan avanslar, to'lovlar va to'lov hujjatlari bo'yicha sotilgan tovarlarga qisman tulashtirish yo'li bilan kelib tushgan pullar kiradi.

Tovarlarni almashtirishda, ularni bepul (haq to'lamasdan) berish yoki qisman to'lash yo'li bilan o'tkazish, hamda ularni tanarxidan yuqori bo'lmagan bahoda sotganlarida, soliq solinadigan oborot bozor bahosidan kelib chiqqan holda va bu baho Rossiya Federatsiyasi xukumiati tomonidan korxonalar-monopolistlariga belgilangan oxirgi, darajadagi rentabellikdan kelib chiqib, haqiqiy tannarxi va foydasini hisobga olgan holda belgilanadi. Korxonani ichida ishlatiladigan o'zi ishlab chiqargan tovarlarni ular bo'yicha harajatlarni ishlab chiqarish va muomala harajatlariga o'tkazib borilmaydigan bo'lsa, soliq solinadigan oborotni aniqlash uchun ularning qo'llaniladigan baho asosida aniqlangan qiymati olinadi. Agar bunday baholar bo'lmasa, haqiqiy tannarxida hisoblanadi.

Yana tovarlar berilgan xom-ashyolar (izdavalcheskiy) asosida tayyorlanganda, soliq solinadigan oborot xom-ashyoni qayta ishlash harajati hisoblanadi. Chakana savdo korxonalarida soliq solinadigan oborot tovarlarni sotishda ularni sotish baholari bilan QQS summasi qo'shilgan sotib olish baholari o'rtasidagi farq hisoblanadi. Tovarlarni auktsion tartibda sotilgan vaqtda, ham shu tartibda aniqlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash tashkilotlarida soliq solinadigan oborot, buyurtmachi tomonidan qabul qilingan, bajarilgan ishni qiymati hisoblanadi. QQSni ushbu ishlar bo'yicha hisoblash, realizatsiya hisob raqamlarida ko'rsatiladigan summadan kelib chiqiladi.

Soliq solinadigan bazaga import tovarlari bo'yicha tovarni bojxona qiymati, bojxona boji va aktsizli tovarlarda aktsiz summasi ham olinadi.

QQS ni hisoblash uchun sotilgan mahsulotni umumiy hajmidan, tovarlarni etkazib beruvchidan sotib olingan tovar qiymati chiqarib tashlanadi. Soliq summasi sotib oluvchilardan sotilgan tovar bo'yicha olingan soliq va tovar etqazib beruvchilarga ishlab chikorish harajatiga qo'shiladigan material resurslar va xizmatlar qiymati buyicha to'langan soliqlarni farqi sifatida aniqlanadi. Ushbu soliq bazasi etarli darajada barqaror (turg'un) hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, QQS iste'moldan olinadigan egri soliq hisoblanadi. Soliq sotish-olish akti amalga oshirilayotgan vaqtda olinadi. Bu jarayon mahsulot (ish, xizmat) oxirgi ist'emolchiga etib borishiga qadar davom etadi. Buning natijasida ishlab chiqarish va muomalani hamma bosqichlari soliq solish bilan, har bir soliq to'lovchi real qatnashishi qo'shib olib boriladi.

Texnik mexanizmi bo'yicha QQS juda qulay va soliqni tezda byudjetga tushishini ta'minlaydi. QQSdan eksport qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar), passajir transporti xizmati, kvartira to'lovi, ayrim moliyaviy operatsiyalar, patent-litsenziya operatsiyalari, ayrim umumiy ovqatlanish korxonalarini o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlar, sotsial sohadagi xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar, byudjetdan moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, to'lovli tibbiy xizmat, natura ish haqi to'lash hisobiga sotilgan qishloq xo'jalik korxonalarini mahsulotlari, halq tasviriy san'ati, hunarmandchilik korxonalarini mahsulotlari, Rossiya Federatsiyasi hududiga olib kiriladigan ayrim tovarlar-turi, huquqiy shaxs tuzmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar ozod qilinadi.

1995 yili 25 apreldan qabul qilingan «Rossiya Federatsiyasini qo'shilgan qiymat solig'i» qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish

to'g'risidagi» federal qonunda, yangi me'yorlar belgilanib, QQSni undirib olish tartibiga o'zgartishlar kiritildi. Tayyorlov, ta'minot va sotish, ulgurji va boshqa tovarlarni sotish va qaytadan sotish korxonalarida soliq solinadigan oborotni aniqlashga o'zgartishlar kiritildi (chakana savdo va ijtimoiy ovqatlanish tovarlari qo'shilmaydi). 1995 yilni may oyidan boshlab bu korxonalar soliq solinadigan oborotni aniqlashda sotib oluvchilardan olingan QQS summasi bilan tovar etkazib beradiganlarga to'langan QQS summasi o'rtasidagi farqni oladigan bo'ldilar, avvalgidek ustama, qo'shimcha (nadbavka) summalardan olinmaydigan bo'ldi.

Ko'rsatilgan savdo korxonalariga qaytadan sotishga olingan tovarlar bo'yicha byudjetdan QQS summasi o'rnini to'ldirish uchun beriladi, etkazib beradiganga to'langandan keyin tovarni haqiqiy sotilishi hisobga olinmagan holda byudjetdan qoplash amalga oshiriladi. Tovarlarini etkazib berish yuzasidan beriladigan avanslardan QQS avansni va oldindan to'lashni umumiy summasidan olinadi. Vatan va xorijiy korxonalar uchun ularni tadbirkorlik faoliyati olib borishga teng sharoit yaratilgan. Rossiya hududida tovarlarini sotuvchi va Rossiya soliq organlarida ro'yhatdan o'tmagan chet el korxonalar bo'yicha QQS to'lash javobgarligi rossiyalik soliq to'lovchiga yuklatilgan.

Soliqni olish chet el korxonasiga yoki shu korxonaga ko'rsatgan shaxsga to'langan pul hisobiga byudjetga to'langan pul valyutasida o'tkaziladi.

Rossiya korxonasi chet el korxonasi uchun QQSni to'lagandan keyin, chet el korxonasi o'zini Rossiyada tadbirkorlik faoliyati o'tkazish davrida to'lagan QQSni qaytarib berishni (o'rnini to'ldirishni) talab qiladi. Hisob-kitob hujjatlarini to'ldirishda (schet-faktura, ishni bajarganligi to'g'risida akt, xizmatlar uchun schetlar va boshqalar) QQS summasi alohida qatorda ajratib ko'rsatiladi. Bu shart bajarilmaganda, banklar hujjatlarni qabul qilishi shart emas. QQS olinmaydigan tovarlar bo'yicha hujjatlar to'ldirilganda, ularga shtamp qo'yiladi yoki «QQSsiz» deb yoziladi.

Soliq stavkasi 1992 yili kiritilgan davrdan beri bir necha marta o'zgartirildi. Boshlang'ich soliq stavkasi 28% etib belgilangan edi. Ammo bozorda etarli darajada tovarlar bo'lmaganligi, baholarni erkinlashtirishni (liberizatsiya) QQSni kiritish bilan bir vaqtda boshlanganligi, inflyatsiyani rivojlanishi sharoitida stavkani juda yuqori bo'lib qolishiga olib keldi. Lekin ko'pchilik mamlakatlarda stavka darajasi past bo'lib, qator tovarlar bo'yicha engil stavkalar qo'llanilar edi. Shu munosabat bilan soliq stavkasi tushirildi va ikkita asosiy stavka belgilandi- standart va pasaytirilgan. Standart stavka (20%), pasaytirilgan stavka qo'llanmaydigan hamma operatsiyalarga belgilanadi. Pasaytirilgan stavka oziq-ovqat tovarlari

uchun 10% (aktsizli tovarlardan tashqari), Rossiya Federatsiyasi hukumati tasdiqlagan ro'yhat bo'yicha bolalar uchun tovarlar, don, shakar xom-ashyosi, baliq uni, baliq va dengiz mahsulotlari (texnik maqsadlarga foydalanish uchun sotilganda) em ishlab chiqarish va dori-darmon mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha qo'llaniladi. Tovarlarni (ish, xizmat) sotishda tovar (ish, xizmat) bahosi QQS summasiga ko'payishi kerak.

Baho tarkibidagi soliq summasini aniqlashda soliqni hisob-kitob qilish stavkasi olinadi. Raschyot (hisoblash) stavkasi, alohida, mustaqil (uchinchi) stavka hisoblanmaydi.

Soliqni hisobga olib tashkil qilingan baho tarkibida QQS salmog'ini hisblangan stavka aniqlaydi. Uni quyidagi tartibda aniqlaydilar:

1. 100% - QQSsiz tovar bahosi;
2. 20% - QQS summasi;

Ja'mi: baho QQSni hisobga olgan holda - 120%

Soliq salmog'ini ja'mi baho tarkibida aniqlash uchun quyidagi proportsiya tuziladi:

1. 120% - 100%
2. 20% - x

$$X = \frac{20\% \times 100\%}{120\%} = 16,67\%$$

Shu tartibda hisob-kitobni pasaytirilgan stavkasi hisoblanadi va u 9,09% ni tashkil qiladi.

Yoqilg'i va moylash materiallarini (YoMM) avtomobillarga quyish stantsiyasida naqd pulga sotib olinganda hisoblangan stavkani boshqa turi – maxsus stavka qo'llaniladi. Bu stavka 13,79% ni tashkil qiladi. Chunki yoqilg'i va moylash materiallari baholarida faqat QQS emas, YoMM sotishdan olinadigan soliq ham ko'rsatiladi.

YoMMni umumiy bahosi = 100% (sotib olish bahosi)+20% (QQS)+25% (YoMMga soliq)+ sotish ustamasi.

Hisoblangan stavkani hajmi umumiy stavkani o'zgartirilganda o'zgaradi. (Masalan, QQS stavkasi 28% bo'lsa, hisoblangan stavka 21,88% ni tashkil qiladi).

Shunday qilib, har qanday hisoblangan stavka (16,67; 9,09 va 13,79%) umumiy tartibda standart stavka bilan soliq solish kerakligini ko'rsatadi.

QQS bo'yicha me'yoriy hujjatlar, mustaqil stavka hisoblanmish maxsus soliq stavkalarini ko'rsatadi. Ular o'zining hajmi bo'yicha hisoblangan stavkalarga (16,67 va 9,09%) to'g'ri keladi, lekin mazmunan

o'zga ma'no kasb etadi. Maxsus stavkalar tovarlarni sotish (sotish, ish, xizmat) bo'yicha shartnomadagi majburiyatlarni bajarmaganligi uchun olinadigan shtraflar summasi, penya va jarima (neustoyka)larga qo'llaniladi. Shu tarzda, QQS stavkalarini ta'riflaganda ularni standart, pasaytirilgan, hisoblangan va maxsus (standart va pasaytirilgan) stavkalarga bo'lish kerak.

Soliq stavkalarini oziq-ovqat tovarlari va oziq-ovqat hisoblanmagan tovarlar bo'yicha tabaqalashtirish dunyo tajribasiga to'g'ri keladi va bu tartib AQSh, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya va boshqa qator mamlakatlarda qo'llanadi. Lekin stavkani 8 ta punktga va ba'zi tovarlar bo'yicha 18 ta punktga pasaytirish o'z vaqtida byudjet daromadida sezilarli bo'ldi. Chunki tushib qolayotgan daromad o'zni boshqa manbalar bilan to'latilmagan edi. Hozirgi davrda 20% ni o'rniga 18% li stavka qo'llanilayapti. Bu ham byudjetga ta'sir ko'rsatadi.

Rossiyada soliq stavkasini o'zgarishi mustaqil davlatlar hamdo'stligi a'zolari bilan savdo munosabatlarini og'irlashtirdi. Ilgari 28% yagona stavka edi. Endi past stavkada Rossiya tadbirkorlari noqulay sharoitga tushib qoladigan bo'ldi va undan qolgan a'zolar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuning uchun MDH a'zolari bilan savdo munosabatlarini boshqarish uchun QQS to'g'risidagi qonunga yana bitta o'zgartish kiritishga to'g'ri keldi: o'zaro hisob-kitoblarda ikki tomonda bir xil stavka, ya'ni qaysi mamlakatniki yuqori bo'lsa, o'sha stavka qo'llaniladigan bo'ldi.

QQSni hisoblash ancha chalkash jarayon hisoblanadi. Chunki byudjetga ajratiladigan soliq tovar sotib oluvchilardan olingan QQS summasi bilan ishlab chiqarishda ishlatilgan moddiy resurslar uchun to'langan QQS summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

1-bosqich. Qazib oluvchi ishlab chiqarish tarmog'ini korxonasi.

Moddiy resurslarni 120 shartli pul birligida (sh.p.b.), ya'ni \$ da sotib oldi. Shundan QQS- 20 \$, tayyor mahsulot sotilgan - 240 \$, shu jumladan QQS - 40 \$

Byudjetga to'lanishi kerak: $40 - 20 = 20$ \$

2-bosqich. Korxonasi-ishlab chiqaruvchi moddiy resurslarni - 240 sh.p.b. sotib oldi, shu jumladan QQS - 40 sh.p.b.

Tayyor mahsulotni sotdi - 360 sh.p.b, shu jumladan QQS - 60 sh.p.b.

Byudjetga to'lanishi kerak: $60 - 40 = 20$ sh.p.b.

3-bosqich. Savdo korxonasi.

Tovar sotib oldi - 360 sh.p.b, shu jumladan QQS- 60 sh.p.b.

Tovar sotdi - 480 sh.p.b., shu jumladan QQS -80 sh.p.b.

Byudjetga to'lanishi kerak: $80 - 60 = 20$ sh.p.b.

4-bosqich. Oxirgi ist'emolchi.

Tovar sotib oldi - 480 sh.p.b., shu jumladan QQS - 80 sh.p.b

Shunday qilib, har bir bosqichda oxirgi ist'emolchini hisobga olgan holda, byudjetga beriladigan QQS summasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$QQS(\text{byudjet}) = QQS(\text{olingan}) - QQS(\text{to'langan})$

QQS bo'yicha uch turdagi to'lash muxlati belgilangan: umumiy, imtiyozli va maxsus.

Soliq to'lovchilar soliqni (umumiy muxlat) har oyda o'tgan kalendar oyga kelgusi oyni 20 kundan kechiktirilmagan muxlatda to'laydilar.

Bunda korxonalar ikki guruhga bo'linadilar:

1. Guruh o'rtacha bir oylik to'lovi 10 mln. rubl.

Korxonada dekada to'lovlarini (avans soliq ajratmasi) 15,25 va 5 kunlarida 1/3 hajmida oxirgi oylik hisob-kitobda ko'rsatilgan summadan byudjetga to'laydi.

2. Guruh o'rtacha bir oylik to'lovi 3 mln. rubldan 10 mln. rublgacha summada bo'lgan dekada to'lovi bermaydiganlar.

Soliq to'lashni imtiyozli muxlati (har kvartalda o'tgan kvartal uchun, hisobot berilgan kvartaldan keyingi oyni 20 kundan kechiktirilmay) soliqni o'rtacha oylik to'lov hajmi 3 mln. rublgacha bo'lgan korxonalar va kichik korxonalar uchun belgilangan.

Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga soliq to'lashni boshqa davr va muxlatlarini belgilash huquqi berilgan. Maxsus soliq to'lash muxlati temir yo'l va aloqa korxonalariga belgilangan.

Soliq to'lovchilar, o'zlari joylashgan hududdagi soliq organlariga QQS hisob-kitobini, hisobot davriga belgilangan soliq to'lash muhlatida topshirishlari kerak. Oylik va kvartal hisob-kitoblarini va shu bilan birga shu davrga soliq to'lash muxlati dam olish kuni (ishlamaydigan) va bayram kunlariga to'g'ri kelganda, uni dam olish kuni va bayram kundan keyin keladigan birinchi ishchi kuniga o'tkaziladi. Soliq to'lovchilar hisob-kitobni (deklaratsiyani) pochta orqali jo'natadigan bo'lganlarida, topshirish muxlati pochtaga hisob-kitobni topshirgan kuni hisoblanadi. Soliqni hisob-kitob qilishda to'langan QQS summasi, hisobga olinadigan (zachet) summa deb yuritiladi. Yuqorida ko'rilgan formuladan ma'lum bo'lishiga, soliq okladini to'g'ri belgilash uchun quyidagi holatlarni hisobga olish kerak:

1) olingan QQSni aniqlash tartibi;

2) hisobga olinadigan QQS summasini aniqlash;

3) hisobga olish (zachyot) muxlatini aniqlash.

Olingan QQSni vaqtini aniqlash uchun soliq solinadigan oborotni yuzaga kelish vaqti olinadi.

Hozirgi vaqtda mahsulotni sotishdan olingan tushumni, soliq to'lovchi tomonidan aniqlash usuli qo'llaniladi (tovarlar uchun pul to'lash vaqti yoki mahsulotni jo'natish vaqti).

QQS bo'yicha hisob-faktura usuli kiritilgandan keyin soliq solinadigan oborotni vaqtini belgilash ham o'zgartirilishi taklif kilindi. Agar «jo'natish (to'lash)» uslublarida printsipial vaqt jo'natish (to'lash) amalga oshirilgan haqiqat bo'lsa, hisob-faktura uslubida esa soliq solinadigan oborot maxsus soliqni hisobga oladigan hujjat - hisob-fakturani yozib berish vaqti hisoblanadi. Shunday qilib, hisob-faktura uslubi - bu shunday soliq solish oborotini aniqlash tartibi hisoblanadiki, unda hisob-fakturani hisobga olish muxlati bilan bog'liqlik bo'ladi.

Ushbu uslubni asosiy belgilari qo'yidagilardan iborat:

1. Mustaqil soliq hujjatlarini – schet-fakturalarni mavjudligi.

Ya'ni hisob-faktura buxgalteriya ahamiyatidan tashqari, yangi soliq huquqiy holatiga ega. O'zining ahamiyati bo'yicha hisob-faktura birinchi navbatda buxgalteriya hisobi emas, soliq hujjati hisoblanadi.

2. Soliq solinadigan oborotni kelib chiqishi va soliq solinadigan bazani hisoblash schet-fakturalarni mavjudligi bilan bog'liq.

Shunday qilib QQS bo'yicha soliq solinadigan oborot mahsulotni jo'natgan vaqtida emas, tovarga pul to'langan muxlatida emas, tovarga bo'lgan mulkdorchilik huquqini o'tgan vaqtida emas, schet-fakturani tuzgan vaqtda kelib chiqadi. Hisobga olinadigan QQS summasini aniqlashda shunga e'tibor berish kerakki, soliqni hamma summasi soliq to'lovchiga qaytarilmaydi.

Korxonadan to'langan QQS summasi quyidagi manbalar hisobiga qoplanishi mumkin:

1). Hisobga olishga o'tkazib boriladi: harajati mahsulot tannarxiga o'tkazib boriladigan moddiy resurslar, hamma engilliklar berilmaydigan operatsiyalar va ayrim QQS dan ozod qilingan tovarlar (ish, xizmatlar);

2). mahsulotni tannarxiga o'tkazib boriladi: agar QQS summasi hisob-kitob hujjatlarida alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, mahsulot tannarxiga o'tkazib boriladigan moddiy resurslar va ayrim QQSdan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

Qolgan hamma holatlarda korxonadan mablag'i hisobiga qoplanadi.

To'langan QQS summasini hisobga olish (zachyot), umumiy qoida bo'yicha, quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

- material resurslar uchun to'lash yuz bergani;
- mahsulotni kiringa olish (mol-mulkga ruxsat berish huquqini olgandan keyin) yuz bergandan keyin.

Mahsulotlarni eksport qilishda engillik beriladigan operatsiyalar bo'yicha maxsus hisobga olish tartibi o'rnatilgan. Eksport qilinganda QQS summasini qaytarib berish faqat tovar haqiqiy eksport qilinganligi tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

QQS bo'yicha soliq solinadigan oborotni kelib chiqish muxlati bilan to'lagan QQSni qaytarib olish huquqiy vaqti bir-biriga huquqiy to'g'ri kelmasligi mumkin.

Demak, Evropa davlatlarida va qator boshqa davlatlarda keng tarqalgan QQS Rossiya Federatsiyasida ham yoppasiga qo'llaniladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, QQSni qator ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning kamchiliklari ham mavjud. Shu sababli AQSh, Yaponiyalarda egri soliqlarga shu jumladan, QQSGa o'tishga shoshqaloqlikka yo'l qo'yilmayapti.

15.2.2. Korxonani foydasiga solinadigan soliq

Federal, hududiy va mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbailaridan biri korxonalar va tashkilotlarni foydasiga solinadigan soliq. O'tgan davrlarda uning roli va ahamiyati birnecha bor o'zgardi. Shunga qaramay bu soliq asosiy soliqlar tarkibiga kiradi va ikkita muhim soliqlarni biri bo'lib hisoblanib kelmoqda. Ushbu soliq Rossiya Federatsiyasini «Korxonalar va tashkilotlar foydasiga solinadigan soliq to'g'risida»gi qonun asosida boshqariladi. Bu soliq - to'g'ri hisoblanadi, uning summasi soliq to'lovchi korxonalar moliya faoliyatini natijasi bilan bog'langan.

Korxonalar va tashkilotlar foydasi (daromadi)ga solinadigan soliq byudjet daromad manbalari tarkibida egri soliqlardan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. 1997 yili foydaga solinadigan soliq salmog'i tushib ketdi. Bu asosan to'lovsizlik inqirozi va ishlab chiqarishni umumiy hajmini pasayishi bilan bog'liq.

Foydaga solinadigan soliq to'g'ri soliq bo'lib, u o'zining asosiy funktsional maqsadini, vazifasini bajarishi kerak. U mahsulotlarni (tovar, xizmat) ishlab chiqarish sohasida doimiy investitsion jarayonni ta'minlab, qonuniy kapitalni o'sishiga xizmat qilishi kerak. Foydaga solinadigan solini fiskal funktsiyasi ikkinchi o'rinni egallaydi.

15.3.-jadval

Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadida foydaga solinadigan soliq
o'rni

trln.rub.

	Byudjet daromadlari	1994 yil	1995 yil	1997 yil	2001 yil
1	Qelib tushgan daromadlar -hammasi	134,3	163,2	435,6	
	Shu jumladan:				
	Federal byudjetga	47,3	68,7	194,8	
	Hududlar byudjetiga	87,0	95,4	240,8	
2	Foydaga solinadigan soliq-hammasi	26,6	36,9	76,7	
	Shu jumladan:				
	Federal byudjetga	12,1	16,4	34,5	
	Hududlar byudjetiga	14,5	20,5	42,2	
3	Byudjet daromadida, foydaga solinadigan soliq salmog'i -hammasi %	19,8	22,6	17,6	
	Shu jumladan:				
	Federal byudjetda	25,6	23,9	17,7	14,5
	Hududlar byudjetida	16,7	21,4	17,5	

1992-1997 yillari Rossiya hududida, boshqa soliqlar kabi, bu soliq ham asosan fiskal xarakterga ega bo'lgan.

Rossiya Federatsiyasining soliq tizimida, qonunga binoan, foydaga solinadigan soliq, federal soliq sifatida belgilangan.

Rossiya Federatsiyasini 1993 yil 15 aprel «Byudjet xuquqi asoslari va byudjetdan tashqari fondlarni tashkil qilish huquqlari» 4807-1 sonli qonunida bu soliqni proporsional taqsimlanishi ko'rsatilgan. Shuning uchun foydaga solinadigan soliq boshqaruv solig'i hisoblanadi.

Foydaga solinadigan soliqni to'lovchilari quyidagilar hisoblanadi. Rossiya qonunchiligi bo'yicha huquqiy shaxs hisoblangan alohida balans va hisob-kitob (joriy, korrespondent) scheti mavjud korxonalar va tashkilotlar (sh. j. byudjet tashkilotlari), ularning filiallari va shunga o'xshash bo'limlari hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan tashkil qilingan kompaniyalar, firmalar va Rossiya Federatsiyasida doimiy tadbirkorlik faoliyati olib boradigan doimiy vakillar (xorijiy huquqiy shaxslar) har qanday boshqa tashkilotlar hisoblanadi.

Soliq olish maqsadida xorijiy huquqiy shaxsni doimiy vakili tabiiy resurslarni izlab topish, uni ishlab chiqarish, kontraktga ko'rilgan qurilish ishlarini bajarish, uskunalarni o'rnatish, montaj qilish, yig'ish, ularga xizmat qilish, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlarni o'tkazish bo'yicha filiallar, byuro, kontora, agentlik, hamda Rossiyada vakillik funksiyasini bajaruvchi fuqarolar va huquqiy shaxslar hisoblanadi. Rossiyada 1994

yildan boshlab soliqni to'lovchilar banklar va boshqa kredit muassasalari ham hisoblanadi.

Soliq solinadigan ob'ekt mahsulotni sotish (ish, xizmat)dan olingan foyda (zarar) summasi, asosiy fondlar, boshqa korxonalar mulkidan olingan daromad, sotishdan tashqari operatsiyalardan, unga ketgan harajati chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlangan daromadlar korxonani yalpi foydasi hisoblanadi. Mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan olingan foyda (zarar) mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan olingan QQS va aktsizsiz tushum bilan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan ishlab chiqarish va sotish harajati o'rtasidagi farqdan iborat. Soliq solish maqsadida haqiqiy tannarxidan yuqori bo'lmagan bahoda mahsulotni (ish, xizmat) sotuvchi korxonalar bo'yicha shunga o'xshash mahsulot (ish, xizmatni)larni sotish vaqtida yuzaga kelgan bozor bahosi qabul qilinadi. Lekin bu baho haqiqiy tannarxidan past bo'lmasligi kerak. Agar korxonalar mahsulotni tannarxidan yuqori bahoda uning sifati, yoki ist'emol sifati (ma'naviy eskirish) pasayishi natijasida sotib olmaganda yoki yuzaga kelgan bozor bahosi bu mahsulotni yoki shunga o'xshagan mahsulotni haqiqiy tannarxidan past bo'lsa soliq solish maqsadida uning haqiqiy sotilgan bahosi olinadi.

Korxonalar mahsulotni haqiqiy tannarxidan yuqori bo'lmagan bahoda sotishdan oldin 30 kun davomida, shunga o'xshash mahsulotni haqiqiy tannarxidan yuqori bahoda sotilganida, hamma kelishuvlar bo'yicha soliq solish maqsadida mahsulotni sotishdagi eng yuqori baho qo'llaniladi. Korxonalar mahsulotni (ish, xizmat) almashtirganda yoki to'lov olmasdan berganda tushum soliq olish maqsadida shu kelishuv amalga oshgan bir oyga hisoblangan mahsulotni yoki shunga o'xshash mahsulotni (ish, xizmat) o'rtacha sotish bahosi bilan aniqlanadi. Agar shunday va shunga o'xshash mahsulotni (ish, xizmat) bir oy ichida sotilmaganda, oxirgi sotish narhi olinadi. Lekin haqiqiy tannarxidan past bo'lishi mumkin emas. Korxonalar ilgari ishlab chiqarilmagan yangi o'zlashtirilgan mahsulotni turini boshqa mahsulotga almashtirganida yoki olingan mahsulotni almashtirganida (soliq solish maqsadida), o'zining haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan haqiqiy bozor bahosi qo'llaniladi.

Sotishdan tashqari operatsiyalar daromadi (harajati) tarkibiga boshqa korxonalarni faoliyatida ulushli qatnashish natijasida olgan daromadi, mol-mulkni arendaga berishdan olingan daromad, aksiyalar, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha olingan daromad (dividendlar, fondlar) va tovarlarni (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalar bo'yicha daromad (harajatlar) kiradi. Bu

operatsiyalar federal qonun asosida belgilangan bo'lib soliq solinadigan foydani aniqlashda qonunda mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan harajatlar ro'yhati, moliyaviy natijalarni tashkil topish tartibi berilgan bo'lishi kerak.

Soliq solinadigan bazaga korxonalar, tashkilot, muassasaga davlat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, birlashmalar, assotsiatsiyalar, kontsernlari, tarmoqlararo, hududiy birlashmalar tomonidan haq to'lamasdan beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, boshqa mulklar va o'zining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bazasini rivojlantirish uchun kapital qo'yilma tariqasida ajratilgan pul mablag'lari kirmaydi. Soliq solish maqsadida yalpi foyda boshqa korxonalarni faoliyatida ulushli qatnashganligi uchun olgan daromad summasiga kamaytiriladi. Rossiya Federatsiyasidan tashqarida olingan daromad, kazino, boshqa o'yin bizneslari, shou salonlari, video-audiokasseta va ulardagi yozuvlar bo'yicha olingan daromadlar (tushum bilan harajatlar farqi) summasiga yalpi daromad kamaytirilmaydi.

Banklarni soliq solinadigan bazasini aniqlashda yalpi foyda qimmatbaho qog'ozlarni qadrsizlanishi ssudalar bo'yicha yo'qotish bo'lishi mumkin bo'lgan harajatlarni qoplash uchun Markaziy bank, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan rezerv fondini tashkil qilish maqsadida qilingan ajratmalarga kamaytiriladi. Byudjet tashkilotlari va tijorat bilan shug'ullanmaydan boshqa tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatidan daromad olgan holda, shu faoliyatidan harajattan ortiq olingan daromadidan bu soliqni to'laydilar.

Birgalikda faoliyat yuritish maqsadida korxonalar tomonidan birlashtirilgan (to'plangan) pul mablag'lari soliq to'langan summa chiqarib tashlangandan keyin, boshqa mol-mulk va fuqarolarni ixtiyoriy vzoslari, hayr-ehsonlar summasi soliq solishga tortilmaydi. Bu sharoitda soliq solinadigan ob'ekt shu mablag'larni ishlatish natijasida olgan foydasi hisoblanadi.

Huquqiy shaxs tuzmasdan bir necha korxonalarni birgalikda amalga oshirgan faoliyati natijasida olingan foyda yoki sherikchilik asosida olingan foyda soliq solinishidan oldin, ular tuzgan shartnoma asosida qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Har bir birgalikda faoliyat olib borgan korxonalar yoki sherikchilikni a'zolari foyda taqsimlangandan keyin uni sotishdan tashqari daromadlar tarkibiga qo'shadi va yalpi foyda (daromad) tarkibida foyda (daromad)ga belgilangan soliq stavkaga binoan soliqqa tortiladi.

Soliq solinadigan foydani hisob-kitob qilishda mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan harajatlarni ro'yxati va moliyaviy faoliyatni tashkil topishi tartibi foydaga soliq solishda hisobga olinadigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlarni (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotishga bo'lgan harajatlarni tarkibi va moliyaviy natijalarni tashkil topishi tartibi to'g'risidagi nizom asosida aniqlanadi. Foydaga solinadigan soliqni stavkasi xo'jalik sub'ektlarini faoliyati turiga qarab tabaqalashtiriladi.

Rossiya Federatsiyasi «Korxonalar va tashkilotlarni foydasiga solinadigan soliq to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasini 1995 yil 25 aprel 64-03 sonli qonunida faoliyat turlari va byudjet tizimini darajalariga qarab stavkalar quyidagicha belgilangan.

15.4.-jadval

Rossiya Federatsiyasida faoliyat turlari va byudjet tizimlarini darajalariga ko'ra stavkalari (1995 y.)

1	To'lovchilar, faoliyat turlari, soliq solinadigan daromadlar	Umumiy stavka	Federal byudjetiga	hududiy byudjetga
2	Korxonalar va tashkilotlar asosiy faoliyati bo'yicha	35	13	22
3	Banklar, sug'urta tashkilotlari, dallollik qilish tashkilotlari, birja, broker kontoralari	43	13	30
4	Kapitaldan daromadlar (dividendlar, foizlar)	15	13	2
5	Videoko'rsatuv, videoprokat, videomahsulot-larini prokat qilish	70	13	57
6	Kazino, o'yin biznesi	90	13	77
7	Fraxt qilish bo'yicha daromad	6	6	-

Federal byudjetga o'tkaziladigan korxonalar va tashkilotlarni foydasiga solinadigan soliqni stavkasi 13% hajmda belgilangan. Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari byudjetiga o'tkaziladigan korxonalar foydasiga solinadigan soliq (sh.j. horijiy huquqiy shaxslar) sub'ektlarni qonun chiqaruvchi (vakolatli) organlari tasdiqlagan stavkalarida 22% dan yuqori bo'lmagan hajmda o'tkaziladi. Dallollik operatsiyalari, bitimlardan olingan foydadan birja, broker kontoralari, banklar va boshqa kredit muassasalari va sug'urta tashkilotlari olgan foydalaridan 30% dan ortiq bo'lmagan stavkada to'laydilar, umumiy stavka 43% ga etadi.

Foydaga solinadigan soliq stavkasi foydaga solinadigan soliq qonuniga binoan, yangi moliya yiliga federal byudjetni tasdiqlashda o'zgartirilishi mumkin. Foydaga solinadigan soliq to'g'risidagi qonun soliq bo'yicha imtiyozlar berishni ko'zda tutgan qonun bo'yicha soliq solinadigan baza kamaytiriladi, ya'ni moddiy ishlab chiqarish sohasida korxonalar tomonidan ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha (sh.j. ulushli qatnashish) kapital qo'yilmani moliyalashtirish uchun ajratilgan summa va shu maqsadga olingan kreditni qaytarib berish (kredit foizi qo'shilgan holda) summalari kamaytiriladi.

Korxonani balansida bo'lgan sog'liqni saqlash muassasalari, ob'ektlari, maorif ta'limi, madaniyat va sport, bolalarni maktabgacha tarbiyalash muassasalari, dam oladigan bolalar oromgohi, qariya va nogironlarni uylari, uy-joy fondi harajatlari hamda korxonani ulushli shu maqsadlarda qatnashish harajatlari, hayr-ehson maqsadlariga badallar va boshqa harajatlar korxonani ishchilari tarkibida nogironlar 50% ni tashkil qilganida foydaga solinadigan soliqni stavkasi 50%ga kamaytiriladi. Bundan tashqari imtiyoz foydaga solinadigan soliqdan ozod qilish yo'li bilan ham beriladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarini, oziq-ovqat tovarlarini, aholi ist'emol qiladigan tovarlarini, qurilish materiallari, tibbiyot texnikasi, dori-darmon mahsulotlari, tibbiyotga taaluqli buyumlar ishlab chiqaruvchi hamda uy-joy, ishlab chiqarish, ijtimoiy va tabiatni muhofaza qilish ob'ektlarini quradigan (ta'mirlash-qurilish ishlarini qo'shgan holda) kichik korxonalar birinchi ikki yil ishlash davomida bu soliqni to'lamaydilar. Bunda asosiy shartlardan biri bajarilgan ishlar bo'yicha olingan tushum mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan olingan umumiy summani 70%idan ortiq bo'lishi kerak. Uchinchi va to'rtinchi yillari kichik korxonalar 25% va 50%li soliqni belgilangan stavkada to'laydilar. Bunday ko'rsatilgan faoliyatlardan olinadigan tushum, umumiy tushumni 90%dan ortiq bo'lishi shart. Kichik korxonalar guruhiga o'tkazish mezonini Rossiya Federatsiyasini federal qonuni bilan belgilanadi.

O'tgan yili (yillik buxgalteriya hisobi bo'yicha) zarar ko'rgan korxonalar foydasini bir qismi, ya'ni zararni qoplash uchun keyingi besh yil davomida yo'naltirilgan qismi soliqdan ozod qilinadi. Bunday engillik berishni asosiy sharti, korxonalar zararlarini qoplash uchun qonunchilikda belgilangan rezerv va boshqa fondlarni mablag'i to'liq ishlatilgandan keyin amalga oshiriladi.

Diniy birlashmalar, nogironlarni ijtimoiy tashkiloti va ularni mulki hisoblangan korxonalar va tashkilotlar, hamda umumiy ishlaydiganlarni eng kamida 50%i nogiron bo'lgan korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq solinmaydi. So'nggi qayd etilgan korxonalarda, asosiy shart eng kamida 50% foyda nogironlarni ijtimoiy talabini qoplash uchun sarflanishi zarur.

Soliq imtiyozlari, qoida bo'yicha, soliqni haqiqiy engillik chiqarilmagan summasini 50%idan ortig'ini tashkil qilishi kerak emas.

Foydaga solinadigan soliq to'g'risidagi qonunda belgilangan soliq imtiyozlarini tarkibi, yangi moliya yiliga federal byudjetni tasdiqlashda o'zgartirilishi mumkin. Foydaga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash muxlatlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Soliq summasi to'lovchi tomonidan buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida mustaqil belgilanadi.

Korxonalar byudjetga kvartal davomida avans to'lovlari topshiradi. Avans summasi taxmin qilingan foyda summasi va stavkasi asosida aniqlanadi. Byudjetga avans to'lovlarni o'tkazish har oyni 15 kundan kechiktirilmagan holda baravar hajmda kvartal summasini 1/3 qismini berish orqali amalga oshiriladi. Foydaga solinadigan soliqni avans to'lovini beradigan korxonalar, ko'rsatilgan soliq summasini haqiqiy olingan va soliq solinadigan foydadan, berilgan imtiyozlarni hisobga olib, belgilangan stavkani qo'llash bilan yil boshidan o'sib borish darajasini hisobga olgan holda birinchi kvartal, yarim yil, to'qqiz oy va yil tugagandan keyin hisoblab chiqiladi. Byudjetga to'lanadigan summa, ilgari o'tkazilgan summalarni hisobga olgan holda aniqlanadi. Agar haqiqiy olingan foyda bir kvartalga avans to'lovlaridan ortib ketsa, Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankini o'tgan kvartalda harakatda bo'lgan qayta moliyalashtirish (refinanced) stavkasini hisobga olgan holda qo'shimcha beriladigan summaga o'zgartishlar kiritiladi.

Hamma korxonalar, byudjet tashkilotlari, kichik korxonalar va ba'zi boshqa to'lovchilardan tashqari 1 yanvar 1997 yildan boshlab o'tgan oyda olingan haqiqiy foydani hajmiga qarab har oyda to'lash huquqiga egalar.

Foydaga solinadigan soliq yil boshidan o'sib borish tartibida imtiyozlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Byudjetga beriladigan summa ilgari berilgan to'lovlarni hisobga olgan holda aniqlanadi. Ko'rsatilgan hisob-kitoblar soliq to'lovchi joylashgan hududdagi soliq inspeksiyasiga hisobot berilgan oydan keyingi oyni 20 kundan kechiktirilmagan holda topshirilishi zarur. Shu bilan bir qatorda korxonalar soliq bazasini aniqlash va soliq imtiyozlarini asoslangan hisob-kitobi to'g'risida qo'shimcha materiallar topshiradilar.

Tadbirkorlik faoliyatidan foyda oladigan kichik korxonalar va byudjet tashkilotlari byudjetga soliqni har kvartalda, o'tgan hisobot davrida olingan haqiqiy foydaga qarab to'laydilar.

Byudjetga soliq to'lash tartibi korxonalar tomonidan belgilanadi va yilni oxirigacha o'zgarmasdan davom etadi. Korxonalar joylashgan hududdagi soliq organiga belgilangan muxlatda Rossiya Federatsiyasini soliq xizmati tasdiqlagan shaklda haqiqiy foydadan olinadigan soliq hisob-kitobini va buxgalteriya hisoboti va balansini topshiradi. Foydaga solinadigan soliqni to'lashni amalga oshirish oylik hisob-kitoblar bo'yicha hisobot oyidan keyingi o'yni 25 kundan o'tmasdan, kvartal hisob-kitoblar bo'yicha kvartal buxgalteriya hisobotini topshirish uchun belgilangan muxlatdan keyin besh kun muxlat ichida va yillik hisob-kitoblar bo'yicha o'tgan yillik buxgalteriya hisoboti topshirish uchun belgilangan muxlatdan keyin o'n kunlik muxlat ichida ta'minlanadi. Ortiqcha to'langan soliq summasi kelgusi to'lovlarni qoplash uchun hisobga olinadi yoki to'lovchini xati orqali xabar qilgan arizasini olgan kundan keyin 10 kun muxlat ichida qaytarilib beriladi. Korxonalar to'lov muxlati kelgunga qadar, belgilangan bankka birinchi navbatda amalga oshiriladigan soliq summasini byudjetga o'tkazib berish to'g'risida to'lov buyrug'ini topshiradi.

Tarkibiga hududiy ajratilgan alohida balans va hisobot schetiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'limlar kiradigan korxonalar Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari byudjetiga o'tkaziladigan foydaga solinadigan soliq qismini tarkibiy bo'linmalar joylashgan hududlar byudjetiga foydadagi ularni ulushiga qarab o'tkazadilar. Foydadagi bo'limni ulushi o'rtacha ro'yhatdagi xodimlar soniga (ish haqi fondi) va asosiy ishlab chiqarish fondlarini qiymatiga qarab Rossiya Federatsiyasi xukumati o'rnatgan tartibda aniqlanadi. Ko'rsatilgan korxonalar va tarkibiy bo'limlar bo'yicha soliq summasi shu bo'limlar joylashgan hududlarda qo'llanilayotgan foydaga solinadigan soliq stavkasi asosida aniqlanadi.

Shartnoma va kontraktlarda korxonalar yoki horijiy huquqiy shaxs boshqa soliq to'lovchilarni soliq to'lash harajatlarini o'zlarining zimmlariga olishlari ma'n qilinadi.

Korxonalar foydaga solinadigan soliqdan tashqari daromadidan ham soliq to'laydilar:

a) korxonalar - aktsionerga tegishli aktsiya va bu qimmatbaho qog'ozlar unga tegishlilikini tasdiqlovchi va korxonalar - emitetni foydasini taqsimlashda katnashishi orqali olingan dividendlar, foizlar, Rossiya Federatsiyasi qimmatli qog'ozlari, Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarini

davlat qimmatbaho qog'ozlari va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlarini qimmatli qog'ozlari yuzasidan olingan daromadlar;

b) Rossiya Federatsiyasi hududida tashkil qilingan boshqa korxonalar faoliyatida ulushli qatnashib olgan daromadlari;

v) kazino, boshqa o'yin uylari (joylar) va boshqa o'yin biznesi, ko'rsatuv salonlari (tasvirli ko'rsatuvlar), tasvirli kasetta va audiokassetta va ulardan yozuvlarni prokatga berishdan olinadigan daromadlar (arenda va boshqa to'lovlarni qo'shgan holda). Daromad tushumdan soliq solinadigan foydani aniqlashda tannarxiga qo'shiladigan harajatlarni (ish haqidagi tashqari) chiqarib tashlash tartibi bilan aniqlanadi. Bu yerda boshqa o'yin biznesi deb o'yin avtomatlarini (yoki boshqa uskunalarni) ishlatib, buyum va pul yutug'i beradigan o'yinlar tushuniladi.

Soliqlar «a» va «b» punktlar bo'yicha 15% stavkada olinadi, «v» punkt ko'rsatilgan (kazino, boshqa o'yin uylari (joylar) va o'yin bizneslari chiqarib tashlanadi) daromatlardan 70% stavka bilan soliq olinadi. Kazino, boshqa o'yin uylari (joyi) va boshqa o'yin bizneslaridan 90%li stavka bilan, soliq ushlanadi. «Foyda» tushunchasi xo'jalik faoliyatini natijasi bo'lib, shu faoliyat chegarasida daromad va harajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlangan davrda, «daromad» degan tushuncha, qo'shimcha ko'rsatmalar bo'lsa Rossiya Federatsiyasi soliq tizimida harajatlarni chiqarib tashlanmagan tushum hisoblanadi.

Lekin, fikrimizcha, iqtisodiy nazariyada uzoq davrlardan beri tanilgan tushunchalar: tushum, yalpi daromad, foydalar bir-biriga teng deb aytib bo'lmaydi.

Horijiy huquqiy shaxslarni foydasiga soliq solish o'zining alohida xususiyatlariga ega. Soliq solish horijiy huquqiy shaxs foydasini faqat Rossiya Federatsiyasi hududida olingan qismigagina qo'llaniladi. Soliq solish maqsadi uchun horijiy huquqiy shaxsni o'zini nomidan tashqi savdo ishlarini Rossiya Federatsiyasida bajarib mahsulot (ish, xizmat) sotib olish orqali olgan foydasi hisobga olinmaydi.

Bu bilan bir qatorda tovar almashish va Rossiya Federatsiyasiga mahsulot (ish, xizmat)ni eksport qilish jarayonida Rossiya qonunchiligi asosida davlat chegarasidan o'tishiga qadar huquqiy shaxs bu tovarlarga mulk egasi hisoblangan taqdirda ham foydasi soliqqa tortilmaydi. Horijiy huquqiy shaxsga tegishli Rossiya Federatsiyasi hududida joylashgan yoki arendaga olingan omborlardan mahsulotni sotishdan olingan foyda soliqqa tortiladi. Agar horijiy huquqiy shaxs Rossiya Federatsiyasidan tashqarida ham faoliyat yuritib, foydasini alohida hisobini olib bormasa, soliq summasi soliq organi bilan soliq to'lovchini kelishuvi asosida to'lanadi.

Horijiy huquqiy shaxsni Rossiya Federatsiyasi hududida olgan foydani to'g'ridan-to'g'ri aniqlash imkoniyati bo'lmaganida soliq organi uni yalpi daromad yoki qilingan harajatlariga qarab 25% rentabellik me'yori asosida belgilaydi. Horijiy huquqiy shaxslarni foyda va daromadini soliqqa tortish xususiyatlari Rossiya Federatsiyasi Davlat Soliq xizmatini 16 may 1995 yilgi №34 «Horijiy huquqiy shaxslarni foyda va daromadiga soliq solish» yo'riqnomasida berilgan. Horijiy huquqiy shaxsni foydasiga solinadigan soliq har yili soliq organi tomonidan uning doimiy vakili joylashgan hududda hisoblanadi.

Soliq summasini soliq solish bazasi, imtiyozlar va stavkalarni hisobga olgan holda hisoblanadi. Hisoblangan soliq summasiga to'lovchiga Rossiya Federatsiyasini soliq xizmati, tomonidan tasdiqlangan xabarnoma beriladi. Soliq to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muxlatlarda to'lanadi.

Hisobot berilgan yildan keyingi yilni 15 aprelidan kechiktirmay horijiy huquqiy shaxs soliq organiga Rossiya Federatsiyasidagi faoliyati bo'yicha hisobot va daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshiradi. O'z faoliyatini to'xtatgan taqdirda, to'xtatilgan kundan boshlab bir oy ichida ko'rsatilgan hujjatlarni topshirishi kerak. Horijiy huquqiy shaxs dividendlar, foizlar va chet el investitsiyasi qatnashgan korxonadan ulushli olgan daromadlaridan 15%li stavka bilan soliq to'laydilar. Mualliflik huquqi, litsenziya va arendadan olgan daromadlaridan 20%li stavkada soliq to'laydilar. Kemada yuk tashish (fraxt) natijasida olgan daromadidan 6% to'laydi. Xalqaro shartnomalarga binoan horijiy huquqiy shaxs imtiyozli soliq to'lash huquqiga ega bo'lsa, daromad olgan kundan boshlab bir yil davomida davlat soliq xizmatiga ariza topshiradi. Bundan keyin berilgan ariza qabul qilinmaydi. Soliq summasi federal byudjetga o'tkaziladi.

Rossiya Federatsiyasida soliq tizimini doimiy tarzda takomillashtirish ishlari olib boriladi.

2002 yildan boshlab kichik korxonalar uchun ikki turdagi soliq quyidagi stavkalar bilan kiritildi:

1. Foydaga solinadigan yagona soliq stavkasi - 8%. Bu soddalashtirilgan tizim bo'lib, soliq solinadigan baza quyidagacha aniqlanadi: daromad-harajat = foyda.

2. Daromadga solinadigan yagona soliq. Hamma tushumlardan 15% olinadi.

Yirik korxonalar yagona ijtimoiy soliq to'laydilar. Uning stavkasi 36% o'rniga 14% qilib belgilangan.

15.2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq davlat byudjetini yirik daromadlari qatoriga kiradi. Ko'pchilik chet el mamlakatlarida fuqarolarni shaxsiy daromadiga solinadigan soliq davlat byudjeti daromadini asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i AQShni federal byudjetida 40% dan ortiq qismni tashkil qiladi. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq 10% ni tashkil etadi. Daniya byudjetida daromad solig'ini salmog'i 48% ga teng, deyarli qolgan barcha soliqlarning yig'indisini umumiy summasiga to'g'ri keladi. Germaniyada byudjet daromadlari ichida birinchi o'rinni egallaydi. Frantsiyada esa, qo'shilgan qiymat solig'idan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Rossiya Federatsiyasida ham bu soliqni ahamiyati ortib bormoqda. Lekin, bu jarayonga aholining asosiy qismini daromadi darajasi pastligi to'sqinlik qilayapti. Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i an'anaviy soliq bo'lib, Rossiya va chet el iqtisodida har doim iqtisodiy rivojlanish davrida ham amal qilgan.

Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i kelib tushadigan hajmi bo'yicha korxonalar foydasiga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'idan keyin uchinchi o'rinda turadi. 1994 yili Rossiya Federatsiyasini umumiy soliq tushumini 13% ini tashkil qildi. Bu soliqni ma'lum qismi federal byudjetga tushadi. Qolgani esa Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari ixtiyoriga beriladi. Bu mablag' ijtimoiy soha ob'ektlarini harajatini qoplaydi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining ixtiyoridagi uy-joy fondini saqlab turish uchun sarflanadi. Bu mablag'lar Federal g'aznachiligi bosh boshqarmasini to'lov buyrug'i bilan maqsadli ishlatish uchun federal byudjetdan Rossiya Federatsiyasini sub'ektlari byudjetiga o'tkaziladi.

Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i - progressiv soliq bo'lib, uni hisoblash soliq stavkasini maxsus shkala (daraja)si bo'yicha amalga oshiriladi, fuqarolarni daromadiga progressiv stavka bilan soliq solish bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda tanqidiy fikrlar berilgan va soliqni hisoblash tartibini takomillashtirish taklif qilingan. Soliq solinadigan bazani tashkil topishini, jismoniy shaxslardan olinadigan soliq hajmini davlat soliq xizmatini yo'riqnomasi asosida boshqariladi. Soliq mexanizmi yordamida fuqarolar daromadini boshqarilishini 1 yanvar 1998 yildan yangi me'yori belgilangan. Lekin, har qanday yangiliklar kiritilmasin, soliq solish bazasini tashkil topishidagi kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bular o'z navbatida daromad solig'i o'zining funksional yo'nalishini, daromadlarni boshqarishini to'liq bajara olmaydi.

Rossiya Federatsiyasida qo'llanilayotgan soliq solish shkalasi chet el tajribasidan olingan. Horijiy mamlakatlarda fuqarolarni daromadlari o'rtacha daromad olish darajasi bo'yicha nisbiy tenglashtirilgan, yuqori daromadlar esa fiskal tizim orqali yaxshi tartibga solingan usullar bilan ushlab olinadi.

Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining daromadlari o'rtasidagi farq ortib bormoqda, yuqori daromadlar fiskal tizimni chetlab o'tadi, Rossiya Federatsiyasini soliq xizmati soliq solish uchun ularni butunlay, qamrab olmaydi.

Daromad solig'ini, boshqaruvchi asosiy hujjat - bu Rossiya Federatsiyasini «Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olish» (keyingi o'zgarishlarni hisobga olgan holda) qonuni hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar quyidagilardan iborat:

1. Rossiyada doimiy yashash maqomiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar (rezidentlar) Rossiyada umumiy yig'indisini olganda kalendar yil davomida eng kamida 183 kun yashagan shaxslar rezident hisoblanadi.

2. Rossiya hududida daromad olgan taqdirda doimiy yashash makoniga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar (nerezidentlar);

Jismoniy shaxslarga Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, horijiy shaxslar va fuqarolik huquqi yo'q shaxslar kiradi.

3. Chet el shaxsiy kompaniyalari. - Ularning daromadi uning egalarini daromadi hisoblanadi. Shaxsiy kompaniyani egasi vatanida ro'yhatga olingan shaxsiy kompaniyani mulkiga qarashli xo'jalik birligini daromadiga korporatsiya foydasiga solinadigan soliq yoki boshqa shunga o'xshagan soliq solinmaydigan jismoniy shaxs hisoblanadi. Jismoniy shaxsni daromad solig'i to'lovchisi deb hisoblash uchun uning yoshi ta'sir qilmaydi. Jismoniy shaxslarni soliq solinadigan ob'ekti ularning kalendar yil davomida olgan umumiy daromadlari hisoblanadi:

- rezidentlarda Rossiya Federatsiyasi va undan tashqaridagi manbailardan olingan;

- nerezidentlarda faqat Rossiya Federatsiyasidagi manbalardan olingan.

Soliq ob'ekti sifatida qonunshunos yillik umumiy daromadni belgilab, tushunchani ta'rifini bermaydi. Bu to'g'risida ikki xil fikr mavjud.

Birinchisi bo'yicha – olingan hamma boylik, uning daromadi hisoblanadi. Ikkinchisi bo'yicha boylikning bir qismigina daromad, qolgani daromadga kirmaydi.

V.I.Dal ta'rifi bo'yicha, «Yalpi daromad, kirimni ja'mi, harajat va tashkilotning sarfini hisobga olmagan holda, sof daromad, foyda, haqiqiy

harajatni, yalpi daromaddan chiqarib tashlangandan keyingi qolgan qismi».

Bu erda «daromad» har- xil ahamiyatda ifodalangan. Haqiqiy uning ahamiyati qonun chiqaruvchi unga qanday fikr kiritganiga bog'liq. Hozirgi vaqtda daromadni qonuniy aniqlash yo'qligi uchun daromad solig'ini olishda echilmagan muammolar kelib chiqadi. Shuning uchun hozirgi qonunshunoslikni tahlil qilib, uning aniq mezonini ishlab chiqish va uning asosida soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash kerak.

1. «Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasi qonunida qonunshunoslar daromad olish uchun, qoida bo'yicha, jismoniy shaxsni harajatlar qilishi zarur. Lekin keltirilgan qonun jismoniy shaxslar harajatlari turlarini ro'yhatini bermaydi va bu deyarli mumkin emas.

Qonunda mol-mulkni sotib olish bahosida sotganda daromad yuzaga keladi, deb ko'rsatilmagan. Ko'rsatilgan holda ham daromadni yo'qligi qonunchilikda tushuntirilmaydi. Chunki jismoniy shaxslarni harajatlari mavjud (zararlar, keyinchalik sotiladigan mollarni sotib olish harajati va h.k.). Bunday harajatlar, soliq qonunchiligida tan olinmaganda ham, haqiqatda, ular ob'ektiv mavjuddir. Shunday qilib, jismoniy shaxsni daromadini kelib chiqishini hisobga olgan taqdirda, uning har qanday daromad olish bilan bog'liq bo'lgan harajatini hisoblash kerak. Faqat daromadni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda harajat hisobga olinadi.

Shunday qilib, olingan boylik shaxsni moddiy holatini yaxshilanishiga ta'sir etganida, ya'ni uni daromadligi holatini tasdiqlaganida daromad deb hisoblanadi. Bu so'nggi holat daromadlar uni olish bilan bog'liq bo'lgan harajattan (sarfdan) ortgan vaqtda yuzaga keladi.

Kompensatsion to'lovlar va ma'naviy zararlarni qoplash, jismoniy shaxsni daromadini tashkil qilmaydi, chunki u tiklash vazifasini bajaradi.

2. Solik huquqshunosligida faqat shunday boyliklar tan olinadiki, ularni moddiy baholash imkoniyati bo'lganidagina (aqliy, ma'naviy boylikdan farq qiladi) tan olinadi.

3. Daromadlar aniq jismoniy shaxsga nisbatan aniqlanadi, ya'ni, soliq solishda jismoniy shaxs shaxsan olgan daromadi (shaxsiy daromad) hisobga olinadi.

4. «Daromad» tushunchasini yana bir negizi, uni qonuniy asosda olish kerakligini izohlaydi. Mol-mulk jinoyatkorona yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan olinganida, jismoniy shaxs daromadiga kirmaydi. Chunki asossiz boyish orqali olingan boylik hisoblanadi.

5. Daromadni mezoni pul mablag'larini yoki boshqa mulklarni jismoniy shaxs ixtiyoriga kelib tushishi hisoblanadi. Jismoniy shaxs qandaydir mulkni arenda shartnomasi asosida olingan vaqtda, o'rnini qoplamay foydalanilgan holda va h.k. uni mol-mulk huquqiga o'tmagan davrida, daromad kelib chiqmaydi.

6. Soliq solishda pul shaklida olingan daromad (Rossiya Federatsiyasi valyutasi yoki chet el valyutasi) va natural olingan daromadlar yig'indisi hisoblanadi. 1997 yil 21 yanvardan keyin Rossiya qonunchiligida daromad olish deb, moddiy naf, manfaat olishni ham hisoblanadi. Manfaatni mazmuni quyidagidan iborat boylikni oddiy holatdan katta hajmda olinadi yoki tejaladi (odatdagidan ko'proq boylikni saqlanadi). Jismoniy shaxsga bepul xizmat ko'rsatilganda (masalan, korxonaga xizmatchiga o'zining hisobidan turistik yo'llanma sotib olgan) daromad hisoblanadimi, degan savol javobsiz qolgan. Agar manfaatni daromad solig'i qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri ko'rilgan bo'lsagina soliqqa tortiladi. Rossiya qonunchiligida xizmat sifatida olingan manfaatni soliqqa tortish ko'rilmagan.

7. Davlat organlarini tushuntirish hujjatlarida qanday tarzda kelib tushishini daromadga o'tkazib borish mezoni ko'rinib turibdi. Masalan, me'yoriy hujjatlarda bepul (davlat yoki munitsipal hisobiga) o'qitish ko'rilgan. Bunday manfaatni olish, jismoniy shaxsni soliq solinadigan daromadiga kirmaydi. Bu tartib davlat tomonidan xususiy mulkchilikka bepul kvartira berish, davlat pensiyasini, stipendiya, subsidiya va boshqalarini olishda ham qo'llaniladi. Shunday holat iqtisodiy nuqtai-nazardan to'g'ri hisoblanadi. Chunki teskari holatda, milliy yalpi daromadni qaytadan taqsimlashga to'g'ri kelar edi. Davlatga, keyin soliq to'lashni talab qilgandan ko'ra to'layotgan summasini bir qismini ushlab turish afzalroq hisoblanadi. Chunki natija bir xil bo'ladi. Shunday qilib, qonunchilikda ko'rsatilgan davlat yoki munitsipalitetdan olingan har qanday manfaat jismoniy shaxs daromadi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilib, daromad jismoniy shaxslar o'zining mehnat, tadbirkorlik faoliyati natijasida boshqa shaxslardan (davlat va munitsipalitetlardan tashqari) olingan moddiy boylik va boshqa asoslarda olingan shaxsni umuman moddiy ahvolini yaxshilaydigan kirimlar hisoblanadi deyish mumkin. Kalendar yili jismoniy shaxs olgan hamma daromadlar summasidan olingan mablag'larni chiqarib tashlash natijasida yalpi (umumiy) daromad aniqlanadi. Umumiy yillik sof daromad (soliq solish ob'ekti) – bu kalendar yili olingan yalpi daromad bilan shu daromadni olish bilan bog'liq bo'lgan va hujjatlar bilan

tasdiqlangan harajatni o'rtasidagi farq hisoblanadi. Ob'ektni aniqlashda, natura holatda olingan daromad umumiy yillik daromad tarkibida davlatni boshqarish narxida baholanadi. Agar bunday baho bo'lmasa, daromad olish vaqtidagi erkin (bozor) narxi bilan baholanadi. Bu talabni bajarmaslik jismoniy shaxs daromadini kamaytirishga olib keladi. Soliq solinadigan umumiy daromadni hajmi (soliq solinadigan baza) daromad solig'i qonunining ikkinchi modassida belgilangan tartibda va sharoitda aniqlanadi. Umumiy soliq olinadigan daromad yillik umumiy daromad bilan imtiyozlar (chiqarib tashlashlar) o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Umumiy soliq solinadigan daromadga soliq stavkasini qo'llash natijasida soliqni oklad summasi kelib chiqadi. Byudjetga to'lanadigan daromad solig'ining summasi (soliq majburiyati) avans to'lovlar va berilgan soliq kreditlarini chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqorida yoritilgan mulohazalarni hammasini qisqacha quyidagi holatda ko'rsatish mumkin:

Daromad – chegirib tashlash = yalpi daromad

Yalpi daromad – harajatlar = umumiy (sof) daromad

Umumiy daromad – imtiyozlar = umumiy soliq solinadigan daromad

Umumiy soliq solinadigan daromad x soliq stavkasiga = oklad summasi.

Byudjetga beriladigan soliq summasi = soliq okladi – avans va kreditlar summasi.

Soliq solinadigan kalendar yili olingan umumiy daromaddan daromad solig'i 1997 yili quyidagi hajmlarda olingan:

15.5.-jadval

Rossiyada 1997 yili olingan umumiy daromaddan daromad solig'i hajmlari

Kalendar yili olingan soliq solinadigan umumiy daromadning hajmi	Soliq stavkasi va summasi
12.000.000 rub	12%
12.000.001 dan 24.000.000 rub.gacha	3.840.000rub.+25% 24.000.000 rub.dan ortiqcha summadan
36.000.001 dan 48.000.000 rub.gacha	6.840.000 rub +30% 36.000.000 rub dan ortiqcha summadan
48.000.001 rub va undan yuqoridan	10.440.000 rub +35% 48.000.000 rub ortiqcha summadan

2001 yildan boshlab, jismoniy shaxslardan daromad solig'i yagona stavkada – 13% da olinadigan bo'ldi.

1 may 2002 yildan boshlab Rossiya Federatsiyasida eng kam ish haqi 450 rub xajmda va 2003 yildan 600 rub. va 2005 yil may oyidan 1100 rub. qilib belgilandi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda hali daromad solig'ini yuqori stavkalari qo'llanadi.

15.6.-jadval

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilgan daromad solig'ining 1993 yilgi eng yuqori stavkalari

Kanada	29
AQSh	31
Buyuk Britaniya	40
Avstraliya	47
Yaponiya	50
Italiya	51
Germaniya	53
Frantsiya	57
Shvetsiya	72

Moddiy manfaatlar summasidan daromad solig'i boshqa daromadlardan ajratilgan holda 15% stavka bilan olinadi.

Daromad solig'i to'g'risidagi qonun umumiy soliq solinadigan daromaddan chiqarib tashlash yo'li bilan imtiyozlar beriladi.

Asosiy chiqarib tashlanadigan summalarga qo'yidagilar kiradi:

1) Har oyga belgilangan eng kam ish haqi xajmda bolalar va boshqa qaramog'idagi odamlarni harajatini qoplash uchun;

2) Hayr-ehson tariqasida hisob raqamidan o'tkazib yuborilgan pullar harajati;

3) Yangi uy-joy, kvartira, dala hovli, bog' uyi sotib olish va shu maqsadlar uchun bank va kredit muassasalaridan olingan ssuda va ular bo'yicha foizlarni qaytarish harajatlari. Bir yilga minimal ish haqini 5000 hajmigacha kredit olish mumkin;

4) Rossiya Federatsiyasi pensiya foiziga ajratma to'lash harajati.

Soliq imtiyozlari berishda, faqat ular davlatni daromadini to'plash bilan chegaralanib qolmay, aholini daromadini ijtimoiy adolat asosida qaytadan taqsimlash vazifasini ham hisobga olishi kerak. Bunda soliq solish asosi qilib, jismoniy shaxsni moddiy ahvoli, uning ijtimoiy statusi (tutgan o'rni) va boshqa sharoitlar hisobga olinadi. Hozirgi kunda daromad

solig'i to'g'risidagi qonunchilik soliq to'lovchini statusini ijtimoiy ahvolini hisobga oladi (urush qatnashchisi, xarbiy xizmati va h.k.). Qonun asosiy ish joyida mehnat va boshqa majburiyatlarini bajarganlik uchun olgan har-xil ob'ekt, daromadlarni, asosiy ish joyi bo'lmagan joylarda olgan daromadlari va tadbirkorlik, boshqa faoliyatdan olinadigan daromadlarni ham ko'rib chiqadi. Shunga qarab daromad solig'ini hisoblash va uni to'lash tartibi o'rnatiladi.

Daromad solig'i to'g'risidagi qonun Rossiya Federatsiyasida doimiy yashash joyi bo'lgan chet el fuqarolari yoki fuqarolik huquqiga ega bo'lmagan shaxslarni va doimiy yashash joyi bo'lmagan, lekin Rossiya Federatsiyasi hududida daromad oluvchilarni soliq to'lash xususiyatlarini ham belgilab bergan. Soliqni asosiy ish joyda hisoblash kalendar yilni boshidan boshlab, har oyda umumiy daromadi olinib, uni belgilangan minimal ish haqi hajmiga va bolalar, qaramog'idagi shaxslar harajati summasiga kamaytiriladi va oldin to'langan soliqlar chiqarib tashlanadi. Yil tugagandan keyin, jismoniy shaxsni umumiy daromadini hisobga olgan holda (to'liq so'mda) qaytadan hisob-kitob qilinadi. Korxonalar, muassasa va tashkilotlar jismoniy shaxslardan hisoblanib ushlangan summani, bankdan naqd pul olgan kunlaridan kechiktirmay byudjetga o'tkazishlari kerak. Yoki shu tashkilotni bankdagi schetidani xodimni ko'rsatmasi bilan boshqa joyga pulni o'tkazish vaqtida soliq byudjetga yo'naltiriladi. Korxonalar, muassasa va tashkilotlar o'zlarining bankda schetlariga ega bo'lmasalar yoki ish haqini mahsulotni sotish, xizmat ko'rsatish va shu ishni bajarish natijasida olgan tushumdan to'lasalar, ish haqi to'langan vaqtdan keyingi kundan kechiktirmay bank orqali hisoblangan soliq summasini byudjetga o'tkazadilar.

Jismoniy shaxslar daromadidan ushlangan soliq byudjetga o'tkaziladi. Daromad manbaidan ortiqcha ushlangan soliq, kelgusi to'lovlar hisobiga qaytadan hisob-kitob qilinadi yoki to'lovchining talabi bo'yicha unga qaytariladi.

Asosiy ish joyi bo'lmagan joydan daromad olsa, soliq yuqorida ko'rsatilgan tartibda hisoblanadi va to'lanadi. Bu vaqtda jismoniy shaxs daromadidan qonunda belgilangan minimal ish haqi va bolalar, qaramog'idagi shaxslarni ta'minlash mablag'i chiqarib tashlanmaydi.

Jismoniy shaxsga korxonalar, muassasa va tashkilotlar mualliflik haqi to'lashda va chop etish, bajarish uchun haq berish yoki ilmiy adabiyot va san'at asarlarini boshqa tartibda foydalanganligi, yangilik ochgan, kashf qilgan, sanoat namunasini tayyorlagan mualliflarga haq to'lashda va yillik umumiy daromadni hisoblashda, hujjatlar bilan tasdiqlangan harajatlardan

chiqarib tashlanadi. Agar bu harajatlarni hujjatlar bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmasa Rossiya Federatsiyasi xukumatining 28 may 1992 yilgi №355 «Jismoniy shaxslarga chop etish, bajarish yoki ilmiy, adabiyot, san'at asarlarini, hamda yangilik ochish, kashf etish, va sanoat namunalari yaratish uchun haq to'lash soliq solish maqsadida undan harajatlar summasini chegirib tashlash» to'g'risidagi qarordan foydalaniladi. Tadbirkor sifatida ro'yhatga olingan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar eng kamida bir kvartalda bir marta o'zlari joylashgan hududni soliq organlariga jismoniy shaxslarga o'tgan yilga berilgan daromadlar va ulardan ushlangan soliq summasi, ularning doimiy yashaydigan joylari ko'rsatilgan holda ma'lumot topshiradilar.

Berilgan ma'lumot daromad oluvchilarni doimiy yashaydigan joylaridagi soliq organlariga yuboriladi va soliq organlari jismoniy shaxslar bergan deklaratsiyani tekshirishda foydalanadilar. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadga va boshqa daromadlarga soliq solishda, harajatlar tarkibi Rossiya Federatsiyasi xukumati tomonidan belgilangan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan harajatlar tarkibi asosida olinadi. Harajatlarga hujjatlar bilan tasdiqlangan harajatlar kiradi. Hisobot yili asosiy ish joyiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar daromadi soliq solishda daromad solig'i to'g'risidagi qonuniga binoan chiqarib tashlanadigan summalar va imtiyozlar hisobiga kamaytiriladi. Jismoniy shaxs bir necha ro'yhatga olingan tadbirkor, korxonalar, muassasalar va tashkilotdan daromad olsa, chiqarib tashlash faqat jismoniy shaxs tanlagan bitta tashkilot bo'yicha amalga oshiriladi. To'lovchida asosiy ish joyi bo'lsa, faqat shu erdagina chegirib tashlash amalga oshiriladi.

Hisobot yili ko'rilgan zararlar, kelgusi yili soliq solishda hisobga olinmaydi.

Daromad solig'i hisoblanadi:

a) tadbirkor sifatida ro'yhatga olingan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar va notariuslar-jismoniy shaxslarga to'laganda yil davomida;

b) joriy yili jismoniy shaxs oladigan taxminiy daromad to'g'risidagi ma'lumot asosida soliq organlari tomonidan;

v) hisobot kalendar yili jismoniy shaxs olgan, deklaratsiyada va boshqa ma'lumotlarda ko'rsatilgan haqiqiy daromad asosida soliq organlari tomonidan.

Soliq solish jismoniy shaxsni doimiy yashaydigan joyida amalga oshiriladi. Agar uning faoliyati boshqa joyda bo'lsa – bu faoliyatni o'tish joyida olinadi. Lekin, jismoniy shaxs doimiy yashaydigan joyidagi soliq

organiga daromadi va to'langan soliq hajmi to'g'risida majburiy xabar qilishi kerak.

Jismoniy shaxslarni daromadiga soliq solish soliq organlari tomonidan yil davomida haqiqiy olgan daromadi to'g'risidagi deklaratsiya, ularni faoliyatini tekshirish materiallari va korxonalar, muassasa tashkilot va jismoniy shaxslar bergan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari tomonidan hisoblagan soliq (tadbirkorlar tomonidan) quyidagi tartibda to'lanadi:

- joriy yil davomida to'lovchilar o'tgan yilgi daromad yuzasidan hisoblangan yillik soliq summasini 1/3 qismini va birinchi marta soliq to'lashga tortilganlar – joriy yili to'lashga muljallangan soliq summasini uchdan bir qismini byudjetga o'tkazadilar. Soliqni avans to'lovlarining muxlatlari – 15 iyul, 15 avgust va 15 noyabr hisoblanadi.

Soliq to'lovchining daromadi yil davomida keskin ko'payib, yoki keskin kamaysa, uning arizasiga binoan soliq organi to'lash muxlati kelmagan vaqtda qaytadan hisob-kitob qiladi;

- yil tugagandan keyin soliq hamma manbalardan olingan umumiy yillik daromaddan olinadi. Bunga tadbirkor sifatida ro'yhatdan o'tgan har qanday korxonalar, muassasa, tashkilot va jismoniy shaxs uchun har xil bajarilgan ishlar uchun olingan daromadlar qo'shiladi. Hisobot yiliga hisoblangan soliq summasi bilan yillik umumiy daromad yuzasidan olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq to'lovchilardan olinadi yoki, hisobot yilidan keyingi yilni 15 iyuligacha qaytarilib beriladi.

Tadbirkor sifatida ro'yhatga olingan korxonalar, muassasa, tashkilot va jismoniy shaxs, soliqni daromad summasini berishda ushlab qoladi. Agar yil davomida bitta jismoniy shaxsga bir necha marta to'lasa, soliq yil boshidan bo'yon to'langan umumiy summasidan olinadi. To'langan summa va ushlangan soliq bo'yicha ma'lumotni bir kvartalda bir martadan ortiq bo'lmagan holatda daromad manbai manzilida soliq organlariga topshiradilar. Soliq organlari bu ma'lumotlarni jismoniy shaxsni doimiy yashaydigan manzilidagi soliq organiga jo'natadi.

Soliqni ushlab va noto'g'ri ushlangan soliq summasini qaytarish daromad solig'i to'g'risidagi qonunni 21 moddasida ko'rilgan.

Jismoniy shaxsni soliq to'lashga o'z vaqtida tortilmasa yoki uning daromadidan soliq noto'g'ri hisoblanganda uni undira bilish yoki qaytarish, noto'g'ri ushlangan holat aniqlangan vaqtdan oldingi 3 yildan ortiq bo'lmagan vaqtga amalga oshiriladi. To'lovchini soliq to'lashdan bosh tortish natijasida to'lanmagan soliq summasi, uning hamma bosh tortgan vaqtiga to'g'ri keladigan hajmda undirilib olinadi. Jismoniy

shaxsdan ushlanmagan yoki to'liq olinmagan soliq summasi korxonalar, muassasa va tashkilot tomonidan qarzni to'liq uzilganiga qadar olinadi. Jismoniy shaxsdan qarzni undirib olish Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida belgilangan kafolatni saqlash asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxsdan daromad olish manbaida soliqni undirib olish imkoniyati bo'lmasa, yoki oldindan ma'lum bo'lsa undirib olish bir necha yillar davomida amalga oshirilishi mumkin va korxonalar, muassasa, tashkilot bir oy muxlat ichida, o'zi joylashgan manzilidagi soliq organiga xabar qiladi. Bu soliqni undirish soliq organi jismoniy shaxsga beradigan to'lov talabnomasi asosida amalga oshiriladi. Qonunda jismoniy shaxs umumiy yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya berish va umumiy yillik daromaddan soliqni hisoblash tartiblari belgilangan.

Haqiqiy olingan daromad va amalga oshirilgan harajatlarning to'g'risidagi deklaratsiyani hisobot yilidan keyin 1 aprelgacha jismoniy shaxslar o'zi yashaydigan manzildagi soliq organiga topshiradilar.

Faqat asosiy ishlash joyidan daromad oladigan shaxslar, Rossiya Federatsiyasida doimiy yashash joyi bo'lmagan shaxslar va hisobot yili umumiy soliq solinadigan daromadi, soliqni minimal stavkada hisoblangan summasidan past bo'lsa deklaratsiya topshirishdan ozod qilinadilar. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad, yoki boshqa daromad olgan shaxslarga yuqoridagi tartib qo'llanmaydi. Ular deklaratsiya berishlari kerak.

Yil davomida yangi daromad manbai paydo bo'lsa, shaxs shu daromadlar paydo bo'lgan kundan boshlab bir oy o'tgandan keyin besh kun ichida deklaratsiya topshiradilar. Deklaratsiyada birinchi oy faoliyati natijasida olgan daromadi va joriy yilni oxirigacha olinadigan, kutilgan daromad hajmi ko'rsatiladi. Agar yilni oxirigacha olinadigan daromad manbaning yopilishi, to'xtatilishi, deklaratsiya daromad manbai yo'qolgan kundan boshlab 5 kun ichida shaxs tomonidan topshirilishi kerak.

Deklaratsiyada jismoniy shaxs yil davomida olgan hamma daromadi, uni olish manbai, hisoblangan va to'langan soliq summasini ko'rsatadi. Deklaratsiya topshirilgandan keyin bir oy ichida shaxs unda ko'rsatilgan daromadni aniqlash, oydinlashtirishi mumkin. Hisoblangan soliq so'mmasi bilan, yil davomida o'tkazilgan soliq summasi o'rtasidagi farq, hisobot yilidan keyin 15 iyuldan kechiktirmay jismoniy shaxs tomonidan to'lanadi yoki soliq organi qaytarib beradi. Agar yil davomida qaytadan hisob-kitob qilinganda soliq organiga deklaratsiya topshirilgan kundan boshlab ikki oy muxlat ichida farq masalasi echilishi kerak.

Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati (DSX) tomonidan 25 aprel 1997 yil № IL-6 24/321 «Soliq deklaratsiyasi bo'yicha ishlaganda oshkor qilib bo'lmaydigan holatni ta'minlash» xatida soliq deklaratsiyasi bo'yicha ma'lumot olish uchun murojaat qilinadi yoki so'raladi, bu ma'lumotlar soliq organini mulki emasdir va ularni saqlash va oshkora bo'lmasligini ta'minlashlari kerak. Daromad solig'i bo'yicha qonunni ta'minlash maqsadida jismoniy shaxs, korxonalar, muassasa va tashkilotlarni majburiyatlari belgilangan.

Soliq solinadigan jismoniy shaxslar majburiyatlari:

a) kalendar yil davomida olgan daromadlari va shu daromadlarni olish uchun qilingan harajatlarni hisobini olib borish;

b) qonunda ko'rsatilgandek soliq organlariga daromad va harajatlarni bo'yicha deklaratsiya berishlari, deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarni haqiqiylikni tasdiqlovchi hujjatlarni topshirish;

v) korxonalar, muassasa, tashkilot va soliq organlariga daromaddan chiqarib tashlash bo'yicha imtiyozlari borligini tasdiqlovchi hujjatlarni berish;

g) o'z vaqtida va to'liq hajmda byudjetga belgilangan soliq summasini o'tkazish;

d) qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarish.

Shu bilan bir qatorda korxonalar, muassasa, tashkilot va jismoniy shaxslar, tadbirkor sifatida ro'yhatga olinganlar va daromad manbaiga ega bo'lganlar majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'z vaqtida va to'g'ri hisoblash, ushlab va byudjetga jismoniy shaxs daromadidan olinadigan soliq summasini o'tkazish;

- soliq organlariga o'z vaqtida jismoniy shaxslarga daromad berilganligi haqida ma'lumotlar berish, Rossiya Federatsiyasidagi chet el huquqiy shaxslarni vakolatxonasi ham bu ma'lumotlarni berishi kerak;

- qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini ham bajarish.

Shartnomalar va boshqa kelishuvlar hujjatlashtirilganda daromad to'lash manbai, jismoniy shaxslarni soliq to'lashi yuzasidan harajatlarni qilish to'g'risida mutlaq soliq eslatmasi berishi mumkin emas.

Korxonalar, muassasa, tashkilot va jismoniy shaxslar tadbirkor sifatida ro'yhatga olingan va daromad solig'ini ushlab qoluvchilar quyidagilar:

- kalendar yili jismoniy shaxsga berilgan umumiy yillik daromadni hisobini olib borish;

- o'zi ro'yhatga olingan manzildagi soliq organiga hisoblangan daromad va ushlangan soliq summasi bo'yicha har kvartalda hisobot berish.

Daromad manbai bor joyda ortiqcha ushlangan summa jismoniy shaxslarga kelgusida to'lovlarga o'tkazish yoki ularni arizasi asosida qaytarib berilishi kerak.

Eslatib o'tish joiz, jismoniy shaxslar daromadidan hisoblangan soliq tegishli byudjet zvenolariga ko'rsatilgan daromad hisobidan o'tkaziladi. Soliqni korxonalar, muassasa va tashkilotlar mablag'i hisobiga to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

15.2.4. Aktsizlar

Aktsizlar – tovarlarni bahosiga qo'shiladigan egri soliq hisoblanadi. Aktsizlar yuqori rentabellik mahsulotlarni ishlab chiqarish natijasida olgan yuqori foydani byudjetga olish maqsadida belgilanadi. Ayrim mahsulotlar bo'yicha aktsizlar qo'shilgan qiymat solig'iga qo'shimcha ravishda belgilanadi. Aktsizlar dunyo miqyosida umumiy qabul qilingan yuqori foydani olish shakli hisoblanib, tovarlarni ishlab chiqarishda, ularning ist'emol qiymatidan kelib chiqqan baho bilan, haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq hisoblanadi

Rossiyada aktsizlar 1992 yili mahsulotni bahosi ustiga foiz tarzida qo'yilgan ustama bo'lib, baholarni erkinlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan. Dunyo amaliyotida aktsiz soliqlari mahsulot birligiga qat'iy belgilangan pul summasi hisoblanadi. Aktsizlar Rossiyani davlat byudjetida etarli yuqori darajadagi o'rinni egallaydilar, masalan, 1994 yili byudjetni umumiy daromadida 5,2%, 1997 yili Rossiya byudjetini daromadiga 435,6 trln.rub. tushgan bo'lsa, shundan aktsizlar 75,8 trln.rub. yoki 17,4% tashkil qildi. Taxminan 34 trln.rub. federal byudjetga va 42 trln.rub. Hududlar byudjetiga tushdi. Shunday qilib, aktsizlarni kelib tushishi mustaxkam o'sib borish xususiyatiga ega. Aktsizlar Rossiya Federatsiyasini 6 dekabr 1991 yilgi «Aktsizlar to'g'risida»gi qonun asosida kiritilgan Rossiya Federatsiyasini 7 mart 1996 yilgi №23-F3 «Aktsizlar to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasini qonuniga o'zgartirishlar kiritish» federal qonunida talay o'zgartirishlar kiritildi.

Aktsizlarni to'lovchilar aktsizga taaluqli (aktsizosti) mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi. Aktsizda soliq solish ob'ekti o'zi ishlab chiqargan tovarlarni qiymati hisoblanadi. Soliq solinadigan oborotni aniqlash uchun QQS hisobga olinadigan sotish bahosi asosida hisoblangan qiymat hisoblanadi. Aktsizga taaluqli tovarlar

ro'yhati va aktsiz stavkalari Rossiya Federatsiyasini «Aktsizlar to'g'risida»gi qonunida belgilangan. Ba'zi holatlarda bular Rossiya Federatsiyasini hukumati tomonidan ham o'rnatiladi. Aktsizga taaluqli tovarlarga alkogolli ichimliklarni ko'pchilik turi, osyotr balig'i ikralari, losos balig'i, tamaki mahsulotlari, engil va yuk tashish avtomobillari, zargarlik buyumlari, mo'yna mahsulotlari, neft va neft mahsulotlari va boshqalar kiradi.

Eksport qilinadigan tovarlarga aktsiz solig'i solinmaydi (ayrim mineral xom ashyolardan tashqari). Chunki bu yerda ortiqcha foydani olish bojxona boji orqali amalga oshiriladi. Vositachi tashkilotlar eksportga tovar chiqarganlarida, ular to'lagan aktsiz summalari soliq organlari tomonidan qaytarilib beriladi. Aktsiz summasi mustaqil ravishda soliq to'lovchi tomonidan sotilgan tovarlarni qiymati va o'rnatilgan soliq stavkasi asosida belgilanadi.

Byudjetga aktsizni to'lash muxlati ishlab chiqariladigan tovarlarga qarab har dekadada yoki bir oyda bo'lishi mumkin. Soliq to'lashgani ustidan nazorat qilish uchun to'lovchilar o'zlari joylashgan manzildagi soliq organlariga maxsus hisob -kitob topshiradilar. Hisob, «Aktsizlar to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilgan formula asosida amalga oshiriladi. Ular to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida soliqni to'lash uchun javob beradilar. Rossiya hududiga tovar olib kelganda to'lovchi sifatida deklaratsiya berganlar olinadi.

Soliq ob'ekti sifatida bu holatda tovarlarni boj qiymati, bojxona boji va yig'imlar summasiga qushilgan tartibda olinadi. Rossiya hududiga olib kelinadigan ayrim tovarlar bo'yicha Rossiyadagi stavkalardan farq qiladigan maxsus stavkalar belgilanadi. Bu holatda soliq solinadigan ob'ekt sifatida keltirilgan tovarlarni natural ifodasi olinadi. «Aktsizlar to'g'risida»gi qonun qator imtiyozlarni ham belgilagan. Masalan Rossiya hududida shu tovardan boshqa aktsizga taaluqli tovar ishlab chiqarilsa, birinchisi undan ozod qilinadi.

15.2.5. Bojxona boji

Bojxona boji Rossiyani bojxona organlari tovarlarni alohida turlari bo'yicha tabaqalashtirilgan stavka bilan Rossiya Federatsiyasini bojxona hududiga olib kirganda yoki shu hududdan olib chiqib ketganda oladigan majburiy to'lov hisoblanadi. Bojxona boji tovar oborotini boshqarishni kuchli quroli bo'lib, iqtisodga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bojxona bojini faqat fiskal (daromad yig'ish) maqsadidagina qo'llamasdan proteksionizm (Rossiyada tovar ishlab chiqaruvchilarga ko'maklashish va

ularni himoya qilish) siyosatini amalga oshirish uchun ham qo'llanadi. Bu holatlarda maxsus antidemping va kompensatsion bojlar qo'llanadi. Tovarlarini olib kelish va chiqarishni darhol boshqarish maqsadida mavsumli bojlar belgilanadi.

Bojxona bojini to'lovchilar deklaratsiya beruvchilar yoki Rossiya Federatsiyasini 18 iyun 1993 yil qabul qilingan Bojxona kodeksida ko'rilgan shaxslar hisoblanadi. Har qanday manfaatdor shaxs boj to'lovini berishi mumkin, bu bojxona kodeksida boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lganida qo'llaniladi.

Boj solinadigan ob'ekt Rossiya Federatsiyasini boj chegarasidan tovarlarni joyini o'zgartirishi (olib kelish, chiqarish), u yoqdan buyoqqa olib o'tish hisoblanadi. Uni hisoblash «Bojxona tarifi to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasini qonuni asosida tovarlarni boj qiymati va transport vositalarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Tovarlarini boj qiymati yuk boj deklaratsiyasida ko'rsatilgan bo'ladi va unga ilova qilinadigan boj qiymati deklaratsiyasida belgilanadi.

Boj to'lovlari Rossiya Federatsiyasi bojxona organlariga to'lanadi. Agar tovarlar xalqaro pochta orqali jo'natilganda, davlat aloqa korxonalariga beriladi. Boj to'lovi boj deklaratsiyasini qabul qilganda yoki undan oldin beriladi. Rossiya Federatsiyasi chegarasidan uyoqdan bu yoqqa o'tadigan tijorat maqsadiga ishlatilmaydigan tovarlar bo'yicha boj to'lovi boj deklaratsiyasi bilan bir vaqtda olinadi. Faqat ayrim hollardagina to'lovchiga to'lov muxlatini keyinga surib berish yoki uzaytirib berish amalga oshiriladi. Bunday qarorni bojxona organi bojni rasmiylashtirish vaqtida qabul qiladi. To'lash muxlatini keyinga surib berish yoki uzaytirish uchun foiz olinadi. Foiz Rossiya Federatsiyasi markaziy bankini beradigan krediti bo'yicha belgilangan foiz hajmida olinadi. Boj to'lovlari Rossiya Federatsiyasi valyutasida yoki horijiy davlatlar valyutasida to'lanishi mumkin. Ayrim hollardagina faqat chet el valyutasida to'lash talab qilinadi. Chet el valyutasini Rossiya Federatsiyasi valyutasiga o'tkazish boj deklaratsiyasini qabul qilgan kundagi markaziy bankni kursi bilan amalga oshiriladi.

Bojxona bojining hajmi Rossiya Federatsiyasi 21 may 1993 yilgi «Bojxona ta'rifi to'g'risida»gi qonuni asosida belgilanadi. Rossiya Federatsiyasi Davlat bojxona qo'mitasini 8 iyun 1995 yili tasdiqlagan «Boj to'lovlarini undirish to'g'risidagi vaqtincha yo'riqnomasi»da ham boj hajmini belgilash tartibi berilgan. Rossiya Federatsiyasi boj chegarasidan u yoqdan bu yoqqa o'tadigan tovarlarga qo'llanadigan boj stavkalarini yig'indisi boj tarifi deb tushuniladi. Bu stavkalar tashqi iqtisodiy aloqa

tomonidan belgilangan tovarlarni nomenklaturasi asosida tartibga solingan. Tashqi iqtisodiy aloqani tovar nomenklaturasi (TIATN) ma'lum klassifikatsion guruhiga kiritilgan tovarlar ro'yhatini o'z ichiga oladi.

Boj stavkasi Rossiya hamma hududida yagona bo'lib tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar, bitim turlari va boshqa omillarga qarab o'zgarmaydi.

Ular Rossiya Federatsiyasi huqumati tomonidan tasdiqlanadi va faqat iqtisodiy holatga qarab o'zgartiriladi va aniqlik kiritiladi.

15.2.6. Yo'l fondi soliqlari

Bu federal soliq bo'lib, asosan huquqiy shaxslar va har zamonda fuqarolar to'lashi mumkin. Federal soliqlar tizimida alohida o'rinni to'rtta soliq egallaydi va ular federal, ham hududiy yo'l fondlarini tashkil qilish manbai hisoblanadi. Mablag'dan foydalanish bo'yicha bular qat'iy belgilangan maqsadli soliqlar hisoblanadi.

Ularga quyidagilar kiradi:

- yoqilg'i va moylash materiallarini sotish uchun soliq;
- avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliq;
- transport vositalari egalaridan olinadigan soliq;
- avtotransport vositalarini olish uchun soliq.

«Yoqilg'i va moylash materiallari» tushunchasiga avtobenzin, dizel yoqilg'i, dizel va avtotransport moylari, motor yoqilg'isi sifatida ishlatiladigan siqilgan va suyultirilgan gazlar kiradi.

Yoqilgi va moylash materiallari solig'ini huquqiy shaxslar va tadbirkorlar to'laydilar. Tayyorlovchilar uchun soliq solinadigan ob'ekt sifatida yoqilg'i va moylash materiallarni qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilmagan haqiqiy sotish bahosida olingan oboroti hisoblanadi. Ularni sotuvchilar uchun sotish summasi bilan sotib olish summasi o'rtasidagi farq (ikkalasi ham qo'shilgan qiymat solig'isiz olinadi) oborot hisoblanadi.

Soliq stavkasi - 25%. Soliq solish ob'ekti korxonani foydaga solinadigan soliqni to'lashdan oldingi foydasi hisoblanadi.

Avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliqni korxonalar va ayrim tadbirkorlar mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan olgan tushumni 2,5% hajmida to'laydilar. Soliq solinadigan bazadan QQS, aktsiz va yoqilg'i va moylash materiallarini sotishga solinadigan soliqlar chiqarib tashlanadi.

Umumiy foydalanadigan yo'llarga qarab turuvchi maxsus yo'l korxonalari bu to'lovdan ozod qilinadilar. Agar har qanday korxonalar umumiy foydalanadigan yo'llarga qarab turganda, xizmat qilganda va to'lanadigan soliq summasini 75%dan kam bo'lmagan qismini

sarflaganda, soliقدan to'liq ozod qilinadi. Soliq summasi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish harajati tarkibiga qo'shiladi.

Transport egalaridan olinadigan soliqni huquqiy shaxslar va tadbirkorlar transportga ega bo'lsalar to'laydilar. Soliq stavkasi motorni ot kuchida hisoblanadigan quvvatiga qarab belgilanadi. Soliq summasi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibiga kiradi. Transport vositalarini olish uchun soliqni sotib olish, almashtirish, lizing va ustav fondiga vzos o'tqazish yo'li bilan transport vositalarini oluvchi huquqiy shaxslar va ayrim tadbirkorlar byudjetga to'laydilar. Soliqni hisoblash QQS va aktsizsiz sotish bahosida amalga oshiriladi. Soliq stavkasi yuq, engil avtomobillar, pikap, engil furgonlar, avtobus va maxsus avtomobillar sotib olganda 20%, pritsep va yarim pritseplarni sotib olganda 10% hajmda qo'llanadi. Shaxsiy foydalanish uchun avtomobil sotib olgan fuqarolar bu soliقدan ozod qilinganlar.

15.2.7. Meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq

Fuqarolarga taaluqli ikkinchi federal soliqlar:

- meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq.

Bu faqat yagona federal mulk solig'i hisoblanadi. Qolgan mulk soliqlari hududlar va mahalliy byudjetlarga tushadi. Bunday tartib, butun dunyo amaliyotiga to'g'ri keladi.

- Rossiya Federatsiyasini «meros yoki hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq to'g'risida»gi qonun 1991 yili 2 dekabrda qabul qilingan. Soliqni to'lovchilar jismoniy shaxslar hisoblanadi. Soliq solinadigan ob'ekt sifatida qonunda quyidagilar ko'rsatilgan:

- yashash uylari, kvartira, dala hovli, bog'dorchilik shirkati tarkibidagi bog' uylar;

- avtomobillar, mototsikllar, motorli lodkalar, kater, yaxtalar va boshqa transport vositalari;

- antikvariant va san'at buyumlari, tilla buyumlar, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan qilingan maishiy buyumlar va ulardan olingan siniq parchalar;

-uy-joy qurish, garaj qurish, dala hovlilar qurish kooperativlaridagi paylar to'plami, bank muassasalari va boshqa kredit muassasalarida omonatga qo'yilgan pullar, jismoniy shaxslarni shaxsiy schetlaridagi (xususiylashtirish)dan olingan mablag'lar, mol-mulk, er bo'yicha, ulushi (pay) qiymati, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar qiymati.

Soliqni ob'ekti ko'rsatilgan mulklar emas (soliq predmeti), mulkni merosga olish yoki hadyani qabul qilish hisoblanadi. Bu soliqli solinadigan ob'ekti daromad solig'i solinadigan ob'ekt bilan bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Bu holat alohida ahamiyatga ega bo'ladi (masalan, korxonaga o'zining xodimiga kvartira hadya qilganda). Xodim kvartirani hadya sifatida qabul qilganda bir vaqtni o'zida ikkita har xil soliq ob'ektlari yuzaga keladi. Shuning uchun xodim kvartira qiymati hajmida olgan daromadidan daromad solig'i to'lashi kerak va hadya sifatida olingan mulkdan mulk solig'ini berishi kerak. Ushbu masala yuzasidan boshqa fikrlar ham mavjud. «Meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq to'g'risida»gi qonunda soliqli bir elementini aniqlashda tortiq (sovg'a, hadya) qiluvchi shaxs bilan hadyani oluvchi o'rtasidagi munosabatda qarindoshlik darajasi hisobga olinadi deyilgan. Qonunni mazmuni bo'yicha sovg'a qiluvchi faqat jismoniy shaxs bo'lishi kerak. Agar huquqiy shaxs sovg'a qilsa, bu holatda unga qonun qoidalari qo'llanmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, bu soliqli olishda soliqli munosabatlarini boshqarishda uning sub'ektlari jismoniy shaxslar bo'lishligi maqsadga muvofiq bo'lur edi. Meros tariqasida o'tadigan mulk bo'yicha soliqli stavkasi qarindoshlik darajasi va mulkni qiymatiga qarab belgilanadi. Mulki qiymati eng kam 80 ish haqigacha bo'lsa soliqli solinmaydi. Er-xotinni bittasi o'limidan so'ng meros tariqasida rafiqasiga o'tgan mulk, yoki er-xotinni bittasidan ikkinchisiga hadya qilingan mulkka soliqli solinmaydi. Yashash uyi (kvartira), uy-joyi qurilish kooperatividagi paylar yig'imi merosxo'r (meros oluvchi)ga meros beruvchi topshirganda meros ochilgan yoki hadya shartnomasi tuzilgan kunda ko'rsatilgan uylarda birga yashayotgan bo'lsa soliqli bu mulklardan ham olinmaydi.

Soliqli notarius tomonidan mulkka egalik qilish guvohnomasi yoki hadya shartnomasini tasdiqlagan taqdirdagina olinadi. Soliqli hisoblashda jismoniy shaxs ixtiyoriga o'tadigan hamma mulk qiymatini yig'indisi olinadi.

Soliqli organlari soliqli summasini hisoblashlari uchun merosga ega ekanligi to'g'risidagi guvohnoma yoki hadya shartnomasini tasdiqlagan hujjatlar berilgan kundan keyin 15 kun ichida notarius, yoki notarial harakatni bajaruvchi vakil mulkni qo'lga kiritgan hududdagi soliqli organiga mulkni umumiy qiymati to'g'risida ma'lumot yuboradi. To'lovchi soliqli soliqli organini to'lov xabarnomasi asosida to'laydi.

Rossiyada yashovchi jismoniy shaxslar to'lov xabarnomasini olgandan keyin 3 oydan kechiktirilmagan muxlatda to'lashlari kerak. Rossiyadan tashqarida yashovchi jismoniy shaxslar, mulkka egalik qilish huquqini

tasdiqlovchi hujjatni olishdan oldin to'lashlari kerak. To'lovchilarni xat tariqasida beradigan arizalariga binoan soliqni to'lash muxlati uzaytirilib, keyinga o'tkazilib berilishi mumkin. Lekin, umumiy keyinga surilish muddati 2 yildan oshmasligi kerak. Bu davrda Rossiya Federatsiyasi bankidagi shoshilinch omonatga belgilagan foizni 0,5 hajmida qo'shimcha to'lov beriladi. Merosga olingan yoki hadya tariqasida qabul qilgan mulkni merosxur sotishi, sovg'a qilishi, almashishi mumkin. Lekin bular yuzasidan soliqlar to'liq to'langandan keyin, bu holat soliq organi ma'lumoti bilan tasdiqlanishi shart.

15.2.8. Davlat boji

Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni amalga oshirgani yoki vakolatga ega bo'lgan organlar yoki lavozimli shaxs bergan hujjatlar uchun olinadigan Rossiya Federatsiyasini hamma hududlarida qo'llaniladigan majburiy va harakatdagi to'lov hisoblanadi. Bu to'lov Rossiya Federatsiyasini 1991 yil 9 dekabr «Davlat boji to'g'risida»gi qonunida belgilangan. Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni amalga oshirish yoki hujjat berishni talab qilib murojaat qilgan Rossiya Federatsiyasi fuqarosi, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va mulk shaklidan qat'iy nazar huquqiy shaxslar to'lovchi hisoblanadi.

Davlat boji to'lanadi:

- umumhuquqiy adliyaga, arbitraj adliyasi va konstitutsiya adliyasiga da'vo va boshqa arizalarni bergani va arz qilgani uchun;
- Rossiya Federatsiyasini konsul tashkilotlari va bajaruvchi organlarni vakolatli lavozimli shaxslari yoki notariuslari notarial harakatini amalga oshirganlari uchun;
- fuqarolik holati aktini yozib boruvchi organlar fuqarolik holati aktlarni davlat ro'yhatidan o'tkazganlik yoki boshqa huquqiy ahamiyatli harakat uchun;
- adliya, muassasa va tashkilotlar hujjatlar bergani uchun;
- Rossiya Federatsiyasi fuqaroligini olish yoki Rossiya Federatsiyasi fuqaroligidan chiqish, hamda boshqa huquqiy ahamiyatli harakatlarni («Davlat boji to'g'risida»gi qonunda ko'rilgan bo'lsa)ni ko'rib chiqqanlik va hujjatlar bergani uchun;

Davlat bojini hajmi davlat bojini to'lagan kuni eng kam ish haqini belgilangan soni asosida yoki da'voni, bitim, mulkni qiymatiga qarab o'rnatiladi va har bir huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakat uchun alohida belgilanadi. Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni amalga oshirish yoki hujjatlar berish to'g'risida bir vaqtni o'zida bir necha shaxs

murojaat qilinganda, davlat boji to'liq hajmida ularning bittasi tomonidan yoki o'rtada kelishilgan tartibda hammasi ma'lum qismdan to'laydilar. «Davlat boji to'g'risida»gi qonunda bir necha imtiyozlar ko'rilgan. Ular ma'lum huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar bo'yicha bir necha toifadagi to'lovchilarni to'lovdan ozod qilishdan iborat.

Davlat boji bank muassasiga naqd pulda, to'lovchini hisob raqamidan naqd pulsiz o'tkazish tartibida yoki notariusni o'ziga naqd pul berish shakllarida to'lanadi. Banklar tomonidan qabul qilingan davlat bojiga hamma holatda belgilangan shakldagi kvitantsiya beriladi. «Davlat boji to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasi qonunida huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni amalga oshirish uchun murojaat qilinganda yoki uni amalga oshirayotganda, hamda hujjatlarni berishdan oldin yoki berish vaqtida to'lovni berish qo'zda tutilgan.

Umumhuquqiy adliya, arbitraj sudi, konstitutsion adliyalar ko'rgan ishlar bo'yicha davlat bojini qabul qilgan bank, o'zi joylashgan hududda federal byudjetga o'tkazadi. Qolgan holatlarda bank o'zi joylashgan hududdagi mahalliy byudjetlarga o'tkazadi.

To'langan davlat boji quyidagi holatlarda qisman yoki to'liq qaytariladi:

1) «Davlat byudjeti to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasi qonunida belgilangan hajmdan ortiqcha bo'lganda;

2) Adliyaga berilgan ariza, shikoyat yoki boshqa qilingan murojaatlar qaytarilganda yoki voz kechilganda hamda vakolatli organlar tomonidan notarial harakatni amalga oshirishdan bosh tortilganda;

3) Ishni olib borishni to'xtatish yoki baxs (tortishuv)ni umum huquqiy adliyada, arbitraj sudida ko'rilishi mumkin bo'lmaganda da'voni ko'rmasdan qoldirish, hamda da'vogar suddan ilgarigi, belgilangan tartibda javobgar bilan o'zaro kelishmovchilikni ko'rib chiqmaganda yoki da'vogar huquqiy jihatdan layoqatli (yaroqli) bo'lmasa;

4) Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni, amalga oshirishdan davlat bojini to'lagan shaxs bosh tortsa, yoki huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni amalga oshiruvchi organga murojaat qilishdan oldin hujjatni olmaslikka qaror qilganda;

5) Chet el (umumiy fuqarolik) pasportini berishdan voz kechilganda.

Qaytib beriladigan davlat boji, fuqaroga yoki huquqiy shaxsga qaytarish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin moliya yoki soliq organi tomonidan bir oy ichida bajariladi.

15.2.9. «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» va ular asosida tashkil topgan soʻz va soʻz birikmasi nomidan foydalanganlik uchun yigʻim

Rossiya Federatsiyasini 2 aprel 1993 yil «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» va ular asosida tashkil topgan soʻz va soʻz birikmasini nomidan foydalanganlik uchun yigʻim toʻgʻrisida»gi qonunda tashkilotni nomida koʻrsatilgan soʻzlardan foydalanganlik uchun toʻlov belgilangan.

Davlat hoqimiyatini (qonun chiqaradigan, bajaradigan va adliya) federal organlari yigʻimni toʻlovchisi hisoblanmaydilar. Rossiya Federatsiyasining Markaziy banki va uning muassasalari, davlat byudjetidan tashqari fondlar toʻliq respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet muassasalari va tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari redaksiyasi (reklama, erotika nashrlaridan tashqari), umum Rossiya ijtimoiy birlashmalar va diniy birlashmalar ham bu yigʻimni toʻlamaydilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar, muassasa va tashkilotlar (tayyorlov, taʼminlovchi, joʻnatuvchi, savdo sh.j. ulgurji savdo tashkilotlaridan tashqari) foydalanganliklari uchun yigʻim stavkasi sotilgan mahsulot (bajarilgan ish, koʻrsatilgan xizmat) qiymatidan 0,5% hajmda belgilangan.

Tayyorlov, taʼminlovchi, joʻnatuvchi, savdo sh.j. ulgurji savdo qiluvchi, korxonalar va tashkilotlarga yigʻim stavkasi oborotdan 0,05% belgilangan.

Boshqa tashkilotlar uchun yigʻim stavkasi qonunda belgilangan 100 ta eng kam ish haqi hajmda koʻrsatilgan. Ayrim toʻlovchilar uchun yigʻim stavkasi pasaytirilishi mumkin. Lekin kamaytirish 50%dan oshmasligi kerak. Imtiyozlar Rossiya Federatsiyasi xukumatini qarori asosida beriladi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi xukumatini 31 oktyabr 1996 yil №1639-r sonli farmoyishi bilan qishloq xoʻjalik tashkilotlariga umumiy tushumda qishloq xoʻjalik mahsulotlarini sotishdan olingan tushum 70% dan kam boʻlmasa, yigʻim stavkasi pasaytiriladi. Rossiya Federal markazi –Butun Rossiya ilmiy-tekshirish, eksperimental fizika instituti, Rossiya davlat tsirk kompaniyalarga ham yigʻim stavkasi pasaytirilgan.

Korxonalar yigʻimni har kvartalda oʻzining ixtiyorida qoladigan foydadan, haqiqiy mahsulotni, sotishdan olgan tushum hisobiga oʻtgan kvartalni oxirgi oyidan keyin keladigan oyni 20 kunigacha toʻlaydi. Har yilgi yigʻim korxonani roʻyhatga (qayta roʻyhatga) olganda yigirma kunlik muxlat ichida beriladi. (Misol: Oliy arbitraj adliyasini prezidiumida, nomlardan foydalanish ishlari koʻrilgan. Ishni koʻrishda shunday xulosa qilingan: «Almazi Rossii-Saxa» aksioner kompaniyasi oʻzining nomida

«Rossiya» soʻzini ishlatib, nohaq yigʻimni toʻlamagan. Jarimalardan tashqari faqatgina soliqning summasi 623 mln. rub.ni tashkil etgan.)

15.3. Hududiy soliqlar

Hududiy soliqlar Rossiya Federatsiyasini soliq tizimida muhim rol oʻynaydi. Rossiyada «hududiy soliqlar» termini yaqin davrlarda kiritilgan. «Rossiya Federatsiyasi soliq tizimini asoslari toʻgʻrisida»gi Rossiya Federatsiyasi qonuni 20-moddasida Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar soligʻi va oʻlka, viloyat, avtonom viloyat, avtonom okruglar soliqlarini Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi tarkibiga qoʻshilgan.

Hududiy soliqlar quyidagilardan iborat:

- korxonani mol-mulkiga solinadigan soliq;
- oʻrmonchilik daromadi;
- suv xoʻjaligi tizimidan sanoat korxonalari suv olganliklari uchun toʻlov;
- taʼlim muassasalarini ehtiyoji uchun uchta birinchi hududiy soliqlar umummajburiy hisoblanadi va Rossiyani hamma hududlarida olinadi. Taʼlim muassasalarini extiyoji uchun soliqni federatsiya subʼektlarini qonun chiqaruvchi organlarini qarori bilan kiritiladi (yoki kiritilmaydi).

Korxonani mol-mulkiga solinadigan soliq. Hududlar byudjetini daromadida korxonani. mol-mulkiga solinadigan soliq muhim rolni oʻynaydi. Bu soliqni elementlari Rossiya Federatsiyasini 13 dekabr 1991 yilgi «Korxonalar mol-mulkiga solinadigan soliq toʻgʻrisida»gi qonunida koʻrsatilgan. Soliqni toʻlovchilar alohida balans, bankda hisob-kitob (joriy) scheti boʻlgan korxonalar, muassasa, tashkilotlar va ularning tarkibiy qismlari (vakolat xonalari, filiallari) hamda Rossiya hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi chet el huquqiy shaxslari hisoblanadi. Soliq solinadigan obʼekt korxonani balansida boʻlgan qiymatda ifodalangan mol-mulki hisoblanadi. Mol-mulkga asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish zapaslari va harajatlar yigʻindisi kiradi. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kam qiymatli va tez yaroqsiz boʻladigan buyumlar qoldiq qiymatlari boʻyicha hisobga olinadi. Soliq korxonalar mol-mulkini oʻrtacha yillik qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq stavkasining eng yuqori chegarasi soliq solinadigan bazani 2% dan oshmasligi kerak. Soliqning aniq stavkasini Rossiya Federatsiyasi subʼektlarining davlat hokimiyati organlari korxonalarini faoliyatiga qarab belgilaydilar.

Soliq summasi toʻlovchi tomonidan mustaqil har kvartalga yilni boshidan koʻpayib borishini inobatga olib hisoblanadi. Hisobot davridagi

mol-mulkni haqiqiy o'rtacha yillik qiymatidan kelib chiqqan holda maxsus hisob-kitob qilinadi. Byudjetga to'lanadigan soliq summasi ilgari to'langan summalarni chiqarib tashlash yo'li bilan va yilni oxirida soliq summasini to'liq qaytadan hisob-kitob qilish tartibi asosida aniqlanadi.

Hisoblangan soliq summasi kvartal buxgalteriya hisobotini topshirish uchun belgilangan kundan keyin 5 kun ichida va yillik buxgalteriya hisobotini belgilangan topshirish kunidan keyin 10 kun ichida byudjetga birinchi navbatda topshiriladi va korxonani moliya faoliyatini natijasiga o'tkazib boriladi. Ayrim tabaqa to'lovchilarga imtiyozlar beriladi. Soliq byudjet muassasalari, tashkilotlari, davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, advokatlar kollegiyasi, notarial palata, diniy birlashmalar va tashkilotlar, fermer xo'jaliklari mol-mulkiga solinmaydi. Markaziy bank va uning muassasalari ham bu soliqni to'lamaydilar. Soliq solish maqsadida korxonalar mol-mulkini qiymati to'liq yoki qisman to'lovchi balansidagi uy-joy, kommunal xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektlarini qiymatiga kamaytiriladi. Imtiyoz olish uchun soliqdan ozod qilinadigan ob'ektlarni soliq to'lovchi alohida hisobini olib borishi kerak.

Korxonani mol-mulkiga solinadigan soliq hududiy soliq bo'lishiga qaramay mahalliy byudjetlarni daromad qismini to'ldirishga ko'maklashadi. To'lov summalari teng tarzda hududiy va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi. Korxonani mol-mulkiga solinadigan soliqning roli oshib bormoqda. 1991 yili uning eng yuqori stavkasi 0,5% bo'lsa, keyingi yillari 2% ga chiqib ketdi. So'nggi yillarda mol-mulkka va resurslarga solinadigan soliqni ko'paytirish va daromad, foydaga tushadigan soliqlarni kamaytirish ma'qulligi to'g'risida nazariy takliflar berish boshlandi. Bu fikr tarabdorlari mol-mulk egalari soliq oshishi bilan mulkdan foydalanish samaradorligini oshiradilar, bu o'z navbatida ishlab chiqarishni o'sishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Bu fikr ilgari ham adabiyotlarda hukm surgan. Lekin soliq og'irligi daromaddan mulkka (kapital) o'tkazilsa, og'irlik vositachi firmalar va sotib oluvchi savdo tashkilotlardan ishlab chiqaruvchilarga o'tadi. Chunki milliy daromadni yuzaga keltirishga kerak bo'lgan minimal zaruriy mol-mulk qiymati va milliy daromadni qayta taqsimlangan summasi bilan solishtirib bo'lmaydi, demak, bu uslublarda soliq solish «issiq» kon'yukturani sovitib yuborishi mumkin. Lekin Rossiya iqtisodiyoti oldida umuman qarama-qarshi vazifa turibdi – ishlab chiqarishni jonlantirish, vatanni ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash zarurligi. Bunday rolni yuqori darajada olinadigan mol-mulk solig'i bajara olmaydi. O'tgan asrni saksoninchi yillarini ikkinchi yarmida fondlar uchun etarli yuqori darajada to'lov kiritilgan edi. Bu

shaklan o'zgartirilgan mol-mulk solig'i edi. Belgilangan maqsadga erishilmadi. Natijada soliq summasi mahsulot bahosini ustiga tushadi va inflyatsiya jarayonini yanada kuchaytiradi.

O'rmonchilik daromadi. O'rmonchilik daromadi asosan qishloq joylarda amal qiladi, hamda shaharlarda undirilishi mumkin. Masalan, ekilgan ixota daraxtlarini qirqish uchun o'rmonchilik o'lponi olinadi. O'rmonchilik o'lponi to'g'risidagi nizom Rossiya Federatsiyasi davlat soliq xizmati va Moliya Vazirligi tomonidan 14 dekabr 1993 yili tasdiqlangan. Belgilanishicha, o'rmonchilik o'lponi stavkalari Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar, o'lkalar, viloyatlar, avtonom viloyatlar, Moskva, Sankt-Peteburg shaharlarini hokimiyat organlari davlat o'rmonchilik boshqarmasini hududiy organlari bilan birgalikda belgilanadi. O'rmonchilik o'lponiga o'rmonga etkaziladigan zararlar uchun olinadigan jarima va moliyaviy jazolash mablag'lari ham kiradi.

O'rmonchilik o'lponi byudjetga tushadigan o'rmonchilik to'lovlarini 85% ini tashkil qiladi. Rossiyada o'rmonchilik boyliklaridan foydalanish uzoq tarixga ega. O'rmondan foydalanganlik uchun to'lovlar har xil nomlarga ega bo'lgan. Bular «o'rmonchilik daromadi», «to'nka to'lovi», «ildizi bilan olingan daraxt uchun yog'och to'lovi» va «o'rmonchilik o'lpon»laridan iborat. To'lov nomlarini o'zgarishi uning olish uslubiga kam ta'sir qilgan, soliq solinadigan bazasi kengaytirilgan va stavkalari o'zgargan(hozirda stavka - 20 rub har bir kubometr tayyorlangan yog'och uchun).

1998 yili o'rmonchilik to'lovlarini olish tartibiga muhim o'zgartishlar kiritilmadi, ular o'rmonchilik kodeksi, o'rmonchilik mahkamasi nizomlari asosida boshqariladi. Har bir tup yog'ochga berilgan to'lovni hajmiga tabiiy-geografik omillarni ta'sirini boshqarish uchun 1997 yili Rossiya Federatsiyasi xukumati qarori asosida soliq stavkasiga tabaqalashtirish kiritildi. O'rmondan foydalanishning eng asosiy ob'ektlariga eng past stavkalar qo'llanib, ular o'z ichiga er solig'ini oladi va o'rmonni taksalangan mintaqalari, o'rmon daraxti turlari, yog'och turlari va o'rmondan olib chiqish masofasiga qarab tabaqalashtiriladi. Masofalar bo'yicha ettita o'rmon taksasining razryadlari mavjud: birinchisi - 10 km.gacha, ettinchisi- 100 kmdan ortig'iga hisoblanadi. Eng past soliq stavkasi yaxlit (tutash o'rmon) hammasini kesish. Bunda yog'och zonasi 1 gektarga 100,1dan 150 zichlashgan kubometr gacha va qiyalik 20 gradusgacha bo'lishi kerak. Bunda eng past stavka koeffitsient bilan (0,9-1,05) to'g'rilangandan keyin olinadigan to'lovni pul bahosi chiqadi. Agar qiyalik tikkaligi 20 gradusdan ortiq bo'lsa, koeffitsient qiyalikni eng

tagigacha bo'lgan masofaga bog'liq va quyidagi holatda tabaqalashtiriladi. Masofa 0 dan 150 metrgacha bo'lsa, 0,7 koeffitsienti qo'llanadi, 151 dan 300 ga – 0,6 va 301 metrdan ko'p bo'lsa, 0,5 ishlatiladi. Tanlab qir qilganda, eng past stavka qo'llanilib, uni 20% ga ko'paytiriladi. Daraxtni yong'in natijasida zarar ko'rgan maydonlarda qir qilganda eng past stavka - 40% ga ko'paytiriladi. O'rmonchilik daromadini to'lovchilar Rossiya Federatsiyasi o'rmon fondida yog'och tayyorlaydigan o'rmondan foydalanuvchilar hisoblanadi, hamda o'rmon fondiga kirmaydigan maydonlarda o'rmon zonalarida qayta ishlab beradiganlar to'lovchi hisoblanadi.

To'lov turlari har-xil, bular:

- har bir berilgan tup uchun yog'och to'lovi (o'rmonchilik o'lponi);
- ikkinchi darajali o'rmon materiallarini tayyorlash (yig'ish), hashak yig'ish (o't o'rish) mol boqish, daraxt shirasi, yovvoyi mevalar, qo'ziqorin, dorivor o'simliklar, texnik xom ashyolar, asalari qutilarini joylashtirish va boshqa o'rmondan foydalanishlar uchun to'lov;
- o'rmonzorlarni, ovchilik xo'jaligi uchun foydalanish, dam olish, turistik va sport maqsadlarida foydalanish uchun to'lovlar;
- o'rmonchilik fondi yeri uchun to'lov.

O'rmonchilik to'lovi daraxtlarni qirqish bileti asosida to'lanadi. Hajmi 500 kubometr bo'lganda o'rmon daraxtlarini qirqish biletini berish vaqtida o'rmonchilik to'lovi olinadi. Yog'ochni o'rmon qirqish bileti asosida 500 kubometrdan ko'p berilganda quyidagi muxlat va hajmlarda o'rmonchilik to'lovi beriladi: 15 fevralda –15%, 15 martda – 10%, 15 aprelda – 10%, 15 mayda – 10%, 15 iyunda - 10%, 15 sentyabrda – 15%, 15 noyabrda – 15%, 15 dekabrda – 15%.

Sanoat korxonalarini suv xo'jaligi tizimidan olgan suvlari uchun to'lovi.

Resurs to'lovlari tizimi ichida renta xarakteriga ega bo'lgan to'lovlardan biri, suv xo'jaligi tizimidan olgan suv uchun to'lov hisoblanadi. Bu to'lov sovetlar davrida ham qo'llanilgan. Uning asosiy maqsadi iste'molchilarni suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishga qiziqtirishdan iborat. Lekin bu to'lov ramziy xarakterga ega edi. Uning summasi juda kam bo'lganligi uchun byudjet daromadi manbalari tarkibida ham katta o'rinni egallamagan. Bu to'lov xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin bu to'lovni renta xarakterligi esdan chiqishi kerak emas. Renta potentsial yashirin, holatda fiskal og'irlikni olib yuruvchi bo'lib, o'zining rolini bajarmasdan

qolmaydi. Shuning uchun ayrim iqtisodchilarni resurs soliqlarini ahamiyatini oshirish kerak degan fikrlarini qabul qilishga to'g'ri keladi.

Sanoat korxonalarini oladigan suv uchun to'lov Rossiya Federatsiyasi kodeksi me'yorlari va Rossiya Federatsiyasi 16.11.95 yilgi qonuni asosida boshqariladi. To'lovchilar bo'lib, sanoat korxonalarini hisoblanadi suvni to'g'ridan-to'g'ri suv xo'jaligi tizimidan oladimi, yoki boshqa sanoat korxonalariniidan uy-joy kommunal xo'jalikdan oladimi farqi yo'q. Tarif bir kubometr ist'emol qilinadigan yer usti manbalaridan yoki yer osti manbalaridan olinadigan suvga belgilangan. Suv uchun to'lov, limit chegarasida sanoat korxonasi iste'mol qilinganda tannarxiga olib boriladi, limitdan ortiqchasi – korxonada ixtiyorida qoladigan foydaga olib boriladi. Suvni suv xo'jaligi tizimidan limitdan ortiqcha olinganda, to'lov hajmi 5 marta ko'paytiriladi. To'lov, hisobot oyidan keyingi oyni 2 kunida to'lanadi.

15.4. Xalq ta'limi muassasalarini ehtiyoji uchun olinadigan maqsadli soliq

Federatsiya sub'ektlarining byudjetlarida sezilarli rolni xalq ta'limi muassasalarining ehtiyoji uchun solinadigan maqsadli soliq o'ynaydi. Bu soliq Rossiya Federatsiyasini deyarli hamma hududlarida qo'llaniladi. Soliqni to'lovchilar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi huquqiy shaxslar hisoblanadi. Soliq stavkasi Rossiya qonunchiligi asosida boshqariladi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan korxonada ish haqi hajmini (ish haqi fondi) 1%idan stavka ortiq bo'lishi kerak emas. Bu soliqni to'lash bilan bog'liq bo'lgan harajatlar korxonada va tashkilotlar faoliyatini moliyaviy natijalariga o'tkazib boriladi.

15.5. Mahalliy soliqlar

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq.
2. Yer solig'i.
3. Uy-joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektlarini ehtiyoji uchun solinadigan soliq.
4. Reklama solig'i.
5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yhatga olish uchun yig'im.
6. Kurort yig'imi.
7. Savdo qilish huquqi uchun yig'im.

Mahalliy soliqlar mahalliy organlar byudjetini to'ldirish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular tadbirkorlik

faoliyatini qo'shimcha rag'barlantirish yoki chegaralash vazifasini bajaradilar. Mahalliy soliqlar hududlar iqtisodiy siyosatini ajratib bo'lmaydigan qismini tashkil qiladi. Mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar daromadini asosiy manbai hisoblanadi. Moliyaviy resurslar etishmaganda yuqori byudjetlardan dotatsiya va subventsiyalar berish, zayomlar hisobiga to'ldiriladi. Hozirgi zamon Rossiya Federatsiyasini byudjet tizimi federatsiya sub'ektlari va mahalliy hokimiyat organlarini hududiy va mahalliy byudjetlarini daromad qismini tashkil qilishda va moliya resurslarini sarflashda yuqori darajada mustaqil ish olib borishlariga imkoniyat yaratadi. Rossiyada 1993 yili 23 xil mahalliy soliqlar kiritilgan. Ularning tarkibida 3 ta soliq Rossiya uchun umumlashgan xarakterga ega. Shuning uchun Rossiya Federatsiyasini hamma hududlarida undiriladi. Bular jismoniy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig'i va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish yig'imi.

Rivojlangan mamlakatlarni bozorga mo'ljallangan iqtisodida munitsipal soliqlarni qo'yidagicha tabaqalashtirish mumkin:

- xususiy soliqlar, ular mahalliy organlar tomonidan belgilanadi va faqat o'zining hududida undiriladi. Ularning tarkibida asosiysi, qoida bo'yicha mol-mulkka solinadigan soliq. Qolganlaridan yer solig'i, hunarmandchilik solig'i, bitimga solinadigan soliq, aktsiz, sotishga solinadigan soliqlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

- mahalliy byudjetlarga tushadigan federal soliqlariga ustamalar;

- ushbu hududda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan to'lov - soliq. Bu mehmonxonada yashagani uchun soliq (mehmonxona xonasi uchun to'lov emas), elektroenergiya, gazdan, suvdan, kanalizatsiya, aloqa xizmatlaridan, avtomashina turar joylaridan foydalanganlik uchun to'lovlar.

Mahalliy organlar siyosatini aniqlovchi (belgilovchi) soliqlar ham mavjud. Bu eng avvalo ekologiya solig'i. Bu soliq fiskal maqsadga ega emas, asosan tadbirkorlarni xo'jalikni yuritishda ma'lum usullardan foydalanishga majbur qiladi, ekologik toza dvigatelga ega bo'lmagan avtomobilni ishlab chiqarish foydali emas. Ularga talab past bo'ladi, chunki uning egalari yuqori soliq to'lashlari kerak. Atrof-muxitni iflos qiladigan texnologiyani ishlatish ham foydali emas. Rossiya Federatsiyasining qonunchiligida shu guruh soliqlari etarli darajada rivojlanish olmadi.

Rossiya Federatsiyasi mahalliy byudjetlarini daromadini asosiy qismini federal soliqlardan ajratmalar egallaydi. Bu holat hozirgi

iqtisodiyot uchun tabiiy hisoblanib, yaqin, kelajakda ham shunday saqlanib qoladi. Shunday holat ko'pchilik Evropa mamlakatlarida ham. Lekin AQShda emas, mahalliy byudjetlar daromadidagi proporsiyalar doim o'zgarib turadi. So'nggi yillari mahalliy soliqlarni salmog'i oshib bormoqda. Masalan, Moskva shaharini byudjetida mahalliy soliqlar salmog'i 1993 yili - 0,95%, 1995 yil -12,5% va 1997 yil - 22% ni tashkil qildi. Rossiyada mahalliy soliqlarni ko'pligi tadbirkorlarda norozilik tug'dirdi, buxgalteriya hisobini qiyinlashtiradi, ularning tushish ustidan nazoratini og'irlashtiradi. Lekin ushbu holatni hisobga olib, yaqin orada yangi mahalliy soliqlarni yangi turini kiritish ko'zda tutilmagan. Mahalliy soliqlar, yer solig'i va mol-mulk solig'idan tashqarisi fiskal xarakterga ega emaslar, ular joylarda iqtisodiy siyosatni belgilaydilar, tadbirkorlik faoliyatini bir yo'nalishini rag'barlantiradi, qolganini esa chegaralaydi. Bunda faqat byudjet manfaatigina ko'zlab qolmay, balki soliq to'lovchilarni ham hisobga olish kerakdir. Chunki ularsiz soliq bazasi ko'paymaydi. Rossiyani har bir hududida mahalliy soliqqa o'ziga xos yondoshish mavjud. Shuning uchun ular faqat soliq turlari bo'yicha emas, vazifalari va bajarayotgan funktsiyalari bilan ham farq qiladi.

Jismoniy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq. Soliqni to'lovchilar bo'lib, Rossiya Federatsiyasini 1991 yil 9 dekabr «Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq to'g'risida»gi qonunida ko'rsatilgan ob'ektlar hisoblangan jismoniy shaxslarning mulki hisoblanadi. Qonunga binoan soliq ob'ektlari jismoniy shaxslarni mulki hisoblangan. Ular yashash uylari, kvartiralar, dala hovli, garaj va boshqa qurilishlar; imorat va inshootlar, hamda motorli qayiq, vertolyotlar, samolyot va boshqa transport vositalari (avtomobil va mototsiklardan tashqari) hisoblanadi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq qurilishlar, imorat, inshootga solinadigan soliq va transport vositalariga solinadigan soliqlarga bo'linadi. Qurilish, imorat va inshootga solinadigan soliq har yili Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarini qonun chiqaruvchi organlari belgilagan stavkada, lekin ularning inventarizatsiya qiymatini 0,1% idan oshmagan hajmda, agar bunday qiymat bo'lmasa, - majburiy sug'urta bo'yicha belgilangan qiymatdan olinadi. Transport vositalaridan olinadigan soliq motorni quvvatiga qarab quyidagi hajmda olinadi.

Soliq bo'yicha to'lov soliq ob'ekti joylashgan (ro'yhatga olingan) mahalliy byudjetga olinadi. Soliqni hisoblash soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Rossiya transport vositalariga soliqlar turi (2003 y.)

Soliq solinadigan ob'ektlar	Soliq hajmi (soliq hisoblangan kundagi eng kam ish haqidan foiz hisobida)
Vertolyot, samolyot, teploxod: har bir ot kuchidan	10
har bir kilovatt quvvatidan	13,6
Yaxta, katerlar: har bir ot kuchidan	5
har bir kilovatt quvvatidan	6,8
Motochang'i va motorli qayiqlar, boshqa transport vositalari: har bir ot kuchidan	3
har bir kilovatt quvvatidan	4,1
Motori yo'q, boshqa transport vositalaridan (Rossiya Federatsiyasida «Rossiya Federatsiyasida yo'l fondlari to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilganlardan eshkakli qayiqlar va velosipedlardan tashqari)	5

Qurilish, imorat, inshootlar bo'yicha soliq har yilini 1 yanvariga bo'lgan holatdagi kommunal xo'jaligi bergan inventar qiymatidan kelib chiqib, agar bunday ma'lumot bo'lmasa, davlat majburiy sug'urta summasini hisoblashda olingan qiymatga qarab hisoblanadi. Agar qurilish, imorat va inshoot bir necha mulkdorlarni mulki hisoblansa soliq ularning ob'ektdagi ulushlariga qarab taqsimlanadi va to'lanadi. Transport vositalariga soliq har yilni 1 yanvariga bo'lgan holatga qarab, transport vositalarini ro'yhatga oladigan tashkilotlarni ma'lumoti asosida hisoblanadi.

Kommunal xo'jaligi organlari imorat va inshootlarni baholovchi hisoblanganligi uchun soliq organlarini talabiga binoan ma'lumotlarni soliqni hisoblash uchun berishlari kerak. Agar, belgilangan muxlatda bunday ma'lumotlar berilmasa, kommunal xo'jaligini lavozimli shaxslari 5 ta eng kam ish haqi hajmida jarima to'lashlari kerak. Soliq organlariga soliqni hisoblash uchun ma'lumotlar bepul beriladi.

Yangi qurilgan imorat, inshoot va olingan transport vositalari uchun soliq ularni qurilgan va olingan yilidan keyingi yilni boshidan olina boshlanadi. Bir necha shaxs mulkiga qarashli transport vositasi bo'yicha soliq nomiga yozilgan jismoniy shaxsdan olinadi. Merosga berilgan imorat

va inshootlar uchun soliq merosxo'rlardan meros ochilgan kundan boshlab olinadi. Imorat, inshoot, transport vositasi yo'q qilinganda, buzilgan hollarda soliq yo'q qilingan yoki buzilgan oyidan olinmaydi.

Egasi yo'q yoki egasi noma'lum mol-mulk soliqqa tortilmaydi. Shu bilan bir qatorda qurilish, imorat, inshoot va transport vositalaridan ular ishlatilayaptimi yoki yo'q, soliq baribir undiriladi. Qurilish, imorat, inshoot yoki transport vositalariga kalendar yil, davomida mulkdorchilik huquqi bir shaxsdan ikkinchisiga o'tganda birinchi yanvardan huquqini yo'qotgan kungacha eski mulkdor va mulkdorchilik huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab yangi mulkdor soliqni to'laydi. Yil davomida imtiyoz olish huquqi paydo bo'lsa, soliqni huquq paydo bo'lgan oydan qaytadan hisob-kitob qilinadi.

To'lov xabarnomasi to'lovchilarga 1 avgustdan kechiktirilmagan holatda soliq organlari tomonidan beriladi. Soliqni to'lash egalar tomonidan ikki marta amalga oshiriladi – 15 sentyabr va 15 noyabrdan kechiktirilmagan holatda. O'z vaqtida soliq to'lashga jalb qilinmagan to'lovchilar o'tgan 3 yildan ortmagan vaqtga to'laydilar. Noto'g'ri to'langan soliqni qaytadan ko'rish ham oldingi 3 yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

«Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq to'g'risida»gi qonunda fuqarolarni ayrim toifalari soliq to'lashdan ozod qilishi belgilangan. Soliq to'lashdan quvvati 10 ot kuchi yoki 7,4 kvt dan ortiq bo'lmagan motorli qayiq'larni egalari ozod qilingan. Imtiyozga huquqi bo'lgan shaxslar, soliq organlariga mustaqil ravishda kerakli hujjatlarni topshiradilar.

Rossiya Federatsiyasi davlat soliq xizmatini 15 may 1996 yilgi xatida ko'rsatilishicha, kommunal xo'jalik organlari (BTI) bir necha fuqarolar tomonidan yangi qurilgan uylar, kottedjlar, dala hovlilarni ro'yhatga olmaganliklari muammo bo'lib qolmoqda. Ularning ma'lumotisiz soliq organlari ob'ekt egalarini soliq to'lashga majbur qila olmaydilar. Bundan tashqari, soliqlarni to'liq olish uchun quyidagi kamchiliklar yo'l bermaydi: imoratlarni inventar narhi bilan sug'urta narhi bir-biriga to'g'ri kelmaydi yoki ular haqiqiy qiymatidan farq qiladi yoki ayrim imoratlar bo'yicha inventar va sug'urta bahosi mutlaqo yo'qligi qiyinchiliklar tug'diradi.

Yer solig'i. Mahalliy byudjetlar hajmida borgan sari yer solig'i tushumi sezilarli bo'lib bormoqda. Rossiya Federatsiyasini 11 oktyabr 1999 yilgi «Yer uchun to'lov to'g'risida»gi qonuni birinchi moddasiga binoan, yer solig'i arenda to'lovi va yerni me'yoriy bahosi bilan bir qatorda, undan foydalanganlik uchun to'lov shakli hisoblanadi.

Yer uchun to'lovni kiritishdan maqsad tabiatdan samarali foydalanishni rag'barlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, aholi yashaydigan manzillarda infrastrukturani rivojlantirish va h.k. iborat. Shuning uchun, yer solig'idan tushum faqat yerni qaytadan tashkil qilish tadbirlarini moliyalashtirish, yer kadastrini kiritish, monitoring o'tkazish, yerni himoya qilish, uning hosildorligini oshirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, yerdan foydalanuvchilarni yerni qayta tashkil qilishdagi harajatlarini o'rnini qoplash, ko'rsatilgan tadbirlarga berilgan ssudani qaytarib berish, ular bo'yicha foizlar to'lash, hududlarni muhandislik va ijtimoiy jihatdan qayta qurish maqsadlariga sarflanadi. To'lovchilar yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yerni egallovchilar hisoblanadi. Arendatorlar yer solig'i emas, arenda to'lovini beradilar. Huquqiy va jismoniy shaxslarga mulkka egalik qilishga yoki foydalanishga berilgan yerlar, sh.j. imorat va inshoot bilan band maydonlar, hamda shu imorat va inshootlarni ehtiyojini qoplash uchun ajratilgan yer uchastkalaridan soliq solinadigan baza sifatida yer solig'i olinadi.

Rossiya qonunchiligi asosida yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- qo'riqxonalar, botanika bog'lari va milliy parklar;
- kam aholisi bor xalqlar va etnik (biron xalqqa taaluqli) guruhlar yashaydigan manzillar va xo'jalik faoliyati olib boradigan yerlarda (an'anaviy hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan korxonalar va fuqarolar, ularning an'anaviy yashaydigan manzillarida shug'ullanuvchi korxonalar va fuqarolar;
- ilmiy-tekshirish tashkilotlari, qishloq xo'jalik va o'rmonchilik yo'nalishidagi o'quv ortlari, o'quv va ilmiy ishlar uchun foydalanadigan yerlar;
- byudjetdan moliyalashtiriladigan san'at, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, tabiat, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qiladigan davlat organlari, hamda diniy birlashmalar, ibodatxonalar davlat tomonidan yodgorliklar sifatida muhofaza qilinadigan, ularni tarix, madaniyat va arxitektura ob'ektlari;
- yerni qishloq xo'jalik ehtiyoji uchun qaytadan tiklash (rekultivatsiya) maqsadida olgan korxonalar, tashkilot va alohida fuqarolar (birinchi o'n yil davomida);
- ulug' vatan urushi qatnashchilari;
- nogironlik guruhidan qat'iy nazar nogironlar;
- sohasi bo'yicha yerdan foydalanadigan madaniyat, sport va jismoniy madaniyat, turizm, sport inshootlari muassasalari;

- ilmiy-tekshirish muassasalari va o'quv yurtlari;
- davlat aloqa korxonalarini;
- davlat hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatini ta'minlab berishi maqsadida ajratilgan yerlar;
- davlat va munitsipal mulkka tegishli sanatoriy-kurort muassasalari.

Aholi yashaydigan manzillar va kommunal xo'jaligida umumiy foydalanadigan yerlar ham soliqqa tortilmaydi. Ularga quyidagilar kiradi: yo'l aloqasi uchun foydalanadigan yerlar, - maydonlar, ko'chalar, (tor ko'chalar), qirg'oqlar, yo'llar hamda aholini madaniy-maishiy talabini qondirish uchun foydalanadigan yerlar, parklar, o'rmon parklari, skverlar, bog'lar, hiyobonlar, suv hovzalari, plyajlar va boshqalar. Birinchi marta fermer xo'jaligini tashkil qiluvchi fuqarolar yer ajratilgandan keyin 5 yil davomida yer solig'idan ozod qilinadi. Agar fermer yerdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanmasa imtiyoz bekor qilinadi. Mahalliy hokimiyat organlari yer solig'idan ozod qilish, yoki qo'shimcha imtiyozlar berish huquqiga egalari.

Mahalliy hokimiyat organlari Rossiya Federatsiyasi «Yer uchun to'lov to'g'risida»gi qonunida ko'rsatilgan har xil zonalarini o'rtacha stavkalaridan kelib chiqqan holda yer solig'ini stavkalarini belgilaydilar. O'zini hududini hisobga olib mahalliy hokimiyat soliq stavkasini tabaqalashtirishi mumkin. O'zining zonalarini bo'yicha tabaqalashtirish va stavkani belgilashda quyidagi qoidaga e'tibor berishlari kerak: o'rtacha stavka asosida hisoblangan soliq summasi, har bir hududiy-baholash zonadagi manzilgohga belgilangan aniq stavkasi asosida hisoblangan summaga teng bo'lishi kerak. Belgilangan me'yordan ortiqcha yer uchastkalaridan soliq ikki baravar hajmda olinadi.

Shahar va posyolkalar chegarasidagi uy fondi joylashgan yerlardan. Yer solig'i shu manzil uchun belgilangan yer solig'i stavkasidan 3% hajmda hisoblanadi. Soliq va arenda to'lovini belgilash uchun asos bo'lib mulk egasi huquqi, egalik qilish, foydalanish (ijara) to'g'risidagi hujjat xizmat qiladi. Yer solig'ini hajmi yer mulki hisoblangan, yer egalari, yerdan foydalanuvchilarni xo'jalik faoliyatini natijasiga qarab aniqlanmay, bir yilga belgilangan doimiy stavka asosida aniqlanadi. Yerdan foydalanuvchilarga bog'liq bo'lmagan holda xo'jalik faoliyatini yuritish sharoiti o'zgarsa soliq stavkasi qaytadan ko'rilishi mumkin. Stavkalar alohida qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega va qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan yerlar uchun belgilanadi. Soliqni to'lash tartibi huquqiy va jismoniy shaxslarga alohida belgilangan. Huquqiy shaxslar to'laydigan yer soliqlarini ularning o'zi hisoblaydi. Har yili 1 iyuldan kechiktirilmagan

holda soliq organlariga har bir yer uchastkasi bo'yicha alohida hisob-kitoblarni topshiradi.

Yangi ajratilgan yer uchastkalari bo'yicha uni olgandan keyin bir oy ichida hisob-kitobni topshirishlari kerak. Yer solig'ini to'lash harajati mahsulotni (ishni, xizmatni) tannarxiga olib boriladi. Imoratga xizmat qiladigan yer uchastkasi bo'yicha imorat egalari uni qancha qismini o'z mulklariga olganlariga, ulushlariga qarab yer solig'i summasi proporsional ravishda taqsimlanadi. Agar yer bir necha mulkdor huquqiy yoki jismoniy shaxsni mulki bo'lsa, yuqoridagi tartibda bo'linib, har bir yer egasi o'zi to'laydi. To'lovchilarni hisobga olish va soliq'larni hisoblash har yil 1 iyul holatiga amalga oshiriladi. Davlat soliq inspeksiyasi to'lovchilar hisobini olib boradi, va ularni hisoblash va to'lash ustidan nazorat qilib to'radi. Soliq summasi baravar hajmda 15 sentyabr va 15 noyabrdan kechiktirilmagan tartibda to'lanadi.

Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarini qonun chiqaruvchi (vakolatli) hokimiyat organlari va mahalliy organlar, mahalliy sharoitni hisobga olib, soliq to'lashni boshqa muxlatlarini ham belgilab berishi mumkin. Yer solig'ini summasi kerakli byudjetlarni daromad va harajat qismlarida alohida qatorda hisobga olinadi. Soliq to'lashga jalb qilinmagan to'lovchilar, o'tgan uch yildan ortiqqa to'lamaydilar. Soliqni qaytadan ko'rib chiqish ham o'tgan 3 yildan ortiq bo'lmagan davrga amalga oshiriladi.

Uy-joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektlarini ehtiyoji uchun solinadigan soliq. Uy-joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektlarini ehtiyoji uchun solinadigan soliqni vakolatli hokimiyat organlari «Soliq tizimini asoslari to'g'risidag»gi qonunni 21 moddasi asosida kiritadilar. Uni to'lovchilar hokimiyat organlariga qarashli hududlarda o'z faoliyatini olib boradigan huquqiy shaxslar hisoblanadi.

Soliqni aniq stavkalari mahsulotni sotish (ish, xizmat)dan olingan tushumnii 1,5% ortiq bo'lishi mumkin emas.

Uy-joy va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektlarini ehtiyoji uchun solinadigan soliqni hisoblashda sotish hajmi (soliq solinadigan ob'ekt) ayrim tarmoqlar bo'yicha quyidagacha olinadi:

- tayyorlov, sotuv va ta'minot-ta'minlash tashkilotlari bo'yicha-
ulardagi sotish hajmi sotishdan olingan yalpi daromad hisoblanadi. Tayyorlov ta'minot va ta'minlash tashkilotlarida yalpi daromad deb sotish, sotib olish (QQS qo'shilmagan) bahosi o'rtasidagi farq hisoblanadi;

- boshqa tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar, muassasa va tashkilotlar uchun mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan (QQS qo'shilmagan) olingan haqiqiy tushum hisoblanadi;

- bank va boshqa kredit muassasalari bo'yicha soliq soliq solinadigan daromadlar summasidan olinadi;

- birjalar bo'yicha soliq komission yig'im, birja punktlarida amalga oshirilgan bitimlardan mukofot ajratish, broker joylarini sotish, ular qisqa muxlatlarga berib turganligi uchun olingan tushumlar; savdoda qatnashish huquqini olgani uchun to'lov axborot-kommertsiya va boshqa to'lovli xizmatlar uchun tushgan mablag'lar. Soliqni to'lovchi yilni boshidan o'sib borish yig'indisi asosida hisoblab avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun hisoblash va to'lash tartibida amalga oshiriladi.

Mahalliy vakolatli organlar tomonidan belgilangan me'yor asosida hisoblangan korxonalar balansida bo'lgan yoki ulush tartibida moliyalashtiriladigan uy-joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektiga qilingan korxonalar, tashkilot harajatlari to'g'ridan-to'g'ri soliq summasidan chiqarib tashlanadi.

«Soliq tizimi asoslari to'g'risida»gi qonunni 21 moddasida ko'rsatilishicha bu soliqni to'lovi to'liq korxonalar moliya faoliyatini natijasiga olib boriladi. Boshqa hududlarda filialga ega bo'lgan korxonalar uy-joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ekti ehtiyoji uchun soliq to'lovini o'sha hududdagi byudjetlarga filialda ishlayotgan ishchilarni umumiy xodimlar tarkibidagi ulushiga yoki ularning haqiqiy ish haqisini salmog'iga qarab proporsional ravishda o'tkazadilar.

Reklama solig'i. Reklama solig'i «Soliq tizimini asoslari to'g'risida»gi qonunni 21-modda «3» p.1 asosida kiritiladi.

Reklama solig'ini to'lovchilar quyidagi reklama beruvchilar hisoblanadi:

- shahar (tuman) hududida joylashgan mulkdorchilik shakli va qaysi mahkamaga qarashidan qat'iy nazar hamda Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bo'yicha huquqiy shaxs holatiga ega korxonalar va tashkilotlar, ularning filiallari (mustaqil buxgalteriya balansi va bankda hisob-kitob raqamiga ega) va shunga o'xshash bo'limlari, hamda chet el huquqiy shaxslari;

- shahar (tuman) hududida o'z faoliyatini olib boruvchi yakka tadbirkorlar;

Soliq solinadigan ob'ekt o'zini mahsulotini (ish, xizmat), xo'jalik usulida bajarilgan ishlarni qo'shib reklama qilish bo'yicha, reklamani tayyorlash, uni tarqatish xizmatini qiymati hisoblanadi.

Soliq stavkasi korxonaga yoki jismoniy shaxsga, ko'rsatilgan xizmat qiymatini 5%dan yuqori bo'lmagan tarzda belgilanadi. Soliqlash to'lovchilar soliq organlariga maxsus hisoblar topshiradilar va soliqni mahalliy davlat hokimiyati organlari belgilagan muxlatlarda to'laydilar.

Ommaviy axborot vositalarida reklama uchun soliqni xizmat uchun yozilgan hisob raqamiga alohida qatorda qo'shish yo'li bilan amalga oshirish kerak. Ommaviy axborot vositalari organlari, bajaruvchi hokimiyat organi belgilagan va moliya ham soliq organlari bilan kelishilgan muxlatda, reklama uchun olingan soliq summasini belgilangan mahalliy byudjet daromadiga o'tkazadi. Agar reklama mustaqil ravishda olib borilsa, korxonaga (yakka tadbirkor)lar reklama solig'ini o'zlari to'laydilar. Reklama solig'i to'langani haqida hujjat ko'rsatilmasa reklama osiladigan (ko'rsatadigan) manzillarga joylashtirilmaydi. Soliq summasi mahalliy byudjetga o'tkaziladi. Mahsulot (ish, xizmat) to'g'risida reklama beruvchilar soliq to'lash bo'yicha harajatlarni moliya faoliyatini natijalariga olib boradilar.

Mahalliy davlat organlari quyidagi reklama turlari bo'yicha imtiyozlar berishlari mumkin:

- tijorat maqsadiga ega bo'lmagan reklamalar;
- muxtojlariga yordam berish tadbirlarini reklamasi;
- tovarlarni sotish, (shu jumladan vitrinalar) bo'yicha imorat ichida joylashgan axborot doskalarini osib qo'yish;
- korxonaga, muassasa va tashkilotlarni joylashgan manzilini, telefon, telefaks, teletayplarini o'zgartirish to'g'risida e'lonlar, xabarnomalar;
- davlat hokimiyat organlarini ularga yuklatilgan vazifalarini (funktsiyalarini) o'zgargani to'g'risida e'lonlari;
- ushbu hudud xususiyatlaridan kelib chiqib, ish olib borish, yo'lni kesib o'tish (yurish)ni va h.k. chegaralovchi ma'lumotlarga ega bo'lgan ogohlantirish e'lon taxtalari.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni ro'yhatga olish uchun yig'im. Rossiyaning 7 dekabr 1991 yilgi «Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yhatga olish yig'imi va ularni ro'yhatga olish tartibi to'g'risida»gi qonunga binoan, huquqiy shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga hohish bildirgan jismoniy shaxslar maxsus ro'yhatga olish yig'imini to'laydilar. Ro'yhatga olish yig'imi hajmini eng yuqori chegarasi qonunda belgilangan minimal ish xaqi hajmidan ortiqcha bo'lmagan holda belgilash hamda qaysi toifa to'lovchilarga imtiyozlar berish haqida masalani mahalliy davlat hokimiyatini vakolatli organlari echadi.

Ro'yhatga olish to'g'risidagi arizani ko'rishda mahalliy ma'muriyat belgilagan hajmi chegarasida ayrim to'lovchilarga aniq to'lov hajmini o'rnatish mumkin. Tadbirkor ro'yhatga olingan hududda yig'im summasi mahalliy byudjetga tushadi. Ro'yhatga olish yig'imi bank muassasi yoki boshqa aholidan to'lov oladigan muassasalar orqali qabul qilinadi. To'langan ro'yhatga olish yig'imi qaytarilmaydi. Agar jismoniy shaxs to'liq o'rtoqlik qatnashchisi sifatida guvohnomasi bo'lsa, ro'yhatga olish yig'imi olinmaydi.

Kurort yiimi. Kurort yig'imi Rossiyaning 12 dekabr 1991 yil «Jismoniy shaxslardan kurort yig'imi olish to'g'risida»gi qonun asosida amalga oshiriladi. Uni to'lovchilar ro'yhati Rossiya Federatsiyasi xukumi belgilagan ro'yhatdagi kurort manzillarda bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Kurort yig'imini eng yuqori chegarasi belgilangan minimal ish haqini 5%dan ortiq bo'lmasligi kerak. Yig'imni aniq hajmi uning hududida kurort manzili joylashgan Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarini vakolatli organlari tomonidan belgilanadi.

Kurort yig'imi to'lovchilar tomonidan ular vaqtincha yashab turgan manzillarida to'lanadi. To'lovchi kurort manzilini bir joyidan ikkinchi joyiga o'tib, yashash joyini o'zgartirsa yig'im ikkinchi marta olinmaydi. Kurort manziliga kelgan shaxslar, yig'imni kelgan kundan boshlab uch kun ichida to'lashlari kerak. Kurort yig'imini mehmonxona ma'muriyati yoki boshqa mehmonxonaga o'xshagan muassasa, kelganlarni ro'yhatga olish bilan bir vaqtda oladi. Shu tartibda kvartira-o'rtada turuvchi tashkilot fuqarolarni uylarga (kvartiralarga) yuborganda to'laydilar (turistik-ekskursiya korxonalariga va tashkilotlari bergan putevkalardan tashqari). Kvartira -o'rtada turuvchi tashkilot yubormagan, o'zi uy topib (kvartira)larda turadigan shaxslar hamda (marshrut kitobchasi bilan sayohat qilib yurganlardan tashqari) palatka, avtomashina va h.k. yashovchilar kurort yig'imini bank muassasalariga yoki poselka, qishloq sovetiga mustaqil to'lashlari kerak. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida belgilangan qoidalar asosida olib boriladigan uy kitoblari va propiska kartochkalarida (qayd qilish guvoxnoma) kurort yig'imi olinganligi to'g'risidagi kvitantsiya nomeri va to'langan muxlati ko'rsatilishi kerak. Agar to'lovchi qonunni 3-moddasiga binoan yig'im to'lashdan ozod qilinsa, uy kitoblari va ro'yhatga olish kartochkalarida imtiyozga huquq borligini tasdiqlovchi nomer va boshqa rekvizitlari (belgilari) ko'rsatilgan hujjat to'g'risida yozuv qoldirilishi kerak. Belgilangan namunagi kvitantsiya bo'yicha kurort yig'imi olinadi.

Kurort yig'imidan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, nogironlar va ularni kuzatib (olib) kelganlar, putyovka (yo'llanma) va kursovkalar bilan sanatoriya, dam olish uylari, pansionatlarga (shu jumladan dam olish bazalari), kurort manzillariga ish yuzasidan xizmat yo'llanmasi, o'qishga va doimiy yashashga kelganlar, turistik-ekskursiya tashkilotlarini planli turistik marshrutlari bo'yicha sayohat qilib yurgan shaxslar va marshrut kitobchalari bo'yicha sayohat qilib yurganlar, erkaklar 65 va undan yuqori, ayollar 55 va undan yuqori yoshdagilar va ularni oldiga kelgan bolalari ozod qilinadi.

Savdo qilish huquqi uchun yig'im. Savdo qilish huquqi uchun yig'imni «Soliq tizimi asoslari to'g'risida»gi qonunni 21-moddasi «S» p.1. asosida mahalliy hokimiyatni vakolatli organlari belgilaydi. Taxminiy nizomga binoan savdo qilish huquqi uchun yig'imni to'lovchilar Rossiyani va boshqa davlatlarni korxonalar, tashkilotlari va fuqarolari doimiy savdo joylarida (dukon, oshxonalar, kafe, kiosk va boshqalar) va mahalliy organ belgilagan joyda qo'lda erkin sotuvchi tartibida, tashqariga chiqariladigan peshtaxtalar, ochiq peshtaxtalar, avtomashinalarda tovar va buyumlar bilan savdo qiluvchilar hisoblanadi.

Soliq solish ob'ekti savdo qilish uchun huquq olish hisoblanadi.

Savdo qilish huquqi uchun yig'imini aniq hajmi mahalliy hokimiyatni vakolatli organlari tomonidan savdo qilishni kiritish to'g'risidagi qarorni qabul qilish vaqtida sotish joyini manzili, sotish hajmi, tovarlarni turi va h.k.lar asosida belgilanadi. Ayrim hududlarda yig'im stavkasi faoliyatini turiga (ulgurji yoki chakana savdo, ijtimoiy ovqatlanish) ombor imoratlarini maydoniga, savdo manzilini turlariga (mayda, chakana savdo tizimi, magazinlar va h.k.) qarab o'rnatiladi.

Mahalliy hokimiyatni vakolatli organlari savdo qilish huquqi uchun yig'imni huquqiy va jismoniy shaxslar uchun savdo qilish joyini hisobga olmagan tarzda ham belgilashlari mumkin. Doimiy savdo manzilida savdo qiluvchi huquqiy va jismoniy shaxslar, yig'imni savdo qilish huquqi uchun patent olib to'laydilar. Patentda qancha davrga berilganligi, sotishga mo'ljallangan tovarlarni guruhlarini, savdo qilish manzillari (savdo shahobchalari) ko'rsatilgan bo'ladi. Savdo qilish huquqi uchun yig'imni hokimiyatni bajaruvchi organlari belgilagan vaqtincha savdo qilish manzillarida huquqiy va jismoniy shaxslardan bir martalik talon berish orqali olinadi. Ushbu talonlarni hokimiyatni bajaruvchi organlari qarori bilan maxsus ajratilgan ularni mehnatlariga tushgan mahalliy soliq va to'lovlar hisobidan ish haqi beriladigan yig'uvchilar hamda bozor ma'muriyati beradi. Qulay bo'lishi uchun bir martalik talon savdo qilish

kunlarini istalgan kuniga berilishi mumkin. Agar yig'im summasi bank muassasiga berilgan bo'lsa, savdo qilish uchun talon yig'im to'langani to'g'risidagi bank bergan kvitantsiya o'rniga beriladi.

Ommaviy savdo joylarida (yarmarka, bozor) bir martalik nomi ko'rsatilgan talon o'rniga, kassa apparatlari mavjud bo'lsa, kassa cheklari beriladi va bu cheklar faqat ko'rsatilgan savdo kunigagina yaroqli deb hisoblanadi. Savdo qilish huquqi uchun yig'imni to'lash savdo qilish huquqi uchun patent yoki litsenziya, bir martalik talon olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Stavkani olinadigan daromadga qarab belgilashda soliq organlari bilan kelishilgan holda boshqa to'lash muxlatlari va bu yig'im bo'yicha hisob-kitoblarni topshiradi. Savdo qilish huquqini olish uchun yig'imdan kelib tushgan mablag' savdo faoliyatini amalga oshirilgan manzilni byudjetiga tushadi. Boshqa hududlarda huquqiy shaxs tuzmasdan ishlayotgan filiallari bo'yicha korxonaga yig'imni filial joylashgan tumanni byudjetiga va o'sha hududda qo'llanayotgan stavkalar asosida to'laydi. Korxonaga va tashkilotni savdo qilish huquqi uchun yig'imni to'lash harajati foyda (daromad)ga solinadigan soliqni to'lagandan keyin, ixtiyorida qoladigan foyda hisobidan qoplaydi.

Mahalliy hokimiyatni vakolatli organlari ayrim tabaqa to'lovchilarga yig'imni to'lash bo'yicha imtiyozlar belgilashi mumkin.

Yuqorida eslatilgan qonunni 21-moddasiga («3» p.1.) binoan savdo qilish huquqi uchun yig'imni tuman, shahar (tumanlarga bo'linmagan), tuman (shahardagi), poselka va qishloq hokimiyatni vakolatli organlari tomonidan belgilanadi. Shuning uchun, tuman bo'limlariga ega bo'lgan shaharlarni yig'imni kiritishini o'zining vakolatini oshirib yuborganligidan xabar beradi.

Rossiya Federatsiyasini soliq tizimi o'zining tashqi tuzilishidan va soliqlar tarkibi bo'yicha amaliyotda deyarli to'liq Evropa modelini qaytaradi. Bir xil turdagi soliqlar har xil iqtisodiy sharoitida turlicha o'zini olib borishni alohida asoslashga zaruriyat yo'q.

Hozirgi ko'rinishida Rossiyani soliq tizimi fuqaro va korxonalarni bozor faoliyatini muvafaqiyatli olib borishiga etarli yordam berayotgani yo'q. Shuni hisobga olib, 2004 yili soliq yukini pasaytirish siyosati saqlanib qoldi. Bu ayniqsa qayta ishlov beradigan tarmoqlar korxonasi va xizmat ko'rsatuvchilar sohasiga taaluqli. Bu siyosat o'z navbatida investitsion faoliyatga yangi turtki berdi, foydani oshirish uchun qiziqtiradi, yashirin (hufiyona) xo'jalik faoliyatidan voz kechish, innovatsion faoliyatni kuchaytirish va yuqori texnologiyani rivojlanishiga olib keldi.

Shu maqsadda 2007 yili sotish solig'i bekor qilish rejasi turibdi. Bu byudjetga 70 mlrd. rub. turishi mumkin. Bir vaqtda qo'shilgan qiymat solig'ini stavkasini 20 dan 18% tushirishga harakat qilinadi. Agar ijobiy (qulay) moliyaviy holat yuzaga kelsa, 2007 yildan boshlab bu soliqni yagona 16% stavkasi qo'llanishi mumkin.

2005 yildan boshlab, pensiya, tibbiyot va ijtimoiy sug'urta sohalarida qator tadbirlarni, o'tkazish bilan bir qatorda yagona ijtimoiy soliqni stavkasi sezilarli darajada pasaytirildi. Bu esa o'z navbatida ish haqini soliqdan yashirmaslik, ochiq ko'rsatishga olib keldi. 2003-2004 yillari mol-mulkni soliqqa tortish tizimi tubdan o'zgartirildi. Mol-mulk solig'i hududiy va mahalliy byudjetlarni ko'zga ko'ringan daromadlariga aylanib, mulkdan samaradorli foydalanish uchun sharoit yaratildi.

Soliq tizimini tubdan o'zgartish o'zining nihoyasiga etib bormoqda. Birinchi o'ringa soliq tizimini barqarorligini saqlab qolish va uni biznesi ochiq olib borish va soliq tushumlarini ko'paytirish omili sifatida foydalanish tavsiya qilingan. Qonunchilikda kiritilayotgan soliq va yig'imlar to'g'risidagi ayrim o'zgarishlar qonunchilikni aniqligini va uni soliq to'lovchilar tomonidan bir xil qo'llanilishini ta'minlab berish vazifasini bajaradi. Shunday qilib, soliq tizimini takomillashtirishni asosiy maqsadi bo'lib, kapitalni ishlab chiqarishga jalb qilish, tabiiy investitsion sharoitni yaratish birinchi navbatdagi vazifalarga aylantirishdan iborat.

Asosiy tayanch iboralar:

- Biriktirilgan va boshqaruv soliqlari
- Ajratmalar me'yori
- Dotatsiya, subventsia, ajratmalar
- Kameral, hujjatli, qarama-qarshi tekshiruvlar
- QQS ni umumiy, imtiyozli va maxsus to'lash muxlatlari
- Qiymat, yalpi daromad, sof daromadlari
- Suv uchun to'lovni renta xarakteri

Takrorlash uchun savollar:

1. Rossiyani yangi soliq tizimini tashkil topish xususiyatlari
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va xuquqiy shaxslardan olinadigan foydaga solinadigan soliqlarni byudjetda tutgan o'rni bo'yicha Rossiyani Evropa mamlakatlaridan farqini ko'rsating
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qaysi yo'nalishlarda takomillashtirish zarur?

4. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olishda soliq bazasini aniqlash mezonlari

5. Meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq ob'ektini ta'rifini bering

6. O'rmonchilik daromadi bo'yicha soliq stavkalariga qanday tabiiy geografik omillar ta'sir qiladi?

7. Xalq ta'limi muassasalarini ehtiyoji uchun olinadigan maqsadli soliq

Test savollari

1. Federal daromadlar guruhini aniqlang:

a) Qo'shilgan qiymat solig'i, korxonalar foydasiga solinadigan soliq, aksizlar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, bojxona boji, yo'l fondiga olinadigan soliq, davlat boji, Rossiya Federatsiyasi nomidan foydalanganlik uchun yig'im.

b) Qo'shilgan qiymat solig'i, o'rmonchilik daromadi, aksizlar, suv xo'jaligi tizimidan sanoat korxonalarida olinadigan suv uchun to'lov.

c) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, kurort oromgohi yig'imi, korxonalar foydasiga solinadigan soliq, poygada yutganlik uchun yig'im.

d) Qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, o'yin biznesini ochish uchun yig'im, yer solig'i, o'rmonchilik daromadi.

e) Korxonalar foydasiga solinadigan soliq, otchoparda poygada qatnashishi uchun yig'im, it egalaridan olinadigan yig'im.

2. Hududiy soliqlar guruhini belgilang.

a) Jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq, yer solig'i, kvartiraga order berish uchun yig'im, o'rmonchilik daromadi.

b) Aksizlar, jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq, reklama solig'i, yer solig'i, kurort oromgohi yig'imi.

c) Korxonalar foydasiga solinadigan soliq, savdo qilish huquqi uchun yig'im, korxonani mol-mulkiga solinadigan soliq, it egalaridan olinadigan yig'im.

d) Korxonani mol-mulkiga solinadigan soliq, o'rmonchilik daromadi, suv xo'jaligi tizimidan sanoat korxonalarida olinadigan suv uchun to'lov, huquqiy shaxslardan olinadigan ta'lim beruvchi muassasalar ehtiyoji uchun olinadigan soliq.

e) Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, poygada yutganlik uchun yig'im, aholi yashaydigan hududlarni tozalash uchun yig'im, aksizlar, qo'shilgan qiymat soligi.

3. Rossiya Federatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda qaysi mexanizmdan foydalaniladi?:

- a) $R(B+M)$
- b) $RB+RM$
- c) $R(O-N)$
- d) $RO-RN$
- e) Hammasidan foydalaniladi

4. Mahalliy soliq va yig'implarni belgilang:

a) Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig'i, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan ro'yhatga olish yig'imi, kurort zonalarida oromgohlarda ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga solinadigan soliq, kurort oromgohi yig'imi, savdo qilish huquqi uchun yig'im, maqsadli yig'implar (militsiya harajati tizimi ehtiyojlari uchun, hududlarni obodonlashtirish).

b) Reklama solig'i, avtomobillar, hisoblash texnikasi va kompyuterlarni qaytadan sotishga solinadigan soliq, it egalaridan olinadigan yig'im, vino, aroq mahsulotlarini sotish huquqi uchun olinadigan litsenziya yig'imi, mahalliy auktsion va lotoreyalar o'tkazish huquqini olish uchun litsenziya yig'imi, kvartiraga order berish uchun yig'im.

c) Avtotransportni joylashtirish uchun yig'im, mahalliy simvolika, ramziy belgilardan foydalanish uchun yig'im, otchoparda poygada yutganlik uchun yig'im, otchoparda totalizatoridagi o'yinda qatnashgani uchun yig'im.

d) Birjada amalga oshirilgan bitimdan yig'im, kino, telesur'atlarga olish huquqi uchun yig'im, aholi yashaydigan hududlarni tozalash uchun yig'im, o'yin biznesini ochish uchun yig'im, uy-joy fondi va madaniy oqartuv sohasi ob'ektlari ehtiyojini qoplash uchun soliq.

- e) a,b,c,d

5. Korxonani foydasiga solinadigan soliq, stavkalarini qaysi biri korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha qo'llanadi?:

- a) 15,70%
- b) 43%
- c) 35%
- d) 90,6%
- e) Hammasi qo'llanmaydi

6. Korxonalar foydasiga solinadigan soliq bo'yicha to'lovchilar, faoliyat turlari, soliq solinadigan daromadlarini ajratib ko'rsating.

a) 1) Korxonalar va tashkilotlarni asosiy faoliyati bo'yicha.
2) Banklar, sug'urta tashkilotlari, dallollik va vositachilik tashkilotlari, birja, broker kontoralari.

b) 1) Kapitaldan daromadlar (dividendlar, foizlar).

2) Videoko'rsatish, videoprokat, videomahsulotlarni ijara qilish.

c) 1) Qishloq xo'jalik shirkatlari.

2) Irrigatsiya va melioratsiya suv xo'jaligi tashkilotlari.

d) 1) Kazino, o'yin biznesi.

2) Fraxt qilish bo'yicha daromad.

e) a, b, d

7. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqni to'lovchilar:

a) Rezidentlar

b) Norezidentlar

c) Chet el shaxsiy kompaniyalari ularning daromadi uning egalarini daromadi hisoblanadi.

d) a,b,c

e) Hammasi noto'g'ri

8. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olishda umumiy daromaddan nimalar chiqariladi.

a) Eng kam ish haqi hajmida bolalar va boshqa qaramog'idagi odamlar harajatini qoplash uchun.

b) Hayr-ehson tariqasida hisob raqamidan o'tkazib yuborilgan pullar harajati.

c) Yangi uy-joy, kvartira olish uchun bankdan olingan kredit va uni foizini qaytarish harajati.

d) Rossiya Federatsiyasi pensiya fondiga ajratmalar.

e) a,b,c,d

9. Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini stavkasi taxminan necha foizga boradi?:

a) 30

b) 60

c) 70

d) 88

e) 90

10. Yo'l fondiga quyidagi qaysi soliqlar kiradi?:

a) Yoqilg'i va moylash materallarini sotish uchun soliq.

b) Avtomobil yo'llaridan foydalanlik uchun soliq.

c) Transport vositalari egalaridan olinadigan soliq.

d) Avtotransport vositalarini olish uchun soliq.

e) a,b,c,d

11. Meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq quyidagi qaysi mulklarga qo'llanadi?:

- a) Korxonada xodimiga kvartirani tekinga berdi.
- b) Mulkni qiymati eng kam ish haqining 70 tasiga teng.
- c) Eri xotiniga avtomobil hadya qildi.
- d) Qarindoshi o'limi oldidan dala hovlisini hadya qildi.
- e) Huquqiy shaxs xodimiga velosipedni hadya qildi.

12. Qaysi holatlarda to'langan davlat boji tuluq yoki qisman qaytarib beriladi?:

a) «Davlat byudjeti to'g'risidagi» qonunda belgilangan hajmdan ko'p to'langan bo'lsa,

b) Adliyaga berilgan shikoyat qaytarilsa, vakolatli organlar notarial holatni amalga oshirishdan bosh tortsa,

c) Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatni amalga oshirishdan davlat bojini to'lagan shaxs bosh tortsa,

d) Chet el (umumiy fuqarolik) pasportini berishdan voz kechilsa

e) a,b,c,d

13. O'rmonchilik daromadiga qaysi to'lov turlari kiradi?:

a) Har bir ildizi bilan olingan tup uchun yog'och to'lovi (o'rmonchilik o'lponi).

b) Ikkinchi darajali o'rmon materiallarini tayyorlash, hashak yig'ish, mol boqish, daraxt shirasi, mevalari, qo'ziqorin, dorivor o'simliklar, asalari qutilarini joylashtirish va boshqa foydalanishlariga to'lovlar.

c) O'rmonzorlarni ovchilik xo'jaligi uchun foydalanish, dam olish, turistik, sport maqsadlarida foydalanish uchun to'lovlar.

d) O'rmonchilik yer fondi uchun to'lov

e) a,b,c,d

14. Yog'ochni o'rmon daraxtini qirqish bileti asosida berilsa, qaysi hajmda va muxlatlarda o'rmonchilik to'lovi beriladi?:

a) 15 fevral-15%; 15-mart-10%; 15-aprel-10%; 15 may-10%

b) 15 iyul-10%; 15 sentyabr-15%

c) 15 iyul-10%; 15 avgust-15%

d) 15 noyabr-15%; 15 dekabr-15%

e) a,b,d

15. Qaysi guruh mahalliy soliqlar Rossiya uchun umumlashgan xarakteriga ega va hamma mintaqalarda olinadi?:

a) Kurort oromgohi yig'imi, kino va telesuratlariga olish huquqi uchun yig'im.

b) Xalq ta'limi muassasalarini ehtiyoji uchun olinadigan maqsadli soliq, kvartiraga order berish uchun yig'im.

c) Uy-joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohalar ob'ektlarini ehtiyoji uchun solinadigan soliq, o'yin biznesini ochish uchun yig'im.

d) Jismoniy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig'i, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yhatga olish yig'imi.

e) Reklama solig'i, savdo qilish huquqi uchun yig'im, kurort yig'imi.

16. Jismoniy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliqni stavkalariga qaysi guruh raqamlar kirmaydi?:

a) 10,0; 13,6%

b) 5,0%

c) 6,8; 3,0%

d) 3,2; 4,1%

e) 4,1; 5,0%

17. Yer solig'ini qaysi muxlatlarda to'lash kerak?:

a) 15 yanvar, 15 iyul

b) 15 fevral, 15 iyun

c) 15 mart, 15 avgust

d) 15 oktyabr, 15 dekabr

e) 15 sentyabr, 15 noyabr

XVI BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGIGA (MDH) A'ZO BO'LGAN DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI

16.1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlar soliq tizimi

16.2. Belorussiya Respublikasi soliq tizimi

16.3. Ukraina soliq tizimi

16.4. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi

16.5. Ozarbayjon Respublikasi soliq tizimi

16.1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlar soliq tizimi

Sovet Ittifoqini yagona xalq xo'jalik kompleksi bo'linib ketgandan keyin o'tmishdagi sobiq Ittifoq respublikalari mustaqil davlatlarga aylandi va ular yangi davlatlararo tuzilma - Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil qildi. Parchalanib ketishning eng asosiy iqtisodiy natijasi MDH mamlakatlarida o'zaro tovar almashuvini qisqarib ketishi hisoblanadi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra sobiq SSSRda respublikalararo tovar almashuviga 20% ga yaqin yalpi ichki mahsulot jalb qilingan edi (Evropa hamdo'stligi mamlakatlarida - 14%). Hamdo'stlik miqyosida iqtisodiy munosabatlarni zaiflashib ketishi mamlakat-qatnashuvchilarni kredit beruvchi uzoq chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqani tiklashlariga olib keldi. Ushbu salbiy yo'nalishga qaramay, Rossiya bilan umumiy tovar almashuvida yuqori darajadagi aloqalar saqlanib qoldi. Masalan, 2002 yilni birinchi yarmida Ukrainaga 34,7, Belorussiyaga - 37,8% va Qozog'istonga 17,5% Rossiyani tovar almashtirish to'g'ri keldi.

O'zbekistonni SSSRni sobiq respublikalari bilan iqtisodiy aloqasi birinchi navbatda tarixiy, tashkil topgan bog'liqliklari va hududiy yaqinliklari bilan belgilanadi.

MDH mamlakatlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni kelajakda kengaytirish, ularni iqtisodiy inqirozdan chiqib ketish, iqtisodni tarkibiy o'zgartirish va uni samaradorligini oshirish omili hisoblanadi. Hamkorlikni kuchaytirish vazifalaridan biri o'zaro foydali savdo-iqtisodiy aloqalarni boshqarish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Soliq munosabatlarini o'zaro moslashtirish ham alohida ahamiyatga ega.

MDH mamlakatlarida soliq munosabatlarini o'zaro moslashtirish quyidagi maqsadlarga erishishni talab qiladi:

■ MDH mamlakatlarini ichki bozorini birlashtirish, yagonalashtirish va integratsion jarayonlarni chuqurlashtirish;

■ soliq chegaralarini yo'qotish va tovarlarni erkin harakatda bo'lishini ta'minlash;

■ soliq tizimining tarkibini oqilona tashkil qilish va soliqlarni hisoblash va soliq to'lovlarini olishni yagona tartibga keltirish.

Hozirgi kunda tashqi savdo munosabatlarini boshqarish maqsadida qator hujjatlar qabul qilingan, masalan, «mustaqil davlatlar hamkorligini tashqi iqtisodiy aloqalarda tovarlarni nomenklaturasi», o'zaro savdoda egri soliqlarni undirish qoidalari haqida bitim, ikki tomonlama soliq olishdan o'zini chetga olmoq uchun daromad va mulkdan olinadigan soliqlar to'g'risidagi O'zbekistonni MDHning ayrim mamlakatlari bilan tuzgan ikki tomonlama bitimlari, soliq qonunchiligini saqlash masalalari bo'yicha hamkorlik va o'zaro yordam, xo'jalik faoliyatida chegaralashni olib tashlash va boshqalar.

Milliy qonunchilikda mavjud bo'lgan farqlar umumiy bozor kengligini tashkil qilishga imkoniyat bermaydi. Shuning uchun yangi soliq qonunchiliklarini ishlab chiqish uchun MDH mamlakatlari soliq tizimining xususiyatlarini bilish zarur. Soliq tizimlari MDH mamlakatlarini byudjet daromadida 75%dan 87%gachasini tashkil qiladi*. Shuni ko'rsatish kerakki, MDH mamlakatlarida qo'llanilayotgan soliqlarni turlari asosan dunyo amaliyotida ko'p tarqalgan soliqlarga to'g'ri keladi. Ushbu davlatlarda qisman o'zgartirishlar bilan foyda (daromad)ga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, yer soliqlari qo'llanadi. Shu bilan bir qatorda har bir mamlakatni iqtisodining holati va milliy an'analariga qarab soliq tizimini o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Korxonalar uchun soliq og'irligini yuqoriligi, soliq bazasini kengaytirish va soliq to'lashdan bosh tortish ko'pchilik mamlakatlarda byudjet daromadini to'plashda muammo bo'lib kelmoqda. Ko'rsatilgan sabablar bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida byudjet inqirozining asosiy sabablari bo'lmoqda.

O'tgan davrda MDH mamlakatlarida qator hududiy birlashmalar tashkil qilingan. Ularning chegarasida qator o'zaro hamkorlik qarorlari qabul qilinmoqda. Masalan, 1994-2000 yillarda mamlakatlarda quyidagi birlashmalar tashkil qilindi:

■ Belorussiya va Rossiyani ittifoq davlati tashkil qilish to'g'risidagi shartnoma (1999 y.);

■ Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonlarni bojxona ittifoqi;

* Ж. Финансы, 2001, №6. Стр. 64.

- O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonlarni birlashtiruvchi Markaziy Osiyo iqtisodiy birlashmasi;
- Gruziya, Ukraina, O'zbekiston, Ozarbayjon, Moldaviya birlashmasi;
- Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bir vaqtni o'zida ikkita ittifoq tarkibiga kiradi;
- Bojxona va Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati.

MDH mamlakatlarini markaziy o'zaro aloqa tarmog'i bojxona ittifoqi hisoblanadi. Soliq qonunchiligini bir-biriga moslashtirish uchun davlatlardagi har bir soliqni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni ijobiy tajribalarini to'plash kerak.

Egri soliqlar bahoni tashkil topish siyosatiga katta ta'sir ko'rsatadi va ko'pchilik MDH mamlakatlarini byudjet daromadida katta salmoqni tashkil qiladi. Shuning uchun, egri soliqlarni undirish bo'yicha soliq qonunchiligini moslashtirish alohida ahamiyatga ega. QQSni hisoblashni umumiy tartibi etakchi G'arbiy Evropa mamlakatlarining tajribasidan o'rganib olingan, shunga qaramay, har bir MDH mamlakatlarining to'lovchilar tarkibini aniqlashda, soliq bazasini, soliq chegirmalarini, uni to'plash muhlatlarini belgilashda o'ziga xos xususiyatlariga ega. MDH miqyosida QQS stavkasini yagonalashtirishga kelishilgan. Asosiy stavka 20%ni tashkil qiladi. Shuning bilan bir qatorda 10% va 0 stavkalar asosida soliq olinadigan tovarlar tarkibini ro'yxatida sezilarli farqlar bor. Tashqi savdo jarayonini QQSGa tortishni ikkita printsiipi mavjud:

- ishlab chiqarish joyi asosida, ya'ni «kelib chiqish mamlakati» printsiipi;
- iste'mol qilish joyi asosida, yoki «qabul qiladigan mamlakat» printsiipi.

MDH mamlakatlari chegarasida xo'jalik sub'ektlari savdo qilganda, Rossiya va Belorussiya davlatlar ittifoqi tarkibidagi savdodan tashqari, QQS 2001 yil iyuldan boshlab «yuborilgan» mamlakat printsiipi asosida qo'llanadi. Soliqqa import qilingan tovarlar tortiladi va eksport qilinadigan tovarlar tortilmaydi.

Aktsizlar - egri soliqlarni bir turi hisoblanadi. Ko'rilayotgan mamlakatlarni aktsiz olinadigan tovarlarni ro'yxatida keskin farq mavjud va shu bilan bir qatorda stavkalari ham katta tafovutga ega. Bundan tashqari Qozog'istonda aktsiz faqat tovarlarga solinib qolmay, o'yin biznesi ham bu soliqqa tortiladi.

Har bir, alohida mamlakatda ko'pchilik tovarlarga maxsus aktsiz stavkalari milliy valyutada belgilangan. Shu bois bu stavkalarni

baravarlash tirish murakkab harakatni talab qiladi va maxsus stavkalarni shartli pul birligi, masalan, evroda belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2002 yil 21 avgustdan Bojxona ittifoqi chegarasida bojxona bojini qo'llashni yangi shartlari kiritildi. Masalan, bitim bojxona ittifoqi rezidentlari o'rtasida tuzilsa, bojxona boji olinmaydi.

Foydaga solinadigan soliq yoki huquqiy shaxsdan olinadigan daromad solig'i - hamma mamlakatlar soliq tizimini ajralmas tarkibi hisoblanadi. Ularni olishni har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Qirg'izistondan boshqa hamma bojxona ittifoqiga kiradigan mamlakatlarda hamma soliq to'lovchi huquqiy shaxslar, shu jumladan, chet el korxonasi hisoblanadi. Qirg'izistonda faqat huquqiy shaxslar - rezidentlar to'laydi. Belorussiyada soliq to'lovchining tarkibiga birga faoliyat olib borish to'g'risida shartnoma tuzgan qatnashuvchilar ham kiradilar. Rossiyada birgalikda olib borilgan faoliyatdan olingan foyda shartnoma tuzgan har bir qatnashuvchida alohida hisobga olinadi va sotish bilan bog'liq bo'lmagan daromad tarkibida umumiy stavka asosida soliqqa tortiladi. Xo'jalik sub'ektlarini haqiqiy foydalarini oshkora ko'rsatish maqsadida foydaga solinadigan soliq stavkasi MDH mamlakatlarida pasayib borish xususiyatiga ega. Masalan, Qirg'izistonda 2002 yil yanvaridan stavka 10%, Rossiyada 24% etib belgilangan. 2005 yili O'zbekistonda stavka 15%ni tashkil qildi. Tojikiston, Qozog'iston va Belorussiyada soliq stavkalari yuqori. Shunday qilib, soliq stavkalaridagi tafovut saqlanib qolmoqda. Ayrim faoliyatlar bo'yicha soliq stavkalari asosiy stavkadan farq qiladi. Masalan, Tojikistonda doimiy tashkiloti yo'q huquqiy shaxslar - nerezidentlar, soliqni quyidagi stavkalarda to'laydilar: royaltidan - 20%, foiz va dividendlar shaklida olinadigan daromadlardan 12% va fraxt bo'yicha olinadigan daromadlardan - 6%, xalqaro yuk tashish, aloqa xizmatlarini amalga oshirish va sug'urta to'lovlaridan olinadigan daromadlardan 4% miqdorda to'lanadi.

Stavkani hajmi soliq to'lovchilar kategoriyasiga ham bog'liq. Masalan, Belorussiyada balans foydasi 1 yilga 5000 minimal ish haqi, yillik o'rtacha ishlaydiganlarni soni sanoatda 200, ilmda 100, qurilish va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 gacha va noishlab chiqarish sohasida 25 (chakana savdodan tashqari) kishi ishlaydigan korxonalaridan 15% olinadi. Agrosanoat kompleksi korxonalaridan 10%, mahalliy organlar, mayda chakana savdo korxonalaridan foydadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan hajmini o'rnatadi va uning hajmi tovar ayriboshlashni hajmi, tovarlar assortimenti va savdo nuqtalarini turlariga bog'liq. Soliq elementi bo'lmish, soliq ob'ekti ham alohida maxsus

xususiyatga ega. Belorussiyada soliq ob'ekti balans foyda hisoblansa, Qozog'iston va Qirg'izistonda - jamlangan soliq solinadigan daromad yoki jamlangan yillik daromad bilan undan chiqarishlar farqi hisoblanadi. Tojikistonda yalpi daromad bilan chiqarishlar farqi olinadi. Soliq bazasini aniqlash bir xil bo'lishiga qaramay, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston chiqarishga belgilangan harajatlarni turlari har xil. Bundan tashqari Tojikistonda norezident korxonalarda ob'ekt hamma daromad to'plash manbaida chiqarishlarning amalga oshirilmagan holda hisoblanadi.

Bojxona ittifoqi chegarasida eng umumlashtirilgan soliq - huquqiy shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblanadi. Bu soliq Qirg'izistondan tashqari hamma davlatlarda olinadi. Soliq to'lovchilar hamma korxonalar va tashkilotlar hisoblanadi. Soliq stavkasi juda past bo'lib Tojikistonda 0,5%, Belorussiya va Qozog'istonda 1%ni tashkil qiladi. Rossiyada eng yuqori stavkasi 2% bo'lib, Federatsiya sub'ektlari shuning chegarasida o'zlarining stavkalarini belgilaydi. Ayrim farqlar soliq bazasini aniqlash, engilliklar berish, to'lov muhlatlarini aniqlashda ham mavjud.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining soliq munosabatlarini yanada yaqinlashtirish uchun model soliq kodeksini qabul qilish katta ahamiyatga ega. Maxsus soliq tartibini, qoidasini tadbiiq qilish mo'ljallanmoqda.

Yangi kodeksda quyidagi masalalar yoritiladi:

- hamdo'stlik mamlakatlari soliq tizimini tuzish, ularni ishlashini asoslarini chegaralash, davlat soliqlarini kiritish, o'zgartirish, bekor qilish, mahalliy (hududiy va munitsipal) soliqlarni kiritish printsiplarini belgilash;

- soliq to'lovchilar, soliq nazorati yurituvchi soliq va boshqa organlarni huquqiy holatini belgilash; soliq ob'ektini aniqlash bo'yicha asosiy holatlarni belgilash, soliq majburiyatlarini bajarish, soliq qonunchiligini buzganda javobgarlikka tortish kabi masalalar.

Har mamlakat o'zining siyosiy, iqtisodiy, tabiiy sharoitlari, hududlari va alohida tarmoqlari rivojlanishi, ularning bir-biriga muvofiqligi holatlariga qarab soliqlarni har xil turlari, undirish tartiblari belgilanadi.

Ko'pchilik holatlarda soliqlarni ob'ekti, sub'ekti, stavkasi, hisoblash tartibi, imtiyozlari bo'yicha ham sezilarli farqlar mavjudligini ko'ramiz. Soliq elementlaridan bitta soliq imtiyozlarini olab qarajak chegaralanmagan darajada imtiyoz turlariga to'q'ri kelamiz.

Ayrim holatlarda ularni batamom yoki vaqtincha ozod qilish, soliq stavkalarini pasaytirish, to'lov muhlatini keyinga surib berish, soliq

olinadigan bazani o'zgartirish kabi yengilliklar beriladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida dunyo mamlakatlari bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda hoyat muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. "Oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni raqbatlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarini uchun keng ko'lamli rag'batlantirish tizimi nazarda tutilgan."^{*}

Masalan O'zbekistondagi korxonalar uchun 2012 yilning 1 yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda:

- gusht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun bo'shagan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq stavkasi 50 foizga qisqartirish;

- tayyor nooziq-ovqat tovarlarining muayan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarini foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirmalar va kichik korxonalarini yagona soliq to'lovidan ozod qilish.

Ushbu tadbirlar har bir xo'jalik sub'ektini inqiroz ta'sirini engib o'tishga imkon beradi.

16.2. Belorussiya Respublikasi soliq tizimi

Belorussiya soliq tizimini asoslari «Belorussiya Respublikasi byudjetiga olinadigan soliq va yig'imlar» nomli 20.12.1991 y. №1323-XII sonli qonunida belgilangan. Qonunda ko'rsatilgan soliq va yig'implardan tashqari davlat byudjetiga soliqsiz to'lovlar ham kelib tushadi. Mahalliy byudjetlarga soliq va yig'implarni o'tkazish «Belorussiya Respublikasida mahalliy boshqarish va o'z-o'zini boshqarish» qonuni asosida olib boriladi. Mahalliy byudjetlarga umumdavlat soliqlardan ajratmalar har yili byudjetni tasdiqlashda qonun asosida belgilanadi. Soliq ob'ekti, to'lash tartibi, stavkasi, imtiyozlar har bir soliq va yig'im bo'yicha alohida hujjatlar bilan soliq qonunchiligida belgilangan.

Belorussiyani soliq tizimi 26ta soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi[†].

^{*} Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari – T.: O'zbekiston, 2009 y. 35 -bet

[†] Налоговый вестник. 2001. №8.

Belorussiya Respublikasida soliq turlari
(YaIMga nisbatan foiz hisobida)

Soliq va boshqa to'lovlar	1998	2000
1.Qo'shilgan qiymat solig'i	9,2	9,0
2.Tushumdan mahalliy soliq va yig'imlar	0,3	0,6
3.Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash respublika fondi	1,6	2,0
4.Yo'l fondi	2,1	1,9
5.Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar iqtisodini barqarorlashtirish fondi	0,0	1,3
6.Mahalliy, maqsadli byudjet uy-joy investitsiya fondi	0,0	0,7
7.Mahalliy deputatlar kengashini boshqa byudjetdan tashqari fondi	0,0	0,07
8.Uy-joy fondi harajati uchun maqsadli yig'imlar	0,6	1,2
9.Maktaboldi bolalar muassasalarini harajati uchun maqsadli yig'imlar	0,0	0,8
10.Aktsizlar	3,9	2,8
Egri soliq va yig'imlari - ja'mi	17,7	20,4
1.Foydaga solinadigan soliq	4,4	4,4
2.Daromadga solinadigan soliq	0,2	0,5
3.Daromad solig'i	3,7	3,0
4.Ko'chmas mulkka solinadigan soliq	0,9	0,8
5.Renta yig'imi	0,0	0,2
6.Foydadan olinadigan mahalliy soliqlar	0,7	0,8
To'g'ri soliqlar va yig'imlar jami	9,9	9,7
1.Favqulodda soliq	0,9	0,8
2.Yer solig'i	0,4	0,2
3.Tabiatdan olinadigan resurslarga solinadigan soliq	0,1	0,03
4.Neftni qayta ishlash uchun ekologiya solig'i	0,1	0,1
5.Bandlikka ko'maklashish davlat fondi	0,3	0,3
6.Tabiatni muhofaza qilish fondi	0,2	0,1
7.Boshqa maqsadli byudjet fondlari	0,0	0,01
8.DDU harajatlari uchun byudjetdan tashqari fond	0,7	0,0
9.O'rmon fondidan foydalanganligi uchun soliq	0,1	0,1
10.Aholini ijtimoiy muhofaza qilish fondiga ajratma	10,7	10,4
Tannarxiga o'tkaziladigan jami soliqlar va to'lovlar	13,5	12,1
Haqiqiy soliq og'irligi	41,1	42,2

Yuqorida ko'rsatilgan soliqlarni ba'zilar ayrim turlarga ham bo'linib ketadi. Masalan, yo'l fondiga ajratma 7ta har xil soliq, yig'im va ajratmani

o'z ichiga oladi va har birining o'zini soliq bazasi va hisoblash uslubi mavjud.

Belorussiya Respublikasining soliq tizimida asosiy o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi. Agar Evropa iqtisodiy hamkorligi (EES) mamlakatlarida QQS umumiy byudjet tushumini o'rtacha 10-20% gacha tashkil qilsa, Belorussiyada 25%dan oshib ketadi. Soliq hisoblash tartibi Rossiyaning uslubini qaytaradi. Asosiy stavkasi 20%. Bundan tashqari 10% va 0%li stavkalar qo'llaniladi. Respublika hududida solinadigan chorvachilik, dehqonchilik, baliq ovlash mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlari, bolalar uchun tovarlar, sarta-roshxona, kimyoviy kiyim tozalash, oyoq kiyimi, soat va murakkab maishiy texnikasini ta'mirlash va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlardan 10%li stavka bilan olinadi. Stavka 0%li eksport qilinadigan (Rossiyadan tashqari) tovarlarga, qurilish ishlari, transport xizmati, berilgan xom-ashyodan (daval) ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'llaniladi.

Aktsizlar ham byudjet daromadida muhim o'rinni egallaydi. Aktsiz olinadigan tovarlar ro'yxati Belorussiyada Rossiyadan deyarli farq qilmaydi. Aktsizlarni Belorussiyada hisoblashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, zargar buyumlardan tashqari tovarlarga mahsulot birligiga evroda maxsus qat'iy belgilangan stavkalar qo'llaniladi.

Rossiyada.2003 yil 1 fevraldan boshlab rubl va kopeykada maxsus, advalor va kombinatsiyalashgan (aralashtirilgan, birlashtirilgan) stavkalar qo'llaniladi.

Tashkilotlar foydasiga solinadigan soliq 30%li stavka bilan olinadi. Dividend va unga tenglashtirilgan daromadlardan huquqiy shaxslar 15%li stavka bilan to'laydilar. Bunda soliq daromad manbaida ushlanadi. Foydaga solinadigan soliq bo'yicha juda ko'p imtiyozlar berilgan. Invalid va pensionerlar mehnatidan foydalanadigan tashkilotlar (savdo, savdo-sotib olish va o'rtada xizmat qiluvchi tashkilotlar foydasidan tashqari) chorvachilik, dalachilik, baliq ovlash, asalari boquvchi qishloq xo'jalik korxonalari, foydaga solinadigan soliqdan ozod qilinganlar. Bundan tashqari soliq ishlari, yong'inga qarshi kurash va tabiatni muhofaza qilish harajatlariga sarflangan mablag' summalari chiqarib tashlanadi, yana ishlab chiqarish kapital qo'yilmasi va uy-joy qurilishiga ajratilgan foyda ham soliq olishdan ozod qilinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i Belorussiyada va undan tashqaridagi manbalardan daromad oladigan rezidentlar va faqat Belorussiyadagi manбайдan daromad oladigan norezidentlar to'laydilar. Soliq solinadigan ob'ekt pul va natura shaklidagi daromadlar yig'indisi

hisoblanadi. Soliq qonunchiligida soliq olinmaydigan daromadlar ro'yhati va soliq chegirmalari berilgan. Soliq chegirmalari quyidagi hajmlarda ko'rilgan:

- eng kam ish haqining 1 hajmida har bir ishlovchiga;
- har bir bola va qaramog'idagi shaxs uchun eng kam ish haqining 2 baravari hajmida;
- ayrim jismoniy shaxslar uchun eng kam ish haqini 10 barobar hajmida beriladi.

Soliq bo'yicha progressiv stavkalar belgilanadi, ular 5 ta bosqich daromadlar va soliq stavkalaridan iborat:

- 9, 15, 20, 25, 30 %;

Soliq stavkasi 15% hajmda aktsiyadan olinadigan daromadlar, huquqiy shaxslar tugatilishi yoki qaytadan tashkil qilinishida tashkilotdan hissa asosida olinadigan daromadlarga qo'llanadi. Horijiy mamlakatlarning fuqarolari va fuqarolik huquqi yo'q shaxslar - soliq norezidentlari soliqni 20% stavka bilan to'laydilar. Ularga imtiyoz va soliq chegirmalari qo'llanilmaydi.

Ayrim sohalarida faoliyat yuritishdan, masalan, banklar, sug'urta va qayta sug'urta qilish tashkilotlari va boshqa moliya-kredit muassasalari daromadidan 30% olinadi. Stavka 40% hajmda qimmatbaho qog'ozlar bilan ish olib boruvchi huquqiy shaxslarni daromadidan olinadi. Respublikada maxsus soliq tartibi soliq to'lovchilarning ayrim kategoriyalariga belgilangan. Tashkilotlar va alohida tadbirkorlar, soddalashtirilgan soliq solish tartibidan foydalanuvchilar soliqni yalpi tushumdan 10% hajmda to'laydilar. Tushum mahsulotni (ishni, xizmatni) va boshqa muhim mulkni sotishdan olingan mablag' va sotishdan tashqari amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar yalpi tushumdan 5% hajmda yagona soliq to'lashga o'tishlari mumkin.

Qonunchilikda ko'p miqdorda mahalliy soliqlar belgilangan:

- ma'lum huquqlar uchun yig'imlar: avtotransport vositalarini turar joyga qo'yish uchun yig'im, baliq ovlash va ovchilik qilish uchun yig'im, mahalliy simvolikadan (belgi, ramz) foydalanish uchun yig'im, savdo qilish huquqini olish uchun yig'im, it egalaridan olinadigan yig'im, auksion o'tqazish huquqini olish uchun yig'im, kurort yig'imi, kurort mintaqalarida qurilish qilish uchun yig'im;

- reklama solig'i;

- maqsadli yig'imlar: transport yig'imi, shahar (tuman) infrastrukturasini rivojlantirish yig'imi;

- yovvoyi o'sadigan o'simliklarni: qo'ziqorin, dorivor o'simliklarni tayyorlash uchun yig'im;
- chakana savdo shahobchasida tovarlarni sotish uchun soliq;
- mehmonxona, restoran, bar, kafelar ko'rsatadigan xizmat uchun yig'imlar.

Soliq solishda mahalliy organlarni huquqlari Belorussiya va Rossiyada farq qiladi. Masalan, mahalliy davlat organi Belorussiyada faqat stavkani tushirish emas, ko'tarish huquqiga, ularning byudjetiga tushadigan soliqlar bo'yicha individual (shaxsiy) engilliklar berish huquqiga ega. «Belorussiya Respublikasini 2001 yilgi davlat byudjeti to'g'risida»gi qonunda mahalliy deputatlar kengashi stavkalarni ko'tarish va pasaytirish, shaxsiy imtiyozlar berish, yer solig'i va tabiatdan olinadigan resurslarga solinadigan soliqlarni muhlatlarini surish va jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'idan, davlat boji va ko'chmas mulk soliqlardan shaxsiy imtiyozlar berishi mumkin. Har bir davlatda soliq va yig'imlarni qaysi manbalari hisobiga to'lanishi muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda Belorussiyada soliqlarni to'lash manbalari bo'yicha tasnifini keltiramiz.

16.2.-jadval

Belorussiyada soliqlarni to'lash manbalarini tasnifi

Mahsulot (ish xizmat) sotishdan olingan tushum	Foyda	Ishlab chiqarish muomala xarajatlari
<p>Soliq va yig'imlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Qo'shilgan qiymat solig'i. 2.Aktsizlar. 3.Yoqilg'i sotishga solinadigan soliqlar. 4.Xizmatlar uchun yig'im. <p>Ajratmalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Avtomobil yo'llaridan foydalanilganlik uchun yo'l fondiga. 2.Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash respublika fondi. 3.Mahalliy byudjetga maqsadli yig'imlar (uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni, qishloq xo'jaligiga xarajatni moliyalashtirish) 	<p>Soliq va yig'imlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Foydaga solinadigan soliq. 2.Ko'chmas mulkka solinadigan soliq. 3.Avtotransport vositalarini olish uchun soliq. 4.Transport yig'imi. 5.Dividend va unga tenglashtirilgan daromadlarga solinadigan soliq. 6.Offshor yig'imi. 7.Ayrim sohalardagi faoliyatdan olinadigan daromadga (o'yin biznesiga solinadigan soliq va h.k.) solinadigan soliq. 	<p>Soliqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Bojxona boji. 2.Davlat boji. 3.Ekologiya solig'i. 4.Yer uchun to'lov. 5.ChAESdagi halokat oqibatlarini yo'q qilish uchun favqulodda soliq. 6.Umumiy avtomobil yo'llaridan foydalanib avtotransport vositalari yurganligi uchun yig'im. <p>Ajratmalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Aholini ijtimoiy muhofaza qilish fondi. 2.Bandlikka ko'maklashish fondi.

Yuqorida ko'rilgan majburiy to'lovlar turi, aniq ijtimoiy yo'nalishga ega va haqiqatda bitta soliq bazasiga ega. Taklif qilingan o'zgarishlarni amalga oshirish soliq va to'lovlar sonini kamaytiradi, soliq solish uslubini oddiylashtirib, korxonalarni moliya xodimlari zimmasiga tushadigan yukni kamaytiradi. Taxmin qilinayotgan o'zgarishlar maxsus qonunlarda belgilangan qo'shilgan qiymat solig'i, foydaga solinadigan soliq, aktsiz yig'imi, mol-mulk va resurs solig'i va yig'implariga ta'sir qilmaydi.

Respublikada soliq tarkibini takomillashtirish, soliq solinadigan bazani optimallashtirish, soliqni xisoblash va undirib olish mexanizmlarini oddiylashtirish kabi muammolar turibdi. Masalan, miqiyosda soliq tarkibini, ayniqsa bir xil, bir-biriga yaqin soliq bazasiga ega bo'lganliklarini birlashtirish, ularning o'rniga yagona to'lov kiritish muxokama qilinmoqda.

Gap byudjetdan tashqari maqsadli fondlar to'g'risida bormoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash respublika fondiga ajratma, idoraviy uy-joy fondini xarajatini moliyalashtirishga ajratma va yo'l fondiga ajratmalarni birlashtirib yagona, maqsadli byudjet fondi tuzish va unga korxonaning tushumidan ajratiladigan yagona umumiy me'yor belgilash taklif qilinmoqda.

Eslatilgan fondlarni mablag'i moliya vazirligining yagona g'azna hisob raqamiida to'planib, keyin maqsadlar yo'nalishida taqsimlanadi. Buning natijasida ularni hisoblash uslubi va yig'im olish mexanizmi oddiylashtiriladi.

Shu tartibda ChAES avariya oqibatlarini bartaraf qilish favqulodda soliq, davlat bandlik fondiga ajratma, ijtimoiy muhofaza qilish fondiga ajratma, maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari xarajatiga ajratmalarni yagona ijtimoiy soliqqa birlashtirish mumkin.

16.3. Ukraina soliq tizimi

Ukraina qonunlari asosida byudjetga va maqsadli fondlarga yig'iladigan soliq va yig'implarni to'plash mamlakatni soliq tizimini tashkil qiladi. Ukrainada 17ta umumdavlat va 16ta mahalliy soliq va yig'implar olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yili kiritilgan bo'lib, umumiy soliqlar tushumini qariyb 60%ni tashkil qiladi. Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda QQS yagona stavka asosida olinadi va shuning uchun undan juda ko'p imtiyozlar beriladi. Eksport qilinganda soliq ob'ekti sifatida jo'natilgan mahsulot qiymati hisoblanadi. Bunda to'langan soliq

summasi korxonaga hisob raqamiga tushum kelib tushgandan keyin to'ldiriladi.

Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olishda to'lovchilar va soliq solinadigan daromadni hisoblash, MDH mamlakatlaridan biri bo'lgan, Rossiyadan farq qilmaydi. Qabul qilingan klassifikatsiyaga binoan umumdavlat soliqlariga gerb yig'imi ham kiritilgan. To'lovchilar mulkdorchilik shaklidan qat'iy nazar xarajatlarga belgi qo'yadigan, tamg'a bosadigan hamma xo'jalik faoliyati sub'ektlari hisoblanadi. Tamg'a qo'yish, belgi bosishga ijroiyy hokimiyat beradigan tashkil qilish hujjatlaridan tashqari hamma xo'jalik shartnomalari, veksell va boshqa hujjatlar jalb qilinadi. Gerb yig'imini stavkasi ustav fondini hajmi, shartnoma va veksellar bo'yicha beriladigan summaga qarab tabaqalashtiriladi. Gerb yig'imi markalari omonat bank boshqarmalari, uning hududiy boshqarmalari va bo'linmalari orqali sotiladi.

Resurs to'lovlari ham soliq tizimida alohida o'rinni egallaydi. Yer uchun to'lovni to'lovchilar yer egalari va yerdan foydalanuvchilar hisoblanadi. To'lov ob'ekti sifatida mulk shaklidagi yoki foydalanmayotgan sh.j. arenadagi yer uchastkalari hisoblanadi. Yer uchun to'lov shakllari - yer solig'i va arenda to'lovi. Yer solig'ini yerga mulk huquqi yoki doimiy foydalanish (muhlotsiz) huquqiga ega bo'lganlar to'laydilar. Yer solig'i hajmi yer uchastkasini maydoni, uni puldagi bahosi va stavkalar asosida aniqlaydi. Yer maydonlarini pulda baholash yer resurslari bo'yicha Ukraina davlat qo'mitasi tomonidan bajariladi. Arenda to'lovi - yer uchastkasidan foydalanganlik uchun arendator beradigan to'lov hisoblanadi. Yerni arendaga beruvchilar mahalliy hukumat organi yoki yerga mulk egasi hisoblanadi.

Huquqiy shaxslardan yerga olinadigan arenda to'lovini sharti, hajmi, olish muddati arenda beruvchi va arenda oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilanadi. Arendatorlar, ya'ni ijarachilar - huquqiy shaxslar yer uchun arenda to'lovini yer egasini hisob raqamiga o'tkazadi. Bunda yer egalari yer solig'ini tegishli byudjetga o'tqazadilar. Agar arendaga beruvchi qishloq, posyolka, shahar, tuman kengashlari bo'lsa, arendatorlar arenda to'lovini ularning byudjetlariga o'tqazadilar.

Pul qiymati belgilangan yer uchastkasidan olinadigan soliq stavkasi foiz hisobida belgilanib, yerlardan foydalanish yo'nalishlariga qarab tabaqalashtiriladi. Quyidagi yer uchastkalarini bir-biridan ajratadilar: haydalgan yer (shudgor), pichanzorlar, yaylov, ko'p yillik daraxtlar, pul bahosi belgilangan aholi yashaydigan punktlar, sanoat transport, aloqa korxonalarini yer uchastkalari, temir yo'l transporti, suv fondi yeridan

foydalanishga berilgan yer uchastkalari va boshqalar. Aholi yashaydigan punktlarda yer uchastkasini pul qiymati belgilangan bo'lmasa, aholini soni va shaharlarni kategoriyasiga qarab qat'iy belgilangan summada har bir kv.m yer uchun soliq stavkasi belgilanadi. Hududlarni tarixiy-madaniy kelib chiqishiga qarab stavkasini oshiradigan koeffitsentlar ham qo'llaniladi. Belgilangan me'yordan ortiqcha yer uchastkasidan soliq 5 barobar ortiq olinadi.

Qishloq xo'jalik va baliqchilik tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilar yer solig'ini bab-baravar 15 avgust va 15 noyabrgacha to'laydilar. Qolgan to'lovchilar hisobot oyidan keyingi oyni 15 kunigacha to'lashlari kerak.

Suv resurslaridan maxsus foydalanganlik va suvdan energetika ehtiyojiga foydalanganlik uchun to'lov - to'lovni haqiqiy statusidan qat'iy nazar, o'zining shaxsiy ishlab chiqarishi uchun suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi hamma sub'ektlar beradilar. To'lov me'yori Ukraina Vazirlar Mahkamasi tomonidan absolyut summada har bir kub metr suv uchun belgilanadi.

Me'yor daryo basseynlaridan, yer osti suv ob'ektlaridan foydalanganligi uchun hududlar bo'yicha (viloyat, tuman, Qrim avtonomiyasi) va yer osti suvlari bo'yicha ham tabaqalashtiriladi.

Belgilangan me'yorga quyidagi koeffitsentlar qo'llanadi: uy-joy, kommunal xo'jaligi korxonalariga va hovuz, ko'l, xo'jaliklariga - 0,1, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilariga - 0,2, issiqlik va atom energiya stantsiyalariga - 0,5, sholi ishlab chiqaruvchilarga - 0,8.

Hamma daryolarni, suv havzalarini maxsus elektrostantsiyalar uchun foydalanganligiga 100 kub.m. trubadan o'tqazilgan suv uchun 0,07 grivna olinadi. Limitdan ortiqcha foydalangan suvga 5 barobar ortiq to'lanadi. Haqiqiy foydalangan suvdan, me'yorlar va imtiyozlarni hisobga olib, haqiqiy kvartalning to'lovi hajmi belgilanadi. To'lov, hisobot kvartali tugagandan keyingi oyni 20-kunigacha byudjetga topshiriladi. Mahalliy soliqlar va yig'implar tizimiga 2 soliq va 14 yig'implar kiradi. Kommunal soliqlar va quyidagi yig'implar majburiy hisoblanadi: savdo va xizmat sohasi, bozor ob'ektlarini joylashtirishga, avtotransportni turar-joyga qo'yish, ruxsatnoma berish, kvartira uchun order va it egalariga ruxsatnoma berish.

Qolgan soliqlar mahalliy hokimiyat organlarini bir qancha soliqlarni hisoblash va undirish tartibi ba'zi turlari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kommunal solig'ini to'lovchilar byudjet tashkilotlari, qishloq xo'jalik va rejada dotatsiyalik korxonalaridan tashqari hamma huquqiy shaxslar hisoblanadi. Soliqni yuqori chegarasi yillik ish haqi

fondini 10% hajmida bo'ladi. Ish haqi fondi belgilangan minimal ish haqi fondini ro'yxatdagi xodimlarni o'rtacha bir oylik soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Chet elga ketayotgan avtotransportni chegaraga yaqin joylashgan viloyatlar hududidan o'tganligi uchun o'tish yig'imini chet elga avtotransportda ketayotgan huquqiy shaxs vakillari va fuqarolar to'laydilar. Yig'imning chegarasi Ukrainani huquqiy shaxslari va fuqarolari uchun soliq solinmaydigan minimum daromadni 0,5 qismi va boshqa davlatlarni huquqiy shaxslari va fuqarolari uchun 5 doll.dan 50 doll.gacha belgilangan, haqiqiy hajmi esa avtomashinani markasi va uning quvvatiga bog'liq. Bozor yig'imini bozorda ochiq peshtaxta, avtomashina, mototsikl, lotok, qo'l aravalari, vaqtincha chodir va qo'lda tovarlar sotuvchi huquqiy va jismoniy shaxslar to'laydilar. Ushbu yig'im alohida imoratlarni egallagan, umumiy ovqatlanish korxonolari tomonidan to'lanmaydi. Soliq stavkasi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan quyidagi chegaralarda belgilanadi: huquqiy shaxslar uchun 3 minimal ish haqidan yuqori bo'lmagan va fuqarolar uchun minimal ish haqini 20%idan oshmagan hajmlarda aniqlangan.

Mehmonxona yig'imini to'lovchilari mehmonxonada yashovchilar hisoblanadi. Soliq solinadigan ob'ekt - bir sutkalik yashashni ijaraga olish qiymati. Qo'shimcha xizmatlar hisobga olinmaydi. Stavka bir sutkaga olingan yashash joyi qiymatini 20%dan oshmasligi kerak. Ukraina qonunchiligi Ukraina davlat byudjetiga qo'shiladigan, davlat maqsadli fondlariga ajratmani ham inobatga olgan (pensiya fondi va ijtimoiy sug'urta fondlaridan tashqari).

Umumiy foydalanadigan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish, remont va joriy xarajatlarni qoplash uchun ajratma va yig'imlar-ushbu to'lov 1991 yil 18 sentyabrdagi 156212- sonli «Yo'l xo'jaligini moliyalashtirish manbalari to'g'risida»gi Ukraina qonunida belgilangan. Mablag' kerakli byudjetlar hisob raqamiga o'tkaziladi va qat'iy maqsadli yo'nalishga ega. Ushbu to'lovlar quyidagilarni o'z ichiga olidi:

- mablag'ni korxonalar va tashkilotlar tomonidan ajratish;
- yoqilg'i va moylash materiallarini sotishdan olingan yig'im;
- avtomobil transportini ekspluatatsiya qilishdan olingan daromaddan ajratma;
- Ukraina avtomobil yo'llaridan o'tganligi uchun yig'im;
- transport va boshqa o'ziyurar mashinalar egasidan olinadigan soliq.

Korxonalar va tashkilotlarni ajratmasi bo'yicha soliq ob'ekti va stavkasi xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, sanoat, qurilish, transport korxonalarini ajratmani ishlab chiqargan mahsulot, bajarilgan ish,

ko'rsatilgan xizmat hajmidan 0,4dan 1,2% stavkada, tayyorlov, ta'minot va sotuvchi tashkilotlar tovar aylanmasini 0,03dan 0,06%gacha stavkada to'laydilar. Bunda soliq solinadigan bazaga qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz yig'imlari qo'shilmaydi. Aniq stavkalar davlat organi viloyat, avtonom Qrim Respublikasi boshqarmalari tomonidan belgilanadi.

Yoqilg'i va moylash materiallarini sotishdan olinadigan yig'imni avtomobil biznesi, dizel yoqilg'isi, moy, suyultirilgan va zichlashtirilgan gazlarni korxonada va aholini avtomobillariga quyib beruvchi, mulkdorchilik shaklidan qat'iy nazar, tashkilot va tadbirkorlar to'laydilar. Soliq ob'ekti sotiladigan yoqilg'i va moylash materiallarini qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati hisoblanadi. Yig'im 7% hajmda olinadi va sotiladigan baho tarkibiga qo'shiladi.

Avtomobil transportini ekspluatatsiya qilishdan olinadigan daromaddan ajratmani to'lovchilar ta'rif to'lovi asosida yuk tashuvchi, mulk shaklidan qat'iy nazar avtotransport va boshqa tashkilotlar hisoblanadi. O'zining shaxsiy ehtiyoji uchun avtomobildan foydalanadigan tashkilotlar ajratma to'laydilar. Soliq ob'ekti avtotransportni ekspluatatsiya qilishdan olingan qo'shilgan qiymat solig'isiz daromad hisoblanadi. Stavka 2% hajmda belgilangan. Yig'im yuk tashish tarifiga qo'shiladi.

Ukraina avtomobil yo'llaridan o'tgani uchun yig'imni chet davlatlar avtotransport egalari boj chegarasini kesib o'tganda Ukraina milliy bankida almashadigan valyutada to'laydilar. Tovarlarni sotish kontrakt shartida ko'rilgan bo'lsa, ushbu yig'imni Ukraina korxonalari ham to'lashi mumkin. Yig'im transport vositasining turi, uning quvvati va yuk ko'tarishiga bog'liq. Bundan tashqari, agar transport vositasini og'irligi, tashqi o'lchamlari belgilangan me'yordan ortiqchaligi o'rnatilgandan keyin, bu to'lovni Ukraina rezidentlari ham to'lashi mumkin.

Transport va boshqa o'ziyurar mashina va mexanizmlar egasidan olinadigan soliqni hamma huquqiy va jismoniy shaxslar, sh.j., horijiy shaxslar va fuqarolik huquqiga ega bo'lmagan shaxslar, Ukrainada o'zining shaxsiy transportini ro'yxatdan o'tkazgan bo'lsa to'laydilar. Soliq stavkasi 100 kub.sm. dvigatel tsilindirini hajmiga, elektromotorlik transportlarni 1 kVt. quvvati, yaxta, qayiq va katerlarni uzunligiga qarab evroda to'lanadi. Soliq stavkasi Ukraina milliy valyutasiga Ukraina milliy banki tomonidan soliq to'lanadigan kvartalni birinchi kunidagi kurs bilan o'tqazadi. Ushbu soliq ishlab chiqarish va muomala xarajati tarkibiga qo'shiladi.

Invalidlarni ijtimoiy himoya qilish fondiga yig'imni mulk shaklidan qat'iy nazar hamma tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar to'laydi.

Bu yig'imni sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymatidan 1% hajmida qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz yig'imi chiqarilgan holda to'lanadi. Bunda sotilgan mahsulot qiymati deb jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat hisoblanadi, hisoblangan yig'im summasi esa tashkilotni yalpi xarajatiga o'tkaziladi.

16.4. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi

Qozog'istonda davlat byudjetini boshqarish manbai bo'lmish umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlarni daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar qo'llaniladi. Umumdavlat soliqlari huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasiga solinadigan soliq, maxsus to'lovlar va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqlardan iborat.

Yer solig'i, huquqiy va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, transport vositasiga solinadigan soliq, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish yig'imi, ayrim turdagi faoliyat bilan shug'ullanish huquqi uchun yig'im va auktsionda sotishdan olinadigan yig'implar mahalliy soliq va yig'implarni tashkil qiladi.

Qozog'iston soliq tizimini asosiy tarkibini qo'shilgan qiymat solig'i tashkil qiladi. QQS hisoblashni umumiy tartibi sharbiy Evropa mamlakatlaridan olingan. Soliq ob'ekti va soliq bazasi Rossiyadagi kabi aniqlanadi. QQS to'lovchilar hamma huquqiy shaxslar, shu jumladan, Qozog'iston rezidenti bo'lmagan, lekin faoliyatini doimiy muassasa orqali olib boradigan va tadbirkorlik faoliyatini huquqiy shaxs etib rasmiylashtirmasdan olib boradigan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Huquqiy shaxslarni bo'linmalari Qozog'iston Respublikasi davlat daromadlari Vazirligi ruxsati bilan mustaqil ravishda QQSni to'lashlari mumkin. Soliq to'lovchilarga soliq o'rnini qoplash muhim ahamiyatga ega. Qozog'istonda olingan material boyliklar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlardan, ularni olishda haqiqatda haq to'lanishidan qat'iy nazar QQS chiqarib tashlanadi. Soliq bazasini aniqlashda ham o'ziga xos xususiyati ham mavjud. Masalan, soliq bazasiga aktsiz olinadigan tovarlar bo'yicha aktsiz summasi qo'shilmaydi. Bundan tashqari import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasiga faqat tovarlarni boj qiymati va transport vositasi kiradi. Bu soliqlarni bir marta olish printsipiga to'g'ri keladi.

Asosiy soliq stavkasi QQS bo'yicha 20%, soliq solinadigan oborotdan pasaytirilgan, 10% stavka asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, tirik mol va parrandaga, bolalar oziq-ovqati, diabet ovqatlarga maxsus ro'yxat bo'yicha

omuxta emlarga qo'llaniladi. Bundan tashqari 0%li stavka bilan eksportga chiqariladigan tovarlar, xalqaro yo'lovchilarni, hayvonlarni, tovarlarni, bagaj va pochta olib yurish soliqqa tortiladi. Rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan tekstil, tikuvchilik, teri -oyoq kiyim sanoati mahsulotlarini respublika hududlarida sotganda ham 0%li stavka qo'llanadi. Bu tadbir ham ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi. Birinchi savdoda affinirlashtirilgan qimmatbaho metallarni (oltin, platina) sotilganda ham 0%li stavka qo'llanadi. 0% stavkani qo'llash 2ta imtiyozni anglatadi: bir tomondan sotiladigan tovarlar soliqdan ozod qilinadi va boshqa tomondan ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan material resurslarini, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarga taalluqli QQS chiqarib tashalanadi.

Huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilari Qozog'iston Respublikasi Milliy bankidan tashqari hamma huquqiy shaxslar va jismoniy shaxslar, shu jumladan, norezident huquqiy shaxslar, horijiy davlatlarni fuqarolari va fuqarolik olmagan shaxslar hisoblanadi. Soliq solinadigan ob'ekt soliq solinadigan daromad hisoblanib, uni yillik daromad yig'indisidan belgilangan chiqarishlarni ayrib tashlagandan keyin aniqlanadi. Soliq to'lovchi - rezidentni jami daromadi yig'indisi Qozog'istonda va undan tashqarida olingan daromatlarda va norezidentlarniki - Qozog'iston chegarasida olingan daromatlardan tashkil topadi. Jami yig'ilgan daromad (tushum tushuniladi) quyidagilardan tashkil topadi:

- tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar;
- ish haqi sifatida va pensiya to'lovi shaklida olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslarni mol-mulk daromadi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar quyidagilar:

a) mahsulot, ish, xizmatni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan, jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va boshqa operatsiyalardan olingan yoki olishga mo'ljallangan hamma pul yoki boshqa mablag'lar, shu jumladan o'zaro hisob-kitob tariqasida uchinchi shaxsga berilgan yoki to'g'ri va egri harajatlarni qoplash uchun yo'naltirilgan mablag'lar kiradi;

b) imorat va inshootlar, amortizatsiya hisoblanmaydigan aktivlarni sotish orqali ularning o'sishidan olingan daromadlar (ularni qiymatini inflyatsiyani hisobga olgan holda aniqlash bilan);

v) sotishdan tashqari bo'lgan operatsiyalardan olingan daromadlar - dividendlar, foizlar orqali olingan daromadlar, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan pul mablag'lari va mol-mulk, huquqiy shaxslarga byudjetdan

tashqari berilgan subsidiyalar, mulkni arendaga berishdan olingan daromad, tadbirkorlik faoliyatini chegaralash yoki korxonani yopish haqida rozichilik berishdan olingan daromadlar, qarzlarni chiqarib tashlash orqali olingan daromadlar, kompensatsiya qilinadigan chiqarishlar va boshqalar.

Mehnatga haq to'lash yo'li bilan olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarni yollanib ishlashdan olingan hamma daromadlari, xizmat, tovarlarni sotib olish bahosi va tannarxi orasidagi farq, xodimni foydasi uchun ish beruvchi tomonidan qarz majburiyatini chiqarish, ish beruvchi tomonidan hayot va sog'liqni sug'urta qilish vzosini to'lash va xodimni to'g'ri va egri daromadini tashkil qiluvchi ish beruvchini boshqa xarajatlari.

Jismoniy shaxslarni mol-mulk daromadiga quyidagi aktivlarni qiymatini inflyatsiyaga muvofiqlashtirish orqali sotishdagi o'sishlari: soliq to'lovchini doimiy yashash joyi bo'lmagan joydagi ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'ozlar va boshqa nomoddiy aktivlar, xorijiy valyutalar, zargar buyumlar, san'at asarlari va antikvariatlar. Soliq solish maqsadida yillik daromad yig'indisini boshqa asosiy farq qiladigan stavkalar bilan olinadigan daromadlarga muvofiqlashtiriladi. Masalan, qimmatbaho qog'ozlarni sotish qiymatini o'sishi, huquqiy shaxs-rezidentni faoliyatida qatnashish natijasida jismoniy shaxs tomonidan olingan daromad (inflyatsiyani hisobga olgan holda) 15% stavka bilan soliqqa tortiladi. Undan tashqari huquqiy va jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatidan olgan ijobiy kurslar farqi summasi chiqarib tashlanadi.

Huquqiy va jismoniy shaxslarni yillik daromadlari yig'indisidan, uni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, shu jumladan, ish xaqi to'lash, xodimlarga moddiy va ijtimoiy yordam berish, davlat sotsial sug'urta fondiga ajratma davlat bandlik fondiga, ma'muriy-maishiy sug'urta fondiga ajratmalar, pensiya to'lash davlat markaziga, to'planadigan pensiya fondi, yo'l fondiga ajratmalar chiqarib tashlanadi. Chegiriladi: xo'jalik shartnomasi bo'yicha shtraflar, penya, tadbirkorlik faoliyatida 3 yildan ortiq ishlatilgan imoratlarni sotishdan olingan zararlar, huquqiy shaxs tomonidan soha ob'ektlarini xarajatlari bilan bog'liq zararlar.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan zararlarni kelgusi davr umumiy yillik daromadidan qoplash uchun 5 yil keyinga suriladi. Bundan tashqari jismoniy shaxslarga 1 oyda o'zi uchun va har bir qaromog'idagi shaxsga 1 ta eng kam ish haqi hajmida chegirma beriladi. Bunda qaramog'idagi odamlardan faqat 1tasi soliq chegirmasidan foydalanishi mumkin. Daromad solig'i bo'yicha qator imtiyozlar berilgan va ular asosan ijtimoiy

yo'nalish xarakteriga ega. Soliqdan qator huquqiy shaxslarni, shu jumladan, Qozog'istonda nogironlarning ixtiyoriy jamiyati, Qozog'iston ko'rlar jamiyati, aqliy va jismoniy rivojlanishi zaif bolalar va o'spirinlarni ijtimoiy o'rgatish va mehnat bilan qayta tiklash markazi, DOSAAF markaziy qo'mitasi, hamda bu jamiyatlarni mulki bo'lmish ishlab chiqarish tashkilotlari, Qozog'istondagi Afg'oniston urushi veteranlari tashkiloti (o'rtada faoliyat ko'rsatib olgan daromadidan tashqari) daromadlari ozod qilinadi. Ishlab chiqarish tashkilotlarini umumiy yillik daromadlari umumiy xodimlari tarkibida nogironlar eng kamida 30%ni tashkil qilsa, soliq solish maqsadida nogironlar mehnatiga to'langan haq xarajat summasi nogironlarga tegishli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, davlat bandlik fondiga ajratmalar 2 barobar kamaytiriladi. Daromad solig'iga jismoniy shaxslarni quyidagi daromadlari tortilmaydi: davlat nafaqasi, stipendiya, nafaqa shu jumladan kasallik varaqasi bo'yicha to'lovlar; bolalar va qaramog'idagilarga beriladigan alimentlar, hadya va meros sifatida beriladigan mulklar qiymati, hamda gumanitar va byudjetdan moddiy yordamlar.

Soliq solinadigan huquqiy shaxsni daromadi 30%li stavka bilan soliqqa tortiladi. Bundan, yer- asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan huquqiy shaxslar mustasnodir. Ular soliqni 10% stavka bilan yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanib olgan daromadidan to'laydi. Foizlar, dividendlar, huquqiy va jismoniy shaxslarga berilganda manbaida 15%li stavka bilan olinadi va keyin soliqqa tortilmaydi. Norezidentlarni Qozog'istondagi doimiy muassasalari bilan bog'liq bo'lmagan manbalardan olgan daromadlarni manbaida soliqqa quyidagi stavkalar bilan tortiladi:

- dividendlar va foizlar - 15%;

- sug'urta va tavakkalni qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'lovlari, Qozog'iston bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi telekommunikatsiya, xalqaro aloqalar, transport xizmat - 5%;

- royaltlar, xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar, boshqarish bo'yicha xizmatni va maslahat xizmatini qo'shgan holda, arendadan olingan daromad va boshqa daromadlar - 20%.

Jismoniy shaxslarni umumiy daromadlari tabaqalashtirilgan stavka bilan daromad hajmiga qarab maxsus jadval asosida olinadi.

Aktsiz nafaqat Qozog'istonning hududida ishlab chiqarilgan tovarlardan, balki import qilinadigan tovarlar va o'yin bizneslaridan ham olinadi. Aktsiz olinadigan tovarlar ro'yxati ichki ishlab chiqaruvchilar va import tovarlar uchun bir xil. Aniq stavkalar respublika hukumati

tomonidan tasdiqlanadi. Bunda maxsus (qat'iy belgilangan) va advaler (foizli) stavkalar qo'llanadi. Bundan tashqari mamlakat ichida ishlab chiqariladigan va chetdan olib kelinadigan tovarlarga har xil stavkalar ham qo'llaniladi. Masalan, likyor-arq mahsulotlariga 70 tanga va 1,7 evro har bir litr uchun olinadi. Keyingi foydalanish maqsadiga qarab spirtni hamma turlari bo'yicha stavka tabaqalashtiriladi.

Soliq solinadigan ob'ektlar quyidagilar:

- o'zining va berilgan (daval xom-ashyosi) xom-ashyodan tayyorlangan tovarlarni - aktsiz qo'shilmagan baholash yo'li bilan belgilangan qiymati yoki natura holatida tayyor mahsulot hajmi;

- aktsiz olinadigan tovarni ishlab chiqaruvchi, natura to'lov shaklida qiymati to'lanmagan va tovar almashish operatsiyalarida - o'zi ishlab chiqargan tovarni qiymati (aktsizsiz) yoki natura holatida mahsulot hajmi;

- import qilinadigan aktsiz olinadigan tovarlar - respublika boj qonunchiligi asosida belgilangan boj qiymati yoki natura mahsulot hajmi;

- o'yin biznesi bo'yicha - o'yin biznesidan olingan tushum.

Agar aktsiz olinadigan mahsulot, Qozog'iston hududida aktsiz olingan xom-ashyodan tayyorlansa, sotilgan mahsulot bo'yicha hisoblangan aktsizdan, xom-ashyo bo'yicha to'langan aktsiz summasi chiqarib tashlanadi.

To'lash muhlati aktsiz olinadigan tovarlarni turlariga bog'liq. Bunda soliq to'lovchi sotish vaqtini mustaqil hisobga olish va kassa uslublarida belgilaydi. Aroq mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg'isi bo'yicha aktsizlar byudjetga tovar sotilgandan keyin 10 kundan kechikmagan tarzda to'laydilar. Boshqa aktsiz olinadigan tovarlar bo'yicha aktsiz byudjetiga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- oyni birinchi 10 kunligida sotilgan tovarlar bo'yicha;

- hisobot oyining 13 kunidan kechikmagan tartibda;

- oyni ikkinchi 10 kunligida sotilgan tovarlar bo'yicha;

- hisobot oyining 23 kunidan kechinmagan tartibda;

- oyni qolgan kunlarida sotilgan tovarlar bo'yicha;

- hisobot oyining kelgusi oyni 3 kunidan kechiktirmay.

Bu soliq bo'yicha qator imtiyozlar belgilangan - konfiskatsiya qilingan, egasiz boyliklar, davlatga meros sifatida o'tgan tovarlar, gumanitar yordam va muhtojlarga yordam, diplomatik xizmatga keltirilgan tovarlar ozod qilinadi. Eksport qilinadigan aktsiz olinadigan tovarlar haqiqiy eksport qilinganligi tasdiqlanganda ozod bo'ladi. Ayrim xalqaro shartnomalarda aktsiz bahosiga qo'shilgan tovarlarni berish bilan o'zaro hisob-kitob ko'rilgan bo'lishi mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish asosiy kontrakt turlariga qarab 2ta modelga bo'linadi. Birinchi model foydalanuvchilar hamma turdagi soliqlarni va Qozog'iston qonunchiligida ko'rilgan majburiy to'lovlarni to'lashi hisobga olingan. Ikkinchi model yer ostidan foydalanganliklari uchun mahsulotni bo'lishda Qozog'iston Respublikasini ulushini berib, yana quyidagi soliq va majburiy to'lovlarni beradi: huquqiy shaxsdan olinadigan daromad solig'i, chet el huquqiy shaxsini, doimiy muassasani daromadi, QQS, bonuslar, royalti, huquqiy shaxslarni davlat ro'yxatiga olish, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanganlik uchun huquqiy yig'imi va boshqa majburiy to'lovlar. Birinchi modelda hamma turdagi shartnomalarga (mahsulotni bo'lishdan tashqari shartnomalar) belgilanadi. Mahsulotni taqsimlash bilan bog'liq shartnomalarga ikkinchi model soliq rejimi qo'llanadi. Qozog'iston Respublikasini ulushi mahsulotni bo'lish shartnomasi asosida olinib, respublika va mahalliy byudjetlarga belgilangan hajmda yo'naltiriladi. Maxsus to'lovlar va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bonus (kavlab olish), royalti, yuqori foydaga solinadigan soliqlarni o'z tarkibiga oladi. Hamma turdagi bonuslar va royalti daromad solig'i va yuqori foydaga solinadigan soliqlar bo'yicha soliq solinadigan daromadlarni aniqlashda chiqarib tashlanadi.

Soliq tizimini takomillashtirish Qozog'iston iqtisodini islohot qilish yo'llaridan biri hisoblanadi. Fiskal organlarni faoliyatini takomillashtirish dasturlarida yangi soliq kodeksini kiritish, byudjetga daromadlarni kelib tushishini bashorat qilish va hisobga olish metodologiyasini rivojlantirish, maxsus soliq rejimlari metodologiyasini takomillashtirib, kichik biznes va qishloq ishlab chiqaruvchilariga yaxshi sharoit yaratish, soliq auditini samaradorligini oshirish, soliqni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish nazarda tutilgan.

16.5. Ozarbayjon Respublikasi soliq tizimi

Ozarbayjon Respublikasining hukumati 1995 yili iqtisodiy islohotlar dasturini qabul qildi. Dasturga binoan 2-3 yil mobaynida byudjet defitsitini kamaytiridigan chegaralangan monetar siyosatni, soliq stavkalarini pasaytirish, davlat xarajatlarini qisqartirish, pul emissiyasini kamaytirish, kredit bo'yicha fond stavkasini ko'tarish kerak edi. Iqtisodiy islohot chegarasida 2001 yili 1 yanvardan Ozarbayjon Respublikasini soliq kodeksi qabul qilindi. Kodeks soliq solishni umumiy printsiplarini, soliqlarni to'lash va yo'naltirish tartiblari, soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining huquq va majburiyatlari, soliq nazorati shakli va

uslublari, soliq qonunchiligini buzganda javobgarlik va boshqalarni aks ettiradi. Kodeksda Naxichevan avtonom respublikasi va munitsipalitetlarda soliq solishni umumiy printsiplari, soliq turlari berilgan.

Ozarbayjon Respublikasining soliq kodeksiga binoan davlat soliqlari, avtonom respublika soliqlari va mahalliy (munitsipalitet) soliqlari belgilanadi va to'lanadi. Davlat soliqlari soliq kodeksida belgilangan va Ozarbayjon Respublikasini hamma hududlarida majburiy to'lanadigan soliqlar hisoblanadi. Avtonom respublika soliqlariga Ozarbayjon soliq kodeksi asosida belgilangan, Naxichevan avtonom respublikasi qonunlarida ko'rsatilgan va Naxichevan avtonom respublika hududlarida to'lanadigan soliqlar kiradi. Mahalliy soliqlarga (munitsipal soliqlarga) soliq kodeksi asosida munitsipalitetlar qarori asosida belgilangan va munitsipalitetlarni hamma hududlarida to'lanadigan soliq va to'lovlar kiradi.

Davlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- huquqiy shaxslarni foydasiga solinadigan soliq (munitsipalitet mulkiga tegishli korxonalar va tashkilotlardan tashqari);
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsizlar;
- huquqiy shaxslarni mulkiga solinadigan soliq;
- huquqiy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- yo'l solig'i;
- hunarmandchilik solig'i.

Avtonom respublika soliqlariga Naxichevan avtonom respublikasi hududida olinadigan hamma davlat soliqlari kiradi (yo'l solig'idan tashqari).

Mahalliy (munitsipal) soliqlar:

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- jismoniy shaxslarni mulkiga solinadigan soliq;
- mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish materiallariga solinadigan hunarmandchilik solig'i;
- munitsipal mulkga qarashli korxonalar va tashkilotlarni foydasiga solinadigan soliq;
- soddalashtirilgan tizimda olinadigan soliq.

(Ozarbayjon Respublikasi soliq Kodeksining XVII bobi).

Davlat soliqlari stavkalarini chegara hajmi Ozarbayjon Respublikasi soliq kodeksida belgilanadi. Har yili qo'llaniladigan davlat soliqlarini

stavkalari «Ozarbayjon Respublikasini davlat byudjet»i qonunini qabul qilishda qaytadan ko'rilishi mumkin. Lekin soliq kodeksida ko'rsatilgan hajmdan ortiq bo'lishi kerak emas. Ozarbayjon Respublikasida maxsus soliq olish tartibi o'rnatilishi mumkin. Ushbu hujjatda maxsus soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi o'rnatiladi. Lekin bunda soliq kodeksida ko'rilmagan soliqlar o'rnatilmaydi.

Davlat byudjeti daromadini tashkil topishida asosiy o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i (24-28%), jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq (15-15%), huquqiy shaxslarni foydasiga solinadigan soliq (12-14%) va aktsizlar (10-12%) egallaydi. Hunarmandchilik solig'i ham sezilarli darajada yuqori o'rinni egallaydi (10%). Soliqlar davlat byudjetining 87-88% daromadini tashkil qiladi va shuning uchun ular muhim ahamiyatga ega.

Foydaga solinadigan soliq. Soliq to'lovchilar rezident va nerezident korxonalar hisoblanadi. Rezident korxonalar uchun soliq solinadigan ob'ekt uning foydasi hisoblanadi. Nerezident korxonalar Ozarbayjon Respublikasida o'zining doimiy vakolatxonalarini orqali faoliyat olib borsalar, shu hududdan olgan foyda yalpi daromaddan olinadi. Yalpi daromaddan soliq olishda shu daromadni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar chiqarib tashlanadi. Soliqdan muhtojlarga yordam beruvchi tashkilotlarni daromadi (tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromaddan tashqari), qaytib berilmaydigan pul o'tqazishlar, a'zolik ajratmalar, tijorat ahamiyatiga ega bo'lmagan tashkilotlarga berilgan ehson, xalqaro, davlatlararo va hukumatlararo tashkilotlarni daromadlari (tadbirkorlik faolitetidan olgan daromaddan tashqari), davlat hokimiyati organlarining daromadlari, byudjet tashkiloti va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari daromadlari (tadbirkorlikdan olingan daromaddan tashqari), Ozarbayjon Milliy Bankini daromadi va olingan sug'urta to'lovlari. Agar, bu korxonalar ijtimoiy tashkilotlarga qarashli bo'lsa yoki xodimlarni eng kamida 50% nogironlar bo'lsa ishlab chiqarish korxonalarini foydasiga belgilangan stavka 50%ga kamaytiriladi. Imtiyozni olish uchun xodimlarni o'rtacha ro'yxat soniga o'rindoshlik sifatida ishlayotgan nogironlar, pudrat va boshqa shartnomalar bilan ishlayotgan nogironlar kirmaydi.

Soliq solinadigan summasini aniqlashda ishlab chiqarish kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishga sarflangan foyda, shu maqsadda olingan kreditni qaytarish uchun ajratilgan foydalar chiqarib tashlanadi.

Huquqiy shaxslar, alohida tadbirkorlar soliqni kvartal tugagandan keyin 15 kundan kechiktirmay to'laydilar. Munitsipalitetlar mulki hisoblangan korxonalar mahalliy byudjetga davromad solig'i to'laydilar.

1997 yilgacha foydaga solinadigan soliq stavkasi 35% bo'lib sekin-asta pasaytirilib kelib, 2000 yili - 27,0% qilib belgilandi.

Qo'shilgan qiymat solig'i. QQS Ozarbayjon Respublikasi hududlarida tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish jarayonida qiymatni o'sgan qismini bir bo'lagi va Ozarbayjon Respublikasiga keltirilayotgan soliq solinadigan tovarlar qiymatini 1 qismi sifatida byudjetga to'lanadi. QQS to'lovchilar ro'yxatga olingan shaxs yoki ro'yxatga soliq to'lovchi sifatida turishga majbur shaxs hisoblanadi. Ro'yhatga olingan shaxs, ro'yxatga olish vaqtidan (oldidan) soliq to'lovchi hisoblanadilar. Ro'yxatga turishi shart bo'lgan shaxs ro'yxatga turish uchun ariza berish majburiyati yuzaga kelgan davrdan keyingi hisobot davrini boshidan soliq to'lovchi hisoblanadi. Bundan tashqari hamma soliq solinadigan tovarlarni import qiluvchi shaxslar, shu tovarlar bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadilar.

Soliq ob'ekti soliq olinadigan operatsiyalarda soliq solinadigan importda qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Soliq solinadigan operatsiyalar tovarlarni chetdan Ozarbayjon Respublikasiga jo'natish hisoblanadi. Ozarbayjon Respublikasidan tashqarida bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat, soliq solinadigan operatsiya hisoblanmaydi. Tovarlarni etkazib berish, ishni bajarish va xizmat ko'rsatish soliq to'lovchi tomonidan o'zining xodimlariga to'lash asosida yoki bepul bajarilsa va barter operatsiyalari soliq solinadigan operatsiya hisoblanadi.

QQSni to'lashdan quyidagi keltirilayotgan tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar ozod qilinadi:

- davlat korxonalarini mulkini xususiy lashtirib, sotib olingandagi qiymati, hamda davlat korxonalarini mulkini arenda qilganda byudjetga to'lanadigan arenda to'lovini bir qismi;

- moliyaviy xizmat ko'rsatish (moliyaviy lizingni qo'shib);

- milliy va chet el valyutalarini (numizmatsiya qilinadigan valyutalardan tashqari) va qimmatbaho qog'ozlarni etkazib berish va import qilish;

- milliy bankni aktivida joylashtirish uchun import qilingan oltinlar va valyuta boyliklarini keltirish, chet elda tayyorlangan Ozarbayjon Respublikasining pul belgilari, yubiley tangalari va shunga o'xshash boyliklari;

- korxonani ustav fondi (kapital)ga qo'yiladigan har qanday mablag'lar;

■ bojlar, viza uchun to'lovlar, davlat organlari va o'z-o'zini boshqarish organlari olgan yig'imlar va shu yig'imlarni tashkil qilish uchun qilingan xizmat summalari;

■ tovarlarni sotib olish, ishni bajarish va xizmat ko'rsatish va ularni import qilish, xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar hukumati va chet el huquqiy va jismoniy shaxslar ajratgan kreditlar hisobiga amalga oshirilgan bo'lsa;

■ umumiy informatsiya, nashriyot, poligrafiya faoliyati bilan bog'liq mahsulotlarni sotish va olish bo'yicha aylanmalar;

■ dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari va boshqalar.

Ba'zi tovarlarni sotish, ish, xizmatlar QQSga 0%li stavka bilan tortiladi. QQS 0% stavka bilan quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

■ chet mamlakatlarni diplomatik va boshqa vakolatxonalarini uchun tovarlar sotish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish;

■ chet eldan qaytarilmas moliyaviy yordam hisobiga tovarlar olish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish (grantlar);

■ tovarlarni eksport qilish, xalqaro yuk va passajirlarni tashish uchun transport xizmati ko'rsatish va yoqilg'i, moylash materiallari berish;

■ Ozarbayjon Respublikasi Milliy Bankiga oltin va boshqa boyliklar keltirish.

QQSni boshlang'ich stavkasi 28%li bo'lgan va 2001 yili 18%ga tushirilgan.

Aktsizlar. Aktsiz solinadigan tovarlarga quyidagilar kiradi: oziq-ovqat spirti, xamirturush, pivo, spirtli ichimliklarni hamma turi, chekish mahsulotlari va neft mahsulotlari. Soliq stavkasi Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Aktsiz solig'ini to'lovchilar aktsiz olinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi hamma korxonalar va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ozarbayjon Respublikasining rezidentlari, respublikadan tashqarida tovar ishlab chiqarsalar va u yerda soliq to'lovchi sifatida hisobda turmasalar soliq to'lovchi hisoblanadilar. Agar Ozarbayjon hududida buyurtmachi xom-ashyosidan tovar ishlab chiqarsa (pudratchi) soliq to'lovchi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchi (pudratchi), buyurtmachidan aktsiz summasini talab qilishi kerak. Soliq solinadigan ob'ekt quyidagi operatsiyalardan iborat: Ozarbayjon Respublikasi hududida aktsiz solinadigan tovarlarni ishlab chiqarish importidan tashqariga chiqarish va aktsiz solinadigan tovarlarni bojxona xizmati nazoratidan chiqishi. Aktsiz solinadigan tovarlarni eksport qilish 0% stavka bilan soliqqa tortiladi.

Aktsiz solig'idan quyidagilar ozod qilinadi: jismoniy shaxslar o'zining iste'mol qilishi uchun 3 litrgacha alkogolli ichimliklar va 3ta sigaret bloklari olib kelganda va Ozarbayjon Respublikasi hududiga kirib kelayotgan chet ellikni avtomobili bakidagi benzini va Ozarbayjon hududidan olib o'tib ketilayotgan tovarlar, reeksportga mo'ljallangan tovarlar, agar ular garovga qo'yilganda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i. Daromad solig'ini to'lovchilar shaxslar - rezidentlar va shaxslar - norezidentlar hisoblanadi. Soliq solinadigan ob'ekt rezidentlar daromadlar bo'yicha umumiy daromadi bilan soliq yili chegirma qilib olib tashlanidigan soliq kodeksida belgilangan xarajatlar o'rtasidagi farq hisoblanadi. Soliq to'lovchi - norezident, o'zining doimiy vakolatxonasi orqali Ozarbayjon Respublikasida olib borayotgan faoliyati bo'yicha, uning doimiy vakolatxonasi bilan bog'liq bo'lgan soliq solinadigan daromadidan daromad solig'i to'laydi. Soliq solinadigan daromad umumiy daromadlar summasidan, uni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Jismoniy shaxs- norezident o'z faoliyati natijasida oladigan daromadi, sotishdan, mulkni arendaga berishdan olgan daromadlari summasini yig'indisidan, Ozarbayjon Respublikasi hududida soliq kodeksida ko'rsatilgan xarajatlarni amalga oshirgan bo'lsa, ularni chiqarib tashlash yo'li bilan soliq solinadigan aniqlanadi.

16.3.-jadval

Ozarbayjon Respublikasida jismoniy shaxslar bir oylik daromadidan soliqqa tortish tartibi

Bir oylik soliqqa solinadigan daromad hajmi	Soliq summasi
100 000 manatgacha	soliq olinmaydi
100 001 dan 600 000 manatgacha	100 000 dan ortiqcha summasidan 12%.
600 001 dan 1,4 mln. manatgacha	60 000 manatdan 20%, 600 000 manatdan ortiqcha summadan.
1 400 001 dan 3 mln. manatgacha	220 000 manatdan 25%, 1,4 mln.ortiqcha summadan.
3 000 001dan 5 mln. manatgacha	620 000 dan 30%, 3 mln.dan ortiqcha summadan.
5 mln. manatdan yuqori	1 220 000 manatdan 35%, 5mln.dan ortiqcha summadan.

Daromad solig'i bo'yicha qator imtiyozlar berish, undan jismoniy shaxslarni ozod qilish keng miqyosda qo'llanadi.

Mol-mulk solig'i. Soliq to'lovchilar joriy yilning 1 yanvariga mulkka va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun korxonasi bor rezident va norezidentlar hisoblanadi. Soliq solinadigan ob'ekt, jismoniy shaxsni xususiy mulkini qiymati va ularga tegishli avtomobillar, o'ziyurar g'ildirakli texnikalar, suv va havo transport vositalari (ularni qaerdaligidan qat'iy nazar), ularni ishlayotgani va ishlamayotgani ham hisobga olinmaydi. Bundan tashqari huquqiy shaxs tuzmagan korxonalarni balasidagi asosiy vositalarini qiymati, va birgalikda huquqiy shaxs tuzmasdan faoliyat olib boruvchi korxonalar mulki ularning deklaratsiyasida ko'rsatilib, soliq ob'ekti hisoblanadi.

Birgalikda ishlab, yangi olingan asosiy vositalar qiymati har bir qatnashuvini pay to'lovlari salmog'i hajmida ularning deklaratsiyasida ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini quyidagi tartibda belgilangan stavkalar bilan to'laydi: ularning mulki hisoblangan importni inventarizatsiya qiymati 1 oylik soliq olinmaydigan ish haqining 300 martadan ortmasa soliq to'lanmaydi. Agar qiymati 300 martadan ortiq bo'lsa, ortiqcha summasi 0,1% stavka bilan soliqqa tortiladi. Havo va suv transportlari quyidagi soliqqa tortiladi: suv transportini dvigatelini hajmini har bir kub. sm. uchun 0,02% oylik soliq solinmaydigan ish haqi hajmida va havo transporti dvigatelini hajmini har bir kub.sm. uchun 0,02 oylik soliq solinmaydigan ish haqi hajmida olinadi. Dvigateli bo'lmagan havo va suv transportlari bozor qiymatidan 1% soliq olinadi. Korxonalar asosiy vositalarni qiymatidan 1% stavka bilan mol-mulk solig'ini to'laydilar. Jismoniy shaxslar va korxonalar engil avtotransport uchun 0,01% va yuk tashuvchi hamda avtobuslar uchun 0,02% bir oylik soliq solinmaydigan ish haqi hajmida to'laydilar. Belgilangan stavkalar asosiy vositalarni o'rtacha yillik qoldiq qiymatlariga qo'llanadi.

Mol-mulk solig'idan davlat organlari, byudjet tashkilotlari va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari ozod qilingan. Bu guruh ozod qilinganlarga Ozarbayjon Respublikasi Milliy Banki, davlat fondlari va depozitlarni jamoa organlari ham kiradi. Ijodiy ustaxonalarni imorati yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, misgar, kulol va boshqa shunga o'xshash mutaxassislik bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslar egallagan imoratlari qiymatidan bu soliqni to'lamaydilar.

Soliq olish uchun hisoblangan korxonani mol-mulking qiymatidan ekologiya xizmati, yong'in xavfsizligi yoki fuqarolar mudofaasi, temir yo'llar, yirik avtomobil yo'llari, aloqa va elektroenergiya liniyalari qiymati chiqarib tashlanadi. Shu tartibda ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va

sport ob'ektlari o'zining yo'nalishi bo'yicha foydalanilsa, sug'orish va meliorativ tizimi avtotransport vositalari va boshqalar qiymati ham chiqarib tashlanadi. Shaharlarda yo'lovchilarni tashishga ajratilgan trolleybus va tramvaylar ham mol-mulk solig'idan ozod qilingan. Imoratlar bo'yicha soliq, ularning Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlangan inventar qiymati asosida hisoblanadi. Joriy yilgi soliq summasi 15 avgust va 15 noyabrlarda baravar bo'lakka bo'linib to'lanadi.

Yer solig'i. Yer solig'i har yili bir xil to'lov sifatida yer uchastkasini hajmiga qarab to'lanadi. Yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni xo'jalik faoliyatini natijasi hisobga olinmaydi.

Jismoniy shaxslar - rezidentlar va norezidentlar hamda korxonalar - rezidentlar va norezidentlar yer uchastkasiga egalik qilish yoki foydalanish huquqini beruvchi hujjatni olgandan keyin 1 oy ichida hisobga turishlari kerak. Jismoniy shaxslar va munitsipalitet korxonalar - munitsipalitetlarda, qolgan boshqa korxonalar soliq organlarida ro'yxatga o'tishlari kerak.

Yer solig'i to'lovchilari yer uchastkasiga ega bo'lgan yoki foydalanishga ruxsat olgan rezident va norezident jismoniy shaxslar, hamda rezident korxonalar, ularning filiallari, Ozarbayjon Respublikasida o'zining doimiy vakolatxonasi orqali tadbirkorlik faoliyati olib borayotgan norezidentlar hisoblanadi.

Soliqqa solinadigan ob'ekt Ozarbayjon Respublikasi hududida egalik qilish yoki foydalanish uchun olingan yer uchastkasi hisoblanadi.

Yer solig'ini stavkasi qishloq xo'jalik yerlari bo'yicha xar bir shartli ball uchun 1 oylik soliq solinmaydigan daromadni 0,3% hajmida belgilangan. Shartli ballar kerakli bajaruvchi davlat organi tomonidan kadastrli baholash hududlari bo'yicha, shu jumladan ularga kiruvchi ma'muriy tumanlar bo'yicha, ularning qaysi maqsadga belgilanganligi, geografik joylashuvi, qishloq xo'jalik yerlari sifatida qarab belgilanadi.

Sanoat, qurilish, transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va maxsus maqsadga belgilangan yer uchastkalari bo'yicha soliq stavkasi 1 oylik soliq olinmaydigan daromaddan foiz hisobida quyidagicha belgilangan:

Yer solig'i quyidagilarga nisbatan solinmaydi: aholi yashaydigan punktlarni yeri, davlat hokimiyati, byudjet tashkilotlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga qarashli yoki ular foydalanayotgan yerlar, Milliy Bankka qarashli yerlar, davlat o'rmon va suv fondiga tegishli yerlar (ishlab chiqarishga jalb qilinmagan), Kaspiy dengizi (ko'llar) sektori ostidagi yerlar, davlat chegara chizig'i, mudofaaga mo'ljallangan yerlar.

Sanoat, qurilish, transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat, maxsus maqsadga belgilangan yer uchastkalari	Uy-joy fondiga qarashli yer uchastkalari, tomorqa yerlari, qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan yerlar, fuqaro va ularning dala hovlilari
Boku	
0,3	0,025
Ganja, Sumgait	
0,15	0,02
Naxichevan, Sheki, Evlax, Lankyaran, Xonkeldi, Mingachevir, Aleybayram, Naftalan	
0,15	0,012
Tuman markazlari	
0,125	0,01
Tumanlarga qarashli shahar, poselka, qishloqlarda (Boku, Sumgait, Mingachevir poselka qishloqlaridan tashqari)	
0,06	0,005

Yer solig'i yerga mulk egasi huquqi yoki undan foydalanish huquqi berilgan hujjatlar asosida o'rnatiladi. Yer solig'i imorat va inshootlar qurilgan yerlar va ob'ektlarni sanitar mudofaa qilish uchun ajratilgan yerlardan olinadi.

Korxonalar xar yili yer uchastkasini hajmiga va soliq stavkasi asosida yer solig'ini hisoblaydi va 15 maydan kechiktirmay soliq organlariga topshiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i kerakli organlar tomonidan 1 iyulgacha hisoblanadi va 1 avgustdan kechiktirilmay to'lash to'g'risida xabarnoma beradilar. Yer solig'i 15 avgust 15 noyabrdan kechiktirmay baravar hajmda byudjetga to'lanadi.

Yo'l solig'i. Ozarbayjon Respublikasining avtonomiyasi yo'llaridan foydalanganligi uchun yo'l solig'ini to'lovchilar korxonalar - norezidentlar va jismoniy shaxslar - norezidentlar hisoblanadi. Ular Ozarbayjon Respublikasi hududlariga avtotransport egasi bo'lib yuk va passajirlarni tashish uchun kirib keladilar. Soliq solinadigan ob'ekt Ozarbayjon Respublikasi hududlariga kirib keladigan xorijiy davlatlarni avtomobil transporti hisoblanadi. Xorijiy davlatlarni avtomobil transporti Ozarbayjon Respublikasi hududlariga kirib kelganligi uchun soliqni hisoblashda quyidagilar hisobga olinadi: avtotransport vositasini turlari o'tiradigan joyni miqdori, yuk ko'tarish quvvati, yuk bilan avtotransportni umumiy og'irligi, avtomobil o'qiga tushadigan yuk og'irligi, Ozarbayjon Respublikasi hududida bosib o'tilgan yo'lining yig'indisi, xavfli yuklarni olib o'tish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi stavkalar belgilangan:

- engil avtomobillar uchun 15 doll.
- avtobuslar 1 kun o'tirish uchun o'tirish joyi miqdori:
 - a) 1dan 12 gacha o'tiradigan joy bo'lsa - 30 doll.
 - b) 13 dan 30 gacha - 60 doll.
 - v) 31 va undan yuqori -100 doll.

Yuk tashuvchi avtomobillar, pritsep, yarim pritsepli - avtotransport vositalari uchun ularning yuk ko'tarish quvvatiga qarab 1-kuni:

- a) 1 dan 10 t.gacha yuk ko'taradigan -100 doll.
- b) 11 dan 24 t.gacha -120 doll.
- v) 24 t.dan yuqori -180 doll.

Og'ir yuk tashiydigan avtotransport vositasida yuk tashilsa, avtomobil o'qiga tushadigan og'irlik me'yoridan ortiqcha bo'lsa, xavfli yuk tashilsa va Ozarbayjon Respublikasida qancha muhlat bo'lishini hisobga olib, stavka oshiriladi. Chet mamlakatlarni avtomobil transportlari Ozarbayjon Respublikasi boj hududiga kirishi bilan bojxona organlari yo'l solig'ini olib, bankni 1 kunlik kuni davomida byudjetga o'tkazadi.

Hunarmandchilik solig'i. Hunarmandchilik solig'i yer osti boyliklarini Ozarbayjon Respublikasi hududida va unga qarashli Kaspiy dengizi sektorida qazib olganligi uchun to'lanadi. Hunarmandchilik solig'i yer ostidan kerakli boyliklarni qazib olgan quyidagi shaxslar to'lovchilar hisoblanadi: rezident va norezident jismoniy shaxslar, rezident-korxonalar, ularning mustaqil balans va joriy hisob raqami bor filiallari, norezident-korxonalar Ozarbayjon Respublikasida o'zlarining doimiy vakolatxonalari yordamida tadbirkorlik faoliyati olib borish davrida.

Soliq ob'ekti Ozarbayjon Respublikasi hududlarida (Kaspiy dengizini Ozarbayjon Respublikasiga tegishli sektorini qo'shgan holda) qazib olingan yer osti boyliklari hisoblanadi.

Yer osti boyliklarini turlariga qarab, hunarmandchilik solig'ini quyidagi stavkalari belgilangan.

Hunarmandchilik solig'iga tortiladigan yer osti boyliklarini nomi (turi)	Hunarmandchilik solig'i stavkasi (%)
Xom neft	26
Tabiiy gaz	20
Qora metallar	4
Qimmatbaho metallar (oltin, kumush)	8
Bezatish toshlari (mramor, tuff, gabbro)	8
Tosh tuzi	5
Mineral suvlar va h.k.	8

Hunarmandchilik solig'ini, yer osti boyliklarini ulgurji bahosiga yuqoridagi stavkalarni qo'llash yo'li bilan aniqlanadi. Soliq summasi, yer osti boyliklari qazib olingan oydan, keyingi oyni 20 kunigacha to'lanishi kerak. Hunarmandchilik solig'i (mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish materiallaridan tashqari) respublika byudjetiga tushadi. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish materiallari bo'yicha hunarmandchilik solig'i mahalliy (munitsipalitet) byudjetiga tushadi.

Soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliq. Soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliq to'lovchilar QQS to'lovchisi sifatida ro'yhatga olinmagan korxonalar to'laydilar. Bularga aktsiz tovarlari ishlab chiqaruvchi, kredit va sug'urta organlari, investitsion fondlar va qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi kasbiy qatnashuvchilar kirmaydi.

Soliqqa solinadigan ob'ekt hisobot davrida soliq to'lovchi tomonidan tovarlarni (ish, xizmat) va mulkni topshirish va sotish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatdan umumiy daromad hisoblanadi.

Soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliq to'laydigan korxonalar QQS, daromad solig'i, yer solig'i va mol-mulk soliqlarini to'lamaydilar. Soddalashtirilgan tizim bo'yicha to'lanadigan soliqni stavkasi soliq to'lovchilar tovarlarni sotish, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatdan (tushumni umumiy hajmidan) olingan daromaddan 2% hajmda to'laydilar. Hisobot davrida soddalashtirilgan tizim bo'yicha to'lanadigan soliq summasi soliq stavkasini hisobot davridagi tushum hajmiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Soddalashtirilgan tizim bo'yicha to'lanadigan soliqni hisobot davri kvartal hisoblanadi.

Davlat boji. Bojni adliyaga da'vo arizasi berilganda, notarial operatsiyalarni amalga oshirganda, fuqarolik holatini ro'yxatga olinganda, chet elga chiqishni rasmiylashtirilganda, shaxsiy hujjat olinganda, fuqarolikka qabul qilish va chiqarishda, ovchilik qilishga ruxsatnoma berish, huquqiy shaxslarni ro'yxatga va qayta ro'yxatga olish, mehnat faoliyati bilan yakka holda shug'ullanish uchun litsenziya olish, qimmatbaho qog'ozlarni prospektini emissiyasini ro'yxatga olish jarayonlarida olinadi. Boj stavkasi Ozarbayjon Respublikasi hukumatinin maxsus qarori bilan tadbiiq qilinadi. Bojlarni ayrim turlari bo'yicha imtiyozlar beriladi. Masalan, ish haqini to'lash va ishga joylashtirish bo'yicha da'vo arizasi berilsa, moddiy ko'rilgan zararni qoplash bo'yicha da'vo qilinsa va h.k. ko'rsatilgan bojlardan tashqari respublika hududlarida 1 martalik boj olinadi. Bir martalik boj qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa tovarlar bozorlarda, yarmarka va boshqa joylarda sotilganda olinadi.

Bir martalik bojlar naqd pul olib, to'lovchiga kvitantsiya berish bilan amalga oshiriladi. Bojni stavkasi respublika hukumati qarori bilan belgilanadi. Hamma bojlarni stavkasi daromad solig'i solinmaydigan 1 oylik ish haqini hajmiga nisbatan belgilanadi.

Ijtimoiy sug'urtaga solinadigan soliq. Ozarbayjon Respublikasida davlat pensiya fondi harakatda bo'lib, uning mablag'i pensiya va boshqa davlat nafaqalarini to'lash uchun sarflanadi. Bundan tashqari pensiya fondidan ayrim guruh aholiga nafaqa va o'rmini to'ldirish mablag'lari beriladi. Fondning mablag'i ijtimoiy sug'urta solig'i va byudjeti to'g'ridan to'g'ri ajratiladigan transfert hisobiga tashkil topadi. 1993 yilgacha ijtimoiy sug'urtaga solinadigan soliqni stavkasi ish haqi foizidan 40%, 1998 yildan 35%, 2000 yildan 33% va 2001 yildan 30%ni tashkil qildi.

Ozarbayjon Respublikasini soliq kodeksi yaqin yillarda qabul qilinishiga qaramay, uni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Iqtisodiy va tarkibiy islohotlarni respublikada o'tkazish boshlang'ich davrini boshidan kechirmoqda. Islohotlar o'tkazishda soliq tizimini samaradorligini oshirish alohida vazifa sifatida davlat oldida turibdi va bu yo'nalishlarda kelajakda qator ishlar amalga oshiriladi.

Asosiy tayanch iboralar:

- Soliq tizimlarini uyg'unlashtirish (moslashtirish)
- Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston bojxona ittifoqi (EvroOsiyo iqtisodiy hamkorligi)
- Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston birlashgan Markaziy Osiyo iqtisodiy birlashmasi
- Xizmat uchun yig'imlar
- Qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash respublika fondiga ajratma
- Ayrim faoliyatlar sohasida olingan daromadga solinadigan soliq (o'yinlar biznesi va h.k)

Takrorlash uchun savollar:

1. Mustaqil hamdo'stlik davlatlarda olinadigan asosiy soliqlarni ko'rsating
2. Mustaqil hamdo'stlik davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoda qo'shilgan qiymat solig'i qaysi printsip asosida olinadi?
3. Mustaqil hamdo'stlik davlatlar miqyosida tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarishi uchun qanday choralar ko'riladi?
4. To'lov manbalari bo'yicha Belorusiyada soliqlar tasnifini keltiring

5. Belorussiya soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini qanday ahamiyati bor?
6. Qozog'istonda qanday soliqlar olinadi?
7. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi qanday aniqlanadi?
8. Daromadlarning umumiy yig'indisi qanday aniqlanadi?
9. Daromad solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar berilgan?
10. Huquqiy va jismoniy shaxslardan daromad solig'i olinganda qo'llaniladigan stavkalarni keltiring
11. Qozog'istonda aktsizlarni qo'llash xususiyatlarini keltiring
12. Ukraina mahalliy soliqlari tavsifini bering
13. Ukrainada qanday maqsadli byudjet va byudjetdan tashqari fondlar tuzilgan?
14. Ukrainada yo'l fondini tashkil topish manbalarini ko'rsating
15. Ozarbayjon Respublikasini soliq tizimi tarkibini yoriting
16. Ozarbayjon Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari turkumini keltiring
17. Foydaga solinadigan soliqni hisoblash xususiyatini aytib bering
18. Soliqni soddalashtirilgan tizimini yoriting

Test savollari:

1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida asosan qaysi soliqlar kiritildi?
 - a) Sotishga solinadigan soliq, reklama solig'i, daromad solig'i, aktsizlar, it egalariga solinadigan soliq.
 - b) Mol-mulk solig'i, yer solig'i, aktsizlar, xunarmandchilik solig'i, kurort yig'imi, ekologiya solig'i.
 - c) Foyda (daromad) ga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, yer solig'i.
 - d) Qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, avtotransport egalaridan olinadigan soliq.
 - e) Hamma javoblar noto'g'ri.
2. Foydaga solinadigan soliqni rezidentlar tomonidan qaysi mamlakatda to'lanadi?
 - a) Rossiya
 - b) Ukraina
 - c) Belorussiya
 - d) Qirg'iziston

e) Qozog'iston

3. Mol-mulkka solinadigan soliq qaysi mamlakatda olinmaydi?

a) Qirg'iziston

b) Qozog'iston

c) Ozarbayjon

d) Tojikiston

e) Ukraina

4. Belorussiyada byudjetni $\frac{1}{4}$ daromadi qaysi to'lovlardan kelib tushadi?

a) Foydaga solinadigan soliq

b) Daromad solig'i

c) Favqulodda soliq

d) Qo'shilgan qiymat solig'i

e) Aktsiz solig'i

5. Belorussiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini nechta bosqich va stavkalari mavjud?

a) 2

b) 3

c) 4

d) 5

e) 6

6. Belorussiyada horijiy davlatlar fuqorolari va fuqarolik xuquqi yo'q shaxslar – norezidentlar qaysi stavka bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'laydilar (foiz hisobida) ?

a) 9

b) 15

c) 20

d) 25

e) 30

7. Belorussiyada qaysi soliq ishlab chiqarish va muomila harajatlari hisobiga to'lanadi?

a) Foydaga solinadigan soliq

b) Qo'shilgan qiymat solig'i

c) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq

d) Transport yig'imi

e) Ekologiya solig'i

8. Ukrainada suvdan foydalanganlik uchun to'lov me'yoriga foydalanish yo'nalishlariga qarab qaysi guruh koeffitsientlari qo'llanadi?

a) 0,3; 0,4; 0,6; 0,5

- b) 0,7; 0,6; 0,4; 0,3
- c) 0,1; 0,2; 0,5; 0,8
- d) 0,5; 0,6; 0,3; 0,8
- e) 0,4; 0,7; 0,8; 0,5

9. Ukrainada avtomobil yo'llari harakati uchun qaysi ajratma va yig'imlar olinadi?

- a) Mablag'ni korxonalar va tashkilotlar tomonidan ajratish
- b) Yoqilg'i va moylash materiallari sotishdan, olingan yig'im
- c) Avtomobil transporti ekspluatatsiya qilishdan olingan daromaddan ajratma, transport va boshqa o'ziyurar mashinalar egasidan olinadigan soliq

d) Ukraina avtomobil yo'llaridan o'tganligi uchun yig'im

s) a, b, c, d

10. Qozog'iston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'ini qaysi guruh stavkalari qo'llanadi(foiz hisobida)?

a) 10,15,25

b) 5,10,30

c) 10,16,18

d) 0,10,20

e) Hammasi noto'g'ri

11. Qozog'istonda quyidagi tovarlarga aktsiz solig'i solinadimi yoki yo'qmi?

a) Konfiskatsiya qilingan egasiz boyliklar

b) Davlatga meros sifatida o'tgan tovarlar

c) Gumanitar yordam va muxtojlar yordam

d) Diplomatik xizmatlarga keltirilgan tovarlar

e) a,b,c,d

12. Ozarbayjonda davlat soliqlariga qaysi guruh soliqlar kiradi?

a) Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, huquqiy shaxslardan olinadigan yer solig'i, soddalashtirilgan tizimda olinadigan soliq

b) Qo'shilgan qiymat solig'i, munitsipal mulkka qarashli korxonalar foydasiga solinadigan soliq

c) Jismoniy shaxslar mulkiga solinadigan soliq, maxalliy ahamiyatga ega qurilish materiallariga solinadigan soliq, hunarmandchilikka solinadigan soliq

d) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, huquqiy shaxslar foydasiga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, huquqiy shaxslardan olinadigan yer solig'i, yo'l solig'i, hunarmandchilik solig'i

e) Hamma javoblar to'g'ri

13. Ozarbayjon Respublikasi byudjetining daromad qismida eng katta salmoqqa ega bo'lgan soliqni ko'rsating.

- a) Huquqiy shaxslar foydasiga solinadigan soliq
- b) Aktsizlar
- c) Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq
- d) Qo'shilgan qiymat solig'i
- e) Hunarmandchilik solig'i

14. Qaysi holatlarda qo'shilgan qiymat solig'i olinadi?

- a) Chet mamlakatlarni diplomatik vakolatxonalariga tovarlar sotish
- b) Chet eldan qaytarilmas moliyaviy yordam hisobiga tovarlar olish (grant)
- c) Tovarlarni eksport qilish, xalqaro yuk va passajirlarni tashish
- d) Ozarbayjon milliy bankiga oltin va boshqa boyliklar keltirish
- e) Chet eldan oziq-ovqat mahsulotlari keltirish

15. Horijiy davlatlarni engil avtomobillari Ozarbayjon hududiga kirib kelganda qaysi stavkada soliq to'lanadi?

- a) 15 dollar
- b) 30, 60, 100 dollar
- c) 100, 120, 180 dollar
- d) Hammasi qo'llanadi (a,b,c)
- e) Hammasi qo'llanmaydi.

IZOHLI LUG'AT

Avuar (avuire) – soliq avuari, soliq krediti (firmalarga soliq to'laydigan kompaniyalar tomonidan taqsimlanadigan dividendlarni oladigan kompaniya yoki biror bir jismoniy shaxsga ochiladigan kredit)

Advalor soliq (Ad valorem tax) – “ Ad valorem” lotinchada “qiymatidan” degan ma'noni anglatadi , ya'ni mahsulotning yoki kelishuvlarning qiymatidan qat'iy foizli stavkada undiriladigan soliq to'lovlari

Affidevid (lot. Il affirma –“u tasdiqladi”,ya'ni 3-shaxs) – soliq deklaratsiyasi, Frantsiyada to'lanishi sharti bilan chipta asosida daromadlarni ikki yoqlama soliqqa tortishdan qochish maqsadida chet elda qasamyod ostida istiqomat qilayotgan horij qimmatbaho qog'ozlari egalariga beriladi

Baholi diskriminatsiya (Price discrimination) – bir turdagi mahsulotni har-xil narxlarda ishlab chiqaruvchi tomonidan turli iste'molchilarga sotilishi

Baholash koeffitsienti (assessment ratio) –mol-mulkni real qiymatiga bo'lingan baholash qiymat

Votalanish (votinizated) – mamlakat faoliyatini mamlakat parlamenti tomonidan ma'qullanishi (soliq qonunlarini ko'rib chiqilishi jarayonida qo'llaniladi)

Davlat tashqi qarzi – davlat tomonidan horijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan davlat majburiyatlarining yig'indisi

Individual nafaqa hisob raqami (individual retirement account IRA) – yiliga 2000 \$dan kam bo'lmagan depozitli minimal summaga ega bo'lib, AQShda soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish imkoniyatidan foydalangan holda ishchi o'z shaxsiy nafaqa hisob raqamiga ega bo'lishi mumkin.

Kapitalni o'sishi(kamayishi) (capital gain (loss)) – kompaniya yoki jismoniy shaxsga taa'luqli aktivlar qiymatining o'sish yoki kamayishi

Neytral soliqlar (Marriage neutral) – rag'batlantirishda suskashtlikka yo'l qo'yilgan davrda faoliyat samaradorligi pasayishiga ta'sir etmaydigan soliqlar. M: jon boshidan soliq va akkord solig'i

Offshor kompaniyalari (offshore companies) – soliq rejimi mo'tadil bo'lgan mamlakatlarda rasmiylashtirilgan kompaniyalar bo'lib, odatda asosiy iqtisodiy faoliyatini olib boradigan mamlakatida soliq stavkalari offshor zonalariga nisbatan yuqori bo'lishi tufayli tuziladi

Preferentsiya (preference) – bir guruh xo'jalik sub'ektlariga nisbatan soliq majburiyatlarini qismini ma'lum bir ko'rsatilgan vaqt davomida

maxsus soliq tartibiga (rejimiga) tortilishi imkoniyatini yoki imtiyozini berilishi

Restriksion fiskal siyosat (Restriction fiscal politics) – bir davrni o'zida harajatlarni qisqartirish, soliqlarni oshirish vositasida yalpi talab darajasini pasaytirishga qaratilgan hukumat siyosati

Royalti – bu intellektual mulklardan kelgan daromadlardir. Intellektual mulklarga yangilik yaratilganligi to'g'risidagi patent, litsenziya, tovar belgisi va boshqalar kiradi

Soliqlarni indeksatsiyasi (Tax indexing) - iste'mol mahsulotlari va xizmatlar bahosini o'sish indeksi sababli jismoniy shaxslar va huquqiy shaxslar daromad solig'ini bir necha elementlarini (soliqqa tortilmaydigan minimum, imtiyozlar, kamaytirilgan summalar) , ish haqini va boshqa shaxsiy daromadlar indeksini avtomatik o'zgarishi

Soliqlar multiplikatori (Tax multiplier) – sof milliy mahsulotning (rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladi) tenglashgan o'zgarishini soliq tushumlarini o'zgarishiga nisbati

Soliq federalizmi – federal markaz va federatsiyalar sub'ektlari o'rtasida byudjet daromadlarini barcha pog'onalarida soliq potentsiali, moliya-xo'jalik, ijtimoiy funktsiyalari va jamiyat ehtiyojlarini muqobil moslashishi hisobiga qabul qilingan teng huquqli qonuniy me'yor

Stagnatsiya (lot. Stagnum – turg'un holatdagi suv) – aksariyat uzoq davom etayotgan davr mobaynida xo'jalik faoliyatini turg'unligini tavsiflovchi iqtisodiyotni holati

Tantem (fr.tantieme) – foydani olinishida ishtirok etish. Ikki xil ko'rinishda amal qiladi: 1. Hissadorlik jamiyatlari, sanoat firmalari, banklar, sug'urta jamiyatlari va boshqalarni rahbar xodimlariva boshqaruv a'zolari, direktoriga sof foydadan foizlar ko'rinishida to'lanadigan qo'shimcha mukofot; 2. Sug'urtalashda qayta-qayta sug'urtalash imkoniyatidan foydalanilgan holda qaytadan sug'urtalash shartnomasida ko'rsatilgan qayta sug'urtalovchini rag'batlantirish shakli

O'rtacha qiymat(medium accounte) – bu asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha sotib olingan vositalarning hamda ishga tushirilmagan mulklar qiymatining yil boshi va oxiridagi summalarini yarmi, boshqa oylar boshidagi balans qiymatining to'liq summalarini yig'indisini 12ga bo'lish bilan aniqlanadigan qiymatdir. Bu qiymat choraklik va yil bo'yicha aniqlanadi.

Hududiy multiplikator (Regional multiplier) – avtonom harajatlarning tarkibiy biror bir o'zgarishi natijasida hududda umumiy daromad yoki

bandlikni o'zgarishi istiqbollari aniqlash maqsadida qo'llaniladigan makroiqtisodiy multiplikatorning turi

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – umumlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkich, moliyaviy yil yoki muayyan davr davomida xalq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan milliy mansubligidan qat'iy nazar huquqiy va jismoniy shaxslarning mamlakat hududida ishlab chiqargan yakuniy mahsulot, xizmatlarini bozor qiymatini ja'mi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – umumlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkich, muayyan davrda mamlakatda ishlab chiqarilgan yakuniy mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) uslubiyati asosida xalqaro solishtirmalar maqsadida qo'llaniladi. YaMMning xususiyatlaridan biri – faoliyat yuritayotgan joyidan qat'iy nazar, aynan bir mamlakat iqtisodiyotini faqatgina milliy sub'ektlari xo'jalik faoliyati natijalarini qamrab olinishidir. Shu bois, bir tomondan, chet elda ishlatilgan uning iqtisodiy resurslari (ishlab chiqarish omillari)dan mamlakat hisobiga o'tgan daromadlar qo'shimcha hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, chet elga olib chiqilganva chet el resurslaridan foydalanishdan olingan analogik daromadlar hisobdan chiqarib tashlanadi. YaMMni ikkinchi xususiyati – moddiy ishlab chiqarish nomoddiy xizmatlarni ishlab chiqarish (ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, muhofaza va bosh.) natijalari YaMMga hisoblanadi. Uchinchi xususiyat – tayyor bo'lmagan mahsulotni qayta hisoblanishini bartaraf etish maqsadida YaMMda faqat yakuniy iste'mol uchun (qayta ishlash, qayta sotish uchun emas) sotib olinadigan yakuniy tayyor mahsulotlar hisobga olinadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат Солиқ хизмати тўғрисидаги» Қонуни. // Халқ сўзи, 29 август 1997 й.

1.2. Ўзбекистон Республикасининг «Бюджет тизими тўғрисида»ги Қонуни, 2000 йил 14 декабр. // Солиқлар ва божхона хабарлари. 2001 йил №2.

1.3. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ Кодекси.-Т.: Адолат, 2008 й.- 692 бет

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari

2.1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йил” Давлат дастури тўғрисида”ги 2011 йил 7 февралдаги 1474-сонли қарори

2.2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2011 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги 2010 йил 24 декабрдаги 1449-сонли қарори

2.3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2010 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги 2009 йил 22 декабрдаги 1245-сонли қарори

2.4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдим этиладиган ҳисобот тизимини такомиллаштириш ва уни ноқонуний талаб этганлик учун жавобгарликни кучайтириш тўғрисида»ги ПК – 100-сонли Қарори (2005 йил 15 июн).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

3.1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасининг 2005 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги 610-сонли Қарори (2004 йил 28 декабр).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4.1. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади: 2010 йилда мамалакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган ЎЗР Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2011. - 36 бет

4.2.Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир - Т.: Ўзбекистон, 2010. -80 б.

4.3.Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари – Т.: Ўзбекистон, 2009 йил 56 бет.

4.4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир.- Т.: «Ўзбекистон», 2005 й.

4.5. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ.- Т.: «Ўзбекистон», 2004 й.

5. Darsliklar

5.1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

5.1.1.Абдурахманов О. Ҳорижий мамлакатлар Солиқ тизими. «ТДИУ», 2003й.

5.1.2. Ваҳобов А., Жумаев Н., Бурханов У. Халқаро молия муносабатлари. – Т.: Шарқ, 2003 й.- 400 б.

5.1.3. Ваҳобов А., Жумаев Н., Бурханов У. Чет мамлакатлар молияси . – Т.: «Янги аср авлоди», 2003 й. – 330 б.

5.1.4. Яҳёев К. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. – Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003 й. – 247 б.

Rossiyada chop etilgan

5.2.1. Абдурахманов О. Налоговые системы зарубежных стран.М.: Палеотип, 2005.

5.2.2. Александров И. Налоговые системы зарубежных стран, М.: 2002 г.

5.2.3. Бобоев М., Мамбеталиев Н. и др. Налоговые системы зарубежных стран. М.: Гелиос, АРВ, 2005 г.

5.2.4. Карп М. Налоговый менеджмент. – М.: ЮНИТИ- ДАНА, 2001 г.

5.2.5. Князев В., Черник Д., Налоговые системы зарубежных стран. _М.: ЮНИТИ, 2003 г.

5.2.6. Международные финансы, М.: «Питер», 2004 г.

5.2.7. Мировая экономика. Экономика зарубежных стран. 4-е издание. М.: «Флинта», 2002 г.

5.2.8.Налоги. // Под общей ред. Н.Заяц, Т.Василевской.– Минск, БГЭУ, 2000г.

5.2.9.Налоги. Под ред. Черника Д. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004 г.

5.2.10. Налоги и налогообложение, Под ред М. Романовского, 4-е издание, С.-Пб, «Питер», 2003 г.

5.2.11. Налоговые системы зарубежных стран. 2-е издание, перераб. и доп., М.: 1997 г.

5.2.12. Пансков В., Князев В.. Налоги и налогообложение.- М.: МЦФЭР, 2003 г.

5.2.13. Финансы. Под ред. Дробозиной Л.-М.: ЮНИТИ, 2003 г.

6. O'quv qo'llanmalar

6.1. O'zbekistonda chop etilgan

6.1.1. Алимбоев С. ва бошқалар. Солиқлар./ Т., 2000 й.

6.1.2. Завалишина И. Солиқлар: назария ва амалиёт. «Иқтисодиёт ва ҳуқук дунёси» нашриёт уйи, 2003 й.

6.1.3. Зайналов Ж. Солиқлар ва Солиққа тортиш. –С.: Самарқанд кооператив институти, 2002 й.

6.1.4. Собиров Х. Ўзбекистоннинг давлат молияси тарихи. – Т.: «Таълим манбаи» жамияти, 2002 й.

6.1.5. Шамсутдинов Ф. и др. Налоговая система США, Т.: «Укитувчи», 1998 г.

6.1.6. Шамсутдинов Ф., Шамсутдинова Ш. Налоговая система Японии, Т., ТФИ, 2002 г.

6.1.7. Шамсутдинов Ф., Шамсутдинова Ш. Налоговая система России, Т., ТФИ, 2002 г.

6.1.10. Шамсутдинов Ф., Шамсутдинова Ш. Налоговая система Германии, Т., ТФИ, 2000 г.

6.2. Rossiyada chop etilgan

6.2.1. Брызгалин А. Налоги и налоговое право в схемах./ М.: 1997 г.

6.2.2. Горский И. Налоги в рыночной экономике, М.: 1998 г.

6.2.3. Дадалько В. Налогообложение в системе международных экономических отношений. М.: 2000 г.

6.2.4. Дернберг Р. Международное налогообложение. Пер. с англ. М.: 1997 г.

6.2.5. Евстигнеев А. Основы налогообложения и налогового права, С.-Пб., «Питер», 2000 г.

6.2.6. Козырин А. Налоговое право в зарубежных странах, М.: 1995 г.

6.2.7. Миляков Н. Налоги и налогообложение.- М.: Инфра-М, 2001 г.

6.2.8. Пушкарева В. История финансовой мысли и политики налогов.- М.: Финансы и статистика, 2003 г.

7. Ilmiy monografiyalar, maqolalar

7.1. O'zbekistonda chop etilgan

7.1.1. Абдурахмонов О. Солиқ сиёсати: дунё тажрибаси ва Ўзбекистон истиқболи. // Бозор, пул, кредит. – 2002 й. - №5.

7.1.2. Солиқ сиёсатини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари ва тамойиллари. // Солиқлар ва божхона хабарлари. – 2002 й. №48.

7.2. Rossiyada chop etilgan

7.2.1. Шамсутдинова Ш.- Налоги Республики Узбекистан. Сборник научных трудов. Финансовый рынок России: проблемы формирования и функционирования, С.-Пб, 2000 г.

7.2.2. Шамсутдинова Ш. - Методы государственного регулирования экономической деятельности субъектов микроэкономики в условиях рынка . М. Экономика и финансы, 2005 г. №18.

7.2.3. Шамсутдинов Ф.Ш., Шамсутдинова Ш.Ф. – Объективные условия этапов развития мирохозяйственных связей.:Инвестиции в народное образование Республики Узбекистан; «Социально-экономические закономерности развития мирохозяйственных связей в условиях усиления интеграционных процессов». Тезисы и доклады Международной научно-практической конференции (16-17 ноября 2006 г.) – М.: МГЭУ, 2006 г.

7.3. Qozoqistonda chop etilgan

7.3.1. Шамсутдинова Ш., Жунусалиев А. – Гармонизация налоговых отношений в условиях региональной интеграции.: Международная научно-теоретическая конференция «Проблемы формирования и развития конкурентноспособной экономики», посвященной 15-летию образования МКТУ им.Х.А.Яссави, Шымкент, 2006., 2 т.

8. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

8.1. Ҳайдаров Н.Ҳ., Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. Т.: ЎзР ДЖҚА, 2003 й.

9. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plami

O'zbekistonda chop etilgan

9.1. Шамсутдинова Ш., Солиқ органлари кадрларини тайёрлаш тизимидаги таълим жараёнига янги педагогик технологияларни жорий

этишнинг илмий асослари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2003 йил 10-12 ноябр. – Т.: Солиқ академияси, 2003 й.

9.2. Шамсутдинова Ш., Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида солиқ тизими ва суғурта фаолиятини такомиллаштириш йўллари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2004 йил 11-12 феврал). – Т.: ТМИ, 2004 й.

10. Gazeta va jurnallar

10.1. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси журнали. 2004-2006 йил сонлари.

10.2. Бозор, пул ва кредит журнали 2004-2006 йил сонлари.

10.3. Финансы. (Россия). 2004-2006 г.г.

10.4. Мировая экономика и международные отношения. (Россия), за 2004-2006 г.г.

11. Internet saytlari

11.1. [http:// www. nalog.ru](http://www.nalog.ru)

11.2. [http:// www. mf.uz.](http://www.mf.uz)

11.3. [http:// www. cer.uz.](http://www.cer.uz)

11.4. [http:// www. tfi. uz.](http://www.tfi.uz)

11.5. [http:// www. europages.com.](http://www.europages.com)

ILOVALAR

1-ilova

EIH mamlakatlarida Evro (EUR)ning kiritilishi va milliy valyutani almashinishi muddati* (2006 yil yanvar holatiga)

<i>Mamlakat</i>	<i>Pul birligi</i>	<i>Evro kiritilish muddati</i>	<i>Milliy valyutani almashinish muddati</i>
Avstriya	shilling/grosh	28.02.2002	Muddati chegaralanmagan
Belgiya	frank/santim	28.02.2002	Muddati chegaralanmagan
Germaniya	marka/pfenning	28.02.2002	Muddati chegaralanmagan
Gretsiya	draxma/lepta	28.02.2002	10 yil
Irlandiya	funt/pens	28.02.2002	Muddati
Ispaniya	peseta/sentimo	28.02.2002	chegaralanmagan
Italiya	lira/sentimo	28.02.2002	Muddati
Lyuksemburg	frank/santim	28.02.2002	chegaralanmagan
Niderlandiya	gulden/cent	28.01.2002	10 yil
Portugaliya	eskudo/centavo	28.02.2002	Muddati
Finlyandiya	marka/pens	28.02.2002	chegaralanmagan
Frantsiya	frank/cantim	17.02.2002	30 yil
			20 yil
			10 yil
			10 yil

**Evro(EUR) pul birligi amal qiladigan EIH mamlakatlarida
milliy pul birligi va Evroning kursi
(2006 yil yanvar holatiga)**

(EUR)	Milliy valyuta pul birligi	Milliy valyuta nomi
1 Evro (EUR)	13,7603	Avstriya shillingi
1 Evro (EUR)	40,3399	Belgiya franki
1 Evro (EUR)	340,750	Gretsiya draxmasi
1 Evro (EUR)	0,787564	Irlandiya funti
1 Evro (EUR)	166,386	Ispaniya peseti
1 Evro (EUR)	1936,27	Italiya lirasi
1 Evro (EUR)	40,3399	Lyuksemburg franki
1 Evro (EUR)	1,95583	Germaniya markasi
1 Evro (EUR)	2.20371	Niderlandiya guldeni
1 Evro (EUR)	200,482	Portugaliya eskudosi
1 Evro (EUR)	5,94573	Finlyandiya markasi
1 Evro (EUR)	6,55957	Frantsiya franki
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		
1 Evro (EUR)		

* www.euro-news.ru

**Soliqlarni to'lashdan bosh tortishni va ikkiyoqlama soliqqa
tortishni oldini olish haqidagi O'zbekiston Respublikasi hamda
horigiy davlatlararo kelishilgan Xalqaro shartnoma a'zolari ro'yhati***

Davlatlar	Shartnoma imzolangan muddat	Shartnoma amal qila boshlagan muddat
1. Avstriya	14.06.2000 y.	01.08.2001 y.
2. Belorussiya	22.12.1994 y.	11.01.1997 y.
3. Belgiya	14,11.1996 y.	08.07.1999 y.
4. Bolgariya	24.10.2003 y.	21.10.2004 y.
5. Vyetnam	28.03.1996 y.	16.08. 1996 y.
6. Germaniya	7.09.1999 y.	12.12.2001 y.
7. Gretsiya	1.04.1997 y.	15.01.1999 y.
8. Gruziya	28.05.1996 y.	20.10.1997 y.
9. Isroil	15.09.1998 y.	09.03.1999 y.
10. Indoneziya	27.08.1996 y.	11.11.1998 y.
11. Italiya	21.11.2000 y.	26.05.2004 y.
12. Qozog'iston	12.06.1996 y.	21.04.1997 y.
13. Canada	17.06.1999 y.	14.09.2000 y.
14. Koreya	2.02.1998 y.	25.12.1998 y.
15. Quvayt	19.01.2004 y.	03.05.2006 y.
16. Qirgiziston	24.12.1996 y.	17.03.2000 y.
17. Latviya	3.07.1998 y.	23.10.1998 y.
18. Litva	18.02.2002 y.	11.11.2002 y.
19. Lyuyksemburg	02.07.1997 y.	02.09.2000 y.
20. Malayziya	06.10.1997 y.	10.08.1999 y.
21. MAR	21.09.1999 y.	-
22. Moldova	30.03.1995 y.	28.11.1995 y.
23. Ozarbayjon	27.05.1996 y.	02.11.1996 y.
24. Niderlandiya	18.11.2001 y.	27.05.2002 y.
25. Pokiston	22.05.1995 y.	12.09.1996 y.
26. Polsha	11.01.1995 y.	29.04.1995 y.
27. Portugaliya	14.09.2001 y.	-
28. Rossiya Federatsiyasi	02.03.1994 y.	27.07.1995 y.
29. Ruminiya	06.06.1996 y.	17.10.1997 y.
30. Slovakiya	06.03.2003 y.	20.10.2003 y.
31. Tailand	23.04.1999 y.	21.07.1999 y.

32. Turkmaniston	16.01.1996 y.	27.11.1996 y.
33. Turkiya	8.05.1996 y.	30.09.1997 y.
34. Ukraina	10.11.1994 y.	13.07.1995 y.
35. Finlyandiya	09.04.1998 y.	07.02.1999 y.
36. Frantsiya	22.04.1996 y.	01.10.2003 y.
37. Chexiya	02.03.2000 y.	15.01.2001 y.
38. Shveytsariya	03.04.2002 y.	15.08.2003 y.
39. Hindiston	29.07.1993 y.	25.01.1994 y.
40. Eron	26.04.2002 y.	18.01.2005 y.
41. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya	15.10.1993 y.	10.06.1995 y.
42. Hitoy	3.07.1996 y.	03.07.1996 y.
43. Yaponiya	18.01.1996 y.	27.11.1996 y.

***O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Xalqaro soliq munosabatlari va hamkorligi bo'limi ma'lumoti (2006 yil avgust)**

4-ilova

Jahondagi yirik rivojlangan mamlakatlarda asosiy soliq turlarining stavkalari hajmini solishtirma ma'lumotlari (%)
2006 yil

Mamlakat	Daromadga soliq	Jismoniy shaxs daromad solig'i*	Ish beruvchilar ijtimoiy soliq	Ishchilardan ijtimoiy soliq	QQS
1. Frantsiya	35,4	58	45	15	19,6
2. Hitoy	35	45	-		17
3. AQSH	46	47	7,7	7,7	8,4
4. Rossiya	24	13	35,6		18
5. Germaniya	26,5	44	13	13	16

*jismoniy shaxslar daromadiga soliq stavkalarining maksimal foizlari ko'rsatilgan

5-ilova

Jahondagi yirik rivojlangan mamlakatlarda har bir kishiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YAIM), ming \$da**
2006 yil

Mamlakat	Har bir kishiga YAIM
1. Frantsiya Respublikasi	33,9
2. Hitoy Xalq Respublikasi	1,7
3. Amerika Qo'shma shtatlari	40,3
4. Rossiya Federatsiyasi	4,4
5. Germaniya Federativ Respublikasi	33,5

**Ma'lumotlar "Forbes", "Price Waterhouse Coopers" ma'lumotlari asosida keltirilgan

6-ilova

**Jahon mamlakatlarida fuqarolar daromadidan undiriladigan
soliqlar hajmi,
2006 yil**

Mamlakat	%*
1. Belgiya**	55,6
2. Vengriya	52,6
3. Germaniya	50,7
4. Svetsuya	48,6
5. Frantsiya	48,3
6. Italiya	46,2
7. Finlyandiya	45,9
8. Avstriya	44,7
9. Daniya	44,2
10. Turkiya	43,2
11. Chexiya	43,0
12. Polsha	42,9
13. Niderlandiya	42,3
14. Slovakiya	42,0
15. Ispaniya	37,9
16. Norvegiya	37,0
17. Gretsiya	36,0
18. Lyuksemburg	33,9
19. Portugaliya	32,5
20. Kanada	30,2
21. AQSH	30,0
22. Buyuk Britaniya	29,7
23. Shveysariya	29,5
24. Irlandiya	25,8
25. Islandiya	25,7
26. Yaponiya	24,2
27. Avstraliya	23,1
28. Yangi Zelandiya	19,6
29. Meksika	15,6
30. Rossiya	13
O'rtacha	34,04

* bu jadvalda fuqarolarning ortacha daromadidan olinadigan soliqlar va ijtimoiy ehtiyojlarga to'lovlar foizlarining ko'rsatkichi keltirilgan

****“RosBizhesKonsaltings”** ma'lumotlaridan foydalanildi

Turli davlatlarda coliq yukining darajasi

(yalpi ichki mahsulotga nisbatan foiz hisobida)

Daniya	49,5	Vetnam	23,2
Shvetsiya	48,9	Qirgiston	22,6
Frantsiya	45,0	Turkmanston	21,8
Italiya	43,3	Gruziya	21,6
Olmaniya	40,8	O'zbekiston	20,8
Vengriya	39,9	Kolumbiya	19,8
Buyuk Britaniya	37,9	Xindiston	18,8
Ispaniya	37,9	Ozarbayjon	18,4
Isroil	37,0	Xitoy	18,3
Ukraina	36,9	Tojikiston	17,8
Chexiya	36,9	Armaniston	16,5
Braziliya	35,3	Misr	15,3
Rossiya	34,6	Malayziya	14,8
Moldaviya	34,1	Singapur	14,3
Polsha	33,5	Paragvay	11,7
Kanada	33,3	Indoneziya	11,3
Estoniya	33,2	Madagaskar	10,9
Latviya	31,3	Siriya	10,8
Avstraliya	30,6	Efiopiya	10,3
Litva	30,2	Pokiston	10,2
Shvetsariya	29,7	Meksika	9,0
Janubiy Koreya	28,7	Jazoir	7,9
AQSH	28,3	Eron	6,1
Yaponiya	27,9	Saudiya Arabistoni	5,6
Belorusiya	27,5	Quvayt	3,1
Qozog'iston	26,7	Birlashgan Arab Amirligi	1,0
Janubiy Afrika Respublikasi	26,6		
Argentina	24,5		
Turkiya	23,7		

Manbai: <http://www.heritage.org/index/download.aspx>

Налоговые и таможенные вести №15-16 от 15 апреля 2010г.

M U N D A R I J A

Kirish

I bob. EVROPA IQTISODIY HAMKORLIGI (EIH) MAMLAKATLARIDA ASOSIY SOLIQLAR VA SOLIQ TIZIMI

- 1.1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni soliq tizimi
- 1.2. Iktisodiy rivojlangan etakchi davlatlarni soliq siyosati
- 1.3. Jahon iqtisodiyotida milliy soliq tizimlarini bir-biriga moslashishini kelajagi

II bob. FRANSIYA SOLIQ TIZIMI

- 2.1. Frantsiyani soliq tizimi asoslari
- 2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i
- 2.3. Jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i
- 2.4. Korxonalarga solinadigan soliqlar
- 2.5. Mahalliy soliqlar
- 2.6. Soliq tizimini boshqarish va soliq nazorati

III bob. BUYUK BRITANIYA SOLIQ TIZIMI.

- 3.1. Soliq tizimining asoslari
- 3.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- 3.3. Merosga solinadigan soliq
- 3.4. Kompaniyalarni soliqqa tortish
 - 3.4.1. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq
 - 3.4.2. Kapitalni o'sishiga solinadigan soliq
 - 3.4.3. Neftdan olinadigan daromadga solinadigan soliq
- 3.5. Qo'shilgan qiymat solig'i
- 3.6. Aktsizlar, bojlar
- 3.7. Gerb yig'imi
- 3.8. Mulk solig'i

IV bob. BELGIYA SOLIQ TIZIMI

- 4.1. Belgiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari
- 4.2. Korporatsiya foydasiga solinadigan soliq
- 4.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan davlat daromad solig'i
- 4.4. Qo'shilgan qiymat solig'i
- 4.5. Aktsizlar
- 4.6. Mulkdan olinadigan soliq

V bob. Italiya soliq tizimi

- 5.1. Italiya davlatida soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi
- 5.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- 5.3. Huquqiy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- 5.4. Mahalliy daromad solig'i
- 5.5. Meros va hadyadan olinadigan soliq
- 5.6. Qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq
- 5.7. Maxsus aktsizlar

5.8. Ish yuritish jarayonlaridan olinadigan soliqlar

VI bob. SHVETSIYANI SOLIQ TIZIMI

6.1. Soliq tizimini asoslari va xususiyatlari

6.2. Kompaniyalarni foydasiga solinadigan soliq

6.3. Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i

6.4. Qo'shilgan qiymat solig'i

6.5. Boshqa soliqlar

6.6. Soliq tizimi funktsiyalarini boshqarish (engilliklar va jarimalar)

VII bob. ISPANIYA SOLIQ TIZIMI

7.1. Soliq tizimini huquqiy asoslari va boshqarish organlari

7.2. Soliq tizimini tarkibi

7.3. Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i

7.4. Qo'shilgan qiymat solig'i

7.5. Korporatsiyaga solinadigan soliq

7.6. Mahalliy byudjetlarga tushadigan soliqlar

VIII bob. AQSH SOLIQ TIZIMI

8.1. Federativ va konfederativ soliq tizimi xususiyatlari

8.2. Amerika qo'shma shtatlari soliq tizimining asoslari

8.3. Federal soliqlar

8.3.1. Daromad solig'i

8.3.2. Ish haqidan olinadigan soliqlar

8.3.3. Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq

8.3.4. Boshqa soliqlar

8.4. Shtatlarning soliq tizimi

8.5. Mahalliy soliqlar

IX bob. KANADA SOLIQ TIZIMI

9.1. Kanadada soliq solish tizimi

9.2. Korporatsiyalarda daromad (foyda)ga solinadigan soliq

9.3. Sotishga solinadigan soliq

9.4. Aholiga solinadigan soliqlar

9.5. Kooperativlarga solinadigan soliqlar

9.6. Munitsipal organlarni soliq sohasidagi ishlari

9.7. Deklaratsiyani rasmiylashtirishni davlat tomonidan baholanishi, soliq organlari funktsiyalarini nazorat qilish va ular ustidan shikoyat qilish tartibi

9.8. Kanadani hududlarida soliqni boshqarish

X bob. SHVEYTSARIYA SOLIQ TIZIMI

10.1. Soliq tizimini huquqiy asoslari

10.2. Konfederatsiya soliqlari

10.2.1 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

10.2.2 Huquqiy shaxslarni foyda va kapitaliga solinadigan soliq

10.2.3 Manbaida olinadigan soliq

10.2.4 Gerb solig'i

10.2.5 Qo'shilgan qiymat solig'i

10.2.6 Bojxona bojlari

10.3. Kanton va munitsipal soliqlari

XI bob. GERMANIYA SOLIQ TIZIMI

11.1. Germaniyada soliqqa tortish va soliqlarni boshqarish asoslari

11.2. Germaniyada soliqlar tasnifi

11.3. Germaniyada soliq tizimi

11.3.1. Daromad solig'i

11.3.2. Hunarmandchilik solig'i

11.3.3. Yer solig'i

11.3.4. Korporatsiya solig'i

11.3.5. Kapitaldan olinadigan daromadga solinadigan soliq

11.3.6. Mol-mulk solig'i

11.3.7. Yer maydonlarini sotib olish solig'i

11.3.8. Qo'shilgan qiymat solig'i

11.3.9. Sug'urta faoliyati daromadlarini soliqqa tortish

11.4. Iste'mol soliqlari

11.5. Cherkov solig'i

11.6. Qishloq xo'jaligi sektorida soliq solish xususiyatlari

11.7. Fan - texnika taraqqiyotini rag'batlantirishga qaratilgan imtiyozlar

XII bob. YAPONIYA SOLIQ TIZIMI

12.1. Yaponiyada soliq solish asoslari

12.2. Soliq siyosati

12.3. Soliqlarning asosiy turlari

12.3.1. Daromad solig'i

12.3.2. Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq

12.3.3. Mol-mulk solig'i

12.3.4. Yer qiymatiga solinadigan soliq

12.3.5. Ist'emol solig'i

12.3.6. Aktsizlar va boshqa soliqlar

12.4. Soliq tizimini boshqarish

XIII bob. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

13.1. Xitoy xalq respublikasida soliqqa tortish sohasidagi tashkilotlarning vakolati va ularning vazifasi

13.2. Xitoy xalq respublikasida soliqlarning guruhlanishi

13.3. Aylanmadan olinadigan soliq

13.4. Foyda (daromad)larga solinadigan soliq

13.5. Resurs to'lovlari

13.6. Maqsadli soliqlar va yig'imlar

13.7. Mol-mulk solig'i

13.8. Operatsiya (harakatlar)ga solinadigan soliq

13.9. Bojxona boji

13.10. Davlat soliq solish ma'muriy organi

XIV bob. MISR ARAB RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

14.1. Misr Arab Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

- 14.2. Sotishdan olinadigan soliq
- 14.3. Xuquqiy shaxslar to'laydigan foydaga solinadigan soliq
- 14.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- 14.5. Mahalliy soliqlar va yig'imlar

XV bob. ROSSIYA FEDERATSIYASINI SOLIQ TIZIMI

- 15.1. Soliq tizimini asoslari
- 15.2. Federal soliqlar
 - 15.2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i
 - 15.2.2. Korxonani foydasiga solinadigan soliq
 - 15.2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
 - 15.2.4. Aktsizlar
 - 15.2.5. Bojxona boji
 - 15.2.6. Yo'l fondi soliqlari
 - 15.2.7. Meros va hadya qilish tartibida o'tadigan mulkka solinadigan soliq
 - 15.2.8. Davlat boji
 - 15.2.9. «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» va ular asosida tashkil topgan so'z va so'z birikmasi nomidan foydalanganlik uchun yig'im
- 15.3. Hududiy soliqlar
- 15.4. Xalq ta'limi muassasalarini ehtiyoji uchun olinadigan maqsadli soliq
- 15.5. Mahalliy soliqlar

XVI bob. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGIGA (MDH) A'ZO BO'LGAN DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI

- 16.1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlar soliq tizimi
- 16.2. Belorussiya Respublikasi soliq tizimi
- 16.3. Ukraina soliq tizimi
- 16.4. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi
- 16.5. Ozarbayjon Respublikasi soliq tizimi

Izohli lug'at

Adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

СОДЕРЖАНИЕ

Введение

- Глава I. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА И ОСНОВНЫЕ ВИДЫ НАЛОГОВ В СТРАНАХ ЕВРОПЕЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СООБЩЕСТВА**
- 1.1. Налоговая система экономически развитых стран
 - 1.2. Налоговая политика экономически развитых ведущих государств
 - 1.3. Перспективы гармонизации национальных налоговых систем в мировой экономике
- Глава II. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ФРАНЦИИ**
- 2.1. Основы налоговой системы Франции
 - 2.2. Налог на добавленную стоимость
 - 2.3. Подоходный налог
 - 2.4. Налоги предприятий
 - 2.5. Местные налоги
 - 2.6. Управление налоговой системой и налоговый контроль
- Глава III. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ВЕЛИКОБРИТАНИИ**
- 3.1. Основы налоговой системы
 - 3.2. Подоходный налог с физических лиц
 - 3.3. Налог на наследство
 - 3.4. Налогообложение компаний
 - 3.4.1. Налог на прибыль корпораций
 - 3.4.2. Налог на рост капитала
 - 3.4.3. Налог на доход от нефти
 - 3.5. Налог на добавленную стоимость
 - 3.6. Акцизы и пошлины
 - 3.7. Гербовый сбор
 - 3.8. Налог на имущество
- Глава IV. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА БЕЛЬГИИ**
- 4.1. Особенности налоговой системы Бельгии
 - 4.2. Налог на прибыль корпораций
 - 4.3. Государственный налог на доход физических лиц
 - 4.4. Налог на добавленную стоимость
 - 4.5. Акцизы
 - 4.6. Налог с имущества
- Глава V. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ИТАЛИИ**
- 5.1. Возникновение и развитие налогов в Италии
 - 5.2. Налог на доход физических лиц
 - 5.3. Налог на доход юридических лиц
 - 5.4. Местный подоходный налог
 - 5.5. Налог на наследство и дарения
 - 5.6. Налог на добавленную стоимость
 - 5.7. Специальные акцизы
 - 5.8. Налоги с проведения операций

Глава VI. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ШВЕЦИИ

- 6.1. Основы и особенности налоговой системы
- 6.2. Налог на прибыль компаний
- 6.3. Налог на доходы граждан
- 6.4. Налог на добавленную стоимость
- 6.5. Прочие налоги
- 6.6. Управление функциями налоговой системы (льготы и санкции)

Глава VII. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ИСПАНИИ

- 7.1. Правовые основы налоговой системы и органы управления
- 7.2. Структура налоговой системы
- 7.3. Налог на доход физических лиц
- 7.4. Налог на добавленную стоимость
- 7.5. Налог с корпораций
- 7.6. Налоги поступающие в местный бюджет

Глава VIII. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА США

- 8.1. Особенности федеративной и конфедеративной налоговых систем
- 8.2. Основы налоговой системы Соединенных Штатов Америки
- 8.3. Федеральные налоги
 - 8.3.1. Подоходный налог
 - 8.3.2. Налоги с заработной платы
 - 8.3.2. Налог на прибыль корпораций
 - 8.3.4. Прочие налоги
- 8.4. Налоговая система штатов
- 8.5. Местные налоги

Глава IX. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА КАНАДЫ

- 9.1. Система налогообложения в Канаде
- 9.2. Налог на доход(прибыль) корпораций
- 9.3. Налог с продаж
- 9.4. Налоги с населения
- 9.5. Налоги с кооперативов
- 9.6. Функции муниципальных органов в сфере налогообложения
- 9.7. Оценка государством оформления декларации, контроль функций налоговых органов и порядок обжалования их действий
- 9.8. Управление налогами в провинциях Канады

Глава X. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ШВЕЙЦАРИИ

- 10.1. Правовые основы налоговой системы
- 10.2. Налоги конфедерации
 - 10.2.1. Подоходный налог с физических лиц
 - 10.2.2. Налог на прибыль и капитал юридических лиц

- 10.2.3. Налог взимаемый у источника
- 10.2.4. Гербовый сбор
- 10.2.5. Налог на добавленную стоимость
- 10.2.6. Таможенные пошлины

10.3. Кантональные и муниципальные налоги

Глава XI. НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ В ГЕРМАНИИ

- 11.1. Налогообложение в Германии и основы управления налогами
- 11.2. Характеристика налогов в Германии
- 11.3. Налоговая система Германии
 - 11.3.1. Налог на доход
 - 11.3.2. Промысловый налог
 - 11.3.3. Налог на землю
 - 11.3.4. Корпорационный налог
 - 11.3.5. Налог на доход от капитала
 - 11.3.6. Имущественный налог
 - 11.3.7. Налог на покупку земельных участков
 - 11.3.8. Налог на добавленную стоимость
 - 11.3.9. Налогообложение доходов от страховой деятельности
- 11.4. Налоги на потребление
- 11.5. Церковный налог
- 11.6. Особенности налогообложения в сельском хозяйстве
- 11.7. Льготы по стимулированию научно-технического прогресса

Глава XII. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА ЯПОНИИ

- 12.1. Основы налогообложения Японии
- 12.2. Налоговая политика
- 12.3. Основные виды налогов
 - 12.3.1. Налог на доход
 - 12.3.2. Налог на прибыль корпораций
 - 12.3.3. Налог на имущество
 - 12.3.4. Налог на стоимость земли
 - 12.3.5. Потребительский налог
 - 12.3.6. Акцизы и прочие налоги
- 12.4. Управление налоговой системой

Глава XIII. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ

- 13.1. Классификация налогов в КНР
- 13.2. Налог с оборота.
- 13.3. Налог на прибыль(доход)
- 13.4. Ресурсные платежи
- 13.5. Целевые налоги и сборы
- 13.6. Налог на имущество
- 13.7. Налоги с операций
- 13.8. Таможенная пошлина

- 13.9. Государственный административный налоговый орган
- 13.10. Функции и обязанности налоговых организаций в КНР

Глава XIV. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА АРАБСКОЙ РЕСПУБЛИКИ ЕГИПЕТ

- 14.1. Особенности налоговой системы АРЕ
- 14.2. Налог с продаж
- 14.3. Налог на прибыль юридических лиц
- 14.4. Подоходный налог
- 14.5. Местные налоги и сборы

ГЛАВА XV. НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ

- 15.1. Основы налоговой системы Российской Федерации
- 15.2. Федеральные налоги
 - 15.2.1. Налог на добавленную стоимость
 - 15.2.2. Налог на прибыль предприятий
 - 15.2.3. Налог на доход физических лиц
 - 15.2.4. Акцизы
 - 15.2.5. Таможенная пошлина
 - 15.2.6. Налоги дорожного фонда
 - 15.2.7. Налог на имущество, переходящего в порядке наследования и дарения
 - 15.2.8. Государственная пошлина
 - 15.2.9. Сбор за использование слов и словосочетаний «Россия», «Российская Федерация»
- 15.3. Региональные налоги
- 15.4. Целевой налог для нужд учреждений народного образования
- 15.5. Местные налоги

Глава XVI. НАЛОГОВЫЕ СИСТЕМЫ СТРАН-ЧЛЕНОВ СОДРУЖЕСТВА НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ (СНГ)

- 16.1. Налоговые системы стран СНГ
- 16.2. Налоговая система Республики Беларусь
- 16.3. Налоговая система Украины
- 16.4. Налоговая система Республики Казахстан
- 16.5. Налоговая система Республики Азербайджан

Глоссарий

Список литературы

Приложения

CONTENTS

Introduction

Chapter I. TAX SISTEM AND BASE FORMS IN COUNTRIES OF EUROPEAN ECONOMIC COMMUNITY (EEC)

- 1.1. Tax sistem of economical developed countries
- 1.2. Tax policy of economical developed countries
- 1.3. Prospects of harmonization all national tax systems in the World

Chapter II. TAX SISTEM OF FRANCE

- 2.1. The foundations of french tax sistem
- 2.2. Tax on surplus value
- 2.3. Income tax from a phisical person
- 2.4. Tax from concern, business
- 2.5. Local tax
- 2.6. Tax control and management of tax sistem

Chapter III. TAX SISTEM IN GREAT BRITAIN

- 3.1. The foundations of british tax sistem
- 3.2. Income tax
- 3.3. Sucession duties, death duties
- 3.4. To impose a tax on concerns, bussinesses
 - 3.4.1. Excess profits tax on corporations
 - 3.4.2. Tax on increase of fund (capital)
 - 3.4.3. Tax on profitable from oil
- 3.5. Sur tax
- 3.6. Duties, excises
- 3.7. Stamp duty
- 3.8. Tax on property

Chapter IV. TAX SISTEM OF BELGIUM

- 4.1. Specialities in tax sistem of Belgium
- 4.2. Excess profits tax on corporations
- 4.3. Income tax
- 4.4. Sur tax
- 4.5. Excises
- 4.6. Tax on property

Chapter V. TAX SISTEM OF ITALY

- 5.1. Taxes rise and development in Italy
- 5.2. Income tax
- 5.3. Excess profits tax on corporations
- 5.4. Local tax on incom
- 5.5. Tax on sucession duties, death duties
- 5.6. Sur tax
- 5.7. Special excises
- 5.8. Taxes on conducting of operations

Chapter VI. TAX SISTEM OF SWEDEN

- 6.1. Foundations and special in tax sistem

- 6.2. Excess profits tax on corporations
- 6.3. Income tax
- 6.4. Sur tax
- 6.5. Other taxes
- 6.6. Tax control and management of tax sistem (tax rebate and tax sanctions)

Chapter VII. TAX SISTEM IN SPAIN

- 7.1. Legal bases and agencies of management
- 7.2. Structure of tax sistem
- 7.3. Income tax from phisical person
- 7.4. Sur tax
- 7.5. Tax from concerns, corporations
- 7.6. Local tax

Chapter VIII. TAX SISTEM IN USA

- 8.1. Specialities of tax systems in federations and confederations
- 8.2. The foundations of american tax sistem
- 8.3. Federal taxes
 - 8.3.1. Tax on profitable
 - 8.3.2. Tax on salary
 - 8.3.3. Excess profits tax on corporations
 - 8.3.4. Other taxes
- 8.4. Tax sistem of every state
- 8.5. Local tax

Chapter IX. TAX SISTEM IN CANADA

- 9.1. Tax sistem in Canada
- 9.2. Excess profits tax on corporations
- 9.3. Tax on sale
- 9.4. Taxes from phisical person
- 9.5. Tax on cooperative shops
- 9.6. Functions of municipal agencies of tax sistem.
- 9.7. Rate of state of filling of declaration, controle above fuctions of tax agencies and order in their appeal
- 9.8. Management by taxes in regions

Chapter X. TAX SISTEM OF SWITZERLAND

- 10.1. Legal bases in tax sistem
- 10.2. Tax confederations
 - 10.2.1. Incom tax
 - 10.2.2. Excess profits tax from corporations.
 - 10.2.3. Tax from the origin
 - 10.2.4. Stamp duty
 - 10.2.5. Sur tax
 - 10.2.6. Customs duty
- 10.3. Canton taxes and municipal taxes

Chapter XI. THE TAX SISTEM IN GERMANY

- 11.1. Foundations of the management and oress tax upon in

Germany

11.2. Description of taxes of Germany

11.3. Tax sistem in Germany

11.3.1. Incom tax

11.3.2. Marketable tax

11.3.3. Earthen tax

11.3.4. Tax on corporation

11.3.5. Tax on profitable

11.3.6. Tax on property

11.3.7. Tax on buing plot of land

11.3.8. Sur tax

11.3.9. Impose tax upon insurance

11.4. Tax on consptions

11.5. Tax on church

11.6. Specialities of tax upon agriculture

11.7. Benefits on stimulations of science progress

Chapter XII. TAX SISTEM IN JAPAN

12.1. The foundations of japanes tax sistem

12.2. Tax policy

12.3. Basic branches of taxes

12.3.1. Incom tax

12.3.2. Excess profits tax on corporations

12.3.3. Tax on property

12.3.4. Earthen taxes

12.3.5. Tax on consptions

12.3.6. Excises and other taxes

12.4. Tax sistem' management

Chapter XIII. TAX SISTEM OF CHINA

13.1. Classification of taxes in China

13.2. Tax on turnover

13.3. Excess profits tax

13.4. Resourse payments

13.5. Special purpose taxes and dutes

13.6. Tax on property

13.7. Taxes from any financial operations

13.8. Customs duty

13.9. State and administrative tax agency

13.10. Functions and authorities of tax agencies of China

Chapter XIV. TAX SISTEM IN EGYPT

14.1. Specialities of tax sistem of Egypt

14.2. Tax on sale

14.3. Excess profits tax on corporations

14.4. Incom tax

14.5. Local tax

Chapter XV. TAX SISTEM IN RUSSIA

- 15.1. Bases of tax system of Russia
- 15.2. Federal taxes
 - 15.2.1. Sur tax
 - 15.2.2. Excess profits tax on corporations
 - 15.2.3. Income tax
 - 15.2.4. Excises
 - 15.2.5. Customs duty
 - 15.2.6. Taxes for road fund
 - 15.2.7. Tax on property, transient according to inheritance and making a present
 - 15.2.8. State duty
 - 15.2.9. Duty for right in using of words and wordexpression (in their basic) “Russia” and “ Russian Federation”
- 15.3. Regional taxes
- 15.4. Special purpose tax for necessities of agencies of system of national education
- 15.5. Local taxes

Chapter XVI. TAX SYSTEM OF COUNTRIES- PARTICIPANT OF THE COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES

- 16.1. Tax system of the C.I.S.
- 16.2. Tax system of Belarus
- 16.3. Tax system of Ukraine
- 16.4. Tax system of Kazakhstan
- 16.5. Tax system of Azerbaijan

Explanatory dictionary of terms

List of the publications

Appendix